

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI
MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI KAFEDRASI

**HUQUQSHUNOSLIK. O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O'RGANISH**

FANIDAN O'QUV USLUBIY MAJMUA



TERMIZ - 2013



Konstitutsiya davlatning qiyofasi va nufuzini belgilab beradi. Ana shu qonunlar majmui orqali jahon davlatni davlat, millatni millat sifatida tan oladi. Konstitutsiya-xalq tafakkuri va ijodining mahsulidir.

I. A. Karimov

O'quv - uslubiy majmua universitet barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unga «Huquqshunoslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, ijtimoiy fanlardan biri hisoblangan «Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv darsi misolida pedagogik texnologiya qonuniyatlaridan foydalangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirilgan tajriba - sinov ta'lim texnologiyasi keltirilgan. Ushbu o'quv uslubiy majmua «Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» fanini o'qitish uchun barcha oliy o'quv yurti talabalariga, professor - o'qituvchilariga mo'ljallangan.

O'quv - uslubiy majmua zamonaviy pedtexnologiya talablariga mos ravishda tayyorlanib, unda o'quv maqsadlari, mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar, nazorat savollari, mustaqil ish topshiriqlari, test savollari, glossariylar, joriy, oralik, yakuniy nazorat savollari va variantlari keltirilgan. O'quv - uslubiy majmuaning mazkur qismidan 58 soatga mo'ljallangan 28 soatlik ma'ruzalar kursi va 30 soatlik seminar mashg'ulotlari o'rin olgan.

Tayyorlovchi: O'qituvchi M. A. Ro'ziyeva

Taqrizchi: Yuridik fanlari nomzodi. dotsent N. R. Mallayev

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**«HUQUQSHUNOSLIK. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASINI O'RGANISH»**

fanidan

MA'RUZA MATNLARI

TERMIZ – 2014

Taqrizchi: yu. f. n. dotsent. Mallayev.N. R.

Ma'ruzalar matnini yangi talablar asosida qayta tayyorladilar:
Ro'ziyeva M. A., Abduqayumova N. R., Majidov M. A.,
Xo'janazarov A. Z. – Milliy g'oya m'naviyat asoslari
va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchilari.

1 - Mavzu: **Davlat va huquq nazariyasi asoslari.**

Reja:

1. Davlat va huquq asoslarida davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar.
2. Davlat tushunchasi va uning belgilari.
3. Davlat shakllari, funksiyalari.
4. Huquq, uning belgilari va vazifalari.
5. Huquqiy davlat tushunchasi, uning belgilari.
6. Davlat xokimiyatini amalga oshirish mexanizmi.

1. Davlat va huquq asoslarida davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar.

Davlat va huquq asoslari fani nazariy va metodologik fandır. Bu fan davlat va huquqning umumiy qonuniyatlarini nazariy jixatdan umumlashtiradi, yurisprudensiyaning asosiy tushunchalarini va metodlarini ishlab chiqadi. Bu fan barcha ijtimoiy va yuridik fanlar bilan chambarchas bog'lik. Davlat va huquq masalasini faqat yuridik fanlar o'rganibgina qolmasdan, balki barcha ijtimoiy fanlar ham o'rganadi. Chunki kishilar, faoliyatining turli soxalari huquq bilan tartibga solinadi.

Har qanday fan o'z predmetiga va uni egallash uslubiga ega bo'lganidek, davlat va huquq nazariyasining ham o'z predmeti mavjud. Bu fanning predmeti davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va harakatda bo'lishining eng umumiy qonuniyatlaridan iborat. Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yo'zaga kelgan. U o'zining shakllanishida va rivojlanishida o'zok va murakkab yo'lni bosib o'tgan. Jamiyat rivojining dastlabki bosqichlarida davlat yetarlicha rivojlanmagan siyosiy xodisa bo'lgan. Bunday davlat, zo'rlik va majburlashga asoslangan.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi masala ko'p asrlar davomida kuplab mutafakkur faylasuflar, huquqshunoslar, iktisodchilar va tarixchilarni o'ylantirib kelgan. Davlat va huquqning kelib chiqishida undan ortiq nazariyalar bor. Shularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Teologik nazariya – bunda davlatning Xudo tomonidan yaratilganligini o'qtiradilar davlat va xokimiyat Xudoniki degan qoida ni ilgari suradilar.

Birinchiidan, qonun inson tafakkuri va ijodining maxsuli bo'lsa, shariat yaratuvchi tomonidan yuborilgan. Qonunhar doim o'zgarib tursa, shariat o'zgarish va zavoldan o'zokdir.

Ikkinchiidan, qonun jamiyat tomonidan uning xayotini tartibga solish va extiyojlarini qon dirish uchun yaratilgan bir kator qoidalar sifatida jamiyat o'zgarishi bilan o'zgarib turadi. Lekin shar'iy qonunlar umumiy moxiyatga ega bo'lgani uchun o'zgarishni qabul qilmaydi.

Uchinchiidan, qonun jamiyat tomonidan uning urf - odatlari, rasmu - rusumlari va tarixiga muvofik yaratiladi. Shuning uchun qonun jamiyatdan keyin yo'zaga kelib, uning taraqqiyotiga bog'lik bo'ladi. Qonunni jamiyat yaratadi, jamiyatni qonun emas. Ammo Islom qonunchiligi jamiyat maxsuli bo'lmay, jamiyatni shariat yaratadi, ya'ni jamiyat shariatning maxsulidir. O'daning ushbu xulosasi keng munozarali va baxsli masala xisoblanadi.

Bu nazariya qadimda paydo bo'lgan va o'rta asrlarda keng tarqalib xozirgi kunda ham teologik nazariya Islom davlatlarida qo'llaniladi.

2. Patriarxal nazariya tarafdorlari davlat kattalashib ketgan oiladan bevosita kelib chiqqan, monarx xokimiyati esa oilaning barcha a'zolariga raxbarlik qiladigan otadan meros bo'lib o'tgan deb xisoblaydilar. Bu nazariya Yunonistonda (qadimgi Rim davlatida paydo bo'lgan Aristotel asarlarida) asoslab berilgan.

Bu nazariyani ingliz sotsiologi, tarixchisi va huquqshunosi Genri Men sistemaga solib ishlab chiqqan. Patriarxal nazariyada «Ota rozi – xudo rozi» zaylida ish tutadi.

3. Shartnoma nazariyasi. Bu nazariya XVII - XVIII asrlarda paydo bo'lgan. Gollandiyada ushbu nazariyani Gugo Grotsiy va Spinoza, Angliyada – Lokk va Gobbs, fransiyada – Russo, Rossiyada Radishchev rivojlantirgan. Shartnomani nazariyasiga ko'ra, dalat – ongli ijod maxsuli,

odamlar kelishgan axd natijasi. «Shartnoma nazariyasi» ga muvofiq davlat xokimiyati kishilarning o'zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganligining ifodasidir. Davlat – o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida o'zlarining erkinliklari va xokimiyatning bir qismini davlatga beradilar.

4. Zo'ravonlik (bosqinchilik) nazariyasi (K. Kautskiy, L. Gumplovich, CH. Dyuring)ga ko'ra, davlatning kelib chiqishi asosan zo'rlik harakati, bir xalqning boshqaxalqni bosib olishi yetadi.

5. Psixologiya nazariyasi. Bunda davlat kelib chiqishida, insonlar o'z tabiatiga, biologik instinkt xususiyatlariga ko'ra boshqarilish, itoat etishga intilar emishlar. Ulardagi bu extiyoy faqat davlat mavjud bo'lgan takdirdagina qon dirilarmish.

6. Irrigatsiya nazariyasiga ko'ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya inshootlarini kurish va ulardan foydalanish bilan bog'lik.

7. Sinfy nazariya namoyandalari (K. Marks, F. Engels, V. I. Lenin) fikricha, davlat iqtisodiy sabablar – ijtimoiy Mehnat taqsimoti, qo'shimcha maxsulot va xususiy mulkning paydo bulishi, jamiyatning qarama - qarshi sinflarga ajrilishi tufayli kelib chiqqan. V. I. Lenin «Davlat va revolutsiya» asarida davlatni sinflarni keltirish organi emas, balki sinfiy xukmronlik organi, bir sinfning boshqa sinfni bostirishquroli, bir sinfning boshqa sinf ustidan xukmronlikni ta'minlash mashinasi deb xisoblangan. Bu nazariyaning natijasida sinfiy xukmronlik o'rnatishmaqsadida repretsiyalar bo'lib ziyolilarni yo'qqilgan.

2. Davlat tushunchasi va uning belgilari.

Davlatchilik tarixida uni qanday tushunish lozimligini aniqlashni Aflotun va Arastudan boshlashmaqsadga muvofiqdir. Ular tasavvuriga ko'ra, davlat siyosiy aloqalar vositasida muayyan bir tarzda birlashgan va k'zaro bog'lik odamlar jamoasidir. "Insonning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustidan xukmronligini o'rnatuvchi xokimiyat"shu aloqalar asosini tashkiletadi, deb xisoblardilar.

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi muayyan darajaga yetib, ijtimoiy ne'matlarni teng taqsimlashning avvalgi tizimi yashay olmay qolgan hamda jamiyatning bundan keyingi rivoji uchun Shark jamiyatida bo'lganidek, siyosiy soxada yoxud Ovrupadagidek siyosiy va iqtisodiy soxada boshqaruv bilan shug'ullanadigan elitar katlamni ajratish zaruratga aylanganda davlat dunyoga keldi. Bu - jamiyatni tabakalashishga olib keldi va shunda dastlab (ibtidoiy jamoa tuzumi) jamiyatning barcha a'zolariga tegishli bo'lgan xokimiyat siyosiy mazmun kasb etdi, ya'ni u eng avvalo imtiyozli ijtimoiy guruxlar, sinflar manfaatiga xizmat qila boshladi. Binobarin, davlatning paydo bo'lishi hamisha ommaviy xokimiyatning mazmunini o'zgartirib, siyosiy xokimiyatga aylanishi bilan bog'lik.

"Davlat - siyosiy xokimiyat tashkiloti bo'lib, muayyan hududda turli sinfiy, umuminsoniy, diniy, milliy va boshqa manfaatlarni amalga oshirishga ko'maklashadi". Davlat keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning moxiyati uningfaoliyatining mazmunini tashkil etadi. Davlatni uning faoliyati bilan aralastirmaslik kerak. Davlat faoliyati uning muayyan vokeylik sifatida namoyon bo'lishidir. Har bir davlat yoki bu jamiyatda tutgan o'rniga qarab o'z moxiyatiga ega bo'ladi. Davlatning moxiyatini aniqlashda shakl va mazmun jixatiga e'tibor berish zarur:

Harqanday davlat - siyosiy xokimiyat tashkiloti. Bu masalaning shakliy tomoni.

Davlat kimning manfaatlariga xizmat qiladi. Bu masalaning mazmun jixatidan.

Davlatning moxiyatini tushunishda 3 asosiy nazariy yondashuv mavjud:

1) ijtimoiy – bunda umumiy muammolar va ishlarni xal etish vositasi, u xukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi;

2) sinfiy – bunda davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yo'zaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirishquroli;

3) siyosiy – huquqiy – bunda davlat jamiyatning va davlatning o'zining xayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Davlatning moxiyatida uchala yondashuvda ham muayyan asos bor. Lekin, bir nazariy qarashni, ikkinchisidan ustun qo'yilganda yanglishuv (xukmronlik) bo'ladi.

Davlat – butun mamlakat miqyosidagi xokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov

apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverentetga ega bo'lgan tashkilotdir.

Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek huquq normalarini yaratishga qodir bo'lgan xokimiyatning hududiy tashkiloti.

«Davlat - muayyan hududni ishg'ol etgan va yagona xokimiyatga uyushgan xalqdir; davlat–insonning yashashqoida si shakli, kishilar o'rtasidagi psixologik aloqa; davlat absalut ruxning mujassami. « (Gegel).

Davlat jamiyatga, mamlakatga va xalqqa aloqador. U jamiyatdan, xalqdan tashqari yashamaydi. Davlatga ta'rif berishda uning turlari va shaklini e'tiborga olish lozim. Davlat bir necha ming yillardan beri rivojlanib, o'zgarib keladi.

Yurtboshimiz I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, «har bir davlat – betakror ijtimoiy xodisadir. U har kaysi xalq tarixiy va ma'naviy tarakkiyotning xosilasidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir». O'zbekiston uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z - o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi.

Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, uning bir me'yorda ishlashini ta'minlaydigan, jamiyat nomidan ish ko'radigan maxsus boshqaruv, majburlov apparatiga ega bo'lgan tashkilotdir.

Davlat jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlardan bir qator o'ziga xos belgilari bilan farqqiladi. Davlatning belgilari haqida turli talqinlar mavjud. F. Engels o'zining «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» degan asarida davlatning asosiy belgilari sifatida axolining hududiy bo'linishi, ommaviy xokimiyat hamda soliklar tizimining tashkil etilishini ko'rsatib o'tgandi. Shuningdek, G. F. Shershenevich hamshunga o'xshash uch belgi:

A) odamlarning birlashuvi;

B) ular ustidan huquqmronlik qiluvchi xokimiyat;

V) shu xokimiyat ta'siri doirasidagi hudud. «ni sanab o'tgan.

Xozirgi kunda davlatning umumiy e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

1. Davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, butun axolining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;

2. O'ziga xos ommaviy xokimiyat – davlat xokimiyatining mavjudligi, ya'ni xokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi;

3. Axolining hududlar bo'yicha uyushganligi (fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy - hududiy birliklarda yashashi).

4. Davlat - suveren xokimiyatning yagona soxibidir;

5. Davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettiruvchi qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan xujjatlarni qabul qiladi;

6. Davlat - qonuniylik va huquq tartibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muxofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, ichki ishlar organ va boshqalar) ga ega bo'lgan yagona tashkilot.

7. Faqat davlatgina o'z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'la oladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan birgalikda olingan davlat belgilarining jami jamiyat siyosiy tizimida davlatning aloxida o'rin va yetakchi rolini to'la izoxlaydi. Bunda albatta har bir tarixiy davrda, turlicha ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarda davlatning bu belgilari ham ichki mazmuni, ham tashki ko'rinishi bilan farqqilishini xisobga olish zarur.

3. Davlat shakllari va funksiyalari.

Davlat shakli deganda, davlatdagi siyosiy xokimiyatni uyushtirishning uch asosiy belgilari tushuniladi. Bular:

Boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli

Boshqaruv shakli - muayyan davlatda xokimiyatni uyutirish usulining majmuidir. Bu ta'rifni yanada aniqlashtirsak, u oliy davlat xokimiyatinitashkil etish, aynipaytda davlatning oliy va markaziy idoralari, mazkur idoralar tarkibi, vakolatlari, paydo bo'lish tartibi, shuningdek, ularda xalqning ishtirok etish darajasi, mazkur idoralar vakolatlarining muddatini nazarda tutadi. Insoniyatga davlat boshqaruvining azaldan ma'lum bo'lgan:

a) Respublika–lotincha so'zdan olingan bo'lib, (jamo' ishi) shaklida davlat xokimiyatini axoli muayyan muddatga saylab qo'yadigan idoralar amalga oshiradi. Yangi davrda respublikaning parlamentar va prezidentlik turlari paydo bo'lgan.

b) Monarxiya – yunonchadan olingan bo'lib, (monos - bir, arxe - xokimiyat), «yakkaxokimlik»; «yakkaxukumronlik»kabi ma'nolarni anglatadi.

Monarxiya – cheklangan, ya'ni konstitutsiyaviy (dualistik va parlament) monarxiya va cheklanmagan (mutlak) monarxiya bo'lishi mumkin. Qadimgi Yunon faylasufi Arastuning fikricha, «oliy xokimiyat yakka shaxs tomonidan amalga oshirilganda monarxiya, cheklangan shaxslar guruxi tomonidan amalga oshirilganda respublika, barcha xalq tomonidan amalga oshirilganda demokratiya bo'ladi»

Tuzilishshakli: Davlat tuzilishi davlat shaklining muxim bir turidir. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi. Unga uch narsa ta'sir etadi:

1) Muayyan davrda jamiyat va davlat oldida turgan iqtisodiy vazifalar va siyosiy maqsadlar;

2) Davlatdagi millatlarning soni va o'zaro munosabatlari;

3) Davlat hududining katta Kichikligi.

Davlat tuzilishi - davlatning ma'muriy - hududiy tuzilishi, uning bo'laklari, markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlari bilan o'zaro aloqalarining xususiyatlaridan iborat.

Milliy davlat tuzilishi - davlatning tuzilishi, uning ma'muriy –hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlaridan iborat.

Davlat tuzilishi:

a) oddiy – unitar; (franso'zcha – unitaire - yagona, degani)davlat oddiy va yaxlit davlatdir. Markaziy xokimiyat mahalliy idoralari ustidan nazoratning qay turini amalga oshirishiga qarab unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo'linadi.

b) murakkab – federativ (lotincha - feodus - ittifik degani) davlat bo'lib, uning subyektlari davlat mustakilligiga ega bo'ladi. Federatsiyalarning ikki turi Ittifoq va avtonomiya mavjud.

Konfederativ - davlatning muayyan Ittifoqi bo'lib, iqtisodiy, siyosiy, harbiy maqsadlar uchun shartnoma va bitim asosida to'ziladi.

Milliy davlat tuzilishi ma'lum prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

- millatlarning suverenligi va teng huquqliligi;

- millat va elatlarning erkin, ozod rivojlanishi;

- baynalmilallik, millatlarning hamkorligi, do'stligini ta'minlash.

Bu prinsiplar har bir milliy davlat tuzilishiga asos bo'lishi kerak.

Siyosiy idora usuli:

Siyosiy rejim tushunchasini keng ma'noda talqin qilganda, jamiyatning umuman siyosiy xayoti va siyosiy tizimi xodisalari siyosiy rejimga taalluqliligini bildiradi.

Siyosiy rejimni tor ma'noda tushunish esa uni faqat davlat xayoti va davlat bilan cheklab ko'yadi. Siyosiy rejimni bu ma'noda tushunish davlat shaklining boshqa ikki elementi - boshqarishshakli va davlat tuzilishi bilan uzviy bog'likdir.

Siyosiy rejim quyidagicha:

a) demokratik;

b) gayridemokratik bo'lishi mumkin.

Davlat funksiyalari - davlatning muayyan umuminsoniy va sinfiy moxiyati hamda ijtimoiy makomidan kelib chiqadigan maqsadlarga erishish uchun, uning oldida turgan vazifalarni amalga oshirishga oid faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.

Davlat funksiyalari:

a) faoliyat soxalari bo'yicha (tashqi va ichki);

b) amal qilish davomiyligi buyicha (doimiy va muvaqqat);

v) ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra (umumiy va aloxida);

g) amalga oshirishning huquqiy shakllari buyicha (huquq ijodkorligi, boshqaruv, sudlov) bo'ladi.

Davlat funksiyalarining asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- funksiyalar davlatning moxiyati va ijtimoiy maqomi bilan bevosita bog'lik.

- ular o'zgaruvchan tabiatga ega, davlatning shakllanishi, mustaxkamlanishi va rivojlantirilishiga yo'naltirilgan.

4. Huquq, uning belgilari va vazifasi.

«Huquq» iborasi kundalik xayotimizda ko'p qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, «xaq», «xaqiqat» so'zlaridan olingan. Xozirgi kunda huquqquyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

Birinchidan, muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqi.

Ikkinchidan, huquqhamma uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatiladigan va bajarilishi ta'minlanadigan, muxofaza qilinadigan qoidalar, me'yorlar majmuidir.

Uchinchidan, huquq ijtimoiy Fan soxalaridan birining nomi bo'lib, davlat va huquq haqidagi ilmlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Aflotun va Arastu fanga siysiy huquq tushunchasini kiritgan va uni tabiiy hamda shartli huquqlarga ajratgan.

«Siyosiy huquq - tabiiy huquq va shartli huquqqismlaridan iborat.

Tabiiy huquq tan olish yoki tan olmaslikdan kat'i nazar hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan qoidalardir.

Shartli huquq - insonlar tomonidan ularning xoxish - irodasiga ko'ra o'rnatiladigan qoidalar majmuidir.

Qadimgi Rim mutafakkirlari huquqni yaxshilik, xalol yashash, har kimga o'ziga munosibini berish, o'zgalarga zarar yetkazmaslik, ezgulik va adolat san'atidir, deb ta'riflaydi.

Sharq mutafakkiri, komusiy olim Abu Nosr al - Farobiy huquqni fozil odamlarning xaqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. Huquq, uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart - sharoit yaratish, ijodiy Mehnatga imkon yaratish vositasidir. Huquq—extirolarni jilovlash vositasidir. Huquq - insonni asrash, avaylashqurolidir.

Huquq haqida yuridik adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan:

«Huquq - bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qo'llanadigan va ko'riklanadigan, hamma uchun majburiy bo'lgan yashashqoidalaridir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulatordir»

«Huquq - davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoyaqilinadigan umummajburiy xulq - atvor qoidalari tizimi»dir.

Huquqni zamon talablari asosida to'g'ri tushunish Amaliy faoliyat uchun g'oyat muxim va zarurdir. Shu bois huquqqa davlat arboblari ham katta e'tibor berib, uni tushunishga o'z munosabatlarini ifodalaydilar. Xususan, Ozbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov huquqqa shunday ta'rif bergan: «Huquq ijtimoiy hamjixatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib - intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi» dir

Huquq paydo bo'lishining asosiy belgilarini A. Saidov bilan U. Tojixanov «Davlat va huquq nazariyasi» darsligida quyidagicha ko'rsatgan:

Huquqning birinchi belgisi - uning ijtimoiyligidir.

Huquqning ikkinchi belgisi - uning normativ xususiyatga egaligidir.

Huquqning uchinchi belgisi - uning majburiyligidir.

Huquqning to'rtinchi belgisi - uning rasmiyligidir.

Huquqning beshinchi belgisi - uning muayyan jarayon ekanligidir.

Huquqning oltinchi belgisi - uning shaxsiylashtirilmaganligidir.

Huquqning yettinchi belgisi - uning institutsiyaviyligidir.

Huquqning sakkizinchi belgisi - uning obyektivligidir.

Huquqiy adabiyotlarda uning boshqa belgilari ham ko'rsatilgan. Masalan: X. B. Boboyev, X. T. Odilqoriyevlar «Davlat va huquq nazariyasi» darsligida huquq tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi asosiy belgilarni ko'rsatishgan:

1. Huquqning barcha uchun majburiyligi;
2. Huquqning qonun va boshqa aniqshakllarda ifodalangan bo'lishi;
3. Huquqning davlat tomonidan o'rnatilishi, muxofaza qilinishi;
4. Huquqning ijtimoiy tartib - intizom, erkinlik, adolatparvarlik, tenglikni ta'minlash vositasi ekanligi;
5. Huquqning subyektiv va obyektiv huquqlarga bo'linishi va subyektiv huquqlar orqali harakat qilishi;
6. Huquq extiroslarni jilovlash vositasi ekanligi.

Mazkur belgilarning majmui huquq haqida to'laroqtushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

Huquqning mohiyatiga kelsak, huquqning insoniyat uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shuning uchun huquqning mohiyatini aniqlash uchun uning kimga xizmat qilishini, kimning irodasini ifodalashini aniqlash zarur.

Huquq funksiyalari - ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat xayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi.

Huquqquyidagi funksiyalarni bajaradi:

Birinchidan, huquq normal tashkiliy - Mehnatni, jamiyatning ishlab chiqarish faoliyatini, normal iqtisodiy axborot ishlab chiqarishni, maxsulot iste'moli va ayrboshlashni tartibga solish funksiyasini bajaradi.

Ikkinchidan, huquq davlat tizimini, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, iqtisodiy xayotning tashkil etilishini, ma'lum sotsial guruxlarning xukmronligini, mafkura asoslarini, dexqon jamoalarining, jamiyatning boshqa a'zolarining xayoti, erkinligi, mulkini ko'riklash funksiyasini bajaradi.

Uchinchidan, huquq jamiyatdagi qarama - qarshiliklarni va boshqa ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatadi. Bu uning gumanistik funksiyasidir.

Turtinchidan, huquq bir qator zaruriy prinsiplarni va yurish - turishqoidalarini, ruxiy va axloqqoidalarini ijtimoiy ongga singdiradi. Bu uning mafkuraviy funksiyasidir.

Beshinchidan, huquq yosh avlodni, jamiyatning xayotiy maqsadlarini, ijtimoiy xayot ideallarini, axloqqiy va huquqiy qadriyatlarini o'zlashtirishga tayyorlaydi. Bu uning tarbiyaviy funksiyasidir.

5. Huquqiy davlat tushunchasi.

Huquqiy davlat – huquqning xukmronligi va qonunning ustuvorligi, xokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi, inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanadigan, huquqni muxofaza etuvchi idoralar ishi samarali bo'lgan xaqiqiy xalq xokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy - huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir. Huquqiy davlatning quyidagi bir qator asosiy belgilari mavjud:

1. Huquqning xukumronligi;
2. Konstitutsiya va qonun ustunligi.
3. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash.
4. Davlat va fuqarolarning o'zaro ma'suliyati.
5. Xokimiyat vakolatlarining bo'linishi.
6. Sudning mustaqilligi.
7. Huquqni muxofaza qiluvchi organlarning samarali ishlashi.
8. Huquqiy madaniyatning yuksak darajasi.
9. Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

Jamiyatda huquqiy davlatning roli quyidagilarda ifodalanadi:

1. Jamiyatda faoliyat kursatuvchi demokratik institutlarning rivojlanishi va barqarorligini rag'batlantira oladigan huquqiy xujjat chiqarish va joriy etish.

2. Fuqarolarning huquq va erkinlarini muxofaza qilish, ularning ijtimoiy himoyalanganligiga doir amaliy choralar qabul qilish.

3. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovo'z qiluvchi mansabdor shaxslarni tegishli shaklda huquqiy javobgarlikka tortishning huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Jamiyat xayotida huquqiy davlat quyidagilarni ta'minlaydi:

- davlat mexanizmining barcha bo'g'inlari aniqva bir maromda ishlashini;
- huquqiy davlat organlari faoliyatida huquqiy ijodkorlik va huquqni qo'llashning samaradorligi;

- xokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsiplarini turmushga joriy etishni;

- davlat – huquqiy va siyosiy institutlarni barqarorligini;

- erkin bozor iqtisodiyotini.

Huquqiy davlat barqarorligining huquqiy asosi – jamiyatda fuqarolarning irodasiga, ularning huquq va erkinliklarining himoyalanganligiga asoslangan qonuniylik va huquqiy tartibotning mustaxkamligidir.

Huquqiy davlat barqarorligining siyosiy asosi – siyosiy plyuralizmga asoslangan demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va barqaror faoliyat ko'rsatishidir.

Huquqiy davlat barqarorligining ijtimoiy asosi – axolining davlat tomonidan teng himoyalanihida ko'rinadi.

Huquqiy davlat barqarorligining iqtisodiy asosi – erkin tadbirkorlikka va xilma - xil mulk shakllarini rivojlantirishga qaratilgan bozor munosabatlarining mavjudligidir.

Insonparvar huquqiy davlatning belgilari:

1. Konstitutsiya va qonunning ustuvorligi.

2. Davlat xokimiyati tizimining taqsimlanish prinsipi.

3. Insonning huquq va erkinliklariga rioya etish va ularni himoyalanihi.

4. Oliy qadriyat sifatida inson huquq va erkinliklarini joriy etish shart - sharoitlarning yaratilishi.

5. Demokratlilik.

6. Siyosiy va huquqiy madaniyat darajasini yuksalishi.

7. Adolatli fuqarolik jamiyatini yaratilishi.

8. Sud – huquqiy isloxotlarining o'tkazilishi.

9. Sudning mustaqilligi.

10. Xokimiyat vakolatlarini taqsimlash va huquqiy davlat tizimini yaratishmaqsadida qonunlarni chiqarish va takomillashtirish.

Yurtboshimiz I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashidir.

5 Davlat xokimiyatini amalga oshirish mexanizmi

Davlatga o'z xokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy - moddiy kuch davlat mexanizmidir. Mexanizm davlatning nimadan tashkil topganligini ko'rsatuvchi tarkibiy va predmetli ifodasidir. Mexanizm davlatning doimiy amal qilishi, faoliyatining ifodachisidir.

Davlat mexanizmi – davlat xokimiyatini amalga oshiradigan, jamiyatga davlat raxbarligini ta'minlovchi davlat tashkilotlari tizimidir.

Yuqoridagi ta'rif davlat mexanizmiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni belgilab olish imkoniyatini beradi.

Yaqin o'tmishda davlatning vazifasi beistisno uyushgan zuravonlikdan iborat deb qaralar, lekin uni umumfarovonlikni ta'minlash mexanizmi sifatida xech kimning xayoliga kelmas edi.

1. Davlat mexanizmi boshqaruv bilan maxsus shug'ullanuvchi ishlardan iborat;

2. Davlat mexanizmi idoralar va muassasalarning murakkab tizimidan iborat;

3. Davlat Mahkamasining barcha bo'g'inlari faoliyati tashkiliy va moliyaviy vositalar bilan majburiy ta'sir yo'li bilan ham ta'minlanadi;

4. Davlat mexanizmi o'z fuqarolarining qonuniy manfaatlarini va huquqlarini ishonchli tarzda kafolatlash va muxofaza qilishga da'vat etilgan.

Davlat mexanizmining tuzilishi va uning faoliyati obyektiv tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, jamiyatni davlat yo'li bilan boshqarishning eng yuksak obyektivligini ta'minlaydi. Eng muxim tamoyillardan biri xokimiyatning bo'linishi tamoyilidir (qonunchiqaruvchi, ijro etuvchi, sud xokimiyati).

Davlat Mahkamasi (apparati) – davlat mexanizmining bir qismi bo'lib, davlat xokimiyatini amalga oshirish uchun xokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari majmuidan iborat.

Davlat mexanizmi davlat Mahkamasidan tashkari davlat muassasalari va davlat korxonalarini ham o'z ichiga oladi.

Davlat Mahkamasi umumiy shaklda organlarning quyidagi ko'rinishlari tarzida namoyon bo'lishi mumkin:

1. Qonunchiqaruvchi xokimiyat organlari.
2. Ijro etuvchi xokimiyat organlari.
3. Sud xokimiyati organlari.
4. Davlatning maxsus organlari.

Davlat apparatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1). U tegishli xodimlarning majburiy ijrosiga oid huquqiy xujjatlarni chiqara oladi.
- 2). Ushbu xujjatlarni bajarishni ta'minlash uchun ishontirish, majbur etish, tarbiyalash, rag'batlantirish kabi tadbirlarni qullay oladi.
- 3). Ularni joriy etish ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Davlat idorasi - davlat apparatining tarkibiy bugini, nisbatan mustaqil qismidir. Davlat idoralari xilma - xildir. Ularni turli mezonlarga asoslanib bir qancha turlarga bo'lish mumkin:

- 1). Paydo bo'lishning manbaiga ko'ra - birlamchi va ikkilamchi idoralar;
- 2). Hududiy faoliyatining doirasiga ko'ra - respublika, viloyat, mahalliy o'zini - o'zi boshqarish idoralari;
- 3). Vakolatlarining tabiatiga ko'ra - umumiy vakolat idoralari, maxsus vakolat idoralari.
- 4). Xokimiyatni amalga oshirish tartibiga ko'ra –kollegial va yakka tartibdagi idoralar.

Faoliyatining tashkiliy - huquqiy shakllariga ko'ra davlat idoralari qonunchiqaruvchi, ijro etuvchi, huquqni muxofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi va farmoyish beruvchi idoralariga bo'linadi. Bu esa davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish va qat'iy va barqarorligini, jamiyatda qonunchilik va huquq tartibotni, huquqiy davlat prinsiplariga ergashishni ta'minlaydi.

Davlat apparati quyidagi belgilari bilan davlatning boshqa tashkilotlaridan ajralib turadi:

- davlat apparati boshqaruv bilan shugullanuvchi aloxida fuqarolar guruxidir.
- davlat apparati davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli bo'lgan o'zaro bo'ysunish yoki kelishishasosida bog'langan davlat organlari va muassasalari tizimidir.
- davlat apparati xalq irodasini amalga oshirish, o'z vazifasini bajarishi uchun zarur vositalar va majburlashquollariga ega orgarlardir.

Davlat apparatining shakllanishiga, uning faoliyatiga shu jamiyat tarixiy taraqqiyotining xususiyati, iqtisodiy tizumi, ijtimoiy muxiti va milliy an'analar ta'sir ko'rsatadi. Har bir jamiyatda davlat apparati davlatning vazifalarini bajarish uchun tashkil etiladi va shu davlat xokimiyatini amalga oshiradi.

Davlatning xokimiyatning oliy va mahalliy vakillik organlari ham mavjud. Davlatning oliy vakillik organlari qonunchiqaruvchi xokimiyat funksiyasini bajaradi. Davlat xokimiyatining mahalliy organlari va mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organlari vakillik harakteriga ega bo'ladi.

XULOSA.

Ma'lumki. Iqtisodiyot davlat va huquqqa nisbatan birlamchi kuch, davlat esa ikkilamchi kuch bo'lib maydonga chiqadi. Davlat iqtisodiyotning xosilasi, lekin paydo bo'lgandan keyin u ma'lum nisbiy mustakillikka ega bo'ldi. Jamiyat xayotida va uning iqtisodiy taraqqiyotida aktiv rol o'ynaydi. Davlat iqtisodiyotga nisbatan ijobiy va salbiy rol o'ynashi mumkin. Agar davlat o'z umrida o'tayotgan ishlab chiqarish munosabatlarini himoyaqilsa, o'z taraqqiyotiga to'sik bo'ladi. Agar davlat yangi ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirishga yordam bersa, yangi, yanada progressiv jamiyatning iqtisodiy negizini barpo etishga intilsa, ijobiy ilg'or kuch bo'lib maydonga chiqadi.

Talabalar «Davlat va huquq tug'risida»gi nazariy bilimlarini oshirishlari uchun ularga A. Saidov, U. Tadjixanov, Z. Islamov, X. Odilkoriyev, X. Boboyev va bir qancha huquqshunos nazariyotchilar tomonidan yozilgan darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni o'rganishni tavsiya etamiz.

Nazorat uchun savollar.

1. «Davlat va huquq asoslari» fani qanday vazifalarni bajaradi ?
2. Jamiyat nima ?
3. Davlat va huquqning kelib chiqishida qanday shart - sharoitlar mavjud edi ?
4. Davlatning kelib chiqishi tug'risida qanday nazariyalar mavjud ?
5. Davlat va huquqning umumijtimoiy mohiyati nima ?
6. Xozirgi davrda jaxon davlatlarining shakllari qanday ?
7. O'zbekiston Respublikasining davlat shakllarini aytib bering.
8. Davlat nazariyasi tug'risidagi fikrlar, ta'limotlarni talqin qiling.
9. Davlat mexanizmi nima ?
10. Davlat xokimiyati nima ?

GLOSSARIY.

- Respublika – (lot. – umumiy ish) – davlatni idora qilish (boshqarish) shakli bo'lib, unda davlatni saylab kuyilgan kishilar boshqaradi.

- Unitar – (lot. Uniya – birlik) – yagona. Davlatning tuzilishshakli bo'lib, muayyan ma'muriy hududiy bulinishga ega bo'ladi. Birok bu mustakil hududlar (tumanlar, viloyatlar, kontonlar) davlat suverenitetiga ega bo'lmaydi.

- Federatsiya – (lot. Ittifok, birlashma) – davlatning tuzilishshakli bo'lib, uning asosi – ikki yoki bir necha mustaqil davlatning bitta Ittifoq davlatga birlashishdir.

- Konfederatsiya – (lot. – uyushma) – shartnoma asosida qat'iy muayyan maqsadlar yoolida birlashadi.

- Suvterenitet – frans., bir davlatning ikkinchi davlatga (vasallik)ga nisbatan ustuvorlik huquqi.

- Anarxiya – xokimiyatsizlik.

- Despotizm – zolimlik, zulmkorlik.

- Aksizdemokratik rejim – demokratik qoidalarga rioya etmaydi.

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi.” T. 5. T., 1997.
2. I. A. Karimov. “ Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq millatni millat qilishga xizmat etsin.” – T.: O'zbekiston, 1998.
3. I. A. Karimov “Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch kudratimizga, xalqimizning hamjixatligi va bukulmas irodasiga bog'liq” T. O'zbekiston 2004.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2011. (kiritilgan o'zgartirish va kushimchalari bilan)
5. Z. Islamov. “Ob'yyestvo, gosudarstvo, parvo.” – T. 1, 2 – T. Adolat, 1997.
6. Z. Islamov. “Davlat va huquq: Umumnazariy masalalari”. – T.: Adolat, 2000.
7. A. Saidov, U. Tojixonov. “Davlat va huquq asoslari.” T.: - O'zbekiston, 1999.
8. A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilkoriyev. “Davlat va huquq asoslari”. Darslik. – T., Shark, 2002.
9. A. Saidov, U. Tadjixanov. “Davlat va huquq nazariyasi” T. Adolat. 2001.
10. M. Mirhamidov, O. Xusanov, Z. Islamov. “Huquqshunoslik” ma'ruzalar matni. T.. TDYUI. 2001.
11. “O'zbekiston Respublikasining mustakillik asoslari to'g'risida”gi qonuni 31. 08. 1991. O'zbekistonning yangi qonunlari. T... Adolat. 5 - son.
12. «O'zbekiston Respublikasining Mustakillik Deklaratsiyasi» 20. 06. 1990. O'zbekistonning yangi qonunlari. T...Adolat. 4 - son.
13. O'zbekiston Respublikasini mustakil deb e'lon qilish to'g'risidagi murajaatnoma. 31. 08. 1991. «Xalq so'zi» 1. 09. 1991.

14. A. B. Vengerov «Teoriya gosudarstva i prava» uchebnik. M - Novyy yurist, 1998.
15. G. N. Manova «Teoriya gosudarstva i prava» uchebnik M. BEK. 1995.
16. N. I. Mato'zova, A. V. Malko «Teoriya gosudarstva i prava» kurs leksii M. Yurist, 1997.
17. Konstitutsionnoye pravo Rossii (konspekt leksii v sxemax) –M «Prior - izdat. « 2004.
18. www. ostu. ru.
19. www. econ. asu. ru. in.
20. www. polit. susu. ac.
21. www. gov. o'z.
22. www. edu. o'z.

2 - Mavzu: **Ma'muriy huquq asoslari.**

Reja:

1. Ma'muriy huquq tushunchasi.
2. Ma'muriy huquq manbalari.
3. Davlat boshqaruvi. Ma'muriy huquq subyektlari.
4. Ma'muriy huquq buzarlilik va ma'muriy jazo.
2. 1. Ma'muriy huquq tushunchasi.

Ma'muriy huquq davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. «Ma'muriyat» so'zi lotin tilida boshqarish ma'nosini bildiradi. Ma'muriy huquq O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining mustaqil tarmog'i sifatida ijtimoiy munosabatlarning amal qilishi, rivojlanishi va tuxtatilishini o'rgatadi.

Ma'muriy huquq - ijro etuvchi xokimiyatning tashkil qilinishi va amal qilishi jarayonida, davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish jarayonida yo'zaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar majmuidir.

Ma'muriy huquqning predmeti uning me'yorlari bilan tartibga solinadigan ana shu ijtimoiy munosabatlardir. Ma'muriy huquqiy me'yorlarni davlat urnatadi. ular insonning xatti - harakatlarini yo'naltirishga xizmat qiladigan oddiy xulq - atvor qoidalari emas, balki xokimiyat ko'rsatmalaridir.

Demak, ma'muriy huquq ma'muriy huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Bu tartibga solish ma'muriy huquqning me'yorlari orqali amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquq me'yorlari avvalo davlat boshqaruvining prinsiplarini belgilab beradi. Bu me'yorlar davlat boshqaruv organlarini tashkil etish tugatish masalalarini, ularning tizimini, maqsadi va vazifalarini, vakolatlar doirasini belgilab beradi. Ma'muriy huquq me'yorlari jamoat tashkilotlari va fuqarolarning boshqaruv soxasidagi huquqhamda burchlarini, davlat apparatiga xizmatga kirishqoidalarini ma'muriy huquq buzarlilik sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik, masalalarini, yul harakati, savdo, ov qilish, oliy o'quv yurtlariga test orqali kirish va u yerda ta'lim olishqoidalarini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq me'yorlari ma'muriy huquq buzarlilik sanaluvchi xatti harakatlar doirasini belgilab beradi va unday harakatlar sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralari belgilaydi.

Huquqning boshqa tarmoqlari kabi ma'muriy huquq o'z me'yorlarining oddiy arifmetik yig'indisi emas balki sistema, ya'ni ma'lum qoidalar asosida, bir tartibda belgilangan normalar yig'indisidir.

Ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarning ba'zilarini quida kurib chiqamiz. Bular:

1. Tashkiliy jixatdan biri ikkinchisiga buysunadigan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlar (O'zR Vazirlar Mahkamasi bilan vazirliklar, qo'mitalar, xokimliklar);
2. Biri - biriga buysunmaydigan davlat idora organlari o'rtasida munosabatlar (ikki vazirlik, ikki xokimlik);
3. Davlat idora organlari va ularga buysunadigan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar

o'rtasidagi munosabatlar;

4. Davlat idora organlari va jamoat birlashmalari o'rtasidagi munosabatlar;

5. Davlat idora organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan xolda aytadigan bo'lsak, - davlat boshqaruv organlarining ijrochilik va farmoyish beruvchilik faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning barchasi ma'muriy huquq normalari yordamida amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquq me'yorlari boshqaruv organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarni tashkil etish, o'zgartirish yoki ularni tugatish qoidalarini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan fuqarolarning huquqlarini, masalan, davlat xizmatiga kirish va xizmatini utash huquqini, davlat xizmatchilarining burch va majburiyatlarini aniqlab beradi, ko'p qoidalarni o'rnatadi va bu qoidalarning buzulganligi uchun javobgarlik belgilaydi (savdo, ov qilish, transport vositalaridan foydalanish va sh. k.)

Huquqiy munosabatlarni ma'muriy - huquqiy tartibga solish usulining o'ziga xosligi tomonlarning notengligi xisoblanadi: bir tomonning irodasi ustidan hukmronlik qiladi, ya'ni bir tomon hamma vaqt davlat boshqaruv organi bo'ladi va u davlat nomidan farmoyish berish huquqiga ega. Masalan, bir fuqaro o'z uyini sotmoqchi bulsa, ikkinchi tomonning, ya'ni sotib oluvchining roziligi kerak bo'ladi. Agar vazirlik o'z qaromogidagi mulkni birinchi korxonadan ikkinchi korxonaga olib borish to'g'risida buyruq bersa, birinchi korxonalar rozi bo'lmasa ham buyruqni bajarishga majbur.

2. Ma'muriy huquq manbalari.

Ma'muriy huquqiy me'yorlari bo'lgan davlat xokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining huquqiy vakolatlari ma'muriy huquqning manbalari xisoblanadi.

Ma'muriy huquqning asosiy manbai, Konstitutsiyamiz xisoblanadi. Konstitutsiyada davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomlari va ular faoliyatini tashkil etish asoslari, fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlari belgilab berilgan.

Konstitutsiyaviy qonunlar.

Joriy qonunlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. (1994 yil 22 sentabr).

Vazirliklar, idoralar, qo'mitalarning buyruq va qarorlari.

Mahalliy boshqaruv organlarining farmoyish va qarorlari.

Davlat va nodavlat korxonalar (muassasalari) rahbarlarining buyruqlari.

Korxonalar bulinmalar rahbarlarining farmoyishlari.

Ma'muriy huquq konstitutsiyaviy, moliyaviy jinoyat, fuqarolik, mehnat kabi huquq soxalari bilan chambarchas bog'liq.

Ma'muriy huquq 2 qismdan iborat

1. umumiy.

2. maxsus

Umumiy qism - ma'muriy huquqning predmeti va tizimini, ma'muriy huquqning subyektlarini, davlat boshqaruvining shakli va usullarini ma'muriy ish olib borish qoidalarini, ma'muriy faoliyatda qonunning ustunligini ta'minlashning shakl va usullarini o'z ichiga oladi.

Maxsus qism - xalq xujaligining ayrim tarmoqlarini, ijtimoiy - madaniy, ma'muriy - siyosiy faoliyatini hamda tarmoqlararo boshqaruvni tashkil etish kabi maasalarni o'z ichiga oladi.

3. Davlat boshqaruvi. Ma'muriy huquqning subyektlari.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ma'muriy huquq davlatni boshqarish jarayonida yo'zaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida kursatilgan quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

1. davlat boshqaruvida xalqning keng ishtirok etish;
2. demokratik markazchilik;
3. fuqarolarning tengligi;
4. qonuniylik.

Ma'muriy huquqning subyektlari deganda davlat boshqaruvi jarayoni ishtirokchilari tushuniladi. Ma'muriy huquqiy munosabatlar subyektlariga:

- a) davlat organlari ;
- b) mansabdor shaxslar;
- v) korxonalar, tashkilot, muassasa;
- g) jamoat birlashmalari;

Davlat boshqaruvi - davlat boshqaruv organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat organlari - davlat tomonidan tashkil etilib, davlat nomidan ish ko'radilar va uning manfaatini qo'riqlaydi. Davlat boshqaruv organlari davlat apparatining bir qismi bo'lib, o'z burchlarini bajarish uchun davlat tomonidan farmoyish berish huquqiga ega. Shuning uchun ular o'z vakolatlari doirasida, faoliyat ko'rsatish, huquqiy aktlar qabul qilish va shu aktlarda kursatilgan qoidalarni bajarilishini ta'minlash uchun tashkiliy ishlar olib borishi mumkin.

Davlat boshqaruv organlari xalq xujaligi, ijtimoiy - madaniy, ma'muriy - siyosiy soxalarda davlat vazifalarining amaliy bajarilishini tashkil etadi. Ular Prezidentga, xokimlarga va ular orqali xalq deputatlari kengashlariga buysunadi.

Davlat boshqaruv organlarini tashkil etish va ular faoliyatini yulga quyish huquqiy normalarda belgilanadi.

Davlat boshqaruv organlarining quyidagi asoslarga kura tasnif qilishi mumkin:

1. qaysi hududda faoliyat kursatish buyicha;
2. tashkil qilinishiga kura;
3. vakolatning harakteri va xajmi asosida;
4. raxbarlikni tashkil etish buyicha;
5. moliyaviy mablag bilan ta'minlash soxasida.

1. Qaysi hududda faoliyat ko'rsatishi buyicha davlat boshqaruv organlari oliy, mahalliy va markaziy organlarga bulinadi.

Oliy organlar - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'istonda Vazirlar Kengashi. Ular faoliyati butun O'zbekiston Respublikasi hududida yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida tashkil etiladi. Bundan tashqari, ular markaziy organlarning faoliyatini birlashtiradilar va ular ustidan nazorat urnatadi.

Markaziy organlar - vazirliklar, vazirlar, davlat kumitalari, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi tashkil qilingan organlar respublika miqyosida faoliyat kursatayotgan assosatsiyalar, banklar. Ularning hammasining faoliyati respublika miqyosida bo'ladi.

Mahalliy organlar - xokimlar, xokimiyatning bo'lim va boshqarmalari, korxonalarning, muassasalarning ma'muriyati. Mahalliy organlar viloyat tuman, shahar miqyosida faoliyat ko'rsatadi.

2. Davlat boshqaruv organlarining tashkil qilinishiga kura: Prezident farmoniga kura tashkil qilinadigan organlar; xokimlarning qaroriga ko'ra tashkil qilinadigan organlar; Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil qilinadigan organlar; vazirliklar va davlat kumitalari, assosatsiya, korparyiya, konsern; uyushma kompaniyalar tomonidan tashkil qilinadigan organlar; respublika miqyosida banklar tomonidan tashkil qilinadigan organlarga bulinadi.

3. Vakolatning harakteri va xajmiga kura: davlat boshqaruv organlari umumiy vakolatli, soxalararo vakolatli, bir tarmoq buyicha vakolatli organlarga bulinadi. Umumiy vakolatli organga Prezident boshchiligidagi Vazirlar Mahkamasi, xokimlar boshchiligidagi xokimiyatlar, soxalararo vakolatli organga davlat kumitalari, bir tarmoq buyicha vakolatli organga vazirliklar kiradi.

4. Respublikani tashkil etish buyicha: boshqaruv organlari kollegial organga (davlat kumitalari, assosatsiyalar, korparatsiyalar, uyushmalar, banklar, aksionerlik jamiyatlari) hamda

yakka boshqariladigan organlarga (Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, xokimiyatlar, ularning bo'lim va boshqarmalari, korxonalarining, muassasalarning va tashkilotlarning rahbarlari)ga bulinadi.

5. Moliyaviy mablag bilan ta'minlanishiga kura: davlat boshqaruv organlari budjet organlariga (Masalan, ichki ishlar organlari) va xujalik xisobidagi organlarga bulinadi. Budjet organlar davlat tomonidan ta'minlanadi. xujalik xisobidagi organlar o'z faoliyati yoki o'zlari buysunadigan korxonalarining xujalik faoliyati olingan foydadan ajratilgan mablag xisobiga ta'minlanadi.

Davlat boshqaruv organlari vazifasi umumiy bo'lgan tizimni tashkil etadi. Bu tizimning tashkiliy asosi - demokratik markazchilikdir. Bu prinsip umumiy davlat va mahalliy maqsadga yetishda asosiy rol uynaydi.

Davlat boshqaruv organlarini holatini kurib chiqamiz.

1. Oliy ijro etish va farmoyish berish faoliyatiga ega bo'lgan organ Bosh Vazir boshchiligidagi Vazirlar Mahkamasidir. Vazirlar Mahkamasining tarkibini Respublika Bosh Vaziri tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining tarkibiga Qoraqalpog'iston xukumatining boshligi ham kiradi.

2. Mahalliy ijro etuvchi va farmoyish beruvchi organlar - xokimiyatlardir. Xokimiyatlar o'z vazifalarini xokim rahbarligida bajaradilar. Mahalliy xokimiyat organlarining ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

- qonuniylik, huquqiy targibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy solik yigimlarni belgilash, budjetdan tashqari jamgarmalarni xosil qilish;
- mahalliy komunal xujalikka rahbarlik qilish;
- atrof - muxitni muxofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ xujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va Respublika qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

3. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'muriyati. Ma'muriyat - bu mansabdor shaxslarning guruxi bo'lib, unga rahbar, uning yordamchilari, muxandis - texnik mutaxassislar va boshqaruv ishi bilan shugullanuvchi boshqa xizmatchilar kiradi.

Ma'muriy huquqiy munosbatlarning bir tomoni sifatidan davlat xizmatchilari hamqatnashadilar. Chunki ular davlat boshqaruv organi vazifasini bajaruvchi subyektlardir.

davlat xizmatchilari xodimlardan (ishchilar, dexqon lar..) moddiy ishlab chiqarish xususiyatlari bilan ajratib turadi. Xodimlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bulsalar, davlat xizmatchilari o'z faoliyati davomida xechqanday moddiy boylik ishlab chiqarmaydilar.

Davlat xizmatchisi o'z vazifalarini xajmiga kura 4 guruxga bo'linadi:

1. yordamchi xodimlar (kotiblar, o'qituvchilar..);
2. mutaxassislar (shifokorlar, o'qituvchilar..);
3. mansabdor shaxslar (rektor, direktor..);
4. xokimiyat vakili (militsiya, solik inspektori..).

Davlat boshqaruv organlari tomonidan o'z oldiga quyilgan vazifalarni bajarish jarayonida qo'llanilayotgan boshqaruv harakatlari kurinishi jixatidan davlat boshqaruvi shakllari deb ataladi. Boshqaruvni tashkil etish yuridik holatlarning kelib chiqishiga sabab bulishi mumkin, lekin bunday holatlar paydo bo'lmasligi ham mumkin.

Shuning uchun boshqaruv shakllari 2 guruxga:

1. huquqiy;
2. nohuquqiy bulinadi.

Ma'muriy huquqda davlat boshqaruvi quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. huquqiy aktlarni qabul qilish;
2. tashkiliy ishlarni utkazish;
3. moddiy texnik tadbirlarni kullash.

Boshqaruv jarayonidagi muayyan vazifalarni bajarishda shaxslarning irodasi va ongiga ta'sir kursatuvchi turli usullardan foydalaniladi. Bu boshqaruv usullari deb ataladi.

Ular quyidagilar:

1. ishontirish;
2. majburlash.

Ishontirish davlat boshqaruvining hammaqatnashchilariga nisbatan qo'llanishi mumkin bolsa, majburlash esa boshqaruv qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Boshqaruv jarayonida bir qancha xujjatlar qabul qilinadi.

Davlat boshqaruv aktlari quyidagi asoslar bo'yicha tasniflanadi:

1. Yuridik xususiyati bo'yicha huquqiy aktlar normativ va yakka (ma'muriy) aktlarga bo'linadi. Normativ aktlar asosan o'zok vaqtga va ko'p marta

qo'llanishga muljallanadi. Yakka huquqiy aktlar esa bir marta yoki muayyan holatda qo'llanishga mo'ljallangan bo'ladi.

2. Makondagi (hududdagi) harakati bo'yicha davlat boshqaruv aktlari respublika miqyosidagi aktlarga hamda mahalliy miqyosidagi harakatqiluvchi aktlarga bo'linadi.

3. Qancha muddatgacha amalda bo'lishiga ko'ra davlat boshqaruv aktlari muddati cheklangan va cheklanmagan aktlarga bo'linadi.

4. Aktning qaysi organ tomonidan qabul qilinishiga ko'ra ham davlat boshqaruv aktlari bir necha turga bo'linadi (farmon, farmoyish, qaror..).

5. Akt qabul qiluvchi organlarning vakolatiga ko'ra boshqaruv aktlari: umumiy, soxaviy va tarmoqlararo aktlarga bo'linadi.

6. Shakli bo'yicha boshqaruv aktlari yozma va ogzaki aktlarga bo'linadi.

4. Ma'muriy huquq buzarlik va ma'muriy jazo.

O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy javobgarlik to'grisida»gi Kodeksining 10 - moddasida ma'muriy huquq buzarlik tushunchasi berilgan. Ya'ni, ma'muriy

huquqbuzarlik deganda, qonun xujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, fuqaroning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muxitga tajovo'z qiluvchi g'ayriqonuniy,

qasddan yoki extiyotsizlik orqasida sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Huquq buzarlikning barcha xususiyatlari xisobga olinib, uni amaldagi qonunlarga binoan jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin emas, deb xisoblangan taqdirda, bu huquq buzarlikka nisbatan ma'muriy javobgarlik amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquq buzarlik uch xil alomatni o'z ichiga oladi:

1. aybdorlik;
2. g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik;
3. javobgarlikka tortish.

Ma'muriy qonunchilik tomonidan ta'kidlangan harakat yoki harakatsizlik g'ayri qonuniy harakat yoki harakatsizlik deb xisoblanadi.

Aybdorlik qasddan yoki extiyotsizlik natijasida yo'zaga kelishi mumkin. O'zbekiston respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'grisdagi Kodeksning 11 - moddasiga binoan, ma'muriy huquq buzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligining gayriqonuniy ekanligini bilgan bo'lsa, zararli oqibatlarini oldindan bilgan va shuni istagan yoki bu oqibatlarining kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l ko'rgan bo'lsa, bunday ma'muriy huquq buzarlik kasddan sodir etilgan xisoblanadi.

Mazkur Kodeksning 12 - moddasiga binoan esa, agar ma'muriy huquq buzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'rgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan uning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa yoxud bunday oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini oldindan bilmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquq buzarlik extiyotsizlik orkasida sodir etilgan deb xisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik subyekti: 16 yoshga to'lgan, muomalaga layokatli fuqarolar mansabdor shaxslar, xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, harbiy

xizmatchilar, ichki ishlar organlarining oddiy va boshliklar tarkibidagi shaxslar bulishlari mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni kurib chiquvchi asosiy muassasalar kuyidagilar xisoblanadi:

tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi;

shahar, qishloq, ovul fuqarolarining o'zini - o'zi boshqarish organlari qoshidagi ma'muriy komissiyalar;

ichki ishlar organlari, davlat inspeksiyasi organlari (mansabdor shaxslar) va qonunda nazarda tutilgan hamda vakolat berilgan boshqa organlar (yongin nazorati, xavo va suv transporti organlari va boshqalar).

Ma'muriy huquqbuzarlik turlari.

1. fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovo'z qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

2. axoli sogligini muxofaza qilish soxasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

3. mulkka tajovo'z qiluvchi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

4. tabiiy muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish soxasidagi huquqbuzarliklar uchu ma'muriy javobgarlik;

5. sanoat, qurilish va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish soxasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

6. qishloq xo'jaligidagi huquqbuzarliklar veterinariya - sanitariya qoidalarini buzganlik uchu ma'muriy javobgarlik;

7. transportdagi yo'l xujaligi va aloqa soxasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

8. fuqarolarning turar joy huquqlariga taallukli kommunal xizmat va obodonlashtirish soxasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

9. savdo, tadbirkorlik va moliya soxasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

10. odil sudlovga tajovo'z qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

11. jamoat tartibiga tajovo'z qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

12. boshqarishning belgilangan tartibiga tajovo'z qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik;

Ma'muriy javobgarlik - aybdorga nisbatan ma'muriy huquq normalarida ko'zda tutilgan doirada jazo qo'llashdir.

Ma'muriy jazo - ma'muriy huquqbuzarni qonunlarga rioya etish, turmushqoidalarini xurmat qilish ruxida tarbiyalashhamda shu huquqbuzarni o'zi tomonidan ham yangi huquqbuzarlik harakatlari sodir etilishining oldini olishmaqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik harakatlari uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi:

1. Jarima - ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shaxsdan davlat xisobiga pul undirishdir. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa bu huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab quyilgan eng kam oylik ishhaqidan kelib chiqqan xolda belgilanadi.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori eng kam ishxaqining ellikdan bir qismidan, mansabdor shaxslarga esa - undan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng ko'p miqdori eng ko'p ishxaqining besh baravaridan, mansabdor shaxslar uchun esa - o'n baravaridan oshmasligi kerak. Qonunda belgilangan ayrim huquqbuzarliklar uchun fuqarolarga eng kam oylik ishxaqining o'n baravarigacha, mansabdor shaxslar uchun esa un besh baravarigacha solinishi mumkin.

2. Xaqini to'lashsharti bilan olib quyish - ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etilishiga sabab bo'lgan yoki bevosita ashyo bo'lgan buyumni xaqto'lashsharti bilan olib quyish, shu ashyoni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborishhamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotishharajatlarini chegirib tashlangan xolda topshirishdan iboratdir.

O'q otar qurollar va o'q - dorilarni haqini to'lashs harti bilan olib qo'yish asosiy tirikchiligi ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

3. Musodara qilish - ma'muriy huquqbuzarlik harakatini sodir etish quroli xisoblangan yoki bevosita ashyo bo'lgan buyumni musodara qilish, shu ashyoning xaqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat bo'lib, bo'ch ora: tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan; bojxona organlari tomonidan (O'zb. Res. MJTKning 27 - moddasida qayd etilgan xollarda) qo'llanilishi mumkin.

O'q otar qurollar va o'q - dorilarni, boshqa ov qurollarini musodara qilish asosiy tirikchiligi ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

4. Maxsus huquqdan maxrum qilish - muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquq(transport vositalarini boshqarishdan, ov qilishhuquqi)dan maxrum qilishchorasi tuman (shahar) ma'muriy ishlar sudyasi tomonidan uch yilgacha muddatga qo'llaniladi.

Nogironligi tufayli transport boshqaruvchilarga, asosiy tirikchiligi ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan bu jazo chorasi qo'llanilishi mumkin emas.

5. Ma'muriy qamoqqa olish. - bu jazo chorasi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan uch sutkadan o'n besh sutkagacha muddatga, favqulotda holat tartibi sharoitida esa. jamoat tartibiga tajovo'z qilganligi uchun - o'ttiz sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ma'muriy jazo tuman (shahar) ma'muriy sudyasi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, shunigdek, harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshligi tomonidan belgilanadi.

Bu jazo chorasi xomilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'lmaganlarga, birinchi va ikkinchi gurux nogironlariga qo'llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarlikka nisbatan qo'llaniladigan jazo me'yoriy xujjatlarga aniqrioya qilgan xolda belgilanadi. Jazo berishda huquqbuzarlikning o'ziga xos xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy axvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va ogirlashtiruvchi holatlar xisobga olinadi.

Javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi (O'zR MJ 31 - m): aybdorning o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi, aybdorning huquqbuzarlik harakati oqibatlarining oldini olish, yetkazilayotgan ziyonni ixtiyoriy ravishda to'lashi yoki yetkazgan zararni bartaraf etishi; huquqbuzarlik harakatini kuchli ruxiy xayajon ta'siri ostida yoki shaxsiy yoxud oilaviy mushkul muammolari oqibatida sodir etishi; huquqbuzarlik harakatini ko'rkatish, majbur etish ta'sirida yoxud xizmat yo'zasida, moddiy yoki boshqa karamlik tufayli sodir etilishi; huquqbuzarlik harakatining voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi; huquqbuzarlik harakatining xomilador ayol yoki o'n turt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

Javobgarlikni ogirlashtiruvchi holatlar: vakolatli shaxslarning ogoxlantirishlariga qaramay, qonunga xilof harakatlarni davom ettirish; ma'muriy jazoga tortilgan shaxsning bir yil mobaynida yana o'sha turdagi huquqbuzarlik harakati sodir etishi; huquqbuzarlikning ilgari sudlangan shaxs tomonidan sodir etilishi; voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarlikka tortish; huquqbuzarlik harakatining tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda holat paytida sodir etilishi; huquqbuzarlikning mast holatda sodir etilishi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy huquq - davlatni boshqarishga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq soxasidir. Ma'muriy huquq normalari boshqaruv apparatini tashkil qilish tartibi va uning faoliyatini, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquq davlat organlarining xalq xo'jalik tarmoqlarini boshqarishga, ijtimoiy tartibni, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muxofaza qilish va boshqalarga doir faoliyatini tartibga soladi. Ma'muriy organlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning tartibbuzarliklari uchun belgilanadigan ma'muriy javobgarlik jinoiy javobgarlikka nisbatan yengil javobgarlik xisoblanadi. Ma'muriy jazo turlari ma'muriy sud tomonidan belgilanadi. Har bir inson

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik kodeksi qoidalariga, davlatimiz ma'muriy xokimiyat organlarining me'yoriy xujjatlariga amal qilishi talab etiladi.

Nazorat uchun savollar.

Ma'muriy huquq qanday munosabatlarni tartibga soladi ?

Ma'muriy huquq qanday huquq soxalari bilan bog'liq ?

Ma'muriy huquqning manbaalariga nimalar kiradi ?

Davlat boshqaruvi deganda nimani tushunasiz ?

bozor munosabatlarni shakllantirishda davlat boshqaruvi qanday o'zgaradi ?

Ma'muriy huquqiy normalar deganda nimalar tushiniladi.

Ma'muriy huquq munosabatlarni mazmunini aytib bering.

Ma'muriy huquq munosabatlar subyektlariga nimalar kiradi ?

Davlat xizmatchisi deganda nimani tushunasiz ?

Davlat boshqaruv organlari qanday turlarga bulinadi.

GLOSSARIY.

Ma'muriy - boshqaraman, boshqaruvchi ma'nosini anglatadi.

Ma'muriy huquq - davlat boshqaruvini tashkil etishtartibi va boshqaruvni amalga oshirish normalarini o'z ichiga olgan huquqning aloxida tarmogi.

Davlat boshqaruvi - ijtimoiy boshqaruvning asosiy turi.

Prokuratura -nazorat organi.

Davlat boshqaruv organlari - ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiradi.

Ma'muriy huquqiy norma - davlat tomonidan urnatilgan va bajarishi shart bo'lgan qoida.

Ma'muriy huquqbuzarlik - ma'muriy qoidalarning buzilishidir.

Ma'muriy protsess - ma'muriy huquq normalarini amalga oshirish jarayoni.

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov «Biz uchun halqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug'maqсад yuq», Ma'rifat gazetasi 2001 yil 8 dekabr.

2. I. A. Karimov «Yangilanish va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi», Ma'rifat gazetasi 2002 yil 6 aprel.

3. I. A. Karimov «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat». T.: «O'zbekiston», 1992.

4. I. A. Karimov. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yuli». T.: «O'zbekiston», 1992.

5. I. A. Karimov. «O'zbekiston - bozor munosabatlari o'tishning o'ziga xos yuli». T.: «O'zbekiston», 1993.

6. I. A. Karimov. «O'zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari». «O'zbekiston», 1997.

7. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. T.: «Adolat», 1999.

8. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy kodeksiga sharxlar. T. «Adolat» - 2001.

9. O'zbekiston Respublikasining Bojxona to'g'risidagi Kodeksi. T.: 1998.

10. O'zbekiston Respublikasining Solik Kodeksi. T. 1999.

11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat to'g'risidagi Kodeksi. T. 1998.

12. O'zbekistonning Yangi qonunlari. T. «Adolat», 6 - 22 - sonlari.

13. R. X. Alimov. «Ma'muriy huquq». Darslik. T. 1995.

14. R. X. Alimov. L. I. Solovyeva i dr. «Aministrativnoye pravo Respubliki O'zbekistan». T.: «Adolat», 1999.

15. A. Saidov., U. Tadjixanov., X. Odilkoriyev., Davlat va huquq asoslari (Darslik) T., 2002.

16. www. gov. o'z

17. www. edu. o'z

18. www. zivo. tdu. o'z

19. www. ec. tdu. o'z

20. www. performfnce. edu. o'z

3 - Mavzu: Moliya huquqi asoslari.

Reja

1. O'zbekiston Respublikasida moliya tizimining, moliya huquqining konstitustiyaviy asoslari
2. O'zbekiston Respublikasida pul tizimining konstitustiyaviy asoslari
3. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimining konstitustiyaviy asoslari
4. O'zbekiston Respublikasida bank tizimining konstitustiyaviy asoslari
5. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi tushunchasi

1. O'zbekiston Respublikasida moliya tizimining, moliya huquqining konstitustiyaviy asoslari

Konstitustiyaning 122 - moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul - kredit tizimiga ega» deb belgilab qo'yilgan. Moliya tushunchasi juda keng tushuncha bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib hisoblanadi.

“Moliya” – lotincha ibora bo'lib, pul to'lovlari degan ma'noni bildiradi. Lekin moliyani pul to'lovlari deb tushuntirish etarli emas, balki bu ibora uning tashqi ko'rinishini ifoda qilib, ichki mazmunini ifoda qilmaydi. Ana shunday to'lovlar bir tomondan byudjetga, sug'urta organlariga, soliqlar, yig'imlar, to'lovlar o'tkazish, ikkinchi tomondan esa davlat byudjeti va fondlar hisobida mablag'lar berish, bank orqali amalga oshiriladigan pul to'lovlari holida pul harakatini ifoda qilar ekan, bu harakatlarda ijtimoiy munosabatlar aks etadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish pul mablag'larini talab qiladi.

Moliya huquqi - davlat va mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organlarining o'z vazifalarini amalga oshirish uchun zarur pul jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluchi yuridik normalar. Moliya huquqi myayan pridmetga va tuziishga ega bo'lgan mustaqil huquq sohasidir.

Moliya tizimi yordamida davlat o'ziga kerakli bo'lgan pul mablag'ini yig'ib oladi – pul fondini tashkil qiladi va bu to'plangan pul mablag'i fondini qayta taqsimlaydi. Har bir davlat o'zining mustaqil moliyasiga ega bo'lmog'i kerak.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustailligiga erishdi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi boshqamustaqil davlatlar qatori faat siyosiy mustaqillikka erishib qolmasdan, iqtisodiy mustaqillikka ham erishmoqda, ya'ni o'zining moliyasiga va o'zining milliy daromadiga egadir. O'zbekiston Respublikasining moliyasi mamlakatimiz iqtisodiy tizimining muhim va ajralmas qismi, uning tarkibiy elementidir. Mamlakatimiz iqtisodining rivojlanishi, uning moliyasini yuksalish yo'nalishlarini belgilab beradi va mustahkamlab borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodimizning taraqqiyotini yakunlovchi ko'rsatkichlardan biri milliy daromaddir.

Milliy daromadning o'sishiga mamlakatimiz sanoati, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarning uzluksiz taraqqiyoti sababchi bo'ladi. Moliyani mustahkamlash murakkab vazifalardan biri, bu vazifani bajarmasdan turib, mamlakatimizni himoya qilish, xo'jalik va madaniy rivojlanishini ta'minlash va bozor iqtisodi sharoitiga yirik qadam ko'yish mumkin emas.

Pul resurslarinihosil etish, ularni jamlash, taqsimlash va jamlash yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar moliya deyiladi.

Moliya pul munosabatlari bo'lsada, u ishlab chiqarishga bog'liq. Pul mablag'larini topish, ularning taqsimlanishi va qaysi maqsadlarda hamda qanday usullar bilan ishlatilishi moliya tizimini tashkil etadi. Agar moliyaning ob'ekti pul mablag'lari bo'lsa, uning sub'ektlari ya'ni ishtirokchilari: firma, jamoat tashkilotlari, davlat idoralari, har xil muassasalar, turli oilalar va ayrim shaxslar bo'ladi. Ularning hammasi pul kirimi va chiqimiga ro'para bo'ladilar, shu bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadilar. Molkiyaning mazmuni uni bajaradigan vazifalarida ifoda etiladi.

Moliya quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) Taqsimlash vazifasi – har xil yaratiladigan milliy maxsulot va jamg'arilgan milliy boyluk pul shaklida taqsimlanadi, turli moliya fondlariga aylantiriladi.

2) Rag'batlantirish vazifasi – moliya vositasida iqtisodiy faollik qo'llab - qувvatlanadi. Buning uchun soliqlardan imtiyoz beriladi. Soliqlar kamaytirilsa, firmaning xarajati qisqarib, uning foydasi ko'payadi. Bu esa foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sarflash imkonini beradi. Davlat tomonidan korxonalar va tashkilotlarga moliyaviy ko'mak berish ham ular ishini rag'batlantiradi.

3) Iqtisodiy axborot vazifasi – moliyada iqtisodiy faoliyatning yakuni jamlanadi va bu moliyaviy ko'rsatkichlar shaklini oladi. Bu foyda miqdori, rentabellik, korxonaning likvidligi, uning pul mablag'lari va qarzining miqdori kabilardir. Shularga qarab korxonaning moliyaviy holatiga baho beriladi.

Moliya o'z vazifalarini moliyaviy vositalar, chunonchi, soliqlar, har xil to'lovlar, subsidiyalari, pul fondlari vositasida bajaradi. Jami moliya vositalari moliya mexanizmi deb yuritiladi. O'zbekistonda Moliya bir qancha bo'g'ing'lardan iborat bo'lib, yagona moliya tizimini tashkil qiladi. Bu tizimga quyidagilar kiradi:

1) O'zbekiston davlat byudjeti - buni tarkibiga Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar kiradi.

2) Byudjetdan tashqari fondlar: ijtimoiy sug'urta fondi, pensiya fondi, aholi bandlik xizmati fondlari kiradi va byudjetdan tashqari maqsadga yo'naltirilgan jamgarmalari. Masalan: Bobur nomidagi jamg'arma, Xalqaro Amir Temur xayriya jamg'armasi, bu jamgarmalarning asosiy vazifasi Temur va Temuriylar davri tarixi hamda madaniyatini chuqurroq o'rganish, uni keng xalq ommasi, ayniqsa yoshlar o'rtasida faol targ'ib qilish.

3) Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning moliyasi.

4) Mulkiy va shaxsiy sug'urta.

5) Davlat krediti va bank krediti – bular hammasi yig'ilib moliya tushunchasini beradi. Bu bo'g'ing'lar moliya tizimini tashkil qilishi bilan birga, ham bir bo'g'ing'in o'ziga xos xususiyati bilan jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy holatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Davlat byudjeti – moliya tizimi ichida markaziy o'rinni egallaydi. Davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ni katta qismini korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan kelib tushadigan daromadlar tashkil qiladi. Undan keyin esa fuqarolardan olinadigan soliqlar hisobiga byudjet daromadlari tashkil topadi. Davlat byudjetining eng ko'p qismi O'zbekiston aholisini ijtimoiy himoya qilish, kam ta'minlangan oilalarga yordam berishga sarflanadi.

Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning moliyasi – moddiy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lib, natijada milliy daromad hosil bo'ladi. Bunga korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, jamoa xo'jaliklari, kooperativ va jamoat tashkilotlari moliyasi kiradi. O'zbekiston Respublikasi bozor sharoiti munosabatlariga kirib borishida bo'larning moliyasi asosiy moliya bo'g'ing'laridan bo'lib hisoblanadi. Korxonalar va tashkilotlarda hosil bo'lgan moliyaviy resurslar esa davlat byudjetining asosiy daromadlar manbai bo'lib hisoblanadi.

Mulkiy va shaxsiy sug'urta – asosan yuridik va jismoniy shaxslarning badal pullari hisobiga sug'urta fondi tashkil qilinadi. Sug'urta fondining asosiy vazifasi tabiiy ofat va boshqa baxtsiz hodisalar natijasida kelib chiqqan zararni qoplashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida Sug'urta ishlari O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta to'g'risida»gi 1993 - yil 6 - may qonuni asosida amalga oshiriladi.

Shu qonunga asosan sug'urta – inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda xodisa va boshqa voqealar natijasida etkazilgan zarar, hamda talofatlarni jismoniy va yuridik shaxslar to'lagan sug'urta badallari (sug'urta pullari) dan hosil qilingan pul fondlari hisobidan to'liq yoki qisman qoplash yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlar sug'urtalanishini ta'minlashga doir munosabatlar demakdir.

Davlat krediti va bank krediti – bozor sharoitida juda katta ahamiyatga egadir. Davlat krediti orqali davlat aholining vaqtincha foydalanmay turgan pul mablag'idan xalq xo'jaligini kreditlashda foydalanadi. Davlat kreditida aholi, ya'ni fuqaro o'z xohishi bilan pul mablag'ini davlat ixtiyoriga berib qo'yadi. Masalan omonatga pul ko'yishi, davlat zayomlarini sotib olishi

misol bo'la oladi.

Bank krediti ikki xil, ya'ni qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi. Davlat banklarida korxonalar, tashkilot hamda fuqarolarning pullari saqlanadi. Bu saqlanishga berilgan pullarni banklar muxtoj korxonalar, tashkilot va fuqarolar uchun qarzga, ya'ni kreditga qisqa yoki uzoq muddatga berishi mumkin. Qarzga berish hisobiga bank qarzga olingan summadan foiz hisobida daromad oladi. Davlat krediti va bank krediti ham o'z navbatida moliya tizimining ko'zga ko'ringan bo'g'inini tashkil qiladi.

2. O'zbekiston Respublikasida pul tizimining konstitutsiyaviy asoslari

O'zbekiston Respublikasida pul tizimi – O'zbekiston Respublikasida pul muomalasini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 122 - moddasida hamda O'zbekiston Prezidentining 1994 - yil 16 - iyunda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomilaga kiritish to'g'risida»gi farmoni hamda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqarilgan normativ - huquqiy aktlar asosida tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida pul siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi bankining roli juda ham kattadir. Pul tizimi hamda pul muomalasini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining rasmiy pul birligi - so'mdir. Bir so'm yuz tiyindan iborat. So'm O'zbekiston Respublikasida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi bo'lib hisoblanadi. 1 iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining Milliy valyutasi - «so'm» O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 va 1996 yildan boshlab 200 so'm, 2000 yildan 500 so'm, 2001 - yildan 1000 so'm bo'lgan bank qog'oz (banknotlar) va 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyin bo'lgan metal tangalar hamda nakd pul muomalaga chiqarildi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutloq huquqqa ega, ularni qalbakilashtirish va noqonuniy tarzda tayyorlash qonuniy hujjatlarga muvofiq javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Muomalada bo'lgan banknotlar va tangalar Markaziy bankning qat'iy majburiyatlari hisoblanadi va uning jami aktivlari bilan ta'minlanadi. Shuning bilan birga Markaziy bank yo'qqilib yuborilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo'qotgan banknotlar va tangalarning o'rnini ko'plamaydi.

Markaziy bank banknotlar va tangalarning namunalarini, shuningdek ularning dizaynini Oliy Majlisning Kengashi bilan kelishgan holda Tasdiqlaydi. Banknotlar va tangalarning dizayni Markaziy bankning mulki hisoblanadi. Markaziy bank yangi namunalaridagi banknot va tangalar muomalaga chiqarilishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek ularni tavsifini ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Pul – shunday maxsus tovar, u boshqahamma tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham, qiymat ham iste'mol qiymatga ega. Shu ma'noda u boshqa oddiy tovarlardan farqqilmaydi.

Pul bozor iqtisodiyotining muhim omilini tashkil qiladi. Hozirgi iqtisodiy hayot, xususan, bozor iqtisodiyoti pul bilan tirik. Pul bo'lmagan joyda bozor iqtisodiyoti bo'lishi mumkin emas. Bozor iqtisodi tovarlar va tovarlashgan xizmatlarni ishlab chiqarishdan boshlab, to iste'moligacha bo'lgan harakatdan iboratki, bu pul vositasida amalga oshadi. Ishlab chiqarish resurslari bozorda pulga xarid qilinib, tovarlar yaratiladi va pul daromadlariga ayirboshlanib iste'molga o'tadi. Tovarlarning iste'mol yoki investitsiya (ishlab chiqarish) uchun sarf etiladimi, baribir pul yordamida harakatga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini uyushtirish, pullarni ayirboshlash, ularni saqlash, taqsimlash, bo'sh pulni berish, ya'ni uni sotish, pul vositasida moliyani tashkil etish kabi iqtisodiy aloqalar yanada kuchayib, murakkablashib boradi. Pul shaklidagi mablag'lar bozor orqali resurslarga aylanadi va ular ishtirokida tovarlar yaratiladi hamda sotilib yana pul olinadi.

O'zbek so'mini joriy qilish zaruriyati. Sobiq Ittifoq parchalanib ketganidan so'ng MDXdagi yangi mamlakatlar yagona pul birligini saqlab qolishga aslo xojat kolmadi. Ayni

paytda mustaqil davlatlar alohida moliyaviy siyosat yurgiza boshlandi.

Bunday sharoitda:

1) Rubl zonasidagi respublikalarda moliya sohasida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan bilish mushkul bo'lib koldi;

2) Nakd pulsiz mablag'harakati, o'tkazish yuli bilan to'lovlar ancha cheklanadi;

3) Mintakalar aro foiz me'yorlari o'rtasidagi farq kuchaydi;

4) Pulni qadrsizlanishi alohida respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston xukumatini nazoratidan chiqa boshladi.

5) Rossiya Markaziy banki tomonidan MDX mamlakatlarini nakd pul va kreditlar berishning muntazamligiga rioya qilinmagani mablag' etishmasligi va iqtisodiy faoliyatda beqarorlikka olib keladi.

6) Turli respublikalarda pulni har xil darajada qadrsizlanishi mintakada iste'mol mollarini kamaytirib yubordi.

7) Xukumatlar o'rtasida ishonch va hamjihatlik yo'qligi, shuningdek, ko'pincha unchalik muhim bo'lmagan masalalar bo'yicha xatti - harakatlar axvolni battar ogirlashtirdi.

So'mni joriy qilishda O'zbekiston o'zi tanlagan yo'ldan bordi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) avvalo, u boshqa mamlakatlar tajribasiga o'xshamaydi.

2) Xalol ishlab tanilgan pulni hammasi almashtiradigan bo'ldi.

3) Yangi va eski pul nisbati 1:1. Boshqa davlatlarda esa bu turlicha bo'ldi: 1:100, 1:50, 1:10 va hokazo.

«Birga bir» nisbat iqtisodiy jihatdan eng arzon ruxiy psixologik jixatdan eng kulaydir.

3. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimining konstitustiyaviy asoslari

Sobiq Ittifoqhukumatini tugatilishi bilan O'zbekiston Respublikasining davlat va iqtisodiy holati tubdan o'zgardi. O'zbekiston Mustaqil suveren davlat bo'ldi. Bu davlatchilikning muhim atributi bo'lgan - byudjetning o'zgarishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan byudjetlar ikkiga bo'linadi:

- davlat byudjeti,

- mahalliy byudjet.

O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasining 122 - moddasiga binoan O'zbekiston davlat byudjeti respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga binoan davlat mulki respublika mulki va ma'muriy - hududiy tuzilmalar mulkidan (munistipal mulkdan) iborat. Tegishli byudjetning vositalari va boshqa davlat mol - mulki, agar ular davlat korxonasi va muassasasiga birkitilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining davlat xazinasini, viloyat xazinasini tashkil qiladi. Respublika mulki respublika byudjetiga tushadigan soliqlar, yigimlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek qonunlar nazarda tutilgan asoslarga muvofiqboshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

Munistipal mulk - davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol - mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, shuningdek uy - joy fondi va kommunal xo'jalik korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol - mulkdan iborat. Munistipal mulk mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek qonunhujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiqboshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

Shunday qilib, davlat byudjeti respublika byudjeti, respublika tarkibiga kiruvchi Korakalpog'iston Respublikasi byudjeti va viloyatlar byudjetidan tashkil topadi.

Mahalliy byudjet esa, tuman, shahar, qishloq va boshqa ma'muriy - hududiy tuzilmalar pog'onasida tashkil topadi.

Byudjetning qanday pog'onada tashkil topishidan qat'iy nazar, byudjetni uch ma'noda tushunish mumkin:

a) iqtisodiy ma'noda;

b) moddiy ma'noda;

v) huquqiy ma'noda.

Iqtisodiy ma'noda byudjet - byudjet fondlarini turli pog'onada tashkil etish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy (pul) munosabatlari tizimini anglatadi.

Moddiy ma'noda byudjet - davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari funkstiyalarini ta'minlashmaqsadida u yoki bu pog'onada tashkil qilinuvchi markazlashgan pul fondini anglatadi. Hujjatlar, u yoki bu tadbirlarni byudjet hisobidan moliyalashtirish, byudjet mablag'lari hisobidan organlar va muassasalarni ta'minlash, daromad manbaini byudjet hisobiga o'tkazish to'g'risida so'z yuritganimizda, byudjetning aynan shu jihati nazarda tutiladi.

Huquqiy ma'noda byudjet - tegishli davlat hokimiyatining vakillik organi tomonidan Tasdiqlangan, tegishli hududning markazlashgan pul fondini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishning moliyaviy Reja: si bo'lib hisoblanadi.

Qonun bilan o'rnatilgan tartibda Tasdiqlangan byudjet - davlatning asosiy moliyaviy - rejali akti yoki mahalliy pog'ona dagi moliyaviy - Reja: li akt sifatida namoyon bo'ladi.

Asosiy moliyaviy Reja: sifatida byudjet quyidagi xususiyatlarga ega:

a) byudjet universal moliyaviy Reja: hisoblanib, o'z ko'rsatkichlari bilan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning barcha sohalarini kamrab oladi. Bu universallik xususiyati boshqa moliyaviy Reja: larda uchramaydi, chunki ular juda tor doirada harakatqiladi.

b) boshqa moliyaviy Reja: larga nisbatan byudjet - yo'naltiruvchi xususiyatiga ega. Yo'naltirish - byudjet ko'rsatkichi bilan boshqa moliyaviy Reja: lar ko'rsatkichining o'zaro bog'likligi orqali amalga oshiriladi. Korxonalarining moliyaviy Reja: larida byudjetga tulanadigan majburiy to'lovlar xajmi va byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ko'rsatiladi.

Davlat byudjet tashkilotlari o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun kerak bo'lgan barcha mablag'larni tegishli byudjetning (bo'ysunuviga karab) xarajatlar qismidan oladilar.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha aspektlar byudjet tushunchasini to'ldirib turadi. Byudjet bu - davlat hokimiyati organlari funkstiyalarini ta'minlashmaqsadida pul mablag'larini tashkil etish va xarajat qilishshaklidir. Bu tushunchadan ko'rinib turibdiki:

birinchidan, byudjet – pul mablag'larini tashkil etish va xarajat qilishshakli bo'lib hisoblansa,

ikkinchidan, byudjet – davlat hokimiyati organlarining funkstiyalarini ta'minlaydi.

Demak, byudjet – davlat hokimiyati vakillik organi tomonidan Tasdiqlanadigan markazlashgan pul fondlarining tashkil topishi, taqsimlanishi va foydalanishining asosiy moliyaviy Reja: si bo'lib, davlatning barcha vazifalari va funkstiyalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat byudjeti har yili Tasdiqlanadi va u 1 - yanvardan 31 - dekabrga qadar harakatda bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishida byudjetdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar maxsus gurux normalarini keltirib chiqaradi, hamda moliya huquqining bo'limi bo'lgan - byudjet huquqini tashkil qiladi.

Byudjet huquqi o'z tarkibiga bir necha moliyaviy institutlarni oladi. Byudjet huquqi normalari moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, byudjetning tashkil topishi, taksimlanishi va undan foydalanilishi jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Shuning uchun ham byudjet huquqi - respublika hududida davlat va mahalliy byudjetlarni tashkil etish, taqsimlash va foydalanish natijasida yuzaga keluvchi ijtimoiy (moliyaviy) munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy - huquqiy normalar yig'indisidan iborat.

Byudjet huquqining predmetini - byudjet fondlarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanish natijasida yuzaga keluvchi munosabatlar tashkil qiladi. Bu munosabatlar quyidagilardan iborat:

a) respublikada byudjet tuzilishi va byudjet tizimini o'rnatish;

b) byudjet tizimi daromadlar va xarajatlarning strukturasi o'rnatish va ularni turli pog'onadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash;

v) byudjet vakolat doirasini chegaralash (ya'ni davlat va uning sub'ektlari o'rtasida);

g) byudjet jarayonini tashkil etish bilan, ya'ni byudjetlarni tuzish, ko'rib chiqish, Tasdiqlash va ijro etishning tartibini joriy etish, shuningdek tegishli byudjetlarning ijro etilishi

to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish va Tasdiqlash,

d) byudjet ijrosini nazorat qilishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan byudjet munosabatlarining ham bir guruxi o'zida aniqbo'lgan munosabatlar yig'indisini kamrab oladi, ular o'zaro bog'liqdir. Masalan, byudjet tizimi daromadlar va xarajatlarning strukturasi o'rnatish bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar mazkur tizimni o'rnatish bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas, o'z navbatida bu ikkala gurux munosabatlari byudjet tizimini o'rnatish bo'yicha davlat organlari kompetenstiyasini belgilashsiz amalga oshirilishi mumkin emas.

Byudjet huquqi me'yorlari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar guruhlari - byudjet huquqiy munosabatlari bo'lib hisoblanadi. Bu munosabatlar boshqahuquqiy munosabatlardan farqqilgan holda, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bu munosabatlar byudjet faoliyati jarayonida yuzaga keladi, ya'ni byudjetni tashkil etish, taqsimlash va foydalanish faoliyatida yuzaga keladi. Byudjet munosabatlarining boshqa bir xususiyati shundan iboratki, boshqahuquqiy munosabatlar sub'ektlaridan farqqilgan holda, ularning sub'ektlar doirasida juda tordir.

4. O'zbekiston Respublikasida bank tizimining konstitustiyaviy asoslari

Mustaqil davlat iqtisodiyotini etarli kredit resurslar bilan ta'minlay oladigan, turli mulk va tashkiliy - huquqiy shaklda paydo bo'lgan korxonalar xo'jalik faoliyati jarayonida hisob - kitoblarni uzluksiz amalga oshirishni ta'minlaydigan, mustaqillikning birinchi yillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi navbatda rivojlanishini talab qilgan iqtisod sohalariga investistiyalarni jalb etish imkoniyatini yaratadigan, tashqi savdo munosabatlarini liberalizastiyalangan sharoitlarda korxonalarining tashqi faoliyatiga xizmat ko'rsata oladigan bank tizimini butunlay boshidan tashkil qilish zarur edi.

Bank tizimidagi islohotlar davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin olib boriladigan iqtisodiy islohotlarni ajralmas qismi edi.

Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan bank tizimini tashkil etish moliya sohasini islohotlash maqsadlaridan biri edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida «Markaziy bank tomonidan boshqariladigan va o'z ichiga mustaqil va xususiy banklarni kiritadigan bank tizimini shakllantirishni, O'zbekiston Respublikasi hududida chet davlatlar yirik banklarining bo'limlari va vakolatxonalarini ochilishi uchun yaxshi sharoitlarni yaratib berishni» bozorga o'tishni birinchi bosqichining asosiy tadbirlaridan deb ta'kidlaydi.

Bank tizimini islohotlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Rahbarligi ostida amalga oshirilmoqda. 1992 - yilning sentyabr oyida sobik Sovet Ittifoqi Davlat bankining O'zbekistondagi respublika bo'limi to'la O'zbekistonda bank tizimini tashkil etadigan va boshqaradigan O'zbekiston Markaziy bankiga aylantirildi.

Mustaqillikka erishilgan paytdan boshlab hozirgi davrgacha bank islohotlarini ikki bosqichini ajratsa bo'ladi. Birinchi bosqichda zamonaviy bank tizimining asoslari yaratiladi: kerakli me'yoriy hujjatlar qabul qilinadi, institustion islohotlar o'tkaziladi, bank nazorati tashkil qilinadi, yangi tashkil qilingan banklar moddiy - texnik ta'minlandi.

Bank sohasi islohotlarida 1991 - yil 15 - fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikai «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni muhim rol o'ynadi. U Markaziy bankka ijro organlaridan mustaqillik berdi, respublikada tijorat banklarni tashkil qilish va ularga faoliyat ko'rsatish uchun huquqiy asos yaratdi.

1994 - yil 1 - iyuldan boshlab respublika o'z valyutasiga o'tishi ham bank islohotlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli asarida 1994 - yil 1 - iyuldan boshlab O'zbekiston hududida muomalaga milliy valyutasini - so'mni yagona to'lov vositasi sifatida kiritishi chindan revolyustion qadam bo'ldi deb yozadi.

Milliy valyutani kiritilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qo'l ostida o'tkaziladigan juda ko'p tadbirlarni o'tkazishni talab qildi.

Bank tashkilotlari tomonidan mulkiy va huquqiy - tashkiliy shaklidan qat'iy nazar

O'zbekiston hududida ro'yxatga olingan hamma yuridik shaxslarning hisob varaqlaridagi mablag'lari, butunlay asosiy va aylanma fondlar va boshqa moddiy boyliklari, kreditor va debitor qarzdorliklari, respublika va mahalliy byudjet qoldiqlarining qiymati qayta hisoblangan.

1995 - yilga qadar O'zbekiston Respublikasida ikki pog'onali bank tizimi shakllanadi. Bank tizimini yuqori pog'onasini egallagan Markaziy bank bank tizimiga Rahbarlik qiladi, bank xizmatlari sohasidagi qoidalarni o'rnatadi, tijorat banklarini nazorat qiladi.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasini turli tijorat banklar tashkil qiladi. Bu – universal, ya'ni bank operastiyalarini hamma turlarini bajaradigan, va ixtisoslashgan, ya'ni iqtisodni aniq tarmoqlariga xizmat ko'rsatadigan yoki bank operastiyalarini ba'zi bir turlarini bajaradigan banklar filiallarga ega bo'lgan va filiallari yo'q banklar; O'zbekiston banklari, qo'shma banklar va chet el banklarining sho'ba banklari va hokazo banklardir.

Markaziy bank o'zi ham kardinal o'zgardi. Uning huquqiy maqomi, maqsadlari va vazifalari o'zgardi. Agar Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rejaviy, iqtisodda ikkinchi darajali element hisoblangan bo'lsa, mustaqillikka erishilgandan so'ng iqtisodiy islohotlarda Markaziy bank asosiy o'rinni egalladi.

Islohotlarga davlat tomonidan Rahbarlik qilish tamoyili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taklif qilingan va jamiyatda islohotlarni o'tkazish paytida qo'llanadigan beshta tamoyildan biridir. Shu tamoyildan kelib chiqib, Markaziy bank moliya sohasida o'tkazilayotgan islohotlarga Rahbarlik qiladi, boshqa sohalarda o'tkazilayotgan islohotlarda faol qatnashadi. Islohotlarni o'tkazish paytida o'z ma'muriy vakolatlari qatorida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bozor instrumentlaridan ham foydalanadi. Bu uning ochiq bozordagi operastiyalari(masalan, davlat qimmatli qog'ozlarini oldi - sotdi operastiyalari), qayta moliyalash foizlari (bu foizlar tijorat banklar olgan kreditlari uchun to'lanadigan foizlardir), tijorat banklari uchun o'rnatilgan majburiy rezerv talablari (tijorat banklar uchinchi shaxslardan qabul qilingan mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan foizda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'tkazish Majburiyatlarini)ning miqdorini tartibga solish bo'yicha choralardir.

Tashqi aloqalar rivojlanishi va dunyo iqtisodiga har tomonlama integrastiyalashga yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshiradigan valyuta operastiyalarini va xalqaro hisob - kitoblarni birdan ko'payib ketishiga olib keldi. «Markaziy bank to'g'risida»gi Qonunning 40 - moddasi va «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonun me'yorlariga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga soluvchi va valyuta nazoratining asosiy organi hisoblanadi va tashqi aloqalarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini yanada faollashtirdi.

Markaziy bankni tuzilmasi ham ancha o'zgardi. Valyutani tartibga solish, bank nazoratini amalga oshirish, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha tuzilmalar tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha choralar doimo amalga oshirilmoqda.

Agar bank islohotlarining birinchi bosqichini miqdoriy islohotlar bosqichi deb ataydigan bo'lsak, 1995 - 1996 - yillarda boshlangan islohotlarning ikkinchi bosqichida asosiy e'tibor islohotlarning sifatiga ajratilgan.

Bank islohotlarining ikkinchi bosqichi ikkita bank qonunlari «Markaziy bank to'g'risida»gi Qonun va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning yangi taxririda qabul qilinishi bilan boshlandi. Bu ikki qonun bank faoliyatini huquqiy tartibga solish bo'yicha dunyo tajribasini o'rganib chiqilgandan so'ng xalqaro moliyaviy tashkilotlarning etakchi mutaxassislari ishtirokida qabul qilingan.

Bank islohotlarining ikkinchi bosqichi tadbirlari asosan bank xizmatlarining sifatini xalqaro standartlargacha oshirish dunyo to'lov munosabatlariga integrastiya qilishga imkoniyat yaratib beradigan to'lov tizimiga o'tish, bank sohasiga chet el investistiyalarini jalb etishga yo'naltirilgan. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida, valyuta bozorida faoliyatlari rivojlanmoqda, banklar bank operastiyalarini yangi turlarini - lizing, faktoring, seyflar va maxsus xonalarni ijaraga berish kabi operastiyalarni o'zlashtirmoqdalar.

Etakchi dunyo banklarining O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan qiziqishlari oshmoqda.

Ulardan bir kanchasi O'zbekistonda o'z vakolatxonalari va sho'ba banklarini ochdilar. O'zbekiston hududida qo'shma banklar tashkil qilinmoqda.

Bank tizimini axborot, ilmiy va xodimlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilmoda. Bank tizimida yuqori Rahbariyat uchun mutaxassislarni tayyorlash uchun Bank - moliya akademiyasi tashkil qilindi.

5. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi

Faqat tijorat banklari bilan bir qatorda bank tizimiga Rahbarlik qilish funkstiyasini bajaradigan bosh davlat (markaziy, milliy) banklar paydo bo'lgandan so'ng bank tizimi to'g'risida gapirsa bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi – O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan banklar yig'ini va ular o'rtasidagi munosabatlar asoslaridir. Bizning respublikamiz hududida o'ttizdan ortiq banklar mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

Bank tizimi tushunchasi o'z ichiga miqdoriy ko'rsatkichlardan tashqari banklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amalga oshirish tartibini kiritadi. Bank tizimi – bank tashkilotlarining oddiy yig'ini emas bu, shuningdek ular o'rtasidagi bog'liqlik, qaramliklardir. Yangi tashkil qilinayotgan banklar faoliyat ko'rsatayotgan banklar bilan yaqin bog'lanadilar. Bitta bankning muammosi boshqa banklarga ta'sir qiladi, agar muammo bir necha banklarda bo'lsa, bu butun bank tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank tizimi davlat xo'jaligini kerakli pul mablag'lar bilan ta'minlaydigan davlat iqtisodiyotini qon tomirlari tizimidir.

Ko'p davlatlar singari, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ikki pog'onalidir. Birinchi pog'onani O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va uning hududiy Boshboshqarmalari tashkil qiladi. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi bosh davlat banki hisoblanadi va bank tizimini yadrosini tashkil qiladi.

Ikkinchi pog'onani mijozlarga bank xizmati ko'rsatadigan hamma tijorat banklar tashkil qiladi. Jismoniy va yuridik shaxslar tijorat banklarga mijozlardir. Tijorat banklarining mijozlarining ko'pi davlat va nodavlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlardir. Bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tijorat banklarda o'z pul mablag'larini saqlaydilar, ular orqali hisob - kitoblarni amalga oshiradilar, bankning boshqa xizmatlaridan foydalanadilar. Bank xizmati pullik asosda taqdim etiladi. Bank xizmati uchun to'lovlar bank va mijoz o'rtasida imzolangan fuqarolik - huquqiy shartnomalar asosida belgilanadi.

Yana shuni aytib o'tish kerakki, bank tizimi o'z ichiga qator texnik va tashkiliy ko'rsatkichlarni ham kiritadi. Hamma banklar yagona bank aloqasi orqali bir - birlari bilan bog'langanlar. Bitta bankni xizmat uchun tanlagan mijoz nafaqat O'zbekiston banklari, balki butun dunyo banklari mijozlari bilan hisob - kitoblarni amalga oshirishlari mumkin.

Bundan tashqari bank tizimidagi etika talablari, bank xodimlarining xulqi, muomalasi va fikrlashi, bank xodimlarining boshqa sohalarga qaraganda malakali bo'lishi talab etiladi.

XULOSA.

Moliya tizimi yordamida davlat o'ziga kerakli bo'lgan pul mablag'ini yig'ib oladi – pul fondini tashkil qiladi va bu to'plangan pul mablag'i fondini qayta taqsimlaydi. Har bir davlat o'zining mustaqil moliyasiga ega bo'lmog'i kerak.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqilligiga erishdi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi boshqamustaqil davlatlar qatori faqat siyosiy mustaqillikka erishib qolmasdan, iqtisodiy mustaqillikka ham erishmoqda, ya'ni o'zining moliyasiga va o'zining milliy daromadiga egadir. O'zbekiston Respublikasining moliyasi mamlakatimiz iqtisodiy tizimining muhim va ajralmas qismi, uning tarkibiy elementidir. Mamlakatimiz iqtisodining rivojlanishi, uning moliyasini yuksalish yo'nalishlarini belgilab beradi va mustahkamlab borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodimizning taraqqiyotini yakunlovchi ko'rsatkichlardan biri milliy daromaddir.

Nazorat uchun savollar

1. “ Moliya” so'zining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi ?
2. Moliya qanday vazifalarini bajaradi ?

3. O'zbekistonda moliya tizimiga nimalar kiradi ?
4. O'zbekistonda pul siyosatini qaysi bank amalga oshiradi ?
5. O'zbekistonda byudjet necha xil bo'ladi ?
6. O'zbekiston Respublikasida bank necha pog'onali tizim asosida shakllandi ?

GLOSSARIY

Moliya - davlat yoki tashkilot ixtiyorida bo'lgan barcha pul mablag'larining majmui,

Bank - pul mablag'larini o'zida saqlovchi, kredit beruvchi, pul isobotlarini, pulchiqarishni, qimmatli qimmatli qog'ozlarchiqarishni amalga oshiruvchi va davlatlar, korxonalar, muassalar va alohida shahslar orasidagi o'zora to'lovlaarni va hisob –kitobniamalga osirishda vositachi vazifasini bajaruvchi maxsus iqtisodiy institut.

Soliq - yuridik shaxslar va fuqarolardan olinadigan majburiy to'lov.

Pul birligi - mamlakat pulining qonun bilan belgilangan nomi.

Pul muomalasi. - tovarlar aylanishiga, shuningdek tovarsiz to'lovlar va hisob –kitoblarga xizmat ko'rsatuvchi naqd va nnaqd bo'lmagan shaakldagi pul harakati.

Moliyaviy hisobot - xo'jalik sub'ektlri qonun talablariga muvofiq tuzadigan majburiy hisobot shakli.

Adabiyotlar.

1. I. A. Karimov «Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q», Ma'rifat gazetasi 2001 yil 8 dekabr.
2. I. A. Karimov «Yanglanish va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi», Ma'rifat gazetasi 2002 yil 6 aprel.
3. I. Zakirov «O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi». 1 - qismi, 1996; 2 - qismi 1999.
4. Islomov «Huquqshunoslik» Toshkent 2002 yil.
5. A. Saidov., U. Tadjixanov., X. Odilqoriyev., Davlat va huquq asoslari (Darslik) T., 2002.
6. SH. Shoraxmetov «O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi». darslik. T... 2001.
7. M. Abdusalamov «O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi». Darslik. 2 - qism. T. 1999y.
8. E. Egamberdiyev. «Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar» T. Adolat 2000.
9. X. R. Raxmanqulov «Xususiy mulk uning daxlsizligi» T., 2000.
10. B. Toshev «Mualliflik huquqi». T. 1997.
11. X. R. Raxmanqulov «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1va 2 qismlariga umumiy tavsif va shvrxlar, 2. jild, T. 1997 - 1999.
12. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik to'g'risidagi Kodeksi. T.: «Adolat», 1996.
13. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual Kodeksi. T.: Adolat 2001.
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining plenumi qarorlari
15. O'zbekistonning Yangi qonunlari. T. «Adolat», 6 - 32 - sonlari.
16. Sergeyeva YU. K. «Grajdanskoye pravo» uchebniq M. 2000.
17. Grajdanskiye Kodeks Rossiyskoy Federatsii: polnyy tekst s izm. 2003.
18. www. gov. o'z
19. www. edu. o'z
20. www. zivo. tdu. o'z
21. www. ec. tdu. o'z
22. www. performfnce. edu. o'z

Reja:

1. Fuqarolik huquqi haqida umumiy tushuncha.
2. Mulk huquqi tushunchasi va uning shakllari
3. Shartnoma, uning huquqiy asoslari
4. Majburiyat huquqi.
5. Mualliflik va vorislik huquqi.

1. Fuqarolik huquqi haqida umumiy tushuncha.

Fuqarolik huquqi tovar - pul munosabatlarini va tomonlarning tengligiga asoslangan boshqa munosabatlarni, mulkiy munosabatlarni va unga bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar majmuidan iborat.

Fuqarolik huquqi - insonning kundalik xayoti va faoliyati bilan bog'lik bo'lgan huquq soxalaridan biridir. Fuqarolik huquqi fuqarolarning maishiy savdo - sotiq, kommunal transport xizmati ko'rsatish soxasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi.

Kundalik xayotda barchamiz mulkiy munosabatlarda ishtirok etamiz. Masalan, do'kondan biron narsa sotib olayotganimizda sotuvchiga pul beramiz, shundan keyingina u bizga kerakli narsani beradi. Bunda sotuvchi va oluvchi o'rtasida mulkiy munosabat sodir bo'ladi.

Mulkiy bo'lmagan shaxsiy munosabatlar mulkiy munosabatlardan shu bilan farqqiladiki, bunda o'zaro munosabatlar qiymat (pul) bilan ifodalanmaydi, balki shaxsning o'zi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Mulkiy va mulkiy bo'lmagan munosabatlar fuqarolik huquqiga taluqli manbalar bilan tartibga solinadi va himoya etiladi. Bu manbalarga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunlari va qarorlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik - protsessual kodeksi kiradi.

Fuqarolik - huquqiy munosabatlar deb, shaxslar o'rtasida bo'ladigan va fuqarolik - huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga aytiladi. Fuqarolik - huquqiy munosabatlar shu munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning erki bo'yicha vujudga keladi.

Fuqarolik - huquqiy munosabatlar:

1. Davlat korxonalarini o'rtasida;
2. Davlat korxonalarini bilan fuqarolar o'rtasida;
3. Fuqarolar bilan fuqarolar o'rtasida vujudga keladi.

Masalan, bir korxonani ikkinchi korxonaga maxsulot yetkazib beradi yoki davlat korxonasidan do'kon boshqaruvchisi aholiga sotish uchun tovar oladi yoki bir fuqaro ikkinchi fuqaroga qarz beradi. Bu huquqiy munosabatlar bitimlar, shartnomalar asosida vujudga keladi.

Bitimlarda fuqarolar va tashkilotlarning fuqarolik huquqlari va vazifalari belgilanadi. Bitimlar bir tomonlama, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bo'lishi mumkin.

Bitimlar oddiy va murakkab shaklda to'ziladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar yuridik shaxslarga (korxonani, tashkilot, jamoa xo'jaligi) va jismoniy shaxslarga (fuqarolar) bo'linadi.

«O'z mulkida, xujalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida aloxida mol - mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yo'zasidan ushbu mol - mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs xisoblanadi».

Jismoniy shaxslar - fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar xisoblanadi. Masalan, bir fuqaro ikkinchi fuqarodan qarz oladi. Bunda fuqarolik - huquqiy munosabatda ikkala fuqaro ham qatnashayapti. Chet el fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham O'zbekiston hududida o'qib, ishlab, O'zbekiston fuqarolari bilan bir qatorda mulkiy munosabatlarda qatnashishi mumkin. Ular ham barcha huquqlardan foydalanadilar va o'zlariga mulkiy majburiyatlarni oladilar. Yuridik shaxslar ham, jismoniy shaxslar ham qonunda belgilangan huquqlarni amalga oshirishlari hamda qonun talab qiladigan burchlarni bajarishlari

shart. Yuqorida aytilganidek, mulkiy huquqiy munosabatlarda fuqarolik huquqlari buzilsa, albatta, sudga, davlat organlariga murojaat etiladi.

Mulkiy munosabatlarda huquqlari buzilgan fuqaro va tashkilotlar faqat ma'lum muddat davomida o'z huquqlarining himoya qilinishini talab qilishga xaqqidirlar. Bu muddat da'vo muddati deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonun xujjatlariga ko'ra - da'vo muddati umumiy (bir yildan uch yilgacha) va qisqartirilgan (olti oygacha) bo'lishi mumkin.

Fuqarolik - huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning asosiy huquqiy xususiyatlari ularning huquq va muomala layoqatidan iborat.

Huquq layoqati fuqarolik - huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning huquq va burchlarga ega bo'lish layoqatini belgilaydi.

U barcha shaxslar uchun teng darajada belgilanadi. Huquq layoqati inson tug'ilishi bilan vujudga keladi va ulishi bilan tamom bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ham har xil huquqlarga, masalan, tibbiy yordam olish, ota - onasidan tarbiya olish, turar joyga ega bo'lish kabi huquqlarga ega bo'ladi. Aqli zaif va ruxiy kasallar hamhuquqiy layoqatga ega. Ular ham davolanish, nafaka olish, mulkdor bo'lish huquqiga egadirlar.

Huquq layoqatiga ega bo'lgan barcha shaxslar o'z mulkiy huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshiravermaydi. Mulkdan to'g'ri foydalanish, o'ziga majburiyat olish kabi layoqat muayyan yoshdan boshlanadi. Shuning uchun fuqarolik - huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar uchun muomala layoqati belgilangan. «Shaxsning o'z xatti - harakati bilan aniqfuqarolik huquqini olish va o'zi uchun fuqarolik burchlarini tug'dirish layoqati – muomala layoqati» - deb ataladi. Muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar aqli rasolik bilan o'z harakatlarining oqibatlarini tushunadilar. Masalan, yangi tug'ilgan bola huquq layoqatidan to'lik foydalansa ham, lekin muomala layoqatiga ega bo'lmaydi. Ya'ni biror bir mulkiy majburiyatni olmaydi. Qonunda to'lik muomala layoqatiga ega bo'lish 18 yoshdan belgilangan. 18 yoshga to'lgan shaxslar mulkiy munosabatda to'la qatnashib, fuqarolik huquq va majburiyatlarni oladilar. Ular mustaqil ravishda bitimlar va shartnomalar to'zishlari mumkin.

Qonunda to'lik muomala layoqatidan tashqari, to'lik bo'lmagan muomala layoqati ham ko'rsatilgan.

To'liq bo'lmagan muomala layoqati 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar uchun belgilangan. Ular ota - onalarining roziligi bilan mayda maishiy bitimlar to'zish, o'z maoshlari va stipendiyalarini sarflash, o'zlarining mualliflik va ixtirochilik huquqlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladilar. Ruxiy kasallar va aqli zaiflar, alkogolik va narkomanlar to'la xajmda muomalaga layokatsiz xisoblanadilar. Bu esa sud tomonidan tan olinishi zarur. Biroq, ular huquq layoqatidan to'lik foydalanadilar. Masalan, ular meros huquqidan, mulk huquqidan boshqa, Konstitutsiyaviy huquqlardan ham foydalanadilar.

Muomalaga layoqatsiz fuqarolarning shaxsini, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, mulkiy huquqlarini kuriklash maqsadida ularga vasiylik va xomiylik belgilanadi. Vasiylik muomalaga layoqatsiz bo'lgan 15 yoshga to'lmagan fuqarolarga, ruxiy kasallar va aqli zaiflarga belgilanadi. Ular o'zlarining harakatlari bilan muomalaga layoqatsizlar nomidan harakat qiladilar. Xomiylik esa 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolarga belgilanadi. Xomiy o'ziga ishonilgan fuqarolarga ularning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlarida yordam ko'rsatadi.

Ota - onalar vasiylik va xomiylik vazifalariga aloxida tayinlanmasdan, qonun buyicha bajaradilar. Ota - onalari bo'lmagan taqdirda yoki ular biror - bir sabab bilan, masalan, kamoqda yoki kasalxonada bo'lishi tufayli bajara olmasalar, yoki ota - onalik huquqidan maxrum etilgan bo'lsalar – vasiylik va xomiylik organlari iloji boricha, vasiy va xomiy vasiylikka olinuvchiga yaqin shaxslardan tayinlaydilar.

Vasiylar ruxiy kasallarni davolash va sogliklariga muvofiqsharoitda asrash tadbirlarini ko'rishlari lozim.

Vasiylar va xomiylar o'zlarining nazoratida bo'lgan shaxslarning huquqlarini barcha muassasalarda, jumladan sudda himoya qila oladilar.

Vasiylik va xomiylik davlatning mahalliy xokimiyat organlari tomonidan belgilanadi.

Vasiylar va xomiylar o'z qaromog'iga olgan shaxslarga gamxurlik qilish, ularni tarbiyalash, sog'liklarini saqlashga doir tadbirlarni bajarish vazifalarini oladilar.

Fuqarolik huquqida munosabatlar ishonchnoma ya'ni bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxs uchun uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ishonchnoma oddiy yozma shaklda va notarial shaklda rasmiylashtiriladi.

Yuridik shaxs tomonidan berilgan ishonchnoma raxbar tomonidan imzolaniib, unga Ushbu yuridik shaxsning muxri bosilishi kerak. Ishonchnoma FKning 139 - moddasiga ko'ra ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar unda muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, berilgan kundan bir yil muddatgacha o'z kuchini saqlaydi. Muddati ko'rsatilmagan ishonchnoma xaqiqiy sanalmaydi.

Ishonchnoma quyidagi xollarda bekor qilinishi mumkin:

- ishonchnoma muddatining tamom bo'lishi;
- ishonchnoma bergan shaxsning uni bekor qilishi;
- ishonchnoma berilgan shaxsning bosh tortishi;
- nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining tuxtatilishi;
- nomiga ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining tuxtatilishi;
- ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb xisoblanishi, yoxud uning vafot etishi;
- ishonchnoma olgan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb xisoblanishi, yoxud uning vafot etishi;

Ishonchnoma bergan shaxs istagan vaqtida ishonchnomani bekor qilishi, ishonchnoma berilgan shaxs esa - undan voz kechishi mumkin. Bu huquqdan voz kechishhaqidagi bitim xaqiqiy emas.

Ishonchnomaning amal qilishi bekor bo'lishi bilan uni boshqaxshaxsga o'tkazishham o'z kuchini yukotadi.

Ishonchnomaning amal qilishi bekor bo'lganidan keyin ishonchnoma olgan shaxs yoki uning merosxo'rlari darxol ishonchnomani qaytarib berishlari shart.

2. Mulk huquqi tushunchasi va uning shakllari.

Yuqorida aytib o'tilganidek, fuqarolik huquqi mulkchilik munosabatlarini tartibga soladi. Mulk bu shaxsга tegishli bo'lgan, uning ixtiyoridagi mol - dunyo, kiyim - kechak kabilardir. Mulk ishlab chiqarishning zaruriy sharti va ishlab chiqarilgan boyliklarning o'zlashtirilishidir. Har bir shaxsning o'ziga tegishli bo'lgan mulki mavjud. Sizning kiyim - boshingiz va sizga tegishli bo'lgan barcha narsalar sizning mulkingizdir.

Nafaqat bular, balki o'rmonlar, yerlar, ishlab chiqarish korxonalari, uylar ham mulk deb ataladi. Bu mulklardan foydalanib, har bir kishi o'zining moddiy va ma'naviy extiyojini qon diradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamhar bir shaxsning mulkdor bo'lishga xaqli ekanligi ta'kidlangan.

Barcha mulklarni xox u fuqarolarning mulki bo'lsin, xox tashkilot, korxonalarining mulki bo'lsin, davlat bu mulklarni himoya qiladi.

Xech kimga mansub bo'lmagan mulk bo'lmaydi. Fuqarolik huquqiga ko'ra, egasiz mulk davlat foydasiga o'tkaziladi. Fuqarolik huquqi tizimida mulk huquqi asosiy urinni egallaydi.

Mulkka taalluqli bo'lgan munosabatlarni tartibga soladigan, mustaxkamlaydigan huquqiy normalar tizimi mulk huquqi deb ataladi. 1990 yil 31 oktabrda «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi qonunqabul qilingan. 1993 yil 7 mayda bu qonunga o'zgartirish va kushimchalar kiritilgan. Mulk huquqi shu qonun bilan tartibga solinadi. Mulk huquqining asosiy mazmunini mulkdorning o'ziga tegishli mol - mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi tashkil etadi. Egalik qilish deyilganda, mol - mulkka bevosita ega bulish, uni o'zida saqlash imqon iyati tushuniladi. Masalan, turar joy sizning oilangizning xususiy mulki, unga oilangiz egalik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan bugungi kunda bozor munosabatlari rivojlanib bormoqda. Davlatimizning iqtisodiy negizini turli shakllardagi mulk tashkil etadi. Mulk shakllari quyidagilardir:

- O'zbekiston fuqarolarining xususiy mulki va chet el fuqarolarining mulki;
- Ommaviy mulk

Mulk daxlsizdir va qonun bilan kuriklanadi. Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashdan iboratdir. Mulkdorning mol - mulkini olib quyishga, shuningdek, uning huquqlarini cheklashga faqat qonunlarda nazarda tutilgan xollardagina yul quyiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga ko'ra mulk huquqining subyektlari, fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat xisoblanadi.

Obyekti bo'lib esa: yer, yer osti boyliklari, suvlar, xavo bushligi, o'simlik va xayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob - uskunalar, xom ashe va maxsulot, pul, kimmatli qogozlar va boshqa mol - mulklar, hamda intellektual mulklar xisoblanadi.

Shaxslarda mulk huquqi quyidagi asoslarda vujudga kelishi mumkin:

Mehnat faoliyati; mol - mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan mol - mulkni yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida kulga kiritish; davlat mol - mulkini xususiylashtirish; meros qilib olish; egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat; qonun xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa asoslar kabilar.

Mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol - mulkka un besh yil davomida yoki boshqa mol - mulkni besh yil davomida o'ziniki kabi xalol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol - mulkka mulk huquqini oladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksida yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu xaqda uni yukotgan shaxsni yoki Ashe egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo'lgan o'zga ma'lum shaxslardan birontasini darxol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsqa qaytarishi shart. Topilma to'g'risida militsiyaga yoki tegishli davlat organlariga xabar qilingan paytdan e'tiboran olti oy mobaynida yo'qolgan ashyoni olishga xaqli bo'lgan shaxs aniqlanmasa hamda ashyoni topgan shaxsqa yoxud militsiya, tegishli davlat organi, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organiga ana shu ashyoga bo'lgan o'z huquqi to'g'risida arz qilmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini olishi belgilangan. Bundan tashqari mulkka egalik qilishning karovsiz xayvonlarga nisbatan, xazina topishi natijasida, yerga nisbatan kabi holatlari buyicha qoidalari ham Kodeksda ko'rsatilgandir.

Mulk huquqi mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol - mulk taqdirini xal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori asosida mol - mulkni olib quyilishi, (sotib olish) yuli bilan, shuningdek, mulk huquqini bekor qiluvchi qonun xujjatlari asosida bekor bo'ladi.

3. Shartnoma, uning huquqiy asoslari.

Shartnoma deb, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zlashtirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvlarga aytiladi.

Shartnoma huquqiy munosabatlarni vujudga kelitirish, o'zgartirish yoki bekor qilish uchun xizmat qiladi. Ammo shartnomaning harakati bu bilan cheklanmaydi. Faktlar umumiy qoida buyicha huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish, yoki bekor qilishdan tashqari ayrim huquq me'yorlari bilan belgilangan doiralarda huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning xatti harakatlarini tartibga soladi, huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlarini belgilaydi.

Shartnoma bilan vujudga keltirilgan huquqiy munosabat davomida shartnoma taraflarining xatti harakatlari qanchalik qonunga muvofiq bo'lgan - bo'lmaganligining ham tekshirish imqoniyatini beradi.

Shartnoma tushunchasida asosiy belgi, asosiy shart - taraflarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o'zaro kelishuvlaridir. Taraflarning harqaysi tomonidan shartnoma buyicha olinadigan huquq va burchlar har xil bulsa ham, ular oqibatda yagona huquqiy natija beradi.

Fuqarolik huquqiy shartnoma asosan mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun to'ziladi. chunonchi, nashriyot shartnomasi, saxna asari, qinossenariylar va boshqashartnomalar uchun harakterlidir.

Bunday shartnomalar taraflarning mulkiy huquqlari va burchlarigina, chunonchi, mualliflik xaqi to'g'risidagi shartlarni, muddatlarni buzganlik uchun javobgarlik belgilamay, balki nomulkiy huquqlarni ham, masalan, muallif o'z asarining nomini ko'rsatib yoki anonim tarzda chiqarishi, asari matniga o'zgartirish kiritishga ruxsat berish - bermaslik singari nomulkiy huquqlarni ham belgilaydi.

Fuqarolik huquqi fanidan urganilayotgan shartnomalar o'z xususiyatlariga qarab quyidagi turlarga bulinadi:

Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab bir tomonlama va ikki tomonlama bulinadi.

Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning biriga faqathuquq bo'lib, xechqanday majburiyat bo'lmaydi, ikkinchi tarafda esa, faqat majburiyat bo'ladi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini talab qilishhuquqiga ega. Ikki tomonlama shartnomada esa har ikki taraf hamhuquqqa ham majburiyatga ega bo'ladi. Bunday shartnomaga olish - sotishshartnomasining misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnoma buyicha sotuvchi sotilgan ashyoning baxosini talab qilishhuquqiga ega bo'lib, sotilgan ashyoni oluvchiga topshirishga majbur, oluvchi esa – olayotgan ashyoning baxosini to'lashi zarur bo'lib, sotib olingan ashyoni talab qilib olishga xaqli.

Fuqarolik oborotida to'ziladigan shartnomalarning ko'pchiligi ikki tomonlama bo'lib, yuqorida ko'rsatigan olish - sotishshartnomasidan tashqari maxsulot yetkazib berish, mulk ijarasi, pudrat va boshqashartnomalardan iborat.

Shartnomalar xaq baravariga va tekininga to'ziladigan shartnomalarga bulinadi. Xaq baravariga to'ziladigan shartnomalarda bir taraf topshirgan mulki qilgan xizmati evaziga pul yoki mulk bilan xaq oladi. Masalan, bir taraf vaqtincha foydalanish uchun mulkni ijaraga oluvchi undan foydalanilgani uchun ijara xaqi to'lashga majbur bo'ladi. Bunday xaq baravariga to'ziladigan shartnomalarga olish sotish, maxsulot yetkazib berish, ayirboshlash, pudrat va boshqashartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tekinga to'ziladigan shartnoma esa bir taraf boshqa bir taraf foydasiga xaq olmay mulkni topshirishi, ishni bajarishi mumkin. Masalan, xadya shartnomasi buyicha mulk egasi o'z mulkini boshqa bir shaxsga tekinga beradi. Mulkdan bepul foydalanish foizsiz qarz shartnomalari ham bepul to'ziladigan shartnomalar guruxiga kiradi.

Shartnomalar tuzilish paytiga mazmuniga qarab qon sensual va real shartnomalar buyicha huquq va majburiyatlar taraflarning kelishganlari va shartnomani qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirilganlari zaxoti paydo bo'ladi «qon sensual» so'zi lotincha «qon sensus» so'zidan olingan bo'lib, «kelishuv» ma'nosini bildiradi. Konsensual shartnomaga misol qilib olish - sotish, maxsulot yetkazib berish, pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko'rsatsa bo'ladi. Fuqarolik huquqida aksariyat shartnomalar qon sensual shartnomalar guruxiga kiradi.

«Real» so'zi – lotincha «res» so'zidan olingan bo'lib, «Ashyo» ma'nosini anglatadi. Real shartnomasiga misol qilib, qarz, omonot, xadya, mulkdan bepul foydalanishshartnomalarini ko'rsatish mumkin.

Uchinchi shaxs foydasiga to'ziladigan shartnomalar umumiy qoida buyicha shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma to'zishda qatnashgan taraflar uchun paydo bo'ladi. Ayrim xollarda shartnoma uchun uchinchi shaxs foydasiga qaratilib hamtuzilishi mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga to'zilgan shartnomaga misol qilib sug'o'rta shartnomasini ko'rsatish mumkin. Uchinchi shaxs shartnoma aloxida taraf bo'lib xisoblanmaydi. BiroqFkning 362 - moddasiga ko'rsatilganidek, agar qonun xujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, uchinchi shaxs shartnoma buyicha o'z huquqidan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab taraflar o'zlari to'zgan shartnomani uchinchi shaxsning roziligisiz bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas.

Shartnoma to'zgan shaxs shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning uchinchi shaxsga nisbatan bajarilishi shart qilgan bulsa, bu xaqda shartnomada boshqacha shart ko'rsatilmagan bulsa, majburiyatning bajarilishini shartnomani to'zgan shaxs ham, foydasiga majburiyatning

bajarilishi ko'rsatilgan uchinchi shaxs ham talab qilishi mumkin.

Shartnomalar, shuningdek ochiqshartnomalar, kushilishshartnomasi dastlabki shartnoma (axdnoma) kabi turlarga ham bulinadi.

Tashkilot tomonidan to'zilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishshart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish soxasidagi vazifalarni (chaqana savdo, umumiy foydalanishdagitransportda yulovchi tashish, aloqa xizmati, elektor quvvati bilan ta'minlash, aloqa xizmati energiya bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mexmonxona xizmati va boshqalar) belgilab quyadigan shartnoma to'zishdan bir shaxsni boshqashaxsga nisbatan afzal qurishga xaqli emas (qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollardan tashqari).

Tovarlar, ishlar, xizmatlarning baxosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqashartlari buyicha iste'molchiga tegishli tovarlarni berishi, xizmatlar ko'rsatishi, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imqon iyati bula turib ommaviy shartnoma to'zishdan bosh tortishga yul quyilmaydi. Tashkilot ommaviy shartnoma to'zishdan asossiz bosh tortganida haridor uni sud orqali shartnoma to'zishga majbur qilish imqon iyatiga ega (Fkning 358 moddasi).

Dastlabki shartnoma asosiy shartnoma uchun belgilangan shaklda, bordi - yu, asosiy shartnomaning shakli aniqlanmagan bulsa, yozma shaklda to'ziladi. Dastlabki shartnomaning shakli to'g'risidagi qoidalarga rioya qilmaslik uning xaqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Dastlabki shartnomada asosiy shartnomaning narsasini shuningdek boshqa muxim shartlarni belgilashquyish imqon ini beradigan shartlar bulishi kerak. Dastlabki shartnomada taraflar qancha muddatda asosiy shartnomani to'zish majburiyatini olishi ko'rsatiladi. Agar dastlabki shartnomada bunday muddat belgilab quyilgan bo'lmasa, asosiy shartnoma dastlabki shartnoma to'zilgan paytdan boshlab bir yil ichidatuzilishi shart (Fkning 361 moddasi).

Shartnomaning mazmunini uning bandlari (shartlari, rekvizitlar) tashkil etadi. Fkning 364 - moddasiga muvofiq agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muxim shartlari yo'zasidan shunday xollarda talab qilinadigan shaklda kelishuviga erishilgan bulsa, shartnoma to'zilgan xisoblanadi.

Shartnoma shartlari (bandlari) muxim, odatdagi va tasodifiy shartlarga bulinadi. Shartnomaning narsasi to'g'risidagi shartlar qonun xujjatlaridagi bunday turdagi shartnomalar uchun muxim yoki zarur deb xisoblangan shartlar, shuningdek taraflardan birining arizasiga ko'ra kelishib olinishi zarur bo'lgan shartlar muxim shartlar xisoblanadi. Ba'zi shartnomalar uchun xos muxim bandlar qonun bilan belgilanadi. Chunonchi, maxsulotlar yetkazib berish to'g'risidagi Nizomning 25 - bandida aytilgandek, agar shartnomada uning narsasi yetkazib beriladigan maxsulot nomi, miqdori va sifati to'g'risidagi shartlar bo'lmasada, shartnoma to'zilmagan xisoblanadi.

Ayrim bandlar (shartlar)ning muxim bulish - bo'lmasligi shartnomaning harakteriga qarab ham belgilanadi. Chunonchi, olish - sotishshartnomasini to'zilgan deb xisoblash uchun uning ikki sharti: qanday narsaning sotilishi va buning uchun qancha pul tulanishi to'g'risida kelishilgan bulishi talab qilinadi.

Odatdagi shartlar muayyan majburiyatiga oid munosabatni tartibga soladigan dispozitiv normalar bilan belgilangan shartlar xisoblanadi. Bunday shartlar odatdagidek nazarda tutiladi. Masalan, mulk ijarasi shartnomasida mulkni mayda (joriy) ta'mirlashshart qilib ko'rsatilsa ham, ko'rsatilmasaham bo'ladi, chunki bu shart to'g'risida FK da (dispozitiv harakterdagi) ko'rsatma berilgan.

Tasodifiy shartlar umumiy huquq me'yorlari bilan tartibga solinmagan masalalar buyicha o'zaro kelishuv bo'lib quriladi. Chunonchi, ijaraga olingan mulkni ta'mirlash muddati to'g'risida masala tasodifiy shartlardan biri xisoblanadi.

Shartnomada uning ayrim shartlari tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan namunaviy shartlar bilan belgilanishi nazarda tutilishi mumkin. Shartnomada namunaviy shartlarga xavola qilinmagan xollarda bunday namunaviy shartlar taraflarning munosabatlariga ish muomalasi odatlari sifatida qo'llaniladi.

Shartnomaning tuzilishi Fkning 364 moddasiga ko'rsatilganidek, agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muxim shartlari yo'zasidan shunday xollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bolsa, shartnoma to'zilgan xisoblanadi.

Shartnomaning umumiy tartibda tuzilishi ikki davr bilan belgilanadi. Birinchi davr - shartnoma to'zishga taqlif qilish davri bunga, oferta, sharoma to'zishga taqlif qiluvchi esa, oferent deb ataladi.

Ikkinchi davr - shartnoma to'zish to'g'risidagi taqlifni qabul qilish, bu aksept qabul qiluvchi esa, akseptant deb ataladi.

Shartnoma to'zishning umumiy tarkibigi oid qoidalar FK ning 364 - 381 - moddalarida berilgan. Bu qoidalarda aytilishicha, agar shartnoma to'zish to'g'risidagi taqlif (oferta) javob uchun muddat tayinlab qilingan bolsa bu xolda shartnoma ikkinchi taraf (akseptant) tomonidan taqlifning taqlif qilinganligi turisidagi javob shu muddat ichida taqlif qiluvchi (oferent) tomonidan olingan xoldagina to'zilgan xisoblanadi.

Shartnoma tuzilishi uchun taraflarning o'zaro kelishuvining o'zigina kifoya emas. Bu kelishuv tegishli shaklda rasmiylashtirilgan bulishi shart. Shartnomalarning shakli FK ning 366 - moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq bulishi shart. Unga asosan, agar qonunda muayyan turdagi shartnomalar uchun ma'lum shakl belgilab quyilgan bo'lmasa, shartnoma bitmlar to'zish uchun nazarda tutilgan harqanday shaklda tuzilishi mumkin.

Notarial Tasdiqlanishi yoki davlat ruyxatidan utkazilishi shart bo'lgan shartnoma notarial Tasdiqlangan yoki ruyxatdan utkazilgan payitdan e'tiboran, notarial Tasdiqlanishi va ruyxatdan utkazilishi zarur bo'lganda esa - shartnoma ruyxatdan utkazilgan payitdan e'tiboran shartnoma to'zilgan xisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda to'zishga kelishilgan bulsalar, garchi qonunda bu turdagi shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo'lmasada shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin to'zilgan xisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolangan xujjatni to'zish yuli bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki xujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imqon ini beradigan boshqa aloqa yordamida xujjatlar almashish yuli bilan tuzilishi mumkin.

Oferta muayyan shaxsga ham, muayyan shaxslarga hamqaratilgan bulishi mumkin. Masalan, maxsulotni reklama qilish, o'z xizmatini taqlif etib e'lon berish - nomuayyan shaxslar doirasiga yullagan oferta xisoblanadi.

Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept xisoblanadi. Aksept pullik va pisandsizlik bulishi shart. Agar qonundan, ish muamolasi odatidan yoki taraflarning ish buyicha avvalgi munosabatlaridan ma'no kelib chiqmasa, bu saqlash aksept bo'lmaydi.

Agar shartnoma to'zish to'g'risidagi taqlif (Oferta) javob uchun muddat tayinlanmasdan, ogzaki ravishda qilingan bolsa, ikkinchi taraf (akseptant) bu taqlifni qabul qilganligini darxol taqlif qiluvchiga (ofertaga) bildirganxoldagina shartnoma to'zilgan xisoblanadi.

Agar bunday taqlif yozma ravishda qilingan bolsa, taqlifni qabul qilganlik (aksept) to'g'risidagi javob uni olish uchun lozim bo'lgan normal vaqt davomida olingan taqdirdagina shartnoma to'zilgan xisoblanadi.

Fkning 375 - moddasida ko'rsatilganidek, ofertada taqlif qilganidan Boshqacha shartlar asosida shartnoma to'zishga rozilik bildirishhaqidagi javob aksept xisoblanmaydi. Bunday javob akseptdan bosh tortish va ayni vaqtda yangi oferta xisoblanadi.

Odatda shartnomada u to'zilgan joy ko'rsatib utilishi kerak. Agar shartnomada uning to'zilgan joyi ko'rsatilgan bo'lmasa, shartnoma oferta yullagan fuqaroning yashash joyida yoki yuridik shaxsning joylashgan yerida to'zilgan xisoblanadi (Fkning 376 - moddasi).

Fkning 354 moddasida shartnomalar to'zishda taraflarning erkinligi haqidagi qoida mustaxkamlab quyilgan. Binobarin, xechqaysi taraf shartnoma to'zishga majbur qilinmaydi. Biroq, ayrim xollarda majburiy shartnoma tuzilishi mumkin. Bunda shartnoma to'zish o'zi uchun majburiy bo'lgan taraf oferta olgan kundan boshlab uttiz kun ichida boshqa tarafga aksept

to'g'risida, akseptdan voz kechishhaqida yoki boshqashartlar asosida akseptlashhaqida (shartnoma loyixasiga o'zining e'tirozlari bayonnomasini kushgan xolda) bildirmogi lozim.

Basharti, shartnoma to'zish oferent uchun majburiy bulsa - yu, u o'z taqliflariga ko'ra shartlar asosida akseptlash olsa (shartnoma loyixasiga e'tirozlar bayonnomasi bilan birga), u xolda bu taraf bildirish - xabarnoma olingan yoki aksept muddati tamom bo'lgan kundan boshlab uttiz kun ichida kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun sudga murojaat qilishga xaqli.

Shartnoma to'zish majburiy bo'lgan taraf uni to'zishdan bosh tortsa, ikkinchi taraf uni shartnoma to'zishga majbur etish talabi bilan sudga murojaat qilishga xaqli. Shartnoma to'zishdan asossiz buyin tovlayotgan taraf shu tufayli yetkazilayotgan ziyonni boshqa tarafga to'lashi shart.

Umumiy qoida buyicha shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zlashtirilishi va bekor qilinishi mumkin.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqatquyidagi xollardagina o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

Ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;

Fuqarolik Kodeksi boshqaqonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o'zga holatlarda;

Taraflarning biri shartnomani buzish ikkinchi tarafga shartnoma to'zishga umid qilishga xaqli bo'lgan narsadan ko'p darajada.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma to'zishga umid qilishga xaqli bo'lgan narsadan ko'p darajada maxrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish xisoblanadi.

Bir taraf shartnomani bajarishdan bosh tartsa yoki qisman bosh tortib, qonun yoxud taraflarning kelishuvida bunga yul kuysa, shartnoma tegishlicha bekor qilingan va o'zgartirilgan xisoblanadi.

Vaziyatni taraflar oldindan ko'ra olganlarida shartnomani umuman to'zmasliklari yoki ancha farqqiladigan shartlar bilan tuzilishi mumkin bo'lgan darajada o'zgartirishi jiddiy o'zgarish xisoblanadi.

Shartnoma qanday shaklda to'zilgan bulsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv hamshunday shaklda to'ziladi, basharti qonun xujjatlardan, shartnoma yoki ish muomalasi odatlaridan 39yechi sho tartib kelib chiqmasa.

Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishhaqidagi taqlifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taqlifdan ko'rsatilgan yoxud qonunda shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa – uttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishhaqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

4. Majburiyat huquqi.

«Majburiyat - fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqashaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga: chunonchi, mol - mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar kurs atish, pul to'lash va xaqozo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa - qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilishhuquqiga ega bo'ladi. «

Majburiyat mulkiy munosabatlar kelishuviga ko'ra bitim asosida vujudga keladi. Bunda ikki taraf qatnashib, ma'lum huquq va burchlarni amalga oshiradi. Burchni bajarish – majburiyatni keltirib chiqaradi. Fuqarolik huquqida majburiyat, bu kimningdir foydasiga muayyan harakatqilish burchidir.

Majburiyatlarni tartibga solib turadigan normalar yigindisi majburiyat huquqi deb ataladi. Majburiyatlar shartnomalar asosida bo'ladi.

Majburiyatning taraflari - kreditor yoki qarzdor sifatida bir yoki bir paytning o'zida bir necha shaxs ishtirok etishi mumkin.

Majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun xujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda quyilgan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yul quyilmaydi, qonun

xujjatlarida va shartnomaning o'zida belgilangan xollar bundan mustasno.

Majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan bulsa yoki talab qilib olish payti bilan belgilab quyilgan bulsa, kreditor harkachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa - ijroni harkachon amalga oshirishga xaqli bo'ladi. Majburiyatni doriol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning moxiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Majburiyatni bajarish joyi qonun xujjatlarida va shartnomada belgilab quyilgan bo'lmasa, ijro quyidagi joylarda amalga oshirilishi kerak:

- ko'chmas mol - mulkni topshirish majburiyatlari buyicha - mol - mulk turgan joyda;
- tashishni nazarda tutadigan tovar yoki boshqa mol - mulkni topshirish majburiyatlari buyicha - tovarni kreditorga yetkazib berish uchun uni birinchi tashuvchiga topshirish joyida;
- qarzdorlarning tovarni yoki boshqa mol - mulkni topshirish yo'zasidan o'zga majburiyatlari buyicha - mol - mulkni tayyorlash va saqlash joyida, basharti majburiyatning kelib chiqishi paytida bu joy kreditorga ma'lum bo'lgan bulsa;

- pul majburiyati buyicha - majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bulsa - uning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan yerida, agar kreditor majburiyatni bajarish vaqtigacha o'z yashash joyini yoki joylashgan yerini o'zgartirgan bulsa va bu xaqda qarzdorni xabardor qilgan bulsa - ijro etish joyi o'zgartirilishi bilan bog'liq hama harajatlarni kreditor xisobidan qilgan xolda, uning Yangi yashash joyida yoki joylashgan yerida;

- boshqa barcha majburiyatlar buyicha - qarzdorlarning yashash joyida, agar qarzdorlar yuridik shaxs bulsa, uning joylangan yerida.

Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash quyidagi usullar asosida amlga oshirilishi mumkin:

- neustoyka (jarima va penya)
- garov (O'zbekiston Respublikasining fuqarolik Kodeksining 264 - 289 - moddalari hamda O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi qonuni)
- kafillik (Fkning 292 - 298 - moddalari)
- ushlab qolish (Fkning 290 - moddasi).
- kafolat (Fkning 299 - 310 - moddalari)
- zakalat (Fkning 311 - 312 - moddalari).

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksining 33 - moddasida majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari belgilangandir.

Majburiyatlar uning bajarilishi tufayli, voz kechish orqali, xisobga utkazish bilan, qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib qolishi, majburiyatning yangilanishi, qarzdan voz kechish, bajarishi mumkin bo'lmaganligi tufayli, davlat organi xujjati asosida, fuqaro vafot etishi bilan, yuridik shaxslarning tugatilishi sababli bekor bulish holatlari qonun xujjatlarida belgilangandir.

Qarzdorlar majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart.

5. Mualliflik va vorislik huquqi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida mualliflik huquqi - ijodiy faoliyat natijasi bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr - kimmati, shuningdek ifodalanish usulidan qat'i nazar tadbik etiladi.

Asar ogzaqi, yozma shaklda yoki uni idroq etish imqon ini beradigan boshqa obyektiv shaklda ifodalangan bulishi lozim.

Mualliflik huquqi goyalar, konsepsiyalar, prinsiplar, tizimlar, taqlif qilinayotgan yechimlar, obyektiv mavjud kashfiyotlarga nisbatan tadbik etilmaydi.

Mualliflik huquqining yo'zaga kelishi uchun asarni ruyxatdan utkazish yoki biron - bir rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

Mualliflik huquqi obyektleri jumlasiga quyidagilar kiradi:

- adabiy asarlar (adabiy - badiiy, ilmiy, ukuv, publitsistik va boshqa asarlar);
- dramatik va senariy asarlar;

- matnli va matnsiz musiqa asarlar;
- musikal - dramatikaslar;
- xoreografiya asarlari va pantomimalar;
- audivizual asarlar;
- rangtasvir, xaykaltoroshlik, grafika, dizayn va yoshqa tasviriy san'at asarlari;
- manzarali - amaliy va saxna bezagi asarlari;
- arxitektura, shaharsozlik va bog - park barpo etish san'ati asarlari;
- fotografiya asarlari va fotografiyaga uxshash usullarda yaratilgan asrlar;
- jugrofiya, geologiya haritalari va boshqaharitalar, shuningdek boshqa fanlarga tegishli tarxlar, eskizlar va asarlar;
- barcha turdagi elektron - xisoblash mashinalari uchun dasturlar, shu jumladan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari.

Muallifning o'zi yaratgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi boshqashaxslarning ayni shu asarga bo'lgan mualliflik huquqi e'tirof qilinishini istesno etadi. Asarni nashr qilish, ommada oldida ijro etish, ommaga namoyish etish yo'li bilan yoki boshqa tarzda ommaviylashtirish orqali muallif tomonidan yoki uning roziligi bilan aniqbo'lmagan doiradagi shaxslarning asardan foydalanishi uchun birinchi bor imqon yaratib berilsa, asar e'lon qilingan xisoblanadi. Muallif asardan harqanday shaklda foydalanishhuquqiga egadir. O'zganing chop etilgan asaridan muallifning roziligisiz va mualliflik xaqini tulamagan xolda shaxsiy maqsadlarda foydalanishga, basharti bunda asardan normal foydalanishiga zarar yetkazmaydigan va muallifning qonuniy manfaatlariga putur yetkazmaydigan bulsa, yul quyiladi.

Lekin, FKning 1061 –moddasiga ko'ra, sudlov va ma'muriy ish yuritishmaqsadlarini ko'zlab, foydalanishmaqsadida mos xajmda asarlarni muallifning roziligisiz va mualliflik xaqi tulanmagan xolda ijro etishga yul quyiladi.

Mualliflik huquqi muallifning butun xayoti davomida va vafotidan keyingi yilning birinchi yanvaridan e'tiboran ellik yil davomida amal qiladi. Hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualiflarning butun xayoti davomida va hammualliflar orasida eng o'zok umr kurgan shaxs vafot etganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi.

Asarga nisbatan mualliflik huquqining amal qilish muddati tugaganidan keyin asar ijtimoiy mulkka aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida xechkachon himoya etilmagan asarlar ijtimoiy mulk xisoblanadi. Ijtimoiy mulk xisoblangan asardan harqanday shaxs mualliflik xaqini tulamagan xolda erkin foydalanishi mumkin. Bunda asarga bo'lgan mualliflik huquqiga, mualliflik nomiga bo'lgan huquqqa va asarning daxlsizligiga bo'lgan huquqqa rioya etilishi lozim.

Muallif yoki uning merosxuri mualliflik shartnomasi orqali o'z asarlaridan foydalanishhuquqini boshqashaxsga utkazishi mumkin. Mualliflik shartnomasi uchun xaqto'lash talab qilinadi. Mualliflik shartnomasi tayyor asar uchun yoki muallif yaratishni o'z zimmasiga olgan asar uchun to'ziladi. Asardan u yoki bu doirada foydalanishga ruxsatnoma berish to'g'risidagi muallif yoki uning merosxurlari to'zadigan shartnoma ham mualliflik shartnomasi xisoblanadi.

Muallif shartnomasi buyicha majburiyatlarni umuman yoki tegishli darajada bajarmagan taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararining o'rnini, shu jumladan boy berilgan foydani qoplashi shart.

Vorislik vasiyat va qonun buyicha amalga oshiriladi. «Meros ochilgan paytdan meros koldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi.

Meros koldiruvchining shaxsi bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlar:

- yuridik shaxs xisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a'zolik, ularda ishtirok etish, agar qonun yoki shartnomada boshqa xoll belgilangan bo'lmasa;
- xayotga va soglikka yetkazilgan zarar uchun tovon undirishhuquqi;
- aliment majburiyatlari tufayli yo'zaga kelgan huquqlar va majburiyatlar;
- Mehnat va ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonun xujjatlari asosida pensiya, nafaka va

boshqa tulovlar olishhuquqi;

- mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar meros tarkibiga kirmaydi. «Meror fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida ochiladi. Meror qoldiruvchining ulgan kuni, u vafot etgan deb e'lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqacha muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sudning qarori kuchga kirgan kun meros ochilgan vaqt deb xisoblanadi. Meror qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi merosning ochilish joyi xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik Kodeksi 1118 - moddasiga ko'ra «meros ochilgan paytda xayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining xayotlik paytida xomila xolida bo'lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalar vasiyat va qonun buyicha merosxur bulishlari mumkin».

Meror qoldiruvchini yoki extimol tutilgan merosxurlardan birortasini qasddan uldirgan yoki ularning xayotiga suiqasd qilgan shaxslar vasiyat buyicha ham, qonun buyicha ham meros olishhuquqiga ega emaslar.

Fuqaroning o'ziga tegishli mol - mulkni yoki bu mol - mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususida xoxish - irodasi vasiyat deb ataladi. Vasiyatnoma shaxsan tuzilishi lozim. Vasiyatnomaning vakill orqali tuzilishi mumkin emas. Meror qoldiruvchi vasiyatnomani to'zilgandan keyin uni istagan paytida bekor qilish va o'zgartirish borasida erkin bo'lib, bunda bekor qilish yoki o'zgartirish sabablarini ko'rsatishi talab etiladi.

Vasiyatnoma yozilgan joyi va vaqti ko'rsatilgan xolda yozma shaklda to'ziladi. Ular quyidagi xollarda to'zilgan xisoblanadi:

Notarial Tasdiqlangan vasiyatnoma;

Notarial Tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar;

Vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z kuli bilan imzolanishi lozim. Ba'zi o'zrli sabablarga ko'ra vasiyat qiluvchi o'z kuli bilan imzolay olmasa, uning roziligi bilan boshqa ishonchli odam kul quyishi mumkin. Qonunga ko'ra quyidagilar vasiyat qiluvchining o'rniga imzolashhuquqiga ega emaslar:

- notarius yoki vasiyatnomani Tasdiqlovchi boshqashaxs;

- vasiyatnoma kimning foydasiga to'zilgan yoki kimga nisbatan vasiyat majburiyati yuklatilgan bulsa, usha shaxs, uning Eri (xotini), bolalari, ota - onasi, nevaralari va chevaralari, shuningdek, vasiyat qiluvchining qonun buyicha merosxurlari;

- tulik muomala layoqatiga ega bo'lmagan fuqarolar;

- savodsizlar, vasiyatnomani uqiy olmaydigan boshqashaxslar;

- yolg'on guvoxlik burganlik uchun muqaddam sudlanganlar.

Vasiyatnoma FKning 1128 - moddasiga ko'ra sir saqlanishi lozim.

Meror ni egallashhuquqiga, merosxur o'ziga tegishli meror ni yoki uning bir qismini olishhuquqiga, agar u keyinchalik meror dan voz kechmasa, vorislik huquqidan maxrum etilmasa, merosxur etib tayinlash to'g'risidagi vasiyat farmoyishi xaqiqiy emas deb topilishi natijasida meros olishhuquqini yukotmasa, meros ochilgan vaqtdan e'tiboran ega bo'ladi.

Meror xo'ring iltimosiga ko'ra meros ochilgan joydagi notarius unga guvoxnoma berishi shart. Bu guvoxnoma meros ochilgan kundan e'tiboran olti oy muddat utganidan keyin beriladi. Merosxur o'ziga tegishli meror dan voz kechishhuquqiga ega. Meror ni taqsimlash merosxurlarning kelishuviga ko'ra o'zlariga tegishli ulushlarga muvofiq kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, sud tartibida amalga oshiriladi.

Meror ochilgunga qadar uch yil mobaynida meros qoldiruvchi bilan birgalikda yashagan merosxurlar meros taqsimlanishida meros tarkibidan uy - joy, kvartira, turar - joy, shuningdek, uy - joy ashyolari va ro'zgor buyumlarini olishda imtiyozli xisoblanadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi huquq soxalari ichida eng kattasi, eng keraklisi xisoblanadi. Chunki, har bir qadamimiz, har bir bajarayotgan ishlarimiz o'z xukukimizni bilishimizni talab etadi. Dunyoga kelib, nasl - nasabimizga ega bulish, turar - joyga egalik qilish, shaxsiy daxlsizlik huquqlarimiz kabi shaxsga tegishli barcha

huquqlar mazkur huquq tarmogi orqali tartibga solinadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi asosida qabul qilinayotgan yo'zlab qonunlar inson va fuqarolik huquqlar himoyalashiga qaratilgandir.

Fuqarolik xukukimiz na faqat mulkiy, balki ma'naviy, madaniy, ijtimoiy huquqlarimizni ham tartibga soladi. Shu bois hududimizda yashayotgan barcha shaxslar o'z fuqarolik huquqlarini mustaxkamlashlari uchun huquqshunos olimlar tomonidan tayyorlangan darsliklar, ukuv qo'llanmalarni ham urganish tavsiya etiladi. Jumladan: I. Zokirovning «O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi», Z. Islamovning «Huquqshunoslik», SH. Shoraxmetovning «O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi» va boshqalar. Fuqarolik huquqi bilan chambarchas bog'liq fuqarolik protsessual huquqini urganish fuqarolarimizning o'z huquqiy bilim saviyalarini yanada oshirishga asos bo'ladi.

Bundan tashqari fuqarolik huquqi har bir insonning buzulgan huquqlarini himoyaladi. Nazorat uchun savollar.

1. Fuqarolik huquqi haqidatishuncha Bering.
2. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning belgilari qanday ?
3. Mulk huquqi qanday vujudga keladi ?
4. Bitim bilan shartnomaning farqi qanday ?
5. Shartnoma taraflarining huquq va burchlarining tushuntiring.
6. Shartnoma yo'zasidan pretenziya qilish deganda nimani tushunasiz ?
7. Kontraktatsiya shartnomasi qanday tartibda to'ziladi ?
8. Shartnomalar yo'zasidan vujudga keladigan nizolar qaysi organ tomonidan kurib chiqiladi ?

GLOSSARIY.

Fuqarolik - shaxsning aniqbir davlatga siyosiy va huquqiy mansubligi.

Fuqarolik muomalasi - iqtisodiy muomalaning fuqarolik huquqiy ifodasi.

Fakt - haqiqatdan bo'lgan vokea, xodisa.

Yuridik fakt - qonunda ko'zda tutilgan aniqhuquq munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo'ladigan holat.

5. Kredit - pul yoki tovarlarni ma'lum muddatga qarzga berish.

6. Kontraktatsiya - maxsulot ishlab chiqaruvchi va uni harid qilish, sotish bilan shugillanuvchi tashkilotlar o'rtasida kontrakt to'zish.

7. Akseptant - ko'rsatilgan xisob, vaksel buyicha to'lash majburiyatni olgan shaxs.

Adabiyotlar.

1. I. A. Karimov «Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yuk», Ma'rifat gazetasi 2001 yil 8 dekabr.

2. I. A. Karimov «Yanglanish va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi», Ma'rifat gazetasi 2002 yil 6 aprel.

3. I. Zakirov «O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi». 1 - qismi, 1996; 2 - qismi 1999.

4. Islomov «Huquqshunoslik» Toshkent 2002 yil.

5. A. Saidov., U. Tadjixanov., X. Odilqoriyev., Davlat va huquq asoslari (Darslik) T., 2002.

6. SH. Shoraxmetov «O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi». darslik. T... 2001.

7. M. Abdusalamov «O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi». Darslik. 2 - qism. T. 1999y.

8. E. Egamberdiyev. «Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar» T. Adolat 2000.

9. X. R. Raxmanqulov «Xususiy mulk uning daxlsizligi» T., 2000.

10. B. Toshev «Mualliflik huquqi». T. 1997.

11. X. R. Raxmanqulov «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1va 2 qismlariga umumiy tavsif va shvrxlar, 2. jild, T. 1997 - 1999.

12. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik to'g'risidagi Kodeksi. T.: «Adolat», 1996.

13. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual Kodeksi. T.: Adolat 2001.
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining plenumi qarorlari
15. O'zbekistonning Yangi qonunlari. T. «Adolat», 6 - 32 - sonlari.
16. Sergeeva YU. K. «Grajdanskoye pravo» uchebniq M. 2000.
17. Grajdanskiye Kodeks Rossiyskoy Federatsii: polnyy tekst s izm. 2003.
18. www. gov. o'z
19. www. edu. o'z
20. www. zivo. tdu. o'z
21. www. ec. tdu. o'z
22. www. performfnce. edu. o'z

5 - mavzu: Tadbirkorlik huquqi asoslari.

Reja

1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi
2. Tadbirkorlik huquqining asosiy tamoyillari
3. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy manbalari.
4. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari.
5. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari.

Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi

Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 3 - moddasida quyidagi taxrirda bayon etiladi: «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi asosida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir».

A) chunki, tadbirkorlik faoliyati ma'lum sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular kimlardan iborat bo'lishi mumkin Bu savolga javob qonunning 4 - moddasida beriladi, ya'ni: «Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan qamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxs va jismoniy shaxslardir».

Ushbu moddaga muvofiqxar qanday yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatining sub'ekti bo'lavermaydi. Buning uchun ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari kerak. Fuqarolik kodeksining 24 - moddasiga muvofiq jismoniy shaxs, ya'ni «Fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'lullanishga haqlidir». Yuridik shaxs qlam tadbirkorlik faoliyati sub'ekti bo'lib hisoblanishi uchun tegishli tartibda ro'yxatdan o'tgan, bunday faoliyatning muayyan turi bilan shuqlullanish uchun ruxsatnoma (litsenziya) olgan bo'lishi kerak. Shuning bilan birga tadbirkorlik faoliyati sub'ekti qlisoblangan korxonona yoki firma yuridik shaxs deb tan olinishi uchun FKning 44 - moddasida nazarda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ekti hisoblangan yuridik shaxs yoki fuqaro umuman olganda, mulk huquqi sub'ekti ham bo'lishi kerak, chunki uning faoliyati «o'z mulkiy javobgarligi asosida» amalga oshiriladi. Lekin tadbirkorlik faoliyati sub'ekti barcha hollarda mulk huquqi sub'ekti bo'lishi shart emas. Masalan, fuqaro tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik uning o'ziga tegishli yoki u tomonidan ijaraga olingan mol - mulk asosida amalga oshirilayotgan bo'lishi mumkin. Yuridik shaxs ham mol - mulkka nisbatan shunga o'xshash huquqqa ega bo'lishi mumkin. O'zi shaxsan mulk huquqi sub'ekti bo'lmagan yuridik shaxs (masalan, davlat

korxonalari, firmalari, birlashmalari) tadbirkorlik faoliyatini davlat mulkiga asosan amalga oshiradi. Bunda ular davlat mulkiga nisbatan bo'lgan xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlaridan foydalanadilar.

Xo'jalik yuritish huquqining tushunchasi va ushbu huquqqa ega bo'lgan yuridik shaxsning mulkiy huquq layoqlati FKning 176, 177 - moddalarida nazarda tutiladi. 176 - moddaga muvofiq xo'jalik yuritish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs unga birlashtirilgan mol - mulkka mulk huquqi sub'ekti kabi egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Ushbu huquqqa ega bo'lgan tadbirkor o'z xohishi bilan qonunga zid kelmaydigan har qanday harakatlarni amalga oshiradi. Mulk huquqi sub'ekti bo'lmasdan, mol - mulkni operativ boshqarish huquqiga ega bo'lgan korxonalarining vakolatlari FKning 72, 178 - moddalarida bilan belgilanadi.

Xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga nisbatan basharti FK va o'zga qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mulkchilik huquqi to'qlrisidagi qoidalar qo'llaniladi.

Demak, tadbirkorlik faoliyati mulk huquqi egasi bo'lgan va bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari umumiy qoidaga binoan mulk huquqi egalari hisoblanadi, agar bunday huquqqa ega bo'lmagan taqdirda, ular mulkdor tomonidan birlashtirib qo'yilgan mol - mulkka nisbatan xo'jalik yuritish huquqiga yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'ladilar va tadbirkorlik faoliyatini mulkdor tomonidan belgilangan vakolat doirasida amalga oshiradilar (FKning 71, 177 - m. m.).

B) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan asosiy maqsad daromad (foyda) olishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadbirkor o'z faoliyatini bozor talablariga moslashtirib rejaga soladi, kerakli va sotib oluvchilar uchun zarur bo'lgan maqsulotlarni ishlab chiqirishga, xarid qilishga raqobatlashuvda faol qatnashishga qaratiladi.

Iqtisodiy manfaatdor birinchi galda foyda olish bilan boqliq xo'jalik faoliyatining natijalarini umumlashtiruvchi asosiy ko'rsatkich ham foydadir. Foyda qancha ko'p olinsa, meqnatga nisbatan raqbatlantirish, qiziqish ham shuncha baland bo'ladi, tadbirkorlikda yuqori samaralarga erishiladi.

Tadbirkor o'z faoliyatini yuritish natijasida oladigan umumiy daromadidan ma'lum qismini soliqlar va boshqa to'lovlar uchun ajratadi. To'lovlarni to'lashdan tadbirkor ixtiyorida qolgan daromad sof foyda sifatida to'la - to'kis uning tasarrufiga o'tadi. Sof foydadan qaysi maqsadda foydalanishni tadbirkor o'zi mutsamil ravishda hal qiladi.

V) tavakkalchilik bilan faoliyat yuritish tadbirkorga xos xususiyatdir. Tadbirkor bozor haqidagi ma'lumotlar va axborotlardan doimo xabardor bo'lib turish, zarur bo'lgan taqdirda o'z faoliyatiga tezda o'zgartirish kiritish va bozor sharoitiga moslashgan holda ortiqcha tashvish va xarajatlarsiz faoliyat yuritishga harakat qiladi. Aks holda u raqobatga bardosh bera olmasligi va bankrotlikka uchrashi mumkin.

Tadbirkorning bankrot bo'lishi boshqarning aybi tufayli sodir bo'lishi ham mumkin. Masalan, boshqalar tadbirkorning mahsulot (tovar) ishlab chiqirishi uchun zarur bo'lgan xom ashyoni o'z vaqtida, kelishilgan muddatda etkazib bermasa yoki etkazib berilgan xom ashyo foydalanish uchun yaroqsiz bo'lsa, sotilgan tovarning yoki bajarilgan ishning haqqi o'z vaqtida to'lanmasa - bunga o'xshash va boshqaholatlar tadbirkorni bankrotlikka olib kelishi mumkin. Bunday hollar yuz berishi bilan tadbirkor unga etkazilgan zararni javobgar shaxslardan undirib olishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Lekin tadbirkorning zarar ko'rishida aybi yo'qligini isbotlay olgan shaxs javobgarlikdan ozod bo'lishi ham mumkin (FK 333 - moddasining 3 - qismi).

Agar tadbirkorning mol - mulki ba'zi bir tabiiy ofat, boshqa oldini olish mumkin bo'lmagan hodisalar (fors - major vaziyatlar) tufayli nobud bo'lsa, uning uchun hech kim javobgar emas. Tadbirkor unga etkazilgan zararni faqat suq'urta summasi miqdorida (agar mol - mulk sug'lurta qilingan bo'lsa) undirib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

G) tavakkalchilikning yana bir ko'rinishi tadbirkor o'z faoliyatining natijalari va zimmasiga olgan majburiyatlari yuzasidan shaxsan o'zi javobgar bo'lishidan iborat. Fuqrolik kodeksining 25 - moddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi fuqaro o'z

majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli butun mol - mulki bilan javob beradi. Mazkur Kodeksning 48 - moddasiga muvofiq tadbirkorlik bilan shuq'ullanuvchi korxonalar (yuridik shaxs) ham o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli butun mol - mulki bilan javob beradi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi davlat korxonasi o'z majburiyatlari bo'yicha Fuqarolik kodeksining 72 - moddasi beshinchi qismida hamda 76 - moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan tartibda va shartlar asosida javob beradi.

Tadbirkorlik mulkiy javobgarlikka asoslanadi. Barcha tadbirkorlar iqtisodiy mustaqil va o'zaro munosabatlarda teng huquqlidir. Shunday ekan, bunday munosabatlar shartnomalar tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Shartnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida zarar etkazilgan taqdirda ushbu zararni undirish haqida talab qo'yilishi va shuningdek da'vo qo'zqltilishi mumkin. Bunday talab yoki da'vo mulkiy tusga ega, chunki etkazilgan zararni undirish shartnomani buzgan tadbirkorning mulkiga qaratiladi.

D) tadbirkorlik - bu tashabbuskorlik demakdir. Agar tadbirkor iqtisodiy faoliyatda tashabbus ko'rsata olmasa, u o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olmaydi, raqobatga bardosh bera olmaydi va natijada bankrot bo'lishi muqarrar.

Bozor sharoitida tadbirkor o'z faoliyatini o'zi mutsaqil tanlaydi, belgilaydi, rejalashtiradi va uyushtiradi. Uning faoliyati boshqalar tomonidan, ayniqsa, yuqoridagi tashkilotlar tomonidan rejalashtirilmaydi. Tadbirkor ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ishga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarni hisobga olib, taraqqiyot itsiqbollarini o'zi shaxsan belgilaydi. Bunday vazifani bekamu ko'ts amalga oshirish undan barcha holatda yuqori malakali qobiliyat va faol tashabbus ko'rsatishni talab qiladi.

Tashabbus ko'rsatish amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan qoidalar asosida va doirasida amalga oshiriladi. Bunday qoidalar Fuqrolik kodeksining 24, 25, 26, 39, 41, 48, 56, 57, 72, 76, 176 - 178, 324 - 339 - va boshqa moddalarida, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'q'risida"gi qonunning tegishli moddalarida nazarda tutiladi. Tadbirkor o'z faoliyati bo'yicha tashabbus ko'rsatishda ushbu qonun - qoidalarga rioya qilinishi shart. Shuning bilan birga har bir tadbirkor korxonalar o'z Ustavi, ta'sis hujjatlari doirasida faoliyat ko'rsatadi. Tadbirkorga hohlagan faoliyat bilan shuq'lullanishda tashabbus ko'rsatish uchun erkinlik berilgan, bunday erkinlikdan qonun bilan taqiqlanmagan barcha holatlarda foydalanish mumkin.

2. Tadbirkorlik huquqining asosiy tamoyillari

A) qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishda o'ziga tegishli mol - mulkdan o'z xohishi va manfaatlarini ko'zlab foydalanishi uchun tadbirkorga berilgan erkinlik asosiy tamoyillardan iborat.

Ushbu tamoyilga amal qilish «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'q'risida»gi qonunda o'z ifodasini topgan. Uning 1 - moddasiga muvofiq, «qonunning asosiy ifodalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari huquqlri va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat».

Demak, tadbirkor qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shuq'ullanishi mumkin, ya'ni u mulk huquqi sub'ekti, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi sub'ekti bo'lishidan qattiy nazar, unga tegishli mol - mulk asosida qonun bilan taqiqlanmagan faoliyatni amalga oshirish uchun erkinlik beriladi, sharoit va kafolatlar yaratiladi. Tadbirkor o'z mol - mulki asosida, uning qaysi shakldan (xususiy yoki ommaviy) iborat bo'lishidan qattiy nazar, turli xo'jalik faoliyatini erkin tanlash va erkin amalga oshirish huquqiga ega. Asosiy masala shundan iboratki, bunday faoliyat qonunga zid bo'lmasligi va qonun bilan taqiqlanmagan bo'lishi lozim.

Mulkchilikning hamma shakllarining, xo'jalik faoliyatining barcha turlarining teng huquqlilik asosida amal qilishi tadbirkorlikning asosiy talablaridan hisoblanadi. Demak, mulkchilikning qaysi shakliga asoslangan bo'lmasin yoki qaysi shakldagi va turdagi xo'jalik yuritish faoliyatidan iborat bo'lmasin, tadbirkorlikning tashkil topishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoit va tadbirlarni amalga oshirishda teng huquq va sharoit tu'g'irlab beriladi. Bunday

tenglik tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy mustaqilligidan darak beradi. Ularning har biri o'ziga tegishli alohida mol - mulkka ega, mulkiy munosabatlarda o'z nomidan mutsaqil ishtirok etadilar, xo'jalik faoliyatini yuritishda biri ikkinchisiga qaram emas, o'z majburiyatlari va qarzlari yuzasidan, shuningdek o'z faoliyatining natijalari bo'yicha o'zlari javob beradilar.

Tadbirkorlikda o'zaro hamkorlik, javobgarlik va erkin raqobatlashuv muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitni yaratishda va ta'minlashda davlat o'z zimmasiga vazifa oladi. Bunday sharoit mavjud bo'lishi uchun tadbirkorlar ham o'z faoliyatini yuritishda bir - birlariga beg'araz yordam berishlari, vijdonan va adolatli munosabatda bo'lishlari, o'z huquqini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy tamoyillariga amal qilishlari va ishbilarmonlik axloqliy qoidalarini hurmat qilishlari lozim.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z faoliyatini amalga oshirishda FKning 9 - moddasiga amal qilishlari zarur. Ushbu moddaning 4 - qismiga binoan «Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy tamoyillari va axloqliy normalarini hurmat qilishlari, tadbirkorlar esa - ish odobi qoidalariga ham rioya etishlari kerak».

qonun bilan taqiqlangan yoki qonunlga rioya qilinmasdan amalga oshirilgan tadbirkorlik, uning qaysi shakdagi mulkchilikka asoslangan yoki qaysi turdagi xo'jalik, tijorat faoliyatidan iborat bo'lishidan qattiq nazar, haqiqiy deb hisoblanmaydi va bunday tadbirkorlikka nisbatan FKning 116 - moddasi tatbiqilinadi hamda 114 - moddasida nazarda tutilgan oqibatlar kelib chiqadi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qonun bilan taqiqlangan yoki korxonaning, firmaning ustavida, ta'sis hujjatlarida nazarda tutilmagan va qonunga zid keladigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar, shirkatlar, uyushmalar, xususiy firmalarning faoliyati FKning 53, 54 - moddalariga asosan tugatilishi mumkin. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 48 - moddasi 1 - qismiga binoan tadbirkorlik faoliyatini tugatish ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs (jismoniy yoki yuridik shaxs)ning mol - mulki egasining yoki tadbirkor korxonaning tuzishga vakolatli organning qaroriga binoan amalga oshiriladi.

B) tadbirkorning iqtisodiy mutsaqilligi va teng huquqliligi uning erkin raqobatlashuvi uchun zamindir. Tadbirkor qonun bilan taqiqlanmagan holda xo'jalikning barcha sohasida o'z faoliyatini erkin ravishda raqobatlashuv tamoyili asosida amalga oshirishi mumkin.

O'tmishda, jamiyatning iqtisodiy negizini faqat sotsialistik mulkchilik tashkil qilgan davrda raqobatchilikka yo'l qo'yilmas edi. Raqobatchilikka, xususiy mulkka, kapitalistik ishlab chiqarishga asoslangan hodisa, deb baho berilar edi. Endilikda mulkchilikning xilma - xil shakllari uchun ularning iqtisodiy va huquqiy jihatdan teng ravishda rivojlanishiga sharoit tug'ildi. Shu tufayli, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyat yaratildi. Tadbirkorlikning raqobatlashuv tamoyili asosida rivojlanishi bozor munosabatlarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan uslubdan, vositadan iboratdir. Raqobatlashuv aholi uchun kerakli mahsulot va tovarlarni tezda ishlab chiqarishga va bozorga etkazishga, tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini vujudga keltirish va rivojlantirish, ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish va qolaversa, jamiyatning iqtisodiy manbaini mutsahkamlashga yordam beradi. Lekin raqobatlashuv adolatli, insofli bo'lishi zarur. Raqobatlashuv natijasida ba'zi bir tadbirkorlar bozor sharoitida ustunlikni egallab, boshqa tadbirkorlarni og'ir va mushkul iqtisodiy hoolatga tushirib qo'yishlariga, raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'zaro raqobat uchun berilgan erkinlik tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlarini bo'qilib qo'yishga qaratilgan bo'lmasligi, birovlarning xo'jalik faoliyatiga qarshi yo'naltirilmasligi kerak.

Tadbirkor tomonidan raqobatlashuvni cheklash maqsadida:

- tadbirkor tomonidan o'zining bozorda ustun turishdan foydalanib uni suiste'mol qilishga, ya'ni tovarlarni ishlab chiqirishni cheklash, to'xtatish va tahchilikni tuldirish maqsadida ularni oldi - sottidan chetlatish yoki narx - navoni oshirib yuborish yo'li bilan;

- bir - biriga o'xshash (monand) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsning qonuniy manfaatlariga zarar etkazilishga qaratilgan insofsiz harakatlarni bajarish;

- tovarni ishlab chiqaruvchi haqida, tovarning zaruriyati, sifati va boshqa foydali xususiyatlari haqida sotib oluvchilarda noto'g'ri fikr tug'dirish, tovarlarni ko'rgazma qilishda, tijorat qilishda va ular haqida axborotlar berishda noto'g'ri va odobsizlik bilan solishtirish, boshqa tadbirkor mahsulotining tashqi shaklini, ko'rinishini o'zboshimchalik bilan o'zlashtirish va boshqa shunga o'xshash harakatlarga yo'l qo'yimaslik kerak.

Tegishli huquqiy hujjatlarda insofsiz raqobatchiga nisbatan jarima solish, etkazilgan zararni undirish kabi javobgarlikni qo'llash nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan Jinoyat kodeksida raqobatchi obro'sizlantirilganligi uchun jinoiy javobgarlik ham nazarda tutilgan. Mazkur Kodeksning 192 - moddasiga binoan raqobatchini obro'sizlantirish, ya'ni bosma yoki boshqa usulda ko'paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishbilarmonlik nufuziga putur etkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar tarqatilgani uchun eng kam oylik ish xaqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Tovar bozorlarida monopoliya o'rnatish erkin raqobatning rivojlanishi uchun to'sqinlik qililadi. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda «Tovar bozorida monopolitsik faoliyatni cheklash va raqobat to'qlrisida»gi qonunining 18 - moddasiga muvofiq monopolitsik faoliyat va insofsiz raqobatning oldini olish maqsadida quyidagi javobgarlik nazarda tutiladi:

1. Monopoliyaga qarshi qonunbuzarlikni to'xtatish, dastlabki holatni tiklash, shartnomalarni bekor qilish yoki o'zgartirish to'qlrisidagi ko'rsatmalarni bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki o'z vaqtida bajarmaganlik uchun: a) boshqaruv organlari va yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan - eng kam ish xaqining yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda; b) jismoniy shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan - eng kam ish haqqining besh baravaridan etti baravarigacha miqdorda jarima undirish;

2. Monopoliyaga qarshi davlat organiga axborot taqdim etmaganlik yoki ataylab noto'qri ma'lumotla taqdim etganlik uchun: a) boshqaruv organlari va yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan - eng kam ish xaqining qirq baravaridan ellik baravarigacha miqdorda; b) jismoniy shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan - eng kam ish haqqining besh baravaridan etti baravarigacha miqdorda jarima undirish.

Jarimani undirish to'qlrisidagi davlat organining qarori majburiy ravishda amalga oshiriladi. Jarima xo'jalik yurituvchi sub'ekt, boshqaruvi organi yoki mansabdor shaxs tomonidan jarima solinganligi to'qlrisidagi qaror olingan paytdan boshlab o'ttiz kun muddat ichida aktseptsiz tartibda to'lanadi va davlat byudjetiga o'tkaziladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning arizasiga binoan uning bankrot bo'lib qolishining oldini olish maqsadida monopoliyaga qarshi davlat organi yoki sud unga jarimani bo'lib - bo'lib to'lash uchun ruxsat berishlari mumkin.

Mazkur qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 25 iyunda qabul qilgan qarori bilan monopoliyaga qarshiqonunhujjatlari buzish faktlari bo'yicha ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish va tegishli qarorlar qabul qilish tartibi va muddatlari belgilanadi[1]. Nazarda tutilgan tartib quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgandir:

a) monopoliyaga qarshiqonunhujjatlari buzganlik to'qlrisidagi ishlarni ko'rib chiqish;
b) monopoliyaga qarshiqonunhujjatlari buzishni to'xtatish to'qlrisida ko'rsatmalar berish;

v) monopoliyaga qarshiqonunhujjatlari buzganlik uchun jarimalar solish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish;

g) monopoliyaga qarshi davlat organining qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi va asoslariga oid masalalar.

Jinoyat kodeksining 183 - moddasiga binoan monopoliyaga qarshiqonunhujjatlari buzish ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqqining yigirma besh yoki yigirma beshdan ellik baravarigacha, shuningdek uch yilgacha yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning raqobatni cheklaydigan va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning manfaatlarini kamsitgan yoxud kamsitishi mumkin bo'lgan harakatlarini taqiqlash tadbirkorlarning bozor munosabatlarida erkin qatnashishlarini ta'minlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

V) mutsaqil iqtisodiy faoliyat va javobgarlik tadbirkorlik tamoyillaridan biridir. Ushbu tamoyil tadbirkorlik tushunchasi ma'nosidan kelib chiqadi va tadbirkorning iqtisodiy mutsaqilligi, teng huquqli bo'lishi bilan ifodalanadi. Tadbirkorning tavakkalchilik tamoyili asosida faoliyat yuritishi ham uning iqtisodiy mutsaqilligidan, faoliyat turini erkin tanlashidan darak beradi.

Tadbirkor uchun olingan daromad - foyda, olinmay qolgan daromad - zarar. Zarar uchun faqat o'zi javob beradi. Uning faoliyati va faoliyatining natijalari uchun hech kim javob bermaydi. Agar u bankrot bo'lsa, kreditorlari oldida o'zi javobgar bo'ladi. Shuning uchun tadbirkor bunday oqlibatga duch kelmaslik uchun o'z faoliyatining turini bozor sharoitiga moslashtirib, erkin tanlaydi, to'qri rejaga soladi, raqobatlashuvda faol qatnashadi, tashabbuskorlikni qo'ldan bermaslikka harakatqiladi

qonun talablariga rioya qilinganholda to'qlri amalga oshirilgan tadbirkorlik unumli iqtisodiy natijalarga erishish uchun yordam beradi. Mutsaqil faoliyat yuritish natijasida samarali natijalarga erishgan tadbirkor o'z faoliyat mahsulini hammustaqil ravishda tejaydi va rejaga solgan holda taqsimlaydi.

Korxonaning mulki asosiy fondlar va aylanma mablag'llar, shuningdek qiymatimustaqil balansda aks ettirilgan va korxonaga mulk huquqi yoki xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi bo'yicha tegishli bo'lgan mol - mulkdan tashkil topadi. Tadbirkorlikni amalga oshirishda asosiy va aylanma fondlardan unumli ularning har biri uchun nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanish samarali natijalar beradi.

Bozor munosabatlariga o'tishda raqobatbardosh mahsulotetishtirish, daromad salmoqini oshirish uchun korxonaning aylanma mablag'i etarli bo'lishi lozim. Aylanma mablag'ni maqsadli ishlatmasdan, duch kelgan o'rinda sovurish oxir - oqibatda xo'jalik sub'ektini bankrotlikka olib boradi. Shunday ekan, aylanma mablag'llarning iqtisodiy otdagi o'rnini tadbirkor puxta o'zlashtirishi, anglashi kerak.

Korxonalarning aylanma mablag'llari hisob rahamdagi mablag'i, korxonada kassasidagi naqd pul, mahsulot zaxiralari, xom - ashyo va materiallardan iborat. Banklarning mablagi esa ombordagi ashyolar, bank kassasidagi naqd pul, muxbirlik hisobidagi mijozlar aylanma mablag'laridan iborat bo'ladi.

Bevosita ishlab chiharish jarayonida band bo'lgan aylanma mablag'llarning salmoqli qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'llardan shunchalik samarali foydalaniladi. Amaliyotda aylanma mablag'llardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish koeffitsenti bilan o'lchanadi.

Faoliyat yuritish natijasida olingan foyda, amortizatsiya ajratmalari, qimmatliqog'lozlarni sotishdan olingan mablag'llar, mehnat jamoasi a'zolarining, yuridik shaxslarning, fuqarolarning pay va boshqa badallari, shuningdek boshqa tushumlar tadbirkor korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirish manbai hisoblanadi.

Tadbirkorlik natijasida olingan daromaddan qoladigan foyda korxonaning to'la tasarrufiga kelib tushadi. Sof foyda deb barcha ishlab chiharish bilan boqliq bo'lgan xarajatlarni qoplashga sarflangan mablag'llar (ish haqqi, ijara uchun to'lov, qarzlarni va ssudalar bo'yicha foizlarni to'lash va hakoza) faoliyat yuritish natijasida olingan daromaddan chiharib tashlangandan keyin qolgan foydaga aytiladi. Ushbu foydadan foydalanish yo'llarini tadbirkor mustaqil belgilaydi, o'z faoliyati va mehnat jamoasining ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zaxira jam'armasini va boshqa jamharmalarni tuzadi.

Mustaqil xo'jalik faoliyati yuritish va faoliyat mahsulini mustaqil taqlsimlash uchun asosiy zamin shundan iboratki, tadbirkor faoliyatining barcha sohalarida boshqa tadbirkorlar, tashkilotlar va fuqarolar bilan munosabatlarni yuqoridan topshiriladigan ko'rsatmalar asosida emas, balki o'zi mustaqil ravishda uyushtiradi va shartnomalar tuzish yo'li bilan

rasmiylashtiradi.

Tadbirkor o'ziga qarashli mol - mulkdan erkin foydalanish asosida mahsulot chiharadi, uni sotadi yoki ayirboshlaydi, turli ishlarni bajaradi yoki xizmat ko'rsatadi, boshqa tadbirkorlar bilan bellashuv natijasida o'z faoliyatini ro'yobga chiharishga harakat qililadi va ushbu faoliyatning natijalari uchun, shuningdek kreditorlari oldida mustaqil javob beradi.

G) umumiy tamoyilga binoan tadbirkorlar ishlab chiharish va xo'jalik faoliyatlarining har xil turdan iborat bo'lishidan va ularning tashkil topishi turli shakldagi mulkchilikka asoslangan bo'lishidan qattiy nazar, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishiga kafolat beriladi.

Tadbirkorlik faoliyati mahsulot ishlab chiqarishdan, uni sotishdan, olishdan, xarid qilishdan, turli ishlarni bajarishdan, masalan, pudrat shartnomasi bo'yicha turar joy yoki inshoot qurish, xizmat ko'rsatishdan, ya'ni yuk va passajirlar tashishdan, turli moddiy - maishiy xizmatni bajarishdan iborat bo'lishi mumkin. Tadbirkorlikning ushbu va boshqa turlari har xil shakldagi mulkchilikka asosan amalga oshirilishidan qattiy nazar, ular qonun oldida teng huquqlidir.

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonun barcha tadbirkorlar uchun teng tatbiq qililadi. Qonunda ko'zda tutilgan umumiy qoidalar, huquq va burchlar, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun bajarilishi zarur bo'lgan shartlar, talablar, kafolatlar tadbirkorlikning qaysi turdagi faoliyatlardan iborat bo'lishidan qattiy nazar, barcha tadbirkorlar uchun bir xilda tatbiq qililadi. Qonunning 4 - bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan tadbirkorning ishchanlik obro'si, uning intellektual faoliyat natijalari, faoliyatining tijorat siri, unga etkazilgan zararni qoplash, turli xil tekshirishlardan cheklash kabi masalalar bo'yicha huquq va manfaatlarini himoya qililadi.

Qonun bo'yicha turli shakldagi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun teng iqtisodiy sharoit va ularni himoya qilish uchun teng huquqiy kafolatlar bilan ta'minlashni davlat o'z zimmasiga oladi. Bu birinchi galda Asosiy Qonun - O'zbekiston Kantsitutsiyasida o'z aksini topdi. Kantsitutsiyaning 53 - moddasiga binoan «.. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab - baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi”.

Kantsitutsiya bilan mustahkamlangan umumiy tamoyil O'zbekistonning tegishli qonunhujjatlari o'z aksini topdi. O'zbekiston qonunlarida tadbirkorlarning fuqarolik huquqini sudlov yo'li va boshqa usullar bilan himoya qilishga oid qoidalar nazarda tutiladi. FK 10 - moddasining 2 - qismiga va 12 - moddasiga muvofiq ma'muriy organ tomonidan qabul qilinishi tadbirkorlarning huquqini buzadigan qaror ustidan sudga shikoyat qilish nazarda tutildi. Ushbu Kodeksning 11 - moddasiga muvofiq «.. o'z huquqini shaxsning o'zi himoya qilishi; ma'naviy ziyonni qoplash; davlat organlarining qonunga zid hujjattini sudning qo'llamasligi» kabi fuqarolik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan usullar ko'zda tutiladi.

Fuqarolik kodeksining 12 - moddasi demokratik xususiyatlarni ifodalovchi moddalardan iborat. Unga ko'ra, davlat organlari fuqaroning yoki yuridik shaxsning huquq va manfaatlarini g'ayriqonuniy ravishda buzishga qaratilgan hujjattqabul qilsalar, bunday hujjattni haqiqiy emas, deb topish va bunday hujjatt natijasida etkazilgan zararni undirish haqidafuqarolar sudga murojaat qilishlari mumkin. Bunday huquq va kafolatlar to'la - to'kis tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarga ham taalluqlidir.

O'zbekiston Kantsitutsiyasining 44 - moddasiga muvofiq, fuqarolar va yuridik shaxslar, jumladan, tadbirkorlar davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti - harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. Kantsitutsiya bilan belgilangan ushbu asosiy qoida O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 6 mayda qabul qilingan «Fuqarolarning murojaatlari to'risida»gi, 1995 yil 30 avgustdagi «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti - harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunlarida o'z aksini topdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi 1996 yil 19 iyulda «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti - harakatlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko'rish amaliyoti to'g'risida» haror qabul

qilindi.

1995 yil 30 avgustdagi qonun va bunga binoan qabul qilingan Oliy sud Plenumining 1996 yil 19 iyuldagi qaroriga muvofiq sudga nafaqatqonunga tenglashtirilgan, ya'ni qonun otsi hujjati, shuningdek qonunhujjati utsidan ham shikoyat qilinishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Sud davlat organlari yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi organlari tomonidan qabul qilinganhujjatlarning qonunga muvofiq kelish - kelmasligi aniqlagach, ushbu hujjattni haqiqiy yoki haqiqiy emas, deb tan olishi mumkin. Bunday hujjatt bekor qilinishi yoki qilinishidan qattiy nazar, u o'z yuridik kuchini yo'qotadi. Davlat organlari yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi organining huquqiy hujjatt (qaror, farmoyish va hakazo) qabul qilishdan yoki muayyan xatti - harakatni bajarishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortganligi aniqlangan taqdirda sud Fuqarolik kodeksi 8 - moddasining 3 - bandiga muvofiq yuridik fakt kuchiga ega bo'lgan qaror chiharishi mumkin.

Tovar, xizmatlar va moliyaviy mablag'llarning erkin harakatda bo'lishini cheklashga qaratilgan huquqiy hujjattlar ham FKning 12 - moddasida nazarda tutilgan qoidaga muvofiq sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin. Bunday cheklashlar, agar ular xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning hayoti va sog'ligini himoya qilish, tabiatni va madaniy boylikni muqlofaza qilish uchun zarur bo'lsa, faqatqonunhujjatlari muvofiq joriy etilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 15 - moddasida davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shuningdek ushbu organlarning qonunga muvofiq bo'lmagan hujjatlari natijasida fuqaroga, yuridik shaxsga, jumladan, tadbirkorga etkazilgan zararni undirish haqida qoida nazarda tutiladi. Etkazilgan zarar davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek g'ayriqonuniy harakatda (harakatsizlikda) ayblangan mansabdor shaxsning hisobidan undiriladi. Demak, etkazilgan zararni undirish ikki hil byudjetga: O'zbekiston Respublikasining va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi organlarning byudjetiga, shuningdek mansabdor shaxsning mol - mulkiga (mablag'lliga) qaratiladi.

Demak, davlat boshqaruvi va hokimiyat organlari o'z vakolatlariga yoki qonunhujjatlari mos kelmaydigan hujjattqabul qilsalar, tadbirkor bunday hujjattni haqiqiy emas, deb e'tirof etish to'g'risida sudga murojaat etishga haqlidir. Tadbirkor huquqini buzgan davlat organi yoki o'zga organlar, tashkilotlar yoxud ularning mansabdor shaxslari ko'rsatmalarini bajarish natijasida, shuningdek bunday idoralar yoki ularning mansabdor shaxslari tadbirkorga nisbatan qonunda ko'zda tutilgan burchlarini tegishli amalga oshirmaganliklari oqibatida tadbirkorga etkazilgan zararni undirish haqida ana shu organlarga, tashkilotlarga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atiladi.

Tadbirkorlik erkinligi tadbirkorning huquq va qonuniy manfaatlari nafaqatqonun bilan belgilangan choralar bilan muhofaza qilinadi, balki ushbu erkinlik, huquq va manfaatlar ular o'rtasida tuziladigan shartnomalarda to'liq o'z ifodasini topadi. Shartnoma tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy mustaqillik va teng huquqlikdan, mulkiy, xo'jalik munosabatlarida ishtirok qilish uchun o'z xohish va maqsadlarini erkin ravishda rasmiy ifoda etishlaridan darak beradi.

Jamiyatda turli shakldagi mulkchilikning teng huquqlilik tamoyiliga asosan harakatda bo'lishi va mulkiy munosabatlarda, tadbirkorlikni amalga oshirishda mol - mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsning egalik huquqiga mulk huquqi sub'ektlarining o'zgarishi bilan o'tishi ushbu shaxslar o'rtasidagi mavjud munosabatlarni tovar - pul munosabatlari, ya'ni, hah evaziga oshiriladigan munosabatlar emas, deyishga asos qolmaydi. Ularni rejali ishlab chiharish va taqsimlash usullari asosida emas, balki shartnomalar vositasida tartibga solishga to'g'ri keladi. Shartnoma jamiyatda moddiy ne'matlarni ishlab chiharish, itse'mol qilish sohasida ehtiyoj va taklif qilish masalalarini oqilona belgilash, to'g'ri hal qilish uchun imkoniyat yaratadi.

D) tadbirkorlikni erkin amalga oshirish va ishchi xodimlar yollashining ixtiyoriyligi umumiy tamoyillardan hisoblanadi. Har bir shaxs o'zining mehnat qilish qobiliyati - ishchi kuchini tasarruf etishda mustaqil huquqqa ega. U bu huquqdan yakka tadbirkor sifatida yoki o'zga shaxslar (jismoniy yoki yuridik shaxslar) bilan shartnoma (bitim, kontrakt) tuzish asosida foydalanishi mumkin.

Har bir shaxs o'zining ishchi kuchi, qobiliyatidan o'z erki va xohaishi bilan foydalanadi.

Shuning bilan birga u tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida yollanma mehnatdan foydalanishi ya'ni shartnomaga asosan o'zga shaxslarni mehnatga yollash huquqiga ega.

Fuqarolik kodeksining 18 - moddasiga muvofiq, yollanma mehnatdan foydalanish fuqaroning huquq layoqati mazmuni sifatida ifodalanadi. Demak, O'zbekiston qonunlariga muvofiq, yollanma mehnatdan foydalanish uchun fuqaroga huquq beriladi. Fuqaro tadbirkor sifatida yollanma mehnatdan foydalanish uchun o'zi hammehnatga yollangan shaxs bilan faoliyat yuritishda birgalikda qatnashishi kerak bo'ladi.

Xususiy mulk mulkdorning (tadbirkorning) ishlab chiqarish jarayonida va (yoki) yollanma mehnatni qo'lashda shaxsan, bevosita ishtirok etishiga asoslanishi mumkin.

Tadbirkor qonunhujjatlarida ko'zda tutilgan shartlar va doira chegarasida o'ziga tegishli mulkiy huquq asosida o'z faoliyatini amalga oshirish paytida fuqarolarning mehnatidan foydalanish to'g'risida ular bilan shartnoma tuzishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatining turli sohalsida fuqaroning mehnatidan foydalanish uchun asos bo'lgan mulkning qay shaklda ekanidan qattiy nazar, fuqaroga amaldagi qonunlar ko'zda tutgan mehnat haqqi berish va zarur bo'lgan mehnat sharoitlari yaratish, shuningdek boshqa ijtimoiy - iqtisodiy kafolatlar bilan ta'minlash vazifasi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi. Bu vazifani bajarishda tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga va mehnat munosabatlarini tartibga solishga taaluqli boshqaqonunhujjatlariga amal qilishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni o'z oldiga maqsadqilib qo'ygan har bir fuqaro yoki yuridik shaxs ixtiyoriy ravishda bu ishga kirishadi va tavakkalchilik tamoyiliga asosan o'ziga va (yoki) boshqa shaxslarga tegishli mulklarni birlashtirish, ya'ni umumiy mulk asosida shaxsan tashabbus ko'rsatib qo'shimcha daromad (foйда) olishga intiladi.

Mehnatga yollash tadbirkor bilan xodim o'rtasida shartnoma tuzishni talab qiladi. Shartnoma teng huquqli taraflar o'rtasida tuzilishi mumkin. Shunday ekan, shartnomada tadbirkor bilan mehnatga yollanuvchi xodimning ixtiyoriy irodasi, erki o'z aksini topadi.

Tadbirkorni yollanma mehnatga jalb etishga hech kim majbur qila olmaydi, u ushbu masalani o'z ehtiyojini va imkoniyatlarini hisobga olgan holdahalqiladi. Shuning bilan birga xodimni ham yollanma mehnatbilan shug'ullanishga hech kim majbur qilish huquqiga ega emas, u o'z xohalishi bilan yollanishi mumkin. Demak, yollanma mehnatga jalb etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi va ikkala tarafning ham, ya'ni tadbirkor va yollanuvchi xodimning bu masalada roziligi bo'lishi talab qilinadi.

Mehnat munosabatlari, jumladan, xodimlarni yollash, boshqa ishga o'tkazish, ish vaqti va dam olish vaqti, mehnatga haq to'lash va boshqa masalalar mehnat to'g'risidagi amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 10 - moddasining 3 - qismiga muvofiq korxonalar, shuningdek ayrim fuqarolar ixtiyorida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnatga oid munosabatlari normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Fuqaro yoki yuridik shaxs mehnatga haq to'lash tartibini, shuningdek xodimlarning boshqa turdagi daromadlari shakllarini va miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi. Xodimlarning ish haqqi O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

Tadbirkorlik korxonasi o'zida ishlovchi barcha xodimlar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashga majburdir hamda ularning sog'lihaliga va mehnat qilish layohaltiga etkazilgan zarar uchun qonunda belgilangan tartibda javob beradi. Mulkchilikning turli shakllari asosida faoliyat yurituvchi tadbirkor korxonalarining xodimlari davlat korxonalarini xodimlari uchun belgilangan tartibda va shartlarga muvofiq ijtimoiy va tibbiy sug'urta qilinadi hamda ijtimoiy - iqtisodiy ta'minlanadi. Shuning uchun ham korxonalar amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda va miqdorlarda davlat ijtimoiy sug'urta jamharmasiga va pensiya jamg'armasiga mablag' o'tkazishi shart.

O'zbekiston mehnatga oid qonunhujjatlarida xususiy korxonada ishchi kuchlarini yollash va mehnatga haq to'lash tartibi hamda shartlariga alohida e'tibor beriladi. Xususiy korxonalar xodimlari mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha yollanadi. Mehnat shartnomasii yozma shaklda tuziladi, unda taraflarning huquq va burchlari ko'rsatiladi.

Mehnat shartnomasida ko'zda tutilishi zarur bo'lgan ma'lumotlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozim bo'yicha ishlarni bajarish majburiyatlari; shartnoma tuzilgan muddat; mehnat va unga haq to'lash shartlari, ijtimoiy va tibbiy sug'rtahamda ijtimoiy ta'minot tartibi; xodimning ijtimoiy himoyalanganligi; Mehnat shartnomasiini buzganlik uchun javobgarlik; tomonlarning kelishuvi bo'yicha boshqa ma'lumotlar.

Demak, tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanish va shu maqsadda xodimlarni yollash ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

E) tadbirkor tomonidan o'z daromadlari to'g'risida bayonnoma (deklaratsiya) berilishi va daromadiga yarasha mutanosib ravishda soliqlar to'lanishi umumiy tamoyillardan iborat.

Daromad olishning manbalari va usullari qanday bo'lishidan qattiy nazar, soliq idoralari huzurida hisob berishning asosiy (deklarativ) shakli, tadbirkorlarning daromadlarini yashirib qo'yganlik (kamaytirib ko'rsatganlik) uchun O'zbekitson qonunhujjatlari javobgarlik nazarda tutiladi. Bunday javobgarlik moddiy va jinoiy chora tusida bo'lishi mumkin.

O'zbekitson 1991 yil 15 fevralda birinchi marta o'zining «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonunini qabul qildi. So'nggi yillarda O'zbekitsonda iqtisodiy islohatlarning chuqurlashuvi, tadbirkorlikning rivojlanishi hisobga olingan holda ushbu qonunga kiritilgan o'zgartishlar, qo'shimchalar davlat byudjetining hamda mahaliy byudjetlarning soliqlar tarzidagi daromadlari manbalarini belgilab berdi. Endilikda soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiblari 1997 yil 24 aprelda tasdiqlangan O'zbekitson Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadi Tadbirkorlik faoliyati bilan shuhalullanuvchi jismoniy shaxslardan soliq va yig'implarni undirishni tartibga solishga oid ayrim maxsus qoidalar O'zbekitson Respublikasi Vazirlar Mahalkamasining 1997 yil 23 oktyabrda qabul qilingan qarori bilan belgilanadi.

Soliqlarni joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad davlat iqtisodiy - ijtimoiy kafolatlarining moliyaviy bazasini ta'minlashdan, jismoniy (fuqarolar) va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishdan, tabiiy boyliklardan tejab - tergap foydalanish va atrof muhitni muhofaza etishni rag'batlantirishdan iboratdir.

Tadbirkorlar faoliyatini soliq yo'li bilan tartibga solish quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- soliq solish - yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qattiy nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga esa - jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qattiy nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi;

- belgilanayotgan soliqlar va yig'implar tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekitson Respublikasi hadududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita va bilvosita cheklab qo'yish yoki unga halal qilishi mumkin emas;

- olingan manbag'lardan qattiy nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi shart;

- soliq imtiyozlarini belgilash ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo'lishi kerak.

Soliqlar umumdavlat va mahaliy soliqlar hamda yig'implarga bo'linadi. Umumdavlat soliqlariga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qo'shilgan qiymatsolig'i aksiz solig'i er o'tsi boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i suv resurslaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Ushbu soliqlar har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida tahalsimlanadi.

Mahaliy soliqlar va yig'implar jumlasiga mol - mulk solig'i avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun olinadigan soliqlar va savdo - sotiq qilish huquqi uchun yig'im, jumladan, ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari, yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shuhalullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun olinadigan yig'implar kiradi.

Mol - mulk va er soliqlari O'zbekitson Respublikasi qonunhujjatlari bilan joriy etiladi va respublikaning butun hududida undiriladi. Bu soliqlar va yig'implar stavkalarining miqdori (ushbu

Kodeks bilan belgilanadigan yuridik shaxslarning mol - mulkiga solinadigan soliqstavkasi bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Reklama va obodonchilik ishlari uchun soliqlari va yig'implar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hakimiyati organlari tomonidan joriy etiladi. Bu mahaliy soliqlar va yig'implar stavkalarining eng yuqori miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mahaliy soliqlar va yig'implarni joriy etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Mahaliy soliqlar va yig'implar mahaliy byudjetga o'tkaziladi.

Ayrim toifadagi korxonalariga solinadigan soliqning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 16 - moddasiga binoan kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lanishini nazarda tutuvchi soddalashtirilgan soliq solish tizimi qo'llanishi mumkin. Aktsiz to'lanadigan mahsulot chiharayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar aktsiz soliqini Soliq kodeksida belgilangan tartibda to'laganlari taqdirda soddalashtirilgan soliq solish tizimiga o'tishlari mumkin. Soliq solish tizimini tanlash huquqi mikrofirmalar va kichik korxonalariga beriladi.

Yagona soliq, yalpi daromad solig'I yagona er solig'ni to'lash tartibi va stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Savdo va umumiy ovqatlantirish korxonalari foyda (daromad) soliqi va qo'shilgan qiymat solig'i o'rniga byudjetga yalpi daromad solig'i to'laydilar. Yalpi daromad solig'ini hisoblab chiqarish tartibi va stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari Soliq kodeksida batafsil nazarda tutiladi. Masalan, ular soliq organlaridan soliqhaqidagi qonunhujjatlari masalalari bo'yicha axborot va maslahatlar olish; qonunhujjatlari bilan belgilangan imtiyozlardan foydalanish; byudjetga ortihalcha miqdorda tushgan soliqlar va yig'implar summasini qaytarish to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilish; soliqlar va yig'implar bo'yicha byudjet oldidagi o'z majburiyatlari yuzasidan soliq organlaridagi mavjud ma'lumotlar bilan tanishish; soliq organlari o'tkazgan tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish, tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda soliq organiga o'zining yozma e'tirozlarini o'n kunlik muddat ichida taqdim etish; soliq organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining xatti - harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish; soliq solish ob'ektini hisobga olishda soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish va boshqa qonunhujjatlarda nazarda tutilgan o'zga huquqarga ham egadirlar.

Tadbirkorlar zimmasiga muhim majburiyatlar yuklatiladi. Soliq kodeksining 12 - moddasiga muvofiq ular a) belgilangan muddatda va tartibda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish, yuridik manzili o'zgargan taqdirda esa, bu haqida soliq organiga 10 kunlik muddat ichida xabar berish; b) soliqlar va yig'implarning tegishli summasini o'z vaqtida va tegishli hajmda to'lash; buxgalteriya hisobini va hisobhujjatlarni qonunhujjatlari muvofiq yuritish; g) moliyaviy hisobotni, soliqlar bo'yicha hisob - kitobni yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni qonunhujjatlarda belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish; d) soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqish, to'lash bilan bog'liq hujjatlarni va ma'lumotlarni, shuningdek soliqlar va yig'implar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlalchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish; e) soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solish ob'ektlarining sahalanishi bilan bohalihal binolar va joylarga kirishiga ruxsat berish; j) soliq organlarining soliqhaqidagi qonunhujjatlarni buzish halollarini bartaraf etish to'g'risidagi talablarini va qonunhujjatlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatni ham bajaradilar.

Soliq bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun tadbirkorlarga nisbatan ma'muriy, fuqarolik - huquqiy va jinoiy javobgarlik qo'llanishi mumkin. Masalan, Soliq kodeksi 135 - moddasining 2 - bandiga binoan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan

jismoniy shaxslarning soliq organida ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlashi eng kam ish haqqining besh baravari miqdorida jarima solishga olib keladi. Ushbu moddaning 3 - bandiga binoan daromad (foйда) yashirilgan taqdirda tadbirkordan yashirilgan daromadning (foydaning) butun summasi va yana shuncha summa miqdorida jarima undiriladi. Soliq solinadigan ob'ektlar yashirilganligi uchun ham tegishli javobgarlik nazarda tutiladi. Bunday xatti - harakatlarga qasddan yo'l qo'yilgan taqdirda jinoiy javobgarlik belgilanadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 184 - moddasiga binoan foйда (daromad) yoki soliq to'lanadigan boshqa ob'ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko'rsatish, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarini, yig'implarni, boj yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlash, basharti to'lanmagan summa ancha miqdorni tashkil qilsa - eng kam oylik ish haqqining boshqaruv ellik baravarigacha miqdorda jarima

yoki ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud mol - mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay olti oygacha qamoq jazosi bilan jozolanishi nazarda tutiladi. Shunga o'xshash xatti - harakatlar takroran va ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, jarima to'lash, ahloqan tuzatish ishlari bilan bir qatorda uch yilgacha, xatto uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish choralarini qo'llash nazarda tutiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy manbalari.

Tadbirkorlikning iqtisodiy manbalari xususiy mulk va ommaviy (davlat) mulk shakllaridan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi Kotsitutsiyasining 36 - moddasiga muvofiq, har kim mulk huquqiga ega. Ushbu Asosiy qonun - Kotsitutsiyaning 53 - moddasiga muvofiq, O'zbekistonning iqtisodiy negizini har xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Tadbirkorlik barcha mulk shakllarining teng huquqliligiga asoslanadi. Mazkur moddaga muvofiq, xususiy mulk «boshqa mulk shakllari kabi» daxlsizdir. Mulkning qaysi shakllardan iborat ekanligi Fuqarolik kodeksida nazarda tutiladi. FKning 167 - moddasiga binoan O'zbekistonning iqtisodiy negizini xususiy va ommaviy mulk shakllari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishni ta'minlashga bag'ishlangan mulkchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiharish va xususiylashtirish to'g'risida, hamda tadbirkorlik, banklar, invetsitsiyalar, er, monopoliyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunhujjatlarning qabul qilinishi respublikada mulkiy munosabatlarning mohiyat va mazmun jihatidan jiddiy o'zgarishiga va shu sababli tadbirkorlikning tarkib topishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratdi.

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 14 - moddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati tadbirkorlarning o'z mol - mulki asosida va (yoki) jalb etilgan mol - mulk asosida amalga oshirilishi mumkin. O'z mol - mulki asosida tadbirkorlik faoliyatini asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar amalga oshiradi.

Jalb etilgan mol - mulk deganda olingan qarz, kredit mablag'llari, ijaraga olingan binolar, transport vositalari va shunga o'xshash boshqa narsalarni tushunish mumkin. qonunning 18 - moddasiga binoan tadbirkorlik faoliyatining erkinligi uning iqtisodiy manbai bo'lgan mulk shakllarining teng huquqligi va huquqiy jihatdan bab - baravar muhofaza etilishi bilan ifodalanadi.

O'tmishda jamiyatning iqtisodiy negizini asosan sotsialitsik mulkning ikki xil shakli, ya'ni, davlat va kolxoz - kooperativ mulki tashkil etardi. Fuqarolarning mulki «shaxsiy» mulk va alohalida shakldan iborat deyilsa - da, lekin ushbu mulk davlat korxonalarida, jamoat tashkilotlarida mehnat qilish natijasida olingan daromadlar hisobiga tashkil topishi, iste'moliy xarakterga ega bo'lishi va fuqaroning shaxsiy moddiy va madaniy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim edi. Shaxsiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy jihatdan etarli bo'lmasa, huquqiy jihatdan mumkin emas edi.

Asosiy ishlab chiqarishquurol - vositalarining faqat davlatga tegishli bo'lishi, umumxalq mulki deb, lekin mulkning egasi shaxsan kim ekanligi, kim unga javobgar bo'lishi noaniq bo'lishi mulkka nisbatan xo'jasizlik, beparvorlik, jamiyatda umumiy dangasalik va beg'amlik kayfiyatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Fuqarolarda mehnatga nisbatan qiziqish,

tadbirkorlik faoliyati uchun kerak bo'lgan tashabbuskorlik hissiyotlarini tarbiyalashga imkon bermadi.

Davlat mulkining jamiyatda egallagan etakchilik o'rni qonun - qoidalar mohiyatini hamo'ziga xos ravishda belgilab berdi. Masalan, davlat mulkining tarkib topishi, uni muhofaza qilish va unga asosan vujudga keladigan barcha turdagi munosabatlarni tartibga solishga oid qoidalar kolxoz - kooperativ va ayniqsa fuqaroning shaxsiy mulkiga nisbatan tubdan farq qilar va ancha ustun turardi.

Amaldagi qonunhujjatlarda O'zbekiston Kotsitutsiyasiga amal qilinganiholda, mulkning o'tmishda sotsialitsik jamiyatning sinflarga bo'linishiga asoslanib shakllarga ajratilishiga va qaysi shaklda, kimga tegishli bo'lishiga harab o'rnatilgan tengsizlikka barham berildi. Mulkning kimga tegishli bo'lishidan qattiy nazar, teng ravishda rivojlanishi uchun imkoniyatlarning mavjud bo'lishi va ularni bab - baravar huquqiy muhofaza qilish qoidalari O'zR FKning tegishli moddalariga nazarda tutildi. Iqtisodni tashkil qiluvchi asosiy masala bo'lishi mulk masalasining bunday ijobiy halqilinishi ijtimoiy qayotning barcha sohalarida tashabbuskorlik hissiyotlarining kamol topishi, ishlab chiqarishda, xo'jalik sohasida tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda fuqarolar hamda tashkilotlar, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarning birgalikda bab - baravar manfaatdor bo'lishi, ular o'rtasida umumiy mol - mulkning vujudga kelishi va ushbu mulkdan hamkorlikda unumiy foydalanish va samarali natijalarga erishish imkoniyatlarini yaratib berdi.

Xususiy mulk bozor munosabatlarining asosiy iqtisodiy manbaidir. Xususiy mulk tashkil topmasdan turib, bozor munosabatlari haqidagi harqanday fikrlar xom xayoldir. Xususiy mulk va uning asosida vujudga keladigan munosabatlar bizning qonunchilik faoliyatimizda yangilikdir. Xususiy mulkning joriy qilinishi bilan fuqarolarning huquqlayohati doirasi kengaydi, ular 1963 yildagi Grajdanlik kodeksining 120, 121, 122, 128, 136 - moddalaridagi oldingi cheklashlardan ozod bo'ldi. Endi ular faqat shaxsiy moddiy va madaniy ehtiyojlarini ta'minlash uchun emas, balki xususiy mulk asosida turli tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga va ishlab chiqarish jarayonida faqato'z mehnati emas, balki yollanma mehnatni jalb qilish va uning uchun kerak bo'lgan qurol - vositalarga ega bo'lish, ularni ijaraga berish yo'li bilan qo'shimcha daromadlar olish kabi huquqardan foydalanishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy manba sifatida xususiy mulk bilan bir qatorlda ommaviy (davlat) mulk hamqatnashadi. Ommaviy mulk tushunchasi davlatning barcha fuqarolariga va shuning bilan birga har bir fuqarosiga tegishli bo'lgan mulk ma'nosini beradi. Lekin u o'tmishda davlat mulkiga o'xshash mavhum tushuncha emas, balki uning muayyan ob'ektlari va uni egallab turuvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi sub'ektlari aniq belgilandi.

Ommaviy mulk davlatga tegishli mulkdan iborat bo'lib, u ikki xil ko'rinishda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi mulki va munitsipal mulkdan tashkil topadi. FKda har bir turdagi mulk huquqining ob'ektlari va sub'ektlarining huquqlayohati haqida umumiy tushuncha beriladi.

Davlat mulk huquqi o'z mazmuni, ya'ni uni egallash, undan foydalanish, uning tasarruf etilishi jihatdan ikki xil guruhlalga bo'linishi mumkin: a) davlat korxonalariga va muassasalariga biriktirib qo'yilgan mol - mulk; b) tegishli byudjet mablag'llari va davlat korxonalari hamda muassasalariga biriktirilmagan, respublika davlat g'aznasini tashkil qiladigan mol - mulk.

Tadbirkorlik faoliyati asosan davlat korxonalari va muassasalariga biriktirib qo'yilgan mol - mulk asosida amalga oshiriladi. Ushbu korxonalar va muassasalar ularga biriktirib qo'yilgan davlat mulkiga nisbatan xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqiga ega bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini qonunhujjatlarda, ular uchun qabul qilingan Utsavlarda, ta'sis hujjatlarda belgilangan vakolat doirasida faol amalga oshiradilar.

Tadbirkorlik faoliyati umumiy mulk, ya'ni bir necha fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan mol - mulk asosida ham amalga oshirilishi mumkin.

Bunday umumiy mulk birgalikdagi va ulushli mulkdan iborat bo'lishi mumkin.

Ulushli va birgalikdagi umumiy mulk kimlarga tegishli bo'lishi zarurligi FKda ko'rsatilmaydi va bunday mulklarning sub'ektlari harqanday shaxsdan iborat bo'lishi,

ikkinchidan, birgalikdagi umumiy mulkni ulushlarga ajratish yoki uning ishtirokchilaridan birining ulush ajratishi mumkinligi nazarda tutiladi (FKning 216, 226 - m. m.).

Birgalikdagi umumiy mol - mulkning barpo bo'lishi, uning xususiyati hisobga olingan holda quyidagicha belgilanadi: o'z vazifasini, ya'ni foydalanish maqsadiga munosib bo'lishini o'zgartirmagan holda taqsimlanishi mumkin bo'lmagan (bo'linmaydigan ashyolar, ya'ni yaxlit tarzda belgilangan mol - mulklar) yoki qonun bo'yicha taqsimlanishi mumkin bo'lmagan, ikki yoki undan ortiq shaxslarning mulk huquqiga o'tgan mol - mulk birgalikdagi umumiy mulk deyiladi.

Mulk huquqi egalari har birining, ularga tegishli bo'lgan umumiy mol - mulkdagi ulushlari (halissalari) anihal belgilab qo'yilgan bo'lsa, bunday mulk ulushli mol - mulk deyiladi.

Ulushli mol - mulkda qonunga asosan yoki ishtirokchilarning kelishuvi bilan ularning ulushlari aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsa, ulushlar teng deb hisoblanadi. Ulushlar teng bo'lmasligi ham mumkin (FK 217 - m.). Ulushli mulkni tasarruf qilishga nisbatan imtiyozli huquq belgilanadi (FK 224 - m.).

Birgalikdagi mol - mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish haqida yangi qoidalar o'rnatiladi (225 - m). Umumiy qoidaga asosan birgalikdagi mulkka uning egalari birgalashib egalik qiladilar va foydalanadilar. Lekin ular o'zaro kelishib, boshqacha tartib o'rnatgan bo'lishlari ham mumkin. Bunday mulkni tasarruf qilishda uning egalarning roziligi talab qismigai

Tadbirkorlik rivojlanishining ta'siri ostida birgalikdagi mulk huquqi ishtirokchilarining har biriga ularning barchasining roziligi bilan ushbu mol - mulk yuzasidan bitimlar tuzish huquqi beriladi. Masalan, er - xotonga umumiy birgalikdagi mulk huquqida tegishli bo'lgan mol - mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda, ish muomalalarida er - xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Tadbirkorlarning roziligi bilan vakolat berilmasdan tuzilgan bitim xaqiqiy emas deb hisoblanishi nazarda tutiladi. (FK 225 - m.).

Tadbirkorlik sub'ektlari, ya'ni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar fuqarolardan, fuqarolarning uyushmalaridan (xo'jalik jamoalari va shirkatlardan), ajnabiy davlatlarning fuqarolari va yuridik shaxslaridan iborat bo'lishi mumkin. Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyati turli shakldagi mulk huquqi asosida va ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida birgalikdagi korxonalar, firmalar, aktsiyadorlar jamiyatlari tuziladi. Bunday birgalikdagi tadbirkorlik ularda qatnashuvchi shaxslarning mol - mulkini jalb etish hisobiga, ya'ni umumlashtirish asosida amalga oshiriladi. Umumiy mulkda har bir tadbirkor xo'jalik jamoasi a'zosining ulushi belgilanadi, ya'ni tadbirkorlikni amalga oshirish natijasida ko'lga kiritilgan daromad ham ulushning miqdoriga qarab, a'zolar o'rtasida taqsimlanadi.

FKning 217 - moddasiga muvofiq agar ulushli mulk ishtirokchilarining ulushlari qonun asosida belgilanishi mumkin bo'lmasa hamda uning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ulushlar teng deb hisoblanadi. Tadbirkorlarning samarali mehnatlari tufayli ulushlarining miqdori o'zgarib turishi va aniq belgilangan bo'lishi mumkin. Tadbirkorlikni amalga oshirish jarayonida ulushlar haqida nizo kelib chiqqan taqdirda bunday nizo umumiy mulk - egalari harqaysisining da'vosi bo'yicha sud tomonidan halqilinadi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda fuqaroning mulki xususiy shakldagi mol - mulkdan iborat bo'lsa, yuridik shaxsning mulki jamoa (shirkat) mulkidan (agar u jamoalardan, ularning uyushmalaridan, jamoa va kooperativ tashkilotlaridan iborat bo'lsa) va shuningdek, davlat mulkidan (agar yuridik shaxs davlat korxonalaridan, tashkilotlaridan, birlashmalaridan iborat bo'lsa) tashkil topishi mumkin.

Bunday halatlarda fuqarolar bilan yuridik shaxslar o'rtasida umumiy ulushli mulk huquqi vujudga keladi va ushbu mulk asosida tadbirkorlik amalga oshiriladi.

O'tmishda 1963 yildagi Kodeksning 136 - moddasiga muvofiq davlat (davlat korxonalari, tashkilotlari) bilan fuqaro yoxud kooperativ va boshqa jamoat tashkiloti bilan fuqaroo'rtasida

umumiy ulushli mulkning vujudga kelishiga yo'l qo'yilmasdi. Agar meros olish, rekvizitsiya yoki musodara qilish natijasida yoki boshqa asoslarga ko'ra, davlat bilan fuqaroning, yoxud kooperativ va boshqa jamoat tashkiloti bilan fuqaroning umumiy mulki tashkil bo'lib qolsa, u holda bunday umumiy mulk paydo bo'lgan kundan boshlab bir yil ichida qonunda ko'zda tutilgan usullarni qo'llash yo'li bilan bekor qilinishi lozim edi. Endilikda mol - mulklarni umumlashtirish asosida birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratildi.

Faqat turli shakldagi mol - mulkni umumlashtirish asosida emas, balki ushbu mulkdan turli shakldagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun asos sifatida foydalanish mumkin. Masalan, mol - mulk asosida tadbirkorlikni yakka tartibdagi mehnat, hamkorlikdagi faoliyat, mulkni ijaraga berish, qarz berish, birgalikda korxonalar, shirkat tashkilotlari tuzish kabi shakllarini, turlarini tuzish va amalga oshirish mumkin.

Tadbirkorlik ajnabiy fuqarolar hamda yuridik shaxslarning mol - mulklarini turli shakllarda jalb etish asosida ham amalga oshiriladi. Mol - mulkdan foydalanish, uni tasarruf etish, uning asosida tadbirkorlik yuritish haqidagi O'zbekiston fuqarolariga tegishli qoidalar ajnabiy fuqarolarga ham taalluqlidir. Fuqarolik kodeksining 16 - moddasida ko'zda tutilishicha, O'zbekistonda yashab turuvchi ajnabiy davlat fuqarolari respublikaning fuqarolariga tegishli bo'lgan huquqiy layohaltdan teng foydalanadi. Ushbu huquqdan foydalanib, zarur sarmoyaga ega bo'lgan ajnabiy davlat fuqarolari o'zaro manfaatdorlik asosida respublikada faol tadbirkorlik ko'rsatib, qo'shma korxonalar yoki faqato'zlariga tegishli bo'lgan xususiy korxonalarni imtiyozli ravishda tashkil etishlariga imkon beriladi. Bunda ularning mol - mulklari va mulkiy huquqari, manfaatlari qonun bilan qo'riqlanadi va daxlsizligi to'la kafolatlanadi. Ular o'zlarining xususiy sohibkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun er, ishlab chiqarish vositalari va qurollari, boshqa zaruriy ashyolarni imtiyozli shartlarda va uzoq muddatlarga ijara olishlari mumkin. Xorijiy fuqarolar respublika hududida tadbirkorlik natijasida orttirgan mol - mulkni o'z xohishlari bilan meros qilib qoldirishlari, xayr - ehson qilishlari yoki o'zlariga tegishli daromadlarni O'zbekistondan erkin olib ketishlari qonun bilan kafolatlanadi.

Tadbirkorlik O'zbekiston yuridik shaxslari va ajnabiy yuridik shaxslar ishtirokida, ularning mol - mulki asosida qo'shma korxonalar, aktsiyali jamiyatlar, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalari asosida tadbirkorlikni amalga oshirish shakllari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: a) O'zbekiston tadbirkorlarining ajnabiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslari bilan birgalikda korxonalar, banklar, sug'rta kompaniyalari barpo etish va boshqa tashkilotlarda ulush qo'shib qatnashish; b) butunlay ajnabiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslariga qarashli bo'lgan korxonalar, banklar, sug'rta kompaniyalarini va boshqa tashkilotlarni barpo etish; v) mol - mulk, aktsiyalar va boshqaqimmatbahoqog'ozlar sotib olish; g) tadbirkorga mustaqil ravishda tegishli bo'lgan yoki fuqarolar va yuridik shaxslar ishtirokidagi mulkiy huquqarni, shu jumladan, erdan va tabiiy resurslardan foydalanish, shuningdek ijara asosida foydalanish huquqlarini sotib olish yo'li bilan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish mumkin.

Tadbirkor faqato'ziga tegishli bo'lgan mol - mulk asosidagina emas, balki davlat va jamoat tashkilotlarining mol - mulki hamda pul mablag'larini ixtiyoriy ravishda jalb etish asosida ham o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bunday jalb etishlar asosan mol - mulkni ijaraga topshirish yoki pul mablag'larini qarzga berish usullarida amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining 537 - moddasiga muvofiq mulk ijarasining ob'ektlari er uchatskalari, er osti boyliklari joylashgan uchaskalar va boshqa alohida tabiiy ob'ektlar, korxonalar, va boshqa mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari va boshqa ashyolardan tashkil topishi mumkin. Ushbu ob'ektlar davlat korxonalariga, tashkilotlariga, jamoat tashkilotlari, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga tegishli mulklardan iborat bo'lishi mumkin.

Mol - mulkni ijaraga beruvchi o'sha mulkka nisbatan egalik huquqiga yoki mulk egasi bergan vakolatga asosan faoliyat yurituvchi, ya'ni mulkni ijaraga berish huquqiga ega bo'lgan

fuqaro yoki korxonalar, tashkilot, shuningdek ajnabiy davlat fuqarolaridan, yuridik shaxslaridan iborat bo'lishi mumkin. Ijaraga oluvchilar fuqarolardan, yuridik shaxslardan, jumladan, qo'shma korxonalar, xalqaro tashkilotlar va birlashmalar, O'zbekiston va chet el yuridik shaxslarining mulklari asosida tashkil topgan korxonalar va tashkilotlardan iborat bo'lishi mumkin. Shunday ekan, mol - mulkni ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchini ham tadbirkorlar, desa bo'ladi. Ular foyda olish maqsadida barcha iqtisodiy imkoniyatlarni jalb qiladilar, unumli natijalarga erishish uchun faol tashabbus ko'rsatib, harakatqiladilar.

Davlat va jamoat tashkilotlarining mol - mulkidan foydalanish asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish qarzi (kredit) berish shaklida ham ro'y beradi. Tadbirkor o'z faoliyatini boshlash davrida yoki amalga oshirish jarayonida qo'shimcha pul mablag'lariga muhtoj bo'lib qolishi mumkin. Bunday muhtojlikdan qutulish uchun u tegishli banklardan o'z vaqtida qaytarib berish sharti bilan qarzi (kredit) oladi.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonuniga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shuhalullanuvchi har bir fuqaro, jamoa (shirkat), tashkilot, ya'ni tadbirkorlar pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni tegishli banklardan olinadigan qarzlari (kreditlar) hisobiga qalnoatlantirishlari mumkin. Shuning bilan birga tadbirkorlarga tijorat xizmati ko'rsatish sharti bilan bir - birlariga qarzi (kredit) berishga va davlat, jamoat tashkilotlaridan kredit olishga ham ruxsat etilgan.

Tadbirkor asosan tijorat faoliyati bilan shuhalullanuvchi fuqarolar va korxonalar (tashkilotlar)dan iborat bo'lib, yuridik shaxs hisoblanadi. Shuning uchun ham ular o'rtasidagi kredit munosabatlari Fuqarolik kodeksi 744 - moddasi 1 - qismida nazarda tutilgan qoidalar asosida tartibga solinadi. Mazkur moddaning ushbu qismiga ko'ra, kredit munosabatlarida bir taraf - bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor), ikkinchi taraf - qarzi oluvchi korxonalar yoki fuqaroqatnashishlari mumkin. Bunday kredit tashkilotlari bo'lmagan taqdirda, mazkur moddaning 2 - qismiga binoan kredit berishni tijorat tashkilotlari amalga oshirishlari nazarda tutiladi. Bunday kreditlashga nisbatan kredit shartnomasi to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

Demak, Kodeksning 744 - moddasiga muvofiq tadbirkorlarga kreditlar berish bank yoki kredit tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tadbirkor mol - mulkda foydalanishning yuqorida qayd etilgan shakllari va usullaridan foydalanish yo'li bilan o'z faoliyatini amalga oshiradi. U faqato'ziga tegishli xususiy mulk bilan cheklanmay, balki shuning bilan bir qatorlarda O'zbekiston va ajnabiy davlat fuqarolarining va yuridik shaxslarining mol - mulkini jalb etish, birgalikda faoliyat yuritish, qo'shma korxonalar tashkil etish yo'li bilan turli xo'jalik faoliyati yuritish uchun davlat va jamoat tashkilotlarining mol - mulklaridan foydalanish kabi harakatlarni birgalikda bajarib, o'z tadbirkorlik faoliyatini samarali amalga oshiradi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy manba mulk hisoblanadi. Tadbirkor o'z faoliyatini mol - mulkka nisbatan huquq sub'ekti sifatida amalga oshirishi, shuningdek bunday huquq sub'ekti bo'lmasdan, boshqa, ya'ni davlat va jamoat tashkilotlariga tegishli bo'lgan mol - mulk asosida faoliyat yuritishi mumkin. Tadbirkor mulk huquqi sub'ekti bo'lmagan taqdirda, boshqalarning mulkiga nisbatan xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqiga asosan faoliyat yuritadi. Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqining mazmuni Fuqarolik kodeksining 71, 72, 276 - 178, 181 - moddalarida aks ettiriladi.

Mulkiy huquqqa ega bo'lmagan, lekin unga nisbatan xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'lgan tadbirkor o'z faoliyatini mulkning egasi tomonidan belgilangan doirada amalga oshirishi lozim. Mulkiy huquqqa ega bo'lmagan tadbirkorga mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquq mulkdor tomonidan beriladi. Shunday ekan, tadbirkor unga berilgan huquqlarni amalga oshirishda faqato'zining erki va manfaati emas, balki mulkdorning erki va manfaatlarini ham hisobga olgan holda harakatqiladi. Mulikka nisbatan xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'lgan tadbirkor foyda olish maqsadida turli xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadi, bu borada erkin tashabbus ko'rsatib harakatqiladi, o'z faoliyatining natijalari va majburiyatlari bo'yicha shaxsan o'zi javobgar bo'ladi.

Harqanday shakldagi tadbirkorlik, birinchidan, mulk egasining ishlab chiqarish jarayonida shaxsan bevosita ishtirok etishi, ikkinchidan, boshqafuqarolarning mehnatini qo'llash, ya'ni undan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin. Lekin bundan tadbirkorlik faqat mulk egasining bevosita mehnatiga yoki faqat boshqafuqaroning mehnatiga asoslangan bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelish qonunda nazarda tutilgan qoidalarga zid bo'lar edi.

Tadbirkorlik shaxsan mulk egasining o'zining mehnatda qatnashishiga yoki yollanma mehnat qo'llashga va shuningdek, o'zining hamda yollanma mehnatning birgalikda qo'shib amalga oshirilishiga asoslangan bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik mulk egasining ishlab chiqarish jarayonida, ya'ni, o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita o'zining ishtirok etishi - bu tushunarli masala. Lekin uning yollanma mehnat asosida, ya'ni, boshqafuqarolarning mehnatidan foydalanish yo'li bilan faoliyat yuritish haqidagi qoida ijtimoiy hayotda va shuningdek, qonunchilik sohalsida yangi vohelekdir. Chunki o'tmishda fuqaroga yollanma mehnatdan foydalanishga yo'l qo'yilmagan, bunday huquq korxonalar va tashkilotlarga berilgan. Fuqarolarga yollanma mehnatni qo'llash huquqi birinchi marta O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunida xususiy mulkchilik joriy qilinishi bilan vujudga keldi.

Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari.

Kontsitutsiya Asosiy qonun sifatida O'zbekistonda qonunchilik faoliyatini rivojlantirishga va bu sohada erkin ijod qilishga imkoniyat yaratib berdi. Kontsitutsiya ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi amaliy va kundalik turmushda yuz beradigan masalalarni halqilib beruvchi boshqahamma qonunlarning, shuningdek maxsus qonunlardan iborat bo'lgan respublika kodekslarining siyosiy va yuridik manbai, poydevori hisoblanadi.

Kontsitutsiyaning 53 - moddasida xilma - xil mulk shakllariga asoslangan bozor munosabatlarining rivojlanishida tadbirkorlik faoliyatiga alohida e'tibor beriladi. Chunki tadbirkorlik faoliyati o'z xususiyatlari va mohiyati bilan bozor iqtisodiyoti tashkil topgan jamiyatda kamol topishi mumkin.

Iqtisodiy - ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish tamoyillarini va mohaliyatini belgilab beruvchi Kontsitutsiyada o'rnatilgan asosiy qoidalar yuqori mahalomga ega bo'lgan respublikaning qonunlarida o'z aksini topdi. Mulkchilik, korxonalar, tadbirkorlik, kooperativlar, xo'jalik shirkatlari va birlashmalari, banklar, soliqlari, birjalar, invetsitsiya, tashhali iqtisodiy faoliyatga oid va boshqa favhalulodda muhalim qonunlar fuqarolarga, yuridik shaxslarga jamiyatning barcha jabxalarida teng huquqlilik printsipli asosida qonun bilan tahalihalangan harqanday mulkiy, xo'jalik, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlikning boshqa sohalarida tashabbuskorlik ko'rsatib, erkin ishtirok etish uchun keng imkoniyat yaratib berdi.

Tadbirkorlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi alohida o'rin egallaydi. Chunki u ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarning muayyan sohalarig oida qonunhujjatlari va qonunga tenglashtirilgan hujjatlarda nazarda tutilgan qoidalarni umumiyashtirib, yagona qonun tizimi sifatida o'ziga qamrab oladi. Shuning bilan birga Kodeksdagi normalar amaliyot manfaati uchun ayrim qonun yoki qonunga tenglashtirilgan hujjatlarni qabul qilish uchun manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksida tadbirkor uchun uning faoliyatini yuritish jarayonida vujudga keladigan harqanday savolga javob topish mumkin. Uning moddalari vositasida tadbirkorning muomala va huquq layohalitining mazmuni, ularning huquq hamda majburiyatlari vujudga kelish asoslari va himoya qilish usullari, tadbirkorlik munosabatlarining sub'ektlari va ob'ektlari, sub'ektlarining huquqiy vakolatlari, ob'ektlarining turlari va xususiyatlari, bitimlar va ularning haqiqiy yoki haqiqiy emas deb hisoblanishi, haqiqiy emas deb tan olingan bitimlarning huquqiy oqibatlarini, vakillik xizmatidan foydalanish, tadbirkorlikning iqtisodiy manbai sifatida mulkning shakllari, tadbirkorlarning hususiy mulkka nisbatan bo'lgan huquqari, majburiyatlar, ularning turlari, ijro etilishini ta'minlashga qaratilgan kafolatlar, shartnomalar va ularning turlari (oldi - sotdi, mahsulotni, tovarlarni etkazib berish (potstavka), kontraktatsiya, ko'chmas mulkni sotish, korxonani sotish va ijaraga berish, renta, ijara, prokat, ekspeditsiya, lizing, kredit, bank omonati va boshqahalirhaldan ko'p shartnomalar), shartnomalarga asoslangan va asoslanmagan

majburiyatlar bo'yicha javobgarlik va boshqa ijtimoiy hayotning turli qirralarida vujudga keladigan masalalarni tartibga solishga oid qoidalar nazarda tutiladi.

Fuqarolik kodeksi 2 - moddasining 2, 3 - qismlariga binoan nafaqat O'zbekiston fuqarolari, yuridik shaxslari va O'zbekiston davlati, shuning bilan birga chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el yuridik shaxslari va ajnabiy davlatlar ham Fuqarolik kodeksi normalari bilan tartibga solinadigan tadbirkorlik munosabatlarining ishtirokchilari bo'lishlari mumkin.

Bozor munosabatlarining tashkil topishini va rivojlanishi O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar ichida 1991 yil 15 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik to'g'risida" gi qonuni birinchilardan bo'lganligi tufayli tadbirkorlik bilan bo'g'liq barcha munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid hamma qoidalarni batafsil qamrab ololmadi. So'nggi yillarda ushbu qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritib borildi va nihoyat, 2000 yil 25 mayda «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida» qonun qabul qilindi. Yangi qonunda iqtisodiyotni erkinlashtirish bilan bog'liq qoidalar va vazifalar o'z aksini topdi. Amaldagi qonunda tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy mustaqilligi hamda ushbu mustaqillikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan kafolatlar: tadbirkorlar huquq va mas'uliyatining aniq belgilangan bo'lishi, ya'ni har bir tadbirkor o'z huquqidan erkin va mustaqil foydalanishining himoyalilinishi va shuning bilan birga qonun oldidagi o'z burchini beka mu - ko'st bajarishi, g'ayri qonuniy harakatlarga yo'l qo'ymasligi, tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruvi idoralari bilan munosabatlarini tartibga solish bilan bog'liq qoidalar nazarda tutiladi.

Ushbu qonun vositasida amalga oshirish zarur bo'lgan asosiy masala fuqarolarning tadbirkorlik qobiliyatini butun choralar bilan ishga solish, ularning ishbilarmonlik salohiyati oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy kafolatlarini belgilash va ta'minlash asosida bozor munosabatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilganidir.

O'tmishda fuqarolar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, aynihalsa ishlab chiqarish sohalsida tashabbus ko'rsatish qobiliyatidan deyarli maharum edilar. Ularning mehnat faoliyati yuqoridan tasdiqlangan rejaga asosan, mehnat daromadi esa sarf qilingan mehnatning hajmi, sifati va natijasiga qarab emas, balki davlat tomonidan ko'zda tutilgan rejalarga qarab belgilanar edi. Ushbu daromad miqqarrar jihatdan erkin ravishda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, birinchidan, imkoniyat bermas edi, ikkinchidan esa, mehnat haqidan fuqaro qonun bo'yicha faqato'zining shaxsiy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanishi mumkin edi.

Sotsializm tuzumida jamoat manfaati birinchi, shaxs manfaati esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega edi. Shuning uchun barcha fuqarolar asosan davlat va kooperativ korxonalarida, tashkilotlarida mehnat qilishlari zarur edi. Jamiyatning iqtisodiy manbaini asosan sotsialistik mulk, birinchi galda uning asosiy shakli bo'lgan davlat mulki tashkil qilardi. Shuning uchun ham asosiy e'tibor o'sha mulkni mustahkamlashga qaratilardi. Lekin ushbu mulk shaxsan kimga tegishli, kimning manfaati uchun qancha miqdorda sarflanishi aniq ma'lum emas edi. Qonunlarda ushbu mulk xalq mulki deb hisoblansa - da, lekin halq undan o'z xohishi bilan foydalanish va uni tasarruf qilish imkoniyatlaridan maharum edi. Mulkka nisbatan egasizlik ishlab chiqarish sohasida xo'jasizlik, beparvolik umumiy dangasalik halatlarining vujudga kelishga sabab bo'ldi. Bunday iqtisodiy - ijtimoiy vaziyatda tadbirkorlik faoliyati haqida umid qilib ham bo'lmasdi.

Shunday qalib, fuqaroning o'z mehnatidan o'zi erkin ravishda foydalanish imkoniyatlaridan mahrum bo'lishi, mulkka nisbatan huquqning cheklanishi unga xos bo'lgan tashabbuskorlik xislatlarini bo'g'ib qo'ydi, tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun to'sqinlik qilindi. Bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun ushbu jihatlar va qobiliyatlarni keng ko'lamda ro'yobga chiqarish zarur. Qabul qilingan qonunlar hamo'sha maqsadni ko'zda tutadi. Qonunlar o'z mohaliyati bilan xo'jalik yuritish shakllarini erkin tanlash, bu shakllarning teng huquqlilik asosida amal qilishi, o'zaro

hamkorlik va erkin raqobatlashuv ta'minlanadigan sharoitlarning yaratilishiga ko'maklashadi.

Tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy - iqtisodiy hayotning turli sohalarida amalga oshiriladi, masalan, sanoat qishloq xo'jaligi, kapital qurilish, turli transport vositalari bilan yuk va yo'lovchilar tashish, fuqaro va tashkilotlarga moddiy - maishiy xizmat ko'rsatish va hokozalar. Shuning uchun ham tadbirkorlik faoliyati shaxsan unga bag'ishlangan maxsus qonunlardan tashhari, O'zbekiston Respublikasining boshqaqonunlari bilan ham tartibga solinadi. Ular o'z mohaliyati bilan va ahamiyati nuqtai nazaridan qonunhujjatlari va qonun otsi hujjatlari turkumiga bo'linadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga taalluqli bo'lgan boshqaqonunlar qatorliga O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, Jinoyat kodeksi, Havo kodeksi, Soliq kodeksi, Er kodeksi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi, "Mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi", "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlar to'g'risida"gi, Birjalar to'g'risidagi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek garov, tovar bozorlarida monopolitsik faoliyatni cheklash, banklar va bank faoliyati, bankrotlik va boshqalarga oid qonunchilik hujjatlari kiradi. Qonunga tenglashtirilgan hujjattlar qonunhujjattlaridan keyingi o'rinda turadi. Ular huquqiy adabiyotlarda qonun otsi hujjatlari deb ham yuritiladi.

Qonun butun halqning erkini ifodalovchi huquqning oliy shaklidir. Qonunda huquqiy normalar ifodalanadi. Masalan, O'zbekiston Kotsitutsiyasida O'zbekiston halqining irodasini ifodalovchi huquqiy normalar o'z aksini topgan. Qonun deganda, davlat hokimiyati oliy organi, ya'ni respublika Oliy Majlisi tolonidan qabulqilingani, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi oliy yuridik kuchga bo'lgan normativ - huquqiy hujjattlar tushuniladi.

Davlat halokimiyati ijro etuvchi organlarining huquqiy hujjatlari O'zbekiston Kotsitutsiyasi va boshqaqonunlar asosida chiharilishi lozim. Bunday hujjattlar qonunlarni ijro etish maqsadida yaratiladi.

O'zbekiston davlatining ijro etuvchi organlari bozor munosabatlarini shakllantirish maqsadida benihaloya katta ishlarni amalga oshirmohalda. Iqtisodiy islohalotlarni chuhalurlashtirish, tadbirkorlik faoliyatining keng ko'lamda rivojlantirish borasida muttasil ravishda va o'z vaqtida ketma - ket qonun otsi hujjattlarini qabulqilishda davom etmohalda.

Bozor munosabatlarining tashkil topishi unda tadbirkorlarning ishtirok etishiga bohalihal. Shuning uchun ham ko'pchilik qonunga tenglashtirilgan hujjattlar tadbirkorlik faoliyati bilan shuhalullanuvchi fuqarolar, korxonalar, birlashmalar, shirkatning tashkiliy tuzilmalari, ularning huquqiy mahalomi, tadbirkorlarning huquqva majburiyatlarini belgilashga bahalishlanadi.

Umuman, iqtisodiy islohalotlarga, jumladan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga bahalishlangan qonunhujjatlari ularda mujassam topgan normalarning mohaliyati va mazmuni jihaltidan halozirgi zamon talablariga etarli darajada javob beradi va jahalon qonunchilik amaliyotining rivojlanish darajasiga mos keladi. Ular bozor munosabatlarining respublikada shakllanishi uchun asos bo'ldi va ushbu munosabatlarni tartibga solishni ta'minlash borasida muhalim rol o'ynamohalda. Lekin ba'zi halollarda qonunhujjattlarining tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan ta'sirchanlik vazifasini amalga oshirishda kamchiliklar ro'y bermohalda. Bunday kamchiliklar birinchi galda qonunhujjattlarini amaliyotda halo'llash jarayonida sezilmohalda. qonunning samaradorligini ta'minlash uchun umumiy qoidaga binoan uning vositasida tartibga solinadigan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar etarli darajada rivoj topgan bo'lishi lozim. Bu to'hari, lekin ba'zi halollarda muayyan iqtisodiy munosabatlarni, jumladan, tadbirkorlik faoliyatining tashkil topishi va rivojlanishi uchun qonunning faol rol bajarishi mumkinligi inkor etilmaydi. Bunday bo'lishi murakkab jarayon hisoblanadi. Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatining har tomonlama rivoj topishi, tegishli ijtimoiy - iqtisodiy sharoitning etilishi, qabulqilinganiqonunlarning amaliyotda ohalishmay va kamchiliksiz halo'llanilishi uchun sharoit mavjud.

5. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari.

huquqiy fan nuhaltai nazardan huquqiy munosabatlarning mohaliyatini tushunib olish muhalim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlar tarkibida muhalim o'rin tutadi. Ular ijtimoiy munosabatlarning alohalida turlaridan biridir.

Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlar ikkiga bo'linadi:

1. Moddiy;
2. haloyaviy (mafkuraviy).

Moddiy ishlab chiqarish munosabatlari jamiyat iqtisodiy asosini, haloyaviy (mafkuraviy) munosabatlar – utshalurmani tashkil etadi.

Moddiy ishlab chiqarish munosabatlari kishilar erki va ongidan tashharida vujudga kelsa, haloyaviy (mafkuraviy) munosabatlar bevosita ular ongiga ta'sir etadi.

Iqtisodiy munosabatlar (moddiy, ishlab chiqarish) o'z - o'zidan huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi.

Ijtimoiy munosabatlar huquqiy munosabat tusini olishi uchun kishilar ongi va erki orhali o'tishi lozim.

qonunda halqning erki va irodasi ifodalanib, unga haloyaviy (mafkuraviy)huquqiy utshalurma, ya'ni huquqiy munosabat tusi beriladi.

Fuqarolik munosabatlarini to'liq iqtisodiy bazisga va huquqiy ushalurtmaga kiritib bo'lmaydi. Ular yagona iqtisodiy mazmun va huquqiy shakl birligida namoyon bo'ladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlar shakli (sub'ektiv huquqva majburiyat) huquqiy ushalurtma tomonida tursa, uning mazmuni (ishtirokchilari o'zaro munosabati) iqtisodiy bazis doirasida amalda bo'ladi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar shakl va mazmun jihaltidan iqtisodiy bazisdan tashharida mavjud bo'ladi. Shu sababli shaxsiy nomulkiy huquqiy munosabatlar butunlay utshalurmaga kiradi.

Tadbirkorlik munosabatlari hamfuqarolik munosabatlari kabi iqtisodiy bazis va huquqiy bazisning mazmun hamda shakllarining birligiga asoslanadi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bohalihal munosabatlar iqtisodiy bazisga kirsas, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bilan bohalihal munosabatlar huquqiy utshalurmaga taalluhalidir.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari deganda, tadbirkorlik huquqnormalari bilan tartibga solinadigan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan, notijorat tusdagi faoliyat bilan bohalihal bo'lmagan hamda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga soladigan munosabatlar tushuniladi.

har bir huquqsohalsining huquqiy munosabatlari o'ziga xos sub'ektiga, ob'ektiga va mazmunini tavsiflovchi sub'ektiv huquqva majburiyatlariga ega.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning mazmunini uning ishtirokchilari xulhal - atvoridan iborat huquqva majburiyatlar tashkil etadi. huquqiy munosabatlar huquqnazariyasiga asosan odatda, mutlahal va nisbiy huquqiy munosabatlarga bo'linadi.

Mutlahalhuquqiy munosabatlarda huquqsub'ekti nomuayyan sondagi shaxslar passiv majburiyatlar bilan vakolatli shaxsga huquqarini amalga oshirishga to'shalinlik halilmaydi. O'zining mulkini vujudga keltirish huquqi, buxgalterlik hisobini yuritishi, mahsulotning tannarxini shakllantirishi shular jumlasidandir.

Nisbiy huquqiy munosabatlarda huquqva majburiyatlar boshqa sub'ektlarning huquqva majburiyatlariga mutanosib hisoblanadi. Bunday huquqiy munosabatlar, masalan, tadbirkorlik shartnomasini tuzish natijasida vujudga keladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarida sub'ekt sifatida tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi sub'ektlar, davlat, ma'muriy - halududiy tuzilmalar haltnashishi mumkin.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarining ob'ekti bo'lib birinchidan, ashyolar, pul va qimmatbaholo halohalozlar, boshqa mulklar, ikkinchidan, majbur sub'ekt harakatlari, uchinchidan, huquqsub'ektining o'z faoliyati, to'rtinchidan, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda foydalanadigan nomulkiy boyliklar (firma nomi, tovar belgisi, tijorat siri va boshqaar) hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarini uning tafsifnomasi, ob'ekti va mazmuni bo'yicha

halo'yidagicha turkumlash mumkin:

- 1) mutlahal ashyoviy huquqiy munosabatlar (mulkiy munosabatlar);
- 2) mutlahal - nisbiy ashyoviy huquqiy munosabatlar (xo'jalik yuritish, operativ boshqarishi);
- 3) o'z tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha mutlahalhuquqiy munosabatlar;
- 4) nomulkiy - mutlahal tadbirkorlik huquqiy munosabatlari;
- 5) majburiyat tadbirkorlik huquqiy munosabatlari.

Mutlahal ashyoviy huquqiy munosabatlar. Ashyoviy huquqiy munosabatlar uchun xarakterli xususiyat shundan iboratki, sub'ekt qonun asosida o'zining mulkka bo'lgan huquqini, ya'ni, egalik, foydalanish va tasarruf etish bo'yicha xulhal - atvorini belgilovchi harakatni amalga oshiradi.

huquqiy munosabatning ob'ekti ashyo hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqi bilan tartibga solinadigan ashyoviy munosabatlar ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash, tahalsimot va ishlab chiqarish itse'mol bilan uzviy bohalihaldir. Ushbu o'rinda ashyoviy huquqiy munosabatning ob'ekti qayta ishlash jarayonida haltnashadigan ashyodir. Ishlab chiqarish bilan bohalihal bo'lmagan shaxsiy ehaltiyoj uchun xizmat qiladigan predmetlar tadbirkorlik huquqiy - ashyoviy munosabatlari ob'ekti hisoblanmaydi.

Birohal, aniq sub'ekt bilan mutanosib bo'lmagan mutlahal ashyoviy huquqbo'lib mulk huquqi hisoblanadi. Mulk huquqi uning sub'ektiga qonunga muvofihalholdao'z haloxishiga ko'ra mulkni egallash, foydalanish va tasarruf etish imkonini beradi. Bu huquqdan davlat, ma'muriy tuzilmalar, xususiy mulk sub'ektlari o'z mulklari negizida xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanadi.

Mutlahal nisbiy ashyoviy - huquqiy munosabatlar. Bular jumlasiga xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarishi kiradi.

Ularni mutlahal - nisbiy hisoblanishning sababi shundan iboratki, bunday huquqsub'ekti o'zining imkoniyatlarini boshqa sub'ektlar bilan o'zaro ta'sirsiz amalga oshiradi. Ular mulklardan «mutlahal» holda, o'zi nisbiy huquqhal ega bo'lgan mulkdan o'z imkoniyatini boshqaar bilan kelishmasdan egallash, foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo'ladi.

O'z tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha mutlahalhuquqiy munosabatlar. Bunday huquqiy munosabatning xarakterli xususiyati shundaki, ular faoliyat yuritishda vujudga kelib, huquqiy munosabatning ob'ekti sifatida haltnashadi. huquqiy alohdorlikning mohaliyati shundan iboratki, qonunda belgilangan tartibda xo'jalik yuritishni amalga oshiruvchi sub'ektda aniq majbur shaxs bo'lmaydi. Boshqahamma sub'ektlar ushbu sub'ekt bilan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish imkoniyati bilan hisoblashishi va uni amalga oshirishga to'shalinlik halilmasdan, unga har tomonlama ko'mak berishlari lozim. Bunday faoliyatni amalga oshirish tegishli qonunhujjatlari bilan aniq belgilab halo'yiladi. Uchinchi shaxslarning ta'sirida yoki sub'ektlarning bunday faoliyatni yuritishning o'rnatilgan tartibini buzishi natijasida mutlahalhuquqiy munosabat nisbiy huquqiy munosabatga aylanadi: korxonaning huquqini noqonuniy buzilganligini bartaraf etish huquqini oladi yoxud vakolatli sub'ekt talabi bo'yicha qonun buzilishini to'xtatishga majbur bo'ladi.

Masalan, tadbirkorlik tashkilotining o'z faoliyatida buxgalterlik hisobi yuritish bo'yicha normalarga rioya etishi, buxgalterlik va satitsik hisobotni tahaldim etishi, ishlab chiharilayotgan mahsulotning tannarxini shakllantirishi, ekologik talablar, yonhalinga qarshiqoidalar va belgilangan normativ hujjatlardagi talablar bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirishida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar mutlahalhuquqiy munosabatlardir.

Agar tadbirkorlik sub'ekti belgilangan normalarni buzsa, vakolatli davlat organi yo'l qo'yilganhuquqiy buzilishni bartaraf etish, keltirilgan zararlarni undirishni talab qilishga haqqidir. Bunday holdahuquqiy munosabat nisbiy tusga ega bo'ladi.

Nomulkiy tadbirkorlik huquqiy munosabatlar tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarida foydalanadigan nomulkiy boyliklar, xususan, firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, tovarni ishlab chiqarish joyi, nomi, tijorat siri va boshqaarning vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Bunday huquqning egasidan boshqahech kimning uning roziligisiz firma nomidan, tovar

belgisi va xizmat ko'rsatish belgisidan foydalanishiga, tovar ishlab chiqarish joyi nomini o'zgartirishiga, tijorat sirini tashkil etuvchi axborotni sotishiga va uni o'z faoliyatida oshkor etishiga yo'l halo'yilmaydi.

Nomulkiy huquqni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabat mutlahal bo'lib hisoblanadi. Bunday huquqni buzish ohalibatida huquqiy buzilishni himoya qilish bo'yicha aniq majburiyat kelib chihaldi, nomulkiy huquqiy munosabat mulkiy munosabatga aylanadi. Jabrlanuvchi o'zining buzilgan nomulkiy huquqini himoya qilish maqsadida huquqbuzardan zararlarni halolashni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining erki va xulhal - atvori huquqnormasiga asoslanadi. Ya'ni, tadbirkor fuqarolarning xulhal - atvor qoidalari qonunhujjatlarda belgilab halo'yiladi.

O'z navbatida, huquqnormalari huquqiy munosabat ishtirokchilariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlatning bunday ta'siri orhali huquqiy davlatning muhalim funksiyasi hisoblangan qonuniylik va huquqiy tartibot taminlanadi.

Ammo bundan huquqiy munosabat uning ishtirokchilarining erki va xohalishi asosida vujudga keladi, degan xulosa chihamasligi kerak.

Davlat tomonidan joriy etilgan normalar huquqiy munosabat sub'ektlarining xulhal - atvorini ifodalab, ularga berilgan huquqva majburiyatlar doirasida o'z manfaatlar uchun erkin harakat qilishni belgilab beradi.

Alohalida turdagi huquqiy munosabatlarning farhali va o'ziga xos xususiyatlari huquqiy tartibga solish predmeti va uslubi asosida belgilanadi. Masalan, fuqarolik huquqi mulkiy va mulkiy tusda bo'lmagan munosabatlarni tartibga solish bilan oila, jinoyat, ma'muriy huquqiy munosabatlardan farhalhalilib, o'ziga xos holda namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari esa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardan iboratdir.

Nazariy jihaltdan bu huquqiy munosabatning o'ziga xos xususiyatlarini tahalil etish muhalim vazifadir.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar, boshqacha aytganda, tadbirkorlik majburiyati fanning eng muhalim hamda dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari fuqarolik huquqiy munosabatlar intsitutidan bir muncha farhalhalilgan holda tadbirkorlik majburiyati va uning bir turi bo'lgan xo'jalik shartnomasi ko'rinishida talhalin qismigai

Tadbirkorlik majburiyati - o'z ichiga tadbirkorlik huquqiy munosabatlarini hamrab oladi. Tadbirkorlik majburiyati tadbirkorlik - huquqiy kategoriya bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlik majburiyati tadbirkorlik huquqi va qonunchiligining predmetini tashkil qiladigan xo'jalik munosabatlarining huquqiy shakli mazmunini ifodalaydi. Tadbirkorlik munosabatlari bo'lib, tadbirkorlik huquqnormalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Tadbirkorlik munosabatlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladi.

Tadbirkorlik munosabatlaridan bozor ihaltisodining har xil doirasida foydalaniladi. Xo'jalik munosabatlarining umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

- a) taraflar bo'lib tadbirkorlik huquqi sub'ektlari halt nashadi;
- b) mazmunini tadbirkorlik huquqva burchlari tashkil qiladi
- v) ob'ekt bo'lib tadbirkorlik sohalsidagi muayyan harakathisoblanadi.

Ko'rsatilgan belgilar uni tadbirkorlik nisbiy huquqiy munosabatlar sifatida tavsiflaydi.

Uning belgilari tavakkichilikda, tashabbus ko'rsatishga va daromad (foйда) olishga asoslanishda namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik munosabatlarining ob'ekti iqtisodiy otda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining umumiy tushunchasi shundan iboratki, u moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish sohalsidagi faoliyatdir.

Xo'jalik munosabatlarining turkumlanishi ob'ektlar bo'yicha quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bohalihal munosabatlar;
- 2) tadbirkorlikni davlat organlari va notijorat tashkilotlari tomonidan umumiy rahalbarlikni amalga oshirish bilan bohalihal munosabatlar;

Xo'jalik munosabatlari sub'ektlar bo'yicha turkumlash quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar;
- 2) tadbirkorlik sub'ektlari bo'linmalari ichki munosabatlari.

Tadbirkorlik munosabatlarini huquqiy tartibga solish uslubiga ko'ra, quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

- majburiy yozishmalar uslubi;
- mustaqilhalqilish va o'zaro kelishuv;
- tavsiya uslubi.

Bunday turdagi tadbirkorlik munosabatlarini turkumlashning birinchisi iqtisodiy otga davlat rahalbarligining umumiy uslubi hisoblanadi. Ammo, so'nggi ikki uslub - mustaqilhalqilish, o'zaro kelishuv va tavsiya uslubi bozor munosabatlari sharoitida muhalim ahamiyatga ega.

Xo'jalik faoliyatining asosi sifatida shartnomaviy uslub mavhalei yanada oshmovalda.

Tadbirkorlikda huquqva majburiyatlarning vujudga kelish asosi bo'lib, yuridik faktlar hisoblanadi. Tadbirkorlik huquqi normalari bilan eng avvalo, faoliyat tartibga solinadi. Shu sababli, huquqni vujudga keltiruvchi omil tadbirkorlik huquqiy munosabati ishtirokchilarining harakatidir. halodisalar esa aksariyat halollarda huquqni o'zgartiruvchi yoki huquqni bekor haliluvchi halolatdir. huquqni vujudga keltiruvchi halodisalar mulk sug'rtasi va tadbirkorlik tavakkalchiligi munosabatlarida yuzaga kelishi mumkin.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari ishtirokchilari harakatlari (huquqni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi, bekor haliluvchi) o'z navbatida, qonuniy va huquqhal xilof turlarga bo'linadi. Masalan, davlat organining o'z vakolatidan chetga chihalib, ko'rsatma berishi huquqhal xilof harakatdir.

huquqiy (qonuniy) harakatlar yozishmalar - hujjattlar, kelishuv hujjatlari (shartnomalar) ruxsat beruvchi hujjattlar va bir tomonlama tusdagi hujjatlarga masalan, monopolitsning faoliyatini cheklovchi organlar yozishmalari, ikkinchisiga kelishuv hujjattlariga tashkilotlarning tadbirkorlik shartnomalari kiradi. Bir tomonlama hujjatt - ariza natijasida xo'jalik sudlari da'vo muddatini halo'llaydi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarining vujudga kelish asosi fuqarolik huquqiy munosabatlardagi yuridik fakt tushunchasi bilan uzviy bohalihal. Yuridik faktlar deganda fuqarolik huquqva majburiyatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishiga qaratilgan harakatlar tushuniladi.

O'zbekitson Respublikasi Fuqarolik kodeksining 8 - moddasida fuqarolik huquqva burchlarining vujudga kelish asoslari o'z ifodasini topib, shulardan ayrimlari bevosita xo'jalik huquqi va majburiyatlarining vujudga kelish asosi bo'lib xizmat qiladi

Ushbu Kodeksda ko'rsatilganidek, fuqarolik huquqva burchlari qonunhujjattlarida nazarda tutilgan asoslaridan, shuningdek fuqarolik hamda yuridik shaxslarning, garchi qonunhujjattlarida nazarda tutilgan bo'lmasa - da, fuqarolik qonunhujjattlarining umumiy negizlari va mazmuniga ko'ra, fuqarolik huquqva burchlarini keltirib chiharadigan harakatlardan vujudga keladi.

Fuqarolik huquqva burchlari halo'yidagilardan vujudga keladi:

1. qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasada, lekin unga zid bo'lmagan shartnomalar va boshqa bitimlardan;

2. Davlat organlarining qonunda xo'jalik huquqi va burchlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan hujjatlari (davlat buyurtmasi, halurilishning titul ro'yxatlari va boshqahujjattlar);

3. Xo'jalik sudining fuqarolik huquqva burchlarini belgilagan qarorlari;

4. qonun yo'l halo'yadigan asoslarda mol - mulk olish natijasida vujudga keladigan huquqar.

Tadbirkorlik shartnomasi (yuridik fakt sifatida) xo'jalik munosabatlari haltnashchilarining xo'jalik huquqi va majburiyatlarini belgilash va bekor qilishga qaratilgan kelishuvidir.

Tadbirkorlik shartnomasi an'anaviy jihaldan faqat tovar - pul tusdagi munosabatlarda

bevosita fuqarolik huquqiy tartibga solish bilan bohalihaldir.

Adabiyotlar.

1. I. A. Karimov «Xayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi» 6 dekabr 2002 yil «Xalq so'zi» gazetasi.

2. I. A. Karimov «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» «O'zbekiston ovozi» 31 avgust 2002 yil.

3. I. A. Karimov «Bizning boshmaqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar soni.

4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. Adolat 2011.

5. Xolmuminov K. T. «O'zbekistonda huquqiy davlat kurish T. 2008.

6. Raxmanqulov X. R. Oldi - sotdi shartnomasi. T...2000.

7. Raxmanqulov X. R. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1 va 2 - qismlariga umumiy tavsif va sharxlar «jild. T... 1997 - 1999.

8. Abdusalamov M. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi « - qismi T. 1999.

9. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi T. Adolat 1996.

10. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi T. Adolat 2001.

11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi T...Adolat 2001.

12. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik - protsessual Kodeksi T. Adolat 2001.

13. O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual Kodeksi T. Adolat 2001.

14. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoyalash to'g'risida»gi qonuni 26 aprel 1996 yil.

15. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonuni. 14 aprel 1999 y.

16. Zaqon R. F. «O zaŷite prav potrebiteley» (V red. Federalnogo za sobraniye zaqon adatelstva RF. 1995. №50 st. 140.)

17. www. gov. o'z

18. www. edu. o'z

19. www. zivo. tdu. o'z

20. www. ec. tdu. o'z

21. www. performfnce. edu. o'z

6 - Mavzu: Mehnat huquqi asoslari.

R E J A.

1. Mehnathuquqi tushunchasi, vazifasi va subyektlari, ularning huquqlari.

2. Mehnatshartnomasi, uning bekor qilinish tartibi.

3. Ish vaqti, dam olish vaqti va ishxaqi.

4. Mehnat intizomi va Mehnat muxofazasi.

5. Mehnat nizolari, ularni kurish tartibi.

1. Mehnat huquqi tushunchasi vazifasi va subyektlari, ularning huquqlari.

O'zbekiston Respublikasida Mehnatga oid munosabatlar Mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlari, jamoa kelishuvi va boshqa normativ xujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37 - moddasida «har bir shaxs Mehnatqilish, erkin kasb tanlash, adolatli Mehnatsharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalashhuquqiga egadir» deb Tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan kelib chiqqan xolda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan Mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmonlar, farmoyishlar va Vazirlar Mahkamasining

qarorlari Mehnathuquqi manbalaridan xisoblanib, Mehnathuquqining eng muximlari ana shu xujjatlar bilan tartibga solinadi.

Vazirliklar va idoralar tomonidan chiqariladigan me'yoriy harakterga ega bo'lgan, fuqarolar va yuridik shaxslar uchun huquq va majburiyatlar yo'zaga keltiruvchi me'yoriy xujjatlar belgilangan tartibda Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan utkazilib, davlat ruyxatidan utkazilganidan keyingi yuridik kuchga kiradi.

«Mahalliy davlat xokimiyati organlari to'g'risida»gi qonunga muvofiq tuman, shahar, viloyat xokimliklari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar shu hududdagi barcha shaxslar uchun majburiy kuchga ega va mahalliy xokimiyat organlari tomonidan Mehnatni tashkil etish, muayyan sharoitlar belgilash va Mehnathuquqining manbai sanaluvchi me'yoriy xujjatlar chiqarishlari mumkin. (masalan, tashkilotlarning ish vaqtlarini belgilash).

Mehnathuquqining vazifalari O'zbekiston Respublikasi Mehnatkodeksida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra: «Mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlari xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan xolda, Mehnat bozorining samarali amal qilishini xaqqon iy va xavfsiz Mehnatshart - sharoitlarini, xodimlarning Mehnathuquqlari va sogligi himoya qilinishini ta'minlaydi, Mehnat unimdorligining usishiga, ish sifati yaxshilanishga, shu asosida barcha axolining moddiy va madaniy turmush darajasini yuqsalishiga kumaklashadi» deb aniqko'rsatib berilgan.

Mehnat jarayonidagi ishtimoiy munosabatlarida asosan: ikki tomon xodim va ish beruvchi ishtirok etadi. Xodim sifatida Mehnathuquqi va muomila layoqatiga ega bo'lgan, ya'ni muayyan yoshga yetgan, o'zining jismoniy va aqliy qobiliyatiga ko'ra yollanib ishlashi mumkin bo'lgan fuqaro subyekt bo'lib qatnashadi.

Mehnat munosabatlari subyekt sifatida ikkinchi tomondan ish beruvchilar, ya'ni fuqarolarni ishga yollashga, ular Mehnatini qonun talablari asosida tashkil etishga, Mehnatga xaqto'lashga layoqatli bo'lgan tijorat, tijoratga aloqasiz tashkilotlar muayyan xollarda ayrim fuqarolar qatnashadilar.

Mehnathuquqining subyekt sifatida xodimlar vakillik organlari: kasaba uyushmalari, Mehnat jamoalari, boshqa organlar ishtirok etadilar va ularning huquqiy maqomi tegishli qonunlar bilan, xodimlar jamoasi berilgan vakolatlar bilan begilanadi.

Ish beruvchilar vakillari ham Mehnathuquqining sube'ktlaridan sanaladi. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolati to'g'risida»gi qonunga muvofiq ish beruvchilar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun turli ixtiyoriy uyushmalarga birlashishlari mumkin. Ish beruvchilar vakillik organlarining Mehnathuquqi subyekt sifatidagi huquqiy holati ularni tashkil etgan muassasalar bergan vakolatga, qonun xujjatlariga ko'ra belgilanadi.

Kichiq, o'rta va xususiy tadbirkorlik soxasida ish beruvchilar vakili sifatida faoliyat yuritish vakolati O'zbekiston Respublikasi «Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlik palatasi to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra ushbu palatalarga berilgan. Xorijiy sarmoyalar bo'lgan korxonalarining, xorijiy mamlakatlar fuqarolarining Mehnathuquqi sube'kti sifatidagi yuridik mavkeining o'ziga xos jixatlari tegishli qonunlar va qonun xujjatlari bilan belgilab quyiladi.

Belgilangan yoshga yetgan hamda ish beruvchi bilan Mehnatshartnomasi to'zgan

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolar;
- chet el fuqarolari;
- fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Mehnatga oid munosabatlarning subyektlari bulishi mumkin. 16 yoshga tulgan shaxs, agar ishga qabul qilinsa, demak Mehnatga oid munosabatlarning subyekt bula oladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksida Mehnatga oid munosabatlarning subyektlari bulmish ish beruvchi va xodimning huquqlari berilgandir.

1. Ish beruvchining asosiy huquqlari quyidagilardan iborat:

- korxonani boshqarish va o'z vakolatlari doirasida mustaqil korxonalar qabul qilish;
- qonun xujjatlariga muvofiq yakka tartibdagi Mehnatshartnomalarini to'zish va bekor qilish;
- Mehnatshartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni lozim darajada bajarishni xodimdan

talab qilish;

- o'z manfaatlarini himoyalash uchun boshqa ish beruvchilar bilan birga jamoat birlashmalari to'zish va bundan birlashmalarga a'zo bulishi xuquigaga egadir.

2. Xodimning asosiy Mehnathuquqlari quyidagicha ifodalangan:

o'z Mehnat uchun qonun xujjatlarida belgilangan eng kam oylik ishxaqidan oz bo'lmagan miqdorda xaq olish;

muddatlari chegarasi belgilangan ish vaqtini urnatish, bir qatorqasblar va ishlar uchun ishkunini qisqartirish, har xaftalik dam olishkunlari, bayram kunlari, shuningdek xaq tulanadigan yillik ta'tillar berish orqali ta'minlanadigan dam olish;

xafsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda Mehnatqilish;

kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ;

ish bilan bog'liq xolda sog'likka yoki mol - mulkka yetkazilgan zararining o'rmini koplash;

kasaba uyushmalariga hamda xodimlar va Mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlariga birlashish;

kariganda, Mehnatqobilyatini yukotganda, bokuvchisidan maxrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa xollarda ijtimoiy ta'minot olish ;

o'zinig Mehnathuquqlarini himoya qilish, shu jumladan, sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olish ;

jamoalarga doir Mehnat nizolarida o'z manfaatlarini kuvvatlashhuquqga egadir;

Yuqorida ta'kidlab utqanimizdek, Mehnat jamoalari ham Mehnathuquq subyekti bula oladi va Mehnat munosabatlarida uchinchi shaxs sifatida ishtirok etishi mumkin. O'zbekiston Respublika Mehnat Kodeksining 19 - moddasiga ko'ra, u o'z Mehnati bilan korxonada faoliyatida Mehnatshartnomasi asosida ishtiroq etayotgan uning barcha xodimlari korxonada Mehnat jamoasini tashkil qiladi.

«Kasaba uyushmasi ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqaruvchi soxalardagi faoliyati turiga ko'ra o'z a'zolarining Mehnat va ijtimoiy - iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan boglangan Mehnatqashlarni birlashtiradi «.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, ishtimoiy - siyosiy barqarorlikni ta'minlashda Mehnat munosabatlari ishtirokchilari o'rtasida o'zaro samarali hamkorlikni yulga quyilishi muxim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik qilinishi xodimlar manfaatlariga ham, ish beruvchi manfaatlariga ham tula muvofiq keladi.

Ish beruvchilar va xodimlar jamoasi o'rtasidagi hamkorlikning asosiy shakllaridan biri jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvlari tuzilishi, ularning ijro etilishini ta'minlanishidan iboratdir.

Jamoa shartnomasi ish beruvchi va xodimlar jamoasi o'rtasidagi Mehnatga oid ijtimoiy - iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi kelishuvga ega bo'lgan ichki xujjatdir.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksida jamoa shartnomasini to'zish tartibi, ijro etilishi, bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash tartiblari va Sharqillari, uning talablari bajarilmaganligi uchun javobgarlik masalalari belgilangan. Jamoa shartnomasi tushunchasi, vazifalari, ahamiyatga taalukli masalalar Mehnat Kodeksida «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida «gi Qonunlar va boshqaqoidalarda bayon etilgan.

Mulkchilik shaklidan ka'tiy nazari barcha korxonalarda jamoa shartnomasi to'zish va uni bajarilishini ta'minlash ijtimoiy adolatni qaror toptirishda katta ahamiyatga ega.

Jamoa kelishuvi - muayan kasb, tarmoq, hudud xodimlari uchun Mehnatshartnomalari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi xodimlar vakillik organlari bilan ish beruvchi vakillari o'rtasidagi bitim, ichki me'yoriy xujjatdir.

Jamoa kelishuvining bosh kelishuv, tarmoqlararo kelishuv, hududiy kelishuv turlari mavjud.

2. Mehnat shartnomasi, uni to'zish tartibi va mazmuni.

Mehnatshartnomasi to'zishning umumiy shartlari va tartibi to'g'risidagi qoidalari haqida

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 72 - 78 - moddalarida quyidagilar bayon qilingan:

«Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim buyicha ishni ichki Mehnat tartibiga buysungan xolda taraflarning kelishuvi, shuningdek Mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida xaq evaziga bajarishhaqidagi kelishuvdir. «

Xodim va ish beruvchi Mehnat shartnomasining taraflari xisoblanadilar. Mehnat shartnomasini to'zishhaqidagi kelishuvdan oldin qushimcha holatlar bulishi mumkin.

Xodim urindoshlik asosida ishlash to'g'risida, basharti qonun hujjatlari bilan takiklamagan bulsa, Mehnatshartnomalari to'zishi mumkin.

Mehnatshartnomasining mazmuni taraflar kelishuvi buyicha shuningdek Mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Mehnatshartnomasi taraflarning kelishuvi bilan quyidagilar belgilanadi:

- ish joyi (korxonasi yoki uning bulinmasi);
- xodimning Mehnat vazifasi - mutaxassisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim;
- ishning boshlanishkuni;
- Mehnat shartnomasi muayyan muddatga to'zulganda uning amal qilish muddati;
- Mehnatxaqi miqdori va Mehnatning boshqasharlari.

Mehnat shartnomasini to'zish paytida xodimlarning qonunlari va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan Mehnathuquqlari kafolatlari darajasi pasaytirilishi mumkin emas.

Mehnat shartnomasi yozma shaklda to'ziladi. Mehnat shartnomasi uch xil muddatga tuzilishi mumkin:

1. Nomuayyan muddatga;
2. Besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga;

3. Muayyan ishni bajarish vaqtiga muljallab tuzilishi mumkin bo'lgan muddatga. Mehnat shartnomasi tuzilishi jarayonida ish beruvchi xodimga sinov muddati belgilashhuquqiga ega. Bu muddat MKning 85 - moddasiga ko'ra uch oydan oshmasligi kerak. Dastlabki sinov natijalari buyicha taraflar bir - birlarini sinov muddati tugagunga qadar uchkun oldin yozma ravishda ogoxlantirishlari talab etiladi. Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo'lgan kamida ikki nusxada to'ziladi va har bir tarafga saqlash uchun topshiriladi. Mehnat shartnomasida taraflarning manzillari ko'rsatiladi. Mehnat shartnomasi xodim va ishga qabul qilishhuquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning imzolari bilan mustaxkamlanib, muddati qayt etib quyiladi. Mansabdor shaxsning imzosi imzoning xaqikiy va vakolatli ekanligini ta'kidlash tariqasida korxonasi muxri bilan Tasdiqlanadi.

Mehnatshartnomada ishga qabul qilish yoshi un olti yoshdan yul quyiladi. Un besh yoshga tulgan shaxslar ota - onasidan birinchi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi kerak.

Yoshlarni Mehnatga tayyorlashmaqasadida umumta'lim maktablari, xunar - texnika bilim yurtlari va o'rta maxsus uquv yurtlarining uquvchilarining un turt yoshga tulganlaridan keyin ota - onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan bolalarning sogligiga va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni uqishdan bush vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yul quyiladi.

O'zaro yaqin qarindosh yoki kuda - anda bo'lgan shaxslarning, basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita buysinib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bulsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari takiklanadi.

Ishga qabul qilishni gayriqonuniy ravishda rad etishga yul quyilmasligi O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 78 - moddasida aytilgnidek:

quyidagilar ishga qabul qilishni gayriqonuniy ravishda rad etish deb xisoblanadi:

- jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, boshqa jixatlarga qarab ishga qabul qilmaslik.

- ish beruvchi tomonidan taqlif qilingan shaxslarni ishga qabul qilmaslik.

- ish beruvchi qonunga muvofiq Mehnat shartnomasi to'zishi shart bo'lgan shaxslarni

ishga qabul qilmaslik.

- qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xollar.

Ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda, xodimning talabi bilan ish beruvchi ishga qabul qilishni rad etishning sababini uchkun muddat ichida yozma javob berishi shart, bu javob ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bulishi lozim. Asoslantirgan javob berish haqidagi talablarni qon dirishni rad etish xodimning ishga qabul qilish gayriqonuniy ravishda rad etilganligi ustidan shikoyat qilishga tusik bo'lmaydi.

Mehnat daftarchasi xodimning Mehnat stajini Tasdiqlovchi asosiy xujjatdir. Xodim ishga qabul qilishgach, u avval xechqayerda ishlamagan bulsa, ish beruvchi korxonada beshkundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga Mehnat daftarchasini tutishi shart, urindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno.

Ish beruvchi Mehnat daftarchasiga ishga qabul qilish, boshqa doimiy ishga utkazish va Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni yozishi shart. Xodimning iltimosiga ko'ra Mehnat daftarchasiga urindoshlik asosida ishlagan va vaqtincha boshqa ishga utkazilgan davrlar haqidagi yozuvlar kiritiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari Mehnat daftarchasiga yozilmaydi.

Korxonalar raxbari mulkdori unga bergan vakolatlar doirasida xodimlar bilan Mehnat shartnomalari to'zadi.

Ishga qabul qilish haqidagi buyruq to'zilgan Mehnat shartnomasining tula muvofiq ravishda chiqariladi.

Buyruq xodimga ma'lum qilinib tilxat olinadi.

Ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan yoki uning ijozati bilan xodimga xaqiqatda ishlashga ruxsat etgan bulsa, ishga qabul qilish tegishli ravishda rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmaganligidan qat'iy nazar, ish boshlangan kundan e'tiboran Mehnat shartnomasi to'zilgan deb xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 83 - moddada Mehnat shartnomasining kuchga kirishi va ishning boshlanishkuni belgilangan ya'ni qonun xujjatlariga muvofiq to'zilgan Mehnat shartnomasi u imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi. Xodim shartnomada belgilanib quyilgan kundan boshlab o'zining Mehnat vazifalarini bajarishga kirishmogi lozim.

Mehnat qonunlari Mehnat qilishning ixtiyoriyligi, kasb turi va ish joyini tanlashning erkinligi tamoyillariga asoslangani xolda Mehnat munosabatlarini bekor qilish mumkinligini ham belgilab beradi. Mehnat Kodeksining 97 - moddasida Mehnat shartnomasini bekor qilishning quyidagi asoslari nazarda tutiladi

Taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra ;

Taraflardan birining tashabbusi bilan ;

Muddatning tugashi bilan ;

Taraflarning ixtiyoriga bog'liq bumagan holatlarga ko'ra;

Mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslariga ko'ra;

Yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov buyicha utmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan istalgan paytda, bekor qilish mumkin. Bunda Mehnat shartnomasining muddatli yoki nomuddatli muddatga to'zilganligining ahamiyati yuk.

Xodim Mehnat shartnomasini bekor qilish uchun ish beruvchini ikki hafta oldin yozma ariza taqdim qilish orqali xabardor qilishi, ikki hafta utgach ishni tuxtatishga xaqli.

Ish beruvchi esa shu muddat utgach xodimni ishdan bushatishi, u bilan xisob - kitob qilishi va Mehnat daftarchasini rasmiylashtirib berishi shart.

Ikki haftalik ogoxlantirish muddati Mehnat shartnomasi taraflarning o'zaro kelishuvlariga muvofiq qisqartirilishi yoki butunlay qo'llanmasligi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 100 - moddasida, ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish, quyidagi sabablardan birining mavjudligi asosli bo'ladi:

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va Mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar

soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi

Xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi yoki sogligi holatiga ko'ra bajarayotgan ishga noliyik bo'lib qolishi;

Xodimning o'z Mehnat vazifalari muntazam ravishda buzganligi. Avval Mehnat vazifalarni buzganligi uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan Mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativlar xujjatlarda nazarda tutigan ta'sir choralari qo'llanganiga qaramay, ya'ni qayta - qayta Mehnat intizomini buzish.

Xodimni bir marotaba bilsada o'z Mehnat vazifalarini ko'pol ravishda buzganligi;

Urindoshlik asosida ishlamaydigan boshqa xodimning ishga qabul qilishi yoki urindoshlik buyicha ishni Mehnatshartnomalariga ko'ra cheklanishi;

Mulkdorning almashishi sababli korxonada raxbari bilan to'zilgan shartnomani bekor qilinishi.

Mehnat Kodeksining 101 - moddasida esa Mehnat shartnomasi ish beruvchi bekor qilishi haqida kasaba uyushmasi kumitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organi bilan maslaxatlashishi va rozilikni olishi kerak. Ular rozilikni berishi to'g'risidagi qarori qabul qilingandan boshlab bir oy ichida Mehnat shartnomasini bekor qilishga xaqlidir.

Faqat korxonada tugatilgan va korxonada raxbarlari Mehnatga oid munosabatlar bekor qilingan holatlar bundan mustasno.

Ish beruvchi tashabbusi bilan Mehnat shartnomasi bekor qilinayotganda xodimlar oldidan yozma ravishda bu haqida ogohlantirish lozim. Ogohlantirish muddatlari Mehnat Kodeksining 102 - moddasida ko'rsatilib utilgan:

Xodimlar soni yoki shtatlar qisqarishi korxonaning tugatilishi munosabati bilan ishdan bushatish vaqti ikki oy avval ;

Xodim egallab turgan lavozimiga noliyik bo'lib, qolganligi tufayli ishdan bushatganda va korxonada mulkdori almashganda korxonada raxbari xodimni ishdan bushatishdan oldin ikki oy oldin.

Xodim tomonidan Mehnat intizomini muntazam yoki bir marotaba ko'pol ravishda buzishi tufayli ish beruvchi Mehnat shartnomasini bekor qilganda kamida uchkun oldin ogohlantirishi shart.

Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan muayyan voqea xoisalarini yo'z berishi Mehnat munosabatlari mazmuniga ta'sir qilishi, uning o'zgartirib yuborish, xatto ayrim xollarda xodim va ish beruvchi istagiga zid ravishda Mehnat shartnomasi bekor bulishi mumkin. Taraflar xoxishiga bog'liq bulga tarzda Mehnatshartnoma munosabatlarini bekor bulishiga sabab bo'ladigan yuridik omillar qonunda ko'zda tutilgan xatti – harakatlardan yoki 72chu n ongiga bog'liq bo'lmagan xodisalaridan iborat bulishi mumkin.

Mehnat Kodeksida taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ammo Mehnat shartnomasining bekor bulishiga sabab bo'ladigan holatlar ko'zda tutilgan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Xodimnin harbiy xizmatga chakirilishi;

Shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimni ishga tiklanishi;

Xodimning sud xukmi bilan (xukm qonuniy kuchga kirgach)ishni korxonada davom ettirishga imqon bermaydigan jinoiy jazoga tortilishi;

Xodimning ishga qabul qilish yo'zasidan belgilangan qoidalar ko'pol buzilgani xolda ishga qabul qilinganligi.

Xodim vafoti tufayli.

Qonunda nazarda tutilgan boshqa xollarda.

Xodim harbiy xizmatga chakirilganida harbiy orginlarning chaqiriqkogozi uni ishdan bushatilishiga va qonunda ko'zda tutilgan kafolatlarni (ishdan bushatish nafaksi) unga berilishiga asos bo'ladi. Ushbu moddaning 2 - bandida ish beruvchi tomonidan gayriqonuniy ravishda keyinchalik bekor qilingan sud qarorlari asosida yoki boshqa asoslarga ko'ra noqonuniy ishdan bushatilgan shaxsni o'z vazifasiga tiklanishi, shu tufayli uning o'rnida ishlashi uchun ishga qabul qilingan shaxsni korxonada boshqa ish bilan ta'minlanishining imqon i yukligi yoki

u taqlif qilgan boshqa ishga utishni rad etganligi tufayli ishdan bushatishhaqida yuritiladi. Shu asos bilan ishdan bushatilgan xodimga ishdan bushatish nafakasi berilishi lozim.

Xodimning jinoiy javobgarlikka tortish va uni jazo qo'llanishi tufayli ayblov xukmi qonuniy kuchga kirganidan sung, basharti jazoni ijro etish tufayli xodim o'z vazifasini korxonada bajarishi istisno etiladigan bulsa (ozodlikdan maxrum etish, ish joyidan boshqa joyda axloq to'zatisht zonasini utash, muayyan huquqlardan maxrum qilish, qamoq) u ishdan bushatilishi mumkin. Bunga sud xukmi qonuniy kuchga kirganligi haqidagi xabar asos bo'ladi.

3. Ish vaqti, dam olish vaqti va ishxaqi.

Ish vaqti - bu xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud Mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z Mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqtdir.

Xodim 73chu nish vaqtining normal muddati xaftasiga kirk soatdan ortiq bulishi mumkin emasligi O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi va BMTning Bosh Assambleyasining «Ish vaqtini xaftada kirk soatgacha qisqartirish to'g'risida»gi 48 - qon vensiyasida ko'rsatilgandir.

Olti kunlik ish xaftasida harkungi ishning muddati yetti soatdan, beshkunlik ish xaftasida esa saqqiz soatdan ortib ketmasligi kerak.

Mehnatga oid qonun xujjatlarida ayrim toifadagi xodimlar uchun ularning yoshi, sogligi holati, Mehnatshartlari, Mehnat vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zga holatlarini inobatga olib, Mehnatga tulanadigan xaqni kamaytirmasdan, ish vaqtining qisqartirilgan muddatlari belgilangan.

Ular quyidagi toifadagi xodimlar uchun:

- un saqqiz yoshga tulmagan xodimlar (MKning 242 - moddasi)
- 1 va 11 - gurux nogironi bo'lgan xodimlar (MKning 220 - moddasi)
- noqulay Mehnatsharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar (MKning 117 - modda)
- aloxida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar (118 - modda)
- uch yoshga tulmagan bolalari bor, budjet xisobidan moliyaviy jixatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar (MKning 228 - prim modda).

Bundan tashqari Mehnatqonun xujjatlari asosida xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi o'zaro kelishuvga binoan ishga qabul qilish davrida yoki keyinchalik xodim va ish beruvchining sharoitidan kelib chiqqan xolda tuliksiz ishkuni yoki tuliksiz ish xaftasi belgilab quyilishi mumkin.

Bayram kunlari arafasida kundalik ish muddati barcha xodimlar uchun kamida bir soat qisqartiriladi. Xodimlar kundalik ish faoliyatining soat 22 - 00 dan to 6 - 00 gacha tungi vaqt xisoblanadi. Agar xodim uchun belgilangan kundalik ish muddatining kamida yarmi tungi vaqtga to'g'ri kelsa, tungi ish vaqti muddati bir soatga, xaftalik muddati hamshunga muvofiq ravishda qisqartiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Xotin - qizlarga kushimcha imtiyozlar to'g'risida»gi qonunga ko'ra: Bolalarni tarbiyalash uchun shart - sharoit yaratishhamda Xotin - qizlarni Mehnatdan manfaatdorligini oshirishmaqсадida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan «uch yoshga tulmagan bolalari bor budjet xisobidan ta'minlanadigan davlat muassasalari va korxonalari hamda tashkilotlarida ishlayotgan ayollarga Mehnatga tulanadigan xaqni kamaytirmagan xolda ish vaqtini xaftasiga uttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilangan.

Shuningdek, xodimlarga kundalik ish vaqtidan tashqari ishlash ish vaqtidan tashqari ish xisoblanadi. Bu ishlarga faqat xodimning roziligi bilan jalb etiladi. Ish vaqtidan tashqari ishning eng ko'p muddati MKning 125 - moddasiga ko'ra: surunkasiga ikki kun davomida turt soatdan va yiliga bir yo'z yigirma soatdan ortiq bo'lmasligi kerak. Ish beruvchi har bir xodimning xaqiqatdan ishlagan ish vaqtidan tashqari ishlagan vaqtini o'z vaqtida aniqxisobga olib borishi talab etiladi.

Aloxidagi tusdagi va noqulay Mehnatsharoitidagi ishlar turi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida belgilanadi.

Dam olish vaqti xodim Mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod qilingan vaqt bo'lib, bu

faqat xodim uchun ahamiyatga ega bo'lgan xodisa bo'lmay, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vrkelikdir. Davlat va jamiyat demokratiyasi hamda insonparvarligi ko'p jihatdan fuqarolarga dam olish huquq berilganligi, bu huquqlardan amalda foydalanish imkoniyati ta'minlanganligi bilan ulchanadi. Uzbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan sung dam olish vaqtiga oid xalqaro qon vensiyaga kushildi, o'z milliy qonunchiligini xalqaro andozalarga muvofiq lashtirishga erishdi.

Mehnatga oid qonun xujjatlarida dam olish vaqtining quyidagi turlari qayd qilingan:

- ishkuni davomidagi dam olish vaqti.
- ishkunlari orasidagi dam olish vaqti.
- ish xaftalari orasidagi dam olish vaqti.
- bayram kunlaridagi dam olish vaqti.

- yillik Mehnat ta'tillari. Xodimlarni dam olish vaqtida ishga jalb etishga qonun yul kuymaydi. Lekin ayrim xollarda ish beruvchi xodimning roziligini olgan xolda ortiqcha ishxaqi to'lashsharti bilan jalb etilishi mumkin. Ma'lumki, yillik Mehnat ta'tili xodimning kafolatlangan dam olish vaqtining asosiy shaklidir. Barcha xodimlarga asosiy ishi saqlangan xolda har yili 15 ishkunidan kam bo'lmagan miqdorda yillik Mehnat ta'tillari berilishi belgilangan. Kushimcha Mehnat ta'tili berishqonunchilik xujjatlarida, ular asosida esa ichki me'yoriy xujjatlarga binoan belgilanadi. Mehnat Kodeksining 143 - moddasida ta'tillarni berish tartibi, 144 - moddasida ta'tillarni berish vaqti va navbatiga oid, 145 - moddasida ta'tilni o'zaytirish yoki uni boshqa muddatga kuchirish, keyingi moddalarida esa ta'tilni qismlarga bo'lib foydalanish, chakirtirib olish, ta'tillar uchun xaqto'lash va ijtimoiy ta'tillar ularning turlari, shuningdek, ishxaqi saqlanmagan xolda beriladigan ta'til, bolani parvarishlash ta'tili haqidagi qoidalar aks ettirilgandir. Foydalanilmagan ta'tillar uchun kompensatsiya tulanadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga utilishi bilan ishxaqi axolining asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib qolayotgan hozirgi davrda Mehnatga xaqto'lashni huquqiy tartibga solish muxim ahamiyatga egadir. MKning 153 - moddasiga ko'ra Mehnatxaqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Mehnatxaqi qonun xujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan kam bulishi mumkin emas va uning eng ko'p miqdori biron - bir tarzda cheklanmaydi.

Mehnatga xaqqoida tarikasida, pul shaklida tulanadi. Mehnatga xaqni alkogoli maxsulotlar va tamaqi maxsulotlari, shuningdek, ruyxati O'zbekiston Respublikasi Xukumati tomonidan belgilangan boshqa tovarlar tarzida to'lash takiklanadi.

Ish vaqtidan tashqari ish, dam olishkunlari ishlaganlik, tungi vaqt uchun har bir soatiga kamida 1, 5 baravar miqdorda xaq tulanadi. Mehnatga xaqto'lash muddatlari har yarim oyda bir marta tulanishi lozim. Ishxaqi xodimga odatda o'zi ishlagan ish xonada tulanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 164 - moddasida Mehnathaqidan ushlab qolish holatlari va qoidalari qayd etilgan. Bundan tashqari xodimlarga tulanadigan kafolatli va kompensatsiya tulovlari ham mavjuddir. Bu holatlarga oid qoidalar MKning X - bob 165 - 173 - moddalarida ko'rsatilgandir.

3. Mehnat intizomi va Mehnat muxofazasi.

Respublikamizda bozor munosabatlari sharoitida, faqat ish beruvchining emas, balki xodimning ham faravonligi ertangi kun samarali va sermaxsul Mehnat natijalariga bevosita bog'liq bo'lgan bizning kunlarimizda korxonalarda Mehnat intizomini mustaxkamlash muxim ahamiyatqasb etmoqda.

Ma'lumki, korxonalarda Mehnat tartibi ish beruvchi qasaba uyushmasi kumitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib Tasdiqlaydigan ichki Mehnat tartibi qoidalari bilan belgilanadi.

Mehnat intizomi qoidalari va mazmuni ikki xususiyatni o'zida ifodalaydi:

1. Obyektiv tomondan: Mehnat qonunlari, intizom ustavlari, ichki tartib qoidalarda mustaxkamlangan ishlab chiqarishning zarur shartlari.

2. Subyektiv tomondan: xodim va ish beruvchi tomonidan Mehnat intizomiga oid o'z majburiyatlarini bajarishhuquqlaridan foydalanish.

Shundan kelib chiqqan xolda xodim zimmasiga o'z Mehnat vazifalarini xalol, vijdonan bajarishi, Mehnat intizomiga rioya qilishi, ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o'z vaqtida va aniqbajarishi, texnologiya intizomiga, Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya qilishi, ish beruvchining mol - mulkini avaylashi va asrashi kabi vazifalar yuklatiladi.

Ish beruvchi esa xodimlar Mehnatini tashkil qilishi, qonunlar va boshqa normativ xujjatlarda, Mehnatshartnomalarida nazarda tutilgan Mehnatsharoitlarini yaratib berishi, Mehnat va ishlab chiqarish intizomini ta'minlashi, Mehnat muxofazasi qoidalariga rioya etishi, xodimlarning extiyoj vatalablariga e'tibor bilan qarashi, ularning turmush va Mehnatsharoitlarini yaxshilab borishi, jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvi to'zishi lozim bo'ladi.

Mehnat intizomi xalol Mehnat uchun ragbatlantirish va mukofatlash usullari bilan, noinsof xodimlarga nisbatan jazo choralarini kullash usullari bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi MKning 181 - moddasida xodimga Mehnat intizomini buzganligi uchu nish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini kullashga xaqiligi ko'rsatilgan:

Xayfsan;

O'rtacha oylik ishxaqining yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima; (ba'zi xollarda qonun xujjatlari asosida o'rtacha oylik ishxaqining kirik foizidan ortiq bo'lmagan jarima solinishi mumkin)

Mehnat shartnomasining bekor qilinishi. (MKning 100 - modda ikkinchi qismining 3 va 4 - bandlari).

Intizomiy jazo vakolatli shaxslar tomonidan qo'llaniladi, uni kullashdan oldin ish beruvchi xodimdan tushuntirish xati olishi lozim. Xaar bir nojuya harakat uchun bitta jazo qo'llaniladi. Bu jazo bir oy muddat ichida qo'llanilishi kerak.

Nojuya harakat sodir etilgan kundan boshlab olti oy utganidan, moliya - xo'jalik faoliyatini taftish etish va tekshirish natijasida aniqlanganda esa, sodir etilgan kundan boshlab ikki yil utganidan keyin jazoni kullab bo'lmaydi. Jinoiy ish buyicha ish yuritilgan davr bu muddatga kirmaydi.

Intizomiy jazoning amalqilish muddati jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yilgacha o'z kuchini saqlaydi. Bu muddat davomida xodimga nisbatan ragbatlantirishchoralari qo'llanilmaydi. Intizomiy jazo ustidan yakka Mehnat nizolarini kurish uchun belgilangan tartibda shikoyat qilishhuquqi beriladi.

Mehnat munosabatlari davomida uning ishtirokchilari bir - birlarining moddiy manfaatlariga rioya qilishlari va zarar yetishiga yul kuymasliklari lozim. Mehnat shartnomasi tomonlarning o'zlari moddiy javobgarliklarini muxim sharti muyyan yuridik tartib bo'lgandagina bu javobgarlikning yo'zaga kelishidir.

Ushbu yuridik tartib o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. qasd va extiyotsizlik shaklidagi aybli xatti - harakat.
2. harakat yoki harakatsizlikning qonunga xilofligi.
3. aybli, huquqqa xilof xatti - harakat natijasida zarar yo'z berganligi.
4. aybli xatti - harakat bilan zararli oqibat o'rtasida sababiy boglanish mavjudligi.

Taraflardan har biri o'ziga yetkazilgan zararni isbotlashlari lozim bo'ladi. Xodimlar tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zarar uchun uning bir oylik o'rtachi ishhaqidan ko'p bo'lmagan miqdorda moddiy javobgarlik yo'z beradi. Uning tulik moddiy javobgarligi faqat MKning 202 - moddasi asosida belgilanishi mumkin.

Ish beruvchi tomonidan xodimning sogligiga, mol - mulkiga yetkazilgan zarar xodim vafot etganida qaramogidagi shaxslar boquvchisidan judo bo'lganlari tufayli kurganda ularga tula xajmda koplpb beriladi. Taraflar bir - birlariga ma'naviy zarar yetkazganlarida u zarar qonunda belgilangan xajmda va tartibda koplabb berilishi lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori mavjud.

Ish beruvchi o'ziga yetkazilgan moddiy zararni undirish yoki koplabb yo'zasidan bir yil davomida sudga murojaat qilishi mumkin. Ma'naviy va soglikka yetkazilgan zarar uchun muddat

belgilanmagan.

5. Mehnat nizolari, ularni qurish tartibi.

Mehnatsharoitlarining noqulayligi Mehnatshartlarining o'zgartirilishi, Mehnat shartnomasining bekor qilinishi, xodimlarga qonunlarda nazarda tutilgan kafolatlar berilmasligi kabi bir qator obyekt va subyektiv sabablarga ko'ra ish beruvchi va xodim o'rtasida kelishmovchiliklar vujudga kelishi mumkin. Mehnat nizolari umumiy va maxsus Mehnat nizolariga, moxiyatiga ko'ra Mehnatshartlarini belgilash, o'zgartirish, bekor qilishga oid Mehnat nizolari hamda Mehnatshartlarini kullash bilan bog'liq Mehnat nizolariga bulinadi.

Umumiy Mehnat nizolari barcha xodimlarga tegishli bo'lib, u umumiy tartibda Mehnat nizolarini kuruvchi komissiya yoki sud tomonidan xal etiladi.

Maxsus Mehnat nizolari esa qonunda maxsus nazarda tutilgan xollarda ayrim toifadagi davlat xizmatchilariga oid ayrim Mehnat nizolari buysinish tartibida yuqori turuvchi idora tomonidan kurib xal etiladi.

MKning 268 - moddasiga ko'ra quyidagilar Mehnat nizosini kurishhaqidagi ariza bilan sudga murojaat qilishhuquqiga egadirlar:

xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillari.

Mehnatning huquq buyicha inspektori.

ish beruvchi, Mehnat nizolari komissiyasining kororiga rozi bo'lmagan taqdirda, shuningdek, uni xodim tomonidan yetkazilgan zararni koplashhaqidagi nizolar buyicha.

proquror.

Mehnatga oid qonun xujjatlarida sudga yoki Mehnat nizolarini kurishkomissiyasiga murojaat etish uchun maxsus muddarlar belgilangandir.

- ishga tiklash nizolari buyicha - xodimga u bilan Mehnat shartnomasini bekor qilanganligi haqidagi buyrukning nusxasi berilgan kundan boshlab bir oy;

- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zarani to'lashhaqidagi nizolar buyicha - zarar yetkazilganligi ish beruvchiga ma'lum bo'lgan kundan boshlab bir yil;

- boshqaMehnat nizolari buyicha - xodim o'z huquqi buzilganligini bilgan kundan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab uch oy;

Ushbu muddatlar o'zrli sabablarga ko'ra utkazib yuborilgan bulsa, bu muddatlar sud yoki Mehnat nizolarini kurishkomissiyasi tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Xodimlar Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar buyicha sudga murojaat qilganlarida sud harajatlaridan ozod etiladilar.

Sudlarda Mehnat nizolarini kurish, xal etish, ular yo'zasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etilishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual Kodeksi, Oliy sudning Plenumi qarorlari asosida amalga oshiriladi. Mehnat nizosi yo'zasidan chiqarilgan ayrim xal qiluv qarorlari darxol ijro etilishi lozim. Sud qarorining ijrosini orqaga qaytarish masalasida ham o'ziga xos xususiyatlar mavjuddir.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganimizda, Mehnathuquqi Fani Mehnat jarayonlariga oid munosabatlarni tartibga soluvchi boshqahuquqiy fanlardan o'z moxiyatiga ko'ra farqlanadi. U o'zining uslublari o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Mehnathuquqi talabalarga ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi Mehnat, kasbga oid bo'lgan barcha munosabatlarni urgatadi. Talaba esa ularni urganishi natijasida o'zining Mehnat munosabatlarida huquqi paymol bulishiga yul kuymaslik darajasiga yetishi mumkin. Buning uchun talabalarimiz Mehnathuquqiy munosabatlari, Mehnathuquqi subyektlari, obyektlari, Mehnat munosabatlarining vakillari, ish vaqti, ishxaqi, dam olish vaqti, Mehnat muxofazasi, Mehnat intizomi, Mehnat nizolari va boshqaMehnatga oid tushunchalarga ega bulishlari talab etiladi. Mehnatga oid munosabatlarni mustaxkam egallash uchun talaba - yoshlarimizga huquqshunos olimlarimizning darslik, ukuv qo'llanmalari va ukuv - uslubiy tavsiyalarini: ya'ni Y. Tursunov «Mehnathuquqi», M. Gasanov, YE. Sokolov «O'zbekiston Respublikasida Mehnat shartnomasi (kontrakt), «Trudovoye zaqon adatelstvo O'zbekistona» «Rabochaya vremena i otdyxa», shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mehnat

munosabatlariga oid huquqiy xujjatlari bilan tanishib chiqishlarini tavsiya etamiz.

Nazorat uchun savollar.

Mehnat huquqi haqida umumiy tushuncha bering.

Jamoa shartnomasi bilan jamoa kelishuvi farqi qanday ?

Mehnat shartnomasi qanday tartibda to'ziladi ?

Mehnat shartnomasi qanday xollarda bekor qilinadi ?

Ishga joylashtirish tartibi qanday ?

Ish beruvchi va xodimning huquqlari, burchlari nimalardan iborat ?

Ish vaqtining qanday turlari bor ?

Dam olish vaqti, uning qanday turlari mavjud ?

Mehnat muxofazasi nima ?

Mehnat intizomi qanday tartibda belgilanadi ?

Mehnat nizolarini xal etilish tartibi qanday ?

Intizomiy jazo choralarini qullashdan maqsad nima ?

Mehnat nizolarini kurishkomissiyasi qanday tartibda to'ziladi ?

Davlat ijtimoiy sug'o'rtasi, uning vazifalari nidan iborat ?

GLOSSARIY.

1. Mehnat shartnomasi - ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi kasbga oid yozma kelishuvdir.

2. Intizomiy jazo - ish beruvchi tomonidan xodimning ichki Mehnatqoidalarini buzganligi uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan choralar.

3. Boshqa ishga utkazish - Mehnat shartnomasi shartlaridan birining o'zgartirilishi

4. Jamoa shartnomasi - bu korxonada ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi Mehnat, ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni normativ xujjat.

5. Mehnatga layoqatlilik - inson salomatligiga bog'liq bo'lgan Mehnat faoliyatiga qobillik.

6. Mehnatni muxofaza qilish jamgarmalari - Mehnatni muxofaza qilishga doir tadbirlarni mablag bilan ta'minlash manbai bo'lib xizmat qiluvchi jamgarmalar.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. O'zbekiston. 2011.

2. I. A. Karimov. «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. « T., «O'zbekiston» 1992 y.

3. I. A. Karimov O'zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., 1995 y.

4. I. A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari T., «O'zbekiston» 1998 y.

5. O. A. Karimova, Z. M. Gaffarov, Davlat va huquq asoslari (darslik)T., o'qituvchi 1995 y.

6. A. Tuxtaxunov, N Yuldasheva, Y. Tursunov. Mehnat, qonun istiqlol. T., 1993 y.

7. A. Tuxtaxunov, M. Jumayev, Y. Tursunov. Huquqiy islohatlar fuqarolarning Mehnat va pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunchiligi. T., 1995 y.

8. Y. Tursunov. Mehnathuquqi. T., «Moliya» 1999 y.

9. I. Inoyatov, Y. Tursunov, M. Sobirov. Mehnatqonunchiligida nimalarni bilishkerak. T., «O'zbekiston» 1990 y.

10. K. Kodirov «Mehnatga oid xujjatlarni rasmiylashtirish namunalari»

11. Y. Tursunov, M. Usmonov., Z. rasulov «Ijtimoiy ta'minot huquqi» T - 2001.

12. M. Gasanov, YE. Sokolov «O'zbekistonning Mehnatqonun xujjatlari» «Mehnat shartnomasi». T. 1999.

13. «Trudovoye pravo» M. «Progress» 1998.

14. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi T. Adolat 1999.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 5 - PL - 90 qarori «Xodimlar moddiy javobgarligi bilan bog'liq ishlarni sudlar tomonidan kurib xal etish amaliyoti to'g'risida».

16. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000 yil 28 apreldagi 7 - raqamli «Ma'naviy zararni koplashhaqidagi qonunlarni kullashning ayrim masalalari to'g'risida»gi

qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va axolini ijtimoiy himoyalash vazirligining 749 - sonli qarori. «Korxonalar xodimlari uchun Mehnat tartibining namunaviy qoidalari».

18. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat muxofazasi to'g'risida»gi qonuni 6 may 1993.

19. O'zbekiston Respublikasining «Xotin - qizlarga beriladigan qushimcha imtiyozlar tugrsida»gi qonuni 1999yil 14 aprel.

20. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 5 yanvardagi 865 - sonli tartib raqami bilan ruyxatga olingan «Ayollar Mehnatining qo'llanilishi tulik va qisman takiklangan noqulay Mehnatsharoitiga ega bo'lgan ishlar ruyxati».

21. V. N. Tolkunova Trudovoye pravo: kurs leksii M. 2002.

22. Xoxlova M, Mavrina YE. B. Trudovoye pravo Rossii M. 2001.

23. www. gov. o'z

24. www. edu. o'z

25. www. zivo. tdu. o'z

26. www. ec. tdu. o'z

27. www. performfnce. edu. o'z

7 - Qishloq xo'jaligi huquqi asoslari.

Reja

1. Qishloq xo'jaligi huquqi tushunchasi, predmeti va uziga xos xususiyatlari.
2. Qishloq xujalik huquqining subektlari va obektlari.
3. Qishloq xujalik huquqining asosiy tamoyillari. Manbalari.
4. Qishloq xo'jaligi korxonalarining huquqiy holati.
5. Qishloq xujaligida ish vaqti va dam olish vaqti.
6. Qishloq xujalik qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik.

“Qishloq xujaligini rivojlantirishga asosiy e'tibor berib kelindi va keyingi harakatlarimizda ham bu hol uz ustunligin saqlaydi, - deb yozadi I. A. Karimov, - bugungi iqtisodiyotimizda va ijtimoiy turmushda, binobarin, siyosatimizda hamqishloqsohasi xalqimizning farovon hayoti, respublikamizning taraqqiyoti vao'sish sur'atlarini halqiladigan muxim tarmoqdir”.

Qishloqxo'jalikhuquqi mustaqilk huquq tarmog'i sifatida uzaro bog'liq, bir - biriga yaqin bo'lgan bir maqsadga xizmat qiladigan, bir - biri bilan uzviy boglangan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga qaratilganer, mulkiyva tashkiliy - boshqaruvtsohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi jarayonida vujudga keladigan er, mulkiy, mexnat, tashkiliy - boshqaruvt bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni qamrab oladi. Demak, qishloqxo'jalikhuquqi kompleks agrar munosabatlarni tartibga solishga qaratilganbo'ladi.

Umumiy an'anaga binoan huquq tarmog'i va qonunchilik sohasi bir butun, yaxlit, xatto bir xilda nomlanishi bilan xarakterlanib kelgan. Masalan, jinoyat huquqi va jinoyat qonunchiligi (jinoyat kodeksi), fuqarolikhuquqi va fuqarolikqonunchiligi (fuqarolik kodeksi), er huquqi va er qonunchiligi (er kodeksi) va xakozo. Qishloqxo'jalikhuquqining manbaini tashkil etuvchibitta qonunni ko'rmaymiz, chunki qishloq xo'jaligi qonunchiligi asosini, tarkibini bir qanchqa qonunlar majmui tashkil etadi, ular agrar munosabatlarni tartibga soluvchi kompleks me'yoriy xujjatlar yig'indisidir. Bu holatni agrar munosabatlarning turli - tumanligidan kelib chiqib, bu munosabatlarning xar birini mustaqilkqonunlar bilan tartibga solinishi lozimligi bilan izohlash mumkin.

Qishloq xo'jalik huquqiiga quyidagicha ta'rifberish mumkin.

Qishloqxo'jalik huquqii - qishloqxo'jalik ishlab chiqarish jarayonida kelib chiqadigan agrar munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Qishloq xo'jalik huquqiining subektlari va obektlari.

Qishloq xo'jalik huquqiining subektlari deganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda qatnashuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. Qishloq xo'jalik huquqii subektlarining o'ziga xos jihatlari hamda umumiyligi ularning bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanishlari bilan harakterlanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar turli - tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan hozirgi vaqtda qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat ho'jaligi), davlat xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, dehqonxo'jaliklari, ijara jamoalari, yordamchi xo'jaliklar va boshqalar shug'ullanmqdalar.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan shugullanuvchi subektlar doirasini O'zbekiston Respublikasining

“Korxonalar to'g'risida”gi, “Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat ho'jaligi) to'g'risida”gi, “Fermer ho'jaligi to'g'risida”gi, “Dehqonho'jaligi to'g'risida”gi qonunlari belgilab beradi. Ushbu qonunlarda ko'rsatilishicha, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), davlatxo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari shug'ullanishlari kerak. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi asosiy tuzilmalar sifatida ushbu subektlar belgilanishining asosiy sabablari va asoslari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir: respublikamiz qishloq xo'jaligi asosan paxta va g'alla etishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, bu ekin turlari davlat va umumhalq manfaatlariga molik hisoblanadi, hamda yirik texnika qo'llashni, mukammal syg'orish inshootlarigaega bo'lishni, yirik ishlab chiqarishni tashkil etishni taqoza etadi. Bu maxsulotlarni ishlab chiqarishni fuqarolar yoki kichik ishlab chiqarish tuzilmalari tashkil etib amalga oshirib bo'lmaydi, balki ularni etishtirish uchun yirik tovar ishlab chiqaruvchi subektlar kerak bo'ladi. Shu sababdan, respublikamiz qishloqxo'jaligida endi yirik tovar ishlab chiqaruvchi sifatida qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) faoliyat kursatishlari huquqiy asosini topdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini oziq - ovqat maxsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishda, qishloq aholisini moddiy turmush tarzini yaxshilashda, ularningdaromadlarini yuksaltirishda dehqonxo'jaliklarining roli alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida sanoat, transport va boshqa korxonalar, tashkilotlarning yordamchi xo'jaliklari ham faoliyat kursatadilar. Ularning huquqiy holatini belgilash, yoki qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchi subekt ekanligini e'tirofetish noqishloq xo'jalik korxonalarining tuzilmalari bo'lganligi uchun ko'pincha nazardan chetda qolib ketadi. Ushbu yordamchi xo'jaliklar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasalar ham ularni qishloq xo'jalik huquqiining subekti sifatida tan olish kerak. Umuman, qoidaga ko'ra qishloq xo'jalik huquqiining subekti bo'lish uchun yuridik shaxs huquqiga ega bo'lish talab etilmaydi. Masalan, dehqonxo'jaliklari yuridik shaxs huquqiga ega bo'lishlari ham, yoki ega bo'lmasliklari ham mumkin, ammo ular qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tuzilma sifatida, demak qishloq xo'jalik huquqiining subekti sifatida hisoblanadilar. Shu urinda ta'kidlash lozimki, noqishloq korxonalar yordamchi xo'jaliklari huquqiy maqomini belgilovchi me'yoriy xujjat ishlab chiqilmagan. Bu esa ular faoliyatini amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababdan, ular faoliyatini tartibga soluvchi qonun ishlab chiqilsa maqsadga muvofik bo'lar edi.

Qishloq xo'jalik huquqiining subektlari bo'lib davlat qishloq xo'jalik korxonalarini hamhisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat qishloq xo'jalik korxonalarini o'z tasarrufidan chiqardi, xususiy lashtirdi. Davlat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bevosita shugullanmaydigan bo'ldi, yoxud qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish funksiyasini amalga oshirish davlatning vazifasiga yot hisoblanadi. Ammo, davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ekin navlarini, chorva zotlarini, nasllarni yaxshilash, o'quv - tajriba ishlarini olib borish maqsadida davlat qishloq xo'jalik korxonalariga extiyoj seziladi.

Qishloq xo'jalik huquqiining subektlari bo'lib korxonalar, muassasa, tashkilotlar ham, jismoniy shaxslar hambo'lishi, O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va jismoniy shaxslari hamda chet el yuridik va jismoniy shaxslari hisoblanishlari mumkin. Qishloq xo'jalik huquqiining subektlari yuridik shaxs huquqiga ega bo'lishlari yoki yuridik shaxs huquqiga ega

bo'lmasdan ham faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan barcha belgilar qishloq xo'jalik huquqii subektlariga hamtaaluqlibo'ladi.

Qishloq xo'jalik huquqii tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar qishloq xo'jalik huquqiining obektini tashkil etadi. Ushbu ijtimoiy munosabatlar doirasi juda keng bo'lib, turli yo'nalishlardagi munosabatlarni qamrab oladi. Birinchi turdagi munosabatlar qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining xo'jalik faoliyatlari bilan bog'liqdir. Bu xildagi munosabatlar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish, shartnoma munosabatlariga kirishish, etishtirilgan maxsulotni ayirboshlash kabilardan iborat bo'ladi. Bu kabi munosabatlarni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat ho'jaligi) to'g'risida"gi qonuni, "Fermer ho'jaligi to'g'risidagi"gi qonuni va boshqa me'yoriy xujjatlar alohida rol uynaydi.

Qishloq xo'jalik huquqiining obektini tashkil etadigan ikkinchi turdagi ijtimoiy munosabatlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining tabiiy resurslardan, xususan er va suvdan foydalanishlari bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Navbatdagi turdagi ijtimoiy munosabatlar qishloq xo'jaligida mehnatni tashkil qilish bilan bog'liq munosabatlardir. Bu turdagi munosabatlar qishloq xo'jaligida mehnatni tashkil qilish shakllari, mehnatni muxofaza qilish, mehnat intizomi, mehnat nizolari, ish vaqti, ish haqi kabilari bilan bog'liq bo'ladi. Mehnatni tashkil qilish munosabatlarini tartibga solishga bag'ishlangan qoidalar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Qishloq kooperativlari (shirkat ho'jaligi) to'g'risida"gi qonuni, "Mehnatni muxofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat ho'jaligi) na'munaviy ustavi", "Fermer ho'jaligining na'munaviy ustavi" kabi me'yoriy xujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Qishloq xo'jalik huquqiining obekti hisoblanidigan turtinchi yo'nalishdagi ijtimoiy munosabatlar tashkiliy - boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardir. Qishloq xo'jalik korxonalarini boshqarish davlat boshqaruvi va ichki xo'jalik boshqaruvi bo'linadi. Davlat boshqaruvi davlatning tegishli organlari, xususan qishloq va suv ho'jaligi vazirligi, Er resurslari davlat qo'mitasi, xokimliklar tomonidan amalga oshirilsa, ichki xo'jalik boshqaruvi esa qishloq xo'jalik ishlab chiqarish to'zilmalari tomonidan xo'jalik ichida tashkil etilgan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Tashkiliy boshqaruvi munosabatlarini tartibga soladigan normalar "Korxonalar to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat ho'jaligi) to'g'risidagi na'munaviy ustavi", "Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi to'g'risidagi nizom", "Er resurslari davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizom", va boshqalarda urnatilgan. Bu normalarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan hamda qishloq xo'jalik korxonalarini o'zlari tomonidan boshqarishning tashkiliy - huquqiy shakllari, boshqaruvi amalga oshiruvchi organlar tizimi, ularning funktsiyalari, boshqarish usullari va shakllari, belgilab berilgan.

Qishloq xo'jalik huquqii obektini tashkil qiladigan ijtimoiy munosabatlarni ichki qishloq xo'jalik huquqii munosabatlari hamdatashqi qishloq xo'jalik huquqii munosabatlari kabi turlarga turkumlash mumkin. Ichki qishloq xo'jalik huquqii munosabatlarni qishloq xo'jalik korxonalarining ichida bo'ladigan ichki bo'linmalarining o'zaro va boshqaruv organlari bilan munosabatlari, dehqonho'jaligi bilan shirkat ho'jaligining o'zaro munosabati, shirkat ho'jaligi bilan uninga'zolari o'rtasidagi munosabatlar, oila pudratchilar bilan munosabatlar kabilari tashkil qilsa, tashqi qishloq xo'jalik huquqii munosabatlarni esa qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tuzulmalarining tayyorlov tashkilotlari, boshqa korxonalar, tashkilot, muasasalar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari bilan munosabatlari tashkil qiladi.

Qishloq xo'jalik huquqiining asosiy tamoyillari.

Qishloq xo'jalik huquqiining tamoyillari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bilan bog'liq munosabatlarni, qishloq xo'jalik huquqii normalari tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan asosiy me'zonlardir. Bu me'zonlar bevosita huquq normasida yoki boshqa me'yoriy xujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'ladi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligiga erishishga qaratilgan bo'ladi.

Qishloq xo'jalik huquqiining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni kursatish mumkin:

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bozor iqtisodi talablariga muvofiqligini ta'minlash tamoyili;

mamlakatimiz halqo'jaligida qishloq xo'jaligining ustivorlik tamoyili;

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining turli xil mulkchilik va turli xil xo'jalik yuritish shaklini joriy etishni ta'minlash tamoyili;

Qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarishni tashkil etishdagi mustaqilligini ta'minlash tamoyili;

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi natijalaridan manfaatdorlikni ta'minlash tamoyili;

Davlat rahbarigi tamoyili; Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga fan va texnika yutuqlarini keng joriy qilish tamoyili;

Qishloq xo'jaligiga muljallangan erlarga nisbatan davlat mulkchiligini saqlab qolish tamoyili;

Qishloq xo'jaligida er va suvdan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash tamoyili;

Sug'oriladigan erlardan foydalanishning ustivorligi tamoyili;

Qishloq xo'jalik korxonalarini boshqarishda demokratiya va qonunchilikni ta'minlash tamoyili.

Qishloq xo'jalik huquqiining manbalari.

Qishloq xo'jalik huquqi - huquq tizimining majmualashgan (kompleks) huquqsohasi sifatida o'z manbalari asosida rivojlanadi va agrar huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Shuning uchun ham agrar huquqiy munosabatlarni tartibga solishda manbalarning ahamiyati beqiyos bo'lib, qishloq xo'jalik huquqi manbalarining tushunchasi, huquq tizimidagi tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali agrar siyosatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va mazmun mohiyatini ochib berish mumkin.

Qishloq xo'jalik huquqi manbalari deb agrar munosabatlarni tartibga soladigan qonunchilik xujjatlarining yig'indisiga aytiladi.

Albatta, agrar munosabatlar deganda biz, qishloq xo'jalik maxsulotlarini ekish, etishtirish, ishlov berish, yig'ib - terib olish, hom ashyo maxsulotlarini qayta ishlash, qishloq xo'jalik va oziq - ovqat maxsulotlarini sotish, ayrboshlash, daromadni taqsimlash bilan bog'liq agrosanoat majmui jarayonida subektlar hisoblangan, yuridik va jismoniy shaxslarning ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy - ma'rifiy va tashkiliy - texnikaviy jabhalaridagi faoliyatni tushunamiz.

Aholining qishloq xo'jalik maxsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qishloq xo'jalik infrastrukturasi rivojlantirish, ko'pkuladli xo'jalik iqtisodiyotini shakllantirish, maxsulotni etishtirish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qishloq xo'jalik huquqiga oid xususiy tamoyillar, institutlar, qoida - talablar va to'zilmalar bilan birgalikda boshqa asosiy huquqsohalarining ma'lum bir jarayonidagi munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qoida - talablari keng qo'llaniladi.

Qishloq xo'jalik huquqiining manbalari o'z xususiyatlariga ega bo'lib, quyidagijihatlar bilan boshqahuquqsohalari manbalaridan farqlanadi:

Tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning turli - tumanligi;

Yagona kodifikatsiyalangan qonun xujjatining bo'lmaganligi;

Agrar ishlab chiqarish jarayonini tartibga solishda tabiat qonuniyatlari, atrof tabiiy muxit holati darajasining ustivorligi;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari me'yoriy xujjatlari bilan birgalikda tor doiradagi lokal xujjatlarning mavjudligi;

Agrar - huquqiy munosabatlarda er huquqi, ekologiya huquqi, mehnathuquqi, fuqarolik va moliya huquqi, konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq va boshqahuquqsohalariga oid qonunchilik xujjatlarining ixtisoslashganligi va boshqalar.

Demak Qishloq xo'jalik huquqiining manbalari bo'lib, quyidagiqonunchilik xujjatlari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
O'zbekiston Respublikasining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarori;
Agrar sohada maxsus vakolatli davlat organlari ya'ni, vazirlik, davlat qo'mitasi va idoralarning me'yoriy xujjatlari;

Mahalliy davlat hokimiyat organlarining me'yoriy xujjatlari;

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan ma'qullangan qishloq xo'jalik shirkatlari, uyushmalari, tashkilotlarining xujjatlari;

Qishloq xo'jalik korxonlari, tashkilotlari, muassasalarining lokal ahamiyatli, ya'ni ichki xo'jalik xujjatlari

Qishloq xo'jalik huquqiining konstitutsiyaviy asoslari.

Asosiy qonunimizda belgilangan qoida - talablar tizimini agrar munosabatlarni tartibga solish ahamiyati va mazmuni jihatdan quyidagiqismirlarga bo'libo'rganishmumkin:

1) qishloq xo'jaligi ijtimoiy - iqtisodiy faoliyati bilan bog'liqfuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari;

2) Qishloq xo'jaligining ijtimoiy - iqtisodiy va ekologik asoslari;

3) Qishloq xo'jaligidagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining huquqiy holati;

4) Qishloq xo'jaligida qonunchilik qonuniylik va ijtimoiy adolatni ta'minlash kafolatlari.

Asosiy qonunimizning 18, 19, 20 - moddalarining mazmun - mohiyati shundan iboratki, birinchidan, agrar munosabatlarida ishtirok etayotgan fuqarolar bir xil huquq, erkinliklarga ega bo'lib, qonun oldida tengligi, hamda qishloq xo'jalik xususiyatlari, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida imtiyoz va manfaatlarga ega bo'lishi, ikkinchidan, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilganhuquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlari, erkinliklari va huquqlariga putur etkazmasligi tamoyillari belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizning VII - bobida belgilangan fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, shuningdek VIII - bobdagi siyosiy huquqlari qishloq xo'jaligida istiqomat qiladigan, mehnat faoliyatini olib borayotgan shaxslarning huquq, erkinliklarini kafolatlash hamda ularning siyosiy faolligini jadallashtirishga imkon yaratib beradi.

Agrosanoat majmuasida jismoniy va yuridik shaxslarning Konstitutsiyada mustahkamlangan iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari muhim ahamiyatga egadir. «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli, bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi» - 36 - modda; shuningdek, «Har bir shaxs mehnatqilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda kursatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir» - 37 - modda.

Fuqarolarning burchlari ham Konstitutsiyada ifoda etilgan bo'lib, jamiyatning barcha jabhalarida shu jumladan agrosanoat majmuida ham muxim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, fuqarolar:

- Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr - qimmatini xurmat qilishga - majburdirlar - 48 - modda;

- atrof tabiiy muxitga extiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar - 50 - modda;

- qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar - 51 - modda va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyatning iqtisodiy negizlari, iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, belgilari hammustahkamlangan bo'lib, ushbu qoida - talablar bevosita qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi.

Xususan, 53 - moddada, «Bozor munosabatlarni rivojlantirishga qaratilganO'zbekistoniqtisodiyotining negizini xilma xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnatqilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab - baravar muxofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat

nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan maxrum etilishi mumkin» - deb, belgilangan.

Ushbu konstitutsiyaviy qoidaning agrosanoat iqtisodiyotidagi ahamiyati shundaki, birinchidan, qishloq xo'jaligida mulkchilikning xilma xil shakllarini joriy etish, ko'p ukladli xo'jalik jarayonini takomillashtirish orqali qishloq xo'jaligida olib borilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy isloxlarning poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi; ikkinchidan, qishloq xo'jalik maxsulotlarini etishtirishda samaradorligini oshirishga qaratilgan xo'jalik yuritishning turli shakl va usullarini amalga oshirishni ta'minlaydi va kafolatlaydi.

Konstitutsiyamizning 54 - moddasida, yuridik va jismoniy shaxslar mulk huquqining mazmuni ya'ni egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish kabi mulkiy huquqlari belgilanib, mulkiy munosabatlarning mohiyatini ochib beradi.

Davlatimiz Asosiy qonunining 55 - moddasida, «Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boyliklar, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidir» - deb, mustahkamlangan bo'lib, davlat ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlari, qoida - talablarini Konstitutsiya darajasida belgilab berdi.

Shuning uchun ham ushbu konstitutsiyaviy qoidada, muhim tamoyillar, ya'ni:

- er, er osti boyliklari, suv, o'simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy boyliklarning umummilliy boylik ekanligi;

- tabiiy resurslardan faqat oqilona foydalanish mumkinligi;

- tabiat boyliklari davlat muxofazasiga olinganligi belgilangan bo'lib, agrosanoat majmuida keng qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qishloq xo'jaligining siyosiy - tashkiliy, ijtimoiy - iqtisodiy va boshqa jabhalarda ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi, qishloq xo'jalik qonunchilik chora - tadbirlarining ijrosini amalga oshirishga qaratilgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining huquqiy holati mustahkamlangandir.

Xususan, Konstitutsiyamizning XVIII - bobida, oliy vakillik organi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati belgilangan bo'lib, qishloq xo'jalik qonunchilik xujjatlarini qabul qilish; davlat agrar siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash; qishloq xo'jaligisohasida muxim dasturlarni tasdiqlash; byudjetni qabul qilish va ijrosini nazorat qilish; qishloq xo'jaligiga oid turli soliq va boshqa majburiy tulozlarni joriy qilish va boshqa jarayonlarda muxim ahamiyatga egadir.

Asosiy qonunimizning XIX - bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy holati belgilangan bo'lib, fuqarolarning huquq, burch, erkinliklarini kafolatlash, davlat agrar siyosatini amalga oshirish, qishloq xo'jalik qonunchilik xujjatlarining ijrosini ta'minlash; Vazirlar Mahkamasi faoliyatiga rahbarlik qilish; qishloq xo'jalik boshqaruv organlari faoliyatini shakllantirish va muvofiklashtirish, qishloq xo'jaligida siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy - ma'rifiy jabhalarda rivojlanish dasturini hayotga tadbiiq etish va boshqa faoliyatlarda muhim ahamiyatga egadir.

Konstitutsiyada qishloq xo'jalik qonunchilik xujjatlari qoida - talablarini barcha jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirishni ta'minlash, qonuniylik va ijtimoiy adolatni kafolatlashga xizmat qiladigan sud hokimiyati tizimi, prokuratura organlarining huquqiy holati belgilanib, jamiyatimizning boshqasohalari kabi qishloq xo'jaligida ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni kafolatlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy tamoyil, qoida - talablar asosida qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun muhim bo'lgan maxsus qonunchilik xujjatlari qabul qilinadi.

Konstitutsiya huquq tizimining boshqasohalari kabi qishloq xo'jaligi huquqining ham asosiy manbasi hisoblanadi hamda konstitutsiyaviy qoidalarda agrar munosabatlarning huquqiy poydevori mustahkamlanadi.

Qishloq xo'jalik huquqining manbai sifatida qonunlar.

Qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli murakkab tizimga ega bo'lganligi uchun ham qishloq xo'jalik maxsulotlarini yig'ib - terib olish, ayrboshlash, qayta ishlash, sotish, daromadni

taqsimlash hamda qishloq xo'jalik infrato'zilmalarini takomillashtirish kabi jarayonlar agrar qoida - talablar bilan bir qatorda fuqarolik, xo'jalik, moliya, ma'muriy, mehnat, ekologiya qonunchilik xujjatlari bilan tartibga solinadi.

Shuning uchun hamqishloq xo'jalik qonunchiligi murakkab tizimga ega bo'lib, agrosanoat tizimida amalga oshirilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar yo'nalishlari, agrar munosabatlarni tartibga solishdagi ulushi vazifasiga ko'ra hamda qonunlarning mazmun - mohiyatini anglash, urganishni osonlashtirish maqsadida ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

umumiy ahamiyatdagi qonunlar;
maxsus qonunlar;
muxofaza ahamiyatidagi qonunlar, ya'ni agrar - huquqiy tartibotni muxofaza qilishga qaratilgan qonunlar.

Qishloq xo'jalik qonunlari bir - biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, agrosanoat majmuidagi tutgan o'rniga ko'ra shartli ravishda quyidagi turlarga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligi munosabatlarining rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratadigan umumiy ahamiyatdagi qonunlar tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996 yil).
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (1997 y. 24 aprel).
- O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida» (31. 10. 1990), «Korxonalar to'g'risida» (1991 yil 15 fevral), «Kooperatsiya to'g'risida» (1991 yil 14 iyun), «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» (1991 yil 19 noyabr), «Ijara to'g'risida» (1991 yil 19 noyabr), «Birja va birja faoliyati to'g'risida» (1992 yil 3 iyul), «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida» (1992 yil 9 dekabr), «Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida» (1992 yil 9 dekabr), «Er solig'i to'g'risida» (1993 yil 6 may), «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» (1993 yil 6 may), «Bankrotlik to'g'risida» (1994 yil 5 may), «Bank va bank faoliyati to'g'risida» (1996 yil 25 aprel), «O'simlik dunyosini muxofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» (1997 yil 26 dekabr), «Er kodeksi» (1998 yil 30 aprel), «Garov to'g'risida» (1998 yil 30 aprel) va boshqalar.

Ushbu qonunlar qishloq xo'jalik tarmoqlari xususiyatlarini qamrab olgan holda maxsulotni ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish maqsadida maxsus qabul qilingan bo'lib, muxim ahamiyatga egadir. Chunki, birinchidan, qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida tub iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi; ikkinchidan, qishloq xo'jaligi tizimini turli tarmoqlari va yo'nalishlaridagi agrar munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Fermer ho'jaligi to'g'risida», «Dehqonho'jaligi to'g'risida», «Veterinariya to'g'risida», «Urug'chilik va seleksiya to'g'risida», «O'simliklar karantini to'g'risida»gi qonunlar; uchinchidan, Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarining kompleks munosabatlari, ya'ni, mehnat, moliyaviy, xo'jalik, ma'muriy, ekologik vatashqisohalaridagi faoliyatini yagona maqsadga birlashtirib, qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga qo'llaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat ho'jaligi) to'g'risida»gi qonuni; turtinchidan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xususiyatlar, ya'ni, ishlab chiqarishning tabiiy resurslardan foydalanish orqali amalga oshirilishi va mavsumiylik asosida mehnatni tashkil etish, tabiiy omillarning (yomg'ir, toshqin, qurg'oqchilik, do'l, sel) ishlab chiqarishga ta'siri kabi jihatlar ko'zda tutilgandir.

Qishloq xo'jaligida agrar munosabatlarni huquqiy tartibga solishda muxofaza ahamiyatidagi, ya'ni, mavjud agrar huquqiy tartibotni muxofaza qilishga qaratilgan qonunlar tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (1995 yil 21 dekabr) ;
- O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksi (1994 yil 22 sentyabr) ;
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994 yil 22 sentyabr) ;
- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.

Ushbu qonun xujjatlarining vazifasi, birinchidan, qishloq xo'jalik qonunchilik xujjatlari

qoida - talablarini buzgan fuqarolar, mansabdor shaxslar xatti - harakat yoki harakatsizligining ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish; ikkinchidan, qishloqho'jaligidagi yuridik va jismoniy shaxslarning mol - mulki va etkazilgan zararni o'zvaqtida qoplash orqali amalga oshirilib, muhim ahamiyatga egadir.

Qonun osti me'yoriy xujjatlarining agrar munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati.

Konstitutsiyaviy qoidalar va agrar munosabatlarni bevosita tartibga solishga qaratilgan qonunlarning hayotga tadbiiq etilishini ta'minlash, doimo o'zgaruvchan tabiat obektlari bilan hamohang ravishda to'ldirilib, yangilanib borish uchun qonun osti me'yoriy xujjatlari joriy etiladi. Qonun osti me'yoriy xujjatlarining asosiy maqsadi va vazifasi konstitutsiyaviy asoslar va qonunqoida talablarini har bir mintaqa, viloyat, shahar, tuman va qishloqlarning tabiiy va mahalliy xususiyat va sharoitlarini hisobga olgan holda amaliyotga qo'llashni ta'minlashdan iboratdir.

Bugungi kunda, agrar munosabatlarni tartibga solishda qonun osti me'yoriy xujjatlari tizimi quyidagilardan iboratdir:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarori;
- Qishloqho'jaligida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hisoblangan vazirlik, davlat qo'mita va idoralarining nizom, yuriqnoma va buyruqlari va boshqa me'yoriy ko'rsatmalari;

- Mahalliy davlat hokimiyat organlarining Qishloqho'jaligiga oid farmoyish va qarori;
- Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonasi, tashkilot, muassasalarning nizom, ustav va ichki xo'jalikqoidalari va boshqa xujjatlari.

Qonun osti me'yoriy xujjatlari tizimi ulkan xajmni tashkil etib, agrar munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati, o'rni, ishtiroki va usuliga ko'ra bir - biridan farqladi.

Murakkab tizimga ega bo'lgan qonun osti me'yoriy xujjatlarning amalda qo'llashni tartibga solish va ularning mazmun - mohiyatini chuqur anglash hamda urganishni osonlashtirish maqsadida shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Qishloqho'jaligida umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy xujjatlar;
2. «Lokal» ahamiyatga ega bo'lgan me'yoriy xujjatlar.

Qishloq xo'jaligi tizimida barcha vazirlik, davlat qo'mitasi, idoralar, korxonasi, tashkilot va muassasalar hamda fuqarolar uchun umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining me'yoriy xujjatlarining ahamiyati beqiyosdir.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning shakllari, tamoyillari.

Qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvining shakllari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonun va agrosanoat majmuini isloh qilishga qaratilgan dasturlar asosida belgilangan bo'lib, uch qismrga bo'linadi:

- 1) Qishloq xo'jalik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qoida - talablarni belgilash;
- 2) Qishloq xo'jalik qonunchiligi xujjatlarini ijrosini ta'minlash;
- 3) Qonunchilik xujjatlari, dasturlarda belgilangan qoida - talablar va chora - tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish, hamda tegishli choralarni belgilash.

Qishloq xo'jaligiga oid qonun, farmon, qaror va boshqa me'yoriy ahamiyatdagi xujjatlar davlat hokimiyati va ijro hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinib, barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun umummajburiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik qonunchilik xujjatlarida mustahkamlangan qoida - talablarning ijrosini ta'minlash davlat ijro hokimiyati organlarining eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib, amalga oshirilishini ko'zda tutadi.

Qishloq xo'jalik qonunchilik xujjatlari qoida talablarini barcha vazirlik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va tegishli chora - tadbirlarni belgilash bilan

bog'liq davlat organlarining kafolatlab, ijtimoiy adolatni ta'minlash va ishlab chiqarish subektlarning haq - huquqlarini himoyalashga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligini tartibga soluvchi davlat organlari tizimi ularning asosiy yo'nalishlari.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining agrosanoat majmuida olib borayotgan faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va xususiyatlariga qarab, ularni 2 qismga bo'lish mumkin.

Umumiy vakolatli davlat organlari,

Maxsus vakolatli davlat organlari.

Qishloq xo'jaligida umumiy vakolatli davlat organlari quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

3. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi

4. Mahalliy davlat hokimiyati organlari

Respublika Parlamentining agrosanoat majmuini tartibga solishga qaratilgan faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlardan iboratdir:

1. Agrar munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan qonun xujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish;

2. Qishloq xo'jalik qonun xujjatlari qoida - talablarining vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning viloyat, tumanlarda amalga oshirilishi yo'zasidan parlament nazoratini olib borish;

3. Qishloq xo'jaligini ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan davlat Dastur va kontseptsiyalarini tasdiqlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyati bilan bog'liq boshqa vakolatlar.

Davlatimiz Asosiy qonunining 89 - moddasiga asosan: O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'idir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ijro hokimiyatining Markaziy organlari sifatida qabul qilingan qonun xujjatlari hamda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy - madaniy isloxlarni rivojlantirishga qaratilgan Dastur va rejalarni hayotga tadbiq etish faoliyatini quyidagi yo'nalishlarida amalga oshiradi:

yagona davlat agrar siyosatini olib borish;

agrar islohotlarni rivojlantirish yuzasidan qonun osti me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish;

agrosanoat majmuidagi vazirlik, davlat qo'mitasi, idoralar hamda kontserni, kompaniyalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

agrar qonunchilik xujjatlarining bajarilishi yo'zasidan davlat nazoratini tashkil qilish;

agrosanoat majmuida bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini tadbiq etishda yuridik va jismoniy shaxslar uchun etarli shart - sharoitlar yaratish ularning huquqlarini kafolatlash;

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish zarur moddiy - texnika, moliyaviy resurslarini taqsimlanishini yo'lga quyish;

Qishloq xo'jaligida bozor infrastrukturasi yaratish, aholining ijtimoiy muxofaza qilish;

Qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllari va tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab quvvatlash va boshqalar.

Umumiy vakolatli davlat organlari tizimida mahalliy davlat hokimiyat organlari muxim ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradilar:

Agro sanoat majmuini rivojlantirishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy - madaniy sohalarida chora - tadbirlarni amalga oshirish;

o'z hududi doirasida umumijammiy ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jalik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan me'yoriy xujjatlarni qabul qilish;

Qishloq xo'jaligiga muljallangan erlarning unumdorligini oshirish, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish buyicha hududiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

er resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muxofaza qilish yo'zasidan davlat nazoratini amalga oshirish;

er tuzish, er monitoringini o'tkazish va davlat er kadastrini yuritishni tashkil etish;
yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jalik maqsadlari uchun egalik qilish, foydalanish uchun er ajratib berish;

Qishloq xo'jalik korxonalari va xo'jalik faoliyatini olib borayotgan shaxslarga zarur shart - sharoitlarni ta'minlash va boshqalar.

Agrosanoat majmuini davlat tomonidan tartibga solishda maxsus vakolatli davlat organlari quyidagilar hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi;

O'zbekiston Respublikasining Er resurslari davlat qo'mitasi;

O'zbekiston Respublikasining Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi va boshqa faoliyatli xo'jaligi bilan davlat organlari

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

mulk munosabatlarini takomillashtirish davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish mehnatni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish ;

bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi rivojlantirish, qishloq xo'jaligi korxonalari soliq, moliya tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi shirkat xo'jaligi, dehqon fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish - xo'jaliklarining ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyati uchun zarur shart - sharoitlar yaratish;

Qishloq xo'jaligida yuqori sifatli texnologiya va boshqa investitsiya vositalarini jalb qilish agrar sohada ilmiy - texnikaviy va yutuqlarni jahon tajribasini joriy etish;

Qishloq xo'jaligida er, suv, o'simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanishni tashkil etish, ularni muhofaza qilish chora - tadbirlarini ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligisohasining chorvachilik, paxtachilik, gallachilik, pillachilik kabi asosiy tarmoqlarida maxsulotni etishtirish, yig'ib terib olish, qayta ishlash, ichki va tashqi bozorga olib chiqish jarayonlariga umumiy rahbarik qilish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Er resurslari davlat qo'mitasi alohida o'ringa egadir. Ushbu davlat organi Vazirlar Mahkamasining 27 iyul, 1998 yil, 314 - sonli "O'zbekiston Respublikasi Er resurslari davlat qo'mitasi haqida"gi Nizomi asosida ish olib boradi.

Qishloq xo'jaligi sohasida O'zbekiston Respublikasi Er resurslari davlat qo'mitasi quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi:

Qishloq xo'jaligiga muljallangan erlarni muxofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini yurg'izish;

er qonunchiligida belgilangan tuproq unumdorligini oshirish, erlardan oqilona foydalanish va muxofaza qilish yuzasidan chora - tadbirlarni barcha vazirlik, idoralar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilishini nazorat qiladi;

er tuzish, erdan foydalanish va ularni muxofaza qilishni tashkil etish, er resurslarini hisobini yuritish va baholash, ekologik muhit va tabiiy landshaftlarni yaxshilash bilan bog'liq kompleks chora - tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

Qishloq xo'jaligiga muljallangan erlarning holatiga ta'sir kursatuvchi omillarni kuzatish maqsadida er monitoringini olib borish;

davlat er kadastrini yuritish va tashkil etish, er uchun to'lanadigan haq miqdorini asoslash, xo'jalik faoliyatiga baho berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Mahalliy davlat hokimiyat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarni er to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Ushbu davlat qo'mitasi tizimi Markaziy devon, viloyat er resurslari boshqarmasi, tuman er resurslari xizmatidan iborat bo'lib, qishloq xo'jaligiga muljallangan erlarni muxofaza qilish, ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi ijtimoiy - iqtisodiy va statistika sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi

hisoblanib agrosanoat majmuida islohatlarni rivojlantirishda muhim vazifalarni amalga oshiradi.
Qishloq xo'jalig korxonalarining huquqiy holati.

Qishloq xo'jalik korxonalarining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39 - 72 - moddalarida yuridik shaxslarni huquqiy maqomiga taaluqliqoidalarga muvofiq belgilanadi. Bundan tashkari korxonalarining huquqiy holatiga oid normalar «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Xo'jalik jamiyatlar va shirkatlar to'g'risida»gi, «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlari va boshqa qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39 - moddasiga muvofiq o'z mulkida xo'jalik yuritishda alohida mol - mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yo'zasidan ushbu mol - mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Barcha korxonalarini, shu jumladan qishloq xo'jaligi korxonalarini huquqiy holati shu talabdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yuridik shaxslar Fuqarolik kodeksining 40 - moddasiga muvofiq tijorat yoki tijoratchi bo'lmagan tashkilotlarga bo'linadi. Foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilot tijoratchi deb hisoblanadi. Barcha qishloq xo'jaligi korxonalarini «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi Qonunning 1 - moddasiga, «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi Qonunning 1 - moddasiga, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunning 1 - moddasiga va boshqa qonun xujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligi maxsulotlarini tovar ishlab chiqish va ularni sotish natijasida foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilganlari uchun tijoratchi tashkilotlar qatoriga kiradilar.

Korxonaning boshqaruv organlarini shartli ravishda uchta guruxga bo'lsa bo'ladi - oliy organi (qatnashchilarning umumiy yig'ilishi, mulkdor), ijroya organlari (boshqaruv, direktsiya, rais, direktor), taftish organlari (taftish komissiyasi, taftishchi).

Korxonaning muassislari bir necha shaxsdan iborat bo'lgan hollarda (qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), aktsiyadorlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat) korxonaning oliy organi uning a'zolarini (qatnashchilarini) umumiy yig'ilishi shaklida tashkil etiladi. Xususi korxonalarda esa oliy organ vakolatini korxonaning mulkdori shaxsan o'zi amalga oshiradi.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)da ijroya shirkat boshqaruvi tashkil etiladi. Boshqa birgalikdagi mulkka asoslangan korxonalarda ijroya organi sifatida boshqaruv yoki direktsiya yoxud direktor lavozimi muassislarning qaroriga binoan korxonaning ustavida belgilanadi.

Taftish organi korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan nazorat qilish maqsadida tashkil etiladi. Taftish organi kollegial organ - taftish komissiyasi ravishda yoki yakka shaxs - taftishchi sifatida tashkil etilishi korxonaning ustavida belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini qonun xujjatlari, o'z ustavi va boshqa ichki xujjatlarga asosan mehnatni erkin ravishda tashkil etadilar.

Qishloq xo'jaligida mehnatni tashkil qilishni yana bir asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)da ustuvor ravishda mehnatni oilaviy (jamoat) pudrati asosida tashkil etilishi.

«O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi Qonunning 18 - moddasiga muvofiq hamma turdagi korxonalarda xo'jalik faoliyatini moliyaviy natijalarini umumlashtiruvchi asosiy ko'rsatkich foyda (daromad)dir. Olingan foyda (daromad)dan korxonalar qonun xujjatlari belgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy tulovlar tulaadi, qolgan qismini esa uning ustavida belgilangan tartibda ishlab chiqarishni rivojlantirishga, korxonaning jamgarmalarini tashkil etishga yo'naltiriladi korxonalar muassislari orasida taqsimlanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida daromadni taqsimlashni asosiy xususiyati bo'lib uning yil yakunida taqsimlanishi hisoblanadi.

Muassislar orasida foyda (daromad)ni taqsimlash qishloq xo'jalig ishirkatlarida uning a'zolarini mulkiy paylari miqdoriga mutanosib taksimlanadi («Qishloq xo'jaligikooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonunning 19 - moddasi), aktsiyadorlik jamiyatlarida aktsiyalarning soni va ularning turiga mutanosib taksimlanadi («Aktsiyadorlik jamiyatlar va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunning 53 - moddasi).

Korxonalar va davlat orasidagi munosabat qonun xujjatlari asosida tartibga solinadi. Bunda, davlat korxonani huquqlarini va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishni kafolatlaydi. Korxonaning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatiga davlat organlarini va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarni aralashishiga yul kuyilmaydi. Davlat va uning organlari korxonaning majburiyatlari buyicha javob bermaydi, korxonalar esa davlat va uning organlarining majburiyatlari buyicha javob bermaydi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari korxonaga daxldor qarorlar qabul qilishchog'ida va o'zlarining shu korxonalar bilan munosabatlarida qonun xujjatlariga rioya etilishi uchun javobgardirlar. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari fakat qonunlarda belgilangan asoslar va tartibda korxonaga kursatma berishlari mumkin. Davlat organlari qonun xujjatlari talablariga mos kelmaydigan xujjatlarni qabul qilgan takdirda korxonalar bunday xujjatni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risida ariza bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Davlat organlari yoki uning mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti - harakatlari okibatida korxonalariga etkazilgan zarar ular tomonidan tulanishi shart («O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi qonunning 31 - moddasi).

Korxonalar belgilangan tartibda statistika hisobotini va buxgalteriya hisobini tegishli davlat soliq, statistika va boshqa organlariga taqdim etishi shart («O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi qonunning 33 - moddasi, «Qishloq xo'jaligikooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi Qonunning 29 - moddasi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunning 30 - moddasi).

Korxonalarni, shu jumladan qishloq xo'jaligi korxonalarini tugatish yoki qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49 - 57 - moddalarida, «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi Qonunning 38 - 40 - moddalarida, «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi Qonunning 30 - moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligikorxonaning qayta tashkil etilishi –qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi. Korxonani qayta tashkil etish uning muassislari (ishtirokchilari) yoki ta'sis xujjatlarida vakil qilingan organ qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qonunda belgilangan hollarda korxonani bo'lish vakolatli davlat organi yoki sud qarori bilan amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligikorxonasini qo'shib yuborishda ikkita yoki undan ortiq korxonalar bitta korxonalar aylantiriladi, masalan, ikkita fermer xo'jalik bitta fermer xo'jalikka qo'shiladi. Korxonani qo'shib olishda korxonalariga boshqa korxonalar qo'shib kirib ketadi, masalan, shirkat xo'jaligiga fermer xo'jaligi qo'shib olinadi. Korxonani bo'lishda bitta korxonalar ikkita va undan ortiq korxonalar bo'linadi. Ajralib chiqishda esa korxonalar tarkibidan boshqa korxonalar ajralib chiqadi, masalan, qishloq xo'jaligishirkatining chorvachilik fermasi negizida fermer xo'jaligi tashqil etilganda. Korxonani o'zgartirishda uning tashqiliy - huquqiy shakli o'zgaradi, masalan, davlat xo'jaligi davlat tasarrufidan chiqarish natijasida qishloq xo'jaligishirkatiga yoki aktsiyadorlik jamiyatga aylantiriladi.

Korxonalarining huquqiy holatini belgilovchi xususiyatlardan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligikorxonalarini quyidagi tushunchasini berish mumkin.

Qishloq xo'jaligikorxonasi bu yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulk huquqi yoki xo'jalik yuritish huquqi yoxud operativ boshqarish huquqi buyicha qarashli mol - mulkdan foydalanish asosida qishloq xo'jaligi maxsulotini ishlab chiqaradigan va sotadigan, qishloq joylarda ishlarni bajaradigan, xizmat kursatadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subekthi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini mol - mulkdan foydalanish va tashqiliy huquqiy shakliga karab quyidagi turlarga bo'linadi:

qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi);
fermer xo'jaliklari;
qishloq xo'jaligidagi aktsiyadorlik jamiyatlari;
davlat qishloq xo'jaligi korxonalari;
dehqon xo'jaliklari;
qishloq xo'jaligida xususiy korxonalari;
qishloq xo'jaligidagi boshqa korxonalari.

qishloq xo'jaligi maxsuloti ishlab chiqaruvchilarni quyidagilarga bo'lish mumkin: yirik tovar ishlab chiqaruvchilar - qishloq xo'jaligishirkatlari va boshqa yirik korxonalar, urta tovar ishlab chiqaruvchilar - fermer xo'jaliklari va mayda tovar ishlab chiqaruvchi - dehqonxo'jaliklari. Kodeksda ushbu xo'jalik yurituvchi subektlarga er berishning asosiy shartlari belgilangan.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning huquqiy holati

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) tovar, qishloq xo'jaligimaxsuloti etishtirish uchun paychilik va asosan oila (jamo) pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqilxo'jalik yurituvchi subektidir.

Qishloq xo'jaligikooperativi (shirkat xo'jaligi) Qishloq xo'jalik korxonalarining bir turi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 18 martdagi «1998 - 2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligiiqtisodiy isloxotlarni chukurlashtirish dasturi to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq paxta va don ishlab chiqarish buyicha mutaxassislashtirilgan korxonalar sifatida tashqil etish ko'zda tutilgan.

Qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) faoliyati quyidagi printsiplarga asoslanadi:

kooperativga (shirkatga) a'zolikning ixtiyoriyligi va undan erkin chiqish mumkinligi;

kooperativ (shirkat) faoliyatida a'zolarining o'zmehnatini bilan ishtirok etishi shartligi;

maxsulot etishtirish va mehnatni xo'jalik ichida asosan oila (jamo) shartnomasi asosida tashqil etish;

kooperativ (shirkat) a'zolarining mehnatiga ishlab chiqargan maxsuloti (bajargan ishi) xajmiga, sifatiga karab haqto'lash;

yakuniy daromadni (foydani) kooperativ (shirkat) a'zolari o'rtasida ularning mulkiy paylariga muvofiqtaqsimlash;

boshqaruvning demokratik xususiyati, qarorlar qabul qilishda huquqlar tengligi (kooperativning (shirkatniig) bir a'zosi - bir ovozga ega bo'lishi);

kooperativ (shirkat) ustavida nazarda tutilgan tartibda uning ishi ustidan kooperativ (shirkat) a'zolarining nazorat qilishi;

er uchastkalaridan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish, erlarning muxofaza qilinishini va tuproq unumdorligining oshirilishini ta'minlash.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) oldingi kolxozlarda (jamo xo'jaliklardan farki shirkat a'zolari xo'jalik mol - mulkidagi real ulushini pay tarikasida belgilanishidan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) faoliyatining asosiy turi qishloq xo'jalik maxsuloti etishtirishdir. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) qishloq xo'jaligimaxsuloti etishtirish bilan bir qatorda kooperativning (shirkat xo'jaligining) o'z hududida ham, shuningdek undan tashkarida hamqishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash, oziq - ovqat maxsulotlari, halq iste'mol mollari, ishlab chiqarish - texnika ahamiyatiga ega bo'lgan maxsulotlar ishlab chiqarish, savdo - sotik, ta'mirlash va kurilish ishlari, yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat kursatish, shuningdek qonunlarda takiklanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shugullanishga haqli.

Yuqorida qayd qilingan faoliyat turlari shirkatning ustavida ko'zda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Shirkatning a'zolar soni «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi

Qonunning 5 - moddasi ikkinchi qismriga muvofiqq cheklanmagan. Ammo shirkat xo'jaligi a'zolari sonini belgilashda har bir gektarga tugri keladigan ish kuchi soniga karab turib, mehnat samaradorligini oshirish maqsadida belgilash tavsiya etilgan.

Shirkat a'zosi bo'libo'n olti yoshga to'lgan shirkat ustavini tan oluvchi va o'ning talablariga rioya etuvchi shirkat faoliyatida va uning jamgarmalarini shakllantirishda ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar qishloq xo'jaligi shirkatining a'zosi bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el davlatining fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham shirkat a'zosi bo'lishi mumkin.

«Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonunning 7 - modda ikkinchi qismriga muvofiqq shirkatning jamoa a'zolari sifatida yuridik shaxslarni qatnashishi ko'zda tutilgan. Boshqaqishloq o'jaligikorxonalari, shu jumladan fermer xo'jaliklari va yuridik maqomiga ega bo'lgandehqonxo'jaliklar shirkatning jamoa a'zosi sifatida xo'jalikni ishlab chiqarish faoliyatida qatnashishi mumkin. Shirkat va uning jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartnoma asosida tartibga solinadi.

Shirkatga a'zolikning asosiy talabi shirkatning faoliyatida qatnashishiga qaramasdan qonun jismoniy shaxslar uchun shirkatga a'zolikni saqlab qolish hollarini ko'zda tutadi. Bu hollar quyidagilardir: haqiqiy muddatli harbiy xizmatni utayotgan vaqtda; davlat va jamoa organlariga saylab ko'yiladigan lavozimga saylangan muddatga; ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish vaqtiga; boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga shirkat xo'jaligi boshqaruvi tomonidan belgilangan muddatga yullanganda.

Shirkat xo'jaligi a'zolari qarilik yoki nogironlik buyicha pensiyaga chiqsalar, umumiy majlis qarori bilan ularning a'zoliklari saqlanib qolinishi mumkin.

Shirkat xo'jaligining boshqaruv organlari oliy (umumiy majlis), ijroya (boshqaruv, rais) va nazorat (taftish komissiyasi yoki taftishchi) organlariga bo'linadi.

Shirkat xo'jaligining umumiy majlisida barcha shirkat a'zolari qatnashishga haqlidir. Shirkat xo'jaligining a'zolarining umumiy yigilishida ovoz berishning xususiyati shundan iboratki, boshqaxo'jalik jamiyatlaridankfarqqilgan holda har bir a'zo, shu jumladan jamoa a'zosi mulkiy payning mikdoridan qat'iy nazar bitta ovozga ega bo'lishidir. Umumiy majlis har yili moliya yili tugaganidan keyin utkaziladi (navbatdagi umumiy majlis). Shirkat xo'jaligi boshqaruvining yoki raisining qaroriga binoan yoki shirkat a'zolarining kamida undan bir qismi tashabbusi bilan umumiy majlis chakirilishi mumkin (navbatdan tashkari umumiy majlis).

Shirkat xo'jaligining joriy faoliyatiga boshqaruv va rais rahbarik qiladi. Boshqaruv kollegial organ hisoblanib, uning a'zolari shirkat ustavida ko'zda tutilgan muddat va son mikdorida umumiy majlis tomonidan saylanadi.

Shirkat xo'jaligining mustaqilk balansida aks ettirilgan asosiy jamgarmalar, aylanma mablaglar hamda boshqa boyliklar shirkatning mol - mulkini tashqil etadi.

Shirkat xo'jaligining mol - mulkini huquqiy holatini xususiyati bo'lib, uni pay va bulinmas jamgarmalariga taksimlanishidir. Bulinmas jamgarmasini shakllantirishdan maqsad shirkat xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini, irrigatsiya inshootlarini saqlash va yangi inshootlarni kurish, texnika olish, tuproqnumdorligi oshirish tadbirlarini utkazishni ta'minlashdir. Bulinmas jamgarma shirkat ustav fondini 40 foizdan kam bo'lmagan mikdorda tashqil etilishi lozim.

Qishloq xo'jaligidagi aktsiyadorlik jamiyatlarining huquqiy holati

Qishloq xo'jaligi maxsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar aktsiyadorlik jamiyati shaklida tashqil etilishi mumkin. Aktsiyadorlik jamiyati deb ustav fondi jamiyatning aktsiyadorlarga nisbatan huquqlari va majburiyatlarini tasdiklovchi muayyan mikdordagi aktsiyalarga taksimlangan xo'jalik yurituvchi subekthisoblanadi.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi, «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlari va boshqaqonun xujjatlari bilan belgilanadi.

Aktsiyadorlik jamiyati ochiq, ya'ni aktsiyalari erkin muomalada bo'ladigan yoki

aktsiyalari belgilangan muayyan shaxslar, asosan muassislar orasida taksimlanadigan, ya'ni yopik turda bo'lishi mumkin. Yopik turdagi jamiyatning muassislari kamida uch shaxsdan iborat bo'lishi lozim. Aktsiyadorlik jamiyat aktsiyadorlarining minimal va maksimal soni boshqacha tarzda cheklanmaydi. Aktsiyadorlik jamiyat yangidan ta'sis etilishi yoki mavjud yuridik shaxsni qayta tashqil etish yuli bilan to'z qilishi mumkin. Jamiyatni ta'sis etish to'g'risidagi qaror muassislarni ta'sis yigilishi tomonidan qabul qilinadi. Qonunga muvofiq jamiyat davlat korxonasi qayta tashqil etilayotganda, chet el investorlari ishtirokida jamiyat to'z qilganda va boshqa hollarda o'z gacha qoidalar belgilanishi mumkin.

Jamiyatning ta'sis yigilishida uning ustavi tasdiklanadi, ustav fondining miqdori va uni aktsiyalarga bulinishi, aktsiyalarni xillari va turlari hamda soni belgilanadi, jamiyatning boshqaruv organlari saylanadi.

Aktsiyadorlik jamiyat Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 22 martdagi 153 - sonli qarori bilan tasdiklangan «Xo'jalik birlashmalarini davlat ruyxatidan utkazish haqida»gi Nizom (KT, 1994 yil, № 3, 18 - modda) bilan ko'zda tutilgan tartibda davlat ruyxatidan utkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Aktsiyadorlik jamiyatga tegishli bo'lgan barcha mol - mulk uning ustav fondini tashqil etadi. Jamiyatning ustav fondi aktsiyadorlar sotib olgan jamiyat aktsiyalarining nominal kiymatidan tashqil topadi.

Qishloq xo'jaligida aktsiyadorlik jamiyatlaridan tashkari mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar tashqil etilishi mumkin. Ushbu jamiyatlar quyidagi xususiyatlarga egadirlar: ularning bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilishi; ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan ulushlarga bo'linishi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning a'zolari jamiyat qarzari buyicha faqat ularning ustav fondida ulushlariga mutanosib ravishda javobgar bo'ladilar. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat qatnashchilari esa uning majburiyatlari buyicha o'z mol - mulki bilan qo'shgan xissalari kiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan jamiyatning ta'sis xujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarning ta'sis xujjatlari bo'lib ta'sis shartnoma va ustav hisoblanadi. Ta'sis shartnoma jamiyat qatnashchilari tomonidan to'z qiladi va unda jamiyatning turi, uning faoliyat predmeti, maqsadlari va muddati, qatnashchilarning tarkibi, ustav fondining miqdori va uning shakllantirish tartibi, daromadlarni taqsimlash va boshqa qoidalar kiritiladi. Jamiyat ustavida Fuqarolik kodeksining 43 - moddasida va «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida»gi Qonunning 3 - moddasida ko'zda tutilgan ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Xo'jalik jamiyatini ustav fondi eng kam ish haqining ellik baravaridan kam bo'lishi mumkin emas. Jamiyat davlat ruyxatiga olish sanasigacha har bir qatnashchi o'z ulushining 30 foizidan kam bo'lmagan miqdorni ustav fondga, kolgan qismrini esa jamiyat ruyxatga olingandan keyin bir yil davomida kiritishi lozim. O'z ulushini tulik kiritgan jamiyat a'zosiga kimmatli kogoslar toifasiga kirmaydigan guvoxnoma beriladi. Jamiyat qatnashchilari boshqa qatnashchilarning roziligi bilan o'z ulushini (ulushining bir qismrini) shu jamiyatning bir yoki bir necha qatnashchisiga yoxud uchinchi shaxslarga jamiyatning ta'sis xujjatlarida va qonun xujjatlarida belgilangan tartibda berishi mumkin.

Ijara jamoasining huquqiy holati.

Ijara jamoalarini tuzish O'zbekiston Respublikasining «Ijara to'g'risida»gi, «Mulkchilik to'g'risida»gi, «Korxonalar to'g'risida»gi, «Er to'g'risida»gi va boshqa qator qonun xujjatlari talablari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Ijara to'g'risida»gi Qonunining 20 - moddasida kursatilishicha, korxonalar yoki uning tarkibiy birligi mehnat jamoasi uning asosida ijara korxonasini barpo etish uchun ijarachilar jamoasini to'zishga haqlidir. Ijarachilar jamoasi va uning boshqaruv idoralarini to'zish to'g'risidagi qaror mehnat jamoasining qaror qabul qilishga vakolati bo'lgan umumiy yigilishi (konferentsiyasi)da hozir bo'lganlarning uchdan ikki qismri yoklab ovoz bergan takdirda qabul qilinadi., ijara jamoasi qonunda

belgilanishicha, mehnat jamoalarining o'zlari tomonidan mustaqil ravishda, o'z xoxishlariga binoan to'ziladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijara jamoasini to'zish uchun, anikrogi biror bir korxonani ijaraga olish uchun, qonunda yukori organning, ya'ni ijaraga beruvchi vakolatini organning roziligini olish lozimligi belgilangan. Amaliyotda shunday organ bo'lib, odatda vazirliklar, davlat idoralari hisoblanmokda, ya'ni ular ijaraga beruvchi bo'libharakatqilmoqdalar.

Ijara jamoasining asosiy xususiyati, davlat va boshqa korxonalardan asosiy farqi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, ijara jamoasi davlat, jamoa va boshqa korxonalar, muassasa, tashqilotlarning mol - mulkini ijaraga olish yuli bilan vujudga keladi. Davlat korxonalari davlat mulki asosida vujudga kelsa, kooperativlar (shu jumladan jamoa xo'jaliklari ham) ular a'zolarining paylari asosida vujudga keladi; ikkinchidan, ijara jamoalari mustaqilxo'jalik yuritish huquqiga ega bo'ladilar. Ular yukoridan xech kandy buyruk va kursatmalarni kutmasdan ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashqil etadilar. Davlat korxonalari esa bevosita davlat organlari, vazirliklarning rejaları kursatmalari asosida ishlab chiqarish faoliyatini tashqil qilishga majburdirlar; uchinchidan, ijara jamoalari ishlab chiqarilgan maxsulotlarga va ulardan olingan daromadlarga nisbatan tula mulk huquqiga egadirlar. Ular o'zlari etishtirgan maxsulotni mustaqil ayirboshlash, sotish huquqiga egadir. Davlat korxonalari esa bunday huquqga ega emas.

Fermer xo'jaliklarining huquqiy holati.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tadbirkorlik subektlari tarkibida qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) bilan bir qatorda fermer xo'jaliklari ham salmoqli o'rinni egallaydi. Sunggi yillarda O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonun bilan uning huquqiy holatida bir qator o'zgarishlar ruy berdi. Ushbu qonunning 1 - moddasiga asosan fermer xo'jaligi o'ziga o'zok muddatli ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shugullanuvchi fermer xo'jaligining a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqilxo'jalik yurituvchi subektidir.

Agar fermer xo'jaliklari to'zilishi jihatidan oddiy tartibli yuridik shaxs bo'libhisoblansa, qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) murakkab tartibli tijoratchi qishloq xo'jalik korxonasi hisoblanadi. Uning to'zilish jihatidan murakkab tarkibining moxiyati shundan iboratki, qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) ixtiyoriylik asosda birlashishida bir tomondan faqatfuqarolar qatnashsa, ikkinchi tomondan esa bir qatorhollarda yuridik shaxslar ham birlashib ishtirok etishi mumkin.

Fermer xo'jaliklarini tashqil qilishda asosan oilaviy harakterdagi a'zolik muhim ahamiyatga ega bulsa, qishloq xo'jalik kooperativiga (shirkat xo'jaligiga) birlashishida esa bir oiladek bo'lishi shart emas. Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) va ularning jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabat shartnoma asosida belgilanishi nazarda tutilsa, (qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risidagi qonunning 7 - moddasi) fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni oilaviy tashqil qilishda xukmron bo'lganligi sababli bunday shartnomani to'zish qonunda ifoda etilgan.

Fermer xo'jaliklari agrar, fuqarolik, er, moliya huquqiy munosabatlarning va qishloqxo'jaligida tadbirkorlikning mustaqil tashqiliy - huquqiy shakli sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

birinchidan, qishloq xo'jalik va u bilan bog'liq faoliyatni o'zini mujassamlashtirgan uchta komponentni mulkiy tomorka uchastkasi va fuqaroni o'zida ifoda etadi;

ikkinchidan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lganmustaqilxo'jaliksubekti sifatida huquq va majburiyatlariga egadir;

uchinchidan, tovar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini o'zok muddatli ijaraga berilgan er uchastkasida amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligining maxsus huquq layokatini amalga oshirishida uning a'zolari va boshligiga ham muayyan mas'uliyat yuklanadi. fermer xo'jaligi a'zolari bo'libxo'jalikni birga

yuritayotgan, bu xo'jalikdagi ish o'zining asosiy mehnat faoliyati joyi bo'lgan fermer xo'jaligining boshligi, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olingan bolalari, ota - onalari, boshqa karindoshlari hamda mehnatga kobiliyatli yoshga etgan shaxslar kiradi. Fermer xo'jaligida mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar fermer xo'jaligi a'zosi hisoblanmaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan shu xo'jalik boshligi ish kuradi. Fermer xo'jaligining boshligi bo'lib shu xo'jalikning un sakkiz yoshga to'lgan, Qishloqxo'jaligida tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan muomalaga layokatli a'zolaridan biri hisoblanadi. Fermer xo'jaligining boshligi bo'lish uchunqonunda 18 yosh anik qilib belgilab qo'yilgan. Dehqonxo'jaligi boshligi bo'lish uchun esa oila boshligi yoki muomalaga layokatli, a'zolaridan biri bo'lishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 28 - moddasiga asosan voyaga etmagan shaxsni tula muomalaga layokatli deb e'lon qilingan (emansipatsiya) taktirda unolti yoshga to'lgan shaxs hamdehqonxo'jaligi boshligi bo'la oladi.

Fermer xo'jaliklariga er berishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib birinchidan, fermer xo'jaliklariga zaxira erlar, maxsus respublika erlari, mehnat resurslari etarli bo'lmagan xo'jaliklardagi va yangi sugoriladigan erlardan berishni, ikkinchidan, ularga zarar kurib ishlayotgan yoki kam rentabelli qishloq xo'jaligikorxonalarining erlarini berilishini nazarda tutadi. Qonunchilikda ruy bergan eng muhim yangilik bo'libfuqarolarga fermer xo'jaligi uchuner uchastkalari ellik yilgacha bo'lgan, lekin un yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga berilishning huquqiy ifodalanganligidir.

O'zbekiston Respublikasi Er kodeksining 20 - moddasiga asosan er uchastkalaridan qisqa muddatli - uch yilgacha va o'zoq muddatli uch yildan un yilgacha bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish zaruriyati taqoza etganda bu muddatlar tegishlicha qisqa muddatli va o'zok muddatli, vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo'lmagan davrga o'zaytirilishi mumkin. Er uchastkalaridan vaqtincha foydalanish muddatlarini o'zaytirish shu uchastkalarni bergan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligiga er uchastkasi berish to'g'risidagi qarorni tuman xokimi qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat x.) umumiy majlisi qarori asosida qabul qiladi. Er uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasiqishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat x.) boshqaruvi va fermer xo'jaligi boshligi tomonidan imzolanadi. Er uchastkasini olishda mazkur joyda yashovchi shaxslar ustunhuquqdan foydalanadilar. Tuman va qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat x.) boshqaruvining er uchastkasini berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga yoki buysinuv tartibida yukori organga, mansabdor shaxsga shikoyat qilishi mumkin. Fermer xo'jaligi yuritish va qishloq aholi punktida turar joyi bo'lgan shaxslarning uy joyidagi tomorka erlar saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 martdagi «Shaxsiy yordamchi va dehqonxo'jaliklarini davlat yuli bilan kullab kuvvatlash hamda mamlakatni oziq - ovqatbilan ta'minlashda ularning rolini kuchaytirish borasidagi chora - tadbirlar to'g'risida»gi farmonda fuqarolarning yordamchi xo'jaliklarini yuritish uchun ularga ajratilib beriladigan er uchastkalarini sugoriladigan erlar hisobiga kengaytirish masalasiga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Dehqonxo'jaligi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Dehqonxo'jaliklarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, dehqonxo'jaligi yuritish oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi; ikkinchidan, dehqonxo'jaligidagi ishlab chiqarish xususiy va shaxsiy mulkchilikka asoslanadi; uchinchidan, dehqonxo'jaligiga ajratib berilgan er uchastkalariga nisbatan davlat mulkchiligi saqlanib kolinadi; turtinchidan, dehqonxo'jaliklari Qishloq aholisining daromad manbai bo'libhisoblanadi.

Dehqonxo'jaligining huquqiy maqomi 1998 yilning 30 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Dehqonxo'jaligi to'g'risida"gi qonun bilan belgilanadi. Bundan tashqari, uning huquqiy holatini belgilashda O'zbekitston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Er kodeksi, mulkchilik, tadbirkorlik va boshqaqonunlar hamalohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining" Dehqonxo'jaligi to'g'risida"gi qonunning 1 - moddasiga

asosan dehqonxo'jaligi - oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib koldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshligiga berilgan tomorka er uchastkasida qishloq xo'jaligimaxsuloti etishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqonxo'jaligi huquqiy maqomining harakterli xususiyatlaridan biri shundan iboratki, bunday xo'jalikdagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqonxo'jaligi a'zolarining istagiga kura yuridik shaxs tashqil etgan holda va yuridik shaxs tashqil etmasdan amalga oshiriladi. Qonunda kursatilishicha, dehqonxo'jaligi a'zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqonxo'jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshligi, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota - onalari, mehnatga kobiliyatli yoshga etgan boshqa karindoshlari kiradi.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda dehqonxo'jaligi nomidan shu xo'jalik boshligi ish kuradi. Dehqonxo'jaligi boshligi bo'libqonun xujjatlarida belgilangan tartibda er uchastkasiga meros qilib koldiriladigan umrbod egalik qilishhuquqi berilgan oila boshligi yoki oilaning muomalaga layokatli a'zolaridan biri bo'libhisoblanadi.

Dehqonxo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining subekti sifatida o'ziga berilgan tomorka er uchastkasida dehqonxo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini mustaqilk tashqil etish; etishtirilayotgan va realizatsiya qilinayotgan maxsulotga mustaqilk ravishda baxo belgilash; etishtirgan maxsulotni, shu jumladan bu maxsulotni iste'molchilarga o'z xoxishi buyicha realizatsiya qilishhuquqini tasarruf etish; harid etiladigan maxsulotga oldindan haq tulanadigan fyuchers bitimlari to'zish; tadbirkorlikdan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan mikdorda daromad (foyda)olish; qishloq xo'jaligimaxsuloti etishtiruvchilarga sotish uchun va erkin savdoga muljallangan aktsiyalarni sotib olish va o'z mol - mulkini, shuningdek tomorka er uchastkasiga meros qilib koldiriladigan umrbod egalik qilishhuquqini, shu jumladan kim oshdi savdosi asosida sotib olingan huquqni garovga quyish huquqlariga egadir.

Dehqonlar toifasiga quyidagilar kiradi: birinchidan, davlat qishloq xo'jalik korxonalarining ishchilari; ikkinchidan, shirkat xo'jaligi a'zolari; uchinchidan, xo'jaliklararo tashqilolarning xodimlari; turtinchidan, Agrasanoat birlashmalarining xodimlari; beshinchidan, fermer xo'jaliklarning a'zolari; oltinchidan, ijara jamoalarining a'zolari, yoki yakka tartibdagi ijarachilar va nixoyat ettinchidan, dehqonxo'jaligi a'zolari.

Fermer xo'jaligi a'zolari jumlasiga fermer xo'jaligini birgalikda yuritayotgan, bu xo'jalikdagi ish o'zining asosiy mehnat - faoliyati joyi bo'lgan fermer xo'jaligining boshligi uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan, farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olingan bolalari, ota - onalari. boshqa karindoshlari hamda mehnatga kobiliyatli yoshga etgan boshqa shaxslar kiradi.

Fermer xo'jaligida mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar fermer xo'jaligi a'zosi hisoblanmaydi. (3 - modda).

Fermer xo'jaligi a'zolari yana quyidagiqo'shimcha huquq va majburiyatlarga ega.

fermer xo'jaligi daromadlaridan o'zboshimchalik bilan o'z ulushlarini olishlari mumkin emas

har bir a'zo foydali, sifatli va samarali mehnatqilishlari lozim.

atrof - muxitni muxofaza qilishqoidalariga rioya qilishlari;

o'zlariga berilgan er uchastkalaridan oqilona, unumli foydalanishga yordam berishlari agrotexnika qoidalariga amal qilishlari shart

shuningdek ular xavfsiz mehnat sharoitlarida ishlashni fermer boshligidan talab qilishlari hammaqsadga muvofiq

Fermer xo'jaligining boshligi uning, asosiy a'zolaridan biri bo'lib, fermer xo'jaligi a'zolarining ishlarini va boshqa masalalarini kuprok hal etadi.

Dehqonxo'jaligi a'zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqonxo'jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshligi, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olingan bolalari, ota - onalari, mehnatga kobiliyatli yoshga etgan boshqa karindoshlari kiradi. (3 - modda)

demak, dehqonxo'jaligi a'zolarining o'zaro birligi, ya'ni ularni oilaviy mayda - tovar xo'jalik asosida bo'lishi;

dehqon xo'jaligi faoliyatida bevosita oila a'zolarining shaxsiy mehnati bilan qatnashishi; oila boshligiga umrbod egalik qilish uchun berilgan tomorka eriga egaligi;

berilgan va mavjud tomorka eriga qishloq xo'jaligimaxsulotlarini etishtirishi;

dehqon xo'jaligi a'zolari tomonidan etishtirilgan maxsulotlarni realizatsiya qilishlari dehqon xo'jaligi a'zolarining huquqiy holatini xususiyatlarini harakterlaydi.

Qishloqxo'jaligida ish vaqti va dam olish vaqti.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ish vaqti va dam olish vaqti O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, shirkat xo'jaliklarining Na'munaviy Ustavi hamda Qishloq xo'jalik korxonalarida Ichki mehnat tartibi qoidalari bilan tartibga solinadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ish vaqti - bu qishloq xo'jalik xodimi jamoat ishlab chiqarishida sarflashi zarur bo'lgan mehnat miqdoridir. Ish vaqtini me'yorlash qishloq xo'jalik xodimi o'z ish joyida bo'lishga va o'z vazifasini vijdonan bajarishga majbur bo'lgan vaqt davrlari bilan belgilanadi. Ish vaqtining normal muddati O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga ko'ra xaftasiga 40 soatdan oshishi mumkin emas. Shu sababdan, qishloq xo'jalik korxonalarida normal ish vaqtining davomiyligi olti kunlik ish xaftasida kuniga etti soat, dam olish va bayram kunlari oldidan esa olti soat qilib belgilanadi.

Qishloqxo'jaligida ish vaqtini normalash o'ziga xos xususiyatga ega. Ishlab chiqarish zaruriyati tug'lib qolganda qishloq xo'jalik korxonalarida belgilangan ish kuni tartibi bo'zilib, ish kunining boshlanishi va tugashini o'zgartirishi, o'zaytirilishi mumkin. Ammo qishloq xo'jalik korxonalarida kunlik ish vaqtini o'zaytirish un soatdan oshib ketmasligi kerak. Uzaytirilgan ish vaqti homilador ayollar, emizikli ayollar, yosh bolasi bor ayollarga nisbatan tadbik qilinishi mumkin emas.

Dala ishlari ko'p bo'lgan davrlarda normal ish vaqtidan ortiqcha ishlagan shaxslarga, boshqa dala ishlari davrida yoki kish davrida ish kuni tegishli qisqartirilib, yillik ish vaqti urtacha normal ish vaqtidan oshib ketmasligiga erishiladi. Agar yil davomida normal ish vaqtiga erishib bo'lmasa, qishloq xo'jalik xodimiga qo'shimcha haq tulanishi mumkin

Chorvachilik va boshqa ishlab chiqarish jarayoni o'zluksiz bo'lgan ishlarda, shuningdek dolzarb qishloq xo'jalik ishlarida qatnashayotgan mexanizatorlar uchun ikki yoki uch smenali ish vaqti tashqil etilishi mumkin. Bunday hollarda ishlab chiqarish harakteriga karab mehnatni tashqil etish grafigi to'ziladi.

Qishloq xo'jalik xodimlarining ayrim toifalariga, masalan yosh bolasi bor ayollar, voyaga etmagan usmirlar, zararli mehnat sharoitlarida ishlayotgan xodimlar uchun qonunda belgilangan tartibda qisqartirilgan ish vaqti urnatilishi mumkin.

Dehqonxo'jaliklari ish vaqtini o'zlari mustaqil tarzda belgilaydilar.

Qishloq xo'jalik xodimlarining ish vaqtini me'yorlash, ularning dam olish vaqtini aniklashga yordam beradi. Qishloq xo'jalik xodimlarining dam olish vaqtlari kunlik va yillik dam olish vaqtlariga bo'linadi. Kunlik dam olish vaqtiga ish kunida dam olish vaqti; kunlik ishdan keyin dam olish; xaftalik o'zluksiz dam olish vaqti; ortiqcha ishlagan vaqti uchun qo'shimcha dam olish; bayram kunlari dam olish vaqti kiradi. Yillik dam olish vaqtiga esa asosiy va qo'shimcha ta'tillar kiradi.

Qishloq xo'jalik ishlari kizgin paytlarda qishloq xo'jalik xodimlarining dam olish vaqtlarini ish kam paytlarga kuchirish mumkin.

Qishloq xo'jalik xodimlarining dam olish kunlari haq tulanadigan yillik ta'tillar berish bilan ham kafolatlanadi. Qishloq xo'jalik xodimlarining yillik haq tulanadigan ta'tillari davomiyligi 24 ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

Ayrim toifadagi Qishloq xo'jalik xodimlariga qo'shimcha ta'tillar ham berilishi mumkin. Masalan, qishloqxo'jaligida ishlayotgan traktorchi ayollarga qo'shimcha ta'til 12 kungacha o'zaytirilishi mumkin. 12 yoshgacha ikki va undan ortiq bolasi bor ayollarga uch kunlik qo'shimcha haq tulanadigan ta'til beriladi. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda uqiyotgan qishloq xo'jalik xodimlariga ham qo'shimcha ta'tillar berishda bir qator imtiyozlar belgilangan.

Qishloq xo'jaligida mehnatni muxofaza qilish.

Davlat qishloq xo'jalik korxonalarida mehnatni muxofaza qilishni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi muhim rol uynaydi. Ushbu qonunlar majmuining 211 - moddasida urnatilishicha, barcha korxonalarda xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi.

Ushbu qonunga ko'ra, xodim mehnatni muxofaza qilish normalariga, qoida va yuriknomalariga, shuningdek ma'muriyatning ishni bexatar olib borish haqidagi farmoyishlariga rioya qilish, olingan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, insonlar hayoti va sogligiga bevosita xavf soladigan har kanday holathaqida o'zining bevosita raxbarini darhol xabardor qilish shart (212 - m)

Qishloq xo'jalik korxonalarida xavfsiz mehnat sharoitini tashqil etish uchun davlat va boshqa jamoa xo'jaliklari rahbarari javobgar bo'ladilar. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 211 - moddasida belgilanishicha, ish beruvchi mehnatni muxofaza qilish talablarini bo'zganlik uchun javobgarbo'ladi. Ish beruvchi mehnat sharoitlari to'g'risida, shu jumladan kasb kasalliklari va boshqa kasalliklarga chalinish extimoli, shu bilan bog'liqholda unga beriladigan imtiyoz va kompensatsiya lar, shuningdek shaxsiy himoya vositalari haqida xabardor qilinishi kerak (213 - modda)

Bundan tashqari, qishloq xo'jalik korxonalarini rahbarari quyidagi xodimlarni mehnat shartnomasi tuzish chog'ida va keyinchalik vaqti - vaqti bilan tibbiy kurikdan utkazishni tashqil qilishlari shart: un sakkiz yoshga tulmaganlarni; oltmish yoshga to'lgan erkaklar, ellik besh yoshga to'lgan ayollarni; nogironlarni; mehnat sharoiti nokulay ishlarda, tungi ishlarda, transport harakati bilan bog'liq ishlarda band bo'lganlarni va boshqalar.

Shirkat xo'jaliklarida shirkat xo'jaligi Na'munaviy Ustaviga binoan mehnatni muxofaza qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilash, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi buyicha tadbirlar utkazishga va maxsus kiyim va poyabzal, himoya moslamalarini sotib olishga mablag ajratadi.

Shirkat xo'jaligi mehnatni muxofaza qilish buyicha o'z majburiyatlarini, fermelar, ustaxonalar, garajlar, omborxonalar va inventarlar bilan jixozlaydi, ichki xo'jalik bulinmalarini va shirkatxo'jaligi a'zolarini xavfsizlik texnikasi buyicha adabiyotlar va kurgazmali kurollar bilan ta'minlaydi, shirkat xo'jaligi a'zolarini ukitish va instruktaj utkazish ishlarini amalga oshiradi, hamda ularning xavfsizlik texnikasi buyicha bilimlarini tekshirib turadi.

Shirkat xo'jaligi a'zosining sogligini muxofaza qilish uchun kirish instruktaji, ish joyida instruktaj, va ukitish ishlari olib boriladi. Xavfsizlik texnikasi buyicha kirish instruktaji quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi lozim: ichki tartib qoidalari; shirkat xo'jaligi a'zosining xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi buyicha qoida va normalarni bajarish yo'zasidan majburiyati; xo'jalikhududida yurganda extiyot bo'lish shartlari; elektr xavfsizligining umumiy qoidalari; ayollar va usmirlarning mehnatini muxofaza qilish.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ayollar va usmirlar mehnatini muxofaza qilishga alohida e'tibor karatiladi. Ayollarning ular uchun mumkin bo'lgan normadan ortiq yukni kutarishlari va tashishlari man etiladi. Ayollar mehnatini kullanish ta'kiklanadigan mehnat sharoiti nokulay ishlarning ruyxatini O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Soglikni saqlash vazirligi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining maslaxatini olgan holda tasdiklaydi.

Xomilador ayollarning ishlab chiqarish normalari kamaytirilib, ularning urtacha oylik ish haqi saqlanadi. 2 yoshga tulmagan bolasi bor ayollar urtacha ish haqi saqlangan holda engilrok ishga utkaziladi. Xomilador ayollarni va un turt yoshga tulmagan bolasi bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yul kuyilmaydi.

Xomilador ayolning, 14 yoshga tulmagan bolasi bor ayolning iltimosiga kura unga tuliksiz

ish kuni belgilanishi mumkin.

Shu bilan birga voyaga etmagan qishloq xo'jalik xodimlarini veterinariya - sanitariya, nasldor otlarni bokish, Qishloq xo'jalik mashinalarini pritsepchisi, kuduklarda ishlashi va boshqa zararli ishlarda ishlashi mumkin emas. Voyaga etmagan usmirlarni zaharli ximiyaviy moddalar bilan bog'liq ishlarda, kechasi bajariladigan ishlarda ishlatish ham mumkin emas. Voyaga etmaganlar uchunqisqartirilgan ish kuni belgilanadi va ularni normadan tashqari ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

Mehnatni muxofaza qilish qonunlarini buzgan mansabdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy, jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muxofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 28 - moddasida kursatilishicha, ma'muriyatning aybi bilan ishlab chiqarishda baxtsiz xodisa yoki kasb kasalligi natijasida mehnat kobilyatini tulik yoki qismran yukotgan xodimga korxonada bir marta beriladigan nafaka tulaydi hamda sog'likka etkazilgan shikast uchun tovon tulaydi. Bir marta beriladigan nafaka mikdori jabrlanuvchining bir yillik maoshidan kam bo'lmasligi lozim. Agar xodim davolanish, protez kuydirish va tibbiy yordamning boshqa turlariga muxtoj bulsa, korxonada jabrlangan xodimga bu tadbirlar bilan bog'liq harajatlarni tulaydi hamda jabrlanuvchining kasbini o'zgartirib qayta tayyorlanishni va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishni ta'minlaydi yoki ana shu maqsadlar uchun ketadigan harajatlarni koplaydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisa okibatida xodim vafot etgan takdirda korxonada xodimning karindoshlariga moddiy ziyonni hamda bir marta beriladigan nafakani tulaydi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnat intizomi.

Mehnat intizomi deganda qishloq xo'jalik korxonalarida xodimlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa me'yoriy xujjatlar, qishloq xo'jalik korxonalarida ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilab qo'yilgan burchlariga ogishmay rioya qilish majburiyatlari tushuniladi. Mehnat intizomi tushunchasi o'z ichiga qishloq xo'jalik xodimlarining o'ziga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishi, mehnatga halol munosabatda bo'lishi, mehnat natijalarining sifat va samaradorligiga erishishi kabilarni qamrab oladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnat intizomi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, Kolxozlarning Na'munaviy ustavi, har bir korxonaning ichki mehnat tartibi qoidalari bilan tartibga solinadi. Bu me'yoriy xujjatlarda qishloq xo'jalik korxonalarida xodimlarining burchlari, mehnat intizomini ta'minlash choralari, ragbatlantirish, intizomiy jazolar kabi munosabatlar tartibga solingan.

Mehnat intizomini ta'minlash halol mehnat uchun ragbatlantirish va mukofotlash usullari orkali, noinsof xodimlarga nisbatan esa jazo choralari qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Xodimni ragbatlantirish usullari jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa kelishuvlari, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda belgilanadi. Ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha tulovlar, ustamalar ragbatlantirish turlariga kirmaydi.

Mehnat intizomini ta'minlash maqsadida xodimga mehnat intizomini bo'zganligi uchunquyidagi intizomiy jazo choralari qo'llash mumkin: 1) Xayfsan; 2) urtacha oylik ish haqining 20%dan ortiq bo'lmagan mikdorida jarima; 3) mehnat shartnomasini bekor qilish.

Intizomiy jazo choralari qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi (182 - modda), Qishloq xo'jalik kooperativlarining Na'munaviy ustavi (- band) hamda qishloq xo'jalik korxonalarining ichki tartib qoidalarida belgilangan.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnatga haq to'lashni huquqiy tartibga solish.

Qishloq xo'jaligi xodimlari mehnatiga haq to'lashni huquqiy tartibga solish halq xo'jaligining boshqa tarmoqlari sanoat, kurilish, transport yoki boshqa sohalaridagidan uncha kattak farq qilmaydi va umumiy bo'lgan mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ammo shu bilan birga ushbu tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi muayyan farqlarni ham kuzatish mumkin.

Eng avvalo qishloq xo'jaligi korxonalarida mulkchilik shakli xilma - xilligiga asoslangani holda ikki turdagi mehnat faoliyatiga: nodavlat qishloq xo'jaligi korxonasi a'zosi, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), dehqon xo'jaligi, fermer xo'jaligi a'zosi sanaluvchi

shaxslar mehnatiga hamda ushbu qishloq xo'jalik korxonalarida yollanib ishlayotgan, mehnat shartnomasi to'zgan xodimlar mehnatiga tayanish e'tiborga olinmog'i lozim.

Bunda qishloq xo'jaligi korxonasi muassasalari., a'zolari mehnatiga haq to'lash tegishli qonunlar ("Qishloq xo'jalik kooperativlari to'g'risidagi", "Dehqon xo'jaliklari to'g'risidagi", "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi", "Fermer xo'jaliklari to'g'risidagi") asosida, olingan foydani taqsimlash tarzida amalga oshirilishi, ular mehnatiga ushbu korxonalarining bevosita o'zida ishlab chiqilgan va qabul qilingan ichki lokal me'yoriy xujjatlar asosida haq tulanishi nazarda tutilishi kerak.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida yollanib ishlovchi xodimlar mehnati, shu jumladan ular mehnatiga haq to'lash masalalari ushbu tarmoq xususiyatlari hisobga olingani holda O'zbekiston Respublikasi "Mehnat kodeksi" hamda uning asosida qabul qilingan boshqa me'yoriy xujjatlar bilan tartibga solinadi.

Yollanib ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to'lash paytida mehnatqonunchiligi bilan belgilab qo'yilgan asosiy tamoillar: ish haqi ishning natijasiga kura eng kup mikdori chegaralanmagani holda ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida belgilanishi, mehnatga haq to'lash paytida ijtimoiy adolatning ijtimoiy himoyaga muxtoj tabakalari manfaatlarini hisobga olinishi shartligi, ish haqi to'lashda kamsitishga yul kuymasligi, qonunchilikka qat'iy rioya etilishi lozimligi kabi tamoillarga amal qilinishi lozim bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi xodimlari ish haqining manbai bo'lib ushbu soha korxonalarini tomonidan olingan foyda hisoblanadi. Ish haqi huquqiy kategoriya sifatida mehnat munosabati ishtirokchilarining ish haqi yo'zidan huquqlari va majburiyatlari doirasini belgilaydi.

Har bir xodimning ish haqi u sarflagan mehnat mikdori va sifati, ishning anik natijalariga bog'liq bo'lib, eng ko'p miqdori cheklanmagan.

Ish haqi o'z tarkibiy to'zilishiga ko'ra ikki qismrdan iborat bo'lib, tarif razryadlari, mansab maoshlaridan iborat asosiy qismrdan hamda mukofotlar va boshqa ragbatlantiruvchi tulovlarda ifodalanuvchi qo'shimcha qismrdan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 dekabrda 590 sonli qarori bilan 92 dona tarif jadvali tasdiklandi. Ushbu jadvalda halqxo'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash yo'zidan tarif koefitsientlari nazarda tutilib, o'z ichiga 28 razryadni (ishlarni oddiydan murakkabga tomon ish haqining ham shunga mutanosib tarzda usib borishini belgilovchi) oldi.

"Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) to'g'risidagi" Qonunni 22 moddasida aytilishicha: "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) kooperativ (shirkat) a'zolari va yollangan xodimlarning mehnatiga haq to'lash shakllari, tizimi va shartlarini qonun xujjatlariga hamda oila (jamo) pudratiga muvofiq mustaqil ravishda belgilaydi.

"Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) a'zolariga mulkiy paylar buyicha tulanadigan devidendlar mehnathaqi tarkibiga kirmaydi". Ya'ni kooperativ (shirkat) a'zosi hisoblanuvchi shaxslar u erda mehnatqilganlari takdirida ularga belgilangan razryadlar, tarif stavkalari, ishbay baholar asosida vaqtbay yoki ishbay mehnathaqi tulanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risidagi" qonunning 20 - moddasida, "Fermer xo'jaligi to'g'risidagi" qonunni 24 - moddasida ushbu taraflarning kelishuviga ko'ra natura holidan ham mehnathaqi tulanishi mumkinligi aytilgan.

Ish vaqtidan tashqari ishlarga 18 yoshga etmaganlar (tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga) jalb etilishlari mumkin emas (mehnat kodeksining 245 - moddasi). Shuningdek, xomilador ayollar, 14 yoshga etmagan (16 yoshga tulmagan nogiron bolasi bor) ayollar ham o'zlarining roziliklarisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga yuborilishlari mumkin emas.

Ish vaqtidan tashqari ishlar ish beruvchi tomonidan anik va qat'iy hisobga olib borilishi, uning mikdori o'zluksiz ikki kunda 4 soatdan, bir yil davomida 120 soatdan ortib ketmasligi lozim.

Tungi ishlarda ishlaganlik uchun ham kamida bir yarim barobar oshirilgan mikdorda ish haqi tulanadi. Tungi ishlar deganda soat 22. 00dan soat 6. 00gacha bo'lgan vaqtlarda bajarilgan

ishlar tushuniladi. Tungi ishlarga jalb etiladigan xodimlar doirasi ham qonunchilik bilan cheklangan.

Yaroqsiz maxsulot tayyorlangan holda, basharti bunda xodim aybdor bo'lmasa unga o'rtacha ish haqi miqdorida haq tulanadi. Agar bunda xodim aybdor bo'lsa, u holda ish haqi to'lanmaydi.

Bekor turib qolinganda va bunda xodim aybsiz yo'z bersa unga o'rtacha ish haqi saqlanadi. Xodimning aybi bilan bekor turilgan vaqt uchun ish haqi to'lanmaydi.

Bir necha kasbda (lavozimida) ishlaganlik, xizmat kursatish doirasini kengayganligi, bajariladigan xodimning vazifalarini bajarganligi, urindoshlik asosida mehnatqilganligi, urindoshlik asosida mehnatqilganligi uchunmehnat haqi miqdori mehnat shartnomasining taraflari o'rtasidagi kelishuvga binoan amalda bajarilgan ish yo'zasidan belgilanadi. (Mehnat kodeksining 160 moddasi).

Mehnatga haq to'lash ga oid shartlar mehnat shartnomasi tomonlarining o'zaro kelishuvi bilangina o'zgartirilishi mumkin. Ammo, texnologiyada, ishlab chiqarish va mehnatni tashqil etishda o'zgarishlar yo'z berganida mehnatga haq to'lash ning yakka shartlari istisno tarikasida xodim roziligisiz ham amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo'jalik qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik

Qishloq xo'jalik huquqbuzarligi - bu aybdorning qonunga xilof xatti - harakati yoki harakatsizligi okibatida O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jalik tizimi yoki (agrar) sohasiga etkazilgan zarar, rivojlantirishga tajovus qilish, hamda qishloq xo'jalik tizimida olib borilayotgan iqtisodiy isloxlarni chukurlashtirishga putur etkazish hamda qishloq xo'jalik (agrar) sohadagi qonun va talablarni bo'zishda namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jalik (agrar) sohada sodir etilgan huquqbo'zarlikning subekti bo'lib, fuqarolar, dehqonxo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), ijarachilar, tadbirkorlar, korxonalar, muassasa, tashqilotlar, jamoat tashqilotlari, o'zaro hamkorlikdagi qo'shma korxonalar hamda xususiy korxonalar bo'libhisoblanadi.

Qishloq xo'jalik (agrar) sohada sodir etilgan huquqbo'zarlikning subektiv tomoni esa kasddan yoki extiyotsizlikdan sodir etilgan ayb okibatida etkazilgan zarar, ya'ni aybning mavjudligi hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik tizimida ushbu huquqbo'zarliklarni sodir etish motiv va maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: eqilgan daraxtlarni kasddan olib tashlash, erni rekultivatsiya qoidalariga amal qilmasligi, urmonlarni kasddan kesish hollari va boshqalar. Ushbu holatlar bevosita kasddan sodir etilishi va amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo'jalik (agrar) qonunlari va huquqiy normalarini bo'zganlik uchun yuridik javobgarlikning intizomiy, ma'muriy, fuqarolik (mulkiy) va jinoiy turlari qo'llaniladi

Qishloq xo'jalik sohasida intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib intizomiy huquqbo'zarlikni, (jinoyatni) sodir etishi hisoblanadi. Intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos sifatida davlat tomonidan belgilangan reja va tadbirlarni bajarmaslik hamda amalga oshirmaslik, o'z burchiga sadokat bilan yondoshmaslik okibatida Qishloq xo'jalik (agrar) qonunlarni bo'zish va oqibatda qishloq xo'jalik tizimiga zarar etkazilishining o'zi kifoyadir.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksinin 181 moddasida aniq intizomiy jazolar turi kursatilgan.

Xodimga mehnat intizomini bo'zganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarni qo'llashga haqli:

1)xayfsan

2)o'rtacha oylik ish haqini yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima.

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining 40%idan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab kolish ushbu Kodeksning 164 - moddasida talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100 - modda ikkinchi qismrining 3 va 4 - bandlari).

Qishloq xo'jalik tizimida ma'muriy huquqbo'zarlik uchun javobgarlik tushunchasi shuni belgilaydiki, huquqqa va belgilangan qonunga asosan karshi qilingan xatti - harakat okibatida, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik tizimiga va O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik qonunlariga, hamda uni amalga oshirish talablariga rioya etmaslik yoki unga amal qilmaslik, buzish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jalik (agrar) sohasida ma'muriy huquqbo'zarlik subektlarning Qishloq va suv xo'jalik tizimi - boshqaruvida, agroservis xizmati sohasida, qishloq xo'jalik korxonalarini material va texnik vositalari bilan ta'minlashda, qishloq xo'jalik (agrar) sohada ishlayotgan xodimlar va tadbirkorlik faoliyatini bo'zishida, hamda ular to'g'risidagi qonun talablarni bo'zish okibatida ma'muriy javobgarlik vujudga kelishi mumkin.

Qishloq xo'jalik (agrar) sohani eng asosiy manbai - er, erdan foydalanishdir. Shuning uchun ham asosiy huquqbo'zarlik erdan foydalanish va uni qishloq xo'jalik tizimidagi tartib - qoidasiga amal qilmaslik hollarini tushunish mumkin.

Er bilan bog'liqbo'lgan barcha huquqbo'zarlik turlari O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda tasdiklangan "Er kodeksida" aniq kursatilgan.

Quyidagiholatlarda ham aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar;
Erlardan belgilangan maqsadda foydalanmaganlikda;

Er uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olganda;

qishloq xo'jaligierlarini va boshqaerlarni yaroksiz holga keltirganlikda, ularni kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarishchiqindilari va okova suvlari bilan ifloslantirganlikda;

erlardan foydalanishning tabiat muxofaza qilishga oid talablarni bajarmaganlikda;

vaqtincha egallab turilgan erlarni qaytarish muddatini bo'zganlikda yoki erlarni belgilangan maqsadda foydalanishga yaroqli holatga keltirishga oid majburiyatlarni bajarmaganlikda;

er egalari, erdan foydalanuvchilar, ijarachilarga va mulkdorlarga qarashli uchastkalarining marza belgilarini yuk qilganlikda;

o'zboshimchalik bilan pichan urganlikda va chorva mollarni bokkanlikda;

yovvoyi utlar va zararkunandalarga karshi kurash choralarini ko'rmaganlikda;

erdan xujasizlarcha foydalanganlikda, erlarning holatini yaxshilash hamda tuproqni suv va shamol eroziyasidan va tuproqholatining yomonlashuviga olib keladigan boshqa jarayonlardan saqlash majburiyatlarini bajarmaganlikda;

er uchastkalari berish to'g'risidagi arizalarni berish to'g'risidagi arizlarni kurib chiqishning belgilangan muddatlari va tartibini buzganlikda.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 23 - moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo turlari qo'llaniladi:

Jarima

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni

musodara qilish;

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish qroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni

musodara qilish;

Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish

huquqidan) maxrum etish;

Ma'muriy qamoqqa olish.

«Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksda quyidagier bilan bog'liq sodir etilgan huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan: erlardan xujasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish; Er berish tartibini buzish; vaqtincha egallab turgan erlari o'zvaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni o'zo'rnida foydalanish uchun yaroqli holga keltirmaslik; xo'jalik ichidagi er tuzish loyihalaridan uz boshimchalik bilan chetga chiqish, davlat er kadastrini yuritish

qoidalarini buzish, chegara va cheklov belgilarini yuk qilish va shikastlantirish.

Ushbu qonunga muvofiq sodir etilgan yukoridagi huquqbuzarliklar uchun; fuqarolarga eng kam ish haqini bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan etti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunda suv bilan bog'liqbo'lganhuquqbuzarlik turlari va ular uchun javobgarlik hamaniq kursatilgan.

Suv zaxiralarini muxofaza qilishqoidalarini buzish (72 - m), suvdan foydalanish qoidalarini buzish (74 - m), suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalarini buzish. (75 - m), suv xo'jaligi inshootlari va kurilmalarini shikastlantirish, ulardan foydalanish qoidalarini buzish (76 - m) fuqarolarga eng kam ish haqini uchdan bir qismridan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - uch baravaridan etti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qishloq xo'jalik qonunlarini buzganlik uchunfuqarolik - huquqiy javobgarlik.

Fuqarolik - huquqiy javobgarlik qishloq xo'jaligi sohasida sodir etilgan huquqbuzarlik natijasida etkazilgan mulkiy zarar uchun kelib chiqadi.

Fuqarolik - huquqiy (mulkiy) javobgarlikka tortishdan asosiy maqsadQishloq - xo'jaligida sodir etilayotgan huquqbuzarlik natijasida etkazilgan zararni o'zvaqtida koplashdir.

Zarar etkazganlik uchun javobgarlikning umuiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida ifodalangan.

Fuqarolikhuquqiy javobgarlik uchunquyidagi shartlar bo'lishi kerak:

etkazilgan zararni mavjudligi;

aybning mavjudligi;

qilingan harakat yoki harakatsizlikni qonunga xilofligi;

Zarar oxirgi zaruriy va zaruriy mudofaa tufayli etkazilgan bo'lsa, sudni ushbu holatni hisobga olib jazo chorasini belgilashdir. Shuning uchunhamfuqarolik - huquqiy javobgarlikni eng asosiy karakterli tomoni shundaki, subektni Qishloq xo'jalik tizimida (agrar) yoki ekologik sohada ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi uni etkazilgan zararni o'zvaqtida to'lashi yoki koplashi majburiyatidan ozod etmaydi.

Etkazilgan zararli aniqlab uni qoplash yoki tulatish O'zbekiston Respublikasida sud va xo'jalik sudlarining qonunga asosan huquqiy vakolatiga kiradi.

Qishloq xo'jalik (agrar) huquqi sohasida fuqarolik - huquqiy javobgarlik quyidagi formalarda namoyon bo'ladi: birinchidan, er, suv, er osti boyliklari, urmonlar davlat mulki bo'lib ushbu obektlar, oldi - sotdi, xadya qilish, garovga kuyish, ayrboshlashga ruxsat etilmaydi. Qonunda kursatilgan asosda qilinayotgan boshqaharakatlar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelishi kerak emas va har kanday to'zilgan bitimlar ushbu kodeksga (113 - 128 - moddalariga) mos kelishi kerak.

ikkinchidan, tabiiy boyliklaridan foydalanishda qishloq xo'jaligisubektlarini qonuniy huquqlarini himoyalarihimoyalash bilan birga o'zlari tomonidan etkazilgan zararni to'lashlari shart. Ushbu talab Fuqarolik Kodeksini (324 - 331 moddalari) talabidan kelib chiqadi.

Masalan: dehqon, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlari) va boshqa korxonalar, muassasa, tashqilotlar chiqargan zararli chiqitlar bilan qishloq xo'jaligiekinlari xosildorligini pasaytirishlari yoki ishlab chiqarilgan maxsulotni sifatini buzishi mumkin.

uchinchidan, tabiat boyliklaridan foydalanish va tabiatni muxofaza qilish talablari va qonunlarini buzgalik oqibatida etkazilgan zararni qoplash, to'lash.

Qishloq xo'jaligisohasiga oid jinoiy huquqbuzarlik deganda yuridik va jismoniy shaxslarning kasddan yoki extiyotsizlikdan jinoyat qonunlarida urnatilgan qoidalarni buzishga qaratilganharakat yoki harakatsizliklari tushuniladi.

Ushbu jinoiy huquqbuzarliklar davlatning qishloqxo'jaligiga oid siyosatiga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga, aholini qishloq xo'jaligimaxsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishga, qishloqxo'jaligida qonunchilikni ta'minlashga jiddiy putur etkazadi.

Qishloq xo'jalik qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik deb qishloq xo'jalik

ishlab chiqarishi munosabatlarida kelib chiqadigan huquqiy tartib - qoidalarni buzganlik uchun kullaniladigan jinoiy jazo choralari aytiladi. Ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jalik munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlarda jinoiy jazo choralari bevosita kursatilgan bo'lmaydi. Shu sababdan qishloq xo'jaligi qonunchiligida belgilangan jinoiy huquqbuzarlik uchun jinoyat qonunchiligida urnatilgan jazo chorasi kullaniladi. Demak, qishloq xo'jaligiqonunchiligini buzganlikda jinoiy javobgarlikni qo'llash uchunqishloq xo'jalik qonunlari normalari bilan birgalikda jinoyat qonunlari normalari bo'zilgan bo'lishi va shu huquqbuzarlik uchun Jinoyat Kodeksida jazo chorasi belgilangan bo'lishi kerak. Aks holda jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi.

Qishloq xo'jaligi sohasida sodir etilgan jinoyatlarni subekti bo'lib yuridik va jismoniy shaxslar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari hisoblanadilar.

Qishloq xo'jaligisohada sodir etilgan jinoyatlarni obekti bo'lib esa O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligitizimi, er, suv munosabatlari, maxsulot ishlab chiqarishni sifat va samaradorligi, qishloq xo'jalik korxonalari hamda qishloq xo'jaligibilan shugullanuvchi fuqarolarning qonuniy manfaatlarini hisoblanadi.

1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining bir qator moddalarida qishloq xo'jaligisohasida sodir etilgan jinoyat turlari va ular uchun jinoiy javobgarlik kursatilgan. Bo'lar quyidagilardir:

1) Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar (O'zR JKning III bulimi). Masalan: O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon - taroj qilish (167 - modda); Mulkn qo'riqlashga vijdonsiz munosabatda bo'lish (172 - modda); Mulkn qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazish; Sohta tadbirkorlik (179 - modda); bankrotlikni yashirish (181 - modda); soliq va boshqa tulovlarni to'lashdan bo'yin tovlash (184 - modda) va boshqalar;

2) Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar. Masalan: sifatsiz maxsulot chiqarish va sotish (184 - modda),

haridor yoki buyurtmachilarni aldash (187 - modda);

3) Ekologik sohasidagi jinoyatlar.

Bular: Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (193 - modda); Atrof tabiiy muxitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib kursatish (194 - modda); Atrof tabiiy muxitni ifloslantirish (196 - modda); Er, er osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muxofaza qilish talablarini buzish (197 - modda); Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov - daraxtlarga shikast etkazish yoki ularni nobud qilish (198 - modda); O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (199 - modda); Veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish (200 - modda); Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lishqoidalarini buzish (201 - modda); Hayvonot yoki o'simliklar dunyosidan foydalanish tartibini buzish (202 - modda);

4) «Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar» hamqishloq xo'jalik sohasida sodir etilgan jinoyatlarga taaluqlibo'lishi mumkin. Masalan: «Ta'qiqlangan ekinlarni etishtirish» (270 - modda) va boshqalar.

Yuqorida sanab ko'rsatilgan qishloqxo'jaligiga oid qonunlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik jazo choralari sifatida jarima, qamoq, ozodlikdan maxrum qilish kabilar qo'llaniladi.

Nazorat uchun savollar

Qishloq xo'jalik huquqi qaysi fanlar tarmog'ga kiradi ?

Qishloq xo'jalik huquqining boshqa fanlari bilan qanday aloqasi bor ?

Qishloq xo'jalik huquqining o'ziga xos jihatlarini sanab o'ting ?

Qishloq xo'jalik huquqining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ?

Qishloq xo'jalik huquqining tarixiy bosqichlar bormi ?

Qishloq xo'jalik huquqining predmetini aytib bering ?

Erga oid qanday munosabatlar qishloq xo'jalik huquqining predmetiga kiradi ?

Qishloq xo'jaligiga oid javobgarlik turlari.

GLOSSARIY

Qishloq xo'jaligi kooperativlari(shirkat xo'jaligi) - xo'jalik yuritishning bir shakli.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljalangan erlar - qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan erlar.

Ijara shartnomasi - ijaraga beruvchi mulkni muayyan haq evaziga ijarachiga vaqtinchalik egalik va foydalanish uchun berishga asos bo'ladigan fuqarolik huquqiy shartnoma.

Erga egalik - er egalarining tegishli huquq va majburiyatlarini shart qiluvchi yuridik asoslarga myvofiq, yuredikn va jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan er maydonini haqiqiy egallash.

Er solig'i - O'zRda maqsadli aniq soliqlardan biri.

Er kadastri - erlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy holati to'g'risidagi tizimlashtirilgan aniq ma'lumotlar to'plami.

Adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2010.

Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T.: "O'zbekiston", 1992.

Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti –to'kin hayot manbai. - T.: "O'zbekiston", 1998.

Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: «O'zbekiston», 2005.

O'zbekiston Respublikasining Er kodeksi - T.: "O'zbekiston", 1998.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonunlar, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami - T.: "O'qituvchi", 1998.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "1998 - 2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to'g'risida"gi 1998 yil 18 Mart qarori.

Usmanov M. B. ning umumiy tahriri ostida. Qishloq xo'jalik huquqi. - T.: TDYuI, 2000.

Mirzaabdullaeva M. R. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlardan foydalanishga oid q'onunchilik xususida ba'zi mulohazalar. G'G'Davlat va huquq. 2004. - №6.

Usmonov M. B. Er va qonun. - T.: Adolat, 1994.

Usmonov M. B. Qishloq xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish muammolari. 2010

8 - Mavzu: Oila huquqi asoslari.

REJA.

1. Oila huquqi haqida tushuncha.
2. Nikox to'zish shartlari va tartibi.
3. Er - xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari
4. Nikox tugatilishi asoslari.
5. Oila tushunchasi. Oila a'zolarining majburiyatlari.
6. Vasiylik va homiylik.

Oila huquqi haqida tushuncha.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etayotgan xozirgi davrda oilaning tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega.

Oila - bu jamiyatning bir bo'lagi, kichik bir vatan, insoniy muhabbat ifodasi, insonni dunyoga keltiradigan makon, ilk tarbiya o'chog'i, yurt boyligi va tayanchi, mehr - muhabbat ramzi. Bu barcha fuqarolardan o'z oilasini mustaxkamlash, uning har bir a'zosini vatanparvar, davlatimiz uchun sidqidildan xizmat etuvchi, sodiq farzand qilib tarbiyalashni talab qiladi.

Oila - jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga keladigan ijtimoiy xodisa

bo'lib, u muayayn ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Respublika Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «Oila - bu jamiyatning asosi va boshlang'ich zarrachasidir. Oila farovonligi, bolalarni ma'naviy va jismoniy jixatdan sog'lom qilib tarbiyalash mamlakat boyligining va kuch - qudratining negizidir».

Respublikamizda oilaning jamiyatdagi tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish oilaning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy - axloqiy manfaatlarini va farovonligini davlat tomonidan qullab - quvvatlashni kuchaytirishmaqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Ma'lumki, 1998 yil «oila yili» deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar borasida davlat dasturi Tasdiqlandi. Shuningdek 1998 yil 2 fevraldagi qarori bilan Respublika «Oila» ilmiy - amaliy markazi tashkil etildi. Mustaqil O'zbekistonimiz 1995 yil 6 martda «Onalikni muxofaza qilish to'g'risida»gi Konvensiyaga qo'shildi.

Davlat tomonidan oilalarga kun sayin gamxurlik qilish unga har taraflama yordam berish insonparvar demokratik davlatning muxim vazifalaridan biriga aylangandir. Oilaning davlat muxofazasida ekanligi Respublikamiz Prezidentining farmonlarida o'z aksini topmoqda. Prezidentning 1990 yil 3 maydagi birinchi Farmoni «Ko'p bolali oilalarga nafaqa miqdorini ko'paytirish to'g'risida» deb nomlangan edi.

Yurtboshimiz I. A. Karimov bu borada: «Eng muxim vazifa xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, Mehnatqadrini biladigan, ma'naviy sog'lom hamda madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etildi» - degan edi.

Oila to'g'risidagi qonunlar davlat tomonidan izga solinishi talab etiladigan munosabatlarni tartibga solib turadi. Bu munosabatlar nikox to'zish tartibi va shartlarini belgilaydi; oilada er - xotin o'rtasida ota - onalar (farzandlikka oluvchilar) va bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida paydo bo'ladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turadi; boshqalarning bolalarini o'ziga farzand qilib olish; vasiylikka olish; homiylik qilish; bolalarni o'z tarbiyasiga olish munosabati bilan vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi; nikoxni bekor qilish tartibi va shartlarini belgilaydi; fuqarolik holati to'g'risidagi xujjatlarni ruyxatdan utkazishqoidalarini belgilaydi.

Oila huquqi boshqahuquq soxalaridan farqqiluvchi xususiyatlariga qaramay, fuqarolik huquqi bilan chambarchas bog'liqligini sezish mumkin. Bu farqlar quyidagilardan iborat:

- oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqiga xos bo'lmagan yuridik faktlardan (nikox, qarindoshlik, onalik, otalik, farzandlikka olish va boshqalardan vujudga keladi;)
- oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqidan farqli ularoq, ko'proqshaxsiy - huquqiy moxiyatga ega.
- oilaviy huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari begonalashtirilmaydigan, yangi boshqalarga topshirib bo'lmaydigan huquq va majburiyatlardan iborat.

Oila huquqi predmeti - oilaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarni tashkil etadi.

Nikox, qarindoshlik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish kabilardan yo'zaga keladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat bo'lib, oila huquqi inson va fuqarolarning fuqarolik huquqining normalari bilan tartibga solinadi.

Oila huquqining manbalari:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksi (1998 yil 30 aprelda №607 - 1 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va 1998 yil 1 sentabrdan boshlab kuchga kiritilgan);
- O'zbekiston Respublikasining fuqarolik Kodeksi.
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan oila huquqiga oid qonunlar;
- Respublika Prezidentining oila huquqiga oid farmon va farmoyishlari, qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi xukumatining normativ huquqiy xujjatlari;

- Xalqaro huquq normalari kabilar xisoblanadi.

Oila huquqining asosiy prinsiplari:

- oilada erkak va ayol o'rtasidagi nikoxning ixtiyoriyligi;

- oilada er - xotin teng huquqliligi;

- faqat FXDE organlari to'zgan nikoxni tan olish;

- oilaning voyaga yetmagan va Mehnatga layoqatsiz a'zolari huquq va manfaatlarining birinchi galda himoyalinishini ta'minlash;

- farzandlar farovonligi va ravnaki haqida gamxurlik qilish;

- ichki oilaviy masalalarni o'zaro kelishuv asosida xal qilish;

- farzandlarni oilada tarbiyalashning ustunligi kabilardan iboratdir.

2. Nikox tuzishshartlari va tartibi.

Mamlakat imizda nikox mustahkam, nikox, teng huquqli Mehnatkash oilani to'zish, bolalarni Mehnatsevarlik ruxida tarbiyalashmaqsadidagi qiz va yigitning o'zaro muxabbat va xurmat xislari asosida ixtiyoriy imzo chekib to'ziladigan turmush Ittifoqidan iborat.

Nikox to'zishshartlari:

O'zaro nikox to'zishni istagan shaxslarning nikox yoshiga yetishi;

O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksining 15 - moddasiga ko'ra: nikox yoshi erkaklar uchun 18 - yosh ayollar uchun 17 yosh etib belgilanadi.

O'zrli sabablar bo'lganida, aloxida xollarda nikoxga kirishni xoxlovchilarning iltimosiga ko'ra nikox davlat ruyxatidan utkaziladigan joydagi tuman, shahar xokimiyati nikox yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Nikoxdan utuvchilarning o'zaro roziligi;

Bu borada O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksining 14 - moddasida: - «Nikox to'zish ixtiyoriydir. Nikox to'zish uchun bulajak er va xotin o'z roziligini erkin ifoda etishqobiliyatiga ega bulishi kerak. Nikox tuzishga majbur qilish taqiqlanadi» deb belgilangandir.

O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksida oila tuzishdagi shartlari qatorida, nikox to'zishga majlis qiladigan holatlar ham qayd etilgan:

- loaqal bittasi ruyxatga olingan boshqa nikoxda turgan shaxslar o'rtasida;

nasl - nasab shajarasi buyicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida; tugishgan va ugay aka - ukalar bilan opa - singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

loaqal bittasi ruxiyat buzilishi (ruxiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yul quyilmaydi.

Oila Kodeksining nikoxdan utishning yangi sharti deyish mumkin: u «nikoxlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish» deb nomlanadi. Nikoxlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek tibbiy - irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari buyicha maslaxat berish nikoxlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'ikni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikoxlanuvchi shaxsni ko'rikdan o'tkazish natijalari shifokor siri xisoblanadi va uni nikoxlanuvchi shaxsga faqat ko'rikdan o'tgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin.

Agar, nikoxlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti tansiqligi virusi (OITS) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs nikoxni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etishhuquqiga ega.

Nikox to'zish tartibi oila Kodeksining 13 - moddasiga belgilab quyilgan. Unga ko'ra, nikox fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida to'ziladi.

Diniy rasm - rusumlarga binoan tuzilgan nikox ahamiyatga ega emas. Nikox to'zish nikoxlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish (FXDE) organlariga ariza bergan kundan bir oy o'tgach, ularning shaxsan o'zlari ishtirokida amalga oshiriladi.

Uzrli sabablar bo'lgan taqdirda bir oy muddat o'tgunga qadar ham amalga oshirilishi mumkin.

Alohida ollarda (hamiladorlik, bola tug'ilishi bir tarafning kasalligi va boshqalar) da nikox ariza berilgan kunidan hamtuzilishi mumkin.

FXDE tomonidan nikoxni ruyxatga olish rad etilsa, sudga yoki bo'ysinishiga ko'ra yuqori turuvchi organlarga murojaat qilinishi mumkin.

3. Er - xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari.

Nikoxda bo'lishi er bilan xotin o'rtasidagi oddiy munosabatlarning huquqiy munosabatlarga aylanishiga olib keladi. Chunki nikox er va xotin o'rtasida huquq va burchlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bu huquq va burchlar o'z mazmuniga ko'ra shaxsiy va mulkiy tusga ega bo'ladi. Bunda shaxsiy munosabatlar juda muxim ahamiyatqasb etadi. Chunki bu munosabatlar oiladagi birdamlik, oila tarbiyasi, o'zaro xurmat, Ittifoq sifatidagi nikoxning mohiyatini belgilaydi. Shaxsiy munosabatlarga, er - xotinning familiya tengligi, ro'zgor tengligi, kasb tanlashdagi tengligi, turar joy tengligi, bola tarbiyasida teng qatnashish, nikoxni bekor qilish masalalarini xal qilishhuquqi va boshqalar kiradi.

Mulkiy huquqiy majburiyatlarni quyidagi turlarga bulish mumkin: er va xotinning umumiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish; er va xotinning xadya qilingan mulklari.

Nikox shartnomasining mazmuni oila Kodeksining 31 - moddasida belgilangan bo'lib, unda er - xotin o'zaro ta'minot berish, oila harajatlarini kutarish, bir - birining daromadida ishtirok etish, boshqashaxslar bilan mulkiy shartnomalar to'zish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanish buyicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikoxdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikox shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqaqoidalar kiritishhuquqi qayd etilgan.

Nikox shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayan shart - sharoitning yo'zaga kelishi youd kelmasligiga bog'liq qilibquyilishi mumkin.

Er - xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqatini, ularning o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat huquqlarini cheklashni, er - xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni er - xotinning bolalarga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini tartibga slishni, Mehnatga layoqatsiz ta'minot olishga muxtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini uta no'kulay holatga solib quyuvchi yoxud oila to'g'risidagi qonun xujjatlarini normalariga zid keluvchi boshqashartlarni nazarda tutishi mumkin emas. Er va xotinga tenghuquqlilik asosida yukatiladigan asosiy vazifalardan biri o'z farzandlarini un sa'qiz yoshgacha moddiy jixatdan ta'minlash va tarbiyalashdir.

Oilada farzandlar tarbiyasini to'g'ri yulga quyish, ularni umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy normalar ruxida tarbiyalash er - xotinning muxim shaxsiy huquq va vazifalaridan xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov bola tarbiyasi haqidashunday degan edi: «Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, xayotining ma'nosi qobil farzandlar ustirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jixatdan mu'kammal qilib tarbiyalash, kamolini kurish, ota - onasiga, vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir»

4. Nikox shartnomasining bekor qilinishi.

Nikox shartnomasi tomonlar kelishuviga muvofiq istalغان vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bu shartnoma sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksida nazarda tutilgan asoslar buyicha tula yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoxdan ajratish sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual Kodeksida da'vo ishlarini xal qilish uchun belgilangan tartibda kurib chiqiladi.

Sud ishning kurilishini keyingi qoldirib, er - xotinga yarashish uchun olti oygacha muxlat tayinlashga xaqli.

Nikoxdan ajratish to'g'risidagi ishkurilishi jarayonida tuyni o'tkazishga ketgan sarf - harajatlarni undirishhaqidagi talablar qanoatlantirilmaydi.

Sud agar er va xotin bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab kolishga imqon iyat yuk deb topsa, ularni nikoxdan ajratadi.

Sud xal qiluv qarorini chiqarish paytida nikoxdan ajratish to'g'risidagi xal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda er - xotinning yoki ulardan biri tomonidan tulanishi lozim bo'lgan davlat boji miqdori belgilab olinishi lozim.

bundan tashqari nikoxni bekor qilayotgan er va xotin ajralishganidan keyin qaysi familiyada qolishlarini ham xal etishhuquqiga egadirlar, bu taraflar xoxishiga qarab xal etiladi.

O'zbekiston Oila Kodeksiga ko'ra sud tomonidan vafot etgan yoki bedarakyo'qolgan deb e'lon qilingan er (xotin) qaytib kelsa tegishli sud qarorlari bekor qilingan bo'lsa, ularning birgalikdagi arizasiga ko'ra FXDYO tomonidan qayta ruyxatga olinadi. Agar ulardan biri yangi nikoxga kirgan bo'lsa, nikoxni tiklash mumkin emas.

Sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashshi, bolalarga va Mehnatga layoqatsiz, yordamga muxtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag to'lash tartibi, bu mablagning miqdori, shuningdek er - xotinning umumiy mol - mulkini bulishga doir kelishuvni kurib chiqish sudga taqdim etishlari mumkin.

Yuqorida qayd etilgan masalalar buyicha er va xotin o'rtasida kelishuv bo'lmagan taqdirda yoki ushbu kelishuv bolalar hamda er - xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud:

- nikoxdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota - onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;

- voyaga yetmagan bolalarga ta'limot berish uchun ota - onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;

- er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko'ra ularning birgalikdagi mulki bo'lgan mol - mulkni bulishi;

- er (xotin)dan ta'minot olishga xaqli bo'lgan er (xotin)ning talabiga ko'ra ana shu ta'minot miqdorini belgilashi shart.

Bundan tashqari er va xotin o'rtalaridagi nikoxni, agar voyaga yetmagan bolalari bo'lmasa, nikoxdan ajralishga har ikkalasi ham rozi bulishsa, FXDYO tomonidan ham bekor qilishhuquqiga egadirlar. Shuningdek, FXDYO bo'limii Oila Kodeksining 43 - moddasiga ko'ra quyidagi xollarda nikoxdan ajratadi.

1. Agar er - xotindan biri sud tomonidan bedarakyo'qolgan deb e'lon qilinsa;

2. Agar er - xotindan biri sud tomonidan ruxiyati buzilishi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;

3. Er - xotindan biri sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan maxrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, ulardan birining arizasiga ko'ra o'rtadagi nikox bekor qilinishi mumkin.

Agar bolalari, mol - mulki buyicha, yordamga muxtoj taraflar mavjud bo'lsa faqat sud tomonidan nikox bekor qilinadi.

5. Oila tushunchasi. Oila a'zolarining huquq va majburiyatlari.

Oila bu ota - ona, farzandlar, qarindosh - uruglar tomonidan tuzilgan uyushma bo'lib, bir - birlariga nisbatan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Huquq va majburiyatlar shaxsiy va mulkiy turlarga bulinadi. Ota - onalarning bolalari oldidagi huquqlariga: bolaga ism, familiya, ota ismini berish, jamiyatga yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash, uni turar joy bilan ta'minlash, bolalarning huquq va manfaatlarini himoyalash, voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish va xokazolar kiradi.

Voyaga yetmagan bolalarning o'z ota - onalari tomonidan tarbiyalanishlari, manfaatlarining ta'minlanishi, ota - onalari bilan oilada birga yashashlari ularning har tomonlama kamol topishlari, insoniy qadr - kimmatlarining xurmat qilinishi, yaxshilik va suruvvat tuygulari asosida tarbiyalanishlari uchun imqon yaratadi. Ota - onalar, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'zlarining voyaga yetmagan bolalariga uchun ta'lim shakllarini, umumta'lim muassasasi turi va ukitish tilini tanlash, ta'lim muassasasi ma'muriyatidagi ukuv yurtlari ustavlarida belgilangan zarur shart - sharoitlarni yaratilishini, bolaga xurmat bilan munosabatda bulishini talab qilish, ta'lim muassasasini boshqarishda ishtirok etishhuquqlariga egadirlar. Bundan tashqari ota - onalar o'zlarining voyaga yetmagan bolalarini shaxsan tarbiyalashhuquqidan kelib chiqqan xolda ularni gayriqonuniy tarzda ushlab turgan boshqaharqanday shaxsdan talab qilib olishda ustun huquqqa egadirlar.

Agar ota - ona o'z huquq va majburiyatlarini bajarmasalar yoki o'zrsiz sababli bundan voz

kechsalar, ota - onalik huquqini suiiste'mol qilsalar, farzandlariga shavqatsiz muomilada bo'lsalar, muttasil ichqilikbozlik yoki giyoxvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsalar, o'z bolalarining xayoti yoki sogligiga yoxud eri (xotini)ning xayoti yoki sogligiga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ota - onalik huquqidan maxrum qilish mumkin. Ota - onalik huquqidan maxrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota - ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishlari shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning xal qiluv qarori asosida aliment undiriladi.

Agar ota - ona o'rtasida voyaga yetmagan bolalariga beriladigan ta'minot miqdori kelishilmagan bo'lsa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan har oydagi ishxaqi va boshqa daromadlardan unidiriladi. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun xujjatlari bilan belgilangan eng kam ishxaqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak. Agar bola kasal bo'lsa, nogiron bo'lsa qushimcha ta'minot talab qilish mumkin.

Ayrim vaqtlarda voyaga yetgan, Mehnatga layoqatsiz bolalar o'z ota - onalaridan aliment talab qilishhuquqiga egadirlar. Aliment miqdorini sud belgilaydi.

Ota - onasi kariganida, Mehnatqobiliyatini yukotganda, kasal bo'lganligi va boshqa sabablarga ko'ra voyaga yetgan bolalaridan aliment talab qilishhuquqiga egadirlar. Bunday ta'minot miqdori sudning xal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Oila huquqi ota - ona qaramogidan maxrum bo'lgan bolalarni himoyalash tartiblarini urnatgan. Ularni farzandlikka olish, vasiylik, homiylik belgilash yoki oilalarga tarbiyaga berish mumkin.

Farzandlikka olishfaqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarini ko'zlab yul quyiladi. Farzandlikka olish uchun farzandlikka oluvchilarning istagi to'g'risidagi arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar xokimi qarori bilan amalga oshiriladi.

Har bir voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bulishi mumkin. Ota - onalik huquqidan maxrum bo'lganlar, ota - onalik huquqidan cheklanganlar, muomala layoqatiga ega emaslar, asab kasalliklari yoki norxologiya muassasalarida ruyxatda turuvchilar farzandlikka olishhuquqiga ega emaslar.

6. Vasiylik va homiylik.

Vasiylik va homiylik ota - onasining qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy va mulkiy huquq, manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar xokimining qarorlari bilan belgilanadi.

Vasiylik un turt yoshga tulgagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga ega emas deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi. Homiylik un turt yoshdan un sakqiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Vasiylar o'z qaramog'idagi shaxslarning qonuniy vakillari xisoblanadilar va ular nomidan barcha zaruriy bitimlarni to'zishhuquqiga egalar.

Xomiylar o'z qaramog'idagi shaxslarga ular o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarni bajarishda kumaklashadilar, shuningdek ularning huquqlari uchunchi shaxslar tomonidan suiiste'mol etilishidan himoya qiladilar.

Bu oila Kodeksining 79 - moddasiga ko'ra quyidagi xollarda:

- ota - onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan buyin tovlasa:

- o'zrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tuguruxona yoki boshqa davolash muassasalaridan, tarbiya, axolini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga uxshashboshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

- ota - onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shaFkatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruxiy ta'sir ko'rsatsa;

- mutassil ichqilikbozlik yoki giyoxvandlikka muhtalo bo'lsa;

- o'z bolalarining xayoti va sogligiga yoxud eri (xotini)ning xayoti yoki sogligiga qarshi qasdan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ular ota - onalik huquqidan maxrum qilinishi mumkin.

Ota - onalik huquqidan maxrum qilingan ota - ona qaysi bolaga nisbatan ota - onalik huquqidan maxrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish huquqidan maxrum bo'ladi, ammo ota - onalik huquqidan maxrum qilingan ota - ona o'z farzandiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilinmaydi.

Ota - onalik huquqidan maxrum etilganlarning bolalarini ulardan biriga berish imqon iyati bo'lmasa vasiylik homiylik organlarining qaramog'iga beriladi. U farzandlar sudning xal qiluv qarori chiqarilgan kundan kamida olti oy utgach, o'zgalarga farzandlikka berilishiga ruxsat etiladi.

Ota - onalik huquqi, ular o'z xulq atvorini, turmush tarzini, bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan xollarida sud tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Er va xotinni bir - birlariga ta'minot berish majburiyatlari sud tomonidan quyidagi xollarda Oila Kodeksining 120 - moddasiga ko'ra:

- agar er va xotin nikoxda qisqa vaqt mobaynida bo'lgan bo'lsa;
- agar o'z ta'minoti uchun mablag tulanishini talab qilayotgan er yoki xotinning noloyik xulq - atvori tufayli nikoxdan ajratilgan bo'lsa,
- agar yordamga muxtoj er yoki xotinning Mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi uning spirtli ichimliklarni, giyoxvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi yoki qasddan jinoyat sodir etishi oqibatida yo'z bergan bo'lsa, er (xotin)ni yordamga muxtoj Mehnatga layoqatsiz xotin (er) ga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilinishi yoxud bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklab quyishi mumkin.

Er (xotin)ning aliment olish huquqi sharoitdan kelib chiqqan xolda sud tomonidan tugatilishi mumkin.

Oila Kodeksida belgilanganidek: farzandlikka olishqalbaqi xujjatlar asosida soxta bo'lsa, voyaga yetgan shaxs farzandlikka olingan bo'lsa haqiqiy emas deb topiladi.

Agar farzandlikka oluvchilar o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan buyin tovlasa, ularni lozim darajada bajarmasalar, ota - onalik huquqini suiiste'mol qilsa, farzandlikka olinganlar bilan shaFkatsiz muomalada bo'lsa ichqilikbozlikka, giyoxvandlikka muftalo bo'lsa, farzandlikka olinish bekor qilinadi.

Farzandlikka olish haqiqiy emas deb topilganda, farzandlikka olish bekor qilinganda, bola sudning qarori bilan onasiga olib berilishi mumkin.

Oila Kodeksiga muvofiq quyidagi xollarda vasiylik va homiylik tugatilishi mumkin.

- vasiy yoki vasiylikdagi shaxs vafot etganda;
 - voyaga yetmagan shaxslar un turt yoshga tulganda yoki ular ota - onasi qaramog'ida qaytarilganda;
 - ota - onalarning muomala layoqati qayta tiklanganda;
- Homiylik ham sud qaroriga muvofiq bekor qilinadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, huquq tarmoqlaridan biri xisoblanuvchi oila huquqi talabalarga oila, oila huquqi, nikox, uni to'zish va tugatish tartibi, oila a'zolarining bir - birlari oldidagi moddiy va ma'naviy huquq va majburiyatlari, farzandlar bilan ota - ona o'rtasidagi oilaviy munosabatlar, farzandsizlarga farzandlikka olishqoidalarini, aliment majburiyatlarini shuningdek homiylik va vasiylik haqidagi tushunchalarni urgatadi.

Har bir fuqaro o'z huquq va majburiyatlarini bilsa, xechqachon ularning paymol bulishiga yul kuymaydi. Shuning uchun har bir mavzuni muqammal va puxta urganish talabalardan talab etiladi.

Oila munosabatlariga oid huquq va majburiyatlarni bilish uchun O'zbekiston Respublikasining oila Kodeksi, unga berilgan sharx hamda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va protsessual qonunlarni urganish lozim bo'ladi.

Kushimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari va asarlarini urganish tavsiya etiladi, chunki yurtboshimiz har bir qilgan Ma'ruza va asarlari hamda bajarayotgan ishlarida oila mustaxkamligi haqida ota - ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarga tuxtalib utadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oilalarga gamxurligini u tomonidan qabul qilingan farmonlardan bilsa bo'ladi. Masalan: «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash to'g'risidagi», «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar tugrsidagi», «Bolali oilalarni davlat tomonidan qullab - quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida»gi kabilar.

Nazorat uchun savollar.

1. «Oila jamiyatning asosiy bug'ini» deganda nimani tushunasiz ?
2. Nikox tuzish yoshini ayting ?
3. Er va xotinning shaxsiy huquq va erkinliklarini ayting ?
4. Farzandlarning ota - onalari oldidagi burchlari va majburiyati qanday ?
5. FXDYO tomonidan qaysi holatlarda nikox bekor qilinishi mumkin ?
6. Farzandlikka olish qonun qoidasi qanday ?
7. Homiylik va vasiylikni qanday tushunasiz ?
8. Aliment to'lashdan bosh tartanlik uchun qanday javobgarliklar mavjud ?
9. Ota - ona va bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari qanday ?
10. Voyaga yetmagan ota - onaning oila Kodeksi asosida qanday huquqlari mavjud ?

GLOSSARIY:

1. Aliment - voyaga yetmagan, shuningdek voyaga yetgan Mehnatga layoqatsiz, yordamga muxtoj shaxslarga ta'minot berish majburiyati
2. FXDYO - fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish
3. OITS - odam immuniteti takchilligi va virusi
4. Nikox shartnomasi - nikoxlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikoxida bo'lgan davrida va er - xotin nikoxdan ajratilgan taqdirida ularning mulkiy huquqhamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi
5. Qarindoshlik - bu umumiy tartibda uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar.
6. Nikox haqiqiy emas deb topilishi - faqat sud tartibida amalga oshiriladi
7. Nikoxni qayd etish - nikoxlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshiriladi.
8. Fuqarolik holati dalolatnomalari - fuqarolar xayotidagi, tug'ilish, o'lim, nikox tuzish , nikoxdan ajralish kabi voqea hamda faktlarning vakolatli organlar tomonidan Tasdiqlanishidir.
9. Vasiylik va homiylik - ota - onasining qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi
10. Farzandlikka olish - faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina ko'zlab yul quyiladi.

ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. O'zbekiston. 2011.
2. I. A. Karimov. «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. « T., «O'zbekiston» 1992 y.
3. I. A. Karimov O'zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., 1995 y.
4. I. A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari T., «O'zbekiston» 1998 y.
5. O. A. Karimova, Z. M. Gaffarov, Davlat va huquq asoslari (darslik)T., o'qituvchi 1995 y.
6. Otaxujayev F «Nikox va uni huquqiy tartibga solinish» T. O'zbekiston 2000.
7. M. S. Vosikova «Oila va qonun» T. 1993.
8. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi T. Adolat. 1998.
9. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksiga sharhlar T. 2000.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « Bolali oilalarni davlat tomonidan kullab - kuvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida»gi PF№1657. 2006 yil 10 dekabr.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni tashkil etish masalalari to'g'risida»gi qarori. №434 - sonli 1994 yil 24 avgust.

13. Kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom 2004 yil 24 avgust.

14. BMTning «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyasi. T. Inson huquqlari buyicha shartnomalar. 220 - bet. 2004.

15. 16 yoshgacha bo'lgan bolali oilalarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi buyicha kushimcha tushuntirish. 1998 yil. 28 iyun. №577/031. (Mahalla fuqarolar o'zini - o'zi boshqarishining huquqiy asoslari)T. 2003.

16. www. gov. o'z

17. www. edu. o'z

18. www. zivo. tdu. o'z

19. www. ec. tdu. o'z

20. www. performfnce. edu. o'z

9 - Mavzu: Ekologiya huquqi asoslari.

Reja.

1. Ekologiya huquqi tushunchasi, xususiyatlari va umumiy ekologiya tizimida tutgan o'rni va roli.
2. Ekologiya huquqining tamoyillari va manbalari.
3. O'zbekistonning ekologik siyosati.
4. Ekologiya nazorati tushunchasi, maqsadi, vazifasi va usullari.
5. Ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tushunchasi, moxiyati va turlari.

1. Ekologiya huquqi tushunchasi, xususiyatlari va umumiy ekologiya tizimida tutgan o'rni va roli.

Malumki, XX asrda amalga oshirilgan fan - texnika yutuqlari natijasida yaratilgan yangi texnika vositalari, ishlab chiqarish obyektlari o'z navbatida tabiatga bo'lgan ta'sirini oshishi misli ko'rilmagan ekologik salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi. Shu sababli ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy - huquqiy chora - tadbirlar tizimi ishlab chiqilda va amalga oshirilmoqda. Ushbu holat esa ekologik huquqiy munosabatlar doirasi va darajasini urganuvchi ekologiya huquqi fanining paydo bo'lishi va rivojlanishiga zaruriyat yaratdi.

Ekologiya huquqi - tabiat bilan jamiyat o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni urgatushchi fandır.

«Ekologiya huquqi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqil huquq tizimida o'z o'rni va salloxiyatiga ega bo'lgan aloxida yo'nalish va xususiyatlariga ega bo'lgan huquq soxasi xisoblanadi. Shuni aloxida ta'kidlashkerakki, har bir huquq soxasining moxiyati, tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning kengligi, murakkabligi, xilma - xilligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. «

Ekologiya huquqi hamboshqa huquq tarmoqlari singari keng qamrovli ahamiyatga ega bo'lgan huquq soxalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda boshqa huquq soxalarining huquqiy qoida - talablari va tamoyillaridan foydalanadi.

Ekologiya huquqi ham tabiat -jamiyat tizimidagi global ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda birinchi navbatda, ekologik umum majburiy ahamiyatga ega bo'lgan tamoyil, usul, va qoida talablaridan foydalanadi, ikkinchidan, ushbu murakkab ekologik muammolarni xal qilish, ularning huquqiy tartibotini ta'minlashda o'zaro bog'liq bo'lgan huquqning boshqa soxalarining kuch va imkon iyatlaridan foydalanadi. Chunki, ekologiya huquqi xal qilishga qaratilgan ekologik muammolar va vazifalarning kulami kengligi, murakkab

va ahamiyatliligi sababli faqatgina jamiyat xayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy - madaniy jabxalarida mavjud bo'lgan barcha vosita chora - tadbirlarni safarbar qili shorqali ekologik munosabatlarni tartibga solish mumkin.

Shuning uchun ham ekologik muammolarni xal qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ekologik tamoyil, qoida, talablar bilan bir qatorda boshqa huquq soxalari ya'ni ma'muriy, jinoiy, fuqarolik, Mehnat va xo'jalik huquqiy va qoida talablaridan foydalanadi.

Ekologiya huquqi huquq tizimining aloxida soxasi sifatida boshqahuquq soxalari bilan chambarchas bog'liq xolda ijtimoiy munosabatlar, tabiat qonuniyatlari, tabiiy resurslar, ekologik tizim va komponentlarga ta'sir etish ya'ni holatining yomonlashishi, miqdorining kamayishi, muvozanatning buzilishi, turlarning yo'qolishi, va xakazolar kabi jarayonlarda paydo bo'ladi. Hammamizga ma'lumki, Inson bu tabiat maxsuli, uning bir qismi, tabiat qonuniyatlari doirasida shakllanadi va rivojlanadi va taraqqiy etadi. Shuning uchun ham jamiyat o'z taraqqiyotiga erishmoqchi bo'lsa, albatta tabiatning muqaddas, ustuvor qonuniyatlarini anglashi, e'tirof etishi, o'z xatti - harakatlarini moslashtirishi va eng muximi o'z extiyojlarini qon dirish bilan bog'liq harakatyo'nalishlari tabiatning holatiga boglab rivojlantirilishi lozim bo'ladi.

Bugungi kunda tabiat qonunlarini urganish tabiiy resurslarning rivojlanishi, o'zaro bog'liqligi darajasi ekologik tizimdagi muayyan tabiiy resurs, tur, komponentlar sifat va miqdoriy o'zgarishlari, ularga bo'ladigan ta'sir doiralarini aniqlash yoki bir so'z bilan aytganda tabiat ilmini urganishda tabiiy fanlar tizimida o'z yo'nalishi, xususiyatlariga ega bo'lgan ekologiya fani tobora rivojlanib bormoqda.

Ekologiya huquqi fanining oldida «Tabiat - jamiyat tizimi»da turli shakl va yo'nalishlarda paydo bo'ladigan o'zaro ta'sirlarni barqarorlashtirish, harakatyo'nalishlarini aniqlash, jamiyat extiyojlarini qon dirish me'yorlarini urnatish, tabiat qonunlari darajasida atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish talablarini belgilash kabi ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi.

Ekologiya huquqi urganadigan ekologik munosabatlar deganda, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar natijasida paydo bo'ladigan turli ijtimoiy munosabatlarni tushunamiz. Bugungi kunda bu munosabatlar uchta quyidagi asosiy yo'nalishlarda paydo buldi:

1. Atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish bilan bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;
2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;
3. Axolini ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ekologik huquqiy munosabatlar.

Ushbu eklogik huquqiy munosabatlar yo'nalishlari o'z mazmun - moxiyatiga ko'ra bir - biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirlari tizimida tutgan o'rni muammolarini xal qilishda qo'llaniladigan chora - tadbirlari, uslublari va o'ziga xos xususiyatlari bilan bir - biridan farqlanadi.

Shuni aloxida ta'kidlashkerakki, yuqorida tavsiflangan ekologik huquqiy munosabatlar davlat ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologiya huquqining predmeti - atrof muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va axolining ekologik xavfsizligini ta'minlash jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishdan iboratdir.

2. Ekologiya huquqining tamoyillari va manbalari.

Har bir fan sohasi, shu jumladan ekologiya huquqi ham ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida o'z yo'nalishlari, ya'ni o'z tamoyillariga ega bo'lib, o'z navbatida har bir Fan soxasining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqadi.

Biz urganiyotgan ekologiya huquqining mamoyillari - tabiat - jamiyat tizimidagi o'zaro munosabatlar yo'nalishi, chegaralarini belgilab berishda ekologik - huquqiy mexanizmining barqarorligini kafolatlashda va qonunchilik qoida - talablarining ekologik munosabatlarni tartibga solish tartibini belgilashda muxim ahamiyatga egadir.

Ekolgiya huquqining tamoyillarini quyidagi tizimga bulamiz:

1. Davlat va huquqning umumiy tamoyillari;
2. Atrof tabiiy muxitni muxofaza qilishga oid tamoyillar;
3. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan tamoyillar.

Ekoliya huquqi huquqtizimining soxasi sifatida ekologik munosabatlarni tartibga solishda davlat va huquqning quyidagi tamoyillaridan foydalaniladi:

1. Qonuniylik;
2. Ijtimoiy adolat;
3. Oshkoralik;
4. Ishontirish va majburlov choralarining hamkorligi;
5. Shaxslarning huquq va burchlarining birligi va boshqalar.

Atrof tabiiy muxit barqarorligini ta'minlash va tabiatni muxofaza qilishning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligi xozirgi va kelgusi avlodning genetik fondini saqlash;
2. Atrof tabiiy muxitni muxofaza qilishda tabiat qonuniyatlari ustuvorligini tan olish;
3. Fuqarolarning xayoti uchun qulay tabiiy muxitga ega bulishhuquqini ta'minlash;
4. Jamiyatning ekologik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini uygunlashtirish;
5. Tabiatni muxofaza qilishchora - tadbirlarining tabiiy resurslardan foydalanish tadbirlaridan ustuvorligini tan olish;
6. Tabiatni muxofaza qilish faoliyatini ragbatlantirish;
7. Ekologik qonunqoidalarini buzganlik uchun javobgarlik;
8. Tabiiy resurslar holatini tiklash majburiyligi;
9. Ekologiya ekspertizasini o'tkazishning majburiyligi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar quyidagi tamoyillar doirasida tartibga solinadi:

- tabiiy resurslardan faqat ilmiy asoslangan xolda oqlona foydalanishning zarurligi;
- tabiatni muxofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish faoliyatini ragbatlantirish;
- yer, yer osti boyliklari, o'simlik, xayvonotdunyosidan maxsus foydalanganlik uchun xaqto'lash va umumiy asosda foydalanganlik uchun xaq tulaslik;
- yerlardan belgilangan toifalar doirasida maqsadli foydalanish;
- qishloq xujaligiga muljallangan yerlarnng ustuvorligi;
- tabiiy resurslar kadastrini yuritish majburiyligi va boshqalar.

Ekologik huquqiy munosabatlar tizimida quyidagi usullardan foydalaniladi:

Ekologizatsiyalashtirish;

Ma'muriy - huquqiy;

Fuqaroviy - huquqiy.

Ekologik huquqiy munosabatlar tizimini urganishni oson bulishi uchun o'ziga xos institut, toifa va nazariy qoidalar majmuini birlashtirgan xolda ekologiya huquqi o'z tizimiga ega.

Ekologiya huquqining tizimi – ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati va mazmuniga ko'ra asosiy institut, toifa va nazariy - huquqiy masalalarning ma'lum tartibda joylashishidir.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishda yordam beradigan, qatnashadigan huquqiy xujjatlar ekologiy huquqining mabasi sifatida qaralishi mumkin.

Ekologiya huquqining manbalari bo'lib me'yoriy - huquqiy xujjatlar xisoblanadi.

Ekologiya huquqining manbalari – deganda atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va axolining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda xizmat qiladigan qonunchilik xujjatlari tushuniladi.

Ekologiya huquqining manbalari keng kamrovli munosabatlarni tartibga solish uchun ham ularni quyidagicha tasniflash mumkin: yuridik kuchi buyicha manbalar qonunlar va qonunosti me'yoriy xujjatlarga bulinadi.

Ekologik munosabatlarni tartibga solishni yo'nalishlari buyicha:

- tabiatni muxofaza qilishqonunchiligi;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishqonunchiligi;
- axolining ekologik xavfsizligini ta'minlashqonunchiligi.

Munosabatlarni tartibga solish predmeti buyicha:

- umumiy va maxsus ekologik qonunchilik xujjatlari;
- huquqiy tartibga solish holati buyicha moddiy va protsessual ahamiyatdagi qonunchilik xujjatlari;

- qonunchilik xujjatlarining tizimi buyicha oddiy kodifikatsiyalashgan manbalar.

Qonunchilik xujjatlarining qo'llanilish doirasi buyicha:

- hududiy - mintaqaviy;
- Respublika miqiyosida;
- xalqaro miqiyosdagi manbalar va xokazo.

3. O'zbekistonning ekologik siyosati.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabat shakllari va konsepsiyalaridan kelib chiqadigan hamda ekologik qonunlarni maqsadi va moxiyati kishilarning jamiyatdagi ekologik munosabatlarida amal qilishi kerak bo'lgan asosiy prinsiplari yoki qoidalarida namoyon bo'ladi. Bu prinsiplar tabiat qonuniyatlariga asoslangan bo'lib quyidagilardan iboratdir:

Tabiiy xodisa va jarayonlar ko'p kirralikdir, shuning uchun ham ular har tomonlama obyektiv baxolanishi kerak. Bu degani har bir tabiiy xodisa yoki obyektga xalq xujaligining soxaviy zaruriyatiga qarab yondashish demakdir. Bu soxaviy yondashuv avvalambor ekologik tizimlarni saqlab qolish va ularni qayta tiklash nuqtai nazardan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta Osiyo sharoitida urmon qurilish yoki ximik xom - ashyo manbayi emas, balki ekologik tizim yoki lanshaftlarni bir me'yorda ushlab turuvchi element sifatida qaralishi kerak. Chunki bu mintaqada bor yugi umumiy maydonning bir fiozidan oshmaydigan siyraq daraxtzor va butazorlar suv tuproq muxofazasida «Yashil qalqon», iqlimni mu'tadillashtiradigan komponent, axolini madaniy dam olishini ta'minlaydigan obyekt sifatida qarashni takazo etadi.

O'zbekiston Respublikasi suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonun xujjatlariga ko'ra suv fondidagi daryolar O'rta Osiyo sharoitida sugorish va rekratsiya manbai emas, balki ichimlik suvi va axolining maishiy xizmati uchun muljallanishi kerak. Chunki issiq iqlimli sharoitda suv axolii uchun xayot manbayidir. Sibir, O'zokSharq kabi sovuk yoki nam iqlimli mintakalar uchun daryolar, avvalambor axolini transport xizmatini bajaruvchi va arzon energetika manbaidir. Daryolar insonlarning xayoti uchun bilvosita qishloq xujaligi, metallurgiya, tog - qon sanoati, kimyo kabi suvni ko'p talab qiluvchi xalq xujaligi tarmoqlari orqali xizmat qiladi. Asosiysi tabiat komponentlari turli chqiindilar va axlatlar tashlaydigan tabiiy obyekt bo'lib qolmasligi kerak.

Yer kurrasida yo'zaga kelayotgan ekologik nobop muxitning chuqurlashuvida ozmi ko'pmi O'zbekistonning ham ishtiroki bor. Xozirda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 29 milliarddan ziyod axolining yarmidan ko'prog'i ekologik xavfsiz bo'lmagan muxitda yashamoqda. Orol dengizi va uning atrofida ruy bergan ekologik inkiroz holati Sovet davrining noekologik agrar iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz shaxsan prezident ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy isloxotlar bilan uygunlashtirilgan xolda olib borishni lozim deb topmoqda.

XX asr oxiriga kelib O'zbekistonda quyidagi taktik va srategikyo'nalishlar ishlab chiqilgan: «2005 yilgacha bo'lgan davrda tabiatni muxofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning Davlat dasturi», «O'zbekiston Respublikasida tabiatni muxofaza qilish va barqaror rivojlanishning ekologik ta'minlashning milliy harakatlar Reja: si», «O'zbekiston Respublikasida atrof muxit gigiyenasi buyicha milliy harakatlar dasturi», «Biologik xilma - xillikni saqlab qolish buyicha milliy srategiya va reja: «. Bu xujjatlarda davlatimizning jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabat shakli, xozirgi kunda va kelajakda qanday bulishi, O'zbekistonning ekologik konsepsiyasi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi – kishilarning xayotiy zarur bo'lgan ekologik xavfsiz muxitini ta'minlash uchun tabiatni muxofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ya'ni tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi iqtisodiy - ekologik munosabat shaklini qo'llashdir.

29 avgust 1997 yilda qabul qilingan milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risidagi qonunda ham mamlakatimizning ekologik konsepsiyasi berilgan edi, ya'ni shaxsning xayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan kishilarning sog'igini muxofaza qilish va insonlarning turmushi uchun optimal holatdagi ekologik sharoitlarni yaratib berish; jamiyatning xayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan oilani har tomonlama qullab - quvvatlash, mu'tadil ekologik vaziyatni tashkil etish, axolining sogligini ta'minlash, jismoniy baquvvat avlodni shakllantirish; shuningdek davlatning xayotiy zarur ehtiyojlari bo'lgan barqaror rivojlanish mintaqaviy iqtisodiy holatni mu'tadillashtirish sog'lom xayot tarzini shakllantirishdan iboratdir. Undan tashqari prezidentimiz I. A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr busag'sida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida hamda 2005 yilgacha bo'lgan davrda tabiatni muxofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning davlat dasturida yuqorida aytilgan maqsad va konsepsiyalarni amalga oshirishning asosiy chora - tadbirlari belgilandi. Ular quyidagilardan iborat:

- ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish
- qishloq xo'jalik ekinlarini eng avvalo go'zani sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish
- sanoat korxonalarida atmosferaga, xavoga, suv xavzalariga, tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun maxsus solikdan keng foydalangan xolda ma'suliyatni oshirish darkorligi
- qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlangan turlaridan oqilona foydalanish
- foydali qazilmalardan oqilona foydalanish kerakligi
- keng maydonlardagi tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniqmaqsadli, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish
- jonli tabiatning xilma - xilligini saqlash.
- Jaxon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining yuqorida aytib utilgan ekologik siyosatni amalga oshiruvchi tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabat shakli, tabiat qonuniyatlariga jamiyat qonunlarini moslashtirish, ekologik chora - tadbirlar va asosiy tanlangan tamoyillarning xayotga tadbirk qilish mexanizmi ishlab chiqilsa va amaliyotda ular o'z tadbirini topsa so'zsiz bizning mamlakatimiz yaqin kelajakda ekologik munosabat shakliga utib olishi mumkin. Bunday siyosat shaxsning, jamiyatning va davlatning xayotiy zarur bo'lgan milliy xavfsizligini ta'minlashda katta omil bo'lib xizmat qilishiga xechshubxa yuq.

4. Ekologiya nazorati tushunchasi, maqsadi, vazifasi va usullari.

Ekologiya nazorati davlat ekologik siyosatning muxim tarkibiy qismi sifatida tabiat - jamiyat tizimidagi ekologik munosabatlarning barqarorligi ta'minlashda muxim ahamiyatga egadir.

Hammamizga ma'lumki, ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida ekologiya nazorati muxim vazifalarni amalga oshiradi.

Ekologiya nazorati – atrof tabiiy muxitning muxofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashqoida - talablarini barcha vazirlik, davlat kumitalari va idoralari korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muxit holatini urganish vakuzatish, chora - tadbirlarni qullash bilan bog'liq siyosiy - huquqiy, ijtimoiy - iqtisodiy va ma'naviy - ma'rifiy chora - tadbirlar yigindisini o'z ichiga oladi.

Ekologiya nazoratining asosiy maqsadi atrof - tabiiy muxit barqarorliginisaqlashdan iborat bo'lib davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirgan xolda olib borilishini takazo etadi. Ekologiya nazoratining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida»gi Qonunining 29 - moddasida belgilangandir.

Ekologiya nazoarti bilan bog'liq murakkab faoliyatni olib borishda ekologiya nazorati subyektlari tomonidan quyidagi asosiy tashkiliy - huquqiy usullar qo'llaniladi:

- Kuzatish – atrof tabiiy muxitda bo'ladigan o'zgarishlarni urganish va ma'lumotlarni tuplash;

- Umumlashtirish – atrof tabiiy muxit holatiga zararli va xavfli ta'sirlarni aniqlash, taxlil qilish aslsida ma'lumotlarni tasniflash;

- Baxolash – antropogen faoliyat ishlarining zararli, xavfli va noqonuniyligini aniqlash;

- Ruxsatnima berish – yuridik va jismoniy shaxslarga yer, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi, yer osti boyliklari va atmosfera xavosidan foydalanish uchun litsenziya berish;

- Ogoxlantirish, cheklash va tuxtatish – ekologik xavfli va zararli xo'jalik va boshqa faoliyatni cheklash, vaqtincha tuxtatib quyish va bekor qilish;

- javobgarlikka tortish – ekologik qoida - talablarini buzgan, yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy - huquqiy javobgarliklarni kullash.

Davlat ekologiya nazorati – atrof - tabiiy muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va axolining ekologik xavfsizligini ta'minlashqoida - talablarini barcha vazirlik, davlat kumitalari, idoralar, yuridik shaxslar, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi yo'zasidan maxsus vakolatli organlarning tekshirish va choralarni kurish bilan bog'liq faoliyatini o'z ichiga oladi.

Qonun xujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza qilish kumitasi, O'zbekiston Respublikasi soglikni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi yer resurslari davlat kumitasi, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi sanoat va qon chilik nazorati agentligi, maxsus vakolatli davlat organlari xisoblanadi.

Ekologik ekspertiza – ekologik huquqiy mexanizmning tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muxitning barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan unumli va samarali foydalanish va axolining ekologik xavfsizligini ta'minlashda muxim ahamiyatga egadir. Amaldagi qonun xujjatlariga asosan ekologik ekspertiza deganda Reja: lashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilashhamda ekologik ekspertiza obyektini ruyobga chiqarish mumkinligini aniqlashtushuniladi. Ekologik ekspertizaning huquqiy holati Konstitutsiyaviy qoidalarda O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida»gi, «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza qilish davlat kumitasi, O'zbekiston Respublikasi soglikni saqlash vazirligining ekologik ekspertizani o'tkazish tartibi to'g'risidagi me'yoriy xujjatlarida belgilangan.

Respublikada ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda utkaziladi:

- muljallanayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosqichlarda bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

- Reja: lashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muxit holatiga va fuqarolar sogligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik darajasini aniqlash;

- atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish buyicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va asosililigini aniqlash.

Ekologik ekspertizaning eng asosiy vazifasi atrof tabiiy muxit va axolining xayoti va sogligiga xavfli va zararli ishlab chiqarish va xo'jalik obyektlarining ta'sirlarini oldini - olish, bartarf etish bilan bog'liq preventiv chora - tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Ekspertiza natijalari to'g'ri, odilona bulishi chun biologik, kimyoviy, fizikaviy, texnologik, demografik, agro - ekologik, iqtisodiy va boshqa jabxalardagi bilimlarni jamlagan xolda keng kamrovli ijodiy Mehnat maxsuli bulishi va tekshirilayotgan obyektga nisbatan real, obyektiv baxo berilishi kerak.

Ekologik ekspertiza jarayonida turli shakldagi quyidagi usullardan foydalangan xolda ko'zda tutilgan maqsadlarga erishiladi:

- ma'lumotlar tuplash - ekspertizadan utayotgan muayyan obyektga tegishli bo'lgan barcha axborot, ma'lumotlarni yigish va tuplash;

- umumlashtirish - obyekt haqidagi tuplangan iqtisodiy, texnologik, ekologik, gidrologik

kimyoviy va boshqa ma'lumotlarni o'z yo'nalishlari buyicha ma'lum tizimga keltirish;

- taxlil qilish - umumlashgan ma'lumotlar bankini o'z yo'nalishi va xususiyatlari buyicha aloxida urganish va tasniflash;

- baxolash - ekspertizp utkazilayotgan obyekt yo'nalishlari, bo'limlari, tashkil etuvchi qismlari buyicha xavfli va zararlilik darajasini aniqlash;

- xulosa berish - ekspertiza utkazilayotgan obyektning ekologik jixatdan zararli yoki zararsiz, xavfli yoki xavfsiz, ekologik qoida - talablarga mos keladi yoki Ushbu qoidalarga zid ekanligi haqidagi yakuniy, adolatli, obyektiv xulosaga kelish.

Davlat ekologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza qilish davlat kumitasi tomonidan olib boriladi.

Ekologik ekspertiza tizimida ekologik audit ham muxim ahamiyatga egadir. Ekologik audit - ekologik auditorlar tomonidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda utkaziladigan belgilangan tartibda va shartlarda utkaziladigan, atrof tabiiy muxit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilishdir. Lekin, ekologik auditning ekologik ekspertizadan yagona farqi xo'jalik yoki ishlab chiqarish obyektini mulkdorining qaroriga binoan utkaziladi.

5. Ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tushunchasi, moxiyati va turlari.

Ekologiya qonun xujjatlarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik o'zining asosiy maqsadi va tamoyillari bilan boshqaqonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farqqilmaydi, lekin ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlariga ham ega. Ushbu xususiyatlar o'simlik va xayvonot dunyosiga yetkazilgan zararni undirish va ekologik qonun xujjatlarini buzganlik uchun maxsus jazo choralari, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanishhuquqini cheklash, tuxtatib turish va undan maxrum qilishchoralarini kullashdan iboratdir.

Ekologik qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik quyidagi maqsadlarga qaratilgandir:

- tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muxofaza qilishqoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan jazo choralari kullash;

- atrof tabiiy muxitga va Inson salomatligiga yetkazilgan zararni koplash;

- yangi ekologik huquqbuzarliklarni sodir etishni ogoxlantirish.

Ekologik huquqbuzarliklarning obyektini - tabiiy resurstar, atrov tabiiy muxit, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muxofaza etish buyicha belgilangan tartibi xisoblanadi.

Ekologik huquqbuzarliklarning subyektlari esa - uni sodir etuvchi yuridik va jismoniy shaxslardir.

Ekologik huquqbuzarlikning obyektiv tomoni - xatti - harakatning noqonuniyligi, ekologik zararni yetkazish yoki yetkazish xavfi tug'ilishi hamda ekologik munosabatlarning yuoshka subyektlarini huquq va manfaatlari buzilishi, Ushbu xatti - harakat bilan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibat o'rtasidagi sababiy boglanish bilan ifodalanadi.

Ekologik huquqbuzarliklarning subyektiv tomoni deganda, huquqbuzarlarning aybi tushuniladi. Huquqbuzarning aybi qasddan yoki extiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Qasddan huquqbuzarlik sodir etishda huquqbuzar takiklangan qoida ni yoki bajarishi lozim bo'lgan majburiyatni atayin buzadi yoxud bajarmaydi va bunda u o'z xatti - harakatlari bilan zararli oqbatlarni kelib chiqishini biladi hamda unga ongli ravishda yul kuyadi.

Ekologik huquqbuzarlik o'zining xavflilik darajasiga qarab jinoiy, ma'muriy, fuqaolik (mulkiy) huquqbuzarlik hamda intizomiy xatti - harakat tarzida bulishi mumkin va ularga nisbatan qonun xujjatlarida belgilangan turli javobgarliklar qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining U11 - U111 boblarida belgilangan qoidalar tabiat atrof muxitga qarshi sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarliklardir. Ularda ko'rsatilgan qoidalar buzilsa, jarima, maxsus huquqdan maxrum etish, ma'muriy qamoq, mol - mulkini musodara qilish kabi jazolar qo'llanilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 193 - moddasi ya'ni

Sanoat, energetika, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm - fan obyektlari yoki boshqa obyektlarni loyixalash, joylashtirish, kurish va ishga tushirib foydalanish normalari va qoidalarning mansabdor shaxslar tomonidan buzilishi, yoxud davlat komissiyasining a'zolari tomonidan bu obyektlarni normativ xujjatlarda belgilangan qoidalarni buzib qabul qilinishi insonning o'limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta'sir qiladigan darajada atrof muxitning o'zgarib ketishiga yoki boshqacha ogir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa;

194 - moddasi:atrof tabiiy muxitning ifloslanganligi ma'lumotlarini qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatganlik uchun; 195 - moddasi:atrof tabiiy muxitning ifloslanishi oqibatlarinibartaraf qilishchoralarini kurmaslik uchun; 196 - moddasi atrof tabiiy muxitni ifloslantirish natijasida oqibati yomon holatlarga olib kelsa jinoiy jazo turlaridan ya'ni jarima, ozodlikdan maxrum etish, muayyan huquqdan maxrum etish, qamoq, axloq to'zatis ishlariga jalb etish kabi jazolar jinoiy sud tomonidan belgilanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, yer, yer osti boyliklaridan foydalanishshartlarini yoki ularni muxofaza qilish talablarini buzish; ekinzor, urmon, boshqa dov - daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish; o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalariga qarshi ko'rash talablarini buzganlik uchun; zaharli kimeviy moddalar bilan muomalada bulishqoidalarini buzish; xayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish; su vyoki xayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish; aloxida muxofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish kabilar.

Ushbu jinoyatlar tarkiblari umumiy ekologik talablarni buzish oqibatida vujudga keladi. Ularning barchasi tabiiy resurslarni muxofaza qilish bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, O'zbekiton Respublikasi JKning 17 - moddasiga ko'ra ekologik jinoyatlar uchun ham javobgarlikka tortish yoshi 16 - yosh bulaoladi.

Yuqorida qayd etilgan Kodekslardan tashqari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan Ekolgiyani tartibga solishga qaratilgan qonunlarimizda ham yuridik javobgarliklar mavjuddir. Jumladan: «Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida»gi; «Atmosfera xavosini muxofaza qilish to'g'risida»gi; «Milliy xavfsizlik Konsepsiyasi to'g'risida»gi; «O'simliklar dunyosidan foydalanish va ularni muxofaza qilish to'g'risida»gi; « Xayvonot dunyosidan foydalanish va uni muxofaza qilishqilish tugrsida»gi; «Davlat yer kadastrı tugrsida»gi; «Urmonlar to'g'risida»gi va boshqaqonunlar.

XULOSA.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ekologiya huquqi - tabiat zaxiralarini himoya qilish va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi qonunlar, yuridik normalar ygindisi. Biz «Ekologiya huquqi» mavzusi orqali uning aloxida huquq tarmogi sifatida yaqinda XX asr ning 80 - yillari oxiri - 90 yillarining boshlarida vujudga kelganligini, atrof tabiiy muxitni asrab avaylashga oid qonun xujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega buldik. Ayniksa, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, jamiyatning turli extiyojlarini qon dirishmaqsadida yer, yer osti boyliklari, sv resurslari, atmosfera xavosi, o'simlik va xayvonot dunyosidan foydalanishga qaratilgan ilmiy jixatdan davlat dastur va rejaları, atrof babiy barqarorligi, aholining sog'ligiga xavfli ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish, oldini olish, cheklash va bartaraf etishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy, manaviy - ma'rifiy soadagi chora - tadbirlar haqidatushunchaga ega buldik. Ularni bilmasdan huquqbuzarlik sodir etilsa unga nisbatan javobgarlik mavjudlinini urganib chiqdik. Shunday bo'lsada biz mazkur mavzu yo'zasidan yuqorida sanab utgan qonunlarimizning mazmun - moxiyatini yanada mukammal bilish uchun, ularni urganib chiqishni talabalarimizga tavsiya etamiz.

GLOSSARIY.

1. Ekotsid - xayvonot va o'simliklardunyosini yoppasiga kirib tashlash, atmosfera va suv resurslarini zaharlash, shuningdek, ekologik inkirozlar keltirib chiqaradigan boshqaharakatlarni amalga oshirish.

2. Ekologik urush - rakibga uning hududiga ta'sir qili shorqali zarar yetkazish. Bu BMT tomonidan mann qilingan.

3. Ekologik sug'o'rta - ko'ngilli davlat ekologik sug'o'rtasi.

4. Ekologik jamgarmalar - budjetdan tashqari davlat jamgarmalari. Ular kechiqtirib bo'lmaydigan tabiiy muxofaza vazifalarini bajaradilar.

5. Ekologik ofat zonalari - O'zb. Res. hududiy uchastkalarida xo'jalik va boshqa faoliyat natijasida faunalar va floralari buzilishi, tabiiy ekologik tizimni vayron qilish natijasida tabiiy muvozanatning buzilishi.

Nazorat uchun savollar.

1. Ekologiya huquqining predmeti nimani o'rgatadi ?
2. Ekologik jamgarmalarning vazifalari nimalardan iborat ?
3. Ekologiya huquqining manbalari haqidatuncha bering.
4. Ekologik ekspertiza nima ?
5. Ekologiya huquqining asosiy yo'nalishlari haqida nima bilasiz ?
6. Ekologik ekspertizaning tizimi qanday ?
7. Ekologiya huquqi qanday tamoyillarga asoslanadi ?
8. O'zbekistonda ekologik siyosat qanday yulga quyilgan ?

Adabiyotlar.

1. I. A. Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T. O'zbekiston. 1999.
2. I. A. Karimov «O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T., «O'zbekiston» 1997yil.
3. T. Mirzayev «O'zbekistonda ekologik muammolar va prokurorlik nazorati» T - 2000 yil.
4. Xaytboyev E. R. «Ekologik huquqi» o'quv qo'llanma. T. O'z MI. 2002.
5. Xolmuminov J. T. «Ekologiya va qonun» T. Adolat 2000.
6. Usmanov M. B. «Yer va qonun» T. Adolat 1994.
7. O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida»gi qonun, «O'zbekistonning yangi qonunlari» 7 - son T., «Adolat» 1998 yil.
8. O'zbekiston Respublikasining «Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida»gi qonuni 29 avgust 1997.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi T...Adolat 2001.
10. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik - protsessual Kodeksi T. Adolat 2001.
11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat - protsessual Kodeksi. T. Adolat 2001
12. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. T. Adolat 1995
13. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga sharxlar T. Adolat 2001.
14. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonuni. 14 aprel 1999 y.
15. Eriashvili N. D, Trunsevskiy YU. V, Qurochkina V. V «Ekologicheskoye pravo» uchebniq dlya VO'Zov. M. YUNITI - DANA, zaqon i prava, 2004.
16. www. gov. o'z
17. www. edu. o'z
18. www. zivo. tdu. o'z
19. www. ec. tdu. o'z
20. www. performfnce. edu. o'z

10. - Mavzu: Jinoyat huquqi asoslari.

REJA:

1. Jinoyat huquqi tushunchasi.
2. Jinoyat tushunchasi va uning tarkibi.
3. Jinoiy javobgarlik va ishtirokchilik.
4. Jinoiy jazo va uning turlari.
5. Voyaga yetmaganlarning javobgarligi.

1. Jinoyat huquqi tushunchasi.

Respublikamiz oldida turgan g'oyat muxim vazifalardan biri keyingi vaqtda o'sib

borayotgan jinoyatchilikka qarshi ko'rish olib borishdir. Bu vazifani xalq etish davlat va fuqarolar tomonidan doimo kuch – g'yrat sarflashni, ijtimoiy - iqtisodiy, tarbiyaviy va huquqiy tadbirlarni og'shmay amalga oshirishni taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1X - sessiyasida so'zlagan nutqida «Yaratganimizga ming qatla shukurlar bo'lsinki, biz ham siyosiy, ham iqtisodiy soxalarda, ham xavfsizlikni saqlab qolish borasida eng og'ir va murakkab davrni boshimizdan eson - omonlik bilan kechirdik. Xalqimizning donoligi, bag'ri kengligi, sabr - bardoshi bizni har qanday balo qazolardan asrab, idrokimizni, aql - zakovatimizni charxlab, yurtimizda osoyishtalik va millatlararo, fuqarolararo tinchlikni saqlab qolishga xizmat qildi» - degan edi. Demak, xozirgi kunda jinoyatlarni kamaytirish, ularning oldini olish va unga qarshi ko'rish uchun mamlakatimizda shart - sharoit mavjud. Ammo, bu muammo o'z - o'zidan xalq bulavermaydi, buning uchun barcha chora - tadbirlar va vositalardan foydalanish talab etiladi. Shu vositalardan biri yoshlar ongiga huquqiy bilimlarni singdirishdir. Biz urganadigan mazkur mavzu hamhuquq tarmoqlaridan biridir.

Jinoyat huquqi - ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimi uchun xavfli bo'lgan qilmishning jinoyatligini va jazolanishini belgilovchi yuridik normalar yigindisidan iborat huquq tarmogidir. Jinoyat huquqi huquqiy normalar yigindisidan tashqari, jinoyat huquqi fanini va tegishli yuridik uquv fanini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining asosiy prinsiplariga:

- qonuniylik, sodir etilgan qilmishning jinoyatligi, jazoga sazovorligi va boshqahuquqiy oqibatlarini faqat jinoyat qonuni bilan belgilanadi. Xech kim sudning xukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas;

- fuqarolarning qonun oldida tengligi, jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tikodi, shaxsiy va ijtimoiy mavkeidan qat'i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga egaligidir;

- demokratizm, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini to'zatishtishiga qonunda nazarda tutilgan xollarda jalb qilinishlari mumkinligi;

- insonpavarlik, jazo va boshqahuquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki Inson qadr - kimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamasligi.

- odillik, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqahuquqiy ta'sir chorasini odilona bulishi, ya'ni jinoyatning ogir - yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bulishligi;

- ayb uchun javobgarlik, shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchun javobgar bulishligi;

- javobgarlikning muqarrarligi, qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shartligi prinsiplari kiradi.

Jinoyat huquqi, huquqning barcha soxalaridan quyidagi jixatlari bilan farqqiladi:

- birinchidan, jinoyat sodir etilishi munosabati bilan vujudga kelgan jinoyat - huquqiy munosabatlarda, bir tomonidan jamiyat, davlat, ikkinchi tomonidan esa jinoyat sodir etgan shaxs subyekti bo'ladi;

- ikkinchidan, jinoyat - huquqiy norma bilan belgilab quyilgan takiklarni buzganlik uchun sud davlat nomidan qullaydigan jinoyat jazo beriladi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «xech kim sud xukmisiz va qonunga nomuvofiq xolda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilishi va jinoyat jazoga tortilishi mumkin emas. «

Jinoyat huquqining vazifalariga quyidagilar kiradi: «shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, mulkini, tabiiy muxitni, jamoat va davlat manfaatlarini hamda butun huquqtartibotni jinoyat tajovo'zlardan ko'riklash, jinoyatlarni oldini olishga, fuqarolarni Respublikamiz Konstitutsiyasi va qonunlarga aniqlik etish ruxida tarbiyalashga yordam berish. «

Jinoyat huquq normalari o'z mazmuniga ko'ra ikki qismga bulinadi: ulardan biri jinoyat huquqning umumiy o'rnini, qoida va tartibini belgilab beradi, ikkinchisi esa aniqlik jinoyatlar belgilarini ta'riflab, mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazolarni

aniqlaydi. Birinchi xil normalar jinoyat huquqining umumiy qismini, ikkinchi xil normalar esa maxsus qismni tashkil etadi.

Jinoyat huquqida ishlab chiqilgan qoidalarga ko'ra, har bir qilmishning jinoiy ekanligini va uni jinoyat qonunining qaysi me'yori bilan javobgar qilishkerakligini xal qilish uchun jinoyat tarkibini taxlil qilinadi.

Jinoyat tarkibi - bu O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining qonunda nazarda tutilgan, sodir qilingan ijtimoiy xavfli harakatni aniqqinoyat turi sifatida tavsiflaydigan obyektiv va subyektiv belgilar yigindisi; jinoiy javobgarlikning zarur asosidir.

Jinoyat tarkibi quyidagilarga qarab farqlanadi:

- Ushbu harakatning ijtimoiy xavfliligi darajasi buyicha - asosiy jinoyat tarkibi ogirlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari bilan;

- Jinoyatni bayon qilish usuliga ko'ra - oddiy va murakkab;

- Bayon qilish usuli va konstruksiyaning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra - harakat (harakatsizlik)ning o'zi bilan cheklangan va aniqoqibatlar (tovlamachilik, dezertirlik) bulishini talab qilmaydigan formal tarkib va harakat (harakatsizlik)dan tashqari aniqoqibatlar bulishini nazarda tutadigan moddiy tarkib.

Jinoyat huquqida jinoiy qilmishni aniqlashham muxim rol uynaydi. Jinoiy qilmish - bu jinoyat qonunlari bilan muxofaza qilinuvchi ijtimoiy munosabatlarga taxdid qiluvchi jamiyatga karshi va inson axloqqoidalarnidan chetga chiquvchi aktdir. Jinoiy qilmish o'zining obyektiv xossalariga ko'ra jamiyat uchun xavfli harakat yoki harakatsizlik, subyektiv xossalariga ko'ra esa hamisha muayyan maqsad va muayyan sabablarga ko'ra sodir etilgan aybli qilmishtushuniladi.

Ma'lumki, jinoyat qonuni bilan ko'riklanadigan harqanday ijtimoiy munosabat jinoyatning obyeksi xisoblanadi. Harqanday ong bilan boshqarilgan qilmish ichki va tashqi moxiyatdan iborat bo'lib, uning ichki moxiyatini subyektiv tomoni, tashqi moxiyatini esa obyektiv tomoni deb aytiladi. Jinoyatning obyektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni sifatida, jinoyatni qanday sodir etilganligini aniqlaydi.

Boshqa huquq tarmoqlari singari jinoyat huquqi ham o'z manbalariga egadir. Ular: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining jinoyat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasi Qonunchilik, yuqori palatasi Senat tomonidan qabul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyish va qarorlari hamda jinoyat huquqini urgatish borasida chop etilgan darslik va ukuv qo'llanmalar, shuningdek, huquqiy jurnal, gazetalar va Xalqaro huquqiy xujjatlar, xalqaro shartnomalardir.

O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxs O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga binoan javobgarlikka tortiladi. Buning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi jinoyat Kodeksining 11 - moddasida belgilab quyilgandir ya'ni qilmish:

1. O'zbekiston hududida boshlangan, tamomlangan yoki tuxtatilgan bo'lsa;

2. O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O'zbekiston hududida yo'z bergan bo'lsa;

3. O'zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O'zbekiston hududidan tashqarida yo'z bergan bo'lsa;

4. Bir nechta qilmishdan iborat yoki boshqaqilmishlar bilan birgalikda sodir etilgan bo'lib, uning bir qismi O'zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

O'zbekiston bayrogi ostidagi yoki O'zbekiston portida ruyxatga olingan xavo, dengiz yoki daryo kemasida O'zbekiston hududidan tashqarida bo'lib, chet El davlati hududi xisoblanmagan joyda sodir etilsa, bunday jinoyat uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi asosida javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoiy qonun xujjatlari O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyati uchun usha davlat sudining xukmi bilan jazolangan

bo'lmalar, mazkur qonunlar asosida jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston fuqarosi chet davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha xol nazarda tutilmagan bo'lsa, ushlab berilishi mumkin emas. Chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar va xalqaro bitimlarda nazarda tutilgan xollardagina O'zbekiston Respublikasi jinoyat Kodeksi buyicha javobgarlikka tortiladilar.

Qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi ana shu qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan qonun bilan belgilanadi. Qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning axvolini Boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytishkuchiga ega, ya'ni Ushbu qonunkuchga kirgunga qadar tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxsga, shu jumladan jazoni utayotgan yoki utab bo'lgan shaxsga nisbatan, agar u xali sudlangan xisoblanmasa tadbik etiladi.

8. 2. Jinoyat tushunchasi va uning tarkibi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 14 - moddasida jinoyatga ta'rif berilgan bo'lib, unda «Jinoyat Kodeksi bilan ta'riflangan, aybli, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qullash taxdidi bilan jinoyat deb xisoblanadi», deyilgan. Jinoyat boshqaqoida buzarlilardan o'ziga xos jixatlari bilan ajralib turadi. Bu qilmishning ijtimoiy xavfliligidir. Chunki jinoyat natijasida jamiyat va shaxs uchun ham moddiy, ham ma'naviy zarar yetkaziladi. Shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoiy oqibatda aks etadi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat Kodeksiga ko'ra jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra:

- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan ya'ni qonunda ozodlikdan maxrum qilishga nisbatan yengilroq jazolar nazarda tutilgan jinoyatlar;

- uncha ogir bo'lmagan ya'ni qasddan jinoyat sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan maxrum etish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, extiyotsizlik orqasida sodir etilib, qonunda ozodlikdan maxrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar;

- ogir jinoyatlar ya'ni qasddan sodir etilib, qonunda ogir jazo sifatida besh yildan ortiq, lekin un yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan maxrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar;

- uta ogir jinoyatlar ya'ni qasddan sodir etilib, qonunda un yildan ortiq muddatga ozodlikdan maxrum qilish yoki o'lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining kushma majlisida qilgan Ma'ruzasida «Sud - huquq tizimini liberallashtirish borasida biz xal etishimiz lozim bo'lgan Yana bir masala - bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir. « - degan edi. Bu masala mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlanganligiga barchamiz guvoxmiz, Chunki jinoyat Kodeksi qabul qilinganida 33 ta modda buyicha o'lim jazosi bor edi, bugungi kunga kelib ikkitasi qoldirilgan, lekin 2005 yil 2 avgustda e'lon qilingan Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi farmoni asosida «2008 yil 1 yanvardan jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinsin va uning o'rniga umrbod yoki o'zok muddatga ozodlikdan maxrum etish jazosi joriy etilsin» deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunlari bilan ko'riklanadigan obyektlarga zarar yetkazgan yoki yetkazish mumkun bo'lgan harakat jamoa uchun xavfli deb xisoblanadi.

Demak, jinoyat - ijtimoiy xavfli, qonunga xilof, qasddan yoki extiyotsizlik bilan qilingan harakat yoki harakatsizlikdir. Harakat yoki harakatsizlikning ijtimoiy xavfliligi jinoyatning tabiatini va moxiyatini ochib beradi.

Jinoyatning qonunga xilofligi - jinoyatning yuridik huquqiy belgisidir. Bundan tashqari, jinoyat sodir etgan shaxsning aybli bulishi jinoyatning muxim belgilaridan biridir. Shundagina, aybdorga jinoiy jazo qo'llaniladi.

Biz yuqorida, jinoyat tushunchasiga harakat yoki harakatsizlik degan so'zlarni kiritdik.

Harakat - shaxsning ongi, fe'l atvori va erkinlik ifodasi bo'lib xisoblanadi. Shaxs o'z

qilgan ijtimoiy harakatini ongli ravishda sodir etadi.

Harakatsizlik - shaxsning ijtimoiy, xavfli, passiv fe'l atvori bo'lib, qilish lozim bo'lgan harakatni qilmaslikda ifodalanadi. Masalan: aliment tulaslik, yordam bermaslik.

Jinoyat tarkibi - bu qonun tomonidan aniqlangan alomatlar yigindisi bo'lib, ularning mavjudligi jinoyat sifatini tavsiflaydi.

Jinoyat tarkibining alomatlar yigindisi uzluksiz butundir. Alomatlardan aqalli bittasining bo'lmasligi jinoyatning ham yukligini bildiradi. Jinoyat tarkibining alomatlarini faqatqonun aniqlaydi.

Jinoyatning tarkibini xosil qiluvchi alomatlar zaruriy va fakultativ belgilarga bulinadi. Zaruriy belgilar jinoyatning harqanday tarkibi uchun zarur, fakultativ belgilar esa ayrim tarkiblar: urin, usul, vaziyat, vaqt, sabab, maqsad, maxsus subyekt va xokazolarni tavsiflashda qonunlar tomonidan ko'zda tutiladi.

Jinoyatlar tarkiblari jinoyatning asosiy tarkibi, jinoyatning aybini ogirlashtiradigan holatlarga ega bo'lgan tarkibi, jinoyatning ayni uta ogirlashtiradigan holatlarga ega bo'lgan tarkibi va jinoyatning ayni yengillashtiradigan holatlarga ega bo'lgan tarkibiga bulinadi.

Jinoyat tarkibi jinoyatning obyektivi va obyektiv jixatini, subyektivi va subyektiv jixatini tavsiflaydigan alomatlar turt guruxini tashkil etadi.

Jinoyat obyektivi - bu jinoyat harakatlariga qaratilgan narsa, ya'ni jinoyat qonuni bilan muxofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatdir.

Jinoyatning obyektiv tomoni - bu konun tomonidan muxofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga jiddiy putur yetkazgan yoki yetkaza oladigan muayyan ijtimoiy xavfli, qilmishning tashqi kurinishi, shuningdek bu putur yetkazishning joyi, vaqti, vaziyati, hamda usulidir.

Jinoyat subyektivi - O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra jinoyat subyektivi deb, faqatgina shaxslar tan olinadi.

Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni - bu aybning mavjudligi bo'lib, bunda shaxsning sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va uning oqibatlariga ruxiy munosabati tushuniladi.

3. Jinoiy javobgarlik va ishtirokchilik.

Jinoiy javobgarlik deyilganda, jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati bo'lib, aybdorga nisbatan jazolashshaklidagi davlat majburlov chorasini qullash tushiniladi. Jinoiy javobgarlikka jalb etish jinoyat ishini ko'zgatishni, tergov qilishni va sudda muxokama qilishni bildiradi. Jinoyatning sodir etilishi - aybdorlar va odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat o'rtasida o'ziga xos huquqiy munosabatlarning qaror topishiga alib keluvchi yuridik fakt. Ushbu huquqiy munosabatlar mazmuniga ko'ra davlat tomonidan uning huquqni muxofaza qiluvchi organlarining jinoyatni tergov qilish majburiyatida namoyon bo'ladi hamda muayyan shaxsning aybdorligini isbotlovchi dalillar yetarli bo'lgan taqdirda davlat uni jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin bo'ladi. Sodir etilgan jinoyatda, bir tomondan, jinoiy javobgarlikka tortilish majburiyati, boshqa tomondan, bu javobgarlikni Ushbu turdagi qilmish uchun qonunda belgilangan doirada cheklashhuquqi yo'zaga keladi.

Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortishda jinoyatning kim tomonidan sodir qilinganligi, qanday vaziyatda ruy berganligi, ko'pchilik ishtirokidami, qasddanmi yoki extiyotsizlik oqibatidami ekanligi muxim ahamiyatkasb etadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, proquror va sud jinoyat sodir etilganligi to'g'risidagi sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan xolda jinoyat ishini ko'zgatishi shartdir. Jinoyat ishi, bu jinoyat belgilarini aniqlashning har bir xollarida qonuniy ravishda ko'zgatilgan ishdur.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 17 - moddasiga ko'ra jinoiy javobgarlikka jinoyat sodir etgunga qadar un olti yoshga tulgan, aqli raso jismoniy shaxslar tortiladilar. Javobgarlikni ogirlashtiradigan holatlarda qasddan odam uldirganlar (JKning 97 - modda ikkinchi qismi uchungina) un uch yoshdan jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishda aqli norosa bo'lgan ya'ni surunkali ruxiy kasalligi, ruxiy holati vaqtincha buzulganligi, aqli zaifligi yoki boshqa turdagi ruxiy kasalligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan shaxs javobgarlikka tortilmaydi, sud tomonidan aqli

noraso deb topilgan shaxsga nisbatan tibbiy yusindagi majburlov choralari qo'llanilishi mumkin. Shaxslarning mast holatida yoki giyoxvandlik vositalari, psixotrop, odamning aql irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etgan jinoyati uchun u jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Bunday holatlar aqli noso deb xisoblanmaydi. Shaxslarning qonunlarga rioya qilmasligi natijasida aybli holat sodir bo'ladi. Ayb - bu javobgarlikka tortilishning zarur shartidir.

Aybning ikki shakli mavjud:

1. Qasddan sodir etilgan jinoyat ya'ni shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bulishi; Bu jinoyatning o'zi yana ikkiga bulinadi:

A) To'g'ri qasddan sodir etilgan, ya'ni shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga Ko'zi yetishi va uning yo'z berishini istashi.

B). Egri qasddan sodir etilgan, ya'ni shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga Ko'zi yetgan va ularning yo'z berishiga ongli ravishda yul quyishi.

2. Extiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat, ya'ni shaxsning o'z - o'ziga ishonishi, beparvoligi oqibatidir.

Xayotda ba'zi xollarda shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan yoki uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetmagan va ishning holatlariga ko'ra ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmagan xolda jinoyat sodir etib quyishi mumkin va bunday jinoyatlar aybsiz xolda sodir etilgan jinoyat deyiladi.

Jinoyat huquqida ikki yoki undan ko'p kishidan iborat bo'lib, qasddan jinoyat qilishda ishtirok etish - ishtirokchilik deb ataladi.

Jinoyatda ishtirokchilik quyidagi shakllarga bulinadi:

1. Oddiy ishtirokchilik - ikki yoki undan ortiqshaxsning oldindan til birlashtirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi;

2. Murakkab ishtirokchilik - ikki yoki undan ortiqshaxslarning oldindan til birlashtirgan xolda jinoyat sodir etishlari;

3. Uyushgan gurux - ikki yoki undan ortiqshaxslarning birgalikdagi jinoyat sodir etish uchun bir guruxga birlashtishlari;

4. Jinoiy uyushma - ikki yoki undan ortiq uyushgan guruxning jinoyat sodir etish uchun birlashtishi.

Ishtirokchilar jinoyatni bajaruvchilar, tashkil etiluvchilar, dalolat qiluvchilar va yordamchilarga bulinadi.

Jinoyatni bevosita sodir etgan shaxs bajaruvchi deb xisoblanadi.

Jinoyat qilishni tashkil etgan yoki uni sodir etishga raxbarlik qilgan shaxs - tashkilotchi deb ataladi.

Jinoyat qilishga qiziqtiruvchi shaxs - dalolatchi deb ataladi.

Jinoyat qilishga o'z maslaxatlari, ko'rsatmalari bilan, asbob bilan ta'minlash, tuskinliklarni yukotish bilan yordam bergan, shu bilan bir qatorda, jinoyat izlarini yukotishga va'da bergan shaxs - yordamchi deb ataladi.

Sud tomonidan jazo berilganda, yuqorida ko'rsatilgan har bir ishtirokchi qilgan jinoyatiga ko'ra jazolanadi.

Jinoyatni sodir etishda ishtirokchilarning oldiga quygan maqsadlari har xil bulishi mumkin, lekin ularning hammasi ham jinoyatni qasddan qiladi. Masalan: odam uldirishda - bajaruvchi qasd olishmaqsadida, dalolatchi - mulkka ega bulish, tashkilotchi - jabrlanuvchining pulini olishmaqsadida va xaqazo.

Ishtirokchilarning birontasi jinoyat qilishga rozi bo'lib, lekin sodir etishdan voz kechsa, kolganlari qilgan harakatsizliklariga qarab javobgarlikka tortiladilar. Masalan, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi o'z jinoiy faoliyatlarini bajarsa lekin unga bog'liq bo'lmagan sabablar bilan bajaruvchi jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy voz kechsa, tashkilotchi va dalolatchi, yordamchi jinoyatni qilishga tayyorgarlik kurgani uchun ayblanadi.

Endi har bir ishtirokchining faoliyatiga tushuncha beramiz.

Bajaruvchi - jinoyatni bevosita sodir etuvchi shaxsdir. Jinoyat sodir etishda bir necha bajaruvchi bulishi mumkin. Masalan, ommaviy tartibsizlik, banditizm, kontrabanda, nomusga tegish, odam uldirish va xokazo.

Tashkilotchi - jinoyat qilishni tashkil etgan yoki uni sodir etishda raxbarlik qilgan shaxsdir. Tashkilotchi ishtirokchilar o'rtasida eng muxim urinni egallaydi, Chunki u ishtirokchilarni tuplashda, uning vazifalarini taqsimlashda, jinoiy faoliyatni boshqarishda, ularga yul ko'rsatishda bosh vazifani bajaradi. Masalan, u odam uldirishda qatnashuvchi ishtirokchilarga kim nima vazifani bajarishni, o'z harakatiniqanday boshqarishni ko'rsatadi. Jinoyatni oxiriga yetkuncha kuzatadi.

Dalolatchi - boshqashaxslarni jinoyat etishga qiziqitiruvchi, kundiruvchi shaxs. Uning o'zi jinoyat sodir etishda qatnashmaydi. Dalolatchi o'z maqsadiga ishtiroqchilarni kundirish, yolvorish, ishontirish, majburlash, va'da berish orqali erishadi.

Yordamchi - jinoyat sodir etishda o'z maslaxati, yul - yuriklari bilan aralashadi. U ishtirokchilarga qurol asboblar berish, tuskinliklarni, jinoyat izlarini yukotish, jinoyat qilish orqali topilgan narsalarni yashirish kabi ishlarni bajaradi. Masalan, jinoyat qilishda maslaxat berish bilan bir qatorda, bajaruvchiga tegishli qurol berish va qulay vaziyatlarni ta'minlash, ma'lumotlar berish yordamchining vazifasiga kiradi.

Shunday qilib, ishtirokchilarning har biri o'z doirasida ishkurib, jinoyatni oxiriga yetkazishga kumaklashadi. Qonun oldida esa ular qilgan jinoyatlar, ayb darajasi hamda ishdagi boshqa holatlariga qarab javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyatga tayyorgandlik, jinoyat sodir etilayotganlik, jinoyat sodir etayotganligi haqida bila turib tegishli davlat organlariga xabar bermaslik JKning 31 va 241 - moddalaridan kelib chiqqan xolda javobgarlikka tortiladi.

«Oldindan va'da bermagan xolda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmaydi. «deb ko'rsatilgan jinoyat Kodeksida.

Jinoyatlar takroran, jinoyatlar majmui, retsediv jinoyat sifatida sodir etilishi mumkin. Jinoyat huquqida qilmishning jinoiyligini istesno qiladigan quyidagi holatlari, ya'ni kam ahamiyatli qilmishlar, zaruriy mudovaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashchogida zarar yetkazish, buyruqni yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish, kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavaqqalchilik ham mavjuddir.

4. Jinoiy jazo va uning turlari

Jazo - davlatning majbur qilishchoralaridan biri bo'lib, bu chora jinoyat qilishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan qonunga asosan sud tomonidan ozodlikdan yoki maxsus huquq va erkinliklardan maxrum qilishmaqsadida qo'llaniladi.

Birinchidan, jazo jinoyat qilgan aybdor shaxsga beriladi. Ikkinchidan, jazoni ayblov xukmi chiqarish yuli bilan sud tayinlaydi. Uchinchidan, jazo huquqni ma'lum darajada cheklashi va sudlanganlikni keltirib chiqaradi.

Sud jinoyat qilgan shaxsga jazo belgilanganda uning javobgarligini yengillashtiradigan va ogirlashtiradigan holatlarni xisobga oladi. (Jinoyat Kodeksining 55 - 56 - moddalarini).

Jinoiy javobgarlik qoida buyicha 16 yoshdan belgilanadi. Ba'zi xollarda ijtimoiy xavfli deb topilgan jinoyatlar, masalan, qasddan odam uldirganlik uchun jinoiy javobgarlik 14 yoki 13 yoshdan belgilanadi. Jazoning maqsadi jinoyatning oldini olish, jinoyatchining sog'lom turmush tarziga kirishiga yordam berish va boshqalarning jinoyat qilishining oldini olish, ogoxlantirish, yangi jinoyat sodir qilish imqoniyatlarini batamom yukotishdan iborat.

Javobgarlikni yongillashtiruvchi holatlar quyidagilardir: aybdorning o'z qilgan jinoyatini buyniga olib pushaymon bulishi; jinoyati tufayli keltirilgan zararni qaytarishga harakat qilishi; jinoyatni ochishga yordam berishi: kurkitish yoki majburlash, moddiy yoki boshqa jixatdan qaramligi ta'siri ostida jinoyat qilishi; jabrlanuvchining gayriqonuniy harakatlari natijasida ruy bergan qattiq ruxiy xayajonlanish ta'siri ostida jinoyat qilish; voyaga yetmaganlik; xomilador ayollar tomonidan jinoyat qilish va xokazo.

Javobgarlikni ogirlashtiruvchi holatlar quyidagilardir: tashkiliy gurux tomonidan jinoyat

qilish; xomiladorligi ayon bo'lib turgan ayollarga, Mehnat yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsning o'ziga yoki uning yaqinlariga qaratilgan jinoyat; moddiy, xizmat yoki boshqa jixatdan qaram bo'lgan shaxslarga nisbatan xaddan tashqari raxmsizlik bilan qilingan jinoyat, ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan jinoyatlar va xokazolar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 43 moddasiga binoan quyidagi jazo turlari mavjud:

1. Jarima –aybdordan davlat daromadiga pul undirishdir, uning miqdori eng kam oylik ishxaqining un baravaridan olti yo'z baravarigachadir.

2. Muayyan huquqdan maxrum qilish - sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shugullanishini takiklashdir.

3. Axloq to'zatishtish ishlari - shaxs ishxaqining un foizidan uttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi xisobiga ushlab kolgan xolda uni Mehnatga majburiy jalb qilishdir. Bu jazo olti oydan uch yil muddatgacha tayinlanadi.

4. Xizmat buyicha cheklash - ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi prapor'ik, michman, harbiy xizmatni shartnoma asosida utayotgan harbiy xizmatchini sud xukmida ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan maxrum qilib, pul ta'minotining un foizidan uttiz foizigacha bo'lgan miqdorida davlat daromadi xisobiga ushlab kolishdir.

Xizmat buyicha cheklash tarikasidagi jazoni utash muddati davomida maxkumning mansabini, harbiy va maxsus unvonini oshirish mumkin emas, jazoni utagan vaqt esa uning ko'p yil ishlaganlik, navbatdagi harbiy yoki maxsus unvon hamda pensiya olish uchun asos bo'ladigan xizmat muddatiga kushilmaydi.

5. Qamoq - shaxsni batamom ajratgan sharoit ostida saqlashdan iborat bo'lib, bir oydan olti oygacha muddatga belgilanadi.

6. Intizomiy jazo qismiga junatish - muddatli harbiy xizmatchilarni sud tomonidan belgilangan muddatga ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali, muayyan huquq va imtiyozlardan maxrum etishdir. Bu jazo uch oydan bir yilgacha qo'llaniladi.

7. Ozodlikdan maxrum qilish - maxkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etishkoloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir Bu jazo olti oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi. Ozodlikdan maxrum etish jazosi bir necha jazolarni kushish tartibida tayinlanganda, uning muddati yigirma besh yilgacha belgilanishi mumkin.

8. Umrbod qamoq jazosi. Bu jazo faqat javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda (xozirda JKning 255 - modda uchinchii qismi va JKning 97 - modda ikkinchii qismi uchun joriy qilingan). Bu jazo O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi farmoniga ko'ra 2008 yil 1 yanvaridan bekor qilindi. Bu borada Prezidentimiz «Ayni vaqtda qonunchiligimiz o'lim jazosining Xotin - qizlarga, voyaga yetmaganlar, oltmish yoshdan oshgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishini man etadi.

9. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish - shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat uchun xukm qilinganida maxrum qilinishi.

Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan jazo tayinlanadi. Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va ogirlashtiruvchi holatlarini xisobga olib tayinlaydi. Jinoyat Kodeksining 55 - moddasida yengillashtiruvchi, 56 - moddasida esa ogirlashtiruvchi holatlar belgilangan, lekin 57 - moddasida yengilroq jazo tayinlash mumkinligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining uchinchii bo'limi, «Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar» deb nomlanib

X - bobi, «O'zgalar mulkini talon - taroj qilish ya'ni bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish yoki rastrata yuli bilan talon - taroj qilish, firibgarlik, ugrilik;

XI - bobi o'zgalar mulkini talon - taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar ya'ni

aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yuli bilan mulkiy zarar yetkazish, jinoiy yul bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish, mulkni ko'riklashga vijdotsiz munosabatda bulish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, axborotlashtirishqoidalarini buzish;

XII - bobi Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar ya'ni O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish, valuta kimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish, chet el vayutasini yashirish, soxta tadbirkorlik, soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish, bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish, monopoliyaga Qarshi qonun xujjatlarini buzish, solik va boshqa tulovlarni to'lashdan buyin tovlash, kimmatbaxo metallar yoki toshlarni topshirishqoidalarini buzish,

XIII - bobi ya'ni sifatsiz maxsulot chiqarish yoki sotish, haridor yoki buyurtmachini aldash, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shugullanish, savdo yoki xizmat ko'rsatishqoidalarini buzish, faoliyat bilan litsenziyasiz shugullanish, qonunga xilof ravishda axborot tuplash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish, raqobatchini obrusizlantirish kabilar uchun qoidalar belgilangandir.

. Voyaga yetmaganlarning javobgarligi.

18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga quyidagi turdagi jazo choralari qo'llaniladi:

1. Jarima
2. Axloq to'zatisht ishlari
3. Qamoq
4. Ozodlikdan maxrum qilish.

Ularga qo'ushimacha jazo choralari qo'llanilmaydi.

Faqat 16 yoshga to'lgan voyaga yetmaganlargagina ikki baravardan yigirma baravargacha bo'lgan eng kam ish xaqi xajmida jarima solinadi. Maxkum olti oy ichida jarima to'lashdan bosh tortgan taqdirda sud jarimaning to'lanmagan summasi jarima uchun bir oy xisobida axloq to'zatisht ishlari kurinishidagi jazo bilan almashtiradi, bunda jarima summasi ishxaqining ikki baravari miqdoriga to'g'ri keladi.

Ahloq to'zatisht ishlari un olti yoshga to'lgan, Mehnatga qobiliyatli, voyaga yetmagan va o'qimayotgan bo'lsa, u yashab turgan tumanda bir oydan bir yilgacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatining og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlariga qarab 13 yoshdan 16 yoshgacha 6oydan 12 yilgacha ozodlikdan maxrum qilinadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir qilgan voyaga yetmagan shaxs va sud tomonidan javobgarlikdan ozod qilinishi va materiallar voyaga yetmaganlar ishlari buyicha komissiyaga kurib chiqish uchun berilishi mumkin. Uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan maxrum qilish kurinishidagi jazo nazarda tutilgan, unchalik xavfli bo'lmagan jinoyat yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun sud voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilishi hamda majburiy choralao'r kullashi mumkin.

Sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda ularning rivojlanganlik darajasi, turmushsharoiti va tarbiyasini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagilarning, boshqa holatlarning uning shaxsiga ta'sirini xisobga oladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda jinoyat huquqi har bir shaxsni qonunlarni xurmatlash, unga rioya etishqoidalarini buzsa javobgarlik va jazo muqarraligini unutmastikni urgatadi. Jinoiy jazo tayinlashdan maqsadqonunbuzarni jazolash emas, balki, uni axloqan to'zatisht, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga tuskinlik qilishhamda, maxkum va boshqashaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olishdan iboratligini talabalarga tushuntirish lozim. Talabalarga jinoyat huquqi bilan chambarchas bog'liq jinoyat protsessual huquqni urganishni ham tasiya etimiz, Chunki huquqni muxofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan sizning huquqlaringiz paymol etilish holatlari uchrab turadi. Bunday holatni bartaraf etish uchun esa protsessual qoidalarni bilish ast kotishi mumkin. Bunda, Prezidentimizning «Yana bir uta muxim masala - sud va huquqni muxofaza qilish organlari xodimlarining ma'suliyatini kuchaytirishhaqida aloxida tuxtalish urinli, deb bilaman.

Takror - takror aytishga to'g'ri keladi, bu soxada xizmat qilayotgan odamlar o'zining professional va fuqarolik burchini, o'z vazifasini qanchalik xalol va sidqidildan ijro etishi, xech mubolagasiz butun xokimiyatning obrusi kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bulishini belgilaydi»degan so'zlarini eslamay bo'lmaydi.

Bu so'zlarning isboti sifatida Prezidentimizning «Qamoqqa olishga sanksiya berishhuquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi farmonini ko'rsatish mumkin. Bundan ko'zlangan maqsad O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud - huquq tizimi isloxatining eng muxim vazifasi insonning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta'qib va xususiy xayotga aralashishidan himoyalalanish, shaxsiy daxlsizlik huquqlari hamda adolatli sud muxokamasiga bo'lgan huquqi samarali muxofaza etilishini ta'minlashdir.

Nazorat uchun savollar.

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqining tushunchasi.
2. Jinoyatning belgilari va jinoyat tarkibi qanday ?
3. Jinoiy javobgarlik haqida tushuncha bering.
4. Jinoiy jazo, uning turlari qanday ?
5. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi, asosi, shakllari qanday ?
6. Ijtimoiy xavfli bo'lmagan jinoyat turlari haqida tushuncha bering.
7. Javobgarlikdan ozod qilishning qanday turlari mavjud ?
8. Jazo muddatlari qanday xisoblanadi ?
9. Jazo qanday tartibda tayinlanadi ?
10. Xo'jalik faoliyati soxasidagi jinoyatlar haqida tushuncha bering.

GLOSSARIY.

1. Alibiya - jinoyat sodir etilgan paytda ayblanuvchining boshqa joyda bulishi.
2. Gipoteza - huquq normasini kullashsharti, biron - bir huquqqa ega bulish.
3. Deportatsiya - jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburan chiqarib yuborish.
4. Kontrabanda - tovar, valuta va boshqaqimmatbaxo buyumlarni gayriqonuniy yul bilan davlat chegarasidan olib utish.
5. Psixopatiya - ruxiy azoblanish.
6. Terrorizim - jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat xalqning tinchligini buzish.
7. Iqtisodiy josuslik - qonunga xilof ravishda iqtisodiyot, tijorat, ishlab chiqarish soxasidagi ma'lumotlarni o'z manfaatlari uchun olish va foydalanish.
8. Xaqer - begona kompyuter tizimlariga kirish va ulardan axborotlar olish, noqonuniy ravishda dasturli maxsulotlar himoyasini buzish va ulardan nusxa kuchirish.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston 2011.
2. I. A. Karimov «Bizning boshmaqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakat ni modernizatsiya va islox etishdir. « Xalq so'zi. 2005 yil 29 yanvar soni.
3. I. A. Karimov «Barkamol avlod orzusi» Toshkent. «Sharq» 1999 47 - 48 - betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. T - 2001.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharxlar. T - 2003.
6. R. Kurbanov «Zaruriy mudofaa» T - 1999.
7. M. Usmanaliyev «Jinoyat huquqida jazo tayinlashning umumiy asoslari» T - 2001.
8. Z. Islamov., M. Mirhamidov., O. Xusanov «Huquqshunoslik» 2000.
9. Ugolovnoye pravo Rossiya Federatsii: uchebniq dlya VO'Zov ot 1999.
10. Ugolovnoye pravo: uchebniq dlya VO'Zov M. gos. yurid. akad. B. V. Zdravomyslov.
11. Galiakbarov R. R. Ugolovnoye pravo: uchebniq M., 1999.
12. A. Saidov., U. Tadjixanov., X. Odilqoriyev., Davlat va huquq asoslari (Darslik) T., 2002.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berishhuquqini sudlarga o'tkazish to'g'risi»gi farmoni Xalq so'zi 2005 yil 9 avgust.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini

bekor qilish to'g'risida»gi farmoni. Toshkent okshomi 2005 yil 2 avgust soni.

15. O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual Kodeksi. T. Adolat. 2001
16. www. gov. o'z
17. www. edu. o'z
18. www. zivo. tdu. o'z
19. www. ec. tdu. o'z
20. www. performfnce. edu. o'z

11 - Mavzu: Xalqaro huquqasoslari.

Reja:

1. Xalqaro huquqning paydo bulishi va xalqaro huquq tushunchasi (ta'rifi).
2. Xalqaro huquq tizimi.
3. Xalqaro huquq funksiyalari.
4. Xalqaro huquq tamoyillari tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari.
5. Xalqaro shartnomalar tushunchasi.

1. Xalqaro huquqning paydo bulishi va xalqaro huquq tushunchasi.

Xalqaro huquq huquqning boshqa soxalari kabi o'z - o'zidan paydo bo'lgan emas. U muayyan ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida qadimiy ilk jamoalar va kabilalar bir - biridan aloxida ajralgan xolda emas, balki qabilalarning yozilmagan qonunlari bilan birlashgan edi. Birinchi odat normalari davlatchilikni vujudga kelishidan oldin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayok paydo bo'lgan.

Agar «xalqaro huquq» tushunchasini davlatlararo huquq sifatida anglashilsa, bu xolda, davlatchilik paydo bo'lib rivojlanishi bilan vujudga kelganini e'tirof etish lozimdir.

Xalqaro huquq - tarixiy ijtimoiy - huquqiy amaliyotining rivojlanishi natijasidir. Insonlarning (guruxlar, tabakalarni) o'z milliy manfaatlarini anglash vositasi sifatida paydo bulishi, ayniksa xalqaro munosabatlarni doimiy o'zgarib turishiga aloqadorligi bilan xalqaro huquq milliy davlatlar va xalqlarning taraqqiyotiga muxim ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatib kelmoqda. Kishilik tarixi davomida xalqaro huquq nafaqatxalqaro munosabatlarni taraqqiyoti bilan birga rivojlanib keldi, balki ularga malum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Xalqaro huquqning kelib chiqishi tabiiy - obyektiv jarayondir. Xalqaro huquqni paydo bulishining umumiy shart - sharoiti davlatlarning xoxish - irodasi emas, balki insoniyat xayotining sharoiti, uning tarixiy evelyukiyasi, insonni atrofdagi dunyo bilan o'zaro munosabati, ijtimoiy Mehnat taqsimoti, davlatlarning paydo bulishi va rivojlanishidir.

Xalqaro huquq - bizni urab turgan dunyoning muxim bir ajralmas qismidir. U doimiy ravishda insonga, xalqlarga davlatlarga ta'sir ko'rsatib keladi.

Xalqaro huquq muxim huquqiy kategoriya xisoblanadi bu aloxida turdagi kategoriya bo'lib, xalqaro

munosabatlardan, ularning iqtisodiy siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa tulik xajmidan usib chiqqan.

Shunday qilib, xalqaro huquqni paydo bulishi bevosita davlatlarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Davlatlar taraqqiyotining obyektiv shart - sharoiti ularning o'rtasidagi siyosiy iqtisodiy, madaniy va huquqiy munosabatlarni urnatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Buning natijasi ularoquhuquqning mustaqil tizimi sifatida xalqaro huquqni paydo bulishi va rivojlanishidir.

Xalqaro huquq davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi turli xil munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

“Xalqaro huquq” tushunchasini aniqlash va unga tarif berish xalqaro huquq fanining eng muxim vazifalaridan biridir. Agar davlat va huquq nazariyasi fani davlatning milliy huquqiy tizimiga xos bo'lgan xodisalarni urgansa xalqaro huquq fani esa davlatlararo yoki kengroq ma'noda xalqaro munosabatlarga xos bo'lgan xodisa va jarayonlarning xususiyatlarini kurib chiqadi.

Xalqaro - huquqiy normalarda milliy davlatlarning o'zaro munosabatlaridagi murakkab jarayonlarda o'z aksini topgan. Ularning asosida shakllanayotgan, u xalqlarning subyektiv xoxish irodasiga emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv omillarga mos keladigan huquqiy ong xalqaro huquqda ifodasini topmoqda.

Xozirgi xalqaro munosabatlarga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ichida xalqaro huquq ustuvorligi to'g'risidagi qoida XXI asr busag'asidagi sivilizatsiya va huquqiy ong darajasiga ko'proq mos keladi.

Xalqaro huquq fanida xalqaro huquq tushunchasiga berilgan turli xil tariflardan bir nechtasini keltirib utamiz.

Birinchi ta'rif: xalqaro huquqni "davlatlarning irodasini muvofiqlashtirish asosida tuzilgan va rivojlanadigan, davlatlarning tinch totuv yashashi, xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashini taminlashmaqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar sistemasi" sifatida harakterlanishi mumkin.

Ikkinchi ta'rif: xalqaro huquq - bu "davlatlar va ushbu huquq tizimining boshqa subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar sistemasi"dir.

Uchinchi ta'rif: xalqaro huquq "ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining ta'siri bilan bog'liq ravishda xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi va davlatlarning irodasining nisbiy uygunligini ifodalovchi shartnomalar odat normalari va prinsiplar sistemasidir".

Turtinchi ta'rif: xalqaro huquq - bu "xalqaro (davlatlararo va boshqa turdagi) munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmui va sistemasidir"

Beshinchi ta'rif: xalqaro huquq - bu "huquqning mustaqil tarmogi bo'lib, o'zida bir butun va yaxlit prinsiplar va normalar sistemasini, ya'ni eng avvalo davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar soxasini tartibga soluvchi, yuridik majburiy bo'lgan xulq - atvor qoidalarini ifodalaydi"

Oltinchi ta'rif: "xalqaro huquq g'oyat keng va turli tarmoqlarni o'z ichiga oluvchi aloxida huquqlar tizimidir. Shu bilan birga faqat normalar yigindisi bo'libgina qolmay ularning tizimi hamdir". Xalqaro huquqda berilgan yuqoridagi va boshqa ko'plab ta'riflarning mualliflari imqon qadar ko'proqxalqaro huquqqa xos bo'lgan xodisalarni kamrab olishga harakatqilganlar. Biroq, ta'kidlab utish joizki, bunday vazifani uddalash juda mushkuldir. Harqanday ilmiy tarif unda foydalanilgan atamalar tushunchalarning, shuningdek, ulardan kelib chiqadigan tushunchalarni izoxlanishini talab qiladi.

Xozirgi zamon xalqaro huquqi ikkinchi jaxon urushidan BMTning Ustavi qabul qilinganidan sung yo'zaga kelib, rivojlangan. Shu bois, "xozirgi zamon xalqaro huquqi" tushunchasi xalqaro munosabatlarning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari rivojlanishini yangi bosqichini aks ettirgan xolda, xalqaro huquqharakatining xronologik doirasini belgilaydi.

Fikrimizcha, xalqaro huquqning umumiy tushunchasini (tarifini) quyidagicha ifodalash mumkin:

Xalqaro huquq - bu tinchlik va hamkorlikni taminlashmaqsadida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar sistemasidir.

Xalqaro huquq aynan yuridik normalardan tashkil topgan. Ta'kidlab utish lozimki, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqatxalqaro huquqiy normalar bilan, balki siyosiy, axloqiy normalar hamda amaliyot va boshqa normalar bilan ham tartibga solinadi.

"Xalqaro huquq" atamasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi, undan xalqaro xususiy huquqni farqlab olish lozim. Shu bois, "xalqaro huquq" atamasi malum darajada shartli ekanligini ta'kidlab utish joiz. Shu ma'noda tarixan shakllanib va davlatlar hamda xalqaro xujjatlarda darsliklarda qo'llaniladigan (xalqaro huquq) atamasi o'zining tub manosiga tula mos keladi deb bo'lmaydi. Mazkur atamani boshqa tillardagi manosi ham aynan uxshashdir: rus tilida - (mejdunarodnaya prava), ingliz tilida (international law), franso'z tilida (Droit international), nemis tilida - (Volker recht), ispan tilida - (Derecho international) va xokazo.

Xalqaro huquq obyektiga har qanday emas, balki muayyan xalqaro munosabatlar kiradi.

Xalqaro munosabatlar - bu davlatlar va davlatlar sistemasidagi o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy - madaniy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa turdagi aloqalar va munosabatlar

majmuidir. Shuningdek, dunyo miqiyosidagi asosiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tashkilotlar, harakatlar o'rtasidagi hamkorliklardan iborat.

Xalqaro munosabatlar o'zining mazmuniga ko'ra biron bir davlatning vakolati va yurisdiksiyasi doirasidan chiqib, davlatlarning birgalikdagi yoki butun jaxon hamjamiyatining vakolatlari va yurisdiksiyalari obyektiga bo'lib qolmoqda.

Xalqaro munosabatlarda davlatlararo munosabatlar asosiy rol uynaydi. Shu bilan birga nodavlat harakterdagi xalqaro munosabatlar ham mavjud - turli davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasidagi («chet el elementi» yoki «xalqaro element» kabilar), shuningdek, xalqaro noxukumat tashkilotlar va xalqaro xo'jalik birlashmalari ishtirokidagi xalqaro munosabatlar.

Xalqaro huquq obyektiga eng avvalo suveren davlatlar o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Davlatlararo munosabatlar - bu avvalambor xokimiyatlararo munosabatlardir. Davlatlar o'rtasidagi mavjud munosabatlar tegishli xalqaro bitimlar bilan tartibga solingandagina xalqaro huquqiy shaklga ega bo'ladi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni urganish BMT Nizomida mustaxkamlab quyilgan, umume'tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro huququhuquq tarmogi sifatida quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:

Birinchi, davlatlar o'rtasidagi - ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni, ularning ichida butun xalqaro hamjamiyatni kamrab oladigan munosabatlar aloxida ahamiyatqasb etadi;

Ikkinchi, davlatlarning xalqaro tashkilotlarga a'zo bulishi bilan bog'liq davlatlar va xukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni;

Uchinchi, xukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi;

Turtinchi, davlatlar va nisbiy mustaqil xalqaro maqomga ega bo'lgan davlat kurinishidagi to'zilmalar o'rtasidagi munosabatlar (masalan, Vatikan Rim katolik cherkovining markazi sifatida aloxida o'ziga xos xalqaro huquqiy maqomga ega).

Demak, xalqaro huquqiy munosabatlar obyektiga - bu shunday vokelikdirqi, unga ko'ra subyektlar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari asosida o'zaro huquqiy munosabatlarga kirishadilar.

Quyidagilar xalqaro huquqiy munosabatlar obyektiga sifatida nomoyon bo'ladi:

birinchi, hudud va xalqaro yer kengligi;

ikkinchi, xatti harakatlar;

uchinchi, xatti harakatlardan tiyilish;

Hudud xalqaro huquqiy munosabatlar obyektiga sifatida juda ko'p namoyon bo'ladi, masalan, tinchlik shartnomalarida.

Xatti - harakatlar davlatlar o'rtasidagi turli - xil huquqiy munosabatlar obyektiga bulishi mumkin, masalan, o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi xujjatlarda, Ittifoqshartnomalarida.

Muayyan xatti - harakatlardan tiyilishhamxalqaro huquqiy munosabatlar obyektiga bo'lib xisoblanadi, masalan, neytralitet to'g'risidagi, urush odatlari va qonunlari to'g'risidagi xalqaro huquqiy xujjatlarda.

2. Xalqaro huquq tizimi

Xalqaro huquq tizimi - bu o'zaro ichki bog'liq elementlarning obyektiv mavjud bo'lgan bir butunligidir.

Birinchi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari, normalari (shartnomaviy va oddiy - huquqiy).

Ikkinchi, xalqaro tashkilotlarning qarorlari, tavsiyaviy rezolyutsiyalari, xalqaro sud organlarining qarorlari.

Uchinchi, xalqaro huquq institutlari (xalqaro tan olish institut, shartnomalarga nisbatan huquqiy vorislik instituti, xalqaro javobgarlik instituti va boshqalar).

Xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlar - bu subyektlari o'rtasidagi shunday ijtimoiy munosabatlarki, ular xalqaro - huquqiy tartibga solish obyektiga xisoblanadi. Binobarin, bunday munosabatlar xalqaro huquqiy munosabatlar harakterini kasb etadi.

Xalqaro huquq milliy huquq singari subyektlar o'rtasidagi harqanday munosabatlarni emas, balki faqathuquqiy tartibga solish talab qilinadigan qismini tartibga soladi. Bundan tashqari huquq - xalqaro va milliy huquqlar o'zining ma'lum konvenservativligi tufayli odatdavujudga keladigan huquqiy tartibga solish talabidan orqada qoladi.

Shunday qilib xalqaro huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlar xalqaro - huquqiy munosabatlar harakteriga ega bo'ladi. Xalqaro huquq subyektlari u yoki bu xalqaro - huquqiy munosabatlarga kirishish bilan o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshiradilar.

Xalqaro huquqiy munosabatlar turli - tumanligi bilan harakterlanadi va xalqaro huquqiy normalarning turli - tuman bulishini belgilaydi. Bir turdagi xalqaro munosabatlarni muayyan guruxlarga ajratish mumkin, bu o'z navbatida xalqaro huquq institutlari va tarmoqlarini tashkil qiluvchi bir turdagi xalqaro huquqiy normalar guruxi va majmui (kompleksi) mavjudligini bildiradi.

Xalqaro - huquqiy institut - bu bir turdagi xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi, ushbu munosabatlarning umumiy obyeksi bilan o'zaro yaqin aloqador bo'lgan huquqiy normalar guruxidir.

Huquqiy normalar va institutlar xalqaro huquq tarmogiga birlashadi. Tarmoq obyeksi bo'lib barcha bir turdagi xalqaro munosabatlar majmui xisoblanadi, masalan, xalqaro shartnoma huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, diplomatikhuquq, xalqaro dengiz huquqi, xalqaro atom huquqi, xalqaro kosmikhuquq. Ularni tashkil qilishning yagona yuli xalqaro huquq subyektlarining kelishuvi xisoblanadi. Faqat xalqaro huquq subyektlarigina o'zining u yoki bu xatti - haraktlariga, xulq - atvor qoidalariga yuridik majburiy harakter berishi mumkin.

Xalqaro huquqiy normalarni bajarish asosan ushbu huquq tizimi subyektlari tomonidan ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro huquq normalari, o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi subyektlar buyicha turli xil bo'ladi. Ular, barcha subyektlarga yoki barcha asosiy subyektlar - davlatlarga qaratilgan umumiy (universal) xalqaro huquq normalariga va ikki yoki bir necha subyektlar o'rtasidagi kelishuv asosida belgilangan va ularga qaratilgan loqal (partikulyar) normalarga bulinadi. Loqal normalar jumlasiga subyektlarning muayyan bir holatdagi xulq - atvorini belgilovchi individu al normalarni ham kiritish mumkin.

1969 yilda Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena Konvensiyasi qabul qilinganidan sung umumiy xalqaro huquq normalari tizimida jus cogens ega bo'lgan imperativ normalar ajratila boshlandi. 1969 yildagi Vena Konvensiyasining 53 - moddasiga muvofiq "umumiy xalqaro huquqning imperativ normasi davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan chetlab utish mumkin bo'lmagan normasi sifatida tan olinadi va bunday normalar faqatkeyin qabul qilingan xuddi shunday normalar bilangina o'zgartirilishi mumkin. Xalqaro huquqda imperativ normalar ruyxati yuq. Biroq, xalqaro huquq nazariyasi BMT Nizomida, BMT Nizomiga muvofiq davlatlar o'rtasidagi dustona aloqalar va hamkorliklarga tegishli bo'lgan 1970 yildagi xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Dekloratsiyada ifodalangan xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini yakdillik bilan imperativ normalar qatoriga kiritadi.

3. Xalqaro huquq funksiyalari.

Xalqaro huquqning funksiyalarini kurib chiqmasdan, uni moxiyatini ochib berish mumkin emas.

Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi Xalqaro huquq quyidagi funksiyalarini bajaradi:

1. Muvofiqlashtiruvchi funksiya. Davlatlar xalqaro huquq normalari yordamida xalqaro hamkorlikning turli soxalarida umumiy qabul qilingan xulq - atvor standartlarini belgilaydi.

2. Tartibga soluvchi funksiya, bu davlatlar tomonidan qat'iy qoidalarni belgilashda namoyon bo'ladi. Bularsiz davlatlarning jaxon hamjamiyati bilan munosabatlari va birgalikda mavjudligini tasavvur qilishni imqon i yuk.

3. Ta'minlash funksiyasi, bunda xalqaro huquqshunday normalarni o'zida mustaxkamlaydiki, bu davlatlarni ko'p yillik aloqalari jarayonida belgilangan malum xulq - atvor qoidalariga rioya qilishga undaydi.

4. Muxofaza funksiyasi - bu davlatlar milliy manfaatlari va qonuniy huquqlarini himoyalaydi.

Xalqaro huquqni o'ziga xos xususiyati shundaki, xalqaro munosabatlarda davlatlardan yuqori turuvchi majburlash mexanizmi mavjud emas. Zarur xollarda davlatlarning o'zlari kollektiv ravishda xalqaro - huquqiy normalarini bajarilishini va xalqaro huquqiy - tartibotni ta'minlaydilar.

Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqiy tizimi.

Real vokelikda biri - biriga bog'liq, lekin mustaqil ikki huquqiy tizim mavjud: bir tomondan, ichki davlat huquqi (aloxida milliy davlatning huquqiy normalari majmui) va ikkinchi tomondan huquqiy tartibga solishning o'ziga xos obyekt va subyektiga ega bo'lgan xalqaro huquq. Agar, ichki davlat huquqida huquqiy tartibga solish obyekt bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlar bo'lsa, xalqaro - huquqiy munosabatlar obyektiga davlatlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Huquq biri - biriga bog'liq mustaqil ikki huquqiy sistema (ichki davlat huquqi va Xalqaro huquq) tomonidan tashkil qilinadi deb tushunilishi xalqaro huquq fanida ham, davlat va huquq nazariyasi fanida ham tan olingan, e'tirof etilgan.

Ushbu muammo xususida huquqshunoslik fanida turli xil nazariyalar olga surilgan.

Ba'zi bir olimlar Xalqaro huquqni yagona huquqiy tizim deb xisoblaydilar. Ular davlatlarning ichki munosabatlarini ham Xalqaro huquq tartibga soladi, malum bir bosqichda davlatlarni ichki huquqiy tartibga solishning rivojlanishini ham inkor qilmaydilar, lekin kelajakda xalqaro huquqni rivojlanishi bilan yuq bo'lib ketadi, deb xisoblaydilar.

Boshqa bir mualliflar xalqaro huquqfaqat davlatlarning milliy huquqida nazarda tutilgan doiradagina mavjud bo'ladi, ya'ni u muayyan davlatlarning tashqi huquqi sifatida xizmat qiladi, xisoblaydilar.

Ichki davlat huquqi va xalqaro huquqning o'zaro aloqadorligi shundaki, xalqaro huquq davlatlarni Konstitutsiyaviy tuzumi bilan, davlatlar va xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari bilan o'zaro munosabatlarda davlat irodasini ifodalashga vakolatli davlat xokimiyati organlari sistemasi bilan, shuningdek, harqanday davlatni ichki ishi xisoblanadigan va odatda Xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga solish doirasiga kirmaydigan ishlarni mavjudligi bilan xisoblashishga majburdir.

Ichki davlat huquqi davlatning majburiyatlarini mustaxkamlovchi, malum xollarda ushbu davlatning milliy huquqida aks ettirilishi lozim bo'lgan xalqaro huquqiy normalarni mavjudligi bilan xisoblashadi.

Xalqaro huquq va ichki davlat huquqi bir - biridan aloxida mavjud bo'lmaydi. Xalqaro huquq normalarini ishlab chiqishga milliy huquqiy sistemalar ta'sir ko'rsatadi, u davlatning tashqi siyosati va diplomatiyasida o'z ifodasini topadi.

Xalqaro huquq o'z navbatida milliy qonunchilikni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro huquq normalari o'z subyektlari uchun ya'ni eng avvalo davlatlar uchun huquq va majburiyatlar tug'diradi davlatning rasmiy organlari, uni yuridik va jismoniy shaxslari esa bevosita xalqaro huquq normalariga buysunmaydilar Chunki uni subyekt bo'lib xisoblanmaydilar. Xalqaro majburiyatlarni ichki davlat huququhuquqi darajasida real amalga oshirilishini ta'minlash uchun xalqaro - huquqiy normalarni milliy qonunlarda mustaxkamlash, ya'ni transformatsiya qilishchoralari quriladi,

Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida shunday qoida mustaxkamlab quyilgan, unga ko'ra davlatlarni ichki qonuni bilan xalqaro majburiyatlari o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lsa, xalqaro majburiyatlar ustuvorlikka ega bo'ladi. Bunday qoida xalqaro huquqni davlatlarni ichki huquqi qoidalari ustidan ustuvorligi deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining moddasida shunday deyilgan: "Agar xalqaro shartnomalar va bitimlarda fuqarolik qonunchiligidagidan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lsa xalqaro shartnomalar va bitimlardagi qoidalar qo'llaniladi".

Xalqaro munosabatlar davlatlararo munosabatlar bilan cheklanib qolmaydi. Turli davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari o'rtasida, xalqaro noxukumat tashkilotlari o'rtasida

doimiy ravishda aloqalar bo'lib turadi. Bunday aloqalar tegishli davlatning milliy huquq normalari yoki xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq o'rtasida yaqin o'zaro aloqadorlik mavjud. Har ikkisi hamkeng ma'noda xalqaro munosabatlarni tartibga soladi. Xalqaro xususiy huquqxalqaro harakterdagi fuqarolik - huquqiy normalar majmui sifatida xalqaro ommaviy huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga zid bo'lmasligi kerak. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq o'rtasidagp uzviy aloqadorlik xech kim tomonidan inkor qilinmaydi. Ayni paytda xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq o'rtasidagi nisbati borasida xalqaro - huquqiy adabiyotlarda yakdillik yuq. Ba'zi bir olimlar xalqaro xususiy huquqxalqaro huquqning bir turi deb xisoblaydilar. Ikkinchi gurux huquqshunoslar esa xalqaro xususiy huquqqa fuqarolik huquqining bir tarmogi sifatida qaraydilar. Uchinchi birlari esa xalqaro xususiy huquqni xalqaro huquq bilan aynan bir xil deb xisoblaydi. Turtinchilar, xalqaro xususiy huquq ma'lum bir ma'noda fuqarolik huquqining tarmoqlaridan biri xisoblansada, asosan xalqaro ommaviy huquq bilan juda yaqin aloqadordir, deb ta'kidlaydi.

Xalqaro xususiy huquqxalqaro ommaviy huquq bilan aynan bir xil emas va uning soxalaridan biri xisoblanmaydi. Xalqaro xususiy huquq tartibga soladigan o'zining mustaqil predmetiga ega.

Xalqaro ommaviy huquq - davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalarning mustaqil sistemasidir.

Xalqaro huquqiy tizim normalarini yaratishning o'ziga xos tomoni shundaki, bu jarayonda subyektlarning o'zi ixtiyori ravishda., xoxish irodasini bildirish yuli bilan ishtirok etadilar. Binobarin, xalqaro huquq uygunlashtiruvchi hamda muvofiqlashtiruvchi harakterga ega.

Xalqaro huquqiy sistema subyektlarining o'zidan boshqaqandaydir bir bu sistemaga nisbatan «tashqaridan» bo'lgan subyektlar normalar yaratish jarayonida ishtirok etmaydi. Shu bois, xalqaro huquqiy sistemaning subordinarlik harakteri inkor qilinadi. Hech kim xalqaro huquq subyektlarining ixtiyoriga qarshi ular uchun xulq - atvor qoidalarini, ya'ni normalarni urnatishi mumkin emas. Binobarin, xalqaro huquqqa nisbatan “qonunchilik”, “xalqaro qonuniylik” tushunchalarni kullash ma'lum ma'noda noto'g'ridir.

4. Xalqaro huquq tamoyillari tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlar.

Huquq tamoyili - bu vokelikning obyektiv tartibi, ijtimoiy amaliyot, ijtimoiy rivojlanishqonuniyatlarining normativ in'ikosidir.

Xalqaro huquq tamoyillari - bu ijtimoiy amaliyot natijasida vujudga keladigan xalqaro huquqning yuridik mustaxkamlangan asoslari bo'lib, huquq subyektlari xatti - harakatining raxbariy qoidalari xisoblanadi.

Xalqaro huquqning bir qator normalarini, garchi ular xalqaro huquq normalari bo'lsada tamoyillar deb nomlanadi. Biroq ularning ba'zilari azaldan tamoyillar deb nomlangan, ba'zilari esa xalqaro - huquqiy tartibga solishda tutgan ahamiyati bois shunday deb atala boshlangan. Shu bilan birga xalqaro huquqiy tartibotni ta'minlashda xalqaro hamjamiyat uchun uta muxim ahamiyatga ega bo'lgan va umumiy harakter kasb etuvchi aloxida tamoyillar ham mavjud.

Tamoyillar ichida xozirgi davr xalqaro huquqiy tartibotini asosini tashkil etuvchi xalqaro huquqning asosiy tamoyillari ajralib turadi. Davlatning qandaydir asosiy tamoyilni buzishi xalqaro hamjamiyat tomonidan butun xalqaro huquqiy tartibotga tajovo'z qilish deb tushunilishi mumkin.

Xalqaro huquq tamoyili - bu avvalom bor xalqaro huquq normasidir.

Huquq tamoyillaridan huquqiy ong tamoyillarini, ya'ni kishilar, ijtimoiy harakatlar, siyosiy partiyalar va xaqozolarning subyektiv tassavurlarini farqlash lozim.

Huquq subyektlari uchun xalqaro huquq tamoiillarga rioya qilishqat'iyon majburiydir. Xalqaro huquq tamoyilini ijtimoiy amaliyotni o'zgartirish orqaligina bekor qilish mumkin. Bu esa aloxida davlatlar yoki davlatlar guruxi imqon iyati doirasida emas. Shuning uchun har bir milliy davlat xalqaro huquq tamoyillarni buzish orqali ijtimoiy amaliyotni “to'zatish” ga qaratilgan harqanday bir tomonlama tartibdagi urinishlarga o'z munosabatini bildirishi lozim.

Xalqaro huquq tamoyillari odatiy va shartnoma usulari orqali shakllanadi. Ular bir

paytning o'zida ikki xil funksiyani bajaradi:

birinchidan, xalqaro munosabatlarni ularni ma'lum normativ doiralar bilan chegaralash orqali barqarorlashishiga kumaklashadi;

ikkinchidan, xalqaro munosabatlar amaliyotida vujudga keladigan barcha yangi holatlarni mustaxkamlaydi.

Xalqaro huquq tamoyillarining o'ziga xosligi ularning universalligidir. Ya'ni xalqaro huquqning barcha subyektlari tamoiillarga qat'iy rioya qilishlari lozim, chunki mazkur tamoiillarni harqanday tarzda buzish muqarrar ravishda xalqaro munosabatning boshqa ishtirokchilari qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qilishga olib keladi. Xalqaro huquq tamoyillari butun xalqaro - huquqiy normalar tizimining qonuniylik mezonini xisoblanadi.

Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari BMT Nizomida mustaxkamlangan. BMT Nizomi tamoyillari harakterini kasb etishi keng tan olingan, ya'ni ular davlatlar tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'lmagan oliy darajadagi majburiyatlar sanaladi.

Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari - bu hozirgi davr xalqaro huquqi bosh mazmunini ifodalovchi va uning maqsadlarini amalga oshishida muxim ahamiyat kasb etuvchi eng muxim va universal majburiy normalardir. Umum e'tirof etilgan tamoyillar deb jaxon hamjamiyati tomonidan qullab - quvatlanadigan va tegishli xalqaro - huquqiy xujjatlarda mustaxkamlangan tamoyillar xisoblanadi. Mazkur tamoyillar umumiy tinchlik va xalqaro xavfsizlikni, xalqlar erkinligi va mustaqilligini ta'minlashning, davlatlar o'rtasida normal munosabatlarni rivojlantirish, ular o'rtasida hamkorlikni, bir - birini tushunish va ishonchni mustaxkamlashning huquqiy asosi sifatida kuriladi. Xalqaro - huquqiy tartibga solish tizimida umum e'tirof etilgan tamoyillar va normalar o'rni va ahamiyatning usib borishi hozirgi davr xalqaro huquqiga xos xususiyatlardan biridir.

Xalqaro huquqning aksariyat tamoyillari BMT Nizomining 2 - modkasida qisqa va lunda qilib bayon qilingan. Ushbu tamoyillar BMT Nizomiga muvofiq davlatlar o'rtasida dustona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli 1970 yil xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashning Yakunlovchi Xujjatida batafsil yoritib berilgan.

Umum e'tirof etilgan tamoyillar va normalar u yoki bu shaklda hozirda ko'p davlatlarning Konstitutsiyalarida ham mustaxkamlangan. qonunchilik, shuningdek, ijro va sud xokimiyatlari faoliyati ularga muvofiq kelishi lozim. Mazkur tamoyillar O'zbekiston Konstitutsiyasining turtinchi bobida mustaxkamlab quyilgan.

Xalqaro huquqda uning umum e'tirof etilgan tamoyil va normalarini batafsil tarzda bayon qilib beruvchi yagona normativ xujjat mavjud emas. Agar BMT Nizomida besh tamoyilning nomi keltirilgan bo'lsa, xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada ularning yettitasi ifodalab berilgan:

1. Kuch ishlatmaslik va kuch bilan taxdid qilmaslik tamoyili.
2. Xalqaro nizolarni tinch yul bilan xal etish tamoyili.
3. Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili.
4. Davlatlarning xalqaro hamkorlik tamoyili.
5. Davlatlarning suveren tengligi tamoyili.
6. Xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili.
7. Davlatlarning Nizomga muvofiq olgan xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarishi tamoyili.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashning Xelsinki Yakunlovchi Xujjatida mazkur tamoyillarga yana uchtasini qushgan:

1. Chegaralar daxlsizligi.
2. Davlatlarning hududiy daxlsizligi.
3. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini xurmat qilish.

Jaxon hamjamiyati oldida turgan umumbashariy muammolarni xal etish zaruriyatini ifoda etuvchi yangi tamoyillar hamshakllanmoqda. Masalan, atrof muxitni himoya qilish majburiyati

5. Xalqaro shartnomalar tushunchasi.

Xalqaro shartnomalarning huquqda tutgan o'rnikattadir. Shu sababli xalqaro huquqda xalqaro shartnomalar to'g'risida bayon qilingan fikrlar xalqaro munosabatlarni urnatishda ham muxim ahamiyatga ega.

Shartnoma, shu jumladan xalqaro shartnoma uning ishtirokchilari uchun muayyan huquqlar va majburitlar vujudga keltirishga qaratilgan kelishuvdan iborat bo'lib, u uch asosiy vazifani:

a) Shartnoma to'zuvchi subyektlar, o'rtasida huquqiy munosabat mavjudligini isbotlovchi faqat vazifasini;

b) Tomonlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvlarni o'zida ifoda etuvchi yozma xujjat vazifasini;

v) Shartnoma talablari bajarilmasdan qolgan taqdirda aybdor tomoni javobgarlikka tortish asosi vazifasini bajaradi.

Xozirgi zamonda jaxondagi davlatlararo iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy, madaniy aloqalar, savdo – sotiq, sanoat va boshqa soxalardagi hamkorliklarni urnatishhamda amalga oshirishning asosiy shakli ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar bo'lib qolmoqda.

Xalqaro munosabatlar soxasida davlatlararo hamkorlikni nazarda tutuvni kelishuvlar, shartnoma, axdlashuv, pakt, Dekloratsiya, Konvensiya, protokol va xaqazo nomlar bilan ataladi. Ammo bu xol ularning moxiyatiga ta'sir etmaydi.

Xalqaro shartnomalar turli belgilari va xususiyatlariga ko'ra turlarga ajratiladi. Jumladan, ular o'z predmetiga ko'ra savdo – sotiq, sanoat, transport, aloqa, moliya – kredit va xokazo soxalardagi shartnomalarga, tartibga solish doirasiga ko'ra: 1) Xalqaro munosabatlarning barcha ishtirokchilari xatti – harakatini tartibga soluvchi shartnomalarga (Masalan, BMT ustavi); 2) Davlatlararo muayyan masalalarni tartibga soluvchi shartnomalar (masalan, sanoat yoki savdo – sotiq masalalari xususidagi ko'p tomonlama qon vensiyalar); 3) Ochiq yoki yopikshartnomalar va xokazo.

Xalqaro shartnomalarning subyekti bo'lib eng avvalodavlatlar ishtirok etadilar. Keyingi paytlarda davlatlarning xalqaro tashkilotlari hamshartnomalarda keng ishtirok etmoqdalar. Biroq, ularning xalqaro shartnoma munosabatidagi ishtiroki doirasi uning a'zolari bo'lgan davlatlar beradigan vakolatlar xajmi bilan belgilanadi.

Xalqaro shartnomalarning obyektleri iqtisodiy, xo'jalik aloqalari soxasida davlatlar o'rtasida yo'zaga keluvchi munosabatlar, savdo, sanoat, ilmiy – texnikaviy hamkorlik, moliya va boshqa soxalarda huquqiy tartibga solinishi talab etiladigan xatti harakatlardir.

Xalqaro iqtisodiy shartnomalar tuzish muayyan davrni o'z ichiga oluvchi jarayon bo'lib, ma'lum bosqichlarga bo'linadi.

Xalqaro shartnomalar tuzish qoida tariqasida davlat boshligi tomonidan, mamlakat Konstitutsiyasida, boshqaqonunlarda nazarda tutilgan xollarda yoki davlat boshligi tomonidan berilgan vakolatga muvofiq bunday shartnomalarni imzolashhuquqi boshqa davlat organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar o'z tarkibi jixatidan asosan uchqismdan: Kirish qismi (preambula), asosiy qism va yakunlovchi qoidalardan iborat bo'ladi.

Shartnomaning kirishqismi (preambula)da uning tuzilgan joyi, vaqti, tomonlari, maqsad va vazifalari belgilab quyiladi.

Asosiy qismda uning mazmuni, tomonlari o'z zimmalariga olayotgan majburiyatlarni bajarish vaqti, joyi, usuli, pul majburiyatlari va ularni ado etish kabi shartnoma tuzish dan kelib chiquvchi qon kret xatti – harakatlar ko'zda tutiladi.

Shartnomaning yakuniy qismida tomonlar javobgarligi, shartnomani muddatidan avval bekor qilish asoslari va tartibi, uni prolongatsiyalash, unga kushimcha va o'zgartirishlar kiritish tartiblari, uning ochiq yoki yopik ekanligi kabi holatlar aks ettiriladi. Vakolatli mansabdor shax syoki davlat organining imzolari shartnomani yakunlaydi.

Xalqaro shartnomalar yaxlit bir xujjatdan iborat bulishi yoki turli ilovalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar odatda davlat vakolatli mansabdor shaxs (davlat boshligi, xuqumat boshligi, tarmoq vaziri va xokazo) tomonidan imzolanishi bilan kuchga kiradi. Ammo shartnoma

to'zayotgan tomonlar uning kuchga kiritilishi yo'zasidan boshqacha muddatlarni belgilashlari ham mumkin. Yuqsak milliy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan xalqaro shartnomalarni kuchga kiritilishi yo'zasidan maxsus protsedura (tartib) belgilanishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78 – moddasi 21 – bandida aytilishicha O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan to'zgan muxim ahamiyatga molik shartnomalari va bitimlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifiqatsiya qilinmogi (Tasdiqlanmogi) lozim.

Xalqaro shartnomalar uning ishtirokchisi bo'lgan davlatlar tomonidan bajarish uchun majburiy bo'lib, tarixiy shart – sharoitni o'zgarganligi, shartnoma qoidalarini ichki qonunchilikka zid kelishi va xokazo vaziyatlar shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarni badarishdan buyin tovlash uchu nasos bula olmaydi. Urushlarni yo'z berishi urushayotgan tomonlardan boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga deyarli ta'sir etmaydi.

Xalqaro shartnomalar unda ishtirok etayotgan tomonlar rasmiy davlat tillarida to'ziladi. Ko'p tomonlama shartnomalarning BMT ishchi va rasmiy tillarida tuzish ko'zda tutilgan.

Xalqaro shartnomalarni to'zi shva ijro etishga oid xalqaro huquqiy qoidalar bir qator xalqaro normalarda belgilab quyilgan. Jumladan, xalqaro shartnoma huquqi haqidagi 1969 yilgi Vena Konvensiyasi, BMTning «Tovarlarni xalqaro olish – sotish shartnomalari haqidagi» 1980 yilgi Vena Konvensiyasi shulardandir.

O'zbekiston o'z mustaqilligi tobora mustaxkamlab, jaxon hamjamiyatida munosib uringa, obru – e'tiborga ega bo'lib borayotgan bizning kunlarimizda xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan turli aloqalar urnatish, hamkorlikni kuchaytirish uta muxim ahamiyatqasb etuvchi vazifalardan biriga aylanmoqda. Umumjaxon xo'jalik tizimlariga kirishning, butun dunyo miqyosidagi iqtisodiy jarayonlarga tobora kengroq kushilishning asosiy huquqiy shakli bo'lib Respublikamizning boshqa davlatlar bilan urnatadigan shartnomaviy aloqalari xisoblanadi. Davlatlararo shartnomalarga oid xalqaro huquq normalarini bilish, shartnoma tuzish jarayonini chuqur anglab yetish O'zbekistonni xalqaro hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirishning, davlatimiz manfaatlari va xavfsizligini samarali himoya qilishning ishonchli va ta'sirchan vositasidir.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi hamjamiyatiga faol kirib bormoqda, xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro aloqalarni mustaxkamlab, shartnomaviy va diplomatik amaliyotni kengaytirmoqda. Bunday sharoitda xalqaro huquq to'g'risidagi bilim va ma'lumotlarni keng jamoatchilik ichida yoyish muxim ahamiyatqasb etadi. Xalqaro huquqkushilik sivilizatsiyasining yutugi, umuminsoniy qadriyat va xozirga zamon jaxon tartibotining huquqiy asosidir. BMT xalqaro munosabatlarni tartibga solishda xalqaro huquqning ustunligini, uni urganish, targib qilish, ukutish va yoyish zarurligini aloxida e'tirof etadi.

Davlat suverenitetiga erishish, BMTga a'zo va boshqa nufu'zli xalqaro tashkilotlarga a'zo bulish O'zbekiston Respublikasiga o'z tashqi siyosatini mustaqil amalga oshirish, jaxon hamjamiyatiga kirib borishiga, barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar urnatishiga imqon yaratdi.

«O'zbekistonning tashqi siyosati borasidagi faoliyatining asosini davlat milliy manfaatlarining ustuvorligi, xalqaro huquq mezonlari, tenglik va boshqa millatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha baxsli masalalarni tinch munozaralar yuli bilan xal etish kabi jaxon miqyosida e'tirof etilgan tamoyillar tashkil etadi» - degan edi yurtboshimiz I. A. Karimov.

Bugungi kunda xalqaro huquqiy savodxonlikni rivojlantirish, xalqaro huquqni urganishni ragbatlantirish va xalqaro huquqiy bilimlarni aholii o'rtasida keng yoyish muxim amaliy ahamiyatqasb etadi. Shu bois, talaba yoshlarga ham xalqaro huquq haqidagi tushunchalar qisman bo'lsada urgatilishi lozim deb xisoblandi. Bu mavzuni kengaytirilgan xolda urganish uchun biz ularga A. X. Saidov, R. T. Xakimov, K. Mirzajanov, R. A. To'zmuhamedov va boshqa mutaxassis yurist olimlar tomonidan tayyorlangan «Xalqaro huquq» kA oid darslik, ukuv kulanma, ukuv - uslubiy tavsiyalarni urganishni tavsiya etamiz.

Nazorat uchun savollar.

1. Xalqaro huquq qanday paydo bo'lgan ?
2. Xalqaro huquqning mohiyati nimada ?
3. Xalqaro huquq va ichki davlat huquqi nisbati nimada ?
4. Xalqaro huquq bilan xalqaro xususiy huquq o'rtasida o'zaro aloqadorlik bormi ?
5. Xalqaro huquq normalarini yaratish jarayoni nimani vositasida amalga oshiriladi ?
6. Xalqaro huquq davlatlarning tashqi siyosatida va diplomatiyasida qanday uringa ega ?
7. Xalqaro huquq funksiyasi nimadan iborat ?
8. Xalqaro huquq tamoyillarini tushuntiring.
9. Xalqaro shartnoma qanday to'ziladi va rasmiylashtiriladi ?
10. Xalqaro huquq manbalari qaysilar ?

GLOSSARIY.

1. Xususiy huquq –umumiy manfaatlarni tartibga soluvchi va muxofaza qiluvchi ommaviy huquqdan farqli ularoq xususiy manfaatlarni munosabatlarni ifodalovchi hamda yakka mulkdorlar va birlashmalarni ularning mumkin faoliyatidagi va shaxsiy munosabatlaridagi mustaqilligi va tashabbusiga asoslangan munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmoqlaridan biridir.

2. Xalqaro kafolat - xalqaro huquqda xalqaro majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq huquqiy normalar yigindisidir.

3. Kuch ishlatish - BMT Ustaviga asosan harbiy vaziyatlarda tomonlarning harakatlari tushuniladi.

4. Indent - agent - chegara ortida vositachilik asosida xorijiy mol yetkazib beruvchidan kelib tushadigan tovarlarni sotish buyicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi agent.

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot –pirovard maqsadimiz» - Toshkent, 2000.
2. Saidov A. X. «Xalqaro huquq. « Darslik. 2 - tom. Toshkent. “Adolat”. 2001.
3. Saidov A. X. «Xalqaro huquq tushunchasi va mohiyati. « Uquv qo'llanma. Toshkent. 2000
4. To'zmuhammedov R. A., Xakimov R. T. «Osnovny mejdunarodnogo prava. « - Tashkent, 1998, s. 7.
5. « Mejdunarodnoye pravo. « pod. red. G. V. Ignatenko. - M., 1995. b.6. «Mejdunarodnoye pravo. « otv. Red. G. I. Tunkin. - M., 1994.
7. To'zmuhammedov R. A. Xakimov R. T. «Xalqaro huquq asoslari. - Toshkent 1997
8. Qosimov A. «Diplomatiya asoslari. « Toshkent, 2005
9. A. X Saidov «Xalqaro huquq subyektlari» Toshkent - 2001
10. A. X. Saidov I. Lukashik. Hozirgi zamon huquqi nazariyasi asoslari. 2008
10. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent, 26 dekabr 1996 yil.
11. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharx T. 2001.
12. Inson huquqlari buyicha xalqaro shartnomalar. Toshkent. 2004.
13. Yuridik ensiklopediya. Toshkent. Sharq. 2003
14. www. gov. o'z
15. www. edu. o'z
16. www. vivo. tdu. o'z
17. www. performfnce. edu. o'z
18. www. lan. krasu. ru. /su

12 - Mavzu: «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi, uning maqsad vazifalari.

REJA:

1. O'quv kursining joriy qilinishi, tushunchasi, maqsad va vazifalari, tizimi.

2. O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish kursi, konstitutsiyaviy xu - kuqning asosiy qismi. Uning predmeti.

3. O'quv kursini o'rganish usullari.

4. Konstitutsiyaviy huquq va siyosiy tizim.

1. O'quv kursining joriy qilinishi, tushunchasi, maqsad va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi asosida mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida «O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi joriy qilindi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'quv kursining maqsadi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlat va jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no mazmunini hamda mohiyatini o'rganish, fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatni muntazam yuksaltirish va shu bilan birga asosiy qonunni mukammal o'zlashtirish, uni targ'ib tashviqot qilishdir.

O'quv kursining umumiy vazifasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlatchilikni rivojlantirish, adolatli tashqi siyosat olib borish, O'zbekistonni dunyoda davlat darajasiga ko'tarish, respublikada huquqiy demokratik davlat barpo etish, adolatli jamiyat kurish, konstitutsiyaviy huquq normalari va huquqiy institutlarni takomillashtirishga doir muammolarni tadqiq etish, jamiyatda yo'zaga keladigan huquqiy munosabatlarni o'rganish va buning natijasida respublika qonunlarini rivojlantirish uchun zarur takliflarni tayyorlashdan iboratdir.

1. O'quv kursining asosiy vazifalari quyidagilarni o'rganishdan iborat bo'lib, ular:

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosiy printsiplarini;

3. Fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;

4. Jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni;

5. Jamiyatning iqtisodiy asoslarini;

6. O'zbekistonning ma'muriy hududiy davlat tuzilishini;

7. O'zbekiston Respublikasi saylov tizimini;

8. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatini, oliy va mahalliy organlarining tuzilishini;

9. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining amalga oshirilishini;

10. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tashkil etilishi va vazifalarini;

11. O'zbekiston Respublikasi moliya va kredit tuzilishini;

12. O'zbekiston Respublikasida mudofaa va xavfsizlikning ta'minlanishini;

13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va ko'shimchalar kiritish tartibini;

Ushbu o'quv kursining mohiyatini to'la anglab olish uchun avallo «Konstitutsiyaviy huquq» tushunchasini bilib olish kerak, zero, «O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi «Konstitutsiyaviy huquq» fanining asosiy qismini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy huquq fani esa, huquqshunoslikning muhim tarmog'i bo'lib, uning asosiy vazifasi konstitutsiyaviy huquq sohasini o'rganishdan iborat.

Binobarin, Konstitutsiyaviy huquq fani O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimning yetakchi tarmog'i bo'lgan konstitutsiyaviy huquq tushunchasi, uning predmeti, huquqiy normalari, institutlarini, ularni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni o'rganadi va ushbu huquqiy tarmoqning rivojlanish istiqbolini ko'rsatib beradi.

Konstitutsiyaviy huquqni milliy tizimning asosiy tarmog'i sifatida o'rganishda quyidagilarni nazarda tutadi. Birinchidan, konstitutsiyaviy huquqboshqahuquq tarmoqlari kabi davlat tomonidan o'rnatiladi va ko'riklanadi. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy huquqboshqahuquq tarmoqlaridan o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra farqqiladi, ya'ni u davlatning eng asosiy huquqiy normalarini ifoda etib, boshqahuquq sohalaridan farqli o'laroq, ustunlik va umumhuquqiy tamoyillarini o'rnatuvchi harakterga ega.

Konstitutsiyaviy huquq eng avvalo inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini

muhofaza etuvchi, kafolatlovchi va shu maqsad - larda uni himoyalovchi davlat hokimiyatining muayyan tizimini ta'sis etuvchi huquqiy normalar majmuasidir.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim qoidalaridan biriga binoan, davlat inson uchun, uning erkinliklarini muhofaza qilish va yaxshi turmushsharoitini ta'minlash uchun mavjuddir. Hokimiyat va erkinlikning muvozanatini ta'minlash konstitutsiyaviy huquqning eng asosiy nozik mohiyatini tashkil etadi.

Huquqning boshqa tarmoqlari kabi konstitutsiyaviy huquq ham o'z predmetiga ega.

Konstitutsiyaviy huquq predmetini belgilash katta aniqlikni talab etadi. Chunki bu tarmoqda eng to'g'ridan - to'g'ri inson va fuqarolarning huquqlari, burchlari va erkinliklari kafolatlari to'g'risida boradi.

Zero, gap inson huquqi, erki va burchi to'g'risida borar ekan, Konstitutsiya o'zining normalarda uni odilona yechish va eng muhimi, ana shu huquq va erkinliklarni ta'minlaydigan, ko'riklaydigan davlat hokimiyatini tashkil etadigan o'ta murakkab masalani hal qiladi.

Xalqhokimiyatchiligiga asoslangan demokratik davlat organlarini tashkil etishqonun ustuvorligiga asoslangan ijroiya hokimiyatini, mustaqil sudni, mahalliy o'z - o'zini boshqaruvni takozo etadi.

Konstitutsiya birinchi navbatda boshqaruv shakli va davlat hokimiyatini tashkil etish me'yorlarini o'rnatadi. Bunda u avallom bor uning asosiy printsiplari, manbaalari, ta'limotlari va g'oyalari nimalardan iborat ekanligini aniqlaydi. Bu o'rinda xalqhokimiyatining taqsimlanishi, davlat boshqaruv shakli, ko'p partiyaviylik, xur fikrlik, vijdon erkinligi, mulk huquqi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyani o'rganish o'quv kursining tizimi bu konstitutsiyaviy huquq normalarini ilmiy asoslangan tartibda, ularning mazmuniga, ular tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatiga, ahamiyatiga qarab muayyan guruhlarga bo'lish.

Konstitutsiyaviy huquqning huquq sohasi sifatidagi tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tizimiga mos keladi, lekin u bilan aynan bir xil emas. Konstitutsiya tizimi o'zgarishi bilan konstitutsiyaviy huquq tizimi ham o'zgaradi.

Huquq sohasi sifatida konstitutsiyaviy huququqidagi tizimga ega.

Konstitutsiyaviy tuzimning asosiy prinsiplari;

1. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari;
2. Jamiyat va shaxs o'zaro munosabatining asoslari;
3. Ma'muriy hududiy va davlat tuzumlarining asoslari;
4. Davlat hokimiyati organlarining tizimi, ularni tashkil etish va faoliyatining asoslari;

2. O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish kursi - Konstitutsiyaviy huquqning qismi.

Uning predmeti.

Konstitutsiyaviy huquqning predmeti, ijtimoiy munosabatlarning ikki asosiy sohasini kamrab oladi;

Birinchidan, inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari muhofazasi, ya'ni, inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar;

Ikkinchidan, davlat tuzumi va davlat hokimiyatini tashkil etilishi hokimiyat sub'ektlari o'rtasidagi munosabat.

Inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar faqatgina konstitutsiyaviy huquq bilan emas, balki huquqning boshqa sohalari masalan, ma'muriy huquq, Mehnat huquqi, fuqarolik huquqi va boshqalar tomonidan ham tartibga solinadi.

Inson erkinligi tabiiy holat deb e'tirof etish bilan bog'lik munosabatlarni tartibga solish murakkab ishdur.

Hozirgi paytda O'zbekistonda shakllanayotgan chinakam fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqildir va undan yuqori turadi, u insonning erkinliklari va tashabbuslarini, odamlarning ham siyosiy, ham iqtisodiy sohalardagi birlashmalarini e'tirof etish asosiga qurilgan.

Huquq ijtimoiy munosabatlarning faqat Kichik bir qismini tartibga soladi, uning katta qismi esa, axloq va ijtimoiy o'zini - o'zi boshqarishni tashkil etish asosida tartibga solinadi.

Erkin Inson huquqi orqali muayyan ijtimoiy tartib shakllanadi: mulk shakllari, iqtisodni tashkil etish, siyosiy tizim, ijtimoiy munosabatlar va x. k. Demokratik davlat sotsialistik yoki kapitalistik ijtimoiy tuzumni o'rnata olmaydi, ya'ni u yoki bu g'oyaviy bosimga yon berishi mumkin emas, chunki, har qanday holda ham bu aholining bir qismi istaklarini aholining boshqaqismiga zo'rlab qabul qildirish demakdir. Albatta erkin saylovlar natijasida hokimiyat tepasiga qanday kuchlar kelganligiga qarab, davlat siyosati u yoki bu ijtimoiy iqtisodiy yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. Ammo shunday sharoitda ham Konstitutsiyaviy yo'l bilan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini yo'q qilish va o'zgartirish mumkin emas.

O'tish davrida O'zbekistondagi fuqarolik jamiyati to'lik qaror topganicha yo'q, aholining erkinlik tashabbusi, butunlay o'zini - o'zi boshqarishni tashkil etish borasida malakasi hali yetarli emas. Shu sababdan davlatning jamiyatdagi an'anaviy tartibga soluvchi roli saqlanib qolmoqda. Ammo vaqti bilan, zaruriy islohatlar muvoffaqiyatli davom etsa va jamiyat chinakam fuqarolik jamiyatiga aylansa, davlatning roli tobora pasayib boradi, ijtimoiy hayotning bir qator sohalarida huquqiy tartibga solish, o'zini - o'zi boshqarish va erkin kishilarning tashabbusiga o'z o'rnini bo'shatib beradi.

Davlat hokimiyatining tuzilishi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining ta'sis etilishigina emas, balki ular orasidagi munosabatlarning keng doirasini tartibga solishni ham nazarda tutadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, garchi ularning vazifalari va vakolatlari o'rtasida tafovut bo'lsada, bir butun yaxlit tizimni tashkil etishi zarur. Bu tizim odamlar va ularning manfaatlariga shunday munosabatda bo'lishi kerakki, u davlatning jamiyatdagi rolini namoyon qilishga ko'maklashsin. Konstitutsiyaviy huquqhokimiyat huquq jarayonlari rivojida boshlang'ich nuqtani tashkil etadi. U barcha davlat organlarini hamjihatlik bilan, yagona maqsad yo'lida o'zaro hamkorligi uchun asos bo'lishi lozim.

Konstitutsiyaviy huquqning bunday tizimini tashkil etish funktsiyasi undan qonunchiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlari, shuningdek, mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, vazifalari va maqomi miqyosini, qonuniy tashkil etilish tartibi, vakolat doirasi, faoliyat shakli va xokazolarni aniqbelgilab qo'yishni ta'kazo etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, «O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish « o'quv kursining predmetini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Konstitutsiyaviy huquq tarmog'iga xos rivojlanishqonuniyatlarini, belgilarini va xususiyatlarini;
- Konstitutsiyaviy huquq normalari va institutlarini;
- Konstitutsiyaviy huquq normalarining amal qilish mexanizmini;
- Konstitutsiyaviy normalarning boshqa tarmoqlaridagi normalar va institutlar bilan munosabatini;
- Konstitutsiyaviy normalarning huquqining boshqa tarmoqlaridagi normalar va institutlar bilan munosabatini;
- Konstitutsiyaviy huquqning nazariy masalalarini;
- O'zbekiston Konstitutsiyasining davlatimiz rivojidadagi o'rni va ahamiyati;
- Konstitutsiyaviy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni;
- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzumi, asoslarini;

3. O'quv kursini o'rganish usullari.

Har qanday fan yoki o'quv kursi o'zi o'rgatadigan masalalarni o'rganish usullariga ega. Bu fanda «metodologiya» deb ham yuritiladi.

«Metodologiya» so'zi yunoncha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, aynan ma'nosi «biron narsani o'rganish yo'li « demakdir.

Metod bu umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, muayyan izga solingan faoliyatdir.

Metod bu maxsus ma'noda bilish vositasi, o'rganiladigan mavzuni tafakkurda hosil qilish yo'lidir.

Ilmiy tadqiqot jarayonida bilishning aniqshakli va usullaridan foydalanish orqali ilmiy

tadqiqot jarayonida kelib chiqqan muammo yoki masalaning qo'yilishi yoki hal qilinishida maxsus usullardan foydalaniladi. Ular esa tarixiy aniqlash jarayonida vujudga keladi va rivojlanadi. Shuning uchun hamhar bir fanning o'z predmeti va tadqiqot usuli mavjudki, ular o'zi o'rganayotgan ob'ektga nisbatan maxsus amaliy va nazariy tadqiqot usuli asosida yondashadi.

Bilishda xususiylik va umumiylik vazifasini bajaruvchi usullar mavjud. Ko'pchilik fanlarda qo'llaniladigan usullar umumiy usul deyiladi. Har bir fan aniqlashning o'zi ko'llaydigan xususiy usullari asosida bilim tizimini chuqurlatib borsa, umumiy usulni tatbiqlash orqali esa bilish doirasi yanada kengayib boradi.

Ilmiy bilishning hamma fan uchun tegishli bo'lgan umumiy usullarga analiz va sintez. Induksiya va deduksiya, analogiya, mantiqiylik va tarixiylik mavxumlikdan aniqlikka borish yoki aniqlikdan mavxumlikka borish va boshqalar kiradi.

Ilmiy bilishning bu usullari fan taraqqiyotida garchi umumiy hisoblansa ham, dialektik usullarga nisbatan xususiy bo'lishi mumkin. Lekin bu usullar dialektik usullar bilan bog'langan.

Shunday qilib, bilish jarayonida ilmiy tadqiqotning xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo'lib, ular o'zaro bir biriga bog'lik.

Dialektik usul real olamning eng umumiy usuli bo'lib, u barcha fanlar uchun, jumladan, ushbu o'quv kursi uchun ham metodologiyadir.

Dialektika xodisalarini rivojlantirilishida boshqaxodisalar bilan aloqadorlikda, bir - biri bilan bog'lik holda, harakatda, miqdoriy va sifat o'zgarishida olib qaraydi. U real mavjud, muayyan vaziyatda, muayyan vaqtda va hududda vujudga kelgan.

Binobarin, ularni tushuntirish uchun ularni vujudga keltirgan sharoitlarni, mavjud bo'lgan va yashayotgan davrini bilmok kerak.

4. Konstitutsiyaviy huquq va siyosiy tizim.

Bu ikki tushuncha bir biri bilan uzviy bog'lik. Davlat siyosiy tizimining tarkibiy qismi bo'lib, unga siyosiy institutlar va muassasalar ham kiradi. Davlat organlari siyosiy tizimining boshqa kompaniyalari bilan birga uzviy aloqada shakllanadi va faoliyat olib boradi. Chunki bu tizim jamiyatda hokimiyat bilan bog'lik siyosiy munosabatlarni ifoda etadi.

Konstitutsiyaviy huquq va siyosiy tizim bir narsa emas. Huquqiy munosabatlar siyosiy munosabatlarning bir qismini tashkil etadi. Masalan, fuqarolik huquqi va erkinliklari instituti siyosiy tashkilotlarning faoliyati, ularning hokimiyat uchun kurashda hal qiluvchi sharoit yaratadi. Huquq hokimiyat mexanizmni o'rnatadi, asosiy siyosiy kuchlar ana shu doirada o'zlarini namoyon qiladilar.

Ammo konstitutsiyaviy huquq baribir u yoki bu mamlakatni kim va qanday boshqarayapti, degan savollarga to'liq javob bermaydi. Bu huquq normalari o'z - o'zicha ta'sir kuchiga ega emas, ular siyosiy voqelik bilan o'zaro munosabatga kirishgandagina jonlanadilar. Siyosiy munozaralar - ning ishtirokchilari ba'zan yillar davomida ayrim huquqiy normalarni eslamaydilar, ammo o'tkir siyosiy vaziyat yo'zaga kelganda, unutilgan normalar tomonlarning huquqqa zid usullarini qo'llashiga yo'l qo'ymaydi, xaloskorlik rolini bajaradi. Tarixda shunday ham bo'lganki, siyosiy tuzum konstitutsiyaviy huquqni o'rganish siyosiy tizimning barcha murakkab jihatlarini, ya'ni siyosatshunoslik o'rganish bilan to'ldirilishi zarur.

Konstitutsiyaviy huquqning eng muhim belgisi boshqaruv shaklidir. Garchi u siyosiy munosabatlar ishtirokchilari uchun ahamiyatga ega bo'lsada, baribir hokimiyatni amalga oshirishning konkret metodlari va usullarini aks ettirmaydi. Mamlakatda demokratik davlatchilikning barcha atributlari bo'lishi mumkin: e'lon qilingan huquq va erkinliklar; parlament; prezident; ma'sul hukumat; ammo zaruriy siyosiy tuzum ko'pol diktaturadan iborat bo'lsa, demokratik institutlar xo'ja ko'rsinga mavjud bo'ladi.

Siyosiy tuzumning uch asosiy turi ma'lum bo'lib, ular: demokratik, avtoritar va totalitar.

Demokratik tuzum konstitutsiyaviy qonunchilikka rioya qilishning, barcha fuqarolarning o'z huquq va erkinliklaridan to'la foydalanish imkoniyati mavjudligi, ko'ppartiyaviylik, erkin matbuot, qonunlashtirilgan diskriminatsiya yo'qligi, mustaqil sud tizimi va xakozalar bilan karakterlanadi.

Avtoritar tuzum davlat qarorlarini qabul qilish konstitutsiyaviy mexanizmni oligarxiyaga

buysundiradi, hokimiyatni amalda diktator qo'lida markazlashtiradi, ijroiya hokimiyatini kengaytirib, uni nazoratsiz va hech kimga hisob bermaydigan qilib qo'yadi.

Bu tuzumda aholining barcha qatlamlari xatti - harakatlari ustidan nazorat o'rnatiladi, fuqarolik huquqlari va erkinliklari yo'qqa chiqariladi. Bunday vaziyatda konstitutsiyaviy tartib cheklangan, favqulodda yoki harbiy vaziyat bilan almashadi, tuzum qurolli kuchlarga suyanadi.

Totalitar tuzum bu qo'pol repressiyalar, fikr ustidan nazorat o'rnatish, muholifat va erkin matbuotni batamom yo'q qilish bilan karakterlanadi. Hokimiyatning o'ta markazlashuvi doxyichilikni tug'diradi, parlament muassasalari va mustaqil sudlarning amalda yo'q qilinishiga olib keladi. Konstitutsiyaviy «huquq» bunday tuzumda faqat bir partiyaning diktaturasini qonunlashtiradi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Respublika Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi asosida Konstitutsiyamizning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini mukammal o'rganishga kirishildi. Ma'lumki, respublikamiz mustaqillikka erishgach, yangi suveren davlat maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlab qo'yish muammosi yo'zaga keldi. O'zbekiston Prezidenti respublikamiz o'zining rivojlanish yo'lini konstitutsiyaviy asosda belgilab olishi zarurligini bir necha bor ta'kidlagandi. «Davlatning kelajagi, xalqimizning takdiri ko'p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'lik», - degan edi yurtboshimiz. Shundan kelib chiqqan holda davlatimizning xususiyati, ichki va tashqi siyosatining asosiy qoidalari, umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlari va erkinliklari, davlat mustaqilligi printsiplari, demokratiya va ijtimoiy adolat idellariga sodikligi aks ettirilgan asosiy qonunimizni qabul qildik va undagi barcha qoidalarning mazmun mohiyatini tushunish va bilish har birimizning fuqarolik burchimizdir. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatini shakllantirdi va mustahkamladi. Konstitutsiya bizga inson huquq va erkinliklari, ozodlik va barqarorlik, shuningdek taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli davlatni qanday kurish yo'llarini ochib berdi. Konstitutsiyaning talablarini bajarishdagi fuqarolarning ongliligi bugungi kunda barchamiz intilishimiz zarur bo'lgan xislatdir. Shu bois ham O'zbekistonda o'z taraqqiyot yo'lida misli ko'rilmagan madaniy, ma'naviy o'sishga erishish vazifa qilib qo'yilgan. Ana shundagina shaxs o'z xalqi, jamiyati, oilasi oldidagi majburiyatini anglay oladi va ko'ngilli ravishda bajaradi deb uylaymiz. Talaba yoshlarimiz ongida bu xususiyatlarni shakllantirilishi davr talabidir.

GLOSSARIY.

1. Absolyut - mutloqan. (bir narsada mutlakon xulosa chiqarish)
2. Metodologiya - biron bir narsani o'rganish.
3. Parlament - Konstitutsiyali davlatlarda qonunchiqaruvchi Oliy majlis vakillar majlisi.
4. Konstitutsiyaviy huquq fani - huquqshunoslik sohasini o'rgatadigan fan.
5. Siyosiy rejim – davlat xokimiyatini amalga oshirish usul va yo'llarning majmuasi, mamlakatdagi siyosiy vaziyati, ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holati.
6. Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq - atvor qoidalarning tizimi.

Nazorat uchun savollar:

1. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» qachondan va qaysi xujjat asosida joriy qilindi ?
2. «Konstitutsiyani o'rganish» o'quv kursining vazifasi, maqsadlari nimalardan iborat ?
3. «Konstitutsiyani o'rganish» o'quv kursini o'rganish usullari va tizimi qanday ?
4. Siyosiy tizim deganda nimani tushunasiz ?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning o'rganishdan maqsad nima ?
6. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» kursinining predmeti nimani o'rgatadi ?

7. Siyosiy tuzumning uch asosiy turi qanday ?
8. Respublika Prezidentining asosiy qonunimiz haqidagi fikrlari to'g'risida nima bilasiz ?

Adabiyotlar.

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2009.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboey, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv ko'llanma « O'zbekiston », T., 2001
6. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998
7. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
8. A. Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993
9. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
11. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. «Konstitutsionnoe pravo Rossii» uchebnik M. 2001.
12. Rummyantsev O. G. «Osnovo' konstitutsionnogo pravo Rossii (ponyatie, sanovleniya) M. 1994.
13. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
14. www. law. ru.
15. www. yandex. ru

13 - Mavzu: Konstitutsiya tushunchasi va mohiyati.

REJA.

1. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni.
2. Konstitutsiya barqarorlik manbai va uning yuridik xususiyati.
3. Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarning tushunchasi, sub'ektlari.
4. O'zbekiston Konstitutsiyasining sobik shuro tuzumi Konstitutsiyalardan farqi va o'ziga xos jihatlari.
5. O'zbekiston Konstitutsiyasining sobik shuro tuzumi Konstitutsiyalaridan farqi va o'ziga xos jihatlari.

1. Konstitutsiya - davlatning asosiy qonuni.

O'zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining XI - sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda moddama - modda ovoz berish yo'li bilan mustaqil O'zbekiston davlatining Asosiy qonuni Konstitutsiyamiz qabul qilindi. Bu respublika tarixidagi buyuk voqeadir.

O'zbekiston Respublikasi birinchilardan bo'lib o'zining Konstitutsiyasini qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov bu konstitutsiya to'g'risida quydagilarni ta'kidladi: «Tarixda sinalgan umumbashariy kadriyatlarni o'zida mujassam etgan hujjatdir».

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'zbek xalqining davlat suvereniteti g'oyalari va inson huquqlariga hamda ozodligiga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, xozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyatni anglagan xolda o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib qabul qilingandir.

Bu O'zbekiston xalqi demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqiy mezonlarni etirof etib, uning ustunligini tan olgan xolda Respublika fuqarolari munosib hayot kechirishlari ta'minlashga intilib qabul qilingan Konstitutsiyadir.

Asosiy qonun o'z mohiyati e'tibori bilan har qanday demokratik jamiyatning asosiy bosh

belgilaridan biridir.

«Konstitutsiya» atamasi lotincha soʻzdan olingan boʻlib, «belgilayman», «taʼsis etaman» degan maʼnoni bildiradi. Bu atama kadimgi Rim qonunhujjatlarida uchraydi.

Konstitutsiya bu monumental asar, u barcha qonunlarning, huquqiy tizimning oʻzidir. U xalq manfaatini ifoda qiladi, xalqhokimiyatchiligini taʼminlaydi.

Oʻzbekiston Konstitutsiyasi xalqning oʻzini - oʻzi boshqarish, erkinlik va ijtimoiy adolat, insonparvar demokratik davlat barpo etish toʻgʻrisidagi azaliy orzusini ifodalab berdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining dunyoga kelishiga asosan ikkita omil sabab boʻldi. Shulardan biri jamiyatning bozor munosabatlarining tomon tutgan yoʻli, yaʼni taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlar va yoʻnalishlarga muvofiq ravishda Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi boʻldi.

Oʻzbekistonda davlat mustaqilligi eʼlon qilinganligi Oʻzbekiston Respublikasini Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilishni taqazo etgan ikkinchi omil boʻldi.

Suveren Oʻzbekistonning birinchi Konstitutsiyasi Oʻzbekistonning oʻz maqsadlariga yetishishining mustahkam huquqiy kafolatidir. Respublika Prezidenti I. A. Karimov taʼkidlab oʻtganidek: «tabiyki, har qanday davlatning yoʻzi, obru eʼtiboriuning Konstitutsiyasi hisoblanadi. «¹

Konstitutsiyaning qaysi bir moddasini olib qaramang, har birida demokratiya, xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari gʻoyalari koʻzga tashlandi.

Konstitutsiyani yana bir avzal tomonlari shundaki, unda birinchi bor Oʻzbekistonning qiyofasi, xususiyatlari, anʼanalari oʻz aksini topgan, bundan tashkari xalqimizning maʼnaviy, madaniy merosi, milliy tafakkoʻri, koʻp asirlik oʻzbek davlatchiligi tajribasi hamda huquqiy anʼanalariga asoslangan va ularning boy ijobiy tajribasini oʻzida aks ettirgan.

Maʼnaviy, ahloqiy, ilmiy, diniy va huquqiy qadriyatlar xalqimizning koʻp asrlik turmush tarzida, anʼanaviy madaniyatida muhim oʻrin olgan. Vatandoshlarimizga xos adolat, haqiqat, iymon, insof, oliyjanoblik, bagʻrikenglik, mardlik, tantilik, saxovatpeshalik kabi ulugʻvor xislatlar Konstitutsiyamizda munosib oʻrin olgan.

Oʻzbekiston mustaqil davlatchiligining mustahkam huquqi asosi boʻlib respublika Konstitutsiyasi xizmat qiladi.

Mustaqil Oʻzbekistonning birinchi Konstitutsiyasi kelajagi buyuk davlatning ishonchli huquqiy kafolatlarini mustahkamladi.

Oʻzbekiston Respublikasining birinchi konstitutsiyasi qabul kilingandan buyon oʻtgan yillarning eng muxim natijasi xalqimizning tanlangan yoʻli toʻgʻriligini, oʻz mamlakatining buyuk kelajagiga ishonchi ortib borayotganligidadir.

2. Konstitutsiya barqarorlik manbai va uning yuridik xususiyati.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Asosiy qonunhisoblanib, u eng Oliy yuridik kuchga egadir. Konstitutsiya oʻzining yuridik ahamiyatigiga koʻra, boshqaqonunlarga nisbatan maxsus huquqiy hujjatdir. Uning ahamiyatini kuyidagi misollarda yakqol koʻrishimiz mumkin.

Konstitutsiyaning yuridik manbalari amaldagi Konstitutsiyaviy meʼyoriy hujjatlar boʻlib, bu huquqiy hujjatlar ichida eng asosiysi Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. UKonstitutsiyaviy huquqning bosh manbai hisoblanadi. Unda Oʻzbekiston Respublikasining davlat va

Konstitutsiyaning asosiy manbalaridan yana biri Oʻzbekiston qonunlaridir. qonunlar davlatning qonunchiqaruvchi Oliy organi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi quyi palatasi «qonunchilik yuqori palatasi «Senat» tomonidan yoki xalq referendumi orqali qabul qilinadi. Qonunlar konstitutsiyaga mos tarzda qabul qilinib, ular ikki turda boʻladi: yaʼni,

1) Konstitutsiyaviy qonunlar.

2) Oddiy yoki joriy qonunlar.

Ularning bir - biridan farqi shundaki, Konstitutsiyaviy qonunlar konstitutsiya normalariga aniqlik kiritish, qonunlarni mustahkamlash va rivojlantirishga karatilgan. Ular muxim davlat va xoʻjalik koʻrilishiga, fuqarolarga doir masalalarni huquqiy tartibga soladi.

¹ И.А.Каримов Буюк келажегимизнинг хукукий кафолати. Т, Узбекистон. 1993. 6-бет.

Konstitutsiyaning manbalaridan yana biri O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'korg'i Kengesining ish tartibi to'g'risidagi qonunlar (reglament) hisoblanadi. Mazkur aktlar kondifikatsiya tartibida tuzilgan bo'lib, qonunchiqaruvchi Oliy hokimiyat organlarining faoliyatini tartibga solib turadi.

Oliy vakolat organlar tomonidan qabul qilinadigan nizomlar ham konstitutsiyaning manbai hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquq manbalari to'g'risida gap ketganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga aloxida e'tibor berish lozim.

Shu bilan bir katorda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan qabul kilingan, tarkibida Konstitutsiyaviy huquqiy me'yorlar bo'lgan qarorlar, mahalliy hokimiyatning ba'zi bir qarorlari ham, hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan to'zgan xalqaro bitim va shartnomalar ham konstitutsiyaning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Konstitutsiyaning yuridik funktsiyalari ichida eng muhimlari quyidagilardir:

Konstitutsiyaviy me'yorlar amaldagi huquqning Oliy moddiy mezonidir;

Konstitutsiya matnida huquqning asosiy printsiplari ko'rsatiladi;

Amaldagi huquq manbalari konstitutsiyaviy jihatdan ta'riflanadi;

Konstitutsiyaviy me'yorlar bevosita amal qiladigan qoidalar bo'lib, ular sudlar va huquqni Muxofaza qiluvchi organlar tomonidan kullanilishi kerak.

Konstitutsiyaning barqarorligibevosita siyosiyhuquqiy madaniyat va ma'naviyatning turiga bog'lik. Davlatning va qonuning fuqarolar va jamiyat hayotiga aralashuvi bozor iqtisoditining o'zini - o'zi boshqarish mexanizmlari va boshqa kudratli kuchlari bilan cheklangan.

O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasining asosiy mazmun va mohiyati faqat uning xalqi manfaatlariga xizmat qiladigan va unda huquqiy demokratik davlat qurish asoslarini belgilab bergan kobusnomadir. Asosiy qonun sifatida Konstitutsiyaning yuridik xususiyatlarini quyidagicha bo'lib chakishimiz mumkin:

1. Konstitutsiya bu Oliy Majlis tomonidan qabul qiladigan va hamma uchun umummajburiy kuchga ega bo'lgan me'yoriy hujjat, qonunlarga xos hamma xususiyatlarga ega hamda davlat va jamiyat ko'rilishi xalqhokimiyatchiligi bilan bog'lik bo'lgan hamma ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

2. Konstitutsiya barcha oddiy qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo'ladi, chunki boshqaqonunlar va me'yoriy hujjatlar Konstitutsiya me'yorlariga muvofiq bo'lishi ta'minlanadi.

3. Konstitutsiya me'yorlari jamiyat va davlat boshqaruvida hayotning rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Va davlat dasturlarini dasturlarini yangilab turadi, bu esa uning barqarorligini ta'minlaydi.

4. Jamiyatning ijtimoiyiqtisodiy va siyosiy sohaslarini, davlatning rivojlanish boskichlarini takomillashtiruvchi normativ hujjatlar qabul qilinib turish zarurligini nazarda to'tadi va bu faoliyatning Konstitutsiya normalarida mustahkamlanganligini belgilaydi.

5. Davlatning huquq ijodkorligi va huquqni ko'llash sohasidagi boshlangich manba vazifasini o'taydi, uning qabul qilinishi va o'zgartirish tartiblarini aloxida ko'rsatib beradi. Har bir davlatning Asosiy qonunining yuridik xususiyatlari uning vazifasi kay tartibda tashkil kilinganligi va tulik amalga oshirilishi nazariy tomondan izoxlab berilishi bilan belgilanadi.

3. Konstitutsiyaviy - huquqiy munosabatlarning tushunchasi, sub'ektlari.

Ma'lumki, Konstitutsiyaviy huquq normalarini hayotga tadbiiq etish jarayonida konstitutsiyaviy - huquqiy munosabatlari vujudga keladi.

Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar deb Konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga aytiladi. Bunday munosabatlarning ishtirokchilari konstitutsiyaviy huquq normalari tomonidan o'rnatilgan huquqlar va majburiyatlar bilan o'zaro boglangan bo'ladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida shunday deyilgan: Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida

ma'suldirlar». ²

Ushbu modda Komusimizning eng muxim xususiyatlaridan biri o'z ifodasini topgan. Unda jamiyat va fuqarolar manfaatining ustunligi xolda davlatning ular oldida javobgarligi qonun bilan mustahkamlangan va kafolatlangandir. Unda davlatning ijtimoiy ahamiyati belgilab berilgan, uning maqsadi xalq manfaatlariga xizmat qilish ekanligi ko'rsatilgan.

Shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosan shaxs va davlatga nisbatan munosabatni aks ettiradi, davlat jamiyatning siyosiy tuzumi bo'lib, ana shu jamiyatni gavdalantiradi. Shaxsning jamiyat va davlat bilan munosabatlari harakteri insonning jamiyat va davlatdagi holatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida uch asosiy kadriyat «shaxsjamiyatdavlat» belgilab qo'yilgan.

Shaxs fuqarolik jamiyatning erkin, ongli, mustaqil tarkibiy qismidir. Fuqarolik jamiyati o'zaro xalqhar qanday hokimiyatning soxibi va chinakam manbai. Davlatjamiyat va shaxs manfaatleri va huquqlarini mustaqil, xalqchil, huquqiy himoyachisidir. Shunday ma'noda Konstitutsiya fuqaro, jamiyat va davlat hokimiyati o'rtasida to'zilgan o'ziga xos ijtimoiy shartnomadir.

Istiqlol sharofati bilan har bir inson, uning hayoti, erki, sha'ni, kadrkimmati va boshqahuquqhamda erkinliklari mukaddas deb e'lon qilindi va davlat himoyasiga olindi. Bu nixoyat muxim ahamiyatga ega huquqiy yutukdir. Chunki sunggi 70yil mobaynida O'zbekiston sobik sovet ma'muriybuyruqbozlik tuzumiga karamlik va siginishholatida edi. Endi esa barcha davlat idoralari va mansabdor shaxslar hamda fuqarolar oldida ma'suldirlar.

Davlatning fuqarolar oldida ma'sulligi demokratik huquqiy davlatning muxim belgilaridan hisoblanadi.

Aynan davlatning odamlarning huquq va erkinliklari uchun bo'lgan jamiyat ustidan xavfli xukmronligiga yo'l kuymaslik maqsadida, Konstitutsiya davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqaro oldidagi majburiyatini belgilab kuvgan.

Davlatning fuqarolar oldida ma'sulligi demokratik huquqiy davlatning muxim belgilaridan hisoblanib, ma'sulligi printsipi O'zbekistonning Konstitutsiyaviy rivojlanishi tarixida birinchi bor mustahkamlab qo'yildi.

Har qanday huquqiy munosabatlar eng kamida huquq majburiyatlar bajaruvchi, ikkitadan kam bo'lmagan ma'lum sub'ektlardan tashkil topadi.

Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar shu munosabatlarning ishtirokchilari orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarning sub'ektlari deb ularning tomonlari sifatida shu munosabatlarda ishtirok etuvchilarga aytiladi.

Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarning sub'ektlari quydagilar - dan iborat:

1. Fuqarolarning umumiy yigindisi bo'lgan O'zbekiston xalqi;
2. Milliy davlat tuzilishi bilan bog'lik bo'lgan munosabatlarda millatlar va elatlar;
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi;
4. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyat organlari;
5. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
6. Jamoat birlashmalari;
7. Deputatlar va ularning kengashlari;
8. Fuqarolarningturarjoyvaishjoydagiumumiyig'ilishlari, o'zinio'ziboshqarishorganlari;

FuqarolarKonstitutsiyaviyhuquqiymunosabatlarning sub'ektisifatidahuquqiylayokatvamuo malalayokatigaegabulishlarikerak.

Konstitutsiyasining sobiq sho'roti'zimi Konstitutsiyalaridan farqivo'zigaxosjihatlari.

Mustaqil davlat birinchi Konstitutsiyasi ilgari qabul qilingan Konstitutsiyalardan farqqiladi. Prezidentimiz I. A. Karimov aytganidek, yangi Konstitutsiyaning avvalgi Konstitutsiyalardan farqi, «Avvalo bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'k, Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'iinson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda

«fuqaro jamiyat davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonunda avvalgi shuro tuzumi davridagi Konstitutsiyalaridan farqli ravishda konstitutsion tartibga solishning ovrupa markazlashgan zo'rovonligiga barham berilgan. Biroq unda g'arb mamlakatlarining demokratik konstitutsiyalarga xos bo'lgan fuqarolik jamiyati me'yorlari, hokimiyatlarini taqsimlash, bir - birini tiyib turish va muozanatini saqlashga oid qoidalar oqilona hisobga olingan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilishning asosiy sabablardan biri shundan iboratki, O'zbekistonda ilgari amal qilib kelgan, konstitutsiyalar avvalgi totolitar tuzumni himoya kilar edi. Boshqarishi va xo'jalik yuritishning ma'muriybuyruqbozlik usullarini yoklaydigan, ishlab chiqish vositalarini umumxalq mulki bo'lishini tan oladigan, xususiy mulk huquqini, erkin rakobatni batomom etadigan bozor iqtisodiyoti qonunlarning amal qilishning cheklab kuyyadigan qoidalar rasman mustahkamlab qo'yilgan edi. Konstitutsiya va qonunlarni qayta ko'rib chiqmasdan turib, uni yangi sharoitga moslashtirmasdan turib, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni kurish mumkin emas.

Birinchidan, O'zbekiston davlat mustaqiligiga erishgandan sung mukarror ravishda o'zining asosiy qonunini qabul qilishga zaruriyat tug'ildi. Chunki har bir mustaqil davlat o'zining kontitutsiyasiga ega bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, biz bozor iqtisodiyoti tomon odimlab borar ekanmiz, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotiga oid eng asosiy masalalar Konstitutsiya tomonidan tartibga solinadi.

Uchinchidan, qabul kilingan Konstitutsiya hech kimning ko'rsatmalarsiz, bironbir tayyor andozadan ko'chirmachilik yo'li bilan emas, balki jahon va tarixiy Konstitutsiyaviy tajriba va amaliyotdan kelib chqib tayyorlanadi.

To'rtinchidan, Asosiy qonunimizda sungi yillarda Respublikamizda joriy etilgan va hayot tajribasidan o'tgan yangi konstitutsiyaviy ixtiyojlar o'z aksini topgan. Misol uchun, bunday institutlar jumlasiga Prezidentlik boshqaruv shakli, hokimlik instituti, konstituttsiyaviy nazorat, ko'ppartiyaviyliklar va boshqalar kiradi.

Asosiy qonunimizning oldingilardan va boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida ajralib turadigan jihatlardan quyidagilardan iborat:

U o'zining tub mohiyati falsafasi, maqsadlari va g'oyalariga ko'ra yangi hujjatdir. Respublikamizning oldingi asosiy qonunlari biz sobik Ittifoq tarkibida kog'ozdagi «Mustaqil bo'lgan Konstitutsiyalari edi.

Ushbu Komusimiz birinchi moddasidan to oxirgi moddasigacha mustaqillik g'oyasi bilan sugorilgan.

Asosiy qonun o'zining ichki tuzilishi va yangi konstituttsiyaviy institutlari bilan ajralib turadi. Bunda 1991 yil qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi Konstitut - siyaviy qonun muxim mezon bo'lib xizmat qildi;

Asosiy qonunboshqa konstitutsiyalardan farqli o'laroq, o'ta mafkuralashtirish va siyosatlashtirish ruxi bilan sug'orilmagan. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'k;

Asosiy qonun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan xalqaro huquq talab va qoidalarga javob beradigan tarzda tayyorlangan. Chunki O'zbekiton xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida o'zining Konstitutsiyasida shunday talab va qoidalarni tan olgan va mustahkamlangan;

Asosiy qonun jahon konstitutsiyaviy tajribasiga keng tayanish va ijobiy tomonlardan atroflicha foydalanganligi bilan ham ajralib turadi. Konstitutsiyamiz eng tarakkiy etgan mamlakatlar, ya'ni: AQSH, Turkiya, Frantsiya, Germaniya, Shvetsiya, Italiya kabi G'arb davlatlari, ruxiyati va etnik jihatlardan bizga yaqin bo'lgan Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa Sharq davlatlarning boy tajribasidan eng demokratik jihatlarini, insonparvarlik g'oyalarini tarannum etuvchi xalqaro hujjatlarning talablarini o'zida jamlagan;

Asosiy qonunimizni mustaqil davlatimiz ravnaqining huquqiy kafolati darajasiga ko'taruvchi eng muhim belgi unda jahonning ilg'or konstitutsiyaviy tajribasini milliy ma'naviy

va huquqqadriyatlarimizga, o'zbek xalqining boy tarixiga uyg'unlashtirib ko'llanilganidadir.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaning ustunligi va barqarorligi o'z navbatida, jamiyat qonun normalari va kadriyatlarining ifodasi bo'lishi konstitutsiyaning ma'naviy obruini ko'taradi. Biz mavzuni urganib har bir mustaqil davlatda chinakam demokratik Konstitutsiya va qonunlarga ega bulishning o'zi kifoya kilmasligini, barcha fuqarolar unga rioya etishlariga erishish lozimligini tushinib yetdik.

Konstitutsiya va qonunlar hamma narsadan ustun turmog'i va hamma uchun majburiy bo'lmog'i lozim. Bizning maqsadimiz har bir inson va fuqaroning huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini oshirish, qonunlarga rioya qilish ruxida tarbiyalashdir. Demokratik huquqiy davlatda har bir inson Konstitutsiya va qonunlarga amal qilishi shart va majbur.

Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek: «Bizning Komus demokratik konstitutsiyalarga qo'yiladigan yuksak talablarga javob beradi, Inson hamda fuqarolarning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini kafolatlaydi».³

Shu ma'noda u har qanday ilg'or davlat konstitutsiyasi bilan bimalol kuch sinashmokda. Shuning uchun ham Konstitutsiyamiz eng ilg'or huquqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirganligi, uning eng demokratik an'analar asosida yaratilganligini butun jahon e'tirof etmoqda.

GLOSSARIY.

1. Davlat - bu uchta asosiy, ya'ni: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy huquqiy nazariya yondashuvining mavjudligi.

2. Fuqorolik jamiyati - haqiqiy fuqorolardan, ya'ni uzviy bog'likda bo'lgan holda ahloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

3. Akt - huquqiy hujjat, dalolatnoma.

4. Fakultativ - ixtiyoriy, majburiy bo'lmagan.

5. Kodifikatsiya - qonunlar majmuasini tuzish .

6. Reglament - davlat hokimiyat organi tarkibini, mavqeini, faoliyatini belgilaydigan huquqiy hujjat.

Nazorat uchun savollar.

1. Nima uchun Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni hisoblanadi ?

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oldingi qabul qilingan konstitutsiyalardan nimasi bilan farq qiladi ?

3. Davlat - jamiyat shaxs deganda nimani tushunasiz ?

4. Mustaqillikka erishgandan so'ng Konstitutsiyaning davlat va jamiyatda tutgan o'rnini qanday ?

5. Huquqiy munosabatlar va sub'ektlariga nimalar kiradi ?

6. Konstitutsiyaning o'ziga xos jihatlari qanday ?

7. Konstitutsiyaning asosiy funksiyalari nimalardan iborat ?

8. Konstitutsiyaviy huquqiy normalarni, uning turlari qanday ?

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.

2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.

3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.

5. X. B. Boboev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv ko'llanma « O'zbekiston », T., 2005.

³ И.А.Каримовнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 48-сессиясида килган маърузасидан. Тошкент Узбекистон. 1993, 7-бет.

6. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998
8. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
9. A. Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993
10. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
12. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. «Konstitutsonnoe pravo Rossii» uchebnik M. 2001.
13. Rumyantsev O. G. «Osnovo' konstitutsionnogo pravo Rossii (ponyatie, sanovleniya) M. 1994.
14. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
15. www. yandex. ru.
16. www. edu. o'z.
17. www. ziyo. net.
18. www. gov. o'z.

14 - Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.

REJA:

1. O'zbekistonning Mustaqillikka qadar konstitutsiyaviy tarixi.
2. Davlat mustaqilligi va O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining tashabbuskori va ijodkori.
3. 1992 yilgi O'zbekiston Konstitutsiyasi loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasidan o'tkazilishi va qabul qilinishi.
4. O'zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi.
5. O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi.

1. O'zbekistonning Mustaqillikka qadar konstitutsiyaviy tarixi.

Har bir davlatning boshqaruv tizimi tarixan ma'lum bir huquqiy manbalarga binoan shakllanib kelgan. Lekin bu huquqiy manbalar turli ko'rinish va turli iboralar bilan nomlanib kelingan. Hozirgi O'zbekistonimizning hamhududida ilgari konstitutsiyaviy hujjatlar, ya'ni siyosiy tuzum mohiyatini belgilovchi asosiy me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lgan. Jumladan: tarixiy manbalarga ko'ra, VIII asr boshlab Movarounnaxrda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonun tarixasida Qur'oni Karim amalda bo'lgan. XIII - XIX asrlarda Movarounnaxrda shariat bilan bir qatorda davlatning huquqiy axvoliga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib kelgan Chingizxon yosusi va Amir Temur to'zuklari Sharqona madaniyatga binoan konstitutsiyaviy hujjatlar edi.

Ma'lumki, O'zbekiston tarixida 1992 yilgi Konstitutsiyasiga qadar bir nechta konstitutsiyalar qabul qilingan, lekin ular mustaqil davlat konstitutsiyasi bo'la olmasdi.

O'tmishda O'zbekiston SSSR tashkil etilgunga qadar mamlakatimiz hududida RSFSR tarkibidagi Turkiston ASSR va Xorazm, Buxoro Sovet respublikalari kabi mustamlaka davlatlar mavjud bo'lgan. Bu davlatlarning bolsheviklar Rahbarligidagi o'z konstitutsiyalari bo'lgan. 1918 yil 15 oktyabrda bolsheviklarning hokimiyatini Turkiston ASSR hududida amalga oshirilishini belgilab beruvchi TASSRning birinchi Konstitutsiyasi 1918 yil 10 iyunda qabul qilingan RSFSR Konstitutsiyasi asosida qabul qilindi. Unga binoan Turkiston ASSR RSFSRning bir tarkibiy qismi hisoblangan.

Turkiston ASSRning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1920 yil 24 sentyabrda Turkiston o'lkasi Sovetlarining IX s'ezdida qabul qilindi va u Turkistonning mustamlaka davlat sifatida «huquqi»ni aniqlab berdi. Bu yangi konstitutsiya 20 bob, 109 ta moddadan iborat bo'lib, unda

xon va uning qarindoshlariga tegishli bo'lgan mulklar davlatniki deb belgilandi va Moskvaga olib ketildi. Lekin ishlab chiqarishqurollari va vositalaridan xususiy mulk sifatida foydalanishga ruxsat etildi hamda pul bilan erkin muomala qilishhuquqi cheksiz deb belgilandi.

O'rta Osiyodagi yana bir bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgan Xorazm Sovet Respublikasida ham 1920 yilda Konstitutsiya qabul qilindi va unga ko'ra, XXSR hududida ishlab chiqarish vositalari Sovet hokimiyati o'rnatilgunga qadar kimga tegishli bo'lsa, xususiy mulkchiligicha qoldirildi va yerga shaxsiy egalik qilish, uni sotish, har kim o'z boylıklaridan erkin foydalanishhuquqlari e'lon qilindi.

1923 yil 20 oktyabrda IV Butun Xorazm Sovetlarining s'ezdida yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu Konstitutsiya oldingisidan kam farqqilib, bolsheviklarning O'rta Osiyodagi hokimiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Konstitutsiyaga ko'ra boylar, dalollar, ruxoniylar va shu kabilar saylash va saylanishhuquqidan mahrum etilib, «butun hokimiyat Sovetlarniki» deb e'lon qilindi.

O'rta Osiyo va Qozogistonda milliy davlat chegaralanishi natijasida O'zbekiston Respublikasi ham tashkil topgach, oradan uch yil o'tib 1927 yil 30 martda O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiya qabul qilindi va uning tarkibiga Tojikiston avtonom respublikasi kiritildi. Bu Konstitutsiya qabul kilingunga qadar respublikada konstitutsiya ahamiyatiga molik bo'lgan bir nechta hujjatlar e'lon qilingan edi. Bu hujjatlarga kuyidagilarni ko'rsatish mumkin. O'zbekiston SSRni tashkil etish to'g'risidagi Deklaratsiya, 1925 yilning 22 iyulida chiqarilgan. «O'zbekiston SSRning gerbi va bayrog'i haqida»gi respublika MIK qarori va boshqalar.

1927 yildagi O'zbekiston Konstitutsiyasi Respublika suverenitini va uning SSSR tarkibiga kiritilishini, O'zbekiston SSR tashkil etishi hamda shakllanishi davrida paydo bo'lgan davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari to'zilmagini mustahkamladi.

1936 yil 5 dekabrda qabul kilingan SSSR Konstitutsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan 1937 yildagi ikkinchi Konstitutsiya, o'sha paytlardagi ittifokda amalda bo'lgan an'anaga ko'ra, SSSR Konstitutsiyada keyin qabul qilindi. O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari joylarda Sovetlarni tashkil etish tartibi, ularning vakolat muddatlari, saylash va saylanish tartiblarining ayrim holatlari oldingi Konstitutsiyaga nisbatan qisman o'zgartirildi, Oliy Sovet va boshqaruv organi Ministrlar Sovetining vakolatlari, tashkil etilish tartibi ko'rsatib berildi va ma'muriy - hududiy tuzilishi, prokuratura, sud tuzilishi va Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tartiblari belgilandi.

O'zbekiston SSR Xalq nozirlari Sovetining qonunchilik vakolati doirasi bekor qilinib, O'zbekiston SSRning Oliy Soveti yagona qonunchilik organi deb belgilandi.

1978 yil 19 mart kuni O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasining loyihasi matbuotda e'lon qilindi. O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida O'zSSR Konstitutsiyasi loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktyabrida amalga kiritilgan Konstitutt - siyasiga monand ravishda muhokama qilinib ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritilib 19 aprel kuni qabul kilingan edi. Shu tariqa sho'ro tuzumi sharoitida Konstitutsiyalar tez - tez o'zgartirilardi, ya'ni barqaror emas edi. SSSR Konstitutsiyasi kabi O'zbekiston Konstitutsiyasi ham jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan bir qancha demokratik imkoniyatlarga ega edi. Konstitutsiyada deputatlar orqali davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi xalqning to'la hokimiyati, qonunchilik, huquq - targ'ibot tamoyillari mustahkamlangan edi. 1937 yil Konstitutsiyaga nisbatan yangi Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklari xususidagi moddalar soni ikki barovar ko'p edi.

Ammo lekin Konstitutsiya amalga oshmadi, sababi Konstitutsiyaning o'zi turgunlik davrida odamlar ongiga singmadi. Konstitutsiya moddalarini hayotga tadbiiq etish imkoni ozligi uni amalga boshqaruvning ma'muriy buyrukbozlik tuzumi almashtirgani bilan izoxlandi. Qonunchilikni tiklash jarayoni esa oxiriga yetkazilmadi. Misol uchun bizda 1987 yilga qadar mansabdor shaxs harakati ustidan fuqarolarning arz qilish tartibi haqidagi huquqiy akt yo'k edi. Vaholanki, ana shu harakat xususida Konstitutsiyaning 56 moddasida ochiqchasiga aytilgan edi.

Huquqiy tizimda konstitutsiyaning chinakam ustunligi ta'min - lanmadi.

Shunga ko'ra, sobik SSSR da ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar boshlangan birinchi

yillardayok Ittifoq Konstitutsiyasining o'zini va unga kiradigan respublikalarning konstitutsiyalarini o'zgartirish zarurligi dolzarb vazifa sifatida oldinga surildi.

1988 yildan e'tiboran hokimiyat organlari tizimiga o'zgartirishlar kiritildi, prezidentlik va hokimlik instituti joriy qilindi. Respublika Prezidenti xo'zurida Vazirlar Mahkamasi to'zildi, saylov tizimi bir muncha demokratlashtirildi. Iqtisodiy tizim faqatgina mulkchilikning ko'p shakllari asosida rivojlanib qolmay, balki u davlat tomonidan to'la himoya qilinishi lozim degan qarorga kelindi.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya ikki yo'nalishda olib borildi: ya'ni birinchidan amaldagi asosiy qonuni qisman qayta ko'rib chiqish; ikkinchidan, yangi konstitutsiyaga to'la tayyorgarlik ko'rish.

Shu bilan birga bir vaqtning o'zida yangi asosiy qonun loyihasini tayyorlash bo'yicha ish olib borildi.

2. Davlat mustaqilligi va O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining tashabbuskori va ijodkori.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi favqulodda yo'z bergan xodisa emas, balki qonuniy va tabiiy xoldir. Kolaversa respublikamiz mustaqilligining e'lon qilinishi ona zaminimizda asrlar osha ko'lni - ko'lga berib, yelkama - yelka yashab, Mehnat qilib kelayotgan barcha qarindosh, dindosh xalqlarning 150 yilga yaqin vaqt mobaynida gox oshkora, gox pinhona qurolli yoki tinch yo'l bilan olib borgan maSharqatli ko'pchilik hollarda fojiali kurashning mahsulidir.

Ozodlik va mustaqillik uchun intilishning ommaviy tus olishiga imkoniyat bo'lmagan bo'lsada, u yashirin, unchalik katta bo'lmagan guruhlar tomonidan davom ettirildi.

80 yillarning oxirlariga kelib O'zbekiston mustaqilligi uchun kurash tarixida yangi davr boshlandi. Bu yerda qayta kurish, oshkoralik, demokratiya uchun kurash jarayonida turli xil ommaviy tashkilotlar, xalqharakatlari, guruhlar vujudga keldi. Ularning faoliyatida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklari, nuqsonlar, millatchilik kayfiyatidagi urinishlar, nojo'ya xatti - harakatlardan qat'iy nazar asosiy maqsadlari O'zbekis - toning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligiga erishish edi. Bu davrda paxta yakka hokimligiga barham berish, respublikadagi tabiiy boyliklarga to'la egalik qilish, o'zbek tiliga davlat maqomini berish, ittifok tasarrufidagi korxonalarni respublika ixtiyoriga berish, respublikaning pul birligini chiqarish, armiyasini tashkil etish, chegarasini qo'riqlash, O'zbekistonning xalqaro huquqining teng huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga va boshqaxalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalar o'rnatishi haqidagi g'oyalar ilgari surildi.

1990 yil 20 iyunda O'zbekiston SSR Oliy Soveti 12 chaqiriq II - sessiyasi «Respublikaning mustaqilligi to'g'risida»gi Deklaratsiyani qabul qildi. Ushbu Deklaratsiyada Respublikada davlat mustaqilligining muhim printsiplari mustahkam o'rin olganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, unda respublika tashqi siyosatiga doir masalalarni mustaqil hal etish asosiy xalqaro huquq printsiplarini e'tirof etish va xurmat qilish imkoniga ega ekani ta'kidlangan edi. Shu bilan birgalikda Oliy Sovet O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalarining eng muhim printsiplarini tan olinishini ham ma'lum qildi.

SSSR Ittifoqi siyosiy va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni hisobga olib va mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyaga amal qilib, 1991yil 31 avgustda Respublika Oliy Soveti o'zining navbatdan tashqari sessiyasida O'zbekiston davlat mustaqilligi va erkin, mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi.

Shu bilan bir vaqtda Oliy Sovet Ittifoqining barcha yuqori qonunchilik organlariga va uning tarkibiga kiruvchi mustaqil davlatlar, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyatiga respublika davlat mustaqilligi deb e'lon qilingani to'g'risidagi xujjatni tan olishga da'vat etib, murojat qilindi.

Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonunqabul qilingandan keyin esa O'zbekiston Respublikasi to'g'ridan - to'g'ri xalqaro munosabat - lar miqyosiga chiqa boshladi.

1991 yil sentyabridan boshlab bir qancha davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan

hamkorlikning turli sohalari bo'yicha shartnoma va bitimlar imzolanadi. Turkiya, Pokiston, Islom Respublikasi, Vengriya, GFR, Frantsiya, Polsha, AQSH, XXR, Koreya Respublikasi, MDX mamlakatlari, BMT, OBSE, YeS va boshqa ko'plab mamlakat, tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar shular jumlasidandir.

Mustaqillik har qanday davlatning eng muhim belgisidir. Asosiy qonunimizda uning ahamiyatiga alohida urg'u berilgan.

O'z istiqloli va mustaqilligini har tomonlama mustahkamlab borayotgan Respublikamiz ayni paytda sobiq Ittifoqhududida iqtisodiy aloqani saqlab kolish da'vati bilan chiqdi. Shu munosabat bilan 1992 yil 21 dekabrda Olmaota shaxrida ilgari Ittifoq tarkibiga kirgan 12 ta mustaqil davlat bilan MDX ga a'zo bo'lish to'g'risidagi hujjatga imzo chekildi.

O'zbekiston MDX faoliyatida, davlatlar boshliklari, barcha kengashlari, turli davlatlararo organlar, Birlashgan Qurolli Kuchlar Boshqo'mondonligi ishlarida faol qatnashmokda.

Xalqaro maydonda O'zbekiston mavkeini mustahkamlashda Prezidentimizning jahonning turli mamlakatlarga qilgan safarlari katta ahamiyat kasb etadi. XXR, Yaponiya, Koreya, Ruminiya, AQSH, Italiya va boshqa mamlakatlarga qilgan safarlar Respublikamiz bilan Osiyo, Yevropa davlatlari va AQSH o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga oid masalalarni hal qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston o'z mustaqilligi davomida qisqa vaqt ichida jahon mamlakatlari o'rtasida o'zining munosib o'rnini egalladi va o'z ovozi, mavkeiga ega bo'ldi.

O'zbekiston hozirgi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli ishtirokchisidir. Uning tashqisiyosati tinchlik siyosatidir. Bu siyosiy insonparvarlik, odamlarning tinch va osoyishta Mehnati to'g'risida g'amxo'rlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

Davlat mustaqilligining ko'lga kiritilishi O'zbekiston oldida iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy taraqqiyot, madaniy va ma'naviy yangilanish istikbollarini ochib berdi. Mustaqillikka erishgan har bir davlat o'zining siyosiy va huquqiy rivojlanish yo'lini belgilab olishga, yangi jamiyat kurishga, yangilanish va taraqqiyotning o'z konstitutsiyaviy modelini ishlab chiqishga harakatqiladi. O'zbekiston o'zining xaqikiy mustaqilligi va milliy davlatchiligiga tinch, parlament yo'li bilan erishdi. Bu o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida buyuk vokeadir

Yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish zarurligi haqidagi g'oya Respublikamizning 1990 yil mart oyida bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashining 1990 yil 20 iyunda e'lon qilingan Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyasida ushbu hujjat respublikaning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo'lishi ta'kidlangan edi. O'sha kunioq Prezident boshchiligidagi Konstitutsiya komissiyasi to'zildi.

1991 yil 31 avgustda Respublika Oliy Kengashining sessiyasida I. A. Karimovning Ma'ruzasi bo'yicha O'zbekistonning mustaqilligi asoslari to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunqabul qilindi. Dunyo haritasida O'zbekiston Respublikasi deb atalgan yangi mustaqil davlat paydo bo'ldi. Xalqimiz o'zok yillar orzu qilib kelgan ozodlik, mustaqillik, erkinlik ruyobga chiqdi.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kundan boshlab Konstitutsiya loyihasi ustidan ish jonlanib ketdi.

Tuzilgan Konstitutsiyasi komissiyasi dastlabki kundan to Konstitutsiyani Oliy Kengash majlisida qabul qilingunga qadar doimo Prezidentning diqqat markazida bo'ldi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, Prezidentimiz Konstitutsiyaning har bir moddasini aqli va yuragi bilan xis etdi, uni pishitish va takomillashtirishga bosh bo'ldi.

Prezidentimizning taklifi bo'yicha Konstitutsiyaga 26 modda (aybsizlik prezumptsiyasi) 42 (ijod erkinligi), 46 (Xotin - qizlarning erkaklar bilan teng huquqligi), 3 (Oliy xo'jalik sudi to'g'risida) va boshqa bir necha moddalar kiritildi.

Ko'pgina moddalarni taxrir qilishda, o'zgartirishda, yangilashda Prezident shaxsan qatnashdi. Ba'zi nizoli masalalarni hal etdi. Masalan, 91 moddaning oldingi taxririda, Prezident shu lavozimda turgan paytda partiya a'zoligini to'xtatib qo'yishi kerak, deyilgan edi. Prezidentimiz xorijiy davlatlarga safar qilgan paytlarda va o'zimizda boshqa mamlakatlarni Rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvlarda bu masalada jahon tajribasiga doimiy e'tibor berib

keldilar.

Prezident o'z partiyasiga a'zolikni vaqtincha to'xtatib qo'yishi haqidagi qoida qizg'in munozaraga sabab bo'ldi. Xalq demokratik partiyasi butun kuchi va gayrati bilan bu qoida ga qarshi chiqdi va natijada g'olib keldi. Konstitutsiya komissiyasi o'zining oxirgi majlisida shu masalani muhokama qilib, yuqorida aytilgan jumlaning loyihadan olib tashlashga rozi bo'ldi. Konstitutsiyada shunga o'xshash masalalar juda ko'p edi. Har safar masalani hal etishda jahon tajribasi inson huquqlari haqidagi xalqaro hujjatlar hisobga olinib, bir qarorga kelinardi.

Qat'iy qilib aytish lozimki, Konstitutsiya loyihasining ishlab chiqarilishi Prezidentimiz sa'yi harakatlari mevasidir. O'zbekiston Prezidenti iqtisod, siyosat sohasidagini emas, balki huquq javxasida ham buyuk olimdir. Loyihani mat'buotda e'lon qilishga tayyorlash jarayonida I. A. Karimov qo'liga qalam olib, uni to'rt bora o'qib chiqdi. Loyihaning matbuotda birinchi e'lon qilinishi bilan ikkinchi marta muhokama etilishi borasida o'tgan vaqt ichida u fuqarolarning aniqfikrlari va taklif muloxazalarini urgangan xolda yana ikki marotaba, sessiya arafasida yana bir bor qalam olib, loyihani ko'rib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - bu O'zbekiston hududida yaratilgan birinchi tom ma'nodagi mustaqil davlatning birinchi Asosiy qonunidir.

Prezidentimizning iborasi bilan aytganda, bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra tomomila yangi hujjat. Unda kommunistik mafkura, sinfiylikdan, eskicha partiyaviylikdan asar ham yo'k. Konstitutsiya jamiki dunyoviy kadriyatlar orasida eng ulug'i Inson degan fikrni ilgari surdi va shu asosida «fuqaro - jamiyat - davlat» o'rtasidagi oqilona huquqiy yechimini topishga intiladi.

Taqdir Islom Karimov zimmasiga jamiyatni yangilash, utish davrining murakkab sharoitida davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, davlat-huquqiy va ma'naviy xijatdan rivojlantirishning pishib yetilgan muammolarini xal qilish kabi tarixiy vazifasini yukladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Prezidentimiz buyuk davlat va jamoat arbobi, iste'dodli siyosiy yetakchi sifatida namoyon bo'ldi.

Yurtboshchimiz o'zaro ikki birbiriga bog'lik muammoni O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini qaror toptirish va uning Konstitutsiyasini qabul qilish muammolarini muvofakkidirlik bilan xal etdi. Davlat mustaqilligiga erishilishi va uning Konstitutsiyada qonun yo'li bilan mustahkamlanishi olamshumul voqea, Prezident Islom Karimov boshchiligida davlatchilik va huquq sohasida amalga oshirilgan faoliyatning eng katta galabasidir. Yurtboshimizning har tomonlama hisob-kitob kilingan, mantiqiy izchil, mukammal strategiyasi tarakkiy-parvar o'zgarishlar qilishga karatilgandir.

Konstitutsiya loyihasini tayyorlash borasidagi barcha ishlar I. Karimov ning bevosita boshchiligida amalga oshirildi. Bu borada Konstitutsiyaviy komissiya a'zosi akademik Sh. Z. Urazaev shunday so'zlarni yozgan: «Prezidentimiz shunday juda takchil vaqtidan fursat ajratib, Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha to'zilgan ishchi guruxning a'zolarini qabul kilar, loyihani qaytaqayta ukib chiqar, uning matnini chuko'r mushoxada kilar va unga to'zatishtlar kiritardi. Bu kishining g'oyat ajoyib tahlil qobiliyati, kelajakni oldindan ko'ra bilishi, nozik xis etish iste'dodi bizni nixoyatda xayratga solar edi».

3. 1992 yilgi O'zbekiston Konstitutsiyasi loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasidan o'tkazilinishi va qabul qilinishi.

Konstitutsiya kontseptsiyasining ishlab chiqilishi va loyihaning tayyorlanishi to'g'risida albatta, har bir ukituvchi va talaba qolaversa, hamma O'zbekiston fuqarolari xabardor bo'lmog'i lozim.

1991 yilning boshida Konstitutsiyaviy kommissiya bulajak Konstitutsiya kontseptsiyasini ishlab chiqish bo'yicha ish boshladi. O'zFA falsafa va huquq instituti, Siyosatshunoslik va boshqaruv instituti, Respublika Prezidenti Devoni Konstitutsiya kontseptsiyasi ustidan ish olib bordilar. Ishlab chiqarilgan turli kontseptsiyalar asosida yagona mukammal kontseptsiya yaratildi.

Ishchi gurux kontseptsiya asosida 1991 yilning noyabrida yangi Konstitutsiya loyihasining

dastlabki, ya'ni birinchi variantlarini tayyorladi. U muqaddima va 158 moddadan iborat edi. 1992 yilning baxorida loyihaning ikkinchi varianti ishlab chiqildi.

Konstitutsiya komissiyasining raisi I. A. Karimov ikkinchi loyihani aniqva printsiptal tarzda tahlil qilibchiqdi. Taxrir kilingan loyiha 137 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, loyihaning uchinchi varianti ham Prezident tomonidan taxrir qilinib, u 128 moddani tashkil etdi.

1992 yil 26 sentyabrda Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhoka - masi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi sentyab - rning oxirida dekabrning boshigacha davom etdi. Unda mamlakatning voyaga yetgan deyarli barcha aholisi ishtirok etdi.

Loyiha Qoraqalpog'iston Oliy Kengashning sesiyasida va viloyatlar, shaharlar faollarining yig'ilishlarida muhokama qilindi.

1992 yil 21 noyabrda Konstitutsiya loyihasi keyingi muhokama uchun yana matbuotda e'lon qilindi. Loyihaning bu variantida mamlakatimiz oddiy fuqarolarning ko'plab taklif va muloxazalari hisobga olindi. Demak, loyihani muhokama qilish 2 boskichga o'tdi.

Konstitutsiyaviy komissiyaning 1992 yil 7 dekabrda bo'lib o'tgan oxirgi majlisida loyiha ko'pchilik tomonidan makullanganligi ta'kidlandi. Muhokama davomida 6000 dan ziyod muloxaza va taklif qabul qilindi. Ular har tomonlama urganildi va taxrir qilindi.

Konstitutsiyaviy Komissiya raisi I. A. Karimov shunday deydi: «Uning loyihasi ustida taxminan ikki yil davomida ishladik. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikrxazinasini durdonalari bilan boyitildi, saykal topdi. «

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning XII - chaqiriq 11 - sessiyasi bo'lib, unda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilishhaqida»gi masala ko'rildi. Bu xususida Konstitutsiyaviy komissiya Raisi Prezident I. A. Karimov Ma'ruza qilib, sessiya muhokamasiga xavola kilingan qonunlardan farqli o'laroq demokratik yo'l bilan tayyorlangan bo'lib, unda yillar davomida sinovdan o'tgan umuminsoniy kadriyatlar o'z aksini topganligini hamda u ko'plab tarakkiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o'ziga singdirganligi aloxida ukdirildi. Shuning uchun ham yangi Konstitutsiya har qanday yetakchi mamlakatning Konstitutsiyasi bilan baxslasha olishi mumkin deb takidlandi. Shuningdek, xur O'zbekistonning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish jumxuriyatimizning yangi tug'ilishidir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor kurishdir. Konstitutsiya asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrar, deb o'z fikrini bildirdi.

Sessiyada deputatlar loyihaga 80ga yaqin o'zgarish, ko'shimcha, va aniqliklar kiritildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Shunday qilib, suveren demokratik O'zbekiston Respublikasining birinchi mustaqil Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi Konstitutsiya eskisidan farqqilib, muqaddima bilan boshlanadi.

Faqat milliy istiqlol, davlat mustaqilligiga erishish tufayli O'zbekiston Respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, xaq - huquqini himoya qiluvchi chinakam demokratik Konstitutsiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi 12 chaqiriq Oliy Kengashining 1992 yilning 8 dekabdagi 11 sessiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqea bo'ldi.

Konstitutsiya qabul kilingan kun 8 dekabr bayram, dam olish kuni deb e'lon qilindi.

4. O'zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi.

Mamlakatimiz ko'pmillatli aholisining xoxish irodasi mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstituttsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Asosiy qonun O'zbekiston xalqining ruxini, ijtimoiy ongigni va madaniyatini aks ettirgan. Bizning Konstituttsiyamiz umuminsoniy kadriyatlar va xalqaro huquqning ustunligi tarafdoridir. Shuning uchun bizning o'z yo'limiz konstituttsiyaga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo'lib, u o'z ichki tuzilishi bilan Asosiy qonun jahon Konstitutsiyaviy

amaliyotiga to'la mos keladi. Unda ijtimoiy yo'nalishdagi barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan insonparvar, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini yaratish. Faqat zamondoshlarimizning emas, balki, keyingi o'zbek yerida yashaydigan kelgusi avlodning ham takdiri biz qanday jamiyat va davlat kurishimizga bog'lik. Bizning boshmaqsadimiz asosi Mehnatsevar va farovon, axlokan mustahkam va madaniyatli oila bo'lgan demokratiya va ijtimoiy adolat jamiyatini qadamba - qadam yaratishdir.

«O'zbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasi o'zbek jamiyati va davlatining barcha eng muxim sohalarini tartibga soladi, qisqaligi va aniqifodalanganligi, shuningdek, o'ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi.

- U dunyodagi eng makbul tuzilishga ega konstitutsiyalardan biridir».

1992 yilgi Konstitutsiya mustaqil davlatning «tashrif kogozi»ga aylandi. U dunyo siyosiy haritasida yangi demokratik davlat O'zbekiston Respublikasining mavjudligini eks ettirmokda. Chunki, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti aytganidek: «Xech bir davlat va jamiyat ko'rilishining tamoyillarini, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy asoslari va strategik yo'nalishlarini mustahkamlamasdan turib, xakikiy suveren davlat bulla olmaydi. «

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'z yuridik tarixining ko'p asrlik an'alarini va jahon konstitutsiyaviy tajribasining printsiplarini o'zida mujassamlashtirgan.

Asosiy qonunmizning Muqaddimasi juda qisqa va ko'tarinki ruxda yozilgan. Uning mohiyati: Konstitutsiyani xalq, ya'ni davlatning xakikiy soxibi qabul qiladi va unda o'z irodasini ifoda etganligidir.

Konstitutsiyaning asosiy mantiqiy yo'nalishi kuyidagicha: insonjamiyatdavlat.

Birinchi bo'limda mustaqil O'zbekiston davlatining asosiy Konstitutsiyaviy printsiplari ko'rsatilgan bo'lib, bunday printsiplar katoriga davlat suvereniteti, xalqhokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda tashqi siyosatimiz tamoyillari kiradi.

Ikkinchi bo'lim inson huquqlari to'g'risidagi o'zbek partiyasidir. Boshqacha qilib aytganda inson huquqlarining yaxlit va keng tizimidir. Inson huquqlari turisidagi bo'limning davlat hokimiyati to'g'risidagi bo'limlardan oldin berilganligi ham ma'lum bir mantiqqa asoslangandir. Huquqlarni insonga davlat in'om kilmaydi, balki fuqaro o'ziga ozodlik tomonidan berilgan ajralmas tabiiy huquqlar majmuidan ongli ravishda va ma'suliyatli xis etgan xolda foydalanadi.

Uchinchi bo'lim esa odatdagidek emas, jahonning bironta Konstitutsiyasida bunday bo'lim yo'k. Ya'ni bu bo'limning asosiy maqsadi: fuqarolik jamiyatining an'alarini tiklash, ijtimoiy uyushmalar va munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib, ularning rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Bu bo'lim «jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – inson degan fikrni» o'zida mujassamlashtirgan.

To'rtinchi bo'lim ma'muriy hududiy va milliy davlat tuzilishiga bagishlangan O'zbekiston viloyatlari, tumanlari, shaharlar, shaharchalardan iborat ma'muriy - hududiy tuzilishga egadir. Respublika tarkibiga Korakalpogiston Respublikasi ham kiradi. Bu suveren davlatning Konstitutsiyaviy makomiga va O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlariga maxsus 17 bob bagishlangan.

Beshinchi bo'lim davlat hokimiyati idoralarini tashkil etishhaqida bo'lib, Konstitutsiyadagi eng katta qismhisoblanadi. Bu bo'limda hokimiyat vakolatlarini taqsimlash printsiipi o'zining ifodasini topgan, ya'ni qonunchiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralari konstitutsiyaviy makomi muayyan tartibda mustahkamlangan. Davlatimizning markaziy idoralari Oliy Majlis, uning palatalari, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va Xo'jalik Sudlari, Prokuratura, Mahalliy davlat hokimiyati idoralari, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqaruv organlarining konstitutsiyaviy makomi belgilab berilgan.

Saylov tizimining printsiplari, moliya va kredit, xavfsizlik va mudofaa masalalari ham konstitutsiyaviy tartibga solish doirasiga kirgan.

Oltinchi bo'lim - Konstitutsiyani o'zgartirish unga ko'shimchalar kiritish muammosiga bagishlangan bo'lib, huquqiy nuktai nazardan Asosiy qonunning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining tuzilishi uning: birinchidan, fuqarolar tinchligiga, ya'ni milliy va ijtimoiy totuvlikka; ikkinchidan, shaxs erkinligiga va saylov erkinligiga;

uchinchidan, siyosiy barqarorlikka,

to'rtinchidan, faravonlik va iqtisodiy o'sishga;

beshinchidan, davlatning odamlar oldidagi o'z burchini bajarishga erishishga karatilgandir.

5. O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish tartibi O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan bo'lib, u 127, 128 moddalarida o'z ifodasini topgan. Ya'ni:

127 modda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputatlari va senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilin - gan qonun yoki O'zbekiston Respublikasida o'tkaziladigan referendumi bilan kiritiladi.

Hayotdagi o'zgarishlar, rivojlanishlar tufayli, har qanday qonun yoki Konstitutsiya sharoit takoza etsa o'zgartirilishi lozim bo'ladi. Abadiyotga muljallangan normalarning o'zi yo'q. Ammo davlat, xalq, fuqarolar huquqiy normalarning barqaror bo'lishidan manfaatdordirlar. Barqaror huquqiy tartib - qoida mustahkam huquqiy sog'lom ongni shakllantiradi. Konstitutsiya normalari asosiy qonunlar tarkibiga kirganligi uchun Konstitutsiyani o'zgartirish, yangilash oddiy qonunlarni o'zgartirish yoki yangilashdan qisman farqqiladi. Bu Jahon tajribasida qabul kilingan qoida.

128 modda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi keng va har tarafлама muhokamani hisobga olgan xolda qonunqabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

O'tmishda Konstitutsiyaga juda ko'p o'zgartirishlar va ko'shimchalar kiritilar edi. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritilmagan deyarli birorbir sessiya ham yo'q edi. Bu axvol Konstitutsiya va qonunlarning barqarorligiga putur yetkazar va huquqiy ongning shakllanishiga zarar keltirar edi. Konstitutsiya va qonunlarga nisbatan bo'lgan ishonch va xurmatni susaytirardi. Shu sababli Konstitutsiyaviy maromlarning obruyini ko'tarishni, Asosiy qonun barqarorligini mustakkamlashni maqsadqilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 127 va 128 moddalar kiritildi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning sunggi o'n yilligi ichida qabul qilingan yangi, «uchinchi» avlod konstituttsiyalari qatoriga kiruvchi 1992 yilgi Konstituttsiyamizni jahondagi eng demokratik konstituttsiyalardan biri deyishimiz mumkin. «Bizning O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi eng demokratik, xalqaro mikiyosda e'tirof etilgan me'yor va talablarga javob beradi, deyish uchun asoslarimiz bor» degan edi yurtboshimiz. Ma'lumki, Asosiy qonunimiz qabul kilinish jarayonida BMT, YeXXT, kabi nufu'zli xalqaro tashkilotlar va AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya kabi demokratik davlatlar mutaxassislarining sinchkov ekspertizasidan o'tdi.

Mamlakatda demokratik, konstituttsiyaviy, huquqiy tuzumni mustahkamlash, ijtimoiy onnga, uning Konstituttsiyaga, huquq va qonunga xurmatni mustahkam poydevori ustida mustahkamlashga erishishiga yordamlashish konstituttsiyaviy taraqqiyotning tarkibiy qismidir.

Respublika Prezidenti I. A. Karimovning «Konstituttsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Kobusnoma» bo'lganligi, u «xalqimiz irodasini, ruxiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini» aks etirishi, uning «xalqimiz tafakko'ri va ijodining maxsuli...» ekanligi to'g'risidagi xulosasining to'g'riligi va asoslanganligini bugungi kunda o'zimiz guvoxi bo'lmoqdamiz. Buni davlatimizning har bir fuqarosi bilishi lozim.

2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul kilingan 2003 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.

GLOSSARIY:

1. Konstitutsiyaviy tizim - insoniyat ijtimoiy turmushining buyuk talabi, umum e'tirof etgan hayot shakli hisoblanadi.
2. Suveren - mustaqillik, davlatning ichki va tashqi munosabatlarida boshqa davlatdan to'la mustaqil bo'lishi.
3. Kontsepsiya - nazariy qarashlar tizimi, ya'ni yangi qonunlar tizimini ishlab chiqish.
4. Qonun - umumxalq ovoz berishi (referendum) orqali yoki mamlakatning Oliy vakillik organi (Oliy Majlis) tomonidan qabul qilingan normativ - huquqiy hujjat.
5. Demokratiya - bu konstitutsiya va qonunlar doirasida erkinlik demakdir.

Nazorat uchun savollar.

1. O'zbekiston Respublikasi qanday qilib mustaqillikka erishdi ?
2. Nima sababdan O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini qabul qilish zaruriyati tug'ildi ?
3. O'zbekiston yangi Konstitutsiyasining loyihasi qanday tayyorlandi ?
4. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida avvalgisiga nisbatan qanday yangiliklar mavjud
5. Mustaqil O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasining tashabbuskori va ijodkori kim ?
6. O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi haqida tushuncha bering.
7. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishining huquqiy asoslarini bilasizmi ?
8. O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotning asosiy xususiyatlari haqida tushuncha bering.

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv ko'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
6. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998
8. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
9. A. Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993
10. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
12. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. «Konstitutsonoe pravo Rossii» uchebnik M. 2001.
13. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
14. www. law. ru.
15. www. yandex. ru

15 - Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillari. (printsipalari)

REJA.

1. Davlat suvereniteti tushunchasi va mohiyati.
2. O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirishning asosiy shakllari.
3. O'zbekistonda hokimiyatning bo'linish printsipalari va uning amalga oshirilishi.
4. Demokratiya va inson huquqlari.
5. Konstitutsiya va qonunning ustunligi printsipi tushunchasi va mohiyati.

6. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari va uning asosiy printsiplari.
7. O'zbekiston Respublikasida mudofaa va xavfsizlikning ta'minlanishi.

1. Davlat suvereniteti tushunchasi va mohiyati.

«O'zbekiston suveren demokratik respublika» - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining birinchi bobining 1 moddasi ana shunday xitob bilan boshlanadi.

Davlat suvereniteti davlatning mustaqilligining bildiruvchi termin bo'lib, davlatning muhim belgisi va xususiyati hisoblanadi.

«Suverenitet» atamasi XVI asrda Frantsiyada vujudga kelgan. Bu atama lotincha superareifas (cuxra, superios) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aslida «eng oliy», «xalqhokimiyat» degan ma'noni anglatadi.

Suverenitet davlatning umumiy va ajralmas qismi bo'lib, uning to'la huquqini, ichki va tashqi funksiyalarini amalga oshirishda boshqa davlatlarga qaram emasligini, shuningdek xalqaro huquq tamoyillariga va normalarini buzmaganda holda, o'zi hal qiladi.

Millatlarning o'z taqdirini o'zlari belgilash huquqi, ya'ni o'z taqdirini chet davlatlarning aralashuvisiz belgilash. Bu borada 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shaxrida ruy bergan voqealar munosabati bilan mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari uchun o'tkazilgan matbuot anjumanidagi bayonot va muxbirlarning savollariga Respublika Prezidentining bergan javoblaridan xulosa chiqarsak bo'ladi. Ayniqsa, yutrboshimizning «Biz demokratiyani mustahkamlaymiz. Men hozir o'z rejalarimni oshkor qilmoqchi emasman, lekin shuni aytishim mumkinki, demokratiyani chuqurlashtirish, jamiyatimizni erkinlashtirish yo'zidan parlamentimizning ko'shma sessiyasida men bayon etgan reja va dasturlar amalga oshiriladi, ular rivojlantiriladi va mustahkamlanadi».⁴

Huquq suverenitetning asosini tashkil qiladi. Suverenitet davlat bilan bir vaqtda vujudga keladi. Davlatning xususiyati bo'lgan suverenitet tarixiy xodisadir. Suverenitet tushunchasi doimiy rivojlanish jarayonida bo'lib, doimo yangi mazmun bilan boyib boradi.

Umuman olganda, davlat suvereniteti millat, xalq, suverenitetidan boshlanadi va uning o'rniga keladi.

1991 yil 31 avgustda xalqning azaliy orzusi, ya'ni o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ruyobga chiqishi natijasida O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. O'zbekiston tinch parlament yo'li bilan o'zining xaqiqiy milliy davlatchiligiga erishdi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunda, «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi, Oliy Kengash bayonoti»da, «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»gi qarorida hamda biroz oldin 1990 yil 20 iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashqabul qilgan «Mustaqillik Deklaratsiyasi»da Respublikadagi ko'p millatli aholining xohish - irodasi mustahkamlab kuyildi va bu umumxalq referendumini tomonidan Tasdiqlandi. Deklaratsiyasida O'zbekistonning davlat mustaqilligi va suveren demokratik respublika ekanligi rasmiylashtirildi.

Mustaqillikka erishish o'zbek xalqining hayotida buyuk xodisadir. Bu tarixiy voqea davlatimiz yilnomasiga zarhal harflar bilan yozib qo'yildi. 1 - sentyabr O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni bo'lib xalqimizning eng tabarruk bayrami sifatida nishonlanishi belgilandi.

Deklaratsiyaning qolgan moddalarida O'zbekistonning davlat hududi va chegarasi daxlsizligi, davlat hokimiyati O'zbekistonning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududda yashaydigan aholiga talluqliligi mustahkamlangan (24 - moddalar).

Deklaratsiyaning 9 - moddasi Qoraqalpogiston Respublikasi mustaqilligi va uning manfaatlarini maxsus himoya qilinishini mustahkamlab qo'ydi.

O'zbekistonning qonunchiqaruvchi hokimiyati, uning davlat mustaqilligini amalga oshirish

⁴ И.А.Каримов «Узбекистон халки хеч качон, хеч кимга карам булмайди» Т.. Узбекистон 2005. 79-бет.

uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqadi. Respublikaning siyosiy - iqtisodiy tizimi va kurilishini belgilaydi.

Deklaratsiyada O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy, siyosiy, iqtisodiy, etnik madaniy huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik berilishi mustahkamlangan.

Bundan tashqari asosiy qonunimizda «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf - odatlari va an'analari xurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. «⁵deb qayd etilgandir.

1989 yilning 21 oktyabrida ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi istiqbolimiz sari qo'yilgan eng muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Endilikda o'zbek tilida idora ishlari, hujjatlar olib borilmokda. O'zbek tilida qonunlarimiz yozilmoqda, davlat hujjatlari, ilmiy asarlar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar yozilmoqda.

2005 yilgacha o'zbek yozuvi lotin alifbosiga o'tdi. Bu bilan bizga jahon madaniyati va axboroti makoniga to'lik kirish uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Konstitutsiyada «O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzlari, bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega»⁶ deb ko'rsatilgan.

Davlatimiz ramzlari bayroq, tamg'a, madhiya, O'zbekiston xalqlarining shon - sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarni o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i 1991 yil 18 dekabrda qabul qilindi.

Bayroqdagi havo rang buyoq zangori osmon va musaffo suvning, shuningdek yer va osmondagi hayot manbalarining ramzidir.

Oq rang tinchlik va poklik timsolidir.

Qizil rangdagi yo'llari har bir tirik jon, qon tomirida jo'sh urib turgan hayotiy kuchning, barhayotlikning ramzidir.

Yashil rang esa tabiatning timsoli, gurkirab yashnayotgan hayot va hosildorlikning ramzidir.

Bayroqdagi yarim oy o'zbek xalqining ko'p asrlik an'analariga muvofiq keladi. Chunonchi, yarim oy va yuldo'zlar musaffo osmonning, tinchlikning ramzidir. 12 rakami - kadimdan xalqlarimiz orasida mukammallik timsoli bo'lib kelgan. Shu boisdan bayrog'imizga 12 yuldo'zning tasviri tushirilgan.

1992 yilning 2 iyulida O'zbekistonning davlat gerbi qabul qilindi. Gerbimiz markazida qanotlarini keng yoyib turgan xumo kushi tasvirlangan. Bu baxt - saodat va erksevarlik ramzidir.

Gerbning yuqori qismida O'zbekistonning sobiq va barqarorligi ramzi bo'lgan 8 kiral yuldo'z tasvirlangan bo'lib, uning ichida yarim oy va besh kiral yuldo'z ifodalangan.

Quyosh tasviri O'zbek davlati va xalqining hayot yo'li hamisha nurli bo'lishi uchun bildirilgan ezgu niyatdir.

Gerbda boshqa tasvirlari rizq - ro'zimiz bo'lishi g'allaning timsoli, oppoq bo'lib ochilayotgan paxta chanoqlari davlat bayrog'iga uxshagan lenta bilan o'rab qo'yilgan bu mamlakatimizda yashayotgan xalqlar yakdilligining timsolidir.

1992 yilning 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi tasdiqlangan. Davlat madhiyasining she'rini Abdulla Oripov yozgan, Musiqasini esa taniqli san'at arbobi Mo'tal Burxonov bastalagan.

Konstitutsiyaning 6 - moddasida Respublikamiz poytaxti Toshkent shahri ekanligi bayon etilgan.

2. O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirishni asosiy shakllari.

«Xalq hokimiyatchiligi» atamasi yunoncha «demokratiya» so'zining o'zbek tiliga tarjimasi

⁵ Узбекистон Республикаси Конституцияси Т.Узбекистон 2003. 4-модда.

⁶ Узбекистон Республикасининг Конституцияси 5-модда. Т.Узбекистон 2003.

bo'lib, bu ibora ilk bora yunon shahar - davlatida paydo bo'lgan va keyinchalik butun dunyoga tarqalgan hamda siyosiy lug'atdan mustahkam o'rin olgan. Demokratiya so'zi «demos» xalq va «kratos» hokimiyat so'zlarining birikmasidan to'zilib, «xalq hokimiyat - chiligi» deganidir.

Xalq hokimiyatchiligi Konstitutsiyaning 7 - moddasida mustahkamlangan bo'lib, shunday deyilgan, «Xalq davlat hokimiyatining birdan - bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul kilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tamonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiya nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini to'zish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi»⁷

O'zbekistonda davlat xalq irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Agar hozirgi vaqtda davlatimizning ichki va tashqi siyosiy faoliyatiga nazar tashlasak, davlat siyosati inson va jamiyat farovonligi maqsadiga bo'ysundirilganligini, yurtimiz obodonligi va xalqimiz farovonligini ta'minlashga qaratilganligini ko'ramiz.

Buni Respublika Prezidentining har bir asari yoki ma'ruzalarida o'qiganmiz va eshitganmiz, shunday bo'lsada yana bir bor, uning «Men har doim ham aytgan va hozir qalbmida xis qilayotgan tuyg'ularni xalqimning oldida, yurtdoshlarimning yo'ziga qarab, ochiq aytishim lozim: men xalqimning ozodligi, yurtimning mustaqilligi uchun, kerak bo'lsa, jonimni beraman, lekin o'zbek xalqi hechqachon, hech kimga qaram bo'lmaydi.»⁸

Xalq davlat hokimiyatining birdan - bir manbai ekanligi haqida gap ketar ekan, xush, xalq davlat hokimiyatini qanday yo'l bilan amalga oshiradi ? Bu savolga O'zbekiston Konstitutsiyasida aniqjavob berilgan.

Demak, Konstitutsiyaga binoan, xalqhokimiyatchiligini jahon konstitutsiyaviy rivojlanishi tajribasida ishlab chiqilgan qo'yidagi ikki shakli o'rnatilgan:

1. To'g'ridan - to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya fuqaroning davlat ishlarini hal qilishda to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishi.

2. Vakillik demokratiyasi fuqaroning davlat ishlarini hal etishda o'zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar orqali ishtirok etishi.

Ushbu shakllari Konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlangan. «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishhuquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini - o'zi boshqarish referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish»⁹

Bevosita demokratiyaning asosiy ko'rinishlaridan biri referendum Konstitutsiyaning 9 moddasida alohida ravishda belgilangan:

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilangan. Respublikamizda alohida «O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida»gi qonun qabul qilingan. Referendumlar Konstitutsiya va qonun asosida amalga oshiriladi. 2002 yil 27 yanvardagi referendum yakunlari asosida:

1. Respublika Prezidentlik muddati yetti yil deb belgilandi.

2. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ikki palatali parlament deb e'lon qilindi.

Referendum yakunlari xalqimizning, bir tomondan, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iborat O'zbekiston yo'lini qo'llab - quvvatlaganini ko'rsatdi. Ikkinchi tomondan, islohatlarni izchil va qat'iyatlik bilan davom ettirish va yanada chuqurlashtirishni katta umid bilan kutayotganligini bildirdi.

3. O'zbekistonda hokimiyatning bo'linishi printsiplari va uning amalga oshirilishi.

⁷ Узбекистон Республикаси Конституциясига шарх Т. Шарк 2001.

⁸ И.Каримов Узбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди Т..Узбекистон 2005 156-бет.

⁹ Узбекистон Республикасининг Конституцияси Т.Узбекистон 2003. 32-модда.

Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash predmeti huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri bo'lib, bu qoida Konstitutsiyaning 11 - moddasida asosiy printsiptariqasida mustahkamlangan. Ya'ni: «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonunchiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsiptiga asoslanadi».¹⁰

Shu tariqa, davlat hokimiyatining bo'linishi printsipti O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixida birinchi marta paydo bo'ldi. Chunki O'zbekistonning ilgari 1927, 1937 va 1978 yillardagi konstitutsiyalarida bunday printsipt mavjud emas edi.

«Hokimiyatning bo'linishi» g'oyasi qadimiy bo'lib, qadimgi grek faylasufi va olimi Aristotel tomonidan ham ilgari surilgan. XVIII asrning o'rtalariga kelib, bu g'oya mustaqil ta'limotga aylangan.

Hokimiyatning bo'linishi printsiptini adolatli, demokratik. Huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bunday printsipt muayyan davlatga biror organning yoki alohida davlat Rahbarining kuchli diktaturasi o'rnatilishining oldini oladi. Shu bilan birga tegishli hokimiyat organlarining vakolatlari, vazifalari aniqbo'lishini ta'minlaydi, bir organning ikkinchi organ ishlariga aralashuviga barham beradi, boshqarish sohasida chalkashliklar kelib chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

Hozirgi zamon jahon mamlakatlarining konstitutsiyaviy tajribasi ko'rsatadiki, hokimiyatlarning bo'linish printsipti, ular ushbu printsipt rasman ko'rsatilgan yoki o'rnatilmaganligidan qat'iy nazar, barcha chet el konstitutsiyalari tomonidan qabul qilingan. Unga ko'ra, O'zbekistonda qonunchiqarishhokimiyati Oliy Majlisi «qonunchilik» qo'yi palatasi, «Senat» yuqori palatasi tomonidan, ijroiya hokimiyati esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Odil sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda O'zbekiston Respublikasining yagona sud tizimini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning «Davlat hokimiyatini tashkil etilishi» deb nomlangan Beshinchi bo'limida ana shu uchala hokimiyat organlarining tashkil etilishi, vazifalari, vakolatlari belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizning 12 - moddasida «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma - xilligi asosida rivojlanadi.

Hechqaysi mafkura davlat mafkurasifatida o'rnatilishi mumkin emas», deyilgan Bundan ko'rinib turibdiki, bitta mafkuraning, bitta dunyoqarashning yakkahokimligidan qat'iy an voz kechildi.

Konstitutsiyamizning aynan shu moddasi jamiyatimizda turli sinf, toifa, millat, elatlarning manfaatlarini ifodalovchi turli partiyalar, uyushmalar, nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritishi mumkin xatto ular faoliyati hozirgi kunda qonun darajasiga ko'tarilgandir.

Davlatimiz mavjud barcha siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalarining huquqiy manfaatlarini muhofaza qiladi, ularning ijtimoiy turmushda ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Lekin hechqaysi partiyaga imtiyozlar yaratib bermaydi. Siyosiy partiyalarning barcha sohada teng huquqliligi kafolatlanadi. Xuddi shu haqida Prezidentimiz «Ayni vaqtda yakka hokimlikka intilishlarga va bir mafkura imtiyozli bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Zero, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga raxna soladigan, milliy va diniy adovatni avj oldiradigan, urush va zo'rvonlikni targ'ib qiluvchi, Konstitutsiyaviy tuzumga, xalqning demokratik erkinligiga va ma'naviyatiga tajovo'z qiladigan partiyalar va jamoat harakatlari qonundan tashqari bo'lishi lozim»¹¹ deb ta'kidlagan edi

Mazkur moddadagi me'yorlar O'zbekiston xalqi oldiga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini dolzarb qilibqo'ydi. Milliy istiqlol mafkurasifat - bu xalqimizning qadimiy an'analariga, urf - odatlariga, tiliga, diniga, ruxiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mexr - muxabbat, insof, sabr - toqat, adolat, muruvvat, ma'rifat tuyg'ularini targ'ib qilishdan iboratdir. Unda

¹⁰ Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. Uzbekiston 2003. 11-modda.

¹¹ И.А.Каримов Uzbekiston:milliy istiklol, iktisod, siyosat, mafkura. T.1. 126-бет.

jamiyatimizdagi barcha kuchlar, harakatlar, jamoat birlashmalari, aholini turli tabakalarining o'y - fikrlari, orzu - umidlari o'z ifodasini topmogi lozim.

4. Demokratiya va inson huquqlari.

O'zbekiston demokratik davlat. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy axvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qariy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. O'zbekistonda turli huquqiy demokratik printsiplar qaror topmokka.

Konstitutsiya O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya'ni xalqning o'zi bevosita boshqaradigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat, qurishni asosiy maqsadqilibqo'ydi. Unda jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i «inson» ekanligi mujassamlashtirilgan. Insonni ulug'lash uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol topdirish Konstitutsiyaning asosiy g'oyasiga aylantirilgan.

Respublika Prezidenti ta'kidlaganlaridek, «Bugun O'zbekistonda shaxs erkinligi, Inson huquqlarining muhofaza va kafolati, e'tiqod, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lim olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa imkoniyatlar qonun bilan himoya qilingan. Bugungi kiyin va ziddiyatli bir paytda, mamlakatimiz sarxadiga yaqin joylarda urushlar ruy berib, qon to'kilib turgan bir vaziyatda, begunox odamlar qurbon bo'lib, sarson - sargardon kishilar ko'payib borayotgan bir paytda O'zbekistonda Inson uchun eng Oliy ne'mat yashashhuquqi va osoyishta hayot kechirishhuquqi to'la ta'min etilgan.

Shu bilan birga Inson huquqlari g'oyasi Oliy Majlis faoliyatida doimiy o'rin egallashi kerak. Har qanday qonun, harakat sohasidan qat'iy nazar ishlab chiqilayotgan va muhokama kilinayotgan paytda insonning asosiy, buzilmas huquqlariga qanchalik mos kelishiga alohida e'tibor karilishi lozim. «¹²

Konstitutsiyada inson huquqlari to'g'risida xalqaro huquqiy me'yorlar asosida ishlab chiqilgan va uni yanada txldirgan. Bunga konstitutsiyaning 13 - moddasi dalil bo'lishi mumkin. Ya'ni: «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr - kimmati va boshqa daxlsiz huquqlari kabilar qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi». ¹³

Ushbu modda «Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi»da e'lon qilingan umuminsoniy huquqlar, qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan. Ma'lumki «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» xalqaro miqyosda insonlarning ajralmas daxlsiz huquqlarini e'lon qilib, qo'yidagilarni belgilaydi. «1 - modda - Barcha odamlar erkin, qadr - kimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'ilganlar»; «3 - modda har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir»; «4 modda Hech kim qullikda yoki qaramlikda saqlanishi mumkin emas, qulchilik va qul savdosining barcha turlari taqiqlanadi» va hakoza.

O'zbekistonda odamlarning millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy va boshqa e'tiqodiga qarab cheklashlar yo'q. Chunonchi konstitutsiyaning eng muhim qismlaridan bo'lgan ikkinchi bo'limida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning o'ziga xos jihataridan biri shundaki, u faqat fuqarolarni, ya'ni davlatimizga mansub kishilarnigina emas, balki O'zbekistonda istikomati qiluvchi barcha insonlarning muqaddas va daxlsiz huquqlarini mustahkamlaydi. Chunki bizda inson hamma narsadan muqaddas va daxlsizdir. qonundan tashqari hech kim uni bu huquqlardan mahrum etishi mumkin emas.

Insonning sha'ni va or - nomusi ham daxlsiz. Hech kim insonning shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishi, oilaviy sir asrorlarini oshkoro qilishi, insonning uy - joy daxlsizligiga tajovo'z qilishi mumkin emas. Insonni kamsitish, xaqorat qilish, taxkirlash, qonunga xilof xatti - harakathisoblanadi va bunday harakatlar uchun qonun bo'yicha tegishli javobgarliklar mavjud. Inson hayotiga tajovo'z eng og'ir jinoyat hisoblanadi.

Yana bir misol O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining maxsus qismining 1 -

¹² Ислом Каримов ва Узбекистон Республикасининг Конституцияси. Т. 2001. 85-бет.

¹³ Узбекистон Республикаси Конституцияси Т. Узбекистон 2003 13-модда.

bo'limida «Shaxsga qarshi jinoyatlar» uchun javobgarlik belgilangan. Bunda shaxsning hayotiga, sog'ligiga, jinsiy erkinligiga, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar, shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr - qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar uchun kattik jazo choralari nazarda tutilgan.

Demak, inson huquqlari va demokratiya singari umumbashariy qadriyatlar respublikamizning milliy davlatchilik manfaatlariga to'la mos keladi.

5. Konstitutsiya va qonunning ustunligi printsipti tushunchasi va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etilishini e'lon qildi. Buni Konstitutsiya va qonunning jamiyatdagi boshqa xususiy normalardan ustunligi va mustahkam nufu'zga ega ekanligini tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'lini belgilashda besh asosiy printsiplardan biri sifatida Konstitutsiya va qonunning ustunligi printsiptini ko'rsatgan edilar. qonunning jamiyatdagi rolini oshirilishining birdan - bir yo'li huquqiy davlat qurishdir.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligining ta'minlanishi huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u O'zbekistonda davlat huquqiy qurilishining eng asosiy printsipti hamdir. «Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi printsipti shuni anglatadiki, deydi Prezidentimiz I. A. Karimov, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy huquqiy hujjatlar konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi».

Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday; «Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi».

O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiya davlatimizning eng Asosiy qonuni ekanligi, u boshqa qonunlar va me'yoriy - huquqiy hujjatlardan ustunligi quyidagicha belgilangan;

«O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. «¹⁴

Konstitutsiyaning asosiy qonuni sifatidagi ahamiyati, obru e'tibori, barqarorligi, uning oddiy qonunlardan farqi shu bilan belgilanadi. Bu bir gap bilan aytganda, Konstitutsiya qonunlar qonuni deyish mumkin. Shu bois O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiyaning eng yuqori kuchga ega ekanligi, hamda qonunlardan ustun turilishi alohida e'tirof etilgan.

Bunda faqat konstitutsiyagina emas, balki uning asosida qabul qilinadigan qonunlarning ustunligi o'rnatiladi.

Yuqoridagi printsipti jamiyatimizda qonunchilik va huquqiy targ'ibot tantanasini anglatadi. qonunchilik - bu qonunlarning realligidan, jamiyatda chinakam demokratik muhit va huquqiy rejim o'rnatganligidan dalolat beradi. qonunchilik bu davlat tomonidan qonunlar tizimini jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirib borish va davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarga ka'tiy rioya etish va ularni og'ishmay amalga oshirishda namoyon bo'ladigan davlat va jamiyat hayotining printsiptidir.

Qonunchilik bilan huquqiy targ'ibot bir - birdan farqqiladi. qonunchilikning mazmuni huquqiy me'yorlarga ka'iy va og'ishmay rioya etishlarida ifodalansa, huquqiy targ'ibot esa jamiyat a'zolarining yurish - turishlari, ularning sub'ektiv huquq va burchlariga muvofiq kelishda ifodalanadi.

Shunday qilib, 15 - moddaga ko'ra, O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlari oldida hamma teng darajada ma'suliyatga ega bo'lib, qonunlar ham o'z navbatida barchaga barobardir.

Demak, Konstitutsiyaning har bir moddasi hayotga tadbiiq qilinayotganda xalq va davlat manfaatlariga zarar yetmaydigan tarzda talqin qilinishi zarur. Zero, Konstitutsiyaning o'zi xalq va davlat irodasining ifodasidir. Shuning uchun Konstitutsiya va qonunlarning provard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilishi kerak.

Konstitutsiyaning 16moddasida, «Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoida si O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

¹⁴ Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. Uzbekiston 2003 15-moddasi.

Bironta ham qonun yoki boshqa normativ - huquqiy hujjat konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas». deb belgilangan bo'lib, ya'ni Konstitutsiyaga ko'ra bironta ham qonun yoki boshqa me'yoriy - huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid kelishi mumkin emas. Chunki Konstitutsiya davlatimizning asosiy qonuni bo'lib, u yuridik kuchga ega bo'lgan qonunchilik hujjatidir, Konstitutsiya huquqining hamma tarmoqlari: fuqarolik huquqi, Mehnat huquqi, ma'muriy huquq va xokazolar uchun qonunchilik bazasi bo'lib hisoblanadi. Davlat organlarining barcha qonunlari va me'yoriy huquqiy hujjatlari Konstitutsiya asosida chiqariladi va uning qoidalariga xilof bo'lmasligi lozim.

Har birimiz adolat va qonun ustuvorligi uchun, uning talablarini hayotimizga joriy etilishi uchun birgalashib kurashmogimiz, fidoiy bo'lmog'imiz kerak. «qonun, yana bir bor qonun kattayu Kichik, jinsidan, millati, e'tikodi, mansabidan qat'iy nazar, barchamiz uchun ustuvor bo'lmog'i lozim», degan edi yurtboshimiz.

Asosiy qonunimizga binoan O'zbekiston tarixida birinchi marta Konstitutsiya maxsus tarzda muhofaza qilinadigan bo'ldi. Ya'ni shu maqsadda Konstitutsiyaviy sud joriy qilindi. Bu organ qonunchiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga mos kelishini tekshirib turadi. Konstitutsiyaviy sudning tashkil etilishi, vazifalari va vakolatlari haqida konstitutsiyaning 108 - 109 moddalarida ma'lumotlar berilgan.

6. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari va uning asosiy printsiplari.

Tashqi siyosat tushunchasi davlatning xalqaro ishlardagi umumiy kursini o'z ichiga oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqaro hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini o'z ichiga oluvchi maqsad va vositalarni qamrab oladi.

Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida bildiruvchi huquqiy asoslar yaratildi. Tashqi aloqalar sohasida qo'yidagi hujjatlar qabul qilindi:

1. 1996 yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosat faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida»gi qonun;
2. 1992 yilda qabul qilingan «Diplomatik vakolatlar boshliklarini tayinlash va chakirib olish to'g'risida»gi qonun;
3. 1992 yilda qabul qilingan «Diplomatik xodimlarning darajalarini o'rnatish to'g'risida»gi qonun;
4. 1998 yildagi «Xorijiy sarmoyalar to'g'risida»gi qonun;
5. 2000 yildagi qabul qilingan «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonun;
6. 1996 yildagi qabul qilingan Konsullik Ustavi.

Tashqi ishlar Vazirligining funktsiyalari va faoliyatining yo'nalishlari tubdan o'zgartirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va tashqi iqtisodiy faoliyat banki tashkil etildi, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi firmalarning maxsus tizimi shakllantirildi, xorijiy firma, bank va kompaniyalarning 260 dan ortiq vakolatxonalar ochildi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy printsiplari Konstitutsiyaning 17 - moddasida o'zining aksini topgan.

«O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarning tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqaqoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning inson manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlashmaqsadida Ittifoqlar tuzish , hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo to'zilmalariga ko'shilish va ulardan ajralib chiqishi mumkin. «¹⁵

Mustaqillik yillarida O'zbekiston 120dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi.

¹⁵ Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh T. 2001 17-modda.

Toshkentda 35 ta davlat elchixonasi ochildi, 19 ta davlat elchixonalari esa O'zbekiston Respublikasida o'rindoshlik asosida faoliyat yurgizadi. Respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akreditatsiyadan o'tgan, 24 ta xukumatlararo va 13 ta hukumatlarga tegishli bo'lmagan tashkilotlar faoliyat olib boradi.

O'zbekiston 500dan ortiq ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar to'zdi, 60dan ortiq muhim xalqaro konventsiyalar va shartnomalar qo'shildi. Misol uchun: Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt, Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma va boshqalar.

O'zbekistonning xalqaro obrusi, jahon hamjamiyatidagi o'rni va ishtiroki o'smokda va mustahkamlanmokda. 1992 yilning 2 martida O'zbekiston BMT a'ziligiga qabul qilindi.

O'zbekiston to'la huquqli asosida eng obruli va ta'sirga ega xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Parlamentlararo Ittifoq, Xalqaro tashkiloti (XOK) shular jumlasidandir. U NATO ning «Tinchlik uchun hamkorlik» dasturida ishtirok etmokda.

O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi g'oyasini qo'llab - quvvatladi va 1991 yil 21 dekabrda uning tarkibiga kirdi, barcha MDX a'zolarining teng huquqliligi asosida uning mustahkamlanishi va rivojlanishi yo'lida sobit qadamdir.

«O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti» degan konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasining hozirgi dunyodagi o'rnini bildiribgina qolmay, mamlakatimizni xaqikatdan xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi ekanligini isbotla - moqda.

7. O'zbekiston Respublikasi mudofaa va havfsizlikni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida o'z mudofaa va havfsizlik organlari tizimiga ega. Bu esa konstitutsiyaning 126 - moddasida o'z ifodasini topgan. Ya'ni: «O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlarga ega».

Uning tuzilishi esa Konstitutsiyaning 125 - moddasida aniqko'rsatib qo'yilgan.

Qurolli kuchlarning qay darajada mustahkamligi davlat taqdirini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, o'z qurolli kuchlarini tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinchhayoti va havfsizligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishmaqsadida mudofaa ishlari vazirligi va milliy gvardiya tuzish zarurligi dastlab «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to'g'risidagi» Oliy kengash bayonotida, ya'ni 1991 yil 31 avgustda belgilangan bo'lib, bayonotning bu ko'rsatmasi o'sha kunning o'zida qabul qilingan. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunda yuridik jihatdan mustahkamlangan. Bu qonunda suveren davlatimizning mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya bilan muqobil xizmatini tashkil qilishhuquqiga ega ekanligini, shuningdek O'zbekiston hududida joylashtirilgan sobiq ittifoq qurolli kuchlarini boshqarish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirishhuquqini saqlab kolish aytilgan edi. Bu hujjat O'zbekiston Respublikasiga o'z qurolli kuchlarini tuzishda huquqiy asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 6 sentyabrdagi farmoniga asosan mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 25 oktyabrdagi qaroriga binoan mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va tarkibi tasdiqlandi. Vazirlik mahalliy, harbiy boshqaruv organlari fuqaro mudofaasi shtati va armiya safidan tashqari xizmat maxsus boshqarmasi negizida tashkil qilindi.

O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 3 iyuldagi 10 sessiyasi mamlakatimiz qurolli kuchlarini tuzishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu sessiyada O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy xizmat to'g'risida»gi va «Muqobil xizmat to'g'risida»gi muhim qonunlar, harbiy qasamyodning yangi matni va qasamyod qildirish tartibini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qildi, shuningdek

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mudofaa ishlar vazirligini O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligiga aylantirish to'g'risidagi farmoni tasdiqladi.

Qurolli kuchlar o'z faoliyatini:

- qonun ustunligi;
- markazlashgan boshqaruv va yakkaboshchilik;
- doimiy jangovor va safarbarlik holatidan tayyorgarlik;
- fuqarolarning umumiy harbiy majburiyati;
- o'z qudratining mudofaa uchun oqilona zaruriyat darajasi ko'rsatkichlarga muvofiqligi;
- kollektiv xavfsizlik tizimini barpoqilish;
- harbiy intizomga rioya qilish;
- partiyasizlik;

harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining ijtimoiy va huquqiy himoya qilishning ta'minlash asosida amalga oshiradi.

Qurolli Kuchlarga Oliy boshqaruvni mamlakatimiz Prezidenti amalga oshiradi. Konstitutsiyaning 93 - moddasi, 20 - bandida «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning Oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va va zifasidan ozod qiladi, Oliy harbiy unvonlar beradi», deyilgan.

Qonunchilikda OliyMajlis, Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar, davlat hokimiyati mahalliy organlari va boshqarmalarning mudofaa sohasidagi vakolatlari, shuningdek korxonalar, muassasa, tashkilot va fuqarolarning majburiyatlari aniq belgilab berilgan. Masalan, Mudofaa, harbiy qurilish, harbiy xizmatlar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy – huquqiy himoyalash masalalarida qonunlarning amalga oshirilishi ustidan parlament nazoratini o'rnatish Oliy Majlis zimmasiga yuklangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv organlarining mudofaa sohasidagi faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Mudofaa Vazirligi Qurolli Kuchlarga davlat boshqaruvini markaziy organi hisoblanadi. Mudofaa vazirligi qurolli kuchlarning holati va kelgusidagi taraqqiyotiga, jangovor tayyorgarlik va harbiy intizomga to'liq - javobgar.

Qurolli kuchlarning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirishda 1997 yil 9 avgustda Tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi konsepsiyasining Tasdiqlash to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonuni alohida ahamiyatga egadir.

Bu kontseptsiya diniy ekstremizm milatlararo va etnik ziddiyatlarning kuchayishi, qurollarning, jumladan yadro qurolining tarqalishi, xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilikning avj olishi, narkotik moddalarning tarqalishi hamda ekologik tanazzul ko'rinishidagi mintaqaviy va yalpi tahdid mavjudligi ta'kidlanadi.

Qurolli kuchlarni to'ldirish «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi muvofiq amalga oshiriladi. Bu qonunga ko'ra, harbiy xizmatga yaroqli bo'lgan va chakiruv kuni 18 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarosi bo'lmish yigitlar muddatli harbiy xizmatga chakiriladilar. Chakiruvga binoan xizmatni o'tayotgan oddiy xizmatchi va serjantlar uchun harbiy xizmat muddati o'n ikki oy, (oliy ma'lumotli shaxslar uchun o'n oy).

O'zbekiston Respublikasida muqobil xizmatni o'tash ham alohida qonunda nazarda tutilgan bo'lib, bunday xizmatni o'tash tartibi «Muqobil xizmat to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 3 iyundagi qonun bilan belgilab qo'yilgan.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Mazkur mavzu asosida biz O'zbekiston Respublikasining mustaqillik huquqiy asoslari, mustaqillikning asosiy belgilari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy printsiplari haqida qisman bo'lsada tushuncha berish imkoniyatiga ega bo'ldik deb o'ylaymiz.

Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchigi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi va tashqi siyosat printsiplari asosida bugungi kunda zarur ijobiy ishlar amalga oshirilganligining

barchamiz guvoximiz. Ayniksa, qonunchilik, davlat boshqaruvi tizimidagi o'zgarishlar haqida to'xtalmay bo'lmaydi. Davlatning hokimiyat organlari, ularning mustaqil holda faoliyat yuritishi, Davlat vakillik organlariga vakillarning xalq tomonidan saylanishi, davlat va xalq ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalalar referendum asosida hal etilishi kabilar, ularning amalga oshirilishini belgilab beruvchi huquqiy hujjatlar haqidagi bilimga ega bo'lish, albatta talabalarimiz davlat siyosiy ishlarida o'z mustaqil taklif va mulohazalarini bildira olish imkoniyatini ko'rsatib beradi. Siyosiy partiyalar, turli nodavlat tashkilotlar, ular faoliyatining huquqiy kafolatlarini bilish, har bir fuqaroga mustaqil harakatqilish va mustaqil fikrlashni o'rgatadi. Shuning uchun talabalarimizga siyosiy partiyalarning Ustavlari, dasturlari, jamoat tashkilotlarining nizomlari, Kamolot, Kasaba uyushmalari va boshqa jamoa birlashmalari faoliyatini yoritib beruvchi huquqiy hujjatlar bilan tanishib chiqishni tavsiya etamiz.

GLOSSARIY:

1. Konstitutsiyaviy tuzum - insoniyat ijtimoiy turmushining buyuk talabi, umum e'tirof etgan hayot shakli hisoblanadi.
2. Suveren - mustaqillik, davlatning ichki va tashqi munosabatlarida boshqa davlatdan to'la mustaqil bo'lishi.
3. Kontsepsiya - nazariy qarashlar tizimi, ya'ni yangi qonunlar tizimini ishlab chiqish.
4. Qonun - umumxalq ovoz berishi (referendum) orqali yoki mamlakatning Oliy vakillik organi (Oliy Majlis) tomonidan qabul qilingan normativ - huquqiy hujjat.
5. Demokratiya - bu konstitutsiya va qonunlar doirasida erkinlik demakdir.

Nazorat uchun savollar.

1. O'zbekiston Respublikasi qanday qilib mustaqillikka erishdi ?
2. Nima sababdan O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini qabul qilish zaruriyati tug'ildi ?
3. O'zbekiston yangi Konstitutsiyasining loyihasi qanday tayyorlandi ?
4. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida avvalgisiga nisbatan qanday yangiliklar mavjud?
5. Mustaqil O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasining tashabbuskori va ijodkori kim ?
6. O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi haqida tushuncha bering.
7. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishining huquqiy asoslarini bilasizmi ?
8. O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotning asosiy xususiyatlari haqida tushuncha bering.

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboiev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv ko'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
6. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998
8. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
9. A. Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993
10. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
12. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. «Konstitutsonoe pravo Rossii» uchebnik M. 2001.

13. Romyantsev O. G. "Osново" konstitutsionnogo pravo Rossii (ponyatie, sanovleniya) M. 1994.
14. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
16. www. law. ru.
17. www. yandex. Ru

16 – Mavzu O'ZBEKISTONDA INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQIARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI.

1

Reja:

1. Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari haqidagi konstitutsiyaviy qoidalar. Fuqarolik tushunchasi.
2. Qanday hollarda shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroliginingdan mahrum qilinadi ?
3. Fuqarolarning huquq va erkinliklarining asosiy turlari.
4. BMTning inson taqdiri bilan bog'liq bo'lgan muammolar echimidagi o'rni.

Hayotimizning asosiy qonuni bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasining xalqimiz, jamiyatimiz va davlatimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Konstitutsiyada davlatimizning demokratik mohiyatidan kelib chiqqan holda asosiy inson huquqlari va erkinliklari huquqiy kafolatlab qo'yilgan.

Konstitutsiya O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya'ni xalqning o'zi bevosita boshqariladigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Unda «jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i - inson» ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan. Insonni ulug'lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyamizning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Zero, Konstitutsiyamizning eng katta va muhim qismi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb nomlangan II bo'limidir. Konstitutsiyamizda faqat fuqarolarning huquqlarigina belgilab qo'yilmasdan, xorijiy davlatlarning va fuqaroligi bo'lmagan insonlarning asosiy huquqlari, erkinliklari haqidagi qoidalar ham mustahkamlangan. Ushbu qoidalar, tamoyillar fuqarolar o'z huquq va erkinliklaridan to'g'ri foydalanishlari va zimmalariga yuklatilgan burchlarini halol, vijdonan bajarishlari shartligini hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonch va samarali tadbiq qilishida mas'ul ekanliklarini bayon etadi. Bu qoidalar qonuniylik, fuqarolarning umumiy tengligi, fuqaro va davlatning bir - biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining uyg'unlashganligidan iborat.

Qonuniylik - barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan amaldagi qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar - ning aniqva og'ishmay bajarilishidir.

Qonuniylikning asosiy talabi mamlakatning ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun mulkning turli shakllariga yo'l ochish va ularni ko'riklash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini mustahkamlashdir.

Qonuniylikning talablariga rioya qilish inson huquq va erkinliklarini to'la ta'minlanishiga yo'l ochadi, insonlarda qonunlarga ishonch va xurmat xislarini uyg'otadi. Ikkinchi tomondan esa, davlatimiz xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlaydij

Ijtimoiy adolat Konstitutsiyaning asosiy prinsiplaridan biridir. Konstitutsiyada davlat inson va jamiyat farovonligini ko'zlab ijtimoiy adolat va huquqiylik prinsiplari asosida o'z faoliyatini amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Shu bois ham insonga munosib hayotni va uning rivojlanishini ta'minlash umumdavlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekiston ijtimoiy adolatga asoslangan davlatdir. Shuning uchun u fuqarolarni, ayniqsa axoxning eng nochor katamlari bo'lmish nog'ironlarni, ko'p bolali oilalami, yetim - esirlarni

ijtimoiy jihatdan har tarafiama qo'llab - quvvatlamogda. Konstitutsiyamizning 18 - moddasida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinlarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, till, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tikodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart». Bu fuqarolarning umumiy tengligi qoida si bo'lib, u hamma fuqarolar huquqlari va burchlarining tengligini bildiradi. Bu tenglikning asosiy talabi qonunning hamma uchun bir xil kuchga ega bo'lishidir,

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqlili - gi mustaqiltigimizning buyuk yutuqiaridan biridir. Teng huquqlilik - turli millat va elatlarning teng huquqiliginis barcha fuqarolarning qonun va sud oididagi teng huquqliligini, kasb tanlashda, bilim olishda, umumart, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlardan foydalanishdagi teng huquqlilikni o'z ichiga oladi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaralsiyasining 1 - moddasida «Barcha odamlar erkin, qadr - qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar», deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek, «Xotin - qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar». Ularga ilm olishda, kasb - hunar o'rganishda, mehnat qilishda, mehnat uchun haq to'lashda, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishda, saylash. va sayianishda erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratib berilgandir. Bugungi kunda ayollar rahbar iavozimlarda, tadbirkorlik ishlarida faol qatnashmoqdaiar. Davlat hokimiyatining vakillik organiariida ko'pgina ayollar deputat sifatida faoliyat yuritmoqdalar.

O'zbekiston davlati fuqarolarning huquq va erkinliklarini Konstitutsiyaviy huquq normalari hamda boshqa huquq tarmoqiari, ya'ni nikoh, mehnat, ma'muriy, oila qonunlari normalari bilan himoya qiladi. Davlat organlari orqali esa, jamiyat a'zolarining huquq va erkinlik - larining bajarilishini adolatli kafolatlaydi. O'z navbatida fuqarolar ham Konstitutsiyada beigilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, ijtimoiy va shaxsiy mafaatlarni uyg'unlashtirib qo'shib olib borish, fuqarolarning yuksak ongliligini taqozo etadi.

Fuqarolarning jamiyat oldida o'z mas'uiiyati, xalqning baxt - saodati uchun doimiy ravishda harakatqilish, o'z vatanini himoya qilish, Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya qilish, o'z oilasi e'tiqodiga sodiqlik, kasb mahorati bilan bog'liq yuksak vatanparvarlik burchini tushunish siyosiy va huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir.

Konstitutsiyamizning 20 - moddasida: «Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart» deb yozib qo'yilgan. Bu qoidaning mazmuni shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning uyg'unlashganligida ifodalanadi. Har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini, burchiarini yaxshi bilishi, anglashiuning boshqa kimsalar tomonidan poyrnol etilishiga yo'l qo'ymasligidir. Juda ko'p hollarda fuqarolar o'z huquqlarini davlat organlarining aralashuvisiz amalga oshiradilar, lekin fuqarolarning huquqi buzilsa, u sud tomonidan himoya qilinadi. Chunki shaxsiy manfaatlarga to'sqinlik qilish oqibat natijada ijtimoiy manfaatga to'skinlik qilishga olib keladi. Fuqarolar qanchalik o'z huquq va erkinliklaridan keng foydalansalar, ular shunchaxk jamiyatdagi mavjud bo'lgan illatlarga qarshi keskin kurasha oladilar. Hech kim fuqarolar ustidan tazyiq o'tkaza olmaydi. Bu esa butun jamiyat hayotining yanada demokratiyalashishiga yordam beradi. Lekin har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini, o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida ijtimoiy muhitni va boshqa kishilarning huquqlarini pisand qilmaslikka, davlat, jamiyat va fuqarolarning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. Shuning uchun har bir fuqaro - ning manfaati ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unlashib borishi lozim. Eng muhimi, jamiyat manfaati, Vatan manfaati shaxsiy manfaatdan ustun bb'lsagina, oldimizga ko'ygan orzu - maqsadlarimizga erishishimiz mumkin.

21 - 23 - moddalari «Fuqarolik» deb atalib, ushbu moddalarda O'zbekiston Respublikasida fuqarolikka oid qoidalar bayon etilgan. Fuqarolik masalasi siyosiy masaladir. Ibtidoiy jamiyatda fuqarolik tushunchasi bo'lmagan, chunki unda davlat singari tashkilot ham bo'lnagan. Fuqarolik

tartiblari davlat va huquq kabi ijtimoiy xodisalar paydo bo'lishi natijasida shakllanib, unda davlat qonunlar vositasida, odamlarni o'z fuqarolari sifatida tan olish asoslarini belgilay boshlagan. Shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabat fuqarolik tartiblari bilan belgilanadi.

Fuqarolik - bu shaxsning muayyan davlatga mansubligini bildiruvchi, shaxs bilan davlat o'rtasidagi barqaror, doimiy siyosiy, huquqiy aloqalarini aniqlovchi tushunchadir. Bu aloqalar davlat va shaxsning o'zaro huquq va burchlarini aniqlashda namoyon bo'ladi Ya'ni, davlat shaxsni o'zining fuqarosi deb tan olar ekan, uning Konstitutsiyada ko'rsatilgan fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilaydi, uning huquqlari va «erkinliklarini ushbu davlat ichida hamda tashqarisida muhofaza qiladi. Shaxs ham jamiyat va davlat oldidagi burchlarini bajarishga majbur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida 1992 - yil 2 - iyulda «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan. Ushbu huquqiy hujjatlarda O'zbekistonda fuqarolik masalalari, insonning fuqarolikka ega bo'lishi asoslari, fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining to'xtalishi, ota - onaning fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi, fuqarolik to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish, fuqarolikka oid qarorlarning ijrosi, mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga oid g'ayriqonuniy xatti - harakatlari ustidan shikoyat qilish, xalqaro shartnomalarning qo'llanilishi kabi eng muhim masalalar bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 - moddasi hamda; «Fuqarolik - to'g'risida»gi qonunning 1 - 2 - moddalariga binoan O'zbekiston hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi asosiy hujjat pasportdir. Pasport olingunga qadar esa tug'ilganlik to'g'risidagi guvoxnoma yoki shaxsning fuqaroligiga doir ma'lumotlar bo'lgan hujjat uning fuqaroligini Tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 26 - fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi Nizomi bilan belgilanadi.

Ushbu Nizomga asosan O'zbekiston Respublikasining 16 yoshga to'lgan barcha fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti berilishi shart, deb ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi pasporti xorijda jo'nab ketish chog'ida ham amal qiladi. Pasport Respublika Ichki Ishlar organlari tomonidan beriladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti butun O'zbekiston Respublikasida yagona namunada o'zbek, rus, ingliz tillarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun esa qoraqalpok, o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlanadi va u 32 betdan iboratdir.

Har bir shaxs o'zini fuqaro sifatida tasdiqlovchi hujjat hisoblangan O'zbekiston Respublikasi pasportini avaylab asrashi, pasport tizimi qoidalariga rioya qilishi shart. Fuqarolar pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib - da javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi har bir kishi fuqaro bo'lish huquqiga ega. «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi qonunning 12 - moddajisiga binoan, O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lish quyidagi asoslar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston fuqarolaridan tug'ilgan bolalar ular mamlakat hududida yoki xorijda tug'ilsa ham O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar ota - onalardan bittasi O'zbekiston fuqarosi, ikkinchisi chet el fuqarosi bo'lsa, tug'ilgan bola O'zbekistonda tug'ilsa, O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar shunday ota - onalardan boia mamlakatimiz tashqarisida tug'ilsa, uning fuqaroligi ota - onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota - onasi fuqarolikka ega ernas shaxslardan tug'ilgan bolalar O'zbekistonda tug'ilsa, O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Ota - onalardan bittasi O'zbekiston fuqarosi, ikkinchisi O'zbekiston fuqarosi hisoblanmasa, u qayerda

tug'lsa ham O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Otasi noma'lum, onasi ma'lum bo'lib, O'zbekistonda tug'ilgan bola O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z istaklari bilan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun ular quyidagi shart - larni bajarishi shart:

a) chet el fuqaroligidan voz kechganda: bunda chet el fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror - qabul qiladi. Chet el fuqarosi esa o'z fuqaroligini o'zgartirilishi haqida mazkur davlatning munosabatini ko'rsatuvchi hujjatni taqdir etishi shart;

b) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston hududida kamida besh yil yashagan bo'lsa, ya'ni so'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganligi va qonuniy yashash manbalar mavjudligi tasdiqlangan holda;

v) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olsa va bajarsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida katta yutuqlari bo'lgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yoxud malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslarga nisbatan ushbu moddaning 1, 2 va 3 - bandlaridagi talablar hisobga olinmasligi mumkin. Lekin ular ham albatta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tan olishi va bajarishi shart.

Agar shaxs:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik ishlatib o'zgartirishini yoqlab chiqayotgan bo'lsa;

Faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo'lgan partiyalar va o'zga tashkilotlarga a'zo bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti - harakatlari uchun ozodlikdan mahrum etilgan va o'sha jazoni o'tayotgan bo'lsa, uni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnomasi rad etiladi.

Fuqarolc to'g'risidagi qonunning 19~21 - moddalarida: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilishi va yo'qotilishi asoslari belgilangan.

Shaxsning iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarilishi mumkin. Agar shu shaxslarning O'zbekiston davlati oldida burchlari, qarzlari bo'lsa, jinoyat sodir etgan bo'lsa ruxsat berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishs fuqarolikni qayta tiklash, fuqarolikdan chiqish va uni yo'qotish masalalari O'zbekiston Prezidenti farmoni biian rasmiylashtiriladi.

Qanday hollarda shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroliginingdan mahrum qilinadi ?

- Vatanga xiyonat qilsa;
- « Shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizrnati idoralariga, politsiya, armiya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida;

- Agar chet elda doimiy 5 yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa;

- Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'on ma'lu - motlar yoki soxta xuijatlarni taqdim etish orqali olingan bo'lsa;

- Xalqaro shartnomalar asosida;

- Ushbu qonunda ko'zda tutUgan boshqa asoslarga binoan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi.

Masalan, xorijda ishlayotgan ota - onalarning farzandlari

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat organlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;

- O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi;

- O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari (elchixonalar) va konsullik muassasalari.

Konstitutsiyamizning 23 - moddasida belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar,

Chet el fuqarolari - O'zbekiston hududida yashayotgan, boshqa xorijiy mamlakatlarning fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslar. Ularning O'zbekistonda bo'lishlariga to'rt sabablar mavjud. Masalan, shartnomalar asosida O'zbekistonda ishlash, o'qish, chet ellarning diplomatik va konsullik idoralarida ishlash, sayyohik yo'llanmasi bilan kelishi va hokazolar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan va o'zining chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlovchi dalillari (fuqarolik pasporti yoki ularning o'rnini bosuvchi boshqahujjati) bo'lgan shaxslar chet el fuqarolari deb tan olinadi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxsning huquqiy ta'rifi «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 11 - moddasida berilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligi - ni isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar deb hisoblanadi».

Chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklardan, xususan shaxsiy, mulkiy, oilaviy va boshqahuquqlardan foydalanadilar, shuningdek, o'zlarini himoya qilishlari uchun sud organlariga murojaat qila oladilar.

Ayni paytda, ular O'zbekiston fuqarolari bilan bir xil majburiyatlarni o'taydilar. Respublikamizda doimiy istiqomat qiluvchi chet ellik shaxslarning huquq va majburiyatlarining huquqiy maqomi, ko'lami muvaqqat istiqomat qiluvchilarga nisbatan kengroqdir. Doimiy istiqomat qiluvchilar O'zbekistonda ishchi va xizmatchi bo'lib ishlashlari yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin. Ular, dam olish, sog'liqni saqlash, nafaka olish, uy - joydan foydalanish, shaxsiy mulk sifatida uy - joyli bo'lish, o'rin olish huquqiga egadirlar. Ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan nikohda bo'lishlari va uni bekor qilishlari mumkin. O'zbekistonda doimiy yashovchi chet elliklar toifasiga ichki ishlar organlari tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnoma yoki yashash uchun guvohnoma olgan kishilar kiradi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston hududida qilgan jinoyiy, ma'muriy va boshqahuquqbuzarlik ishlari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir xil asosda javob beradilar. Ular O'zbekiston hududida jinoyat qilsalar, O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan javobgarlikka tortiladilar.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ayrim huquqlari cheklab qo'yiladi. Jumladan, ular respublikadagi vakillik organlari saylovlarida ishtirok eta olmaydilar, deputat bo'lib saylana olmaydilar, umumxalq ovoz berish (referendum) da qatnashish huquqiga ega emaslar. Ular O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida, Milliy xavfsizlik xizmatida, ichki ishlar organlarida ishlashlari mumkin emas.

Chet el fuqarolarining alohida toifasini chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik va konsullik vakolatxonalari va xalqaro tashkilotlar xizmatchilari tashkil etadi. Ular ham O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqahuquqiy normalarni xurmat qilishi va ularga itoat etishi kerak. Lekin ular diplomatik va konsullik imtiyozlaridan va shaxsiy daxlsizlik huquqidan foydalanadilar.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarining asosiy turlari.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari deyilganda, O'zbekiston davlati tomonidan o'rnatilib, Konstitutsiyasida belgilangan,

har bir fuqaroga berilgan imtiyozlardan shaxsiy hayotda va jamoat ishlarida qatnashish uchun foydalanish imkoniyati tushuniladi.

O'zbekiston fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklari bajarilish sohalari bo'yicha uch turga bo'linadi.

O'zbekiston fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklari ilmiy asoslangan tartibda tavsiflash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Unga asosan, O'zbekistonda inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari quyidagicha tavsiflangan:

O'zbekiston mustaqflikka erishgandan keyin, o'zining davlat tuzilishi, faoliyati va hayotini umuminsoniy qadriyatlar asosida olib borishni maqsad qilib qo'ydi. Bunda shaxsning manfaati, uning sha'ni, qadr - qimmat hammasi narsadan yuqori turadi. Inson huquqlari ichida uning tabiiy va ajralmas ihuquqlari ayniksa muhimdir. Inson huquqlarini himoya qilish hozirgi dunyoning eng jiddiy muammolaridan hisoblanadi. Inson huquqlari - bu insoniyat tarixiy taraqqiyotining umumiy yutug'idir. Insoniyatga azob - uqubat, kulfatlar keltiruvchi urush ofat - laridan kelgusi avlodlarni xalos etish, inson huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilinishini ta'minlash BMT faoliyatining asosiy maqsadiga aylandi. Bu maqsadlar BMTning inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro ahamiyatga molik hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarining o'rni shu bilan belgilanadiki, unda umumjahon manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy me'yorlar mujassamlashgan. Bu huquqiy me'yorlar inson huquqlariga, demokratik g'oyalarga sadoqat, fuqarolar tengligi, milliy va millatlararo totuvxk, davlatlararo nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyiliga asoslanadi.

Inson huquqlari to'g'risidagi asosiy huquqiy hujjatlar: «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» va «Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» hamda so'nggi hujjatga ilova qilingan Fakultativ Protokoldan iborat bo'lib, ular «Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill», deb yuritiladi. Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqx a'zosi bo'lgan O'zbekistonning qonunchiligi, mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi hamxalqaro huquqning aynan ushbu hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Inson huquqlari va erkinliklari masalasi BMTning 70 dan ortiq asosiy huquqiy hujjatlarida ifodalangan.

BMTning inson huquqlariga doir qabul qilingan xalqaro hujjatlari mantiqan bir - birini to'ldiradi va mazmunan boyi - tadi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1959 - yilda qabul qilingan «Bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya», 1965 - yilda qabul qilingan «Irtiqiy kamsitishning hamma shakllari - ni tugatish haqidagi Konvensiya»larda inson shaxsi, uning huquq va erkinliklari har bir mamlakatda huquqiy jihatdan kafolatlanishi qayd etilgan. «Bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya»da onalik va bolalikni himoya qilish, bolalarning Mehnati, salomatligi, tarbiyasini huquqiy jihatdan muhofaza etish, ularning irtiqiy kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik singari huquqlar har bir mamlakatda qonun asosida himoyalani zarurligi ta'kidlangan.

Ushbu hujjatlarga imzo chekkan davlatlar insoniyatning butun tarixi mobaynida qayd etilgan jamiki huquqlarini tan olishlari va ularga rioya etishlari shart. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi davlatlar uchun tavsiya sifatidagi hujjat bo'lib, ixtiyoriy ravishda bajariladi. Xalqaro paktlar va Konvensiyalar ularga qo'shilgan davlatlar uchun majburiydir.

BMTning 1945 - yil 26 - iyunda AQSh ning San - Fransisko ta'ris konferensiyasi qatnashchisi bo'lgan davlatlar tomonidan qabul qilingan va shu yili 24 - oktyabrda kuchga kirgan bu hujjat jahondagi davlatlarning yagona maksad sari hamjihatlikda intilishini jamul jam qilib, inson huquqlari sohasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini o'zida namo - yon etadi. Ushbu dunyoviy tashkilotga bugungi kunda 190 ga yaqin davlatlar a'zo bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ushbu nufuzli xalqaro tashkilotga 1992 - yil 2 - martda qabul qilindi. 1993 - yil 24 - oktyabrda Toshkent shahrida BMTning vakolatxonasi ochildi.

Hozirgi kunda BMT inson taqdiri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muammolarni:

- xalqlar va inson huquqlariga qarshi harbiy kuch qo'llash va tahdid qilishni tugatish;
- asosiy inson huquq va erkinliklariga xurmat ustuvorligini ta'minlash;
- barcha uchun umumiy bo'lgan atrof - muhitni muhofaza qilish va kelajak avlod uchun

avaylab - asrab saqlash;

- insoniyat o'zining bir butunligini anglashini ta'minlash kabi masalalarni hal qilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi 30 moddadan iborat bo'lib, ushbu xalqaro huquqiy hujjatda inson huquqlarining tartibini va qoida sini belgilovchi huquqiy me'yorlar mujassamlashgan. Deklaratsiya muqaddimasida uning maqsadi - insoniyat oilasi a'zolariga xos bo'lgan ma'naviyat, qadr - qimmat, urf - odatlarni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish ekanligi ko'rsatilgan. Inson manfaatining ustunligi Deklaratsiyaning umumiy tamoyil - larida to'la namoyon bo'ladi.

Bular:

- inson huquqlarini hurmat qilish;
- inson huquqlarining tengligi;
- inson erkinligi;
- inson huquqlarini amalga oshirishning demokratik jara - yoni;
- inson huquqlarini ta'minlashning adolat tamoyilidir.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlarning moddalarida insonning huquqlari aniqbayon etilgan:

- yashash huquqi insonning ajralmas huquqidir;
- hech kim o'zboshimchalik bilan insonni huquqidan mahrum qila olmaydi;
- hech kim azob - uqubatga solinmasligi, unga nisbatan shafqatsiz, noqonuniy yoki qadr - qimmatini xo'rllovchi muomala qilinmasligi yoki jazolanmasligi kerak;
- har bir inson ozodlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega; hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olmishi yoki hibsdan saqlanishi mumkin emas;
- biror bir davlat hududida qonuniy ravishda bo'lgan har bir kishi ushbu hudud doirasida erkin ko'chib yurish va yashash joyini tanlash huquqiga ega;
- har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquqlar insonga berilgan tabiiy huquqdir Inson qaysi davlat fuqarosi bo'lishidan qat'iy nazar, dunyoga kelishi bilan tabiiy huquqlarga ega bo'lishi shart. Davlat o'z fuqarolariga faqat qo'shimcha ravishda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohadagi ayrim huquqlarni beradi. Bunday huquqlarni davlatlar o'z Konstitutsiyalarida ko'rsatib qo'yadilar.

O'zbekiston Respublikasi 1991 - yil 30 - sentyabrda inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasini rasmiy tan oldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, inson huquqlariga bag'ishlangan 70 ta xalqaro hujjatlardan 35 tasini ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasi Parlamenti 1995 - yil 31 - avgustda qabul qilgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ pro - tokol, irqiy kamsitishning hamma shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, qiynokhamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr - qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya va boshqaxalqaro xujj'atlar shular jumlasidandir. Ratifikatsiya qilingan bu xujj'atlardagi qoidalar yuqorida ta'kidlanganidek, respub - lika qonunchiligida, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

GLOSSARIY.

1. Huquq va erkinliklar – bu davlat tomonidan o'rnatilib, konstitutsiyada qayd qilingan, har bir fuqaroga o'zining xatti - harakatini tanlash, unga berilgan imtiyozlardan shaxsiy hayotida va jamoat ishlarida qatnashishi uchun foydalanish imkoniyati.

2. Siyosiy huquqlar – fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish.

3. Burch - bu davlat tomonidan belgilanib har bir fuqaro bajarilishi zarur bo'lgan, bajarmasligi esa javobgarlikka olib keladigan xatti - harakatlar va yashash tarzi qoidalari.

4. Sha'n - shaxsning ajralmas va boshqalarga o'tkazib bo'lmaydigan huquqi bo'lib, bu insoning obru - e'tiboridir.

5. Qadr - qimmat - bu shaxsning ichki o'zini - o'zi baholash mezonini va jamiyatning unga bergan bahosi o'zaro biri - biriga bog'langan mezonlardir.
6. Standart – o'lchov ya'ni mezon.
7. Soliq –fuqarolarning qonunga ko'ra davlatga to'laydigan majburiy to'lovdur.
8. Mudofaa – davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligi, aholining tinchhayot kechirishi ta'minlashga qaratilgan siyosiy – iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy - huquqiy tadbir bo'lib, ya'ni qurolli tajavo'zlardan himoyalanihdur.

Nazorat uchun savollar.

1. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari deganda nimalar tushuniladi ?
2. Burchning o'zi nimani anglatadi ?
3. Davlat fuqarosiga shu davlat hududida yashab turuvchi hamma shaxslar kiradimi ?
4. Shaxsning huquqiy holati nima bilan belgilanadi ?
5. Siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy huquqlar deganda nimalarni tushunasiz ?
6. Soliqning o'zi nima va nima maqsadda undiriladi.
7. Harbiy mudofaa nima uchun zarur ?
8. Insonlarning shaxsiy erkinliklarini ayting.
9. Siyosiy huquqlar boshqahuquq turlaridan nimasi bilan ajraladi ?
10. Bevosita va bilvosita vakillik deganda nimani tushunasiz ?

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboiev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv qo'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
6. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998
8. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
9. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari. T. 2003.
10. A. Saidov Mustaqillik Komusi. « O'zbekiston », T., 1993
11. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
13. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. «Konstitutsionnoe pravo Rossii» uchebnik M. 2001.
14. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
15. www. yandex. ru.
16. www. edu. o'z.
17. www. ziyo. net.
18. www. gov. o'z.

17 mavzu: O'zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining Konstitutsiyaviy belgilari.

Reja:

1. Jamiyatning iqtisodiy asoslari.
2. Mulk va uning shakllari.

3. Jamoat birlashmalari tushunchasi va tizimi.
4. Jamiyatda oilaning o'ri va uning huquqiy himoyalanganligi.
5. Siyosiy institutlar tizimida ommaviy axborot vositalarining o'ri va ahamiyati.
6. Diniy tashkilotlar va birlashmalarning huquqiy maqomi.

Jamiyatning iqtisodiy negizlari deganda, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy hayot, ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik shakllari, ijtimoiy yo'nalishga qaratilgan ishlab chiqarishmaqsadi, jamiyatda ishlab chiqarilgan maxsulotlarning adolat prinsipi asosida taqsimlanish, xo'jalikni boshqarishda bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslanganlik tushiniladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq, jamiyat taraqqiyoti uchun muxim sanalgan iqtisodiy ijtimoiy sohalarida muxim o'zgarishlar va yangiliklarni nazariy asoslab, hayotga tatbiq eta boshladi. «Jamiyatning iqtisodiy negizlari deb nomlangan XII bobga, Respublikamiz hayotining iqtisodiy asoslari ya'ni mulkchilik masalalari, xo'jalik yuritish va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari belgilanib, xozirgi paytda bozor munosabatlarini rivojlantirish amalga oshirilayotgan isloxlarni chuqurlashtirishda ahamiyati bekiyosdir.

O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaroning iqtisodiy huquq va erkinliklari bevosita Konstitutsiyamizda o'z aksini topgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 36 moddasida shunday deyiladi, «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga xaqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi». Demak, har bir inson dunyoga kelmasdan turib, ham hayotiy davrida ham qonuniy asosda o'z mulkiga ixtiyoriy asosda egalik qiladilar. Shunday holatlar ham bo'ladiki, bola ona koridagi davrida ham qonunda ko'rsatilgan tartibda mulkka egalik huquqini saqlab qoladi. Bu holat tegishli qonunchiligimizda mustahkamlab qo'yilgan.

Mulkka bo'lgan huquq nafaqat Konstitutsiyamizda, balki Fuqarolik Kodeksida, «Mulkchilik to'g'risida» gi, «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» gi, «Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining erkinligi to'g'risida» gi qonunlar va boshqaqonunhujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma - xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va Mehnatqilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab - baravar muxofaza etilishini kafolatlaydi. Bu munosabat Konstitutsiyamizning 53 moddasida o'z aksini topgan. Bilamizki, mustaqillikdan oldingi davrda barcha mulk davlatga tegishli bo'lgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan sung, bozor munosabatlariga o'tish davrida mulkning xilma - xil shakllari joriy qilina boshlandi. Jumladan, davlat o'ziga tegishli bo'lgan mulklarni asta - sekin xususiylashtirib, insonlarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini shakllantira boshladi.

Jamiyatning iqtisodiy negizini asosan mulkiy munosabatlar tashkil etadi. Kishilar tomonidan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda taqdim etilgan boyliklar doim mulk bo'lib kelgan. Mulk egasi bo'lish yoki bo'lmasligiga qarab, kishilarning jamiyatdagi mavkei va o'ri bevosita o'lchab boriladi.

2. Mulk va uning shakllari.

Mulk ishlab chiqarishning zarur sharti va ishlab chiqarilgan boyliklarning o'zlashtirilishi natijasi hisoblanadi. Insonlar buyumlarni, ne'matlarni o'ziniki qilib olgandagina o'zlashtirishlari mumkin, chunki jamiyatda o'zganiki bo'lgan ne'matlarni o'zlashtirib bo'lmaydi. Har bir shaxs mulkdor bo'lishhuquqiga ega bo'lib, o'z mulkidan ixtiyoriy ravishda va istalgan vaqtda foydalanadi. Mulk soxibi o'z mulkiga mustaqil tayanib ish ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi «Mulkchilik to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mulkka egalik qiladi, foydalanadi hamda tasarruf etadi.

Mulkni egallash huquqi yoki unga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirishda imkon beruvchi biron joyda saqlab turishga aytiladi. Birovning ug'irlatgan yoki yo'qotgan mulkini qo'lda saqlash qonunsiz egallash deb aytiladi.

Mulkdan foydalanishhuquqi mulkning foydali xususiyatlarini olish mulkdan iqtisodiy

maqsadlarda foydalanishdir. Mulkdan foydalanish huquqi mulkka egalik qilish huquqi bilan uzviy ravishda bog'likdir. Negaki mulkka egalik qilmay turib, undan foydalanib bo'lmaydi. Ya'ni xalq ta'biri bilan aytganda, yo'q narsadan bor qilib bo'lmaydi. O'zganing mulkidan kelishuvsiz, qonunda ko'rsatilmagan tartibda foydalanilsa, noqonuniy foydalanish deb topiladi.

Mulknı tasarruf etish huquqi deb mulkning takdirini belgilashga, mulk yo'zasidan boshqashaxslar bilan bo'ladigan huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquqqa aytiladi. Agar shaxs qonuniy ravishda tasarruf etgan bo'lsa, boshqashaxslar bilan mulk yo'zasidan bitimlar, shartnomalar, shuningdek, mulknı sotish, xadya qilish, ijaraga qo'yishi mumkin.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 17 moddasida ko'rsatilishicha: «Har bir inson yakka xolda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega. Hech kim zo'ravonlik bilan o'z mulkidan maxrum etilishi mumkin emas».

O'zbekiston Respublikasi FK ning 167 moddasida quyidagi mulk shakllari mavjud:

1. Xususiy mulk.
2. Ommaviy mulk.

Shu bilan birga xususiy mulk ham bir necha turlarga bo'linadi: a) yakka shaxsga tegishli mulk; b) nodavlat yuridik shaxslar mulki. Ommaviy mulk esa: a) O'zbekiston Respublikasi mulki; b) ma'muriy to'zilmalar mulki (munitsipal mulk).

O'zbekiston Respublikasida ommaviy mulkning xususiy mulk singari bir kancha turlari mavjud. Bular:

- a) O'zbekiston Respublikasi mulki;
- b) Ma'muriy - hududiy to'zilmalar mulki (munitsipal mulk).

O'zbekiston Respublikasi mulkiga quyidagilar kiradi: davlatga tegishli bo'lgan mol - mulk, yer, yer osti boyliklari, suv, xavo bo'shlig'i, o'simlik va xayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy - hududiy to'zilmalar mulkiga esa quyidagilar kiradi: mahalliy budjet mablag'lari, munitsipal uy - joy fondi va kommunal xo'jalik korxonalar va boshqa mulkiy majmualar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'likni saqlash muassasalari.

O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning mulk turlari quyidagicha turlanadi: a) maxalla mulki; b) ijara korxonasining mulki; d) xo'jalik shirkati mulki; e) diniy tashkilotlarning mulki; f) jamoat birlashmalarining mulki.

Chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi hududidagi mulklariga egalik qilish huquqi beriladi. Davlat va mulkning daxlsizligini va boshqa davlatlarga erkin o'tkazilishini kafolatlaydi. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan keng miqiyosdagi isloxotlar shu kafolatlar mavjud ekanligidan kelib chiqib olib borilmoqda.

3. Jamoat birlashmalari tushunchasi va tizimi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56 moddasiga asosan kasaba uyushmalar, olimlarning jamiyatlari, xotin qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat birlashmalariga o'z ustavlarida nazarda tutilgan asosiy maqsad va vazifalarnı bajarish imkonini kafolatlaydi. Bu kafolat fuqarolarning ixtiyoriy uyushishga bo'lgan huquqlarini ruyobga chiqarish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy asosiy yaratilgan Konstitutsiyaning XIII bobi hamda fuqarolarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etish (32 modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish ommaviy harakatlarga katnashish (34 modda) huquqi kafolatgan.

Jamoat birlashmasi deganda uning mohiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Jamoat birlashmasi biron bir shaxsni yoki oilani yoxud ayrim guruhlarning shaxsiy foyda olish istagini ifodalamaydi. Jamoat birlashmalari odatda g'oya, iroda bilan harakatga keladi, ularning yagona maqsadi jamiyatni takomillashtirish. Ular o'z oldiga nazorat qilish yoki foyda olish vazifasini

qo'ymaydi, balki ular jamiyatni mukammallashtirishyo'nalishi va istagida faoliyat yuritadi. Demak, jamoat birlashmalari fuqarolarga o'zlariga o'zlari yordam berishlari, o'z hayotlarini jamiyatni takomillashtirish orqali yaxshilashlari imkonini beradi.

Jamoat birlashmalari o'z a'zolarining ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o'zini - o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik tamoyillari asosida to'ziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Jamoat birlashmalari o'zlarining ustav faoliyatiga hamda tashkiliy - huquqiy maqomiga ko'ra uchta turga bulinadi:

1. Xalqaro miqyosdagi jamoat birlashmasi;
2. Respublika miqyosdagi jamoat birlashmasi;
3. Mahalliy miqyosdagi jamoat birlashmasi.

Xalqaro jamoat birlashmalari deyilganda o'z ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston hududida hamda bitta yoki undan ko'prok chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan jamoat birlashmalari tushuniladi.

Chet el tuzilgan va faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro jamoat birlashmasining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxona yoki filiali hamxalqaro jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Respublika jamoat birlashmalariga o'z ustavida belgilangan maqsad va vazifalarini butun O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan jamoat birlashmalari kiradi.

Mahalliy jamoat birlashmalari deyilganda ustavlarida belgilangan maqsad va vazifalarni butun viloyat hududida, Toshkent shaxrida esa shahar hududida amalga oshiradigan jamoat birlashmalari deyiladi.

Tuman (shahar) hududida faoliyat ko'rsatadigan jamoat birlashmalari tuman (shahar) jamoat birlashmalari deyiladi.

Zaruriyat bo'lgan xollarda viloyatlararo va tumanlararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Konstitutsiyaning 59 moddasiga ko'ra kasaba uyushmalari ijtimoiy - iqtisodiy hududlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir, deb belgilangan.

Fuqarolarning mehnat va dam olish huquqlari, sog'likni saqlash, uy - joy va turmush darajalarini yaxshilash hamda himoya qilish sohasida O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi va uning tarkibidagi turli tarmoq kasaba uyushmalari ahamiyati alohidadir.

Siyosiy partiyalar Konstitutsiyasining 60 moddasiga asosan turli tabaqa va guruhlarining siyosiy ifodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzish da ishtirok etadilar, deb belgilangan.

Konstitutsion normaga asosan jamiyatda tub ma'nodagi ko'ppartiyaviylikni shakllantirish uchun 1996 yil 26 dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida» gi qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida bugunga kunda keng ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qodir bo'lgan beshta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatib kelmokda:

- O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi (XDR);
- «Adolat» sotsial - demokratik partiyasi;
- O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi;
- O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi;
- Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston liberal demokratik partiyasi.

O'zbekistonda tashkil topgan ushbu siyosiy partiyalar ijtimoiy taraqqiyot, voqealar rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy - siyosiy tashkilotdirlar. O'zbekistonda dinning jamiyatda tutgan o'zni uning konstitutsion maqomi bilan belgilangan. O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, barcha fuqarolar millatidan, irqidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar vijdon erkinligi kafolatlangan.

4. Jamiyatda oilaning o'zni va uning huquqiy himoyalanganligi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63 moddasiga muvofiq, «Oila jamiyatning asosiy bug'inidir hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lishhuquqiga ega» deb ko'rsatib o'tilgan. Albatta, jamiyatning paydo bo'lishida oilaning roli beqiyosdir. Oilaning shakllanishi va

rivojlanishi, jamiyatning rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat doimiy ravishda oila manfaatlarini barcha jabxalarda himoya qilib, ularga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Oila munosabatlarini 1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Oila kodeksi» tartibga soldi. Bu qabul qilingan Oila kodeksi o'zida xalqaro normalarni, jahon oilaviy tajribalarini, shu bilan birga o'zbekona urf - odat hamda qadriyatlarini o'ziga mujassamlashtirdi. Oila kodeksida oila qonunchiligimiz uchun yangi bo'lgan munosabatlar, nikox shartnomasi, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv, qon - qarindoshlik va boshqa munosabatlar kiritildi.

Nikox tuzish nikoxlanuvchilarning FXDYo organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy utgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Ba'zi holatlarda nikox bir oy utgunga qadar hamtuzilishi mumkin. Bunday holatlarga:

Nikoxlanuvchilar o'zoq vaqt birga turgan bo'lsalar;

Nikoxlanuvchilardan biri o'qish yoki mehnat safari bilan xorijiy mamlakatlarga kelayotgan bo'lsa;

Bulajak er - xotinning yaqin qarindoshlaridan biri og'ir kasal bo'lsa;

Taraflardan biri harbiy xizmatga chaqirilgan bo'lsa.

Shunday holatlar ham uchraydiki, nikox ariza beruvchilar tomonidan ariza berilgan kuni hamqayd etilishi mumkin. Masalan: ayol kishi xomilador bo'lib qolsa, o'rtada farzand tug'ilganda.

Agar shaxs og'ir kasal bo'lib qolganda, nikoxni kasalxonalarda ham qayd etishga ruxsat beriladi. Nikoxni qayd etish vaqtida, albatta, taraflarning o'zlari hamda ikkita vakili ishtirok etadi, ya'ni kelinning dugonasi hamda kuyovning urtog'i. Nikox qayd etilganidan keyin ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlariga muxr quyiladi.

Ba'zan nikox tuzishga imkon bermaydigan holatlar ham kuzatiladi. Bunday holatlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Loaqal bittasi qonuniy boshqa nikoxda turgan bo'lsa;

Nasl - nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri to'tashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka - ukalar bilan opa - singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

Ruhiyat bo'zishi natijasida sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida;

Oilaviy munosabatlarga er va xotin o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda ota - onalik huquqlaridan maxrum bo'ladilar. Quyidagi holatlar otaonalik huquqidan maxrum qilinishiga asos bo'ladi;

Ota - onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa;

uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan olishdan bosh tortsa;

Bolalariga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa;

Muttasil ravishda ichkilikbozlik va giyoxvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa;

O'z bolalarining sog'ligi yoki hayotiga qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Har xil asoslar bo'yicha nikox o'z vaqtdan oldin tugatilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37 moddasiga muvofiq, quyidagi xollarda nikox tugatilishi mumkin:

Er xotindan birining vafoti;

Sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida;

Er - xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq;

Nikoxdan ajratish asosan sud tartibida hamda FXDYo organlari tomonidan amalga oshiriladi. Er - xotin o'rtasida nizoli vaziyatlar mavjud bo'lmasa, nikox FXDYo organlari tomonidan ajratilish mumkin. Agar er - xotin o'rtasida farzandlar masalasida, mulkiy masalalarda nizoli vaziyatlar yo'z bersa, nikox fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ajratiladi.

Mamlakatimizda oilaning huquqiy himoyalanganligini Prezidentimiz farmonlarida,

xukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan qarorlarda va boshqahuquqiy hujjatlarda ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, o'zini - o'zi boshqarish organlari, sud organlari, prokuratura organlari, vasiylik, xomiylik organlari va shunga o'xshash organlar bevosita oilaning huquqiy jihatdan kafolatlanganligini belgilab beradi.

5. Siyosiy institutlar tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z oldiga adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, huquqiy demokratik davlat qurish va xalqni farovon hayot sari olib borish kabi buyuk maqsadlarni qo'ydi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini islox qilish, ularning samarali ishlashiga ko'mak beruvchi mexanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yaratish borasida muayyan ishlar qilindi. Shu sababdan, bu muammo O'zbekiston Respublikasining bir qator boshqa qonunlarida ham o'z ifodasini topgan. Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi (1997yil, 26dekabr), «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi (1996yil, avgust), «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida» gi (1996yil, sentyabr), «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi (1997yil, aprel), «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida» gi, (1997yil, aprel), «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi (2002yil, dekabr) qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniya va radioning rolini oshirishchora - tadbirlari to'g'risida»gi (1996yil, may) Farmoni va boshqa bir qator normativ huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

«Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunda ommaviy axborot vositalarining turlari ko'rsatilgan. Ular gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televideniya (kabelli, efirkabelli televideniya) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir.

Demokratik davlatlarda ommaviy axborot vositalari erkinligini, ularning faoliyat ko'rsatishi sharoitlarini ta'minlash bilan birga, bu erkinliklarning suiste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Birinchi navbatda ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar yuqorida aytib o'tganimizdek, berilayotgan axborotning to'g'riligi uchun javobgardirlar. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining mavjud Konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish, urush va zo'ravonlik, shaFkatsizlik, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, davlat sirini yoki qonun bilan ko'riklanadigan o'zga sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan xatti - harakatlar sodir qilishni targib qilishga ruxsat berilmaydi. Uchinchidan, fuqarolarning sha'ni va qadr - kimmatini taxkirlash, ularning shaxsiy hayotiga aralashish ham takiklanadi. Ushbu cheklashlar yana bir marotaba huquqiy davlatga so'z erkinligi, ommaviy axborot vositalari erkinligi istalgan fikr yoki qarash ifoda etilishiga yo'l qo'yilmasligidan, lekin bu cheklashlar Kichik va aniq bo'lishidan dalolat beradi. Demokratik huquqiy davlatning mavjud bo'lishi, ko'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarni asta - sekinlik bilan bo'lsa ham asrab - ardoqlash uchun so'z erkinligi huquqining Kichik bir qismini cheklash talab qilinadi. Bu xol yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. E'lon qilinayotgan xabarlar yoki materiallar oldindan kelishib olinishi, shuningdek, ularning matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishi (efirga berilmasligi)ni talab qilishga xech kimning haqqi yo'q. Senzura, oddiy qilib aytganda, bu muayyan axborot berilishiga (nashr qilinishiga) to'skinlik qilish, unga nisbatan ta'qib va cheklov o'rnatishdir. So'z erkinligi, fikr bildirish erkinligini har qanday cheklash demokratiyaga xilofdir. Va aksincha, senzuraning olib tashlanganligi jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari orqali istagan xabar, ma'lumot va materialni e'lon qilaveradi, degan gap emas, albatta. Masalan, «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi qonunning 5 moddasiga muvofiq jurnalist o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirishchogida davlat siri yoki qonun bilan ko'riklanadigan boshqa sirni istisno etgan xolda hujjatlar, materiallar va axborotdan foydalana olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2005 yil 28 yanvaridagi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining ko'shma majlisi nutqida beshta ustuvor vazifalaridan biri

yetib, «O'zbekistonda demokratik jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muxim sharti bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarini joriy etish bo'yicha aniqchoralarni amalga oshirishdir» deb belgilandi. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash muxim vazifalardandir.

6. Diniy tashkilotlar va birlashmalarning huquqiy maqomi.

O'zbekiston tarixida ilk bora, 1991 yil iyun oyida (01. 05. 1998 y. yangi taxrirda qabul qilindi) «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonunqabul qilingan edi. Ushbu qonunni qabul qilishdan maqsadhar bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tikod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'lik munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat edi.

Ulardan har birining o'ziga xos va mos tartib - qoidalari, hayot tarzi, dunyoqarashi, talab va ehtiyojlari mavjud. Ana shunday xilma - xillikdan va haqiqiy demokratik tamoyillardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xoxlagan diniga e'tikod qilish yoki xechqanday dinga e'tikod qilmaslik huquqiga ega», degan qoida kiritilgan (31modda).

Davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabat masalasiga ega quyidagi moddada aniqlik kiritilgan: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi» (61modda).

Konstitutsion normalarda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar masalasidagi ikki jihati yakqol ajralib turadi.

Birinchisi, din jamiyatda insonparvarlik ruxiyatini shakllanishida, yuksak madaniyat va ma'naviyat quroli beqiyos axloqiy tarbiyasi, insonlarni kamtarinlik, kamsukumlikka, xalollik, poklikka undashi kabi qadriyatlarni barcha milliy qadriyatlar qatoriga teng huquqli qadriyat sifatida tan olinganligidir.

Ikkinchidan, dindan g'arazlik yo'lida foydalanish, diniy omillardan foydalanib siyosatga, davlat ishiga aralashishhokimiyatga intilish kabi holatlarning qat'iy man etilishidir.

Bugungi kunda Respublikada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar hamda inson huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan izchil siyosat fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi bo'lgan jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini tobora oshirmoqda.

Zero, jamoat tashkilotlari o'z maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda Respublikada o'tkazilayotgan keng ko'lamli islohotlarga munosib xissa qo'shib kelmoqdalar.

Xozirgi kunda jamoat va nodavlat tashkilotlari oldida katta vazifalar turibdi. Zotan, yangi jamiyat barpo etish jarayonida xalqning bevosita faol ishtirokini ta'minlash aynan nodavlat notijorat tashkilotlari zimmasiga tushadi. Buning uchun ular yangi davr talablariga mos ish uslubi va shakllarini ildam qat'iyat bilan o'zlashtirishlari, ko'proq tashabbus tashkilotchilik ko'rsatib faoliyat yuritishlari taqozo etiladi.

GLOSSARIY.

1. Mulk - ishlab chiqarishning zarur sharti va ishlab chiqarilgan boyliklarning o'zlashtirilish natijasi.

2. Mulkni egallash huquqi - mulkni ko'lda yoki unga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirishda imkon beruvchi biron joyda saqlab turish.

3. Mulkdan foydalanishhuquqi - mulkning foydali xususiyatlarini olish, mulkdan iqtisodiy maqsadlarda foydalanish.

4. Mulkni tasarruf etishhuquqi - mulkni taqdirini belgilash.

5. Kasaba uyushmasi - ko'ngilli jamoa tashkiloti bo'lib ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab o'z a'zolarining Mehnat va ijtimoiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan Mehnatkashlar birlashmasi.

6. Siyosiy partiya - qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilganligi jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatining shakllantirishidan iborat siyosiy irodasini

ro'yobga chiqarishini intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini ko'ngilli birlashmasi.

7. Senzura - muayyan axborot berilishiga (nashr qilinishiga) to'skinlik qilish, unga nisbatan ta'qib va cheklov o'rnatish.

Nazorat uchun savollar.

1. Mulkka egalik qilish deganda nimani tushunasiz ?
2. Mulkdan foydalanish tartibi qanday ?
3. Mulkni tasarruf qilish nima ?
4. Mulk turlarini ifodalang ?
5. Jamoat birlashmalari deganda nimani tushunasiz ?
6. Davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning o'rni qanday ?
7. Jamiatda oilaning tutgan o'rni qanday ?
8. Ommaviy axborot vositalari faoliyati, huquqiy asosi nima ?
9. Diniy tashkilotlarning faoliyat tartibi qanday ?

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboiev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv qo'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
6. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998
8. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
9. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari. T. 2003.
10. A. Saidov Mustaqillik Komusi. « O'zbekiston », T., 1993
11. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
13. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. «Konstitutsonoe pravo Rossii» uchebnik M. 2001.
14. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
15. www. yandex. ru.
16. www. edu. o'z.
17. www. ziyo. net.
18. www. gov. o'z.

18 - mavzu: O'zbekiston Respublikasining milliy davlat va ma'muriy – hududiy tuzilishi.

Reja:

1. Davlat tuzilishi tushunchasi va shakllari.
2. Ma'muriy - hududiy tuzilish prinsiplari.
3. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy - hududiy va davlat tuzilishi masalalarini hal etish tartibi.
4. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqolpog'iston respublikasining huquqiy holati.

Muayyan bir davlatning ma'muriy - hududiy tuzilishini o'rganishdan ma'muriy - hududiy tuzilish tushunchasi bilan birga davlat tuzilishi shakli tushunchasiga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu tushunchalar mazmunan bir - biriga bog'lik bo'lib, har doim biri ikkinchisini taqozo etib turadi. Davlat tuzilishi davlat shaklining muhim bir turi hisoblanadi. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi.

Davlat tuzilishi shakliga quyidagi turli xil omillar ta'sir etadi:

- 1) Davlat va jamiyat oldida turgan iqtisodiy vazifalar;
- 2) Davlatdagi siyosiy kuchlarning o'zaro nisbati;
- 3) Davlat hududida istiqomat qilayotgan aholining ko'p millatliligi va o'zaro munosabati;
- 4) Davlat hududining katta yoki Kichikligi ta'sir etadi;
- 5) O'zok yillar davomida shakllangan tarixiy an'analar;
- 6) Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy ong.

Davlat tuzilishi –davlatning ma'muriy - hududiy bo'linish tamoyillari va tuzilishini hamda ma'muriy - hududiy birliklarning yuridik maqomini, davlatning markaziy organlari bilan mazkur organlarning joylardagi mahalliy organlarining o'zaro munosabatlari qanday xususiyatlardan iborat ekanligini qamrab oluvchi tushunchadir.

Milliy–davlat tuzilishi deganda davlatning tuzilishi, uning ma'muriy–hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va uning tarkibiy qismlarining hududiy holati, ularning vakolatlari harakteri va hajmidan iborat ekanligi tushuniladi.

Ma'muriy–hududiy tuzilish deyilganda davlat tuzilishi tushun - chasining tarkibiy qismi bo'lib, davlat o'z vazifa va funktsiyalarini bajarishi uchun, muayyan cheklangan hududini ma'lum bir hududiy (ma'muriy - hududiy) bo'laklarga bo'linishini tushuntirish lozim. Ushbu hududiy bo'laklarda davlat apparati mahalliy organlarining strukturasi to'ziladi. Shuning uchun davlatning hududiy tuzilishini ma'muriy - hududiy tuzilish deb ataymiz.

Davlatni hududiy jihatdan tashkillashtirish o'z maqsadi va vazifalariga ko'ra nafakat ma'muriy - hududiy, balki iqtisodiy - hududiy (masalan, erkin savdo qiluvchi hududlar), harbiy - hududiy (masalan, O'zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, markaziy, shimoliy, janubiy, g'arbiy, Sharqiy harbiy okruglar), siyosiy - hududiy (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar), ekologik - hududiy (masalan, Orol va Orol bo'yi ekologik inkiroz holatidagi alohida muhofazaga muxtoj bo'lgan yer kengligining kuruklik qismi va suv akvatoriyasi) shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Federativ davlatlarda ma'muriy - hududiy birliklar o'zining muayyan xokimiyat organlari tizimiga, Konstitutsiya va qonunchiligiga, shuningdek, hududiy ramzlariga ega bo'ladi.

Ma'muriy–hududiy birlik – davlat ma'muriy–hududiy tuzilishi tizimining mustaqil tarkibiy qismi bo'lib, bir necha pog'onada tashkil etilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi ham ko'p pog'onali ma'muriy–hududiy tuzilishga ega (viloyat, tuman, qishloq yoki ovul).

Tegishli ma'muriy –hududni alohida ma'muriy –hududiy birlik sifatida e'tirof etish uchun faqat davlat hokimiyati mahalliy organlarni tashkil etish bilan chegaralanmasdan, balki mahalliy hududning iqtisodiy – madaniy rivojlanganligi darajasi, aholining hududiy uyushishi bilan ham bog'lidir.

Davlat ichki tuzilishiga, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlariga, davlatning markaziy hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabatlarga, ma'muriy–hududiy birliklarning yuridik mavqeiga ko'ra, davlat tuzilishi odatda uchshaklga bo'linadi: unitar; federativ; konfederativ.

Unitar (frantso'zcha «unitaire» – «yagona») davlat tarkibida hechqanday davlat to'zilmalari mavjud bo'lmagan yaxlit davlatdir. Hozir jahonda eng ko'p tarqalgan davlat tuzilishshakllaridan biridir. Ular qatoriga Italiya, Yaponiya, Ukraina va boshqalar kiradi. Unitar davlatlar huquqiy jihatdan teng bo'lgan ma'muriy–hududiy qismlar (viloyatlar, regionlar, guberniya, grafiklar)ga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi ham unitar davlat hisoblanadi.

Unitar davlatlarga yagona davlat xokimiyati, oliy organlar tizimi mavjudligi;
Yagona Konstitutsiya va qonunchilik tizimiga egaligi;

Yagona fuqarolik;

Unitar davlatlarning yagona bo'linmas va dahlsiz hududga ega bo'lishi.

Markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat idoralari o'rtasidagi munosabatning xususiyatlaridan kelib chiqib, unitar davlatlar markazlashgan, nisbiy markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo'linadi.

Federativ davlat (lotincha «feodus» →«ittifok») unitar davlatga qaraganda murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning subektlari birmuncha siyosiy mustaqillikka ega bo'ladi.

Federatssiya bu davlatlar Ittifoqi bo'lib, uning tarkibiga Ittifoq hududlari bilan rasmiy cheklangan, yuridik mustaqillikka ega bo'lgan davlat to'zilmalari kiradi. Federativ davlat unitar davlatdan farq qiladi, bu farq Federatssiya tarkibiga kirgan tarkibiy qismlarning ma'muriy hududiy bo'linma emas, balki davlat to'zilmalaridan iborat ekanligidadir.

Federatssiyalarning tashkil topish asoslariga qarab ikki guruxga ajratish mumkin:

– Shartnomaga asoslangan;

– Shartnomaga asoslanmagan.

Shartnoma asosida tashkil topgan Federatssiya bu qoida ga ko'ra, bo'lajak Federatssiyaning a'zolari bo'lishi mumkin bo'lgan mustaqil davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida tashkil topgan Ittifoq davlatidir. Bunday Federatssiyalarga misol qilib, AQSH, Avstraliya va Malayziyalarni keltirish mumkin.

Shartnomaga asoslanmagan federatssiyalarda esa, davlat hokimiyati ma'muriy birliklarga kengrok huquqlarni berishi asosida, ular federatssiya subektlariga aylanadi. Bunday o'zgarish avval unitar shaklda bo'lgan davlatning ixtiyoriga binoan amalga oshiriladi. Bunday o'zgarish avval unitar shaklda bo'lgan davlatning ixtiyoriga binoan amalga oshiriladi. Bunday federatssiyalarga misol qilib Xindiston, Nigeriyalarni keltirish mumkin. Bunday federatssiyaning subektlari shartnomali Federatssiyalardan farqqilgan holda, suverenitetga ega bo'lmaydilar, ular faqat ichki suverenitetga ega bo'lmaydilar, ular faqat ichki suverenitetga ega bo'ladilar.

Davlat tuzilishi shakli sifatida Federatssiya quyidagi spetsifik belgilarga ega:

Federatssiya davlat to'zilmalaridan iborat bo'ladi;

Unitar davlatlardan farqli o'laroq federatssiya hududi yaxlit hudud sifatida e'tirof etilmaydi;

Federatssiya subektlari suveren mustaqil davlat emas, shuning uchun sessiya (ajralib chiqish huquqi) berilmaydi;

Federatssiya subektlarida umumfederal Konstitutsiya va qonunlar bilan bir qatorda o'zlarining Konstitutsiya va qonunlariga ham ega bo'lishi mumkin;

Federativ davlatlarga federatssiya fuqaroligi bilan bir vaqtda federatssiya subektlarining ham fuqaroligi mavjud bo'ladi;

Aksariyat hollarda federativ davlatlar ikki palatali parlament tizimiga ega bo'ladi (bikameralizm).

Lekin bunday federativ davlatlar yagona federal qurolli kuchlar, moliya, solik va pul tizimlariga ega bo'ladi. Federal idoralar yagona tashqi siyosatni amalga oshiradilar.

Federatssiya sharoitida eng muhim masala Federatssiya bilan uning subektlari o'rtasida kompetentsiyalarning taqsimlanishi, bo'linishi hisoblanadi va ularni uchga ajratish mumkin:

1. Federatssiyaning mutloq vakolatlari;

2. Federatssiya va uning subektlari birgalikda hal etadigan masalalar bo'yicha vakolatlar;

3. Federatssiya subektining mutloq vakolatlari.

Konfederatssiya. Xorijiy mamlakatlarning hududiy davlat tuzilishi shakllari ichida xalqaro shartnomalar asosida tashkil topgan to'zilmalar ham mavjud. Bunday davlat - hududiy to'zilmalarni konfederatssiya deb atashadi.

Konfederatssiya bu - ma'lum bir vazifani bajarish uchun birlashgan mustaqil davlatlar Ittifoqidir. Konfederatssiya Federatssiya bilan farqqilgan holda, u Ittifoq davlati emas, balki davlatlar Ittifoqi hisoblanadi. Konfederatssiya iqtisodiy, siyosiy, harbiy, bojxona va boshqamaqsadlarda tuzilishi mumkin.

Konfederatssiya o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish va a'zo davlatlarning harakatlarini

muvoqilash tiriish uchun oliy organlar tuzish i mumkin, biroq bu organlar a'zo davlatlarning hukumatlari bilan muloqotda bo'ladi, bevosita aholiga murojaat qilish huquqiga ega emas.

Undan tashqari jahon amaliyotida davlatlarning hamkorlik shakllari ham mavjuddir. Ularga quyidagilar kiradi: hamdo'stlik, hamjamiat, Ittifoqlar, uniyalar, protektorat.

2. Ma'muriy - hududiy tuzilish prinsiplari. Har qanday davlat o'z ma'muriy - hududiy tuzilishini hal etishda turli xil omillar, shart - sharoitlarni inobatga olmasdan iloji yo'q. Shuning uchun tashkil etilayotgan har qanday ma'muriy - hududiy birlik ma'lum bir prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan qonuniyatlar, ustuvor ko'rsatkichlar asosida shakllantirilishi kerak. Ushbu ma'muriy - hududiy tuzilish prinsiplari:

Iqtisodiy prinsip;

Siyosiy prinsip;

Milliy - madaniy prinsipi;

Fuqarolarning huquq erkinliklarini bir xilda ta'minlash;

Davlat apparatini ommaga yaqinlashtirish.

Iqtisodiy prinsip. Tashkil etilayotgan ma'muriy - hududiy birlikning iqtisodiy potentsialini inobatga olish lozim. Bunda tegishli hudud sanoati, qishloq xo'jaligining rivojlanganlik darajasi, shuningdek, mahalliy hudud transportining salohiyoti inobatga olinadi.

Siyosiy prinsip. Ma'muriy - hududiy birliklar davlatning siyosiy strategik maqsadlaridan kelib chiqib tuzilishi shart. Har bir ma'muriy - hududiy birlik davlat hokimiyatining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi va yagona siyosiy hokimiyatni o'rganish hamda saqlab turish uchun ko'maklashadi.

Milliy - madaniy prinsip. Ma'muriy - hududiy bo'linishda tegishli hudud aholisining milliy va etnik tarkibi, madaniyatli, ijtimoiy xususiyatlari inobatga olinadi. Davlat sarxadlarini ma'muriy - hududiy birliklarga ajratib, chegaralarini belgilashda bir millatga mansub aholini har xil ma'muriy - hududiy birlikda qolib ketmasligi ta'minlanib, ularning o'z madaniyati, urf - odatlari va tilini saqlab qolish uchun sharoit yaratiladi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini bir xilda ta'minlash. Ma'muriy - hududiy tuzilishni amalga oshirishda, fuqarolar uchun teng demokratik sharoitlarni ta'minlab berish va ularning extiyojlarini qon dirish, prinsiplari va omillarini hamhisobga olinadi. Mazkur prinsip har bir ma'muriy - hududiy birlikda madaniy - okartiv, tibbiy, savdo, maishiy xizmat mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Davlat apparatini ommaga yaqinlashtirish. Ushbu prinsipning mazmuni aholi katlamini davlat boshqaruviga keng jalb etish, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi aloqani mustaxkamlashdan iborat bo'lib, davlat boshqaruvini osonlashtiradi.

3. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy - hududiy va davlat tuzilishi masalalarini hal etish tartibi. Har bir mustaqil va suveren davlatlar singari O'zbekiston Respublikasi ham o'z ma'muriy - hududiy va davlat tuzilishiga oid masalalarni mustaqil hal etadi. O'zbekiston Respublikasi uch pog'onali ma'muriy - hududiy bo'linishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI bobida O'zbekiston Respublikasining ma'muriy - hududiy tuzilishini tartibga soluvchi normalar mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 68 - moddasida «O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Korakalpogiston Respublikasidan iborat» ekanligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 69 - moddasida «Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shaxrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi» deyilgan.

Viloyat - ma'muriy - hududiy birlik sifatida o'rta asrlardan ma'lum. Sharqning ayrim mamlakatlari (Afg'oniston, Turkiya va boshqalar), shuningdek O'rta Osiyo xonliklari tarixda viloyatlarga bo'lingan. O'zbek tili davlat tiliga aylanishi bilan tarixiy ma'muriy - hududiy birlik nomi sifatida viloyat so'zi qayta tiklandi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy - hududiy tizimidagi eng yuqori bo'g'indir va eng yirik bo'linma sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'muriy - hududiy birliklarning qolgan

bo'g'inlari - tuman, shahar, shaharcha, qishloq, ovul, viloyatlarning tarkibiy qismlari, ichki bo'g'inlari bo'lib, shu tariqa u muhim tashkiliy funktsiyani bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 68 - moddasiga muvofiq tuman ma'muriy - hududiy bo'linish pog'onalaridan bo'lib, o'rtancha bo'g'in hisoblanadi. Tuman davlat yuqori organlarining ko'rsatmalari, qarorlarini hayotga tatbiq etuvchi va bajaruvchi asosiy ma'muriy - hududiy birlik. Tumanlar hududiy joylashishi nuqtai nazariga ko'ra ikki xil: qishloq tumani va shahar tumanlariga bo'linadi. Qishloq tumanlari ma'lum bir viloyat tarkibiga kiruvchi ma'muriy - hududiy birlik hisoblansa, shahar tumanlari esa yirik shaharlar tarkibida tashkil etiladi (masalan, Toshkent shaharidagi Yunusobod tumani). Tumanlarni tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi. Tumanlarga tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadigan hamda tuman xalq deputatlari Kengashida Tasdiqlanadigan tuman hokimi Rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasida tumanlarni tuzish va tugatish yuqoridagi qonunga ko'ra tegishli viloyat va Toshkent shaxri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tumanlariga nom berish va ularni o'zgartirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo'rg'ori Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shahar deganda ko'pchilik aholining ma'daniylashgan holda o'zaro zich yashaydigan hududi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasidagi shaharlar uch toifaga ajratiladi:

- Respublikaga bo'ysunuvchi;
- Viloyatga bo'ysunuvchi;
- Tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlarga bo'linadi.

Respublika bo'ysunuvidagi shaharlar toifasiga aholisi 500 ming kishidan ortiq iqtisodiy, ma'daniy, ma'muriy markaz bo'lgan shaharlar kiradi. Bunday shaharlar turkumiga hozircha yagona Toshkent shaxri kiradi.

Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga qoida tariqasida, kamida 30 ming aholisi bo'lgan, muhim - ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va ma'daniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin (Buxoro va Qo'qon shaharlari).

Shaharlarni viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalar turkumiga sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stantsiyalari va boshqa muhim ob'ektlar yaqinida joylashgan hamda kamida 2000 ming aholisi bo'lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin. O'zbekistonda hozirgi kunda 106 ta shaharchalar mavjud.

Qishloqlar - O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy bo'linishning quyi bo'g'inlaridan biridir. Ushbu ma'muriy hududiy bo'linishning quyi bo'g'inini qishloq deb nomlash tarixiy qadriyatimizda amalga ifodalashning yorqin misolidir. Shahar hududlariga kirmaydigan, ma'lum aholi soniga ega bo'lgan qishloq markazlari va ma'lum sanoat ob'ektlari atrofida istiqomat qiluvchi aholining yashash joylari qishloqlar bo'lib hisoblanadi.

Ovullar - esa qishloqlarga qaraganda Kichikroq xajmdagi yashash va turar joylardan iborat bo'lgan aholi punktlaridir. O'zbekistonda hozirgi vaqtda 1427 ta qishloq va ovullar mavjud.

Qishloqlar, ovullarni tuzish va tugatish tegishli tuman hokimlarining tegishli iltimosnomasiga binoan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Jo'rg'ori Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomi alohida bobda mustahkamlangan (XVII - bob) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya - sining 70 - moddasida «Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi» deyiladi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1 - moddasida «Qoraqalpog'iston - O'zbekiston Respublikasi tarkibiga

kiruvchi suveren demokratik Respublikadir» deb mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71 - moddasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmasligi ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash joizki, sobiq Ittifoq davrida avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo'lsa, o'sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan Tasdiqlanishi shart edi. O'zbekiston o'z mustaqilligini ko'lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo'ydi. Qoraqalpog'iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasining bir butun yaxlitligi mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73 - moddasida «Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy - hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi» deyiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlar, shahar, shaxrchalar, ovullardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Davlat siyosatiga mos holda o'z siyosatini yurgizadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi bo'linmas va daxlsizdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ramzlariga egadir.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat bayrog'i 1992 - yil 14 - dekabrda qabul qilingan;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat gerbi 1993 - yil 9 - aprelda qabul qilingan;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat madhiyasi 1993 - yil 14 - dekabrda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 74 - moddasi Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun muhim siyosiy mazmun kasb etadi. Unda «Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumida ajralib chiqish huquqiga ega»ligi mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75 - moddasida ular o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlangan bo'lib, unda shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar orqali» tartibga solinadi. Hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan masalalardan biri –O'zbekiston bilan Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi turli sohalarda, ayniqsa iqtisodiy masalalarda o'zaro munosabatlarni keng tarmoqda rivojlantirishga erishishdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi.

GLOSSARIY

1. Davlat tuzilishi - davlatning ma'muriy hududiy bo'linishi tamoyillari va tuzilishini hamda ma'muriy birliklarning yuridik maqomi.
2. Unitar - Davlat tarkibida hechqanday davlat to'zilmalari bo'lmagan yaxlit davlat.
3. Avtonomiya - davlatning muayyan qismining ichki o'zini - o'zi boshqarishi.
4. Federativ - davlatlar Ittifoqi bo'lib uning tarkibiga Ittifoquhuquqlari bilan rasmiy cheklangan, yuridik mustaqillikka ega bo'lgan davlat to'zilmalari.
5. Konfederatsiya - ma'lum bir vazifani bajarish uchun birlashgan mustaqil davlatlar Ittifoqi.

Nazorat uchun savollar.

1. Davlat shakllari deganda nimani tushunasiz ?
2. Ma'muriy hududiy tuzilish deganda nimani tushunasiz ?
3. Unitar davlat ko'rinishlarini ko'rsating ?
4. Avtonomiya nima ?
5. Konfederativ davlat belgilarini ayting ?
6. O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi qanday ?
7. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomini ayting ?

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv qo'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
6. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998
8. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
9. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari. T. 2003.
10. A. Saidov Mustaqillik Komusi. « O'zbekiston », T., 1993
11. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
13. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. «Konstitutsonnoe pravo Rossii» uchebnik M. 2001.
14. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
15. www. yandex. ru.
16. www. edu. o'z.
17. www. ziyo. net.
18. www. gov. o'z.

19-Mavzu O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va saylov tiimi.

1. Saylovlar – demokratik institut sifatida
2. Demokratik islohatlar va saylov qonunchiligi. O'zbekistonda saylov qonunchiligining rivojlanish bosqichlari
3. Konstitutsiya - saylov qonunchiligi tizimining o'zagi
4. Xalqaro andozalar va O'zbekiston saylov qonunchiligining xususiyatlari
5. Saylovlar bo'icha xalqaro tamoyillar
6. Saylov tizimi tushunchasi va asosiy printsiplari .Saylovlar va ularni o'tkazish tartibi.

Saylov huquqi tushunchasi va uning konstitutsiyaviy kafolatlanishi

Demokratiyaning eng muhim tamoyili – odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim. Hozirgi kunda O'zbekistonda xalqaro huquq andozalari va talablariga va ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratildi. Asosiy maqsad amaldagi qonunlarni hayotga tatbiq qilish mexanizmlarini yaratishdir.

O'zbekistonda saylov qonunchiligining rivojlanishi, avvalambor, fuqarolarning aktiv va passiv saylov huquqlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan.

O'zbekistonda saylov huquqidan foydalanishning huquqiy protseduralari va texnikasi takomillashtirildi. Bu fuqarolarning saylov huquqidan foydalanish madaniyati darajasiga bog'liqdir. Saylov huquqi har bir fuqaro uchundir. Undan to'liq foydalanish imkoniyatlarini yaratish saylov qonunchiligining asosiy maqsadidir. O'zbekistonda nafaqat saylov qonunchiligi yangilandi, saylov qonunchiligida xalqaro standartlar to'lao'z aksini topdi.

O'zbekistonda fuqarolarning saylov madaniyati milliy turmushimiz tarziga aylanib bormoqda. Demokratik islohatlar va saylov qonunchiligi Saylov qonunchiligi va amaliyoti O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohatlarning tarkibiy qismidir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgartishlarning mantiqi, tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, asta-sekinlik va bosqichma bosqich harakatqilishva islohatlarni amalga oshirish;

ikkinchidan, demokratik o'zgarishlar darajasining xalq ruhiyatiga, mentalitetiga mosligi;

uchinchidan, tarixiy-milliy tajribaga tayanish;

to'rtinchidan, xalqaro huquq andozalari va talablarini e'tiborga olish;

beshinchidan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olish.

Shuning uchun, yangi saylov qonunchiligi va amaliyoti taraqqiyotini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik siyosiy va huquqiy islohatlarning uzviy tarkibiy qismi deb qarash kerak.

O'zbekiston saylov qonunchiligining asosiy maqsadi: samarali, ishchan, professional vakillik organlarini saylash va yuqori fuqarolik va huquqiy madaniyatli saylovchilarni shakllantirishdir.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda saylov qonunchiligi uch bosqichni bosib o'tdi.

Birinchi bosqich: bir palatali parlamentga saylovlar bosqichi, ya'ni bu bosqich Sobiq Ittifoq davridan boshlangan bo'lib, to 2004 yilga qadar davom etgan. Bu bosqichda ilk bor O'zbekistonda muqobil (alternativ) ko'ppartiyaviylik asosida Prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi va saylovlar to'risidagi bir qator qonunlar qabul qilindi.

Bu bosqichda Konstitutsiyada saylov tizimining asoslari mustahkamlandi, saylovlar to'risidagi qonunlar asosida, ko'ppartiyaviylik asosida birinchi marta o'zbek parlamenti – Oliy Majlis saylandi.

Ikkinchi bosqich: ikki palatali parlamentga saylovlar bosqichi, ya'ni 2004 yildan boshlandi. Bu bosqichda amaldagi saylov qonunlari asosan Oliy MAjlis qonunchilik palatasi va Senatiga saylovlar bo'lib o'tdi. O'zbekistonda saylov tizimi har bir bosqichda huquqiy asosda amalga oshirildi va jamiyatda, davlatda muayyan institutsiyaviy o'zgarishlar bilan davom ettirildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi saylov qonunchiligi tizimi yaratildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning yangi saylov qonunchiligi tizimi nafaqat bevosita saylov to'risidagi qonunlarni, balki saylovlarga bevosita taaluqli yana bir qator qonunlarni o'z ichiga oladi.

Konstitutsiya - saylov qonunchiligi tizimining o'zaiini, yadrosini, umurtqasini tashkil etadi.

Saylov qonunchiligi tizimiga, ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'risidagi qonun; uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'risidagi qonun; to'rtinchidan, xalq deputatlari viloyat, tuman va shaharkengashlariga saylov to'risidagi qonun; beshinchidan, Markaziy saylov komissiyasi to'risidagi qonun; oltinchidan, fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'risidagi qonun kiradi.

Sanab o'tilgan 5 ta qonun bevosita saylovlarga bag'ishlangan qonunlardir. Ularni bevosita saylov to'risidagi qonunlar deb atash mumkin.

Bundan tashqari saylov qonunchiligi tizimiga yana bir qator boshqa qonunlar kiradi. Bu ikkinchi guruh qonunlarning huquqiy tartibga solish predmeti bevosita saylovlar bo'lmasada, ular saylovlarni u yoki bu jihatlarini tartibga soladi. Bunday qonunlar jumlasiga quyidagilar kiradi: "Ommaviy axborot vositalari to'risida"gi qonun, Ma'muriy huquqbuzarlik to'risidagi kodeks, Jinoyat Kodeksi, "Siyosiy partiyalar to'risida"gi qonun, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'risida"gi qonun, "Jamoat birlashmalari to'risida"gi qonun, "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'risida"gi qonun, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'risida"gi qonun, "Prokuratura to'risida"gi qonun, Fuqarolik protsessual Kodeksi. Yana shu kabi bir qator qonunlarni saylov qonunchiligi tizimiga kiritish mumkin.

Demak, O'zbekiston saylov qonunchiligi tizimi ikki guruh qonunlardan tashkil topadi: birinchisi, Konstitutsiya va bevosita saylov to'risidagi qonunlar; ikkinchisi, u yoki bu jihatdan saylov masalalarini tartibga soladigan qonunlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida saylov tizimiga bag'ishlangan maxsus XXIII

bob bor va u «Saylov tizimi» deb nomlanadi. Bunday bob ko'pgina davlatlar Konstitutsiyalarida yo'q. Saylov huquqiga bag'ishlangan Konstitutsiyaning 118-moddasi katta ijodiy salohiyatga egadir. Bu modda ma'lum sharoitlar etilganda tegishli qonunlar qabulqilishyo'li bilan harakatga keltirilmoqda.

Aristotel aytganidek, huquqfuqarolarning etukligidan oldinda boradi, lekin fuqarolarning etukligi huquqni tatbiqqilishni ta'minlaydi.

Saylov huquqi – bu huquqning kompleks sohasi bo'lib, konstitutsiyaviy huquq normalaridan tashqari, ma'muriy, jinoiy va boshqa huquq sohalari normalarini o'z ichiga oladi. Saylov huquqining rivojlanishi o'zbek milliy huquqiy tizimining taraqqiyot qonunlariga to'la mos keladi.

Hozirgi zamon O'zbekiston saylov qonunchiligi xalqaro andozalarga to'la mos keladi. O'zbekiston saylov qonunchiligining eng birinchi va asosiy xususiyati – bu uning umum e'tirof etilgan xalqaro andozalarga mosligidir.

Saylovlar to'risidagi jahon andozalari (standartlari) quyidagixalqarohujjatlarda o'z aksini topgan.

Birinchidan, Inson huquqlariga oid BMTning xalqarohujjatlarida. Bu Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolarning shaxsiy va siyosiy huquqlari to'risidagi xalqaro pakt (1966).

Ikkinchidan, EXHTning insoniylik mezonlariga oid hujjatlarida. Bulardan eng asosiysi 1990 yilgi Kopengagen anjumani hujjatlaridir.

Uchinchidan, Parlamentlararo Ittifoqhujjatlari. Bu Ittifoqqa 145 davlat a'zo, shu jumladan O'zbekiston ham. Parlamentlararo Ittifoq Kengashi 1994 yilgi Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'risida Deklaratsiya qabulqilgan.Ushbu xalqarohujjatlarda demokratik saylovlarning 4 ta umum e'tirof etilgan printsiplarga asosan o'tkazilishi ko'rsatilgan. Bu printsiplar quyidagilardan iborat:

Umumiy saylov huquqi;

Teng saylov huquqi;

To'g'ri-to'g'ri saylov huquqi;

Yashirin ovoz berish huquqi.

Bu 4 printsipl O'zbekistonning Konstitutsiyasi va saylov to'risidagi qonunlarida to'liqligicha o'z aksini topgan.

O'zbekiston saylov qonunchiligi va tizimining ikkinchi muhimxususiyati Markaziy saylov komissiyasi to'risidagi qonunning mavjudligi va Markaziy saylov komissiyasi tarkibining tuzilganligidir. Markaziy saylov komissiyasini tuzishlik Parlamentlararo Ittifoq Kengashi qabulqilgan Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'risidagi Deklaratsiya talablaridan kelib chiqadi. Markaziy Saylov komissiyasi saylovlarni o'tkazuvchi asosiy tashkilotchidir. U fuqarolarning saylov huquqini to'liq amalga oshirishning garovidir.

Jahon amaliyotida saylovlarni tashkil etishning to'rtta turi bor.

Birinchisi, saylovlar hukumat tomonidan tashkil etiladi. Masalan, Germaniyada saylovlarni Ichki ishlar vazirligi tashkil etadi. Saylov uchastkalarida ishlovchi mansabdor shaxslar davlat xizmatchilari orasidan tanlanadi.

Ikkinchisi, saylovlar sud organlari tomonidan tashkil etiladi. Masalan, Pokistonda Markaziy saylov komissiyasi Oliy va boshqa sudlar raislari tomonidan tanlangan uch sudyadan iborat bo'ladi.

Uchinchisi, ko'ppartiyaviy yondashuv bo'lib, manfaatdor siyosiy partiyalar o'z vakillarini Markaziy saylov komissiyasiga tayinlaydilar.

To'rtinchisi, mustaqil Markaziy saylov komissiyasini tuzishdir. O'zbekiston aynan shu to'rtinchi turdagi Markaziy saylov komissiyasi tuzish yo'lini tanladi.

O'zbekistonda 1998 yili 30 aprelda qabulqilingan Markaziy saylov komissiyasi to'risidagi qonunda ushbu komissiyani tuzish, uning vakolatlari va ish tartibi batafsil tartibga solingan.

O'zbekiston saylov qonunchiligining o'ziga xos xususiyati – bu saylov kompaniyasi jarayonida fuqarolar tashabbuskor guruhining tashkil etilishidir. Bu saylov huquqini va

qonunchiligini demokratlashtirishga qaratilgan muhim ?adamidir. Saylov huquqida bu yo'l bilan fuqarolar huquqi siyosiy partiyalar bilan tenglashtirildi. Saylov kompaniyasining barcha bosqichlardagi fuqarolar tashabbuskor guruhlarining huquqlari Oliy Majlisga saylovlar to'risidagi qonunning mustahkamlangan..

O'zbekiston saylov qonunchiligining yana bir xususiyati – bu o'zini-o'zi boshqarish organlarining saylov jarayonlaridagi ishtiroki. Bu – O'zbekistondagi demokratlashtirish jarayonining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari saylov huquqi sub'ektiga aylandilar. Bu bizning huquqiy hayotimizdagi yangilikdir.

Saylov qonunchiligimizning yana bir, o'ziga xos xususiyati – bu Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatligiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni bevosita fuqarolar tomonidan ko'rsatilishidir. Bu modda klassik Rim huquqi talablaridan kelib chiqadi. Endilikka nomzodlarni ikkita sub'ekt ko'rsatadi

Siyosiy partiyalar.

Saylovchilarning tashabbuskor guruhlari.

Saylov huquqiga ega harbir fuqaro 300 kishidan kam bo'lmagan tashabbuskor guruh tuzishi mumkin. Bu fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim ?adamdir.

Saylovlar to'risidagi qonunlarda yana bir qatoro'ziga xos xususiyatlari bor. Ular xalqaro standart va me'yor talablarga to'liq javob beradi.

Saylovlar bo'yichaxalqaro tamoyillar quyidagilar.

Birinchisi, umumiylik tamoyili deyilganda ham saylovchilar uchun, ham nomzodlar uchun kamsitishlikdan holi bo'lgan samarali, g'arazsiz qayd etishlik tushuniladi. Yoshi etgan fuqarolar saylovlarga qatnashish huquqiga ega bo'lishlari lozim. Bu huquqlarning de facto fuqarolarga aloqadorligi qo'llab-quvvatlanadi.

Ikkinchisi, tenglik tamoyili barcha ovozlar teng vakolatni ta'minlash uchun teng salmoqqa ega bo'lishini talab etadi. Bu qol ovoz berishning majoritar tizimida turli saylov okruglaridagi saylovchilar miqdori orasidagi farq 10% dan ortiq bo'lmasligi lozim. Proportsional vakillik tizimida saylov uchastkalaridagi saylovchilar miqdori turlicha bo'lishi mumkin, lekin harbir okrugdan vakillar miqdori saylovchilar miqdoriga proportsional bo'lishi kerak. Saylovchilar saylov uchastkalarida tenglik va samarali asosda bo'lishlari lozim.

Uchinchisi, Adolatlilik tamoyili saylov jarayoni barcha qatnashchilari uchun teng sharoitlarni, lekin kamida, u saylovchilarni barcha nomzodlar va ularning programmalari xususidagi axborotga ega bo'lishlarini ta'minlashi kerak.

To'rtinchisi, yashirinlik tamoyili shu vaqtga ta'minlanishi mumkin, qachonki, faqat saylovchilar byulletenni tashlash yopiq xonada, to'ldirilgan byulleten saylov qutisiga tashlanish jarayonida ko'rib qolinmaydigan sharoitda tashlangan taqdirdagina ta'minlangan bo'lishi mumkin.

Beshinchisi, erkinlik tamoyili fuqarolarga o'z saylashligini qo'rquv tufayli amalga oshirmasligi, shuningdek ularning o'zining namoyon etishi, yi assosatsiyalarda qatnashish erkinligi huquqi butun saylov jarayoni mobaynida amal qilinishiga bo'lgan ishonchni ta'minlash lozim.

Oltinchisi, oshkoralik tamoyilida barcha uchun umumiy va oshkoralik tamoyillari asosida qonunga muvofi ? Tarzda saylovlar o'tkazishni ko'zda tutadi. Oshkora jarayon saylov vaqtida aldashlik imkoniyatlarini cheklaydi; shunday qilib, ovozlarni sanash saylov uchastkasi darajasidan boshlanib, saylov komissiyasi o'rta bo'g'inida davom etib davlat saylov hokimiyatida tugallanguncha oshkora va tasdiqlay olinadigan bo'lishi shart.

Ettinchisi, ma'sullik tamoyili barcha saylanuvchilar o'zlari saylangan lavozimni egallar ekanlar, saylovchilar oldida o'z mas'uliyatlarini tan olishlari lozim.

Saylov huquqi tushunchasi va uning konstitutsiyaviy kafolatlanishi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng muhimsiyosiy huquqlaridan biri davlat vakillik organlariga saylash va saylanish huquqidir (Konstitutsiyaning 117-moddasi). Fuqarolar ushbu huquqorqali davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali davlatning

eng muhimsiyosiy masalalarini muhokama qilishva hal etishda faol ishtirok etadilar (Konstitutsiyaning 32-moddasi).

Saylov tushunchasi vakillik organi ovoz berish yo'li bilan tashkil toptirish tartibidir. Vakillik organlarini saylash jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar saylov huquqi deb ataladi.

Saylov huquqi tushunchasining yana bir ma'nosi ham bor. Bu tushuncha fuqaroning saylovdagi ishtiroki, vakillik organlariga saylash va saylanish kabi sub'ektiv huquqini ta'riflab berish uchun ishlatiladi.

Aktiv saylov huquqi fuqaroning saylash, vakillik organlarini saylashda bevosita qatnashish huquqini bildiradi. Passiv saylov huquqi –saylanish huquqidir. Professor A.Saidov ta'kidlashicha «Saylov huquqi» tushunchasi va iborasi ikki ma'noda ishlatiladi deb izohlaydi. Birinchisi, bu saylov huquqi saylov qo'yiladigan davlat organlarini shakllantirishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tizimidir. Saylov huquqining manbalari Konstitutsiya, davlatning oliy va mahalliy vakillik organlariga saylovlar haqidagi qonunlardir. Ikkinchisi, bu saylov huquqi fuqarolarning saylab qo'yiladigan organlarini tuzishda qatnashish, ya'ni unga o'zlarining saylanish (passiv saylov huquqi) va ularning tarkibini saylash (faol saylov huquqi) huquqlaridir.»

Davlat organlari o'zining tuzilish tartibi jihatidan turli xususiyatlarga egadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq ? davlatning ba'zi organlari saylanadi, boshqalari tuziladi. Davlat hokimiyati organlariga o'tkaziladigan saylovlar demokratik asosda o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat vakillik organlariga saylovlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'risida»gi qonunlar tashkil qilinadi va o'tkaziladi.

Davlatdagi eng muhimmasalalarning fuqarolar xohish-irodasi bilan hal etilishi demokratiyaning yaqqol namoyon bo'lishidir. Davlat hokimiyatini shakllantirishda saylovlar va demokratik tamoyillar muhimahamiyatga ega. O'zbekistonda eng muhimmasalalarning asosan referendum yo'li bilan hal etilishi bevosita demokratiya namunasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIII bobida fuqarolarning saylov huquqi kafolatlanishi alohida mustaqamlangan. Konstitutsiyaning 117-moddasida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar .harbir saylovchi bir ovozga ega. O'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layo'atsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqaharqandayqollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.»

Saylov tizimi tushunchasi va asosiy printsiplari

Saylovlar fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb qilishning eng muhimshakllaridan biridir.

Saylov tizimi tushunchasi – davlatning demokratik yoki demokratik emasligini ko'rsatuvchi asosiy omildir. Professor A.Saidov «Saylov tizimi tushunchasi» bu fuqarolik jamiyatida davlatning vakillik organlarini saylash yo'li bilan yuzaga keluvchi davlat jamoat munosabatlari tizimidirdeb fikr bildiradi.

Saylov tizimining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

Birinchisi: umumiy saylov huquqi printsipti. Bu printsipt shundan iboratki, O'zbekistonning 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolari saylash huquqiga egadirlar, aqldan ozganligi qonunda

belgilangan tartibda aniqlangan fuqarolar bundan mustasnodir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida o'n yil O'zbekiston hududida muhimyashagan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin.

O'zbekistonning 25 yoshga to'lgan fuqarosi Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatligiga saylanishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga deputatlar saylovi umumiydir. Saylov kunigacha 21 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar.

Saylovda qatnashish uchun yosh senzidan boshqa cheklovchi senzlarning yo'qligi saylov huquqining chinakam va real umumiyligini ko'rsatadi. Bu huquq demokratiyaning eng muhimprintsipilariga - xalq suverenitetiga, O'zbekiston fuqarolarining huquqiy jihatdan tengligiga asoslanadi. Aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan shaxslarning mustasno qilinganligi tamomila tabiiy va qonuniyatli bir qoldir. Buning boisi shuki, bunday shaxslar o'z harakatlari to'risidao'zlariga hisob berolmaydilar va saylovda qatnashish huquqidan ongli ravishda foydalana olmaydilar. O'zbekistonda saylovda qatnashish uchun yosh darajasi oqilona kamaytirilib, 18 yosh qilib belgilangan.

Saylovda qatnashish uchun boshqa senzlar yo'qligi O'zbekistonda keng xalq ommasi saylovlarda faol qatnashish imkoniyatiga egadir. Masalan, 1999 yil 5 dekabrda Oliy Majlisga o'tkazilgan saylov vaqtida saylovchilarning 95,03 foizi ovoz berishda ishtirok etdi.

2004 yilning 26 dekabrda mamlakatimizda ilk bor O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamenti – Oliy Majlisning qonunchilik palatasiga saylovlar bo'libo'tdii. Mazkur saylovlarda yuqoridagi partiyalar O'zlarining deputatlikka qo'ygan nomzodlari uchun kurash olib boradilar.

Umumiy saylov huquqi O'zbekistonning barcha fuqarolariga nisbatan joriy etiladi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston hududida yashovchi ajnabiylar saylovda qatnashish va vakillik organlariga saylanish huquqiga ega emas. Umumiy saylov huquqi O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida, kasalxonalarda, tug'ruqxonalarda, sanatoriylarda va boshqa shifoxonalarda, kemalarda, yirik temir yo'l stantsiyalarida, aeroportlarda va shu singarilarda saylov uchastkalarini tashkil etish yo'li bilan ham ta'minlanadi.

Saylov dam olish kuni o'tkaziladi. Xalq deputatlariga saylov bilan bog'liq xarajatlar davlat hisobidan bo'lib, bu qoida saylov to'risidagi qonunlarda mustahkamlab berilgan. Saylov o'tkazish uchun eng yaxshi jamoat binosi ajratib beriladi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishiga hech narsa xalaqit bera olmaydi.

qonunda fuqarolarning saylov huquqlarini buzganlikda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Umumiy saylov huquqining keng kafolatlanganligi fuqarolarning ovoz berishda deyarli yoppasiga ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Ikkinchisi: teng saylov printsipi. Saylov tizimining demokratik mohiyati saylovning umumiy bo'lishida, ya'ni barcha fuqarolarning saylovda ishtirok etishidagina emas, shuningdek saylovning teng bo'lishida hamdir. Umumiy va teng saylov printsiplari o'zaro chambarchas bog'liqbo'lib, bir-birini to'ldiradi. Umumiy saylov bo'lmasa, teng saylov ham bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 117-moddasida hamda "Oliy Majlisga saylov to'risida"gi qonunida "harbir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqi va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar teng saylov huquqiga egadirlar", deb belgilangan.

Saylov huquqining tengligi, saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi va ovoz berishi bilan ta'minlanadi.

Uchinchisi: to'g'ridan-to'g'ri saylov printsipi. O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy va teng bo'libgina qolmay, shu bilan birga to'g'ridan-to'g'ri hamdir, ya'ni vakillik organlarga deputatlar to'g'ridan-to'g'ri saylanadi, xalq deputatlarining barcha vakillik organlarga fuqarolar bevosita saylaydilar. To'g'ridan-to'g'ri saylov to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan saylovdan shu bilan farq qiladiki, birinchi qolda deputat saylovchilar tomonidan bevosita xohish-irodalarini erkin

ifoda etishlari yo'li bilan saylanadi.

To'g'ridan-to'g'ri saylovlarning joriy etilishi saylovchilarning deputat bilan bevosita aloqasini kuchaytiradi. To'g'ridan-to'g'ri saylov ko'p bosqichli saylovdan shu bilan farq qiladiki, bunda saylovchilar o'z deputatini yaqin biladilar, undan hisob berib turishini talab qila oladilar.

To'rtinchisi: yashirin ovoz berish printsiplari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlariga saylovlar yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Saylovchilarning saylovlarda yashirin ovoz berishlari demokratiyani amalga oshirish shakllaridan biridir. Zero, bunday ovoz berishda huquqlar o'z xohish-istaklarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Konstitutsiyada saylov huquqining printsiplarining mustahkamlanishi O'zbekiston Respublikasida saylovchilar uchun barcha imkoniyatlarning yaratilganligi, ularning saylovlarda qatnashish huquqlari hech qanday senzlar bilan cheklanmaganligi va fuqarolarning davlatni idora etishda aktivligi oshganligining yaqqol namunasidir.

Saylovlar va ularni o'tkazish tartibi

2002 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan referendum natijasida O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyatini amalga oshirilishida muhimo'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II-chaqiriq, sakkizinchi sessiyasida, «Referendum yakunlari hamda davlat hokimlari tashkil etilishining asosiy printsiplari to'risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yAQSHanbasida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov muddatlari bir paytga to'g'ri kelib qolgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi.»

YAQSHanba kuni saylov kuni deb belgilanishi ham aksariyat davlatlarda ma' ?ullangan. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligi saylovni yAQSHanba yoki ish kuni hisoblanmagan kunda o'tkazishni taqazo etadi. Chunki, yAQSHanba kuni saylovchilarning deyarli barchasi o'zlarining doimiy istiqomat joylarida bo'lib, saylov uchastkalari saylovchilarning doimiy yashash joyini hisobga olib, tashkil qilinadi.. Saylovni ish kuniga to'g'ri kelishi ularning ham, davlatning ham iqtisodiy manfaatlarini biroz bo'lsada cheklashi mumkinligi e'tiborga molikdir. qolaversa, mehnatkashlarning individual manfaatlarini hamhisobga olib saylovning yAQSHanba kuni o'tkazilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Uchinchi o'n kunlikning birinchi yAQSHanbasi dekabrning quyidagi rahamli kunlariga to'g'ri keladi: 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27.

Demak, saylovlar yangi yil kirib kelishidan kamida 4 kun oldin o'tkazaladi.

Konstitutsiyaviy qonun davlat boshliqi hamda vakillik organlari saylanadigan vaqtni bir davrda bo'lmasligini ta'minlashga qaratilgan ushbu sa'i-harakatdan ko'zlangan maqsad quyidagilarda ifodalanadi:

birinchidan, ma'lum bir shart-sharoitlarda shakllangan kayfiyat ta'sirida bo'lgan saylovchilar bir vaqtda ham ijro hokimiyatiga boshchilik qilishlozim bo'lgan Prezidentni va davlat hokimiyatining vakillik organlari deputatlarini tanlab olishi orqali vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy qolatlarni oldini olishga qaratilgan. Chunki, ma'lum davrdagi shart-sharoitlar masalan davlat xavfsizligini ta'minlash tabiiy sharoitlar va iqtisodiy muammolar yuzaga kelgan davrlardagi saylovlar salbiy o' ?ibatlarni yuzaga keltirishi mumkin;

ikkinchidan, turli davrda shakllangan hokimiyat tarmoqlari turli siyosiy-huquqiy-falsafiy fikrlarga ega bo'lib mavjud muammolar echimini topishga turlicha yondoshishlari tufayli jamiyat va davlat hayotini rivojiga ijobiy ?issalarini ko'shadigan muqobil tizim yarata oladi;

uchinchidan, hokimiyat bor joyda muqolif kuchlar mavjudligini hisobga olsak, muqolifat ham u yoki bu hokimiyat tarmoqidan o'rin olishga doimiy harakat qiladi;

to'rtinchidan, demokratik mamlakatlarning davlatchilik tajribasi shuni ko'rsatadiki, hokimiyat tarmoqlarining turli davrlarda shakllanishi hokimiyat taqsimlanishi va ularning birini-biri tiyib turish hamda muvozanatda ushlab tamoyilini ta'minlashiga qaratilgan tadbirlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, saylov o'tkazish muddatlarini aniq belgilash demokratik jarayonlarni uzluksizligini ta'minlaydi, xalqimizning siyosiy huquqiy qarashlarini yanada kengaytiradi, pirovardida saylovlar natijasiga bog'liq orzu istaklarimizni ro'yobgachiqishida amaliy yordam beradi. Shuningdek, «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning 6-moddasida hamda « Oliy Majlissalovi to'risida»gi qonunida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqoripalatasi Senatning tashkil etilish printsiplari mustahkamlangan:

«Senat hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) tarkib topadi.

Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadilar. Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan va alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muhimyashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin.

Senatning vakolat muddati – besh yil.»

Mazkur moddaga binoan Oliy Majlisning yuqoripalatasi Senat deb nomlandi. «Senat» termini yuridik atama sifatida ko'pchilikka tanish. Deyarli barcha ilmiy, siyosiy, huquqiy adabiyotlarda parlamentning yuqoripalatasi Senat deb nomlanadi. AQSh, Frantsiya, Italiya kabi davlatlar parlamentlarining yuqoripalatasi ham rasman «Senat» nomi bilan ataladi.

Senat – yuqoripalata sifatida barcha federativ davlatlarda mavjud, u federatsiya sub'ektlarining vakillaridan iborat tarzda tuzilib, parlamentning mustaqil tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi. Avvalo AQSh davlat tarixida ilk bor, federatsiya sub'ektlarining manfaatini himoya qilish maqsadida tuzilgan parlamentning yuqoripalatasi keyinchalik boshqa federativ davlatlar parlamentlarining tashkil etilishida namuna bo'ldi. Unitar davlatlarning aksariyat ko'pchiligida ma'muriy-hududiy birliklarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida, yuqoripalata - Senat hududiy birliklarning vakillaridan iborat tarzda tuziladi. Bunga Italiya, Frantsiya davlatlarining parlamentlari misol bo'la oladi.

Oliy Majlis Senatining tashkil etilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning harbiridan vakil qilib yuboriladigan a'zolaridan iborat qolda tuziladi. harbir ma'muriy-hududiy birlik, tenglik tamoyili asosida o'zlarining olti nafardan iborat vakillarini Senat a'zoriga taqdim etadi.

Senatga saylanadigan a'zolar nomzodini ko'rsatuvchi organlar, faqato'z tarkibiga kirgan deputatlar orasidan Senat a'zoriga nomzod tanlab olish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Demak, saylov asosida senator bo'ladigan shaxs, avvalo tegishincha tuman, shahar, viloyat yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati bo'lishi lozim.

Senat a'zoriga nomzod harbir viloyatda tegishincha viloyat hamda shu viloyat hududidagi shaharva tumanlar vakillik organlari deputatlarining qo'shma majlisida ko'rsatiladi, qo'shma majlis a'zolari o'z oralaridan olti nafar deputatni Senat a'zoriga viloyat vakillari sifatida saylaydi.

Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hamo'zhududiy vakillik organlari deputatlarining qo'shma majlisida oltitadan o'z vakillarini saylab Senat tarkibiga kiritadi.

viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasining harbiridan oltitadan saylab olingan jami – 84 nafar kishi saylov asosida Oliy Majlisning yuqoripalatasi - Senat a'zosi

hisoblanadi.

Senat tarkibini shakllantirishda tayinlash printsipli asosida hamo'n olti nafar kishini Senat tarkibiga kiritish belgilangan.

Senat tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan ushbu nomzodlikka talablar shundan iboratki, nomzodlar mamlakat ahamiyati darajasidagi amaliy tajribaga ega bo'lgan, elu-yurtning hurmati, e'tibori va ishonchini qozongan, ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan boxabar shaxslar bo'lishi lozim. Shunday shaxslar ichidan tanlab olinib, davlat boshliqi tomonidan tayinlangan Senat a'zolari Senat faoliyatida katta xizmat ko'rsatishi tabiiy qol. Shu bilan birga ushbu tarkibdan o'rin olgan shaxslar ma'muriy-hududiy birliklar vakillarining hudud manfaatlari borasidagi tortishuv hamda bahslar echimini topishida amaliy yordam beradi. horijiy davlatlarda tayinlash usuli orqali yuqoripalata tarkibini shakllantirish GFR, Kanada, Iordaniya mamlakatlarida mavjud.

Senat a'zosi bo'lishlik uchun nomzodga nisbatan ba'zi talablar mavjud. Bu esa saylov kuniga qadar 25 yoshga to'lgan, shu bilan birga, O'zbekiston hududida kamida 5 yil muhimyashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxslargagina Senat a'zosi bo'lish imkoniyatini beradi.

Senat a'zosi bo'lish uchun ma'lum yosh belgilanishi tabiiy, chunki yuqoripalataning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, barcha mamlakatlarda yuqoripalata a'zolik uchun yuqoriyosh belgilangan. Masalan, Turkiya Senatiga a'zo bo'lishlik uchun nomzod saylov kuni kamida 40 yoshda bo'lishi lozim. Bunday qolat AQSh, Hindiston, Yaponiya davlatlarida – 30 yosh, Braziliya, Frantsiya davlatlarida – 35 yoshni talab qiladi.

Senatning vakolat muddati – besh yil qilib belgilangan. Oliy Majlis vakolat muddati besh yil qilib belgilanganligi, uning harikki palatasiga ham tegishlidir.

Senat yuqoripalata sifatida o'ziga xos xususiyatlar hamda vakolatlarga ega bo'ladi. Senatning asosiy ish faoliyati ma'lum davrlarda chaqirilib turiladigan sessiyalarida namoyon bo'ladi. Senat qonunchilik jarayonida o'ziga xos funktsiyani amalga oshirib qonunlarni puxta va pishiq yaratilishiga, shuningdek shoshma-shosharlik bilan qabulqilingan qonunlarni qayta ishlanishi uchun mas'uliyat bilan qarovchi hamda hududlar manfaatining mushtarakligini ta'minlovchi organ sifatida faoliyat yuritadi.

Senatning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etiladigan ma'lum mansabdor lavozimlariga nomzodlarni tasdiqlash, mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, shuningdek davlat mudofaasiga doir masalalarda ayrim vazifalarni amalga oshirish funktsiyalari ham mavjud.

Oliy Majlis qonunchilik palatasiga saylovni o'tkazuvchi saylov okruglari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan qolda belgilanadi. Saylov okruglari, qoida bo'yicha, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng qolda tuziladi.

Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida saylov okruglarining ro'yxatini ularning chegaralari va saylovchilar sonini ko'rsatilgan qolda saylov tayinlanganidan keyin kechi bilan o'n besh kun ichida e'lon qiladi. Saylov okrugi – saylov o'tkazish uchun Konstitutsiya va saylov to'risidagi qonunlar asosida belgilab qo'yilgan hududiy saylov birligidir.

Deputat qaysi okrugdan saylangan bo'lsa, u shu okrug aqolisining vakili deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'risidagi qonunga asosan, Oliy Majlisga saylov o'tkazish uchun bir yuz yigirmata saylov okrugi tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy xalq deputatlar kengashlariga saylov to'risidagi qonunga asosan xalq deputatlar viloyat va Toshkent shahar kengashlariga deputatlar saylashda - 60-tadan saylov okruglari tuziladi. Xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga deputatlar saylashda - 30 tadan saylov okrugi tuziladi.

harbir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi. O'zbekiston Respublikasida saylovlarni tashkil qilishhududiy printsipga asoslanadi, shuning uchun saylovlar saylov okruglari orqali

amalga oshiriladi.

Saylov to'risidagi qonunlarga asosan saylov uchastkalari shahar, tuman hokimlarining taqdimnomasiga asosan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. harbiy qismlarda saylov uchastkalari qismlar yoki harbiy qo'shilmalar komandirlarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida saylov uchastkalari Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

Saylov uchastkalari saylov tayinlangandan keyin o'ttiz kundan kechikmay tuziladi. Saylov uchastkalari kamida 20 nafar va ko'pi bilan 3000 nafar saylovchilardan iborat tuziladi. O'zbekiston Respublikasida saylovni tashkiliy ravishda o'tkazish uchun quyidagicha saylov komissiyalari tashkil etildi:

Markaziy saylov komissiyasi;

Okrug saylov komissiyasi;

Uchastka saylov komissiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis qonunchilik palatasiga saylovlarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun tuziladi hamda u o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi.

Markaziy saylov komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Saylov to'risidagi qonunlarga, referendum to'risidagi qonunga va boshqa qonunlarga amal qilib ish olib boradi. Markaziy saylov komissiyasi Oliy Majlis palatalari tomonidan o'n besh nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Markaziy saylov komissiyasining a'zolari qoraqolpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining tavsiyasi bo'yicha Oliy majlis palatalari tomonidan tasdiqlanadilar. Markaziy saylov komissiyasining raisi komissiya a'zolari orasidan Prezidentning taqdimnomasi bilan komissiya majlisida saylanadi. Raisning o'rinbosari va komissiya kotibi komissiya a'zolari orasidan komissiya majlisida saylanadilar. Markaziy saylov komissiyasi respublika hududida saylov to'risidagi qonunning ijro etilishini nazorat qiladi va uning hamma joyida bir xilda qo'llanishini ta'minlaydi.

Okrug saylov komissiyasi saylov e'lon qilingandan keyin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan yigirma kundan kechikmay rais, rais o'rinbosari, kotib va yana kamida 6 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Okrug saylov komissiyalarining vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'risidagi qonunda to'liq ko'rsatilgan. Saylov okrugi saylov to'risidagi qonunning ijrosini nazorat qiladi, saylov uchastkalarini tuzadi va ularga rahbarlik qiladi, deputatlikka nomzodlarga saylov kompaniyasida ishtirok etishlari uchun teng sharoit yaratilishini ta'minlaydi, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan deputatlikka nomzodlar to'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi va bu nomzodlarga tegishli guvohnomalar beradi, saylov okrugi bo'yicha saylov natijalarini aniqlaydi va Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi va qonunda ko'rsatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Uchastka saylov komissiyasini okrug saylov komissiyasi tuzadi. Uchastka saylov komissiyasi saylov tayinlangandan keyin ellik kundan kechikmay 5-19 nafar a'zodan, shu jumladan rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari hududida uchastka saylov komissiyasi raisning vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi vakillik organlari saylovlariga tayyorgarlik ko'rish, ovoz berishni tashkil qilishva berilgan ovozlarni sanab chiqish uchun saylov uchastkalariga bo'linadi. Uchastka saylov komissiyasi aqolini saylov kuni va ovoz berish joyi to'risida xabardor qiladi. Ovoz berish binolari va saylov qutilari hamda boshqa saylov ashyolari tayyorlab qo'yilishini ta'minlaydi. Oliy Majlisga saylov to'risidagi qonunda uchastka saylov komissiyasining vakolatlari to'liq ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida saylovga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar orasida deputatlikka nomzodlar ko'rsatish eng muhimva ma'suliyatli tadbirlar

hisoblanadi.

qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar va fuqarolar ko'rsatish huquqiga egalar. Siyosiy partiya, saylov kampaniyasi boshlaganligi e'lon qilingan kundan kamida olti oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yhatga olingan, saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida ellik ming saylovchining imzosini to'plagan taqdirdagina deputatlikka nomzodlar ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalar tomonidan saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va qirq besh kun qolganida tugaydi. Deputatlikka nomzod tanlash tartibi siyosiy partiyalarning o'zlari halqilgani qolda, harbir okrugdan bitta deputat, ya'ni 120 deputat ko'rstatishga vakolatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish uchun saylash huquqiga ega ega bo'lgan harbir fuqaro yoki fuqarolar guruhi deputatlikka nomzod ko'rsatish uchun tegishli saylov okrugining kamida uch yuz nafar saylovchisidan iborat saylovchilar tashabbuskor guruhini tuzishi mumkin. Deputatlikka nomzod ko'rsatgan saylovchilar tashabbuskor guruhi okrug saylovchilari umumiy sonining kamida sakkiz foizi miqdorida nomzodni qo'llab – quvvatlovchi imzoni to'plashi (imzolayotgan fuqarolar miqdori harbir mahalla, qishloq yoki ovul bo'yicha mutanosib ravishda taqsimlangan bo'lishi shart) kerak.

O'zbekiston Respublikasi Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining deputatligiga nomzodlar ko'rsatish, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va qirq besh kun qolganida tugallanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yhatga olingan kundan boshlanib, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq va sharoitlar yaratib berilib, deputatlikka nomzod besh nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishi, nomzod ro'yhatga olinganidan keyin o'z ishonchli vakillarini o'zi belgilashi, deputatlikka nomzod qilib ro'yhatga olingan shaxs saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishi, saylovoldi yiqilishlarida so'zga chiqish huquqiga egadirlar. Televidenie ko'rsatuvlari va radio eshittirishlarida qatnashish vaqtida, o'rtacha oylik ish haqi saylov o'tkazish uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan saqlangan qolda, ishlab chiqarishyoki xizmat vazifalarini bajarishdan ozod bo'lish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod 15 nafarga qadar ishonchli vakillarga ega bo'lishga haqlidirlar. Ishonchli vakillar nomzodga saylov kampaniyasini o'tkazishda yordam beradilar, uni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylash uchun targ'ibot olib borib, davlat va jamoat tashkilotlari, saylov komissiyalari bilan bo'ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatini himoya qiladilar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatligiga nomzodlar tegishli viloyat, tuman, shaharsaylov komissiyasi tomonidan ro'yhatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi. Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga, mustaqil tashabbuskor guruhlariga tegishli viloyat, tuman, shaharsaylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq beriladi va saylovchilarning yiqilishlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan barcha nomzodlar uchun mutloq teng sharoitlarga rioya etilgan qolda tashkil qilinadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashi deputatligiga nomzod uch nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Ular nomzod deputat etib saylanishi uchun tashviqot yuritadilar, mahalliy davlat organlari va jamoat birlashmalarining organlari, saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarda, shuningdek saylov komissiyalarida nomzodning manfaatlarini himoya qiladilar. Shu bilan birga, saylov kompaniyalarida, xalqning siyosiy irodasini shakllantirish va ifoda etishda partiyalarning roli doim ham bir xilda baqolanavermaydi. Ko'p partiyalilik printsiipi partiya ro'yxatlari (fraksiyalari) bo'yicha saylangan deputatlar jumlasidan siyosiy uyushmalar tashkil etishda o'z aksini topadi.

Ta'kidlash joizki, ikki palatali parlament tizimida faqatqonunchilik palatasigina siyosiylashgan xususiyatga ega bo'lgani bois, deputatlar birlashmalari-fraktsiya va deputatlar guruhlarini aynan mazkur palatada tuziladi.

“ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi to'risida”gi qonunning 23-moddasiga ko'ra, qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraktsiyalar va deputatlar guruhlarini shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin.

Demak, mamlakatimiz parlamenti faoliyati bilan bog'liqqonunhujjatlariga muvofi ?, deputatlar birlashmalarining ikki shakli-fraktsiyalar va deputatlar guruhlarini mavjud.

Fraktsiya siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir. Deputatlar guruhlarini qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko'rsatilmagan deputatlar tuzishi mumkin.

Ovoz berish. Ovoz berish saylov jarayonining eng muhimbosqichi bo'lib aynan shu bosqichda xalqning xoxish irodasi amalga oshadi.

Ovoz berishga saylovchilar ro'yxatida turuvchi fuqarolar shaxsini tasdiqlovchi xujjatlar bilan (qator mamlakatlarda saylov kartochkasi yoki ovoz berish huquqini beruvchi guvohnomalar) yo'l qo'yiladi.

Saylov kunida o'zi ro'yhatdan o'tgan doimiy yashash joyida bo'lmagan saylovchilarni ovoz berishda qatnashishini halqilishmasalasi hamjahonning turli mamlakatlari qonunchiligida turlicha halqilingan. Ba'zi davlatlarda bu masala (maslan Rossiya, Avstriya) shaxs agar saylov kunida o'zi yashash joyida bo'lmasligi mumkinligini tasdiqlovchi hujjatni (masalan, xorijiy davlatga bilet) taqdim qilsa, saylovga qadar ovoz berishi mumkin bo'ladi. Xorijiy davlatlarda doimiy yashovchi fuqarolar ham saylovdan oldin o'z davlati elchixonasida ovoz berishi mumkin. Ko'pchilik davlatlarda shunday xolatni hisobga olib pochta orqali ovoz berish amaliyoti ham mavjud. Masalan, Germaniyada pochta orqali ovoz berishda saylovchi o'zvaqtida saylov okrugi rahbariga (ya'ni okrug saylov organining raisiga) pochta orqali ovoz berish huquqini beruvchi guvohnomasi va alohida muhrlangan konvertda saylov byulletenini to'ldirilgan qolatda jo'natishi lozim. Agar pochta saylov kunida soat 18.00 ga qadar etib kelsa ovoz berilgan hisoblanadi. Saylovchi o'zguvohnomasini saylov byulletenini o'zqo'li bilan to'ldirganligi haqida qasamyod bilan imzolashi lozim.

Saylov kunida o'z doimiy yashash joyida bo'lmaydigan saylovchilarni ovoz berishining yana bir usuli – ishonchli vakil orqali ovoz berishdir. Frantsuz Saylov kodeksi ishonchnoma orqali ovoz berishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini batafsil belgilagan, unga ko'ra xorijda bo'lgan, xizmat safarida bo'lgan, saylovda bevosita qatnashishga sog'liqi yo'l qo'ymaydigan va boshqafuqarolar ishonchnoma orqali ovoz berishlari mumkin. Umumiy saylovlardagi ovoz berish odatda bir kunda o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasida saylovlarda ovoz berish jarayoni saylov kuni ovoz berish binosi uchastka saylov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lganda ochiladi hamda saylov kuni soat 6 dan 20 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to'risida uchastka saylov komissiyasi saylovchilarni kechi bilan saylovga o'n kun qolganida xabardor qiladi.

Saylov komissiyasining raisi komissiya a'zolari hozirligida saylov qutisini muhrlaydi, saylov byulletenlari va saylovchilarning ro'yhatlarini komissiya a'zolari o'rtasida taqsimlaydi hamda saylov boshlanganligini e'lon qiladi. Saylovchi ovoz berish binosiga kelgach, uchastka saylov komissiyasining a'zoriga o'z shaxsini tasdiqlovchi xujjatni ko'rsatadi hamda saylovchilar ro'yhatiga imzo qo'yadi. Shundan keyin unga saylov byulleteni beriladi. Saylov byulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish kabinasida to'ldiriladi. Saylovda saylovchi o'zi qarshi ovoz berayotgan deputatlikka nomzodlarning saylov byulletenidagi familiyasini o'chiradi va to'ldirilgan saylov byulletenini saylov qutisiga tashlaydi. harbiy qismlarda, sanatoriyalar dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, shuningdek olis va borish qiyin bo'lgan erlardagi fuqarolar turgan joylarda tuzilgan saylov uchastkalarida, basharti ro'yhatga kiritilgan barcha saylovchilar ovoz berib bo'lgan bo'lsa, uchastka saylov komissiyasi

istalgan vaqtda ovoz berish tugaganligini e'lon qilishi mumkin.

Saylov natijalarini aniqlash. Berilgan ovozlarni hisoblash avval saylov uchastkalarida saylov tugashi bilan darqol boshlanadi. Dastlab harbir saylov okrugida berilgan barcha ovozlar hisoblanadi, so'ngra byulletenlar orasidan haqiqiyemas deb topilganlari chiqarib tashlanadi. Odatda qonunchilik bilan qanday saylov byulletenlari haqiqiyemas deb topilishi mumkinligi belgilangan bo'ladi, shubhali qolatlarda uchastka saylov organining maxsus bayonnomasi i halqilinadi.

Saylov uchastkasida hisoblab chiqilgan ovozlar yuqorituruvchi saylov organiga yuboriladi. Saylov natijalari saylov okrugi miqyosida, tegishli qolatlarda hududiy va markaziy organlar miqyosida e'lon qilinadi. Turli mamlakatlarda bir xil ovoz berish jarayoni bo'lib, unda teng miqdorda saylovchilar qatnashgan bo'lsa ham saylov natijalari qo'llaniladigan saylov tizimiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Takroriy shuningdek, navbatdan tashqari va alohida bir okruglarda saylov o'tkazilganda saylov jarayonining bir muncha soddalashtirilgan tartibi qo'llanilishi mumkin.

Respublikamizda saylov natijalari quyidagi tartibda aniqlanadi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining natijalarini aniqlash uchastka saylov komissiyalari tomonidan taqdim etilgan bayonnomalar asosida aniqlanadi. Okrug saylov komissiyasi; okrug bo'yicha saylovchilar umumiy sonini; saylov byulletenlari va varaqalari olgan saylovchilarning sonini; ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning sonini; harbir deputatlikka nomzodni yo'qlab va unga qarshi berilgan ovozlar sonini; haqiqiyemas deb topilgan saylov byulletenlari varaqlari soni aniqlanadi va Markaziy saylov komissiyasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi. O'z navbatida Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan olingan bayonnomalar asosida okrug saylov komissiyasi singari hisoblash jarayonini amalga oshirgandan so'ng, ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pining ovozini olgan deputatlikka nomzod deputat etib saylangan hisoblanadi. Agar saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning o'ttiz uch foizidan kami ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan hisoblanadi. Xuddi mana shunday saylov natijalarini aniqlash qoidasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov o'tkazishda hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga o'tkaziladigan saylovlarda ham amalga oshiriladi.

Takroriy ovoz berish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Oliy Majlis qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga saylash uchun ikki nafardan ortiq nomzod qo'yilgan bo'lsa va nomzodlardan xech biri talab qilingan miqdordagi ovozni olmagan bo'lsa saylovchilarning ovozini eng ko'p olgan ikki nomzod ishtirokida takroriy ovoz berish o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlarda Markaziy saylov komissiyasi, Oliy Majlis qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga saylovlarda okrug komissiyasi tegishincha viloyat, tuman, shaharsaylov komissiyasi mazkur qarorhaqida okrug saylovchilarini xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga takroriy saylovlar asosiy saylov o'tkazilgan kundan boshlab bir oy ichida, lekin kamida o'n besh kun keyin o'tkaziladi, Oliy Majlis qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga takroriy saylovlar asosiy saylov kundan keyin ikki hafta ichida o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berish cho'ida ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'p olgan Respublika Prezidentligiga, Oliy Majlis qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga nomzod, takroriy ovoz berishda ro'yhatga kiritilgan saylovchilarning yarmidan ko'pi qatnashgan va bu nomzodni yo'qlab berilgan ovozlar unga qarshi berilgan ovozlardan ortiq bo'lgan taqdirdagina saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'ziligiga takroriy ovoz berish, agar ovoz berish cho'ida belgilangan miqdorda Senat a'zolari saylanmagan bo'lsa, saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zoliigi uchun ovozlarning zarur miqdorini to'plamagan nomzodlar bo'yicha davlat hokimiyati vakillik organlarining (xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari) qo'shma majlislarining o'zida o'tkaziladi.

Takroriy saylovlar. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga takroriy saylovlar saylov o'tkazilmagan yoki haqiqiyemas deb topilsa yohud agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylash uchun ikkitadan ko'p nomzod qo'yilmagan bo'lsa va ulardan hech biri saylovchilarning ovozini zarur miqdorda olmagan bo'lsa, Markaziy saylov komissiyasi takroriy saylov tayinlaydi. Bunda komissiya saylovni yangi tarkibdagi okrug va uchastka saylov komissiyalari o'tkazishi zarurligi to'risida qaror qabul qilishi mumkin. Ovoz berish asosiy saylov o'tkazilgan saylov uchastkalarida va saylovchilarning avval tuzilgan ro'yhatlari bo'yicha o'tkaziladi.

Komissiyalar tuzish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish va ularni ro'yhatga olish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini takror o'tkazish bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlar «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'rsida» gi qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Takroriy saylov asosiy saylov o'tkazilganidan keyin qirq kun ichida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolarining takroriy saylovi quyidagi qollarda o'tkaziladi:

A) Agar saylov haqiqiyemas deb topilgan bo'lsa;

B) Agar takroriy ovoz berish natijasida belgilangan miqdorda Senat a'zolari saylanmagan bo'lsa.

Ikkinchi qolatda nazarda tutilgan vaziyatlarda takroriy saylov saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zolari uchun o'tkaziladi. Senat a'zolarining takroriy saylovi Senatga o'tkazilgan asosiy saylovdan keyin ko'pi bilan o'n besh kunlik muddat ichida o'tkaziladi.

Saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zolariga nomzodlar ko'rsatish va takroriy saylov o'tkazish qonunchilik bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga takroriy saylovlar quyidagi qollarda o'tkaziladi:

A) Basharti, saylov okrugi bo'yicha saylov o'tmagan yohud emas deb topilgan bo'lsa;

B) Agar takroriy ovoz berish saylangan deputatni aniqlash imkonini bermagan bo'lsa;

V) Agar saylov okrugi bo'yicha deputatlikka ko'pi bilan ikki nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birortasi ham saylanmagan bo'lsa.

Takroriy saylov tegishincha Markaziy, viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasining topshiriqiga binoan okrug saylov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Bunda tegishli saylov komissiyasi takroriy saylov yangi tarkibdagi okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan o'tkazilishi to'risidagi qaror qabul qilinishi mumkin. Ovoz berish asosiy saylov o'tkazish uchun tuzilgan avvalgi saylov uchastkalarida va saylovchilar ro'yhatlari bo'yicha o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga takroriy saylov kechi bilan bir oylik muddat ichida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar haqida to'xtab, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Deputat bo'lishni istagan odam, avvalo, halol-pokligi, ma'naviy etukligi, teran bilimi, qobiliyati, el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'yish kabi xususiyatlari bilangina saylovchilarning ishonchiga sazovor bo'lishi mumkin".

Siyosiy partiyalar faqat o'z partiyasi a'zolarigina emas, balki partiyasizlarni ham deputatlikka nomzod etib ko'rsatishlari mumkin. quyidagilar Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar:

qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan fuqarolar.

Saylov tayinlangan kunga qadar besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamagan fuqarolar.

O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va boshqaharbiylashtirilgan bo'linmalarining xodimlari.

Diniy tashkilotlar va birlashmalarining professional xizmatchilari.

hukumat a'zolari, sudyalari, bosh prokuror va prokuratura organlarining mansabdor shaxslari, vazirliklar, idoralar rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, hokimiyat ijroiya

organlarining mansabdor shaxslari (viloyatlar, tumanlar va shaharlarning hokimlaridan tashqari) deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlaridan bo'shsh to'risida ariza berganlari taqdirdagina Oliy Majlis deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinadilar.

Deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganda to'xtatiladi. Deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga olganidan keyin besh kun ichida deputatlikka nomzod to'risidagi ma'lumot okrug saylov komissiyasi tomonidan mahalliy matbuotda e'lon qilinadi. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish, nomzodni keng muhokama qilishsaylov oldi muhimbosqichi hisoblanadi. Deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab saylov oldi tashviqotlar boshlanadi.

Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod beshtagacha ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Mahalliy vakillik organlariga deputatlikka nomzodlar uchtagacha ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Ishonchli vakillar nomzod deputat etib saylanishi uchun tashviqot ishlari olib boradilar. Ishonchli vakillarni deputatlikka nomzodlarning o'zi tanlaydi va ularni ro'yxatga olish uchun tegishli okrug saylov komissiyasiga taqdim qiladi.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyat vakillik organlariga saylovchilar ro'yxatini uchastka saylov komissiyalari tuzadilar va uni harbir uchastkada tegishli uchastka saylov komissiyasining raisi va kotibi imzolaydi.

Saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Uchastka saylov komissiyasi saylovchilar ro'yxatlarini tuzish ishiga jamoatchilik vakillarini jalb qilishasosida ish olib boradilar.

Saylov kunigacha yoki saylov o'tkazilayotgan kunda 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolar saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonolari huzurida, sanatoriylar, kasalxonalarda, invalidlar uylarida, dam olish uylarida va boshqa davolash muassasalarida tuzilgan saylov uchastkalari bo'yicha saylovchilarning ro'yxatlari mazkur muassasalar rahbarlarining taqdim etilgan ma'lumotlari asosida tuziladi.

harbiy qismlarda saylovchilar ro'yxatlari harbiy qismlarning komandirlari taqdim etgan ma'lumotlar asosida tuziladi.

Saylovchilar ro'yxatida harbir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi tuqilgan yili va turar joyi ko'rsatiladi. Saylovchilar ro'yxati saylovga 15 kun qolganda saylov uchastka hududida hamma tanishishi uchun taqdim qilinadi. Saylovchilar ro'yxatidan tushib qoldirilgan saylovchilar uchastka saylov komissiyasiga arz qilishi mumkin. Uchastka saylov komissiyasi yigirma to'rt soat ichida uni ko'rib chiqib saylovchilar ro'yxatiga kiritadi. Uchastka saylov komissiyalari ro'yxatlar bilan tanishiladigan joyni va vaqtni saylovchilarga xabar qiladi. Agar saylov komissiyasi noto'g'ri qarorqabulqilsa, bu qolda saylovchi saylov komissiyasi qarori ustidan qonunda ko'rsatilgan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

Saylov byulletenlari saylovga kamida uch kun qolganda etkazib beriladi. Saylov byulletenlari uchastka saylov komissiyalariga qat'iy hisob bilan beriladi. Saylov byulletenlari davlat tilida, shuningdek okrug saylov komissiyasining qaroriga binoan saylov okrugi aqolisining ko'pchiligi muomala qiladigan tillarda nashr etiladi.

Saylov to'risidagi qonunlarga binoan saylov kuni ovoz berish ertalab soat 6.00 dan kechqurun 20.00 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish odatda maxsus ajratilgan binoda o'tkaziladi. Shuning uchun ovoz beradigan joylarni ji'ozlab qo'yiladi, saylov byulletenlari beriladigan joy belgilanadi va saylov qutilari o'rnatiladi.

Saylov qutilari shunday o'rnatiladiki, ovoz beruvchilar uning oldiga borish uchun yashirin ovoz beradigan kabina yoki xonalar orqali o'tadilar. Ovoz berish kabinalari yoki xonalarining nechta bo'lishi saylov uchastkalaridagi saylovchilarning soniga qarab belgilanadi. Saylovchi ovoz berish binosiga kelgach, uchastka saylov komissiyasining a'zosiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatadi hamda saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi. Shundan keyin unga saylov byulleteni beriladi. Agarda saylovchi bir sababga ko'ra saylovchilar ro'yxatiga familiyasi kirmay qolgan bo'lsa uning shaxsi, fuqaroligi va turar joyini tasdiqlovchi hujjatga asosan saylovchilar ro'yxati ilovasiga kiritiladi. Ovoz berish vaqtida saylovchi qarshi ovoz

berayotgan nomzodlarning saylov byulletenidagi familiyalarini o'chiradi.

Saylov kuni ovoz berish binosi uchastka saylov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgandagina ochiladi. Uchastka saylov komissiyasi saylov kunidan oldin saylov kunini o'tkazish uchun tashkiliy vazifalarni ko'rib chiqadi va harbir saylov komissiyasi a'zosi qanday ishlarni bajarishi kerak, ariza va shikoyatlarni qabulqilish tartibi, tegishli ma'lumotlarni kim tayyorlaydi kabi vazifalar oldindan belgilab olinadi va javobgar a'zolar aniqlanadi. Uchastka saylov komissiyasining raisi soat 20.00-da ovoz berish tamom bo'lganligini e'lon qiladi. Ovoz berish tugagach, saylov qutillarini ochishdan oldin uchastka saylov komissiyasining a'zolari ishtirokida saylov varaqalari solingan yopiq konvertlar qutilarga tashlanadi, foydalanilmagan barcha saylov byulletenlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan sanab chiqiladi va bekor qilinadi. Uchastka saylov komissiyasi shu uchastkada ovozga qo'yilgan barcha saylov uchastkasi bo'yicha saylov natijalarini alohida-alohida bayonomasiga yozadi. Okrug saylov komissiyasi uchastka saylov komissiyalari yuborgan saylov bayonotiga asosan okrug bo'yicha berilgan ovozlarni hisoblab chiqadi. Deputatlikka nomzod okrugdagi barcha saylovchilar ovozlarning yarmidan ko'prog'ini olgan taqdirdagina saylangan deb hisoblanadi.

Okrug saylov komissiyasi hokimiyat vakillik organi deputati qilib saylanganlik to'risidagi guvohnoma beradi. Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan olingan bayonlar asosida va saylov to'risidagi qonunlar asosida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Respublika bo'yicha saylovchilarning umumiy sonini;

Saylov byulletenlari va varaqalari olgan saylovchilarning sonini;

Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning sonini;

harbir deputatlikka nomzodni yo'qlab va unga qarshi berilgan ovozlarning sonini;

Deputatlikka nomzodlar ko'rsatilgan harbir siyosiy partiyani yo'qlab berilgan ovozlarning umumiy sonini;

haqiqiyemas deb topilgan saylov byulletenlari va varaqalari sonini aniqlaydi.

Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini olgan Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod saylangan deb hisoblanadi. Agar saylovchilarning ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kami saylovda ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb hisoblanadi.

Agar saylov okrugi bo'yicha ikkitadan ortiq nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham ko'pchilik ovozni ololmasa, ya'ni deputat bo'lib saylanmay qolsa, okrug saylov komissiya eng ko'p ovoz olgan ikki nafar nomzodni okrugda takroriy ovozga qo'yishni o'tkazish to'risida qaror qabulqiladi. Bu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida ikki hafta ichida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

Saylov okrugi xalq deputatligiga ko'pi bilan ikkita nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham belgilangan miqdorda ovoz ololmay saylanmagan bo'lsa yoki saylov okrugi bo'yicha ovoz berishga umumiy saylovchilarning yarmidan ozi qatnashganligi uchun shu okrugda saylov bo'lmagan deb hisoblansa yohud saylov haqiqiyemas deb topilsa, Markaziy saylov komissiyasi tegishli okrug saylov komissiyasiga shu okrugda takroriy saylov o'tkazishni topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi hokimiyat vakillik organiga saylangan ayrim deputatlarning vakolatlarini haqiqiyemas deb topilgan taqdirda, saylovchilar tomonidan deputat chaqirib olinganda va boshqa sabablarga ko'ra deputatlik vakolatlari muddatidan oldin to'xtatilgan qollarda tegishli saylov okruglarida yangi saylov o'tkaziladi. Xalq deputati o'rni bo'shab qolganda uning o'rniga saylov Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov kunidan kamida bir oy oldin belgilanadi va saylov to'risida qonunlar talablari asosida saylov o'tkaziladi. Okrug saylov komissiyasi bo'shab qolgan deputatlar o'rniga saylov o'tkazishda okrug saylov komissiyalari saylov kuniga yigirma besh kun qolganida tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolat muddati bir xil - besh yil bo'lganligi uchun deputatlik o'rni vakillik organining vakolat muddati tugashiga olti oydan kam vaqtqolganda bo'shab qolsa, yangi deputat saylovi o'tkazilmaydi. Okrug saylov komissiyalari

saylov bo'libo'tgandan keyin deputat bo'lib saylangan deputat to'risida Markaziy saylov komissiyasiga bayonot beradi. Markaziy saylov komissiyasi bayonotni olgandan keyin saylangan deputatlarni ro'yxatga oladi, bu haqda deputatni xabardor qiladi va Markaziy saylov komissiyasi o'n kun ichida saylangan deputatlar to'risida e'lon qiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida ikki marotaba vakillik organlariga saylovlar o'tkazildi, harqanday davlat o'z erkini, huquqini ?o'lga kiritar ekan, unda davlat hokimiyatini amalga oshirilishi vaqto'tgan sari rivojlanib takomillashib boradi hamda yangi islohatlarga talab va ehtiyojlar ortadi.

XULOSA

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi saylov qonunchiligi tizimi yaratildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning yangi saylov qonunchiligi tizimi nafaqat bevosita saylov to'risidagi qonunlarni, balkim saylovlarga bevosita taaluqli yana bir qatorqonunlarni o'z ichiga oladi.

Konstitutsiya - saylov qonunchiligi tizimining o'zaiini, yadrosini, umurtqasini tashkil etadi.

Saylov qonunchiligi tizimiga, ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'risidagi qonun; uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'risidagi qonun; to'rtinchidan, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'risidagi qonun; beshinchidan, Markaziy saylov komissiyasi to'risidagi qonun; oltinchidan, fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'risidagi qonun kiradi.

Sanab o'tilgan 5 ta qonun bevosita saylovlarga bag'ishlangan qonunlardir. Ularni bevosita saylov to'risidagi qonunlar deb atash mumkin.

Bundan tashqari saylov qonunchiligi tizimiga yana bir qatorboshqaqonunlar kiradi. Bu ikkinchi guruhqonunlarning huquqiy tartibga solish predmeti bevosita saylovlar bo'lmasada, ular saylovlarni u yoki bu jihatlarini tartibga soladi. Bunday qonunlar jumlasiga quyidagilar kiradi: "Ommaviy axborot vositalari to'risida"gi qonun, Ma'muriy huquqbuzarlik to'risidagi kodeks, Jinoyat Kodeksi, "Siyosiy partiyalar to'risida"gi qonun, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'risida"gi qonun, "Jamoat birlashmalari to'risida"gi qonun, "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'risida"gi qonun, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'risida"gi qonun, "Prokuratura to'risida"gi qonun, Fuqarolik protsessual Kodeksi. Yana shu kabi bir qatorqonunlarni saylov qonunchiligi tizimiga kiritish mumkin.

Demak, O'zbekiston saylov qonunchiligi tizimi jahon talablariga javob beradi va o'zo'rniga ega bo'ldi.

GLOSSARIY

1.Saylov byulleteni-belgilangan shaklda tasdiqlangan, yashirin ovoz berish uchun mo'ljallangan saylov hujjati.

2.Saylov kvotasi-bitta deputatni saylash uchun zarur bo'lgan eng kam ovoz soni.

3.Saylov okrugi-davlat organlariga a'zolar saylanadigan hududiy birlik.

4.Saylov uchastkasi-ovozlar berish va ovozlarni hisoblab chiqish uchun tashkil etiluvchi hududiy birlik.

5.Saylov huquqi --saylanadigan davlat idoralari shakllanishini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi.

6.Saylovchilar nakazi---bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq,talab va takliflar,saylovchilar tomonidan deputat bo'lib saylanayotgan nomzodga nisbatan beriladigan harqanday savollar.

7.Passiv saylov huquqi-davlatning saylab qo'yiladigan organlariga saylanish huquqi.

8.Deputat-(lot-elchi)-davlat hokimiyati vakillik organlarida ish olib boruvchi xalq vakili.

Nazorat uchun savollar

Saylov huquqi qaysi ma'nolarda ishlatiladi ?

Saylov tizimining qanday tamoyillarini bilasiz ?

Saylovlarni o'tkaziladigan kun qaysiqonun bilan belgilab qo'yilgan ?

Oliy Majlis Senati qanday tartibda shakllantiriladi ?

Markaziy saylov komissiyasi qanday shakllantiriladi ?

Kimlar qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod etib ruyxatga olinmaydi ?
qonunchilik palatasiga saylovchilar tashabbuskor guruhlar tomonidan ko'rsatilgan nomzod qanday tartibda ruyxatga olinadi.

Saylovlarda kuzatuvchilar qanday huquqlar foydalanadilar ?

Saylov blyuteni qaysi davlat organi tomonidan namunasi tasdiqlanadi ?

Ovoz berish tartibi qanday amalga oshiriladi ?

Takroriy ovoz va takroriy saylov qaysivaqtda amalga oshiradi ?

Saylov qonunchiligi buzilganda qaysi davlat organiga murojaat qilinadi ?

Adabiyotlar:

I.A.Karimov O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.

1. I.A.Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T-2 T O'zbekiston 1996.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston -2011.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.

4. X.B.Boboev, A.Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv qo'llanma « O'zbekiston », T., 2005.

5. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.

6. K.Usmanov «O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. Toshkent 2004.

7. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida qonuni -T., 2002 yil 12 dekabr.

8. R.Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998

9. S.O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993

10. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari. T. 2003.

11. A.Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993

12. Yuridik entsiklopediya. T.Sharq 2004.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.

14. Kozlova Ye.I., Kutafin O.Ye. "Konstitutsonnoe pravo Rossii" uchebnik M. 2001.

15. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M.2001.

16. www.yandex.ru.

17. www.edu.o'z.

18. www.ziyo.net.

19. www.gov.o'z.

20 - Mavzu: O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish hokimiyatining amalga oshirilishi va Konstitutsiyaviy asoslari.

REJA:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uni tashkil qilish tartibi.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi insonparvarlik demokratik o'zgarishlar bosqichida.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va vakolatlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va vakolatlari.

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uni tashkil qilish tartibi.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot mobaynida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo'g'irilgan o'ziga xos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi. Shu asosda siyosiy - huquqiy aliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitutsiyaviy tuzumida xalqhokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo'linishi printsiplariga mos davlat organlari tizimi shakllantirildi.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda 1990 yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Oliy Kengash faoliyat ko'rsatmoqda edi. O'zbekistonda demokratik islohotlarni bosqichma bosqich amalga oshirish yo'lidan borilib birdaniga Oliy Kengash tarqatib yuborilmadi u 1990 - 1994 yillarda qonunchiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko'rsatdi va o'z vakolat muddati davrida 200 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq qaror qabul qildi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida demokratik tamoyillarga asoslangan yangi parlamentni shakllantirishning huquqiy asoslari belgilab berildi uning 76 - moddasida «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonunchiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi», deb belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq bir palatali parlament– Oliy Majlisni shakllantirishga kirishildi. 1993 yil 8 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi, 1994 yil 22 sentyabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ularda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 5 yil muddatga aylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'ladi deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi qonunning 1 - moddasiga ko'ra: «Oliy Majlis deputatlari umumiy, teng va to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar» deb qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasining saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan fuqarolari saylashhuquqiga egadirlar. Oliy Majlisga saylanishhuquqiga esa saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari egadirlar. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar shuningdek sud xukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Har bir saylovchi teng saylov huquqi asosida bir ovozga ega.

Saylov o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi va uchastka saylov komissiyalari to'ziladi. Har bir saylov komissiyasining vakolatlari mazkur qonunda maxsus moddalar bilan qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil sentyabrda bo'lib o'tgan 16 - sessiyasi 1994 yil 25 dekabr kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar, tuman kengashlarga saylov o'tkazishga qaror qildi. 1995 yil 23 fevral kuni O'zbekistonning yangi saylangan parlamenti – 1 - chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi o'z faoliyatini boshladi u o'z vakolat muddati 1995 - 1999 yillarda 15 ta sessiya o'tkazdi. Sessiyalarda 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun, 452 ta qaror qabul qilindi. Shuningdek Oliy Majlis 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi. Xalqaro konventsiyalarga ko'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi.

1 - chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil 19 - 20 avgust kunlari bo'lib o'tgan 15 - sessiyasi 2 - chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylovini 1999 yil 5 dekabr kuniga belgilash to'g'risida qaror qabul qildi. 2 - chaqiriq 1 - chaqiriqqa nisbatan faolroq bo'lib o'tdi. 2 - chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ham bir palatali parlament sifatida shakllantirildi.

Deputatlar saylovi avvalgi chaqiriq Oliy Majlis deputatlarining vakolat muddati tugashiga kechi bilan uch oy qolganida Oliy Majlis tomonidan tayinlanar edi. Oliy Majlis deputatligiga nomzodlar ko'rsatishhuquqiga siyosiy partiyalar, Qorakalpogiston Respublikasi Jo'rg'ori Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari bevosita fuqarolar egadirlar deb, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 20 - moddasida qayd etib qo'yilgan edi.

Mazkur qonunning 23 - moddasiga ko'ra:

- qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ilgari sudlangan fuqarolar;
- saylov tayinlangan kunga qadar so'nggi 5 yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashagan fuqarolar;
- O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining harbiy xizmatchilari, milliy havfsizlik xizmati, ichki ishlar vazirligi va boshqaharbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;
- diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari Oliy Majlis

deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar deb belgilangan edi.

Oliy Majlis deputatligiga ovoz berish saylov kuni soat 6 dan 20 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi uchastka saylov komissiyasi a'zolari tomonidan saylovga kamida 10 kun kolganda saylovchilarni xabardor qiladi. Saylov yakunlari to'g'risidagi axborotni va Oliy Majlisga saylangan deputatlarning ro'yxatini Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov okrugining tartib rakami va nomini ko'rsatgan holda ko'pi bilan 10 kun ichida e'lon qiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi insonparvarlik Demokratik o'zgarishlar bosqichida.

O'zbekiston XXI asr taraqqiyotining o'zi tanlab olgan milliy davlatni rivojlantirish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Mustaqillikning o'tgan yillari sermazmun voqealarga boy bo'lib, bu davr mobaynida milliy davlatchiligimizning huquqiy poydevorini shakllantirish bilan bog'lik bir qator ishlar amalga oshirildi.

Davlat boshqaruvi tizimidagi insonparvarlik demokratik o'zgarishlar hokimiyatining taqsimlanishi asosan faoliyat ko'rsatuvchi Oliy vakillik organi Oliy Majlis vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Oliy Majlis hokimiyatning Oliy organi sifatida qonunqabul qilish bilan birgalikda, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi.

Oliy Majlis dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etildi. O'z faoliyati davomida Oliy Majlis ijtimoiy muammolarni yechish sohalarida salmoqli tajribaga ega bo'ldi.

Prezident I. Karimov 2000 yil 25 may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida qilgan Ma'ruzasida, "Bizning jamiyatimiz, tez sur'atlar bilan o'zgaryapti. Odamlar ma'naviy ulg'ayish yo'lida ildam qadam tashlayapti.

Bu o'zokni ko'zlagan siyosatimiz, ezgu maqsad yo'lidagi intilishlarimiz natijasidir.. Shu holatni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmokchiman»

Bu demokratik islohatlarni bosqichma - bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda Respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g'oyadir.

2001 yil 6 - 7 dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament tuzish va uning faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omillar - yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar va boshqa mutaxassis kadrlar korpusi shakllanib yetilganligini, ko'ppartiyali tizim shakllanganligini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur degan xulosaga keldi.

Oliy majlisning yettinchi sessiyasi 2002 yil 27 yanvar kuni kelgusi chaqiriqda ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi bo'yicha O'zbekiston referendumini o'tkazish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Referendumda ovoz berish byulleteniga «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» degan savol kiritildi.

Respublikada o'z yechimini kutayotgan masalalarni umum xalq muhokamasiga qo'yish masalasi vujudga keldi.

2002 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan referendumda ikki palatali Parlamentni tuzish masalasini xalqimiz qo'llab quvvatlashdi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan 2002 yil 4 aprelda qabul qilingan «Referendum yakunlari hamda davlat xokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun mamlakatimizda ikki palatali parlament tuzish uchun asos bo'ldi. Unga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiruvchi oliy vakillik organ bo'lib, ikki palatadan - Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi (quyi palata) hamda oliy Majlisning Senati (yuqori palata)dan iborat bo'ldi.

Hozirgi paytda jaxon parlamentlarining yuqori palatasi aksariyat hollarda senat deb nomlanib, bu nom yuqori palatalarning yuridik atamasi bo'lib hisoblanadi.

Oliy Majlisning palatalari - Qonunchilik vakolati va Senat alohida - alohida va bir - biridan mustaqil tarzda faoliyat olib boradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi.

Oliy Majlis quyi palatasining «Qonunchilik» palatasi deb nomlanishining asosiy ma'nosi quyi palataning qonunchilik sohasida mutloq vakolatga ega ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Oliy Majlisining quyi palatasining «Qonunchilik» palatasi deb nomlanishida uning qonun ijodkorligi sohasida ustivor ahamiyatga ega ekanligi doimiy ravishda faoliyat ko'rsatishi hamda professional mutaxassislaridan iborat tarkibida bo'lishligi kabi omillar ham xizmat qilgan.

Parlamentlarning quyi palatalari turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan: Frantsiyada Milliy Majlis, Germaniyada Bundestag, AQSHda vakillar palatasi, Rossiyada Duma, Polshada Seyt, nomlari bilan yuritiladi.

O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 77 - moddaning birinchi bandiga asosan, Qonunchilik palatasiga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 150 deputat saylanadi. Qonunchilik palatasini tashkil qilishda va shakllantirishda bevosita saylov muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilik palatasiga saylovlar saylov yilining dekabr oyining uchinchi un kunligini birinchi yAQSHanbasida o'tkaziladi. Qonunchilik palatasi bevosita O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilik palatasining vakolat muddati - besh yil. Vakolat muddati tugagach, Qonunchilik palatasi yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi ish boshlangunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

«Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muhim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qonunchilik palatasining deputati bo'lishi mumkin. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi bo'lishi mumkin emas. «

Qonunchilik palatasi deputatining maqomi qonun bilan belgilanadi. Qonunchilik palatasi o'zining vakolatlariga mos masalalar yo'zasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yo'zasidan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi umumsiyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy va boshqa masalalar yo'zasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Qonunchilik palatasi qarorlari, ushbu qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaning 78 - moddasiga asosan Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilish, unga o'zgartirish va va qo'shimchalar kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlarni hamda qonunlarning qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlashhaqida qaror qabul qilish.

O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilashhamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga xokimiyat tarmoqlari tizimini hamda qonunchiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati organlarining vakolatlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat to'zulmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni Tasdiqlash;

Boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini qabul qilish, hamda uning ijrosini nazorat qilish;

Soliklar va boshqa majburiy to'lovlarning joriy qilish;

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy - hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarni o'zgartirish;

Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularni nomini hamda chegaralarni

o'zgartirish;

Davlat mukofatlari va unvonlarini ta'sis etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarni Tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining tuzish ;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va Tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson Huquqlari bo'yicha Vakili va uning o'rinbosarini saylash;

O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga xujum qilganda yoki tajovo'zdan bir - birini mudofaa qilish yo'zasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urushholati e'lon qilish to'g'risidagi farmonni Tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilinishi o'zaytirish yoki tugatish to'g'risidan farmonlarni tasdiklash;

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarning ratifikatsiya va denonsatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar qoida tariqasida, avval qonunchilik palatasida, so'ngra Senat ko'rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari jumlasiga:

Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini daxalsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

Reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'lik masalalar yo'zasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

Siyosiy - ijtimoiy - iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yo'zasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yo'zasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish kiradi;

Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli uning Qonunchilik palatasi sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislardir.

Qonunchilik palatasining birinchi majlisining O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi ochadi va Qonunchilik palatasi Spikeri saylangunga qadar unda raislik qiladi.

Qonunchilik Palatasi va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi prezidenti, Senat raisi, Bosh vazir, vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudlari, Bosh prokuror ishtirok etishlari mumkin.

Qonunchilik palatasi majlislarining tashkil qilish va o'tkazish tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi va Qonunchilik palatasi deputati davlat xokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yo'zasidan asoslantirilgan tushuntirish berish talabi bilan parlament so'rovi yo'lashga xaqli.

Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari Qonunchilik palatasi reglamentida belgilangan muddatlarda Qonunchilik palatasi majlislariga beradilar.

Qonunchilik palatasi Spikeri saylovdan keyingi birinchi majlisda Qonunchilik palatasining deputatlari orasida yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining Spikeri saylanadi. Qonunchilik palatasi Spikeriga nomzod ko'rsatish va saylash tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'z vakolatiga kiradigan masalalar yo'zasidan farmoyishlar chiqaradi. Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi deputatlar orasidan yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasi vakolati muddatiga saylanadi.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi Spikerining topshirigiga binoan uning ayrim vazifalarining bajaradi, qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari o'z vazifalarini bajarish davrida siyosiy partiyaga a'ziligini to'xtatib turadi hamda fraksiya va boshqa deputatlar birlashmasi tarkibiga kirishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasi Kengashi, Qonunchilik palatasi faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib berish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini Reja: lashtirish masalasini dastlabki tarzda kurib chiqishni tashkil etish maqsadida Qonunchilik palatasi Kengashi to'ziladi.

Qonunchilik palatasi kengashi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yo'zasidan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarini saylash, qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zoldan iborat tarkibidan qo'mitalar saylanadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari Qonunchilik palatasi oldida ma'sul va unga hisobdordir.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari ishini o'z Rejalariga, shuningdek, Qonunchilik palatasi, uning Spikeri va Kengashi Topshiriqlari hamda tavsiyalariga muvofiq tashkil etadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining majlislari ochiq o'tkaziladi. Zarurat bo'lganida Qonunchilik palatasi qo'mitalari yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining davlat organlariga yuborilayotgan qarorlari ular tomonidan ko'rib chiqilishi shart, natijalari to'g'risida agar qarorda boshqacha qoida boshlangan bo'lsa, o'zog'i bilan bir oydan kechiqtirmay xabar qilinishi kerak.

Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzish i mumkin. Komissiyalar Qonunchilik palatasi majlisida qonunchilik deputatlari orasida to'ziladi. Ayni paytda komissiyani tuzish dan ko'zlangan maqsad va uning vakolatlari belgilanadi. Komissiyalarni tashkil etish va ularning faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi qonun loyixasini, qoida tariqasida, bir necha o'qishda ko'rib chiqadi. qonun Qonunchilik palatasi tomonidan palata deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovoz berish ochiq yoki yashirin bo'lishi mumkin. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunqabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiqtirmay Senatga yuboriladi. Senat qonunni ma'kullash yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Bunda Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzish i mumkin.

Kelishuv komissiyasi ishining natijalari yo'zasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qilinadi. Kelishuv komissiyasini tuzish tartibi, komissiyaning tartibi va ishi reglamentda belgilanadi. Qonunchilik palatasi kelishuv komissiyalarining xulosasi taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida uning takliflarni ko'rib chiqishi va qaror qabul qilishi kerak. Qonunchilik palatasi kelishuv komissiyasining takliflari yo'zasidan deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qiladi.

Senat tomonidan ma'qo'llangan qonun imzolanish va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga xaqli.

Qonunchilik palatasi devoni to'zilmesi, shtatlari, xodimlarning Mehnat haqqi miqdori va moddiy texnika ta'minotining, shuningdek, ularning ishlashi uchun zarur harajatlar Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan Tasdiqlanadi. Qonunchilik palatasi devonining tashkil etilishi va faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan Tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi. Qonunchilik palatasi faoliyatini shakllashtirishda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'lari hisoblanadi. Qonunchilik palatasi o'z matbuot organlariga ega bo'ladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat deb nomlanadi. «Senat» termini yuridik atama sifatida ko'pchilikka tanish siyosiy, iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda parlamentning yuqori palatasi Senat deb nomlanadi. Senat atamasi «SENAT» lotincha so'zdan olingan bo'lib, qadimgi Rimda ilk davlatchilik vujudga kelgan zamonlardan beri davlat hokimiyati Oliy organining nomi sifatida ishlatilib kelingan. Uning lug'aviy mazmuni «oqsoqollar kengashi» yoki «maslaxat organi» degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (Yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasidir. Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlari, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli ko'shma majlislarida mazkur deputatlar orasida yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxrida teng miqdorda - olti kishidan saylanadi.

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senatda hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy boshqa asosda guruhlar tuzish ga yo'l qo'yilmaydi. Senatning vakolat muddati besh yil. Vakolat muddati tugagach Senat yangi chaqiriq Senatni ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi. Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muhim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Senat a'zosi va qonunchilik palatasi deputati bo'lishi mumkin emas.

Senat a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadi. U Senatning roziligisiz, Senat majlislari oralig'idagi davrda emas, Senat Kengashining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Senat a'zosiga uning senatorlik faoliyati bilan bog'lik harajatlar belgilangan tartibda koplanadi. Senat a'zosining vakolatlari qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

Senat a'zolari Senatda doimiy asosda ishlashlari mumkin. Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlarning soni senat senatorlari umumiy sonining to'rt dan birigacha bo'lgan miqdorda belgilanadi. Ular senatorlik vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatidan tashqari xaq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Senat a'zosining maqomi qonun bilan belgilanadi. Senat o'zining vakolatlari kiritilgan masalalar yo'zasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yo'zasidan qarorlar qabul qiladi.

Senat umumsiyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy va boshqa masalalar yo'zasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi. Senat qarorlari, Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaning 80 - moddasiga asosan Senatning mutloq vakolatlari:

Senat Raisining va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislarini va ularning o'rinbosarlarini saylash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi

Oliy xo'jalik sudini saylash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi tabiatini muhofaza qilish davlat kumitasining raisi tayinlashhamda uni lavozimdan ozod etish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlashhamda ularni lavozimdan ozod etish to'g'risidagi farmonlarni Tasdiqlash;

- O'zbekiston respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik raisini tayinlash va uni lavozimdan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini Tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlashhamda ularni lavozimdan ozod etish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni xal etish;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruv raisining hisobotlarini eshitish;

Reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'lik masalalar yo'zasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

Siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yo'zasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yo'zasidan Senat qarorlarini qabul qilish kiradi.

Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning majlisidir.

Senat majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladi. Senatning birinchi majlisi Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiqtirmay O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komis - siyasi tomonidan chakiriladi.

Senat birinchi majlisini O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi ochadi va Senat raisi saylangunga qadar unga raislik qiladi.

Senatning navbatdan tashqari majlisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi taklifiga binoan yoki Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi taklifiga binoan chakirilishi mumkin.

Fakat Senat majlislarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari ma'qo'llanadi hamda Senat xujjatlari qabul qilinadi. Senat va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, qonunchilik palatasi Spikeri, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokuror ishtirok etishlari mumkin.

Senat majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning, ilmiy muassasalarining vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining, televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin.

Senat majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi. Zarurat bo'lganda, Senat yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Senat majlislarining tashkil qilish va o'tkazish tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Senat va qonunchilik palatasining ko'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining muhim masalalari yo'zasidan nutq so'zlanganda, chet davlatlarining Rahbarlari nutq so'zlanganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga muvofiq ko'shma majlislar boshqa masalalar yo'zasidan ham o'tkazilishi mumkin. Palataning ko'shma majlisi ochiq va oshkora o'tkaziladi. Palatalarning ko'shma majlisi, agar unga tegishli Senat a'zolari va qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Palatalarning ko'shma majlislarida, agar ko'shma majlisda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi navbatma navbat raislik qiladi.

Palatalarning ko'shma majlisida eshutilgan masalalar muhokamasi natijalari asosida palatalarning ko'shma qarori qabul qilinishi mumkin. Bunda ovoz berish, qoida tariqasida, alohida - alohida o'tkaziladi.

Senat va Senat a'zolari davlat xokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslarga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yo'zasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarni bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yo'llashga xaqli. Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini mansabdor shaxslari Senat Reglamentida belgilanganda muddatlarda Senat majlislarida beradilar.

Senat Raisi Senat tarkib topganidan keyingi birinchi majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat a'zolari orasida yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan senat vakolati muddatiga saylanadi. Senat Raisligiga nomzod ko'rsatish va saylash tartibi Senat Reglamentida belgilanadi. Senat raisi o'z vazifasini bajarish davrida siyosiy partiya va harakatlarga a'zolikni to'xtatib turadi.

Senat Raisi Senat qo'mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas. Senat Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qaroriga binoan muddatiddan ilgari chakirib olinishi mumkin.

Senat Raisi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yo'zasidan farmoyishlar chiqaradi.

Senat Raisi:

- Senat va uning Kengashi majlislarini chakiradi, ularda raislik qiladi;
- Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarning tayyorlashga umumiy Rahbarlik qiladi;
- Senat maqullagan qonunlarni imzolash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboradi;

- Senat qo'mitalari va komissiyalarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- Senat raisining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- Parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'lik Senat guruhlarining faoliyatiga Rahbarlik qiladi;
- Senat matbuot organlarining ustavlarini va taxrir xay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur xujjatlar smetalarini Tasdiqlagan;
- Kengash bilan kelishilgan holda Senat matbuot organlarining bosh muharrirligini tayinlaydi va ularni lavozimdan ozod qiladi;
- Senat matbuot organlarining faoliyatiga Rahbarlikni amalga oshiradi;
- Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarda Senat nomidan ish ko'radi;
- Senat va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;
- Senat devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, senatorlar va Senat devoni ishlash uchun zarur harajatlar smetalarni Tasdiqlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu qonun va Senat Reglamentida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Senat Raisi o'zining vakolatiga talukli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga xaqli.

Senat Raisining o'rinbosarlari Senat a'zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolatlari muddatiga saylanadi. Senat raisining o'rinbosarlariga nomzodlar ko'rsatish va saylash tartibi Senat Reglamentida belgilanadi. Senat raisining o'rinbosarlari o'z vazifalarini bajarish davrida siyosiy partiyalar va harakatlarga a'zolikni to'xtatib turadi. Senat raisinin urinbosarlari Senat qo'mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas.

Senat raisining o'rinbosarlari Senat Raisining topshirig'iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi va Senat Raisi yo'qligida yoki o'z vazifalarini amalga oshirish mumkin bo'lmagan

hollarda uning vazifasini bajarib turadi.

Senat Raisining o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi. Senat faoliyatining samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yo'zasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi to'ziladi.

Senat Kengashi palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab to'planadi. Senat Kengashi tarkibiga Senat raisi, uning o'rinbosarlari va qo'mitalarning raislari kiradi. Senat o'z vakolatiga kiradigan masalalar yo'zasidan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qiladi.

Senat muxokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ijrosini nazorat qilish uchun Senat shakllanganidan keyin uning vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda qo'mitalar saylanadi.

Senat qo'mitalarning barcha a'zolari teng huquqlardan foydalanadilar. Qo'mita tarkibiga saylanmagan senator uning ishidan maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishga xaqli. Senat qo'mitalari senat oldida ma'sul va unga hisobdordir.

Senat qo'mitalari:

Qonunchilik palatasi tomonidan senatga ma'kullash uchun topshirilgan qonunlar yo'zasidan xulosalar beradi;

O'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yo'zasidan o'z tashabbusi bilan va senatning topshirig'iga binoan senat hujjatlari loyihalarini ishlab chiqadi;

Qonunni majlis kun tartibiga kiritish yoki uning ustidan ishlashni davom ettirish yoxud asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida kengashga takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyixasi yo'zasidan xulosalar va takliflar beradi;

Davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan xujjatlarni, ekspert xulosalari va boshqa xulosalarni, statistika ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar talab qilib olinadi;

Qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruxlari to'zadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning Rahbarlarini, qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqida axborotlarni eshitadi va jalb etadi;

Kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, senat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yo'zasidan takliflar tayyorlaydi;

Davlat xokimiyati va boshqaruv organlari Rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va senat xujjatlari hamda, senat qo'mitalari ishini o'z Rejalariga, shuningdek, Senat buning Raisi va kengashi Topshiriqlari hamda tavsiyalarga muvofiq tashkil etadi.

Senat qo'mitalarining faoliyat tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Senat qo'mitalarining majlislari Senat majlislari oralig'ida zaruratga qarab o'tkaziladi. Senat qo'mitalarining majlislari, agar ularda qo'mita a'zolarining kamida yarmi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Senat kumitalarining majlislari ochiq o'tkaziladi. Zarurat bo'lganida Senat kumitalari yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Qo'mitalarning majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining, televidenie, radio hamda boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin.

Senat qo'mitalari ko'rib chiqilayotgan masalalar yo'zasidan qo'mita jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi. Senat qo'mitalarining davlat organlariga yuborilayotgan qarorlari ular tomonidan ko'rib chiqilishi shart, natijalar yoki ko'rilgan choralar to'g'risida, agar qarorda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, o'zog'i bilan bir oydan kechiqtirmay xabar qilinishi kerak.

Senat muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzish i mumkin. Komissiyalar Senat majlisida senatorlar orasidan to'zilatadi. Ayni paytda komissiyani tuzish dan ko'zlangan maqsad va uning vakolatlari belgilanadi. Komissiyalar o'z faoliyatini zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan keyin yoki Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatadi.

Qonun Senatga kelib tushganidan keyin Senat Raisi uni dastlabki tarzda ko'rib chiqishni oshiradigan ma'sul qo'mitani belgilaydi. Qonunni dastlabki tarzda ko'rib chiqish natijalari asosida ma'sul qo'mita qonun yo'zasidan xulosa qabul qiladi.

Senat ma'sul qo'mitaning xulosasini olganidan keyin qonunni muhokama qiladi va uni ma'kullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Qonun Senat tomonidan senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan ma'qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlar hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ma'kullash uchun senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

Ovoz berish ochiq yoki yashirin bo'lishi mumkin.

Ovoz berishning shakli va usuli to'g'risidagi qaror Senat tomonidan Senat majlisida hozir bo'lgan senatorlarning ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Senat tomonidan rad etilgan qonunqonunchilik palatasiga qaytariladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yo'zasidan senat va qonunchilik palatasi yo'zaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Senat a'zolari va qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasi tuzish mumkin.

Kelishuv komissiyasining har bir palatadan ko'rsatilgan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiyaning ham raisini saylaydi. Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqishmaqsadida Senatning har bir e'tirozini alohida - alohida ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasi qonunning senat e'tiroz bildirmagan ayrim moddalari taxririni o'zgartirish to'g'risida, agar bunday o'zgartirishni Senatning takliflari asosida ishlab chiqilgan qonun moddalarining taxriri takazo etadigan bo'lsa, qaror qabul qilishga xaqli.

Kelishuv komissiyasi ishining natijalari yo'zasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qilinadi.

Kelishuv komissiyasi tuzish tartibi, komissiyaning tarkibi va ishi Reglamentda belgilanadi.

Kelishuv komissiyasining taklifi qabul qilingan taqdirda, qonunqonunchilik palatasida odatdagi tartibda qayta ko'rib chiqilishi lozim va u ma'kullash uchun Senatga yuboriladi. Agar Senat ilgari rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda uni kelishuv komissiyasining taxririda ma'qo'llanmasa, qonun rad etilgan hisoblanadi va u qonunchilik palatasiga qaytarilishi kerak.

Senat ma'qo'llangan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisiga qaytarishga xaqli. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan va qonunchilik palatasi tomonidan ma'kullash uchun Senatga qaytadan kiritilgan qonunni Senat ko'rib chiqib, uni ma'kullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan taxririda Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qo'llansa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Senat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslaxat qabul qilgan asosida quyidagi hollarda tarqatib yuborilishi mumkin:

Senat tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi xal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yo'z bergan yoki u bir necha marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

Senat bilan qonunchilik palatasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yo'z berganda. Senat tarqatib yuborilgan taqdirda uch oy mobaynida uning yangi tarkibi shakllantiriladi. Senat favqulotda

holat joriy etilgan davrda tarqatilishi mumkin emas.

Senat, uning organlari va senatorlar faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy - texnika ta'minotining Senat devoni amalga oshiradi. Senat devoni to'zilmasi, shtatlari, xodimlarining Mehnat haqqi miqdori va moddiy - texnika ta'minoti, shuningdek, ularning ishlashi uchun zarur harajatlar Senat Raisi tomonidan Tasdiqlanadi.

Senat devoni xodimlarining Mehnatga oid munosabatlari Senatning vakolati muddatiga bog'lik bo'lmaydi. Senat devoni yuridik shaxs hisoblanadi.

Senat devonining tashkil etilishi va faoliyati tartibi Senat Raisi tomonidan Tasdiqlanadigan Nizomda belgilanadi.

Senat faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Senat o'z matbuot organlariga ega bo'ladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda Inson manfaatlari, tinchligi va faravonligiga xizmat qiluvchi demokratik huquqiy davlat barpo etishni ta'minlovchi keng kamrovli siyosiy islohatlar amalga oshirilayotganini barchamiz guvoxi bo'lmokdamiz. Siyosiy islohatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri O'zbekistonda qonunchiqaruvchi Oliy vakillik organi - parlamentni shakllantirishga qaratilgan edi. Bu borada Prezidentimiz 2003 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga bag'ishlangan Ma'ruzasida, «Qonunchiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati o'rtasida vakolatlar yanada demokratik va mutanosib ravishda qayta taqsimlanadi. Xokimiyat tarmog'ining har biri o'z huquq va majburiyatlarini mustaqil holda amalga oshirishi uchun zarur shart - sharoitlar va kafolatlar ta'minlanadi.

Parlamentning roli ortadi. Oliy Majlis xukumatni shakllantirish, uning faoliyatini nazorat qilishdagi vakolati kuchayadi. Prezident vakolatlarining bir qismi –davlat, sud tizimi, maxsus xizmatlarning rahbarlarini, chet ellar va xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va Tasdiqlash Senatga o'tkaziladi», deb belgilab bergan edi.

Bularning barchasi amalga oshdi, hozirgi kunda Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi va sud organlari mustaqil faoliyat yuritishmoqda. Ularning har biri o'z faoliyatini faqatqonun asosida amalga oshirishlari belgilangandir. Talaba yoshlarimizga davlatimiz parlamenti xakida to'laroq tasavvur va tushunchalarga ega bo'lishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga oid qonunhujjatlarini o'rganishni tavsiya etamiz.

GLOSSARIY.

1. Fraktsiya - siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalashmaqsadida to'ziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir.

2. Parlament - frantsuzcha «parler» - gapirmoq so'zidan olingan bo'lib, rasmiy so'zlashish joyi ma'nosini anglatadi.

3. Parlament so'rovi - davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yo'zasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish bo'yicha yo'llangan talabnomadir.

4. Deputat so'rovi - ushbu vakillik muassasasining vakolatiga taallukli masalalar bo'yicha tushuntirish va axborot taqdim etish to'g'risida talab bilan mansabdor shaxsga yoki davlat boshqaruv organiga vakillik organi deputatining murojaati.

5. Demarsh - bir davlat tashqi aloqa organlarining boshqa davlatga nisbatan favqulotda chiqishi.

Nazorat uchun savollar.

1. Oliy Majlisning palatalari qanday tarzda faoliyat olib boradi ?

2. Qonunchilik palatasiga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida nechta deputat saylanadi ?

3. Kim Qonunchilik palatasining deputati bo'lishi mumkin ?

4. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi bo'lishi

mumkinmi ?

5. Senatning vakolat muddati necha yil ?
6. Senatning mutloq vakolatlari ?
7. Senat qo'mitalarining vakolatlari ?
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun necha kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi ?
9. Ikki palatali Parlamentga munosabatingiz qanday ?
10. Qonunchilik palatasining Konstitutsiyaviy vakolatlari qanday ?

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboiev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv qo'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
6. M. Rustomboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. K. Usmanov «O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. Toshkent 2004.
8. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida qonuni - T., 2002 yil 12 dekabr.
9. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998
10. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
11. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari. T. 2003.
12. A. Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993
13. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
15. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. "Konstitutsonnoe pravo Rossii" uchebnik M. 2001.
16. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
17. www. yandex. ru.
18. www. edu. o'z.
19. www. ziyo. net.
20. www. gov. o'z.

20. Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi

REJA.

1. O'zbekistonda Prezidentlik institutining ta'sis etilishi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy huquqiy holati.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentligiga saylovlar o'tkazish tartibi va asosiy tamoyillari.
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining vakolatlari va qabul qiladigan normativ huquqiy hujjatlari.

1. O'zbekistonda Prezidentlik institutining ta'sis etilishi.

Prezidentning davlat markaziy organlari tizimida tutgan o'rni davlat boshqaruvining shakliga bog'lik. Agar mamlakatda davlat boshqaruvining parlamentar respublika turi o'rnatilsa, bu xolda Prezident faqat davlat boshligi vazifasini bajaradi va u ijroiya hokimiyatiga Rahbarlik qila olmaydi. Shuning uchun hamboshqaruvning parlamentar respublika sharoitida Prezident

davlat organlari tizimida markaziy o'rinni egallaydi.

Boshqaruvning Prezidentlik respublikasi shaklidagi davlatlarda esa respublika Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanadi. u davlat organlari tizimida markaziy o'rinni egallaydi.

Boshqaruvning Prezidentlik respublika shakli hozirgi kunda yirik rivojlangan mamlakatlarda AQSH, Frantsiya, Lotin Amerikasidagi aksariyat davlatlarda va shuningdek, rivojlanayotgan respublika shaklidagi mamlakatlarning kariyib barchasida o'rnatilgan.

Mustaqil Respublika davlat boshlig'isiz yashay olmaydi, chunki prezidentlik instituti mustaqillikning asosiy belgilaridan biridir. Shuning uchun barcha xorijiy mamlakatlar Konsitutsiyalarida Prezident lavozimi bo'shqolgan vaqtda uning o'rnini to'ldirish masalasi qonunda mustahkamlangan, turli davlatlarda bu masala turlicha xal etiladi. Chunonchi vitse - prezident lavozimi mavjud davlatlarda bo'shqolgan prezident lavozimini keyingi navbatdagi saylovlargacha vitse - prezident egallaydi. Navbatdan tashqari saylovlar o'tkazilishi, Italiya va Frantsiya respublikalarida bu lavozimni egallovchi shaxs etib Parlament Oliy palatasi Raisi, Avstriya va Finlandiyada esa xukumat boshlig'i bo'lishi mustahkamlangan. Agar prezident lavozimini bo'sh bo'lsa, bu muddatda prezident saylash uchun umumxalq Prezident saylovi o'tkaziladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi sobik Ittifoq respublikalari orasida birinchi bo'lib, boshqaruvning prezidentlik shaklini joriy qildi. Prezidentlik instituti O'zbekistonda 1990 yil 24 martida «O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston SSR konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun bilan kiritildi. Oliy Sovet XII chaqiriq birinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib I. A. Karimov saylandi. Shundan sung 1991 yil 29 dekabr va 2000 yil 9 yanvarda to'g'ridan - to'g'ri umumxalq Prezidenti saylovlari o'tkazildi.

«Prezident» tushunchasi konstitutsiyaviy - huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatadi. Shuning uchun bu institut jahon davlat huquqiy amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo'lgan har qanday zamonaviy demokratik respublikaga xosdir. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlashi lozim.¹⁶

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, «O'zbekiston Prezidenti davlat va ijroiya hokimiyat boshlig'idir. « Ijro hokimiyatiga bevosita iqtisodiyotga, ijtimoiy va ma'naviy sohalarga boshchilik qilish yuklatilgan. Buning uchun unga ko'rsatma, farmoyish beruvchilik funksiyalari taqdim etilgan. Ijro hokimiyatiga qonunlarni ijro etish yuklangan, bu hokimiyatning nomi shundan kelib chiqqan. Ijro hokimiyati murakkab bir - biriga bo'ysunadigan davlat organlari to'zilmalari orqali amalga oshiriladi. Unga O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi yetakchilik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti deb nomlanadi. Bu bob 9 ta moddani o'z ichiga oladi.

Konstitutsiyamizning 90 moddasida, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan Kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida mukim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi» deb qayd etilgandir.

Respublika Prezidentining o'zi xukumat tarkibini to'zadi, uning faoliyatiga bevosita Rahbarlik qiladi. Xukumat va uning a'zolari Prezident oldida hisobot beradilar. Respublika Prezidenti davlat va millatning mushtarak birligi ramzidir. Mazkur sifatda Prezident O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muxofaza etish, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir. U davlat

¹⁶ X.Б.Бобоев «Узбекистон Республикаси Конституциясини урганиш» укув кулланма 338-бет. Т.2001.

qonunchiqaruvchi va ijroiya organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi. Respublika Prezidenti davlat va ijroiya hokimiyatlarining boshlig'i sifatida Respublika konstitutsiya va qonunlariga asoslanib hamda ularni ijro etish yo'zasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.¹⁷

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy huquqiy holati.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 bobi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti» deb nomlanadi. Bu bob 9 moddadan iborat bo'lib ularda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91 moddasida «Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqaxaq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas. Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi» deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab, o'z lavozimini bajarishga kirishadi. Qasamyod konstitutsiya va xalqqa xizmat qilish yo'zasidan Prezident o'z lavozimiga kirishganda beradigan tantanali va'dadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyodining matni Konstitutsiyaning 92 moddasida berilgan:

«O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti parlament deputatlari oldida tantanali ravishda qasamyod qabul qiladi. Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati:

Birinchidan, Prezident qasamyod qilishi bilan o'z lavozimiga kirishadi va o'zining konstitutsiyaviy vakolatlarini bajara boshlaydi.

Ikkinchidan, qasamyod matnida konstitutsiyaga sadoqat, xalq va davlatga xizmat qilish bilan birga ko'pincha diniy tusdagi ifodalar bo'ladi.

Uchinchidan, qasamyodni buzish Prezidentni javobgarlikka olib keladi, bu uning o'z lavozimidan chetlatilishi uchun asos bo'lishi mumkin (impichment).

O'zbekiston Respublika Prezidenti bevosita saylovchilar tomonidan saylanadi va uning daxlsizligi qonun bilan mustahkamlanadi. Saylangan Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida quyidagi qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

«O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman». O'zbekistonda I. A. Karimov birinchi bo'lib qasamyod qabul qildi. Agar bir fuqaro ikkinchi marta ham Prezident etib saylansa, qayta qasamyod qabul qiladi.

3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentligiga saylovlar o'tkazish tartibi va asosiy tamoyillari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90 moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi.

Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining «Prezident saylovi to'g'risida»gi qonuni bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90 moddasiga asosan Prezident lavozimi nomzodlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

Birinchidan, fuqaroning 35 yoshdan Kichik bo'lmasligi;

Ikkinchidan, nomzod O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lishi;

Uchinchidan, Prezidentlik nomzodiga O'zbekiston Respublikasi hududida kamida o'n yil yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin;

¹⁷ Мазкур ҳужжатнинг 94-моддаси

To'rtinchidan, davlat tilini yaxshi biladigan O'zbekiston respublikasining fuqarosi Prezidentlikka saylanishi mumkin;

Beshinchidan, bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Prezident bo'lib saylanishi mumkin emas. Prezident saylovlari o'tkazish tartibi 1991 yil 18 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to'g'risida»gi Qonun bilan belgilab qo'yilgan. Bu qonunga 2004 yil 3 dekabrda Qonun bilan o'zgartirish kiritilgan. Ko'ppartiyaviylik asosida Prezidentlik saylovini o'tkazish quyidagilarni bildiradi:

Birinchidan, huquqiy jihatdan ro'yxatga olingan barcha siyosiy partiyalarning saylov kompaniyasida ishtirok etishi;

Ikkinchidan, Konstitutsiya va qonun talablari doirasida o'z nomzodlarini prezidentlikka ko'rsatish huquqi;

Uchinchidan, siyosiy partiyalarning barcha darajalardagi saylov komissiyalarining ishida qatnashish huquqi va kafolatli shart - sharoit yaratish;

To'rtinchidan, oliy sudga prezidentlik saylovlari haqidagi qonunning buzilish faktlari ustidan shikoyat qilish huquqidir. Saylov huquqining konstitutsiyaviy printsiplari yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy, teng va to'g'ridan - to'g'ri saylash huquqidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan o'tkaziladi. Saylov komissiyalari prezident saylovini ochiqlik va oshkoralik printsipli asosida o'tkazadi.

Prezidentlikka nomzod 15 nafargacha ishonchli vakillarga ega bo'lishi mumkin. Ishonchli vakillar nomzodga prezident etib saylash uchun targ'ibot, tashviqot yuritadilar, davlat organlari va jamoat birlashmalarining organlari, saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarda, shuningdek saylov komissiyalarida nomzodning manfaatlarini himoya qiladilar. Prezidentlikka nomzod ro'yxatga olingandan keyin o'z ishonchli vakillarini o'zi belgilaydi va markaziy saylov komissiyasi ishonchli vakillarini ro'yxatga olib, ularga guvohnoma beradi.

4. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining vakolatlari va qabul qiladigan normativ huquqiy hujjatlari.

Prezident Konstitutsiyaga binoan o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqaxak to'lanadigan lavozimni egallashi yoki vakillik, qonunchiqaruvchi organlarning deputati bo'lishi mumkin emas. Bunday holat respublika Prezidentining ijro etuvchi hokimiyatni boshqarishidan va hokimiyat bulinishi printsipligiga asosan, qonunchiqaruvchi hokimiyatdan mustaqil bo'lishi kerakligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'rniga mos ko'plab vakolatlarni beradi. Prezident faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'rnatilgan doiralardagina faoliyat yuritadi. Prezidentning Konstitutsiyaviy vakolatlari davlat va jamiyat hayoti faoliyatining eng muxim sohalarini qamrab oladi.

- Prezidentning asosiy vazifalari davlatning birligini mamlakat ichida va tashqarisida namoyon qilishdir.

- Prezident vakolatlarining ko'lami uning davlat va ijro hokimiyatining boshlig'i ekanligidan kelib chiqadi.

- fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya etilishining kafilidir;

- O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muxofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yo'zasiidan zarur chora tadbirlar ko'radi;

- mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarida O'zbekiston nomidan ish ko'radi;

- mo'zokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlarga rioya qilishni ta'minlaydi;

- o'z xo'zurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chakiruv yorliklarini qabul qiladi;

- O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarni tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining senatiga taqdim etiladi;
 - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqish va Tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodining taqdim etadi va lavozimidan ozod etadi;
 - O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining takdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini Tasdiqlaydi va lavozimlardan ozod qiladi;
 - O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;
 - O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;
 - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sud'yalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish davlat ko'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;
 - viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy, xo'jalik sudlarining sud'yalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;
 - viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashlarning tasdig'iga kiritadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan, yoki o'z sha'ni qadr - qiymatiga dog' tushiradigan xatti harakatlar sodir etgan tuman shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga xaqli;
 - respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarni tuxtatadi bekor qiladi;
 - O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi. qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga xaqli;
 - O'zbekiston Respublikasiga xujum qilinganda yoki tajovo'zdan bir birini mudofaa qilish yo'zasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urushholati e'lon qiladi va qabul qilingan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;
 - favkulotda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik xalokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yo'z bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favkulotda holat joriy etadi va qabul qilingan qarorni uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favkulotda holat joriy etishshartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;
 - O'zbekiston Respublikasi Ko'rolli Kuchlarining Oliy Boshqo'mondoni hisoblanadi. Ko'rolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;
 - O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofatlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;
 - O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishiga oid masalalarni xal etadi;
 - amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilishhaqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan xukm kilingan shaxslarni avf etadi;
 - O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini to'zadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;
 - ushbu Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga

topshirishga xaqli emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yo'zasidan Respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qonunlar va farmoyishlar chiqaradi.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga taxdid soluvchi xal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yo'z berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga taxdid soluvchi xal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yo'z berganda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslaxat qabul qilgan qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi, Senat tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi, Senat tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi va Senat favkulotda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti betoblighi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'shma qaroriga ko'ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan Tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida palatalar ko'shma favkulotda yig'ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oygacha bo'lgan muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu xolda uch oy ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o'tkazilishi shart.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallashi haqidagi qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 97 moddasida ko'satib qo'yilgandir.

Konstitutsiyaning 94 moddasiga ko'ra Prezident butun O'zbekiston hududida bevosita amal qiladigan, majburiy kuchga ega bo'lgan uch xil normativ huquqiy hujjat: 1) farmonlar; 2) qarorlar; 3) farmoyishlar chiqaradi.

GLOSSARIY:

1. Davlat banki - davlat tomonidan ta'sis etiladigan, davlat byudjetiga, davlat idoralariga, davlatning moliyaviy va boshqa dasturlariga xizmat qiladigan muassasa.
2. Assotsiatsiya - Ittifoq, birlashma, yagona manfaat yo'lida ixtiyoriy Ittifoq tuzish .
3. Proklamatsiya - chakiruv va murojaatlar bayon etilgan yozma varaqlar.
4. Meta - tadbirkorlik huquqida shartnoma yoki bitim deb tushuniladi.
5. Jamiyat - odamlarning uyushgan extiyohlari qon dirilishini ta'minlovchi, ixtiloflarni bartaraf qiluvchi, madaniyatni saqlab rivojlantiruvchi.

Nazorat uchun savollari.

1. Davlat hokimiyati tizimi qanday ?
2. Prezidentlik boshqaruv deganda nimani tushunasiz ?
3. O'zbekistonda birinchi Prezidentlik boshqaruvi qachon vujudga kelgan ?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlarini aytib bering.
5. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi qanday davlat organi ?
6. Vazirlar Mahkamasi faoliyatini aytib bering.
7. Halk deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari faoliyati qanday tashkil etiladi ?
8. O'zini - o'zi boshqarish organlari qanday vakolatlarga ega ?
9. Hokimlar qanday tartibda o'z lavozimiga tayinlanadi va qancha muddatga ?
10. O'zini - o'zi boshqarish organlarining jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati qanday ?

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboiev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv qo'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
6. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. K. Usmanov «O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. Toshkent 2004.
8. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida qonuni - T., 2002 yil 12 dekabr.
9. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998.
10. «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonun. 6 may 1993 yil.
11. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunga sharhlar. T. O'zbekiston 1999 y.
12. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
13. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari. T. 2003.
12. A. Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993
14. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil. sanovleniya) M. 1994.
19. www. yandex. ru.20. www. edu. o'z.
21. www. ziyo. net. 22. www. gov. o'z.

22 - Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlari.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi.
2. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining o'ri va ahamiyati.
3. Xalq deputatlari Kengashlari joylardagi vakillik organi sifatida.
4. Hokim mahalliy ijroiya va vakillik hokimiyatining Rahbari sifatida.
5. Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarining huquqiy holati.

Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari ijro etuvchi hokimiyatlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tuziladi va Oliy Majlis tomonidan Tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining tarkibiga Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari, Qoraqolpoqiston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi kiradi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'rsatmalari, buyruqlari va farmoyishlarini, Oliy Majlis qarorlarini amalga oshiradi, hamda iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyatiga Rahbarlik qiladi.

Vazirlar Mahkamasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bosh vazir;
- Bosh vazir o'rinbosari, makroiqtisodiyot va ctatistika vaziri, umumiyqtisodiyot majmuasi Rahbari;
- Bosh vazir o'rinbosari, yoqilg'i - energetika majmuasi Rahbari;
- Bosh vazir o'rinbosari, xotin - qizlar qo'mitasi raisi, onalik va bolalik, oilani ijtimoiy himoya qilish majmuasi Rahbari;
- Bosh vazir o'rinbosari, ijtimoiy majmua Rahbari;
- Bosh vazir o'rinbosari, savdo va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish majmuasi Rahbari;
- Boshvaziro'rinbosari, qurilishvabinokorlikmateriallarisanoatimajmuasiRahbari;

- Boshvaziro'rinbosari, "O'zavtoyol" konserniraisi;
- Boshvaziro'rinbosari, agrosanoatmajmuasiRahbari, qishloqvasuvxo'jaligivaziri;
- VM Axborot - analitika boshqarmasi boshlig'i;
- VM chet el investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar departamenti boshlig'i.

Vazirlar Maxkamasi - O'zbekiston Respublikasining Hukumati - iktisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy soxalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga, konunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi xokimiyat organi xisoblanadi. Vazirlar Maxkamasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining 6 may 1993 yildagi N818 - XII sonli «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasi to'g'risida»gi Konuniga muvofiq olib boradi. Vazirlar Maxkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning xamjixatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Vazirlar Maxkamasi O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga oid bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va mazkur Konunga muvofiq o'zining vakolatiga kiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvining barcha masalalarini xal etishga xaklidir. Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi

huquqiga ega. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini xisobga olish tamoyillariga asoslanadi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining barcha hududidagi fuqaro, rahbar xodim, korxonalar, tashkilot, birlashma va barcha organlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qaror va farmoyishlar chiqaradi. Me'yoriy xarakterdagi Vazirlar Mahkamasining qarorlari O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plamida nashr etiladi. Zudlik bilan keng ommaga etkazilishi zaruratida esa ommaviy axborot vositalaridan foydalaniladi. Vazirlar Mahkamasi «Pravda Vostoka» gazetasining muassisi, shuningdek, «Xalq so'zi» va «Narodnoe slovo» gazetalarining xam muassisi xisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga:

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirning o'rinbosarlari

Vazirlar

O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitalarining raislari

Davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar

Korakalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi lavozimi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. Vazirlar Mahkamasining Raisi O'zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Bosh vazir:

• Bosh vazirning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taksimlaydi, keyinchalik bu masala Vazirlar Mahkamasining Raisi tomonidan tasdiqlanadi;

• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi;

• Vazirlar Mahkamasining majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

• Vazirlar Mahkamasi Raisining topshirig'i bo'yicha boshqa masalalarni xam xal etadi.

• Bosh vazir bo'lmagan hollarda uning vazifalarini birinchi o'rinbosar bajaradi.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari:

• o'zlariga topshirilgan faoliyat sohasi uchun javob beradilar;

• Vazirlar Mahkamasi majlislarida masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadilar;

• Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi masalalarni ko'rib chiqish haqida takliflar kiritishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini ishlab chiqishda tashabbus ko'rsatishlari mumkin;

• Korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda boshqa pul to'lanadigan lavozimni

egallash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega emaslar.

- Vazirlar Mahkamasi yangidan saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini topshiradi.
2. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining o'rni va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning «Yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmag» degan ko'rsatmalarga amal qilib, vakillik organlarining viloyat, tuman va shahar bo'g'inlari saqlanib qolindi.

Hozirgi davrda joylarda mahalliy davlat hokimiyatining ikki organi tashkil etildi: vakillik organi va ijroiya organi, ya'ni joylarda o'z faoliyatini yakkaboshlik asosida olib boruvchi hokimlik institutlari.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishda hokimiyatning taqsimlanish printsipini asos qilib olganligi mahalliy ijro va vakillik organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning konstitutsiyaviy holatini aniqladi.

Bu haqda Prezidentimiz shunday degan edi: «Markazda va joylarda amaldagi boshqaruv tizimining har bir bo'g'ini o'z vazifasi, vakolatlari va ma'suliyatini yaxshi va chuqur anglaydigan, uni yuqori malaka bilan bajaradigan yaxlit samarali mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi».

Konstitutsiyaga muvofiq viloyatlarda, tumanlarda, shaharlarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil qilinadi. Tumanlarga buysunadigan shaharlarda va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil qilinmaydi.

Respublikamizda bozor munosabatlari chuqurlashib, huquqiy demokratik institutlari rivojlangan sari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ham takomillashib bormoqda. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishda hokimiyatning taqsimlanish printsipi asos qilib olganligi mahalliy ijro va vakilliy organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning Konstitutsiyaviy holati aniqlanadi. Hokimiyatning vakillik va ijroiya organlari joylarda ularga berilgan vakolat doirasida mustaqil faoliyat yuritadi. Ular o'zaro munosabatlarda hamkorlik asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadilar. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlariga hokimlarning rahbarligi uning Kengash oldidagi ma'suliyatini oshiradi.

3. Xalq deputatlari Kengashlari joylardagi vakillik organi sifatida.

- O'zbekiston Respublikasining xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari faoliyatining tashkil etilishi O'zbekiston fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali oshkoralik yo'li bilan amalga oshiriladi.

- Xalq deputatlari Kengashlariga deputatlar saylovi, 1994 yil 5 mayda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) deputatlari saylovi to'g'risida»gi qonun bilan amlaga oshiriladi, xalq deputatlari Kengashlariga deputatlarni saylash huquqi 18 yosh, saylanish huquqi esa 21 yoshdan deb belgilangan. Saylovlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ularning vakolat muddatidan ularning vakolat muddatining tugashiga kamida 3 oy qolganida tayinlanadi.

- Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 60 tadan ko'p bo'lmagan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 30 tadan ko'p bo'lmagan hududiy saylov okruglari to'ziladi. Saylov komissiyalari to'ziladi, saylov kunidan 3 oy oldin deputatlikka nomzod ko'rsatish boshlanadi. Viloyat va Toshkent shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni siyosiy partiya - lar xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari hamda fuqarolarning tashabbuskor guruhlari ko'rsatadi.

- Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari va fuqarolarning tashabbuskori guruhlari egadirlar. Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan qonunda belgilangan tartibda saylov kunidan kamida 6 oy oldin ruyxatdan o'tkazgan bo'lishi lozim. Saylov o'tgandan so'ng saylangan xalq deputatlari Kengashlarining birinchi sessiyasi kechi bilan uch xaftalik muddat ichida chakirtiriladi va u eng keksa deputatlardan biri

tomonidan ochiladi, rais saylanguncha sessiyani olib boradi. Sessiyada Mandat komissiyasi to'ziladi, so'ng doimiy komissiya a'zolari belgilab olinadi. Doimiy komissiya o'z faoliyatini «O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonun va komissiya faoliyati haqida nizom asosida yuritadi. Bundan tashqari hokimliklar xo'zurida hududning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishiga qarab komissiyalar tizimi turli xil bo'lishi mumkin.

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 100 moddasida: mahalliy hokimiyat organlari konstitutsiyaviy vazifalari belgilangan. Ular quyidagilar:

- qonuniylikni, huquqiy - tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijroetish, mahalliy soliklar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;

- atrof – muxitni muxofaza qilish;

- fuqarolar holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish;

Mahalliy hokimiyat organlari o'z hududida fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlaydi, fuqarolik holati aktlarini qayd qiluvchi organlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. Agar tuman va kichik shaharlarda buishlarni bevosita mahalliy hokimiyat organlari amalga oshirsalar, viloyatlarda va Toshkent shaharlarida bu vazifa shu joyda adliya organlari orqali yo'lga qo'yiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati o'z vakolatlariga taluqli turli masalalarni tegishli hududda ijro qilinishi majburiy bo'lgan hujjatlar qabul qilish bilan xal qiladilar. Ularning qabul qilayotgan qarorlarining samaradorligi ularning sinchkovlik bilan tayyorlashga va qonunchilikda ko'rsatilgan ma'lumtalablarning bajarilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Birinchidan, Xalq deputatlari Kengashi va hokimning har bir qarori aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi lozim.

Ikkinchidan: Kengash yoki hokim qabul qiladigan har bir qaror keng ma'noda tejamkor bo'lishi shart.

Uchinchidan, qaror qonuniy bo'lishi kerak ya'ni u tegishli organ tomonidan vakolati doirasida qabul qilinganligini bildiradi va u yoki bu masalani qonun yo'l qo'ygan vositalar bilan xal qilinishi ko'zda tutadi.

Qaror va boshqa hujjatlar ishlab chiqilishi va tayyorlanishida aniq maqsadning ifodalanishini ta'minlab beradi.

4. Hokim mahalliy ijroiya va vakillik hokimiyatining rahbari sifatida.

Hokimlar xalq deputatlari Kengashlari sessiyasiga tayyorgarlik ishlariga rahbarlik qiladi, sessiyani chaqiradi, sessiya haqida deputatlarini va aholini xabardor qiladi, sessiya ishiga rahbarlik qiladi, hamda sessiyada qabul qilingan qarorlarni imzolaydi. Hokimlik lavozimi 1992 yilqa qabul qilingan «Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonun asosida ta'sis etilgan, xozirgi kunda ular o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyati to'g'risidagi qonun, Prezident farmon va qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining me'yoriy hujjatlari asosida yuritishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102 moddasiga ko'ra, «Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tuman hokimlari tegishli shahar hokim tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysinadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Hokimlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi. Shuningdek, hokim apparati kotibiyatdan, boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tashkil etilish tartibi va faoliyat yuritishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli Nizomlar asosida belgilanadi.

Xalq deputalari kengashlari va hokimlarning vakolat muddati, Asosiy qonunimizning 101 moddasiga asosan besh yil hisoblanadi. Hokimlarning o'zlarining amaliy faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, yuqori turuvchi idoralarning qarorlari va farmoishlari, tegishli xalq deputatlari kengashlari qarorlarini amalga oshirish ishini ta'minlaydilar.

Hududni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muxim muammolarini muhokama qilish uchun hokim xo'zurida Maslaxat Kengashi to'ziladi, uning tarkibiga Hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, kotibiyat boshlig'i kiradi.

Hokimning qaroriga muvofiq Maslaxat Kengashi tarkibiga xalq deputatlari va boshqa tashkilotlardan bo'lgan vakillar ham kirishi mumkin. Maslaxat Kengashi majlislari zarurat bo'lib qolganda hokim tomonidan chaqirtiriladi va uning rahbarligida o'tkaziladi. Majlis kun tartibini hokim tasdiqlaydi, Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun tuman va shahar hokimlari, xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalarining raislari, bo'limlar, bosh boshqarmalar rahbarlari, jamoatchilik va xo'jalik tashkilotlarining, ommaviy axborot vositalarining vakillari qatnashadi. Majlislarni tayyorlash va o'tkazish hokim tomonidan uning vakolatini hamma muddatiga tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq amalga oshiriladi. Majlisning borishi haqida bayonnoma yozib boriladi.

Muhokama qilingan masalalar bo'yicha hokim tomonidan qaror yoki farmoyishlar qabul qilinadi va imzolanadi. O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi 1996 yil 30 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy – hududiy toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini xalq etish tartibi to'g'risida»gi qonunda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy – hududiy bo'laklari Qoraqalpogiston Respublikasi viloyat, tuman, shahar, shahardagi tuman, qishloq, ovul va shahar qo'rg'onidan iboratdir, deyilgan.

5. Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarining huquqiy holati.

Prezident I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligidagi yig'ilishda «posyolka va ovullar, mahallalar o'zini - o'zi boshqarish asosida ish yuritadi», deb ta'kidlagan edi.

«Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun yangi tahrirda 1999 yil 14 aprelda qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra o'zini - o'zi boshqarish organlarini ikki bosqichda: oldin yangi qishloq, shahar va ovullar to'zib, undan keyin shahardagi mahallalarda oldingi maxalla qo'mitalari o'rnida tuzilishi belgilandi.

O'zini - o'zi boshqarish organlarining saylash tartibi, faoliyatini tashkil etishhamda vakolat doirasi qonun va o'zini - o'zi boshqarish organlari saylov to'g'risidagi Oliy Majlis qarori bilan belgilanadi.

O'zini - o'zi boshqarishhar qanday demokratik tuzumning asosini tashkil etadi. O'zini - o'zi boshqarish organlari amaliy ish olib borishi uchun yig'in raisi (oksokol)ni va uning maslaxatchilarni saylaydi. Bu saylov «Fuqarolar yig'ini raisi (oksokoli) va uning maslaxatchilari saylovi to'g'risidagi qonun asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolar shaharchalar, qishloqlar, ovullar va maxallalarda o'zini - o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yiginlari orqali amalga oshirishi qonunda belgilangan.

Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarishiga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

demokratizm
oshkoralik

ijtimoiy adolat
insonparvarlik
mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik
jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari fuqarolar o'zini - o'zi boshqarish organlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shartsharoitlar yaratadilar, ularning ishlariga aralashishga yo'l qo'ymaydilar, fuqarolarga o'zini - o'zi boshqarishga doir huquqlarni amalga oshirishga ko'maklashadilar.

Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari quyidagilardir:
shaharcha, ovullar va qishloq, maxalla fuqarolarining yig'ini
fuqarolar yig'inining kengashi
fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalari
fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi
ma'muriy komissiya.

Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Ular yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadilar.

Fuqaro yigini bu fuqarolar o'zini - o'zi boshqarishning yuqori organi bo'lib, aholii manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga egadir.

Fuqarolar yiginida o'n sakkiz yoshga to'lgan va shaharcha, qishloq, ovul va maxalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadilar.

Xozirgi kunda aholiga maxalla orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmi muvoffakiyatli ishlab turibdi. Bu holat aholining maxallaga bo'lgan e'tiborini yanada oshirdi. Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqaruv organlari faoliyatiga yaqindan ko'maklashuvchi «Maxalla» xayriya jamgarmasi faoliyat ko'rsatmokda. Bu borada Vazirlar Mahkamasining Respublika «Maxalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risidagi, 1993 yil 1 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 583 sonli «Respublika «Maxalla» xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirishchora - tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilingan.

Fuqarolarning faolligini oshirish yo'li bilan huquqiy demokratik davlat qurish jarayonini jadallashtirish, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarining davlat boshqaruvi tizimining ayrim vakolatlarini bajarishga kengash yo'l ochish, osoyishtalikni ta'minlash, huquqtartibotni mustahkamlashda davlat idoralari bilan fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarining hamkorlikda ish olib borishini ta'minlash, aholini o'zaro hamjihatligini oshirish maqsadida «Maxalla posboni» jamoat to'zilmalari to'g'risidagi Nizom ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 apreldagi 180 qarori bilan tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish, mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalashga munosib xissa ko'shish, fuqarolarning oilada va maxallalarda tinch osoyishta hamda hamjihatlikda yashashlarini ta'minlash, oilaviy kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan xal etish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib - tashvik qilish maqsadida «Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari xo'zuridagi yarashtirish komissiyalari to'g'risida»gi Nizomi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan Tasdiqlangan. Bundan tashqari 2003 yil «Obod maxalla yili» deb e'lon qilingan. Respublika Prezidenti I. A. Karimov Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarishi haqida, « Har qaysi inson, har qaysi xonadon hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, odamlarning boshini kovushtirish, turar joylarda tartib - intizomni mustahkamlashda, o'zini - o'zi boshqarish tizimini joriy qilishda maxallaning roli, ahamiyati va mohiyati kundan kunga oshib borayotganini barchamiz ko'rib turibmiz.

Shu bois, maxallaning hayotimizdagi mavkei yuksak, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo'lib rivoj topsa, bu idorani jamiyatimiz siyosiy - iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas bir qismi, quyiboshqarish tizimi sifatida nechog'li kuchaytirsak, Buning uchun barcha moddiy - moliyaviy sharoitlarni maqsadlarga erishish yo'lida katta qadam bo'ladi», degan edi o'z ma'ruzasida.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlar shahar, tumanlar miqyosida tashkil etiladigan fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish ishlari bo'yicha oqsoqollar Kengashi muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish faoliyatida Oqsoqollar Kengashi ham muxim o'rin tutadi. U 1999 yil noyabr oyida Respublika Oqsoqollar Kengashi to'zildi va tarkibi belgilandi. O'zbekiston «Oqsoqollar Kengashi» va Respublika «Maxalla» jamgarmasi fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada to'g'ri yo'lga qo'yishda moddiy va ma'rifiy jihatdan ko'maklashmoqda.

O'zini o'zi boshqarish organlari moliyaviy resurslari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan ajratiladigan byudjet mablag'laridan, fuqarolar va Mehnat jamoalarining ixtiyoriy xayrexsonlaridan, xayriya jamgarmalari va mahalliy hokimiyat tomonidan ajratib beriladigan mablag'lardan tashkil topadi.

O'zini - o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag'lari bankdagi mustaqil hisob rakamlarida saqlanadi, ular tomonidan mustaqil tasarruf etiladi va olib kuyilishi mumkin emas.

qonunga muvofiq o'zini - o'zi boshqarish organlarining moliyaviy qarorlari, shuningdek rais (oqsoqol)ning xatti - harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

XULOSA.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida Ijro etuvchi davlat hokimiyat organlari davlat boshqaruvida asosiy markazda turadi. Shuning uchun ham ular faoliyatining asosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Konstitutsiya asosida davlat ijroiya hokimiyat organlarining har biri faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy hujjatlar qabul qilingandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiya asosida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tunrisida»gi, Hokimliklar «Mahalliy davlat hokimiyat organlari tugrsida»gi, shaharcha, ovullar, qishloq va maxallalar «Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun asosida faoliyat yuritib, huquqlar, vakolatlar va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Mahalliy organlar haqida gapirishda Prezidentimizning kuyidagi gaplarini eslamay bo'lmaydi: «Bizning hayotimizni tebratadigan shunday bir soha borki, uni xechqanday qonun yoki rasmiy hujjat bilan chegaralab belgilab bo'lmaydi. Bu soha bevosita odamlarning ma'naviyati, ruxiy dunyosi va mafkuraviy ongi hamda tafakko'ri bilan bog'likdir.

Shu jumladan, bir joyda yashayotgan odamlarning o'zaro aloqalari, oila munosabatlari deysizmi, qo'ni - qo'shnicilik deysizmi, quda - andachilik deysizmi bularning barchasi g'oyat o'ziga xos sirli bir olam.

Bu haqda ko'p gapirish mumkin, shuning uchun hamSharq olamida, islom falsafasida odamlarning maxalla, ya'ni jamoa bo'lib yashashida, jamiyat hayotida tinchlik osoyishtalikni saklashda mexribonlik, shafkat va muruvvat naqadar katta urin tutganini anglash mumkin. «Haqiqatdan ham maxalla haqida juda ko'p ijobiy fikrlarni aytilish mumkin. Ota - bobolarimiz «Otang maxalla, onang - maxalla» degan xikmatlarida juda katta ma'no bor. Shu bois biz ham muntazam talabalarga odobaxlok, shariat qoidalaridan kelib chiqkan xolda davlat boshqaruv organlari faoliyati, ularning funktsiyalaridan vujudga keladigan majburiyatlarga ijobiy karashni o'rgatishga harakat kilamiz. Bundan tashkari jamoa joylarida o'zini tutish, jamoat ishlariga faol katnashish kabilarni ular ongida shakllantirishga harakat qilmoqdamiz.

GLOSSARIY.

1. Sessiya - xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashining asosiy ishshakli.
2. Hokim - mahalliy ijroiya va vakillik hokimiyatining rahbari.
3. Fuqarolar o'zini - o'zi boshqarish organlari - shaharcha, qishloq va ovullardagi hamda ularning tarkibidagi mahallalarni va shahar tarkibida mahallalardagi fuqarolar yig'ini.

Nazorat uchun savollar.

1. Halq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari faoliyati qanday tashkil etiladi ?
2. O'zini - o'zi boshqarish organlari qanday vakolatlarga ega ?

3. Hokimlar qanday tartibda o'z lavozimiga tayinlanadi va qancha muddatga ?
4. O'zini - o'zi boshqarish organlarining jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati qanday ?

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
2. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T - O'zbekiston - 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
5. X. B. Boboiev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv qo'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
6. M. Rustomboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
7. K. Usmanov «O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. Toshkent 2004.
8. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida qonuni - T., 2002 yil 12 dekabr.
9. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998.
10. «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonun. 6 may 1993 yil.
11. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunga sharhlar. T. O'zbekiston 1999 y.
12. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
13. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari. T. 2003.
12. A. Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993
14. Yuridik entsiklopediya. T. Sharq 2004.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi 4 yanvar 2001 yil.
16. Kozlova Ye. I., Kutafin O. Ye. «Konstitutsonoe pravo Rossii» uchebnik M. 2001.
17. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun. 14 aprel 1999 y.
18. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar yig'ini raisi (oksoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qonun. Halk so'zi 2004 yil 7yanvar.
19. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyat organlari to'g'risida»gi qonuni. «O'zbekistonning yangi qonunlari» T. Adolat 18 - son.
20. «Mahalla» Fuqarolar o'zini - o'zi boshqarishining huquqiy asoslari. T. 2003.
21. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. M. 2001.
22. www. yandex. ru.
23. www. edu. o'z.
24. www. ziyo. net

23 - Mavzu: O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi.

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov organlarining huquqiy maqomi.
2. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining tashkil etilishi tizimi, vazifalari.

3. Odil sudlovning Konstitutsiyaviy tamoyillari.
4. O'zbekistonda sudyalarning maqomi.
5. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi, faoliyat yuritishi.
6. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari faoliyati.

1. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining tashkil etilishi, tizimi va vazifalari

Sud hokimiyati kishilik jamiyatida davlatning bunyodga kelishi bilan uzviy bog'lik. U ijtimoiy kelishmovchiliklar, nizolar, tajovo'zlarga barham berish va adolat o'rnatish uchun xizmat qiladigan hokimiyat tarikasida vujudga kelgan. Jamiyatni boshqarish uchun davlatning yo'zaga kelishi va unda sud faoliyatiga bo'lgan extiyoj adolat g'oyalarining maxsulidir. Davlatning qachon va qaysi hududda birinchi marta bunyodga kelgani xozircha aniq ma'lumotlar yo'qligidek, sud tizimi dastlab qachon va qaerda shakllanganligi noma'lum. Jamiyatni boshqarishga oid barcha zarur ishlarni dastlabki davrlarda jamoaga sardor, sarkarda bo'lgan, katta obrue'tiborli, tajribali shaxslar bevosita o'zlari bajarganlar. Keyinroq esa jamiyat a'zolarining o'rtasida yo'z beradigan nizo va tuknashuvlarni bartaraf etish, xaqllilarni himoyalash, noxaqlarga ta'siriy choralar qurish vazifalarini aloxida lozimligi xakamlar zimmasiga yuklangan.

Davlat boshqaruvining turli sohalari ixtisoslasha borgan sari sud tizimi va huquqni muxofaza qiluvchi maxsus idoralar faoliyat ko'rsata boshlagan. Ular qanchalik odilona va xozirjavoblik bilan ishlasalar, jamiyat a'zolarining ichki tinchtotuvligi, hamjihatligi shunchalik mustahkam bo'ladi.

Kishilik jamiyati har jihatdan adolatga intiladi. Jumladan, davlat hokimiyatining o'zi, u chiqargan qonunqoidalar, o'rnatilgan tartiblar ham odilona bo'lmog'i shart. qonunlar ijrosi va jamiyatdagi noxush xollarga, nifoklarga barham berishham adolatga suyangan bo'lishi lozim.

Ana shu borada soxibqiron bobokalonlarimiz Amir Temyrning «Kuch adolatdadir» degan da'vati bejiz emas. Mamlakatimizda, umuman, sharqda adolatparvarlikka, huquqshunoslikka alohida e'tibor berilgan. Aynan yurtimizda musulmon huquqi fiqh eng yuqori darajada qadrlanib kelingan. Imom Buxoriy, At - Termiziy, Burxoniddin Marg'iloniy kabi o'nlab olamshumul fiqhshunos allomalar bilan faxrlanishga haqlimiz.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda adolatning muntazam saloxiyatini ta'minlash uchun sud tizimi mavjud. Xozir amalda bo'lgan 140dan ziyod davlatlarning konstitutsiyalarida sud tizimi va uning faoliyatiga alohida urin berilgan. O'zbekiston Respublikasining 1992 yilga Konstitutsiyasida ham 106 - 116moddalar maxsus bobga ajratilib, sud tizimining asoslariga bagishlangan.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda sud hokimiyatining shakllantirish muxim ahamiyatga ega. «Sud isloxatini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muxim yo'nalishidir. Sud jazolovchi orgnadan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqqiqatdan ham mustaqil bo'lib qolishi mumkin», deb uqdiradi I. A. Karimov.

O'zbekiston Konstitutsiyasida sud hokimiyati mustaqilligining mustahkamlashi odil sudlovni amalga oshirishda keng imkoniyatlar ochdi. Konstitutsiyaning 11moddasiga binoan hokimiyatning qonunchiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga to'la javob beradi.

Sud hokimiyati Konstitutsiya va xalq tomonidan sudga berilgan jinoyat, fuqarolik va ma'muriy hamda xo'jalik ishlari bo'yicha huquq va adolat, qonun ustivorligi tamoyiliga amal qilish, topshirilgan ish uchun javobgarlik asosida odil sudlovni amalga oshirish imkonini beruvchi vakolatlar majmuidir.

Demak, sud ishlari konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va xo'jalik turlariga bulinadi. Konstitutsiyaviy sud ishlari «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi qonun asosida, fuqarolik sud ishlari fuqarolikprotsessual kodeksi va jinoiy sud ishlari jinoyat protsessual kodeksi, ma'muriy sud ishlari esa ma'muriy javobgarlik kodeksi asosida olib boriladi. Bundan tashkari, xo'jalik sud ishlari «O'zbekiston xo'jalik protsessual

kodeksi» asosida yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasining sud tizimi Konstitutsiyaning 107-moddasi va 2000 yil 16 dekabrda yangi taxrida qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 1-moddasida belgilangan. Unga binoan O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi viloyat va Toshkent Shahar xo'jalik sudlari faoliyat ko'rsatadilar. O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga karab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin. Favkulodda sudlar tuzish ga yo'l kuyilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini tashkil etish va uning faoliyat tartibi aloxida qonun bilan belgilanadi.

Sud tizimining faoliyatiga bog'liq yana bir qancha muxim qoidalar ham konstitutsiyamizdan o'rin olgan. Ular jumlasidan hech kimning sud qarorisiz o'z huquq va erkinliklaridan maxrum etilishiga yo'l qo'yilmasligi (19 modda), mulkiy huquqlarining sud orqali himoyalaniishi (33 modda), jamoat birlashmalarini tarkatibyorish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab quyish faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi (62 modda) kabilar aloxida tahsinga loyiq. Ular sud hokimiyati jazolovchi organ emas, huquqni himoya qiluvchi ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Sud tizimining tashkil etilishi va faoliyatiga oid barcha muxim masalalar 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunda, 2001 yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi qonunda, shuningdek, fuqarolik, xo'jalik va jinoyatprotsessual kodekslarda batafsil bayon etilgan.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunda sudning vazifalari ham aniq belgilab qo'yilgan. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustivorligi, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinch - totuvligini ta'minlashga karatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov «Biz hokimiyatning uchinchi tarmogi sud huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirishga aloxida ahamiyat beramiz», degan edi Oliy Majlisning qo'shma majlisida.

O'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda huquqiy davlatni shakllantirishning muxim tarkibiy qismi bo'lgan sud - huquq tizimi ko'rilishining mutlako yangi Kontseptsiyasi amalda joriy qilindi.

Sudlarning jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshirildi. qonunchilikka asoslangan xolda sud ishlarini apellyatsiya va kassatsiya tarzida ko'rib chiqish institutlari joriy etildi, tergovsurishtiruv va kishilarni xibsda saklash muddatlari sezilarli darajada qisqartirildi, ishlarni sudlarda ko'rib chiqishning qat'iy muddatlari belgilandi.

Bulardan tashkari mamlakatimiz boshchisi tomonidan o'lim jazosini bekor qilish va qamoqqa olishga sanktsiya berishhuquqini sudlarga o'tkazish to'g'risidagi Farmonlari qabul qilindi.

2. Odil sudlovning Konstitutsiyaviy tamoyillari

Odil sudlovning konstitutsiyaviy tamoyillari bu umumiy, Rahbariy, boshlangichqoidalar bo'lib, davlat faoliyatining ushbu sohaga xos asosiy xususiyatlarini yoritib beradi.

O'zbekiston Respublikasi odil sudloviga oid Konstitutsiyaviy tamoyillarni belgilashda boshqa mamlakatlarning, shuningdek xalqaro huquqiy ijobiy tajribalarni hisobga oladi.

Xususan odil sudlovni amalga oshirish va uni faoliyatini tashkil etishda «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt» kabi xalqaro hujjatlarda o'rnatilgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan.

«Sudlar to'g'risida»gi yangi taxridagi qonunga muvofiq, O'zbekistonda odil sudlovning

quyidagi tamoyillari o'rnatilgan:

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amlaga oshirilishi;

Sud hokimiyatining majburiyligi;

Sud hujjatlarini majburiyligi;

qonun va sud oldida tenglik;

Sud ishlarini yuritishning oshkoraligi;

Sud ishlarining yuritishning o'zbek, qoraqalpoq yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib borilishi;

Himoya va malakali yuridik yordam olish huquqining ta'minlanganligi.

Sud ishlarini yuritishning oshkoraligi tamoyili Konstitutsiyada mustahkamlangan:

113 modda. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan xollardagina yo'l qo'yiladi.

Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, barcha fuqarolar u yoki bu sud ishlarini yuritish protsessida ishtirokchi bo'lmasada, sud ishlarining oshkora ko'rilishi tufayli sud muhokamasida qatnashishlari mumkin.

Sud ishlarini yuritishning qaysi tilda olib borilishi masalasining konstitutsiyaviy tarzda xal etilishi va buni odil sudlovni amalga oshirishdagi muxim tamoyillardan biri sifatida o'rnatilishi demokratik huquqiy davlatga xos xususiyatdir.

«Sudlar to'g'risida»gi qonun va Konstitutsiyaning 115moddasiga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda katnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi. «

Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchilariga tarjimon xizmatidan foydalanish imkoniyati kafolatlangan. Tarjimonga ham, o'z navbatida, ishni aniqhamda tulik bajarish majburiyati yuklatiladi.

Odil sudni amalga oshirilishida himoya va malaka yuridik yordam olish huquqining ta'minlanishi muxim konstitutsiyaviy tamoyillardan biridir. Sudga konstitutsiyada belgilangan va kafolatlangan huquq va erkinliklar katori, qonun (qonun osti hujjatlari) yoki shartnomada ko'rsatilgan huquq va erkinliklar, shuningdek manfaatlar bo'yicha ham murojaat qilinishi mumkin.

Konstitutsiyaning 26 moddasida, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora qilibchiqilib, uning aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Ayblanuvchiga nisbatan sudning xukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar, xattoki u ushlab turilgan bo'lsa ham, uning Mehnat, oila va boshqahuquqhamda erkinliklari amalda cheklanmaydi.

Ayblanuvchi yoki gumondorning jinoyat sodir etishda aybini isbotlovchi asoslar yetarli bo'lsa, qonunda ko'rsatilgan tartibda uning ba'zi bir huquq va erkinliklarini cheklash mumkinligi mustahkamlanadi.

Himoyalani huquqi surishtiruvchi, tergovchi, proko'ror, sud zimmasiga, gumon qiluvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o'ziga qo'yilgan ayblovdan himoyalani uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyat yaratib berishni yuklaydi.

Sud hokimiyatining obrusi ham, mustaqilligi ham ularning qonunchilikka kanchalik moxirona yondosha olishidan kelib chiqadi.

qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan qoidalar barcha shaxslarga birdek ko'llashni talab etadi.

«O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irki, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tikodi, shaxsi va ijtimoiy mavkeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yilgan hamda ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi shart. «deyilgan Asosiy qonunimizning 18 moddasida.

3. O'zbekistonda sud'yalarning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi va sud'yalarga quyiladigan talablar

Sud'yalarning huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari, saylanish tartibi, tayinlanishi va lavozimini egallash, ular mustaqilligining kafolatlari, shuningdek ularning moddiy va ijtimoiy ta'minoti Konstitutsiya va 2001 yil 13 fevralda e'lon kilingan yangi taxrirdagi «Sudlar to'g'risida»gi qonun normalarida belgilab qo'yilgan. qonunniga muvofiq, «Oliy sud va Oliy xo'jalik sudlarining sud'yalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan saylanadi. «

Viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman, (shahar) sudlari sud'yalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xo'zuridagi Sud'yalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining takdimnomasiga ko'ra, xo'jalik sudlarining sud'yalari esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining takdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Harbiy sudlar sud'yalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xo'zuridagi Sud'yalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining takdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining kushma majlisida qilgan Ma'ruzasida ta'kidladiki, «Yana bir o'ta muxim masala sud va huquqni muxofaza qilish organlari xodimlarining ma'suliyatini kuchaytirish haqida aloxida tuxtalishni urinli deb bilaman.

Ilk bor sud'yalik lavozimiga saylangan yoki tayinlangan shaxs qonunning 64 moddasida belgilangan tartibda qasamyod qiladi.

Sud'ya sud'yalarning tegishli malaka xay'atining roziligisiz ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. sud'yalar vakolati, qonunda belgilanishicha, vakolat muddati tugagunga qadar tugatilmaydi. Sud'ya vakolatini muddatidan ilgari tugatishga faqat qonuniy asoslar mavjud bo'lgan kuyidagi yo'llardagina yo'l kuyiladi:

sud'yaning qasamyodini buzgan taqdirda;

yozma ariza bergan taqdirda;

sud'yalarning tegishli malaka xay'ati tomonidan ogohlantirish qilinganidan yoki vakolatlari tuxtatilgandan keyin u sud'ya lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishini davom ettiravergan taqdirda;

sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan taqdirda;

sog'ligi holatiga yoki boshqa o'zlari sabablarga ko'ra o'zoq vaqt mobaynida sud'yalik vazifasini bajarishga qodir bo'lmay qolgan taqdirda.

Bugungi kunda respublikamizda sud sohasida kadrlarni tanlash va tasdiklashning samarali va demokratik mexanizmi yaratilgan, sud qarorlarini ijro etish bo'yicha yetarlicha vakolatga ega bo'lgan departament faoliyat ko'rsatmokda, sudlarning o'zi esa ularga xos bo'lmagan ishlardan ozod etilgan.

Prokuratura organlarining sud jarayoniga aralashuvini jiddiy cheklash bo'yicha qonunchilik normalariga zaruriy o'zgartirishlar kiritildi. Xozirda sud jarayonida tortishuv tamoyili, ya'ni proko'ror bilan advokat huquqlarining tengligi ta'minlanmokda.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va uning faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy nazorat bo'yicha sud organi hisoblanib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1995 yil 30 avgustdan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan Oliy Majlis tomonidan sud Raisi, Rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan

sud'yani qo'shgan xolda Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosidan iborat tarkibida saylanadi.

Sud'ya Konstitutsiyaviy sud tarkibidan chqib ketgan taqdirida Oliy Majlis ushbu moddada belgilangan tartibda boshqa shaxsni saylaydi.

Konstitutsiyaning 107 moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud besh yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sud'yasini almashtirib bo'lmaydi va uning vakolatlari qonunda belgilangan tartib hamda asoslardan o'zga tarzda tuxtalishi yoki tuxtalib turishi mumkin emas.

Qonun tomonidan konstitutsiyaviy sud sud'yaligiga nomzodlar uchun yuqori talablar o'rnatilgan.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunining 12 moddasida siyosat va huquq sohasi mo'taxasislari bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilatli va zarur malakali O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sud sud'yasi etib saylanishi mumkunligi ko'rsatilgan. Konstitutsiyaviy sudning sud'yasi etib saylangan shaxs qonunda belgilangan tartibda qasamyod qiladi.

Konstitutsiyaviy sud sud'yalariga sud'yalik lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishi man etilgan, xususan deputatlik mandatiga ega bulish, siyosiy partiyalarga va harakatlarga a'zo bulish, haq to'lanadigan boshqa lavozimini egallashi mumkin emas. shuningdek, sudda, xo'jalik sudida yoki boshqa organlarda qonuniy vakil bo'lib, shaxslarning manfaatiga yoki majburiyatidan kutulishiga ta'sir o'tkazuvchi xomiylik qilishiga yo'l quyilmaydi.

Konstitutsiyaviy sudda sudga tegishli masalalar zaruriyatiga qarab o'tkaziladigan sud majlislarida ko'rib chiqiladi.

Konstitutsiyaviy sud sud'yasiga nisbatan jinoiy ish faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zgalishi mumkin.

Konstitutsiyamizning 109 moddasi ham «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi qonunining 1 moddasiga binoan Konstitutsiyaviy sud quyidagi vakolatlarga ega:

Qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpogiston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlari ham ko'rib chiqadi;

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

5. O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi va uning huquqiy maqomi

Konstitutsiyaning 110 moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

Oliy sud faoliyatini tashkil qilish va tartibga solish O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 13 fevralda qabul kilingan «Sudlar to'g'risida»gi (yangi taxriridagi) qonuni bilan tartibga solinadi.

Oliy sud, qoida ga ko'ra, quyi sudlarning ma'lum ishlari bo'yicha yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'zatishtirish maqsadida ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va qanchalik asosli ekanligini tekshirish yo'li bilan ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Oliy sud, sud amaliyotini umumlashtirish asosida, sud ishlarini ko'rib chiqishda yo'zaga keladigan qonunchilikni ko'llash masalasidagi muammolar bo'yicha tushuntirishlar beradi.

Oliy sud sudlov ishlarini birinchi instantsiya, appelatsiya, kassatsiya hamda nazorat tartibida ham ko'rib chiqish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi eng yukori

sudlov instantsiyasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud'yalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlarining raislari iborat tarkibda ish olib borishadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan takdirida vakolatli hisoblanadi.

Oliy sud plenumining asosiy vazifalaridan biri sudlov amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqish va qonunhujjatlarini ko'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar olib borish.

*Oliy sud faoliyatini tashkil qilish va unga Rahbarlik qilish avvalo, Oliy sud raisi zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalardan tashkari, umumiy yurisdiksiyali sudlarning barcha xukm va boshqa qarorlariga qonunda belgilangan tartibda protest berish hamda ular ijrosini tuxtatib qo'yish huquqiga ega.

*Oliy sud raisi:

* sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;

* sud tomonidan chiqarilgan xal qiluvchi qarorlari ijrosini qonunda nazarda tutilgan tartibda nazorat qiladi;

* O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumi va Rayosatini chaqiradi;

* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga takdimnomalar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud'yalarning intizomiy javobgarligi haqida ish ko'zg'atadi;

Rais o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining shtat jadvalini tasdiqlaydi;

Buyruk va farmoyishlar chiqaradi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi xodimlari bilan Mehnatshartnomalarini to'zadi va bekor qiladi;

Fuqarolarni shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishlarini tashkil etadi;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi

Iqtisodiy sohalarda, turli mulk shakllariga ega tashkilotlar, idoralar, korxonalarni boshqarish jarayonida, shuningdek tadbirkorlar orasida vujudga keladigan munosabatlarda yo'zaga chiqqan baxslarni xal qilish respublikamizdagi xo'jalik sudlari tizimi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sud tizimi O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar hamda Toshkent shahar sudlari tashkil qiladi.

Xo'jalik sudlarining asosiy vazifalari: tashkilotlar va fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarni himoya qilish, qonunchilikni to'g'ri va bir xilda ko'llash; iqtisodiy munosabatlarda qonuniylikni mustahkamlash va qonunchilikning huquqiy vositalardan foydalanish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Xo'jalik sudi faoliyatining asosiy tamoyillari: qonuniylik, xo'jalik sud'yalarning mustaqilligi, sud va qonun oldida hammani tengligi; tomonlarning teng huquqliligi, ish yuritishda oshkorlik, sud muhokamasi yuritishda oshkorlik, sud muhokamasini bevosita va uzviy amalga oshirish hisoblanadi.

«Sud to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) qonunning 43 moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi xo'jalik ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi oliy xo'jalik sudi ishlarini birinchi instansiya sudi sifatida, kasatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi.

Oliy xo'jalik sudi respublika boshqaruv organlari, mahalliy vakillik organlari va ijro hokimiyati organlari orasida o'zaro iqtisodiy bitimlardan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek, normativ harakterdagi oliy hokimiyat organlarining aktlarini (qisman yoki tamoman)

Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligini aniqlash bo'yicha ishlarni birinchi instantsiya sudi sifatida ko'rib chiqadi.

Oliy xo'jalik sudi respublika xo'jalik sudlarining qonuniy kuchga kirgan sudlov aktlarini hamda shunday aktlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha nazorat tartibida qayta ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining plenumi respublika xo'jaliklari faoliyatidagi asosiy masalalarni xal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining tarkibini O'zbekiston respublikasi oliy xo'jalik sudi plenumi belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sud'yalari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari O'zbekiston respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining tarkibiga lavozim bo'yicha kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining sudlov xay'atlari: ishlarni birinchi instantsiya va kassatsiya tartibida ko'radi, sud amaliyotining urganadi va umumlashtiradi, qonunhujjatlarini takomillashtirish yo'zasidan takliflar ishlab chiqadi, sud statistikasini tahlil qiladi, qonunga muvofiqboshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Oliy xo'jalik sudi sudlov xay'atlaridan tegishli xay'at tarkibiga kiruvchi sud'yalar orasida sud tarkiblari tashkil qilinadi. Sud tarkiblari tashkil qiladi. Sud tarkiblarini Oliy xo'jalik sudi raisi shakllantiradi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik ishlari bo'yicha sudlar o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi xo'jalik protsessual kodeksi va Oliy sud Plenumi qarorlari asosida yuritadi.

Prokuratura organlari

Prokuraturaning vazifasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, qonun buzilishining oldini olish, qonunlarning aniq bajarilishi ustidan nazorat, prokuror nazorati, umumiy nazorat, qonunchilikni taminlash, qonun buzilishini qayd etish, qaror, tavsiyanoma, ogohlantirish xati, prokuraturani tashkil etish, prokuratura organlari faoliyatining printsiplari.

Prokuratura organlari huquqni muxofaza qilish organlari tizimida etakchi o'rinni egallaydi. Prokuraturaning vazifasi jinoyatchilikka qarshi kurashishdan iborat. Prokuror kotil, bezori, o'g'rilarni va shu kabi jinoyatchilarni sudda ayblaydi hamda ularni jazolashni talab qiladi, degan umumiy fikr mavjud. Biroq, amalda hamda ishshu tarzda bo'lavermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118 - moddasida bunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi». Barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va muassasalari, davlat nazorati idoralari, hokimiyatlar, shuningdek kimga qarashlilikidan va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, hamda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar qonunlarni aniqva bir hilda bajarishlari ustidan nazorat prokuratura zimmasiga yuklatilgan.

Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalar - qonunlar ustivorligini har tomonlama qaror toptirish, huquq - tartibotni mustahkamlash, insonning hamda fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquq va erkinliklariga nisbatan g'ayriqonuniy hurujlardan, shuningdek ijtimoiy davlat tuzumiga, siyosiy va iqtisodiy tizimga, milliy guruxlar hamda hududiy tuzilmalarga nisbatan hurujlardan ularni himoya qilishni taxminlash - bularning hammasi prokuraturaning bosh vazifasidir. Prokuratura o'zining butun faoliyati bilan mansabdor shaxslar va fuqarolarni o'z burchini halol bajarish, qonunlarga rioya qilish ruxida tarbiyalashga yordam bermog'i lozim. Prokuror nazorati davlat nomidan, davlatning oliy organi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nomidan amalga oshiriladi.

Prokuror nazorati bir qator yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- qonunlar bajarilishi ustidan umumiy nazorat;
- jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlarning qonunlarni bajarishi ustidan nazorat;
- qo'lga olingan kishilar, dastlabki tarzda qamoqqa olinganlar ushlab turiladigan joylarda, qonunlar bajarilishi ustidan, shuningdek sud tomonidan tayinlangan jazo choralari va majburiy

tusdagi boshqachoralarni ijro etish paytida qonunlar bajarilishi ustidan nazorat.

Ana shu barcha yo'nalishlar qonunchilikni mustahkamlash vazifalari hamda prokuror vakolatlarining doirasi umumiyliigi bilan mahkam bog'langan. Biroq, umumiy nazorat prokuror nazoratining etakchi yo'nalishidir. Jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy turmushida tub o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi kunda umumiy nazoratning ahamiyati oshdi.

«Umumiy nazorat» iborasi qadimdan davom etib kelayotgan tushunchadir. Uning mohiyati - davlat boshqaruvi sohasida qonunlar aniqva bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat. Qonunlarga rioya etmaslik hollari bir vaqtlar ko'pincha ana shu sohada ko'proq ko'zga tashlanardi.

Umumiy nazoratning boshqa bir jixati harbiy qismlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlar aniqva bir xilda bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

Umumiy nazoratni amalga oshirishda prokuratura organlarining asosiy diqqat e'tibori quyidagi holatlarda qonunchilikni ta'minlashga qaratiladi:

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy boshqaruv idoralari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar tomonidan huquqiy hujjatlar nashr qilinganida;

- mansabdor shaxslar huquqiy xujjatlarni va avvalo shaxsning daxlsizligini, insonning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquq va erkinliklari daxlsizligini ta'minlashga, uning shon - sharafi va qadr - qimmatini himoya qilinishiga, iqtisodiy munosabatlar va atrof - muxit muxofaza qilinishiga qaratilgan huquqiy xujjatlarni bajarayotganida;

- fuqarolarning Konstitutsiyaviy burchlarini ado etayotganlarida.

Prokuror umumiy nazoratni amalga oshirar ekan, quyidagi huquqlarga egadir:

- qarorlar, farmoyishlar, yo'riqnomalar, buyruqlar hamdaboshqa xujjatlar va materiallarni, tekshirish uchun ularni talab qilib olish, qonuniylikning holati va uni ta'minlash tadbirlari haqidagi axborotlarni olish;

- o'z nazorati ostidagi hamda o'ziga qarashli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda tekshiruvlar o'tkazilishini, tekshiruvlarni o'tkazish uchun mutaxassislar ajratilishini, idoraviy va idoradan tashqari ekspertizalar o'tkazilishini davlat organlari va harbiy qismlarning raxbarlari va mansabdor shaxslaridan talab qiladi.

- mansabdor shaxslar va fuqarolarni chaqirtirish, qonun buzilganligi xususida ulardan og'zaki yoki yozma ravishda tushuntirish xatlarini talab qilish.

Qonun buzilganligi aniqlanganida prokuror yoki uning o'rinbosari o'z huquqi doirasida quyidagi ishlarni bajarishga xaqli: - vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, xokimiyatlar, harbiy qismlar, jamoat birlashmalarining xujjatlari, shuningdek mansabdor shaxslarining qarorlari va xatti - harakatlari yuzasidan norozilik bildirish;

- belgilangan tartibda jinoiy ishko'zg'ash, intizomiy ishlar yoki ma'muriy tartibdagi qonun buzishlar bo'yicha ishko'zg'ash, materiallarni jamoat bilan ko'rib chiqishi uchun topshirish;

- qonun buzilganligi aniqko'rinib turgan xollarda uni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish;

- qonunni buzish mumkin emasligi to'g'risida mansabdor shaxslar va fuqarolarni yozma ravishda ogohlantirish;

- qonun buzilganligini bartaraf etish, shuningdek bunga yordam bergan sabablar hamdashart - sharoitlarni tugatishhaqida davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga tavsiyanomalar yuborish;

- fuqarolarning, jamiyat hamda davlatning huquqlarini va qonun bilan muxofaza etiladigan manfaatlarini himoyalash to'g'risida sudlarga yoki xo'jalik sudlariga murojaat etish;

- davlat organlari va jamoat birlashmalarining normativ xujjatlari Konstitutsiyaga mos bo'lmagan xollarda Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish (bu xususda Konstitutsiyaga muvofiq prokuror nazorati amalga oshirilmaydi).

Qonun buzilganligi aniqlangan taqdirda prokuror bu xususda norozilik xati (protest), ko'rsatma, tavsiyanoma, ogohlantirish xati, qaror tayyorlaydi.

Qonunga zid bo'lgan normativ xujjat bo'yicha yozilgan norozilik xati o'sha normativ xujjatni nashr etgan idoraga yoki yuqori organga yuboriladi va u olingan paytidan boshlab o'n

kunlik muddatdan kechiqtirmai albatta ko'rib chiqilishi shart. Favqulodda holatlarda prokuror bundan kamroq muddat belgilashga xaqli.

Huquqqa oid xujjatni nashr qilgan idora yoki yuqori organ norozilik xatini rad etgan, shuningdek norozilik xati belgilangan muddatda ko'rib chiqilmagan xollarda prokuror bunday xatti - harakatning qonuniy emasligini tan olish xususida sudga ariza bilan murojaat etishga xaqlidir. Prokuror sudga ariza berishi bilan yuqorida tilga olingan xujjatning amal qilishi to sud bu ishni ko'rib chiqkuniga qadar to'xtatib quyiladi.

Qonun buzilishi aniq - ravshan ko'rinib turgan bo'lsa va agar bu holat tezlik bilan bartaraf etilmasa, u fuqarolarning huquqlariga hamda davlat, korxonalar, muassasa, tashkilotning qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar etkazishi mumkin bo'lsa, prokuror yozma buyruqchiqaradi.

Qaror - jinoiy ishko'zrash to'grisdagi, intizom yoki ma'muriy qoida buzishlar bo'yicha ishko'zg'ash to'grisdagi xujjatdir.

Tavsiyanoma - qonun bir necha bor buzilishi bo'yicha buning kelib chiqishiga yordam bergan sabablar va shart - sharoitlar, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar berish bo'yicha prokuror nazoratini amalga oshiruvchi xujjatdir.

Ogohlantirish xati - bu yozma ravishdag'i yuridik xujjat bo'lib, unda ba'sharti shaxs bundan buyon ham qonun buzilishi xollariga yo'l qo'yadigan bo'lsa shu shaxsga nisbatan tegishli ma'muriy jazo chorasi qo'llanilishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi to'grisida u ogohlantirib qo'yiladi.

Prokuratura umumiy nazorat ishini yuritar ekan, o'z ixtiyoridagi mavjud huquqiy omillardan iloji boricha to'la foydalanishi lozim. Bundan kuzatilgan maqsad - Respublikaning ijtimoiy - iqtisodiy jixatdan muvaffaqiyatli rivojlanishini taxminlashdan, demokratiyani keng quloqch yoydirishdan, jamiyatimizning olg'a harakatqilishiga halakit berayotgan jinoyatchilikka qarshi kurashdagi faollikni imkoni boricha kuchaytirishdan, boshqaruv organlari, xo'jalik raxbarlari, yuridik va taftish xizmatlari nazorat qiluvchi idoralar qonunchilikni taxminlash borasida o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun ularning ma'suliyatini oshirishdan iboratdir.

Prokuratura organlari prokuror nazoratiga xos usullar bilan ish yuritib, iqtisodiyotni yangi izga solnshda kattiy huquqiy tartib o'rnatilishiga har tomonlama yordam berishlari kerak.

Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalasiga prokuratura organlari diqqat - extiborni kuchaytirishlari ham talab qilinadi. Bunda takiklashchoralariga nisbatan himoyaqilishchoralariga ko'proq extibor berilmogi lozim. Inson haqidag'amxo'rlik qilish, qonun oldida hamda kishilarning tengligini taxminlash, fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga qaratilgan xatti - harakatlar payini kattiy suratda kirqish, fuqarolarning takliflari, arizalari va shikoyatlarini diqqat - extibor bilan ko'rib chiqish prokuratura barcha xodimlarining fuqarolik burchidir.

Prokuratura diqqat - extiborining umumiy nazorat sohasiga jamlanishi nazorat faoliyatining boshqa yo'nalishlariga nisbatan extibor susayishini aslo bildirmaydi. Vaxolanki, boshqa yo'nalishlardagi ishlar ham xali ko'ngildagidek emas. Masalan, jinoyatchilikka qarshi kurash olib borayotgan organlarning faoliyatini nazorat qilish bilan mazkur organlar ishidagi qonun buzilishi xollarini tugatishga erishib bo'lmayapti. Ular ishidagi qonun buzilishi xollari kamayish o'rniga aksincha, ortib borayapti. Fuqarolarni gayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortish faktlari juda ko'p, ularni qonunga xilof ravishda kamab ko'yish va ushlab turish xollari mavjud. Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurash olib, borayotgan organlar faoliyatida qonunchilikni taxminlash prokuratura organlari ishidagi muxim yo'nalishdir.

Prokuratura organlarining bu soxadagi eng muxim vazifalari ko'yidagilardan iborat:

- jazolanishning mukarrarligini taxminlash. Birona ham jinoyat ochilmay qolmasligi mumkin emas, jinoiy ishqilgan birona hamshaxs qonun bilan belgilab qo'yilgan javobgarlikdan kochib kutilmasligi kerak;

- prostessual faoliyatni va ayniksa inson huquqlari va erkinliklari cheklab qo'yilishn bilan bog'lik faoliyatni amalga oshirishda qonuniylikni taxminlash. Jinoiy ishqilishda shubxa ostiga olingan fuqarolar faqatqonunda belgilab qo'yilgan tartib va asoslarga muvofik ushlanishi

mumkin. Sudning qarorisiz yoki prokurorning roziligisiz hech kim qonunga xilof tarzda va asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas;

- ish bo'yicha ayblanuvchining aybini ochuvchi va uni o'qlovchi, shuningdek uning javobgarligini yumshatuvchi yoki og'irlashtiruvchi barcha holatlar har tomonlama, xolisona tadqiqilinishini taxminlash;

- jinoyatni sodir qilishdagi sabablarni hamda bunga yordam bergan sharoitlarni aniqlash, jinoyat sodir qilishning oldini olishchoralarini ko'rish.

Ushlab turilganlar, dastlabki tarzda kamalganlar yashayotgan joylarda, sud tomonidan belgilangan jazo choralari hamdaboshqa majburiy choralarni ijro etishchogida qonunlarning ijrosini nazorat qilishg'oyat muhim ahamiyatga ega.

Prokuratura organlari nazorat qilish vazifasidan tashqari boshqa vazifalarni ham bajaradilar, chunonchi:

- sudlarda jinoiy ishlar ko'rilayotganida davlat qoralovchisi sifatida qatnashadi, sudlarda fuqarolik ishlari, ma'muriy huquqbuzarlik ishlari va xo'jalik ishlariga doir janjallash masalalar ko'rilayotganida ishtirok etadi, sud xujjatlari qonunga to'g'ri kelmasa, ular yuzasidan norozilik bildiradi;

- jinoiy ishlarni tekshiradi, jinoiy ish sodir qilgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortadi;

- qonunlarni takomillashtirishda va tatgik etishda qatnashadi.

Prokuraturani tashkil etishning va bu organ faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Respublika Bosh prokurori rahbarligidagi prokuratura organlarining birligi va markazlashganligi, quyi darajadagi prokurorlarning yuqori darajadagi prokurorlarga bo'ysunishi. Prokuratura organlari butun tizimining birligi va kattiy tarzda markazlashtirilishi sharoitidagina qonunlarning aniqva bir xilda bajarilishi taxminlanadi. Prokuratura o'z tarkibiga hamda turdagi prokuraturalarni birlashtirgan yagona davlat organidir. Ular:

hududiy, transport, harbiy prokuratura hamda tabiatni muxofaza qilish prokuraturalaridir.

Barcha bug'in va darajadagi prokurorlar oldida yagona maqsadhamda vazifalar turadi. Ularning faoliyati ishshakli va uslublarining umumiyliigi, qonunlar bajarilishini nazorat qilish sohasida bir xilda yo'l tutishi, vakolatlarning birligi bilan belgilanadi.

2. Prokuratura faoliyatida qonuniylikni taxminlash. Prokuraturaning, faoliyati Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga juda mos xolda amalga oshirilishi kerak, chunki qonunning harqanday tarzda buzilishi boshqalarning qonunlariga rioya etishini talab qilishda prokurorni shu huquqdan ma'xrum qiladi, uning obro' - extibori va xurmati pasayishiga olib keladi.

3. Prokuratura organlarining hokimiyat boshqaharqanday organlaridan mustaqilligi. Faqatmustaqil prokuratura Respublikaning butun hududida qonunchilik birligini hamdaqonunlarni maxalliy sharoitlarga moslab olish yo'lidagi urinishlarga qarshi turishni taxminlashga qodirdir. Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolicini to'xtatib turadilar.

4. Qonunni kim buzishidan kattiy nazar, qonun buzilnshi xollarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish. Prokurorning qonunlar bajarilishini nazorat qilishga doir faoliyati qonunlarning buzilishi xollarini aniqlash va ularni bartaraf etishni, buzilgan huquqlarni tiklashni, aybdorlar qanday lavozimda bo'lmasin, ularni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 - moddasida bunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tikodi, shaxsi va ijtimoiy mavkeidan kattiy nazar, qonun oldida tengdirlar».

5. Prokuratura organlari faoliyatida demokratiya va oshkoralik. Prokuratura organlari nimalar bilan shugullanayotganini, qanday kiyinchiliklarga duch kelayotganini, Respublikada qonunchilikning axvoli qandayligini jamoatchilik aniq - ravshan tasavvur qilmog'i lozim. Ayni paytda shuni ham nazarda tutish kerakki, prokuratura organlari ishidagi oshkoralik fuqarolarning huquq va erkinliklarini muxofaza qilish to'grisidagi qonun talablariga, shuningdek davlat sirlarini hamdaqonun bilan himoyalanadpgan boshqa sirlarni saqlash talablariga zid kelmaydigan

darajada bo'lishi zarur.

Prokuratura organlari tizimi O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokuraturasini, viloyatlar, Toshkent shaxri, shahar va tumanlar prokuraturalarini, tumanlararo va boshqahududiy prokuraturalarni o'z ichiga oladi. Bu tizim tarkibiga transport, harbiy, tabiatni muxofaza qilish prokuraturalari va boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar ham kiradi.

Respublika Konstitutsiyasiga muvofik Respublika qonunlarining bajarilishini nazorat qilish vazifasi O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori zimmasiga yuklatilgan. Bosh prokuror Prezident tomonidan besh yil muddatga tayinlanadi, so'ngra Oliy Majlis uni Tasdiqlaydi. Bosh prokuror Oliy, Majlis oldida javobgar bo'lib, unga xisob berib turadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tavsiyasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi hokimiyatining Oliy organi tomonidan tayinlanadi.

Viloyatlarning, Toshkent shaxrining, shaharlar, tumanlarning va ularga, tenglashtirilgan boshqa tarmoqlarning prokurorlarini Respublika Bosh prokurori tayinlaydi. Prokurorlarning vakolati muddati - besh yil.

Prezident I. A. Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida suzlagan nutqida sud - huquq sohasidagi muhim vazifalar tug'risida tuxtalib, jumladan «...huquq tartibot organlarining uzi qonunlarga suzsiz rioya qilishini taxminlashimiz lozim»ligini alox'ida ta'kidlab utdi. Chunki bu yurtboshimiz aytib utganidek huquqiy davlatning mazmun mohiyatini tashkil etadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan sudlarning ijobiy ishlarini qayd etar ekanmiz, bu sohada xali o'z yechimini topmagan jiddiy muammolar borligini ham unutmashimiz kerak, ya'ni sudlarning haqiqiy mustaqilligi, erkinligini ta'minlanishi muammolari oxirigacha yetkazilmaganligi. Ma'lumki, sud bu odil sudlovning oliy nuqtasi, demak u har tomonlama mustaqil bo'lishi lozim.

Umuman olganda sud tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, uylaymizki, ikki palatali parlamentimiz sud faoliyatiga oid qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltiradi va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini qabul qiladi, shunda har bir sohadagi, shuningdek sud sohasidagi ayrim kamchiliklar o'z o'zidan barham topadi. Respublika Prezidenti ta'biri bilan aytganda, «Biz oldimizga qo'ygan maqsadni soddagina ifodalamoqchi bo'lsak har qanday hokimiyat, u qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo'ladimi bularning barchasi quyidagi talablarga javob berishi shart. Ya'ni, har qaysisi o'z vazifasini anglashi, o'z ma'suliyatini xis qilishi, o'z yukini ko'tarishi va ta'bir joiz bo'lsa, o'z aravasini o'zi tortishi darkor». Yurtboshimizning bu fikrlariga qushilib shuni aytmogchimizki, talabalarimiz ham o'zlariga yuklatilgan har qanday fuqarolik burchlarini o'z vaqtida talab doirasida bajarishsa, jamiyatimizga komil inson sifatida o'z xissasini qo'shuvchi hisoblanar edilar.

GLOSSARIY:

1. Sud'ya - sud organlarida sudga tushgan ishlarni ko'ruvchi, xukm va qaror chiqaruvchi lavozimdagi shaxs.
2. Yuristkonsult - huquq maslaxatchisi.
3. Sud - amaldagi qonunlar asosida va belgilangan protsessual qoidalarga binoan fuqarolik va jinoiy ishlarni, ma'muriy ishlarni ko'radigan davlat organi.
4. Apelyatsiya - shikoyat ya'ni ishni ko'rgan quyi sud yechimini qayta ko'rishni so'rab yuqori sudga murojaat qilish.
5. Arbitraj - hakamlar sudi.
6. Vandalizm - madaniy va moddiy boyliklarni shafqatsiz yo'q qilish.
7. Ayblanuvchi - qonunda belgilangan tartibda ayblanuvi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs.
8. Vasiqa - O'zRes. FKga muvofiq mol - mulkka egalik qilishni tasdiqlovchi dalolatnoma.

Nazorat uchun savollar.

1. Sud'yaning dahlsizlik huquqini tushuntiring.
2. Konstitutsiyaviy sudning vazifasini ayting.
3. Aybsizlik prezumptsiyasini tushuntirib bering.
4. Sud'yalarga qanday talablar qo'yiladi.
5. Qonunchilik va qonuniylikni tushuntiring.
6. Xo'jalik sudi qanday ishlar bilan shug'ullanadi ?
7. Odil sudlov deganda nimani tushunasiz ?
8. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi haqida tushuncha bering.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi faoliyati haqida nima bilasiz ?
10. O'zbekiston Respublikasi sudyalari saylanadimi yoki tayinlanadimi ?

Adabiyotlar

- 10'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2010 yil.
2. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
 3. I. A. Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T - 2 T O'zbekiston 1996
 4. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni 2001 yil 13 fevral.
 5. «O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi T - Adolat 1996.
 6. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksi T - Adolat 1998.
 7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi T. Adolat - 2002y.
 8. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual Kodeksi. T. Adolat 1998y.
 7. «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni 30. 04. 95y.
 9. I. A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1996.
 10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar T. O'zbekiston 2008.
 11. X. B. Boboev, A. Saidov « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». O'quv qo'llanma « O'zbekiston », T., 2005.
 12. M. Rustamboyev va boshq. « O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». Toshkent. 2005.
 13. K. Usmanov «O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. Toshkent 2004.
 14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida qonuni - T., 2002 yil 12 dekabr.
 15. R. Qayumov « O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. «Adolat», T., 1998.
 16. «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonun. 6 may 1993 yil.
 17. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunga sharhlar. T. O'zbekiston 1999 y.
 18. S. O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi «Adolat», T., 1993
 19. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari. T. 2003.
 20. A. Saidov Mustaqillik Qomusi. « O'zbekiston », T., 1993
 21. www. yandex. ru.
 22. www. edu. o'z.

GLOSSARIY:

1. Respublika – (lot. – umumiy ish) – davlatni idora qilish (boshqarish) shakli bo'lib, unda davlatni saylab kuyilgan kishilar boshqaradi.
2. Unitar – (lot. Uniya – birlik) – yagona. Davlatning tuzilishshakli bo'lib, muayyan ma'muriy hududiy bulinishga ega bo'ladi. Birok bu mustakil hududlar (tumanlar, viloyatlar, kontonlar) davlat suverenitetiga ega bo'lmaydi.

3. Federatsiya – (lot. Ittifok, birlashma) – davlatning tuzilishshakli boʻlib, uning asosi – ikki yoki bir necha mustaqil davlatning bitta Ittifoq davlatga birlashishdir.
4. Konfederatsiya – (lot. – uyushma) – shartnoma asosida qatʼiy muayyan maqsadlar yoʻlida birlashadi.
5. Suverenitet – frans., bir davlatning ikkinchi davlatga (vasallik)ga nisbatan ustuvorlik huquqi.
6. Anarxiya – hokimiyatsizlik.
7. Despotizm – zolimlik, zulmkorlik.
8. Aksizdemokratik rejim – demokratik qoidalarga rioya etmaydi
9. Maʼmuriy - boshqaraman, boshqaruvchi maʼnosini anglatadi.
10. Maʼmuriy huquq - davlat boshqaruvini tashkil etishtartibi va boshqaruvni amalga oshirish normalarini oʻz ichiga olgan huquqning aloxida tarmogi.
11. Davlat boshqaruvi - ijtimoiy boshqaruvning asosiy turi.
12. Prokuratura nazorat organi.
13. Davlat boshqaruv organlari - ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiradi.
14. Maʼmuriy huquqiy norma - davlat tomonidan urnatilgan va bajarishi shart boʻlgan qoida.
15. Maʼmuriy huquqbuzarlik - maʼmuriy qoidalarning buzilishidir.
16. Maʼmuriy protsess - maʼmuriy xukuk normalarini amalga oshirish jarayoni.
17. Fuqarolik - shaxsning aniqbir davlatga siyosiy va huquqiy mansubligi.
18. Fuqarolik muomalasi - iqtisodiy muomalaning fuqarolik huquqiy ifodasi.
19. Fakt - haqiqatdan boʻlgan voqea, xodisa.
20. Yuridik fakt - qonunda koʻzda tutilgan aniqhuquq munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos boʻladigan holat.
21. Kredit - pul yoki tovarlarni maʼlum muddatga qarzga berish.
22. Kontraktatsiya - maxsulot ishlab chiqaruvchi va uni harid qilish, sotish bilan shugillanuvchi tashkilotlar oʻrtasida kontrakt tuzish .
23. Akseptant - koʻrsatilgan xisob, vaksel buyicha toʻlash majburiyatni olgan shaxs.
24. Ijrochi - maishiy xizmat, uy - joy kommunal taʼmirlash, qurilish, transport xizmati, va xizmat koʻrsatishning boshqa soxalari buyicha isteʼmolchi uchun ishlar bajaradigan va xizmatlar koʻrsatadigan korxonona, tashkilot, birlashma, yoki yakka tartibda faoliyat koʻrsatuvchi tadbirkor.
25. Tovar - ishlab - chiqaruvchi faoliyatining isteʼmolchiga shartnoma buyicha sotish uchun muljallangan maxsuloti.
26. Sotuvchi - oldi - sotdi shartnomasi buyicha isteʼmolchiga tovar realizatsiya qiladigan korxonona, tashkilot, muassasa yoki yakka tadbirkor.
27. Yaroqlilik muddati - muayyan davr boʻlib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli boʻladi va u tamom bulgach, tovar odamlar xayoti va sogligi uchun xavf tugʻdirishi mumkin.
28. Zarar - fuqarolik huquqida bir shaxsning qonunga xilof harakati yoki harakatsizligi tufayli ikkinchi shaxsga yetkazgan pul shaklidagi ziyon.
29. Mehnat shartnomasi - ish beruvchi bilan xodim oʻrtasidagi kasbga oid yozma kelishuvdir.
30. Intizomiy jazo - ish beruvchi tomonidan xodimning ichki Mehnatqoidalarini buzganligi uchun qoʻllanilishi mumkin boʻlgan choralar.
31. Boshqa ishga oʻtkazish - Mehnat shartnomasi shartlaridan birining oʻzgartirilishi
32. Jamoa shartnomasi - bu korxonada ish beruvchi va xodimlar oʻrtasidagi Mehnat, ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni normativ xujjat.
33. Mehnatga layoqatlilik - inson salomatligiga bogʻliq boʻlgan Mehnat faoliyatiga qobillik.
34. Mehnatni muxofaza qilish jamgarmalari - Mehnatni muxofaza qilishga doir tadbirlarni mablag bilan taʼminlash manbai boʻlib xizmat qiluvchi jamgarmalar.
35. Aliment - voyaga yetmagan, shuningdek voyaga yetgan Mehnatga layoqatsiz, yordamga muxtoj shaxslarga taʼminot berish majburiyati

36. FXDYO - fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish
37. OITS - odam immuniteti tansiqiligi virusi
38. Nikox shartnomasi - nikoxlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikoxida bo'lgan davrida va er - xotin nikoxdan ajratilgan taqdirida ularning mulkiy huquqhamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi
39. Qarindoshlik - bu umumiy tartibda uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar.
40. Nikoxni qayd etish - nikoxlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshiriladi.
41. Fuqarolik holati dalolatnomalari - fuqarolar xayotidagi, tug'ilish, o'lim, nikox tuzish , nikoxdan ajralish kabi voqea hamda faktlarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishidir.
42. Vasiylik va homiylik - ota - onasining qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi
43. Farzandlikka olish - faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina ko'zlab yul quyiladi
44. Ekotsid - xayvonot va o'simliklar dunyosini yoppasiga qirib tashlash, atmosfera va suv resurslarini zaharlash, shuningdek, ekologik inkirozlar keltirib chiqaradigan boshqaharakatlarni amalga oshirish.
45. Ekologik urush - raqibga uning hududiga ta'sir qilish orqali zarar yetkazish. Bu BMT tomonidan man qilingan.
46. Ekologik sug'urta - ko'ngilli davlat ekologik sug'urtasi.
47. Ekologik jamgarmalar - budjetdan tashqari davlat jamgarmalari. Ular kechiqtirib bo'lmaydigan tabiiy muxofaza vazifalarini bajaradilar.
48. Ekologik ofat zonalari - O'zb. Res. hududiy uchastkalarida xo'jalik va boshqa faoliyat natijasida faunalar va floralar buzilishi, tabiiy ekologik tizimni vayron qilish natijasida tabiiy muvozanatning buzilishi.
49. Alibiya - jinoyat sodir etilgan paytda ayblanuvchining boshqa joyda bulishi.
50. Gipoteza - huquq normasini qullashsharti, biron - bir huquqqa ega bulish.
51. Deportatsiya - jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburan chiqarib yuborish.
52. Kontrabanda - tovar, valuta va boshqa kimmatbaxo buyumlarni gayriqonuniy yul bilan davlat chegarasidan olib utish.
53. Psixopatiya - ruxiy azoblanish.
54. Terrorizim - jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat xalqning tinchligini buzish.
55. Iqtisodiy josuslik - qonunga xilof ravishda iqtisodiyot, tijorat, ishlab chiqarish soxasidagi ma'lumotlarni o'z manfaatlarini uchun olish va foydalanish.
56. Xaqer - begona kompyuter tizimlariga kirish va ulardan axborotlar olish, noqonuniy ravishda dasturli maxsulotlar himoyasini buzish va ulardan nusxa kuchirish.
57. Xususiy huquq –umumiy manfaatlarini tartibga soluvchi va muxofaza qiluvchi ommaviy huquqdan farqli ularoq xususiy manfaatlarini munosabatlarni ifodalovchi hamda yakka mulkdorlar va birlashmalarni ularning mumkin faoliyatidagi va shaxsiy munosabatlaridagi mustaqilligi va tashabbusiga asoslangan munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmoqlaridan biridir.
58. Xalqaro kafolat - xalqaro huquqda xalqaro majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq huquqiy normalar yigindisidir.
59. Kuch ishlatish - BMT Ustaviga asosan harbiy vaziyatlarda tomonlarning harakatlari tushuniladi.
60. Indent - agent - chegara ortida vositachilik asosida xorijiy mol yetkazib beruvchidan kelib tushadigan tovarlarni sotish buyicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi agent.
61. Absolyut - mutloqan. (bir narsada mutlakon xulosa chiqarish)
62. Metodologiya - biron bir narsani o'rganish.

63. Parlament - Konstitutsiyali davlatlarda qonunchiqaruvchi Oliy majlis vakillar majlisi.
64. Konstitutsiyaviy huquq fani - huquqshunoslik sohasini o'rgatadigan fan.
65. Siyosiy rejim – davlat xokimiyatini amalga oshirish usul va yo'llarning majmuasi, mamlakatdagi siyosiy vaziyati, ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holati.
66. Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq - atvor qoidalarining tizimi.
67. Konstitutsiyaviy tuzum - insoniyat ijtimoiy turmushining buyuk talabi, umum e'tirof etgan hayot shakli hisoblanadi.
68. Suveren - mustaqillik, davlatning ichki va tashqi munosabatlarida boshqa davlatdan to'la mustaqil bo'lishi.
69. Kontseptsiya - nazariy qarashlar tizimi, ya'ni yangi qonunlar tizimini ishlab chiqish.
70. Qonun - umumxalq ovoz berishi (referendum) orqali yoki mamlakatning Oliy vakillik organi (Oliy Majlis) tomonidan qabul qilingan normativ - huquqiy hujjat.
71. Demokratiya - bu konstitutsiya va qonunlar doirasida erkinlik demakdir.
72. Davlat - bu uchta asosiy, ya'ni: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy huquqiy nazariya yondashuvining mavjudligi.
73. Fuqorolik jamiyati - haqiqiy fuqorolardan, ya'ni uzviy bog'likda bo'lgan holda ahloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.
74. Akt - huquqiy hujjat, dalolatnoma.
75. Fakultativ - ixtiyoriy, majburiy bo'lmagan.
76. Kodifikatsiya - qonunlar majmuasini tuzish .
77. Reglament - davlat hokimiyat organi tarkibini, mavqeini, faoliyatini belgilaydigan huquqiy hujjat.
78. Konstitutsiyaviy tuzum - insoniyat ijtimoiy turmushining buyuk talabi, umum e'tirof etgan hayot shakli hisoblanadi.
79. Suveren - mustaqillik, davlatning ichki va tashqi munosabatlarida boshqa davlatdan to'la mustaqil bo'lishi.
80. Kontseptsiya - nazariy qarashlar tizimi, ya'ni yangi qonunlar tizimini ishlab chiqish.
81. Huquq va erkinliklar – bu davlat tomonidan o'rnatilib, konstitutsiyada qayd qilingan, har bir fuqaroga o'zining xatti - harakatini tanlash, unga berilgan imtiyozlardan shaxsiy hayotida va jamoat ishlarida qatnashishi uchun foydalanish imkoniyati.
82. Siyosiy huquqlar – fuqorolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish.
83. Burch - bu davlat tomonidan belgilanib har bir fuqaro bajarilishi zarur bo'lgan, bajarmasligi esa javobgarlikka olib keladigan xatti - harakatlar va yashash tarzi qoidalari.
84. Sha'n - shaxsning ajralmas va boshqalarga o'tkazib bo'lmaydigan huquqi bo'lib, bu insoning obru - e'tiboridir.
85. Qadr - qimmat - bu shaxsning ichki o'zini - o'zi baholash mezonini va jamiyatning unga bergan bahosi o'zaro biri - biriga bog'langan mezonlardir.
86. Standart – o'lchov ya'ni mezon.
87. Soliq –fuqorolarning qonunga ko'ra davlatga to'laydigan majburiy to'lovdur.
88. Mudofaa – davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligi, aholining tinchhayot kechirishi ta'minlashga qaratilgan siyosiy – iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy - huquqiy tadbir bo'lib, ya'ni qurolli tajavo'zlardan himoyalanihdur.
89. Mulk - ishlab chiqarishning zarur sharti va ishlab chiqarilgan boyliklarning o'zlashtirilish natijasi.
90. Mulkni egallash huquqi - mulkni ko'lda yoki unga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirishda imkon beruvchi biron joyda saqlab turish.
91. Mulkdan foydalanishhuquqi - mulkning foydali xususiyatlarini olish, mulkdan iqtisodiy maqsadlarda foydalanish.

92. Mulkni tasarruf etish huquqi - mulkni taqdirini belgilash.

93. Kasaba uyushmasi - ko'ngilli jamoa tashkiloti bo'lib ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab o'z a'zolarining Mehnat va ijtimoiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan mehnatkashlar birlashmasi.

94. Siyosiy partiya - qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilganligi jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatining shakllantirishidan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishini intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini ko'ngilli birlashmasi.

95. Senzura - muayyan axborot berilishiga (nashr qilinishiga) to'skinlik qilish, unga nisbatan ta'qib va cheklov o'rnatish.

96. Davlat tuzilishi - davlatning ma'muriy hududiy bo'linishi tamoyillari va tuzilishini hamda ma'muriy birliklarning yuridik maqomi.

97. Unitar - Davlat tarkibida hechqanday davlat to'zilmalari bo'lmagan yaxlit davlat.

98. Avtonomiya - davlatning muayyan qismining ichki o'zini - o'zi boshqarishi.

99. Federativ - davlatlar Ittifoqi bo'lib uning tarkibiga Ittifoquhuquqlari bilan rasmiy cheklangan, yuridik mustaqillikka ega bo'lgan davlat to'zilmalari.

100. Konfederatsiya - ma'lum bir vazifani bajarish uchun birlashgan mustaqil davlatlar Ittifoqi.

101. Fraktsiya - siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalashmaqsadida to'ziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir.

102. Parlament - frantsuzcha «parler» - gapirmok so'zidan olingan bo'lib, rasmiy so'zlashish joyi ma'nosini anglatadi.

103. Parlament so'rovi - davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yo'zasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish bo'yicha yo'llangan talabnomadir.

104. Deputat so'rovi - ushbu vakillik muassasasining vakolatiga taallukli masalalar bo'yicha tushuntirish va axborot taqdim etish to'g'risida talab bilan mansabdor shaxsga yoki davlat boshqaruv organiga vakillik organi deputatining murojaati.

105. Demarsh - bir davlat tashqi aloqa organlarining boshqa davlatga nisbatan favqulotda chiqishi.

106. Sud'ya - sud organlarida sudga tushgan ishlarni ko'ruvchi, xukm va qaror chiqaruvchi lavozimdagi shaxs.

107. Yuristkonsult - huquq maslaxatchisi.

108. Sud - amaldagi qonunlar asosida va belgilangan protsessual qoidalarga binoan fuqarolik va jinoiy ishlarni, ma'muriy ishlarni ko'radigan davlat organi.

109. Apelyatsiya - shikoyat ya'ni ishni ko'rgan quyi sud yechimini qayta ko'rishni so'rab yuqori sudga murojaat qilish.

110. Arbitraj - hakamlar sudi.

111. Vandalizm - madaniy va moddiy boyliklarni shaFkatsiz yo'qqilish.

112. Ayblanuvchi - qonunda belgilangan tartibda ayblanuvi tarikasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs.

113. Vasiqa - O'zRes. FKga muvofiq mol - mulkka egalik qilishni Tasdiqlovchi dalolatnoma


DAVLAT SHAKLLARI

PEXA

- ▣ 1. Davlatning boshqaruv shakllari
- ▣ 2. Davlatning tuzilish shakllari
- ▣ 3. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari

Davlatning boshqaruv shakli

- **Davlatning boshqaruv shakli deganda**, davlat oliy hokimiyat organlarining tashkil etilishi va ularning aholi bilan o'zaro munosabatlari qanday darajada tashkil etilganligi tushuniladi.
- **Davlat boshqaruv shakli 2 ga bo'linadi.**



Respublika;

- **Parlamental respublika**
(*Avstriya Respublikasi*)



- **Prezidentlik respublikasi**
(*Amerika Qo'shma Shtatlari*)



- **Aralash respublika**
(*Fransiya*)



- **Sotsialistik respublika**
(*Xitoy Xalq Respublikasi*)



PEXAGA 

Monarxiya;

- Mutloq monarxiya (*Saudiya Arabistoni*)



- Cheklangan yoki konstitutsiyaviy monarxiya (*Ispaniya*)



- Noan'anaviy yoki saylab qo'yiladigan monarxiya (*Birlashgan Arab Amirliklari*)



© Microsoft Corporation. All Rights Reserved. © Microsoft Corporation. All Rights Reserved.

PEKAGA 

Davlatning tuzilish shakli

- *Davlatning tuzilish shakli* - davlatning siyosiy va ma'muriy hududiy tuzilishi bo'lib, markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni xarakterlaydigan davlat shaklining tarkibiy qismi

Davlatning tuzilishi

Oddiy

Murakkab

PEЖAΓA

DAVLAT TUZILISHINING ODDIY SHAKLI - UNITAR

UNITAR TUZILISHDAGI DAVLAT YAGONA BO'LIB, TARKIBIY QISMLARI SUVERENITET BELGILARIGA EGA BO'LMAGAN MA'MURIY-HUDUDIY BIRLIKLARDAN IBORAT.

UNITAR DAVLATGA XOS BELGILAR:

> QONUNCHILIK, IJROIYA, SUD HOKIMIYATI ORGANLARI YAGONA TIZIMNING MAVJUDLIGI

> YAGONA KONSTITUSIYA, QONUNCHILIK, SOLIQ, MOLIYA TIZIMLARINING MAVJUDLIGI.

> YAGONA FUQAROLIKNING JORIY ETILGANLIGI

> BARCHA TASHQI MUNOSABATLAR MARKAZIY ORGANLAR TOMONIDAN AMALGA OSHIRILADI.

PEЖAΓA

- Davlat tuzilishining murakkab shakli 2 ga bo'linadi



FEDERATIV DAVLAT

Umumiy belgilari;

- Federatsiya hududi uning alohida subyektlaridan > shtatlar, kantonlar, respublikalar o'lkalar va boshqa hududlardan iborat bo'ladi.
- Federatsiya va uning subyektlari vakolatlari doirasi ittifoq shartnomasida, konstitutsiyasida, o'zaro vakolatlarni chegaralash to'g'risidagi 2 tomonlama shartnomalarda belgilab qo'yilgan bo'ladi.
- Federatsiya subyektlari o'zlarining konstitutsiyalari va qonunchilik tizimiga, oliy qonunchilik, ijro, sud hokimiyatlari tizimiga ega bo'ladi.
- Federativ davlatda ittifoq fuqaroligi bilan bir qatorda subyektlarning ham fuqaroligi mavjud bo'lishi mumkin.
- Federativ davlat parlamenti asosan 2 palatali bo'ladi, yuqori palatali federatsiya subyektlarining manfaatlarini ximoya qiladi.

РЕЖАГА 

KONFEDERATIV DAVLAT

Siyosiy, harbiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda muayyan maqsadlarga erishish uchun tashkil qilinadigan davlatlarning muvaqqat ittifoqi

- Konfederatsiya suverenitetga ega bo'lmaydi, chunki bu tuzilma to'la ichki va tashqi suverenitetga ega bo'lgan mustaqil davlatlarning ittifoqidir.
- Konfederatsiyada markaziy davlat apparati va yagona qonunchilik tizimi mavjud bo'lmaydi

РЕЖАГА ▶

Siyosiy rejim

- ▶ **Siyosiy rejim – bu davlat hokimiyatini amalga oshirishda qo'llaniladigan usul, uslub va vositalar yig'indisidir.**
- ▶ **Not completedyet.**

РЕЖАГА ▶

Mustaqil ish mavzulari.

1. Jamiyat asosi.
2. Fuqarolik jamiyati asosi
3. Ibtidoiy jamoa tuzumining o'ziga xos jihatlari.
4. Jamiyat va davlat urtasidagi munosabatlar
5. Davlatning paydo bulish shart - sharoitlari .
6. Davlatning kelib chiqishiga oid nazariyalar .
7. Davlatning moxiyati.
8. Davlat belgilari .
9. Fuqarolik jamiyati.
10. Davlat funksiyalari.
11. Davlatning ichki va tashqi funksiyalari .
12. Davlat shakli elementlari.
13. Davlat boshqaruvi shakllari .
14. Davlat shakllari.
15. Monarxiya va respublika boshqaruv shakllarining asosiy hususiyatlari.
16. Aralash boshqaruv shaklining xususiyatlari.
17. Davlat qurilishi shakllarini.
18. Unitar davlat va federativ davlat belgilari.
19. Konfederatsiyaning uziga xos jixatlari.
20. Siyosiy rejim.
21. Demokratiyaning o'ziga xos jihatlari.
22. Totalitariz belgilari.
23. Siyosiy rejim.
24. Davlatning tuzilish shakli.
25. Davlat mexanizmi.
26. Davlat organlari.
27. Davlat organlari vakolatlari.
28. Huquqiy davlat.
29. Huquqiy davlatning asosiy belgilari .
30. O'zbekistonda huquqiy davlat qurishning asosiy yo'nalishlari.
31. Huquq sub'ekti.
32. Huquqiy layoqat va muomala layoqati .
33. Huquq sub'ektlarining turlari.
34. Sub'ektiv huquq va yuridik majburiyat.
35. Yuridik fakt.
36. Huquqiy munosabat ob'ekti.
37. Huquqiy munosabatlar turlari.
38. Huquqnormasi.
39. Qonuniylikning mohiyati.
40. Qonuniylik talablari.
41. Qonuniylik prinsiplari.
42. Huquq- tartibot .
43. Qonuniylik va Huquq - tartibot kafolatlari.
44. Huquqbuzarlik.
45. Huquqqa mos xatti – harakat.
46. Huquqbuzarlikning yuridik tarkibi.
47. Huquqbuzarlik turlari.
48. Yuridik javobgarlik .
49. Yuridik javobgarlik asoslari.
50. Huquqiy ong .
51. Huquqiy ong tarkibiy qismlari.

52. Huquqiy mafkura.
53. Huquqiy ongning asosiy funksiyalari.
54. Fuqarolik munosabatlarinihg tartibga solinishi.
55. Fuqaroviy - huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari.
56. Fuqarolik huquqi normalari prinsiplari.
57. Fuqarolik munosabatlarining vujudga kelish sabablari.
58. Huquqiy layoqat .
59. Muomala layoqati.
60. Emansipatsiya.
61. Xomiylik va vasiylikning moxiyati.
62. Yuridik shaxs.
63. Fuqarolik huquqi ob'ektlari.
64. Fuqarolik huquqida bitim
- 65.. Mehnat shartnomasi (kontrakt).
66. Mehnat nizolarini xal etish tartibi.
67. Oila qonunchiligining asosiy tamoyillari.
68. Nikox tuzishning tartibi.
69. Hikoxni haqiqiy emas deb topishni asoslari.
70. Soxta nikox.
71. Nikoxni tugatish sabablari .
72. Nikoxdan ajratish tartibi.
73. FXDY o organlarida nikoxdan ajratish.
74. Sud tartibida nikoxdan ajratish.
75. Er - xotinning huquq va majburiyatlari.
76. Er - xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari.
77. Nikox shartnomasi.

Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish fani buyicha bajariladigan mustaqil ish, referat, og'zaki va yozma ishlarning bajarilishi yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati ularda ilmiy nazariy, ilmiy ijodiy bilimlarning shakllanishiga va ma'lum ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Talaba mustaqil ishini bajarish jarayonida quyidagi bilim va ko'nikmalarni hosil qilishi kerak:

- maxsus ilmiy tushunchalar, ilmiy qarash, ma'naviy, diniy atamalar kategoriyalar egallash;

- fan buyicha chuqur bilimlarga ega bo'lish;

- maxsus ma'naviy, diniy, ilmiy adabiyotlarni o'qish va tushuna olish;

- ilmiy mushoxadi yurita olish, falsafiy munozara, baxslashish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- o'z mustaqil fikriga ega bo'lish;

- o'z faoliyati jarayonida ilmiy dunyoqarashni amalga oshirish.

Talabalarning asosiy mustaqil ishlariga quyidagilar kiradi:

1. Ma'ruza konspekti.
2. Seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
3. O'quv, ilmiy va maxsus adabiyotlar bilan ishlash, manbalarni konspektlashtirish, sharhlash.
4. Oralik va yakuniy nazoratlarga tayyorlanish.
5. Oddiy va elektron kutubxonalarda ishlash, bibliografiya tuzish.
6. Internet orkali axborot yig'ish va uni ishlab chiqish.
7. Kichik ilmiy ish (referat) bajarish.

8. Ilmiy xisobot, doklad, maqola yozish.
9. Ilmiy to'garaklarda, ilmiy anjumanlarda, olimpiadalarda, ijodiy tanlovlarda ishtirok etish.

Ma'ruza konspektlarini olib borishga qo'yiladigan talablar.

1. Kospekt olib borish uchun maxsus daftarlarining borligi.
2. O'rganilayotgan mavzularning barcha konspektlarining borligi.
3. Yangi tushunchalar, ta'riflar, nom va xulosalarni to'lik yozib borilishi.
4. Ma'lumotlarni bayon qilishda mantiqiy izchillik bo'lishi.
5. O'kituvchi berayotgan ma'lumotlarni aniqqilib yoza olishi.

Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishga qo'yiladigan talablar.

1. Seminar mashg'uloti Reja: si bilan tanishish.
2. Ushbu mavzu buyicha eshitilgan ma'ruza konspektini o'qish.
3. Darslik yoki o'quv qo'llanmaning tegishli bo'limi bilan tanishish.
4. Tavsiya qilingan adabiyotlar, birinchi manbalar bilan tanishish.
5. Qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishish.
6. O'qibchiqqanbirinchimanbanikonspektqilish.
7. Seminardamuhokamaqilinmoqchibo'lganmuammoyokisavollarniyozibko'yish.

Talabalarning og'zaki gapirishlariga qo'yiladigan talablar.

1. Ushbu muammo bo'yicha o'z fikriga (munosabatiga) ega bo'lishi;
2. Mavzuni nazariy darajada ilmiy tahlil qilish, fan metodlaridan (tamoyillari, kategoriyalari, umumilmiy va xususiy ilmiy metodlar) foydalanib ochib bera olishi;
3. Ilmiy hayotiy manbalar va ijtimoiy amaliyotdagi misollarga tayangan xolda o'z mavkeini asoslab bera olishi;
4. Ko'rib chiqilayotgan ilmiy fikrlar va qoidalarni rivojlanishda tasavvur qila olish;
5. Ilmiy qarashlarni amaliy qimmatini ko'rsata olish;
6. Gapirayotgan (ma'ruzachi) bilan ilmiy baxslashishga kirisha olish.

Kichik ilmiy ish (referat va yozma ish)ga qo'yiladigan talablar:

Kichik ilmiy ish (referat va yozma ish) mavzuni tanlash, Reja: tuzish, material to'plash, uni o'rganish va tizimlash, ishni rasmiylashtirish kabi boskichlarda olib boriladi.

Mavzuni tanlashda talabning o'z qiziqishiga ushbu mavzuga oid adabiyotlarning borligi, ilmiy ishlanganlik darajasi, amaliy ahamiyatiga e'tibor berish kerak. Reja: tuzayotganda batafsil har bir paragraf buyicha savolnomalar yozib chiqish, ularni manbalar va adabiyotlar bilan ta'minlanganligiga e'tibor qilish kerak.

Material to'plashda mavzu bilan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, komusiy lug'atlar yordamida umumiy tanishib chiqiladi. Bunda tanlangan mavzuning fandagi o'rni, xronologik chegarasi, uning boshqa mavzular bilan o'zaro aloqadorligi, muammo bo'yicha manbalarni aniqlash, ilmiy adabiyotlarni nashr yili yoki alifbe ketma - ketligida joylashtirish lozim.

Reja asosida mavzu ustida ishlashda uning dolzarbligiga ahamiyat berib manbalar va adabiyotlar ishlab chiqiladi. Ulardan olingan ma'lumotlarning mualliflari, asarning nomi, betlari albatta ko'rsatilishi kerak.

Referat va yozma ishni rasmiylashtirishda unda titul varaqi, kirishqismi, bo'limlari, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'lishiga e'tibor berish kerak. Referat qo'lyozma shaklida bajarilishi va himoya qilinishi lozim.

Talabalarning og'zaki va yozma ishlariga qo'yiladigan umumiy talablar:

1. Ilmiy tushunchalar, ilmiy so'z boyligiga ega bo'lishi;
2. Javobning to'liqligi, uning asoslanganligi, va isbotlanganligi, tizimliliigi;
3. Nazariyani amaliyot bilan bog'lay olish.

M u n d a r u j a.

1. Kirish-----	1-3 bet.
2.«Huquqshunoslik « fanidan namunaviy dastur _____	4-17 bet
3.» O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish»o'quv kurcidan namunaviy dastur _____	18-32bet 4.
4.«Huquqshunoslik va O'zbekiston Respublikasini Konstitusiyasini o'rganish» fanidan ishchio'quvdasturi _____	33-60 bet
5.» O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish» fanidan reyting nazorat jadvali va baholash mezonlari-----	36-37 bet
6. .«Huquqshunoslik va O'zbekiston Respublikasini Konstitusiyasini o'rganish» fanidan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari-----	56-58 bet
7. .«Huquqshunoslik va O'zbekiston Respublikasini Konstitusiyasini o'rganish» fanidan ta'lim texnologiyalari-----	58-71 bet
7. .«Huquqshunoslik va O'zbekiston Respublikasini Konstitusiyasini o'rganish» Fanidan test savollari-----	72-80 bet
8. .«Huquqshunoslik va O'zbekiston Respublikasini Konstitusiyasini o'rganish» fanidan ma'ruzalar matni-----	81-321 bet
9.1-mavzu.Davlat va huquq nazariyasi asoslari-----	83-93 bet
10.2-mavzu.Ma'muriy huquq asoslari-----	93-99 bet
11.3-mavzu.Moliy huquqi asoslari-----	100-108 bet
12.4-mavzu.Fuqarolik huquql asoslari-----	109-121 bet
13.5-mavzu.Tadbirkorlik huquqi asoslari-----	121-144 bet
14.6-mavzu.Mehnat huquqi asoslari -----	144-155 bet
15.7-mavzu.Qishloq xo'galigi huquqi asoslari -----	155-181 bet
16.8-mavzu.Oila huquqi asoslari -----	181-189 bet

17.9- mavzu.Ekologiga huquqi asoslari -----	189-197 bet
18.10-mavzu.Jinoyat huquqi asoslari -----	197-206 bet
19.11-mavzu.Xalqaro huquqi asoslari -----	207-216bet
20.12-mavzu.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursi uning maqsad va vazifalari-----	216-222 bet
21.13-mavzu.Konstitutsiya tushunchasi va mohiyati-----	222-228 bet
22.14-mavzu.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi-----	228-236 bet
23.15-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillari-	236-247 bet
24.16-mavzu. O'zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari,erkinliklari va burchlari-----	247-254 bet
25.17-mavzu. O'zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining konstitutsiyaviy belgilari-----	255-261 bet
26.18-mavzu. O'zbekiston Respublikasining milliy davlat va ma'muriy hududiy tuzilishi-----	261-267 bet
27.19-mavzu. O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va saylov tizimi-----	267-284 bet
28.20-mavzu. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik hokimiyatining amalga oshirilishi va Konstitutsiyaviy asoslari-----	284-296 bet
29.21-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy huquqiy maqomi-----	296-302 bet
30.22-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlari-----	302-309 bet
31.23-mavzu. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi-----	310-321 bet
32.Glossariy-----	322-325 bet

33.«Huquqshunoslik va O'zbekiston Respublikasini Konstitusiyasini o'rganish»

fanidan slaydlar-----326-331 bet

34. «Huquqshunoslik va O'zbekiston Respublikasini Konstitusiyasini o'rganish»

fanidan mustaqil ish mavzulari-----332-333 bet

35. Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish fani buyicha

bajariladigan mustaqil ish, referat, og'zaki va yozma ishlarning bajarilishi yuzasidan uslubiy

ko'rsatmalar-----333-334 bet